

QO'QON UNIVERSITETI

O'zbekiston Respublikasi
davlat mustaqilligining
30 yilligiga bag'ishlanadi!

ZUXRA RADJAPOVA

BOLALAR SAN'ATI

(Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma)

TOSHKENT – 2022



UO'K: 331.526(083.7)
KBK 56.1
M 34

Z.Radjapova. Bolalar san'ati (*Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma*) – [Matn] / – T.: «.....», 2022. 300 bet.

ISBN: 978-9943-

Mazkur o'quv qo'llanmada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida estetik tarbiyani tashkil etish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bayram va ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish metodikasi, maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatini hamda dunyoqarashini shakllantirish xususida so'z yuritilgan. Alohida e'tibor maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalashda musiqa, qo'g'irchoq teatri, badiiy adabiyot, nutq hamda tasviriy faoliyatning ahamiyati, o'rni va rolini ko'rsatib berishga qaratilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bayram va ommaviy tadbirlarni samarali tashkil etish va o'tkazish omillari ko'rsatib berilgan.

O'quv qo'llanma oliy ta'lim muassasalarining o'qituvchilari va talabalari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyachilari, ilmiy tadqiqotchilar, shuningdek, bolalar san'ati masalalariga qiziqqan shaxslar uchun mo'ljallangan.

UO'K: 331.526(083.7)
KBK 56.1

O'quv qo'llanma Qo'qon universiteti Kengashining 2022-yil 15-martdagi 7-son qaroriga muvofiq nashr etildi.

Taqrizchilar:

- B.X.Xodjayev – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti «Uzluksiz ta'lim pedagogikasi va menejmenti kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor
N.A.Sultonova – Qo'qon universiteti "Ta'lim" kafedrasi katta o'qituvchisi

ISBN: 978-9943-

© «.....», 2022.



MUNDARIJA

SO'Z BOSHI	6
I BOB. "BOLALAR SAN'ATI" O'QUV FANINING TARKIBIY ASOSLARI. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA ESTETIK TARBİYANI TASHKIL ETISH	8
1.1. "Bolalar san'ati" fanining maqsadi, obyekti va predmeti. Bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari	8
1.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalash.....	25
1.3. Estetik tuyg'uning rivoji – tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida.....	44
II BOB. MAKTABACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MUSIQA TA'LIMINI TASHKIL ETISH METODIKASI	69
2.1. Musiqa bolalarning estetik idrokini shakllantiruvchi vosita sifatida	69
2.2. Musiqa mashg'ulotlarida qo'shiq o'rgatish metodikasi, yangi ashulani o'rgatishdagi asosiy jarayonlar (vokal, jamoa malakalarini o'stirish)	83
2.3. Maktabgacha yoshdagi bolalarga musiqa jo'rligida harakatlanishga o'rgatish	92
III BOB. MAKTABACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BAYRAM VA OMMAVIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH METODIKASI	104
3.1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bayram va ommaviy tadbirlarni o'tkazish	104
3.2. Maktabgacha ta'limda turli yoshdagi teatr faoliyati bo'yicha mashg'ulotlarning asosiy vazifalari	120
3.3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'g'irchoq teatrini o'tkazish.....	127
3.4. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertaklarni sahnalashtirish metodikasi	138
IV BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQ MADANIYATINI HAMDA DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH	150
4.1. Badiiy adabiyot vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni san'atga bo'lgan qiziqishlarni shakllantirish.....	150
4.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatini shakllantirish yo'llari.....	170
V BOB. MAKTABACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TASVIRIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISH	181
5.1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning dunyoqarashini shakllantirishda tasviriy faoliyatning ahamiyati	181
5.2. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalarni ranglar bilan tanishtirish usullari	196
5.3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiiy materiallardan applikatsiya va mozika mashg'ulotlarni o'tkazish texnologiyalari	211
5.4. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarda tabiiy materiallardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	233
XOTIMA	259
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	263
GLOSSARIY	270
TEST TOPSHIRIQLARI	275

СОДЕРЖАНИЕ

ПРЕДИСЛОВИЕ	6
ГЛАВА I. СТРУКТУРНЫЕ ОСНОВЫ УЧЕБНОЙ ДИСЦИПЛИНЫ “ДЕТСКОЕ ТВОРЧЕСТВО”. ОРГАНИЗАЦИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ	8
1.1. Цель, объект и предмет учебной дисциплины “Детское творчество”. Теоретические основы развития творческих способностей.....	8
1.2. Эстетическое воспитание дошкольников	25
1.3. Развитие эстетического чувства - как важная составляющая часть воспитания	44
ГЛАВА II. МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ	69
2.1. Музыка как средство формирования эстетического понимания детей.....	69
2.2. Методика обучения пению на занятиях музыки, основные процессы обучения новой песне (развитие вокала и умения работать в команде).....	83
2.3. Методика обучения музыкально-ритмическим движениям детей дошкольного возраста	92
ГЛАВА III. МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ И ПРОВЕДЕНИЯ ПРАЗДНИКОВ И ОБЩЕСТВЕННЫХ МЕРОПРИЯТИЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ	104
3.1. Проведение праздников и общественных мероприятий в дошкольных образовательных организациях.....	104
3.2. Основные задачи занятий по театрализованной деятельности в разновозрастных группах в дошкольного образования	120
3.3. Проведение кукольного театра в дошкольных образовательных организациях.....	127
3.4. Методика постановки сказок в дошкольных образовательных организациях.....	138
ГЛАВА IV. ФОРМИРОВАНИЕ РЕЧЕВОЙ КУЛЬТУРЫ И МИРОВОЗЗРЕНИЯ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА	150
4.1. Формирование интереса у детей дошкольного возраста к искусству через художественную литературу.....	150
4.2. Способы формирования речевой культуры у детей дошкольного возраста	170
ГЛАВА V. ОРГАНИЗАЦИИ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ	181
5.1. Значение изобразительной деятельности в формировании мировоззрения у детей дошкольного возраста.....	181
5.2. Способы приобщения детей к цветам на занятиях по изобразительной деятельности.....	169
5.3. Технологии проведения занятий по аппликации и мозаике из натуральных материалов в дошкольных образовательных организациях.....	211
5.4. Дидактические возможности использования натуральных материалов на занятиях по изобразительной деятельности	233
ЗАКЛЮЧЕНИЕ	259
ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА	263
ГЛОССАРИЙ	270
ТЕСТЫ	275



CONTENT

FOREWORD	6
CHAPTER I. STRUCTURAL BASICS OF THE EDUCATIONAL DISCIPLINE “CHILDREN’S CREATIVITY”. ORGANIZATION OF AESTHETIC EDUCATION IN PRE-SCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS	8
1.1. Purpose, object and subject of the discipline “Children’s creativity”. Theoretical basics of developing creative abilities.....	8
1.2. Aesthetic education of pre-school children	25
1.3. Developing the aesthetic sense - as an important component of education	44
CHAPTER II. METHODOLOGY OF ORGANIZATION OF MUSIC EDUCATION IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS	69
2.1. Music as a means of forming children’s aesthetic understanding	69
2.2. The method of teaching singing in music lessons, the main processes of learning a new song (development of vocals and the ability to work in a team)	83
2.3. Methods of teaching musical-rhythmic movements to pre-school children	92
CHAPTER III. METHODOLOGY OF ORGANIZING AND HOLDING HOLIDAYS AND PUBLIC EVENTS IN PRE-SCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS	104
3.1. Celebrating holidays and social events in preschool educational institutions	104
3.2. The main tasks of classes on dramatic activities in different age groups in pre-school education	120
3.2. Performing a puppet play in pre-school educational institutions	127
3.4. Methodology of staging fairy tales in pre-school educational institutions	138
CHAPTER IV. FORMING PRE-SCHOOL CHILDREN’S SPEECH CULTURE AND WORLDVIEW	150
4.1. Forming pre-school children’s interest in art through fiction	150
4.2. Methods of forming pre-school children’s speech culture	170
CHAPTER V. ORGANIZATIONS CREATIVE ACTIVITIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS	181
5.1. The significance of fine art activities in forming pre-school children’s worldview	181
5.2. Ways of introducing colors to children in fine art activities.....	196
5.3. Technologies of conducting classes on applications and mosaics from natural materials in pre-school educational institutions	211
5.4. Didactic capacity of using natural materials in fine art classes.....	233
CONCLUSION	259
REFERENCES	263
GLOSSARY	270
TESTS	275

SO‘Z BOSHI

Shaxsni tarbiyalashda uning estetik jihatdan kamol topishiga alohida e‘tibor qaratiladi. Insoniyat bu borada juda qadim tarixga ega. Pedagogik fikrlarning tarixiy taraqqiyotida shaxsning borliqqa, atrof-muhitga, tabiatga, inson mehnati hamda uning natijalariga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lishi unda estetik ong va madaniyatni shakllantirishga ham borliq ekani tasdiqlangan. Shaxs tarbiyasiga estetik yondashish orqali uning hissiyotlari tarbiyalanadi: tabiatni butun go‘zalligi bilan qabul qiladi, uni asrashga intiladi, atrofdagilarga xurmat va muhabbat bilan munosabatda bo‘ladi, ularning hissiy kechinmalarini tushuna oldi, qayg‘uli damlarda ularga dalda bera oladi, quvonchli kunlarda ularning shodligiga sherik bo‘ladi, eng muhimi inson mehnati va uning natijalarini qadrlaydi.

Qolaversa, har bir shaxs u yoki bu turdagi ijodiy qobiliyatga ega bo‘lib, uni rivojlantirish bevosita estetik ta‘lim va tarbiya asosida amalga oshiriladi.

Shu sababli juda qadimdan shaxsni estetik tarbiyalashga, bu jarayonda san‘atning barcha turlari, xususan, badiiy adabiyot, qo‘shiq, musiqa, raqs, xalq amaliy san‘atining, shuningdek, tabiatning badiiy-estetik ta‘siridan foydalanishga alohida e‘tibor qaratilgan.

Asrlar davomida shakllangan pedagogik tajribaning ko‘rsatishicha, shaxsni estetik tarbiyalash bolalikdanoq amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Binobarin, bolalik davri borliqni estetik idrok qilish, shaxsda estetik did va qobiliyatni rivojlantirish uchun poydevor qo‘yadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida”gi (2019-yil 14-dekabr) Qonuni¹ga ko‘ra “har bir bolaning iste‘dodi nishonalarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi” tamoyili asosida tarbiyalanuvchilarning ijodiy qobiliyatini aniqlash va rivojlantirish, badiiy-estetik didi, idroki hamda dunyoqarashini rivojlantirish maqsadga muvofiqligi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari”², “Ilk qadam” maktabgacha ta‘lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi³ hamda “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”⁴ga muvofiq maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida musiqa ta‘limi (qo‘shiq kuylash va raqs), qo‘g‘irchoq teatri, tasviriy faoliyatning badiiy-estetik imkoniyatlaridan foydalanish, shuningdek, bolalarni badiiy adabiyot orqali folklor janri bilan tanishtirish pedagogik jarayonning asosiy yo‘nalishlari sifatida tanlangan. Mazkur yo‘nalishlarda maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida pedagogik faoliyatni samarali olib borish uchun metodik ta‘minotni yaratish talab qilinadi.

¹ O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida”gi (2019-yil 14-dekabr) Qonuni // <https://lex.uz/docs/4646908>.

² “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” // <https://lex.uz/docs/5179335?query>.

³ “Ilk qadam” maktabgacha ta‘lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi. – T: YUNISEF, 2018. – 72 b.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi // <https://lex.uz/docs/4327235>.



Ayni vaqtda respublikada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa ta'limi (qo'shiq kuylash va raqs), qo'g'irchoq teatri, tasviriy faoliyatning badiiy-estetik imkoniyatlaridan foydalanish, shuningdek, bolalarni badiiy adabiyot orqali folklor janri bilan tanishtirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni izchil, tizimli, maqsadli tashkil qilishni kafolatlovchi amaliy -metodik ishlanmalar, tashkiliy ko'rsatmalarning ishlab chiqilishiga nisbatan katta ehtiyoj mavjud. Ana shu ehtiyojni qondirish maqsadida "Bolalar san'ati" o'quv qo'llanmasi yaratildi.

Mazkur o'quv qo'llanmada maktabacha ta'lim tashkilotlarida estetik tarbiyani tashkil etish, maktabacha ta'lim tashkilotlarida musiqa ta'limini tashkil etish hamda maktabacha ta'lim tashkilotlarida bayram va ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish metodikalari, maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatini hamda dunyoqarashini shakllantirish masalalari yoritilgan.

"Bolalar san'ati" o'quv qo'llanmasining tarkibiy tuzilmasidan o'rin olgan mavzular nazariy hamda amaliy xarakteriga ega. O'quv qo'llanmaning mundarijasiga glossariyning kiritilganligi talabalar tomonidan akademik bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga yordam beradi.



I BOB. “BOLALAR SAN’ATI” O’QUV FANINING TARKIBIY ASOSLARI. MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA ESTETIK TARBIYANI TASHKIL ETISH

1.1. “Bolalar san’ati” fanining maqsadi, obyeksi va predmeti. Bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari

Reja:

1. “Bolalar san’ati” fanining maqsadi, obyeksi va predmeti. Ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari va muammolari.
2. Ijod, ijodiyot va ijodkorlik tushunchalari.
3. Ijodkorlik qobiliyati mazmuni.

Tayanch tushunchalar: ijod, ijodiyot, ijodkorlik, qobiliyat, ijodkorlik qobiliyati, rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori // <https://lex.uz/docs/4327235>.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son (2020-yil 22-dekabr) Qarori // <https://lex.uz/docs/5179335?query>.

3. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi // <https://lex.uz/docs/4327235>.

4. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari // <https://lex.uz/docs/5179335?query>.

6. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi. – T: YUNISEF, 2018. – 72 b.

7. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standarti // <https://lex.uz/docs/5179335?query>.

8. Maktabgacha pedagogika / Darslik. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpulatova, N.M.Kayumova, M.N.A‘zamova. – T: “Tafakkur” nashriyoti, 2019. – 688 b.

1. “Bolalar san’ati” fanining maqsadi, obyeksi va predmeti. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning nazariy asoslari va muammolari. Maktabgacha yosh intensiv psixologik yetuklik bosqichi bo‘lgan ijodkorlikni rivojlantirish uchun eng qulay davr. Aynan shu davrda ko‘p sohalarda progressiv o‘zgarishlar ro‘y beradi, aqliy jarayonlar (diqqat, xotira, tafakkur, nutq, tasavvur) takomillashadi, shaxsiy fazilatlar rivojlanadi, ular asosida qobiliyat, moyillik shakllanadi.



Ota-onalar o'z farzandlarini ijodkor shaxs bo'lib voyaga etishini xohlaydi. Shu sababli yoshlikdanoq ularning ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga e'tibor qaratadi. Binobarin, "barcha bolalar istisnosiz potensial ijodkorlardir. Badiiy ijodkorlik va tasviriy san'atni o'rganish bo'yicha mashg'ulotlar har bir bolada yashiringan ijodiy qobiliyatlarni "uyg'otish"ga, ijodiy layoqatni ro'yobga chiqarishga yordam berishga harakat qiladi⁵.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning deyarli barchasi turli harakatlar –rasm chizish, qo'shiq aytish, raqsga tushish, jismoniy faollikni ifodalovchi harakatlarni tashkil etish orqali o'z ijodiy qobiliyatlarini u yoki bu darajada namoyon qiladi. Bu yoshdagi bolalarning ijodkorligi ulardagi erkinlik, faollik, o'z xohish-istaklari, xatti-harakatlarini cheklamaslik bilan bog'liq. Qolaversa, atrof-borliqni bilishga bo'lgan intilish ulardagi qiziquvchanlikni rivojlantiradi. Kattalarga taqliq qilish odatlari esa san'atning turli janrlari bo'yicha kattalar yoki tengdoshlarining harakatlarini o'zlashtirish uchun imkon beradi. Qiziquvchanlik va taqlid asta-sekin maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda san'atning turli sohalarini bo'yicha qobiliyatni rivojlantirishga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning san'atning turli sohalariga bo'lgan qiziquvchanliklari hali barqaror sifat emas. Izchil ravishda bu qobiliyatni rivojlantirib bormaslik esa uning pasayishiga olib keladi. Pedagogik yondashuv bolalarning ijodiy qobiliyatlarini tizimli ravishda, izchil, uzluksiz rivojlantirib borishni taqozo etadi.

Shu jihatdan turli yo'nalishlar bo'yicha bolalarning ijodiy faoliyatini o'z ichiga oladigan bolalar san'ati o'ziga xos ahamiyat kasbetadi. "Bolalar san'ati" tushunchasining mohiyatini anglash uchun dastlab "san'at" atamasining nazariy tavsifidan xabardor bo'lish talab qilinadi.

San'at – ijtimoiy madaniyatning estetik zavq beruvchi, voqelikni badiiy obrazlar vositasida aks ettiruvchi ayrim sohalarini⁶.

Bu sohalar sirasiga milliy hunarmandchilik, musiqa, rassomlik, badiiy adabiyot, teatr, kino, qo'shiqchilik, dizayn kabilar kiradi. "San'at" tushunchasiga berilgan ta'rif asosida, shuningdek, bolalarning ijodiy faoliyati mazmuniga tayangan holda "bolalar san'ati" atamasining mazmunini yoritish mumkin.

Bolalar san'ati – bolalarning badiiy obrazlarni yaratish, badiiy-estetik mazmundagi asarlar (kuy, qo'shiq, raqs, sahna asari)ni ijro etish maqsadida tashkil etilgan faoliyati.

Pedagogik (ta'limiy va tarbiyaviy) imkoniyatiga ko'ra bolalar san'ati yordamida bolalar ijtimoiy va tabiiy borliqni ular uchun "yangi bo'lgan vositalar yordamida o'rganadi, o'zi hamda atrofdegilar uchun mutlaqo yangi, o'ziga xos ijod namunalarni yaratishga muvaffaq bo'ladi"⁷. "Bolalar san'ati" tushunchasi ko'p holatlarda "bolalar

⁵ Комольцева В.А. Развития творческих способностей у дошкольников //Ж. Сургутский педагогический вестник. – Сургут: 2011. - № 1-2. – С. 139.

⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Н – Тартибли / 5 жилдли. Учинчи жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. Таҳрир ҳайъати: Э.Бегматов. – Т: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2008. – 442-б.

⁷ Киргинцева А.О., Шанц Е.А. Детское творчество как способ развития конструктивной деятельности дошкольников //https://scienceforum.ru/2018/article/2018005706.



ijodiyoti” (arabcha “ijodiyot” – ijodiy ish bilan bog‘liq faoliyat) sifatida ham talqin qilinadi.

Bolalar san‘ati 3 yoshdan boshlab 11⁸ (ayrim o‘rinlarda 12⁹) yoshgacha bo‘lgan yosh davri bolalarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bolalarning yosh davrlari fiziologik, psixologik hamda pedagogik nuqtayi nazardan ikki asosiy guruhga ajratiladi: 1) maktabgacha ta‘lim yoshi davri (3-6 (7) yosh); 2) boshlang‘ich ta‘lim davri (7-11 yosh).

Bolalar tomonidan tashkil etilgan faoliyatining mustaqil shakli hamda bolalarni badiiy-estetik tarbiyalashning asosiy vositasi bo‘lgan bolalar san‘ati o‘z ichiga bir nechta badiiy-estetik xarakterga ega yo‘nalishlarini qamrab oladi. Ular:

1. Badiiy ijodiyot. U loy, plastelin va qog‘oz bilan ishlash (applikatsiya), ertaklar asosida sahna asarlarini ijro etish, badiiy o‘qish (she‘rlarni ifodali o‘qish, ertaklarni ifodali hikoya qilish), tez aytish, rasm chizish, tabiiy materiallar – urug‘, don, barg, daraxt (bambuk) shohi, chig‘anoq, somon, paxta, qurigan o‘simliklardan applikatsiya, tashlandiq materiallar – qog‘oz, karton, plastik idishlar, mato qirqimlaridan o‘yinchoqlarni, qurilish materiallari – penoplast, plastina, yog‘och bo‘laklari), geometrik shakllar – kub, silindr, to‘rtburchak, doira, shuningdek, “Mozaika” to‘plami kabilardan turli predmetlarni qurish, yasash kabilardan tarkib topadi.

2. Texnik ijodkorlik. U konstruktiv vositalar (lego-konstruktor, turli predmetlarning bo‘laklangan qismlari)dan badiiy-texnik buyumlarni yasash kabilardan asosida tashkil etiladi. Lotinchada “construere” tushunchasi “predmetlar va ularning alohida qismlarini qat‘i belgilangan tartibda joylashtirish”¹⁰ ma‘nosini anglatadi.

3. Musiqa san‘ati. U o‘z ichiga kuy ijro qilish, qo‘shiq kuylash va raqsga tutish kabilarni oladi. O‘z mohiyatiga ko‘ra musiqa san‘ati bolalarda badiiy-estetik didni, ohanglarni tinglash va anglash, qo‘shiq kuylash, raqsga tushish, turli musiqa asboblari (metallofon, ksilofon, baraban, buben, marakas, truba, surnay, garmoshka, hushtak, rumba, shaqildoq, garmoshka, nog‘ara, bolalar klaviaturasi, dutor, rubob, doira, nay, chang, fortepiano, skripka, baraban)da kuy ijro qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Raqs san‘ati bolalarni jismoniy jihatdan kamol toptirishga yordam beradi. Natijada bolalar chidamli, gavdani to‘g‘ri tutish, muvozanatni ushlab, harakatlarning o‘zaro muvofiq bo‘lishiga erishish kabilarni o‘zlashtiradi¹¹.

Bolalar san‘ati, eng avvalo, bolalarni ijodkorlikka o‘rgatadi. Ijodkorlik esa bolaga o‘z “Men”ini, “o‘z individualligini topishga yordam beradi, unda o‘zini o‘zi munosib baholash ko‘nikmasini hosil qiladi”¹².

Maktabgacha ta‘lim muassasasi (MTM)da bolalar san‘ati bo‘yicha pedagogik faoliyatni tashkil etish o‘ziga xos murakkab jarayon bo‘lib, izchillik, uzluksizlik,

⁸ Возрастная периодизация // https://ru.wikipedia.org/wiki/Возрастная_периодизация.

⁹ Фомина Н.Н. Детское творчество // https://bigenc.ru/fine_art/text/1950268.

¹⁰ Конструкция // <https://tolslovar.ru/k8137.html>.

¹¹ Виды детского творчества и их роль в развитии малыша // <https://www.vospitaj.com/blog/vidy-detskogo-tvorchestva-i-ikh-rol-v-razvitii-malysha>.

¹² Тот источник: Виды детского творчества и их роль в развитии малыша // <https://www.vospitaj.com/blog/vidy-detskogo-tvorchestva-i-ikh-rol-v-razvitii-malysha>.



tizimlilikni taqozo qiladi. Mazkur jarayonning samarali kechishi bolalarning ijodiy faoliyatini ilmiy-nazariy va amaliy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilinishiga bog'liq. Buning uchun bo'lajak tarbiyachi-pedagoglardan bolalar san'ati va uning metodologik asoslaridan xabardor bo'lishlari zarur. Pedagogik yo'nalishlarda faoliyat olib boradigan OTMda "Bolalar san'ati" o'quv fanini o'qitish shu nuqtayi nazardan ahamiyatlidir.

"Bolalar san'ati" o'quv fanining maqsadi – *bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarni maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar san'atining barcha yo'nalishlari (badiiy ijodiyot, texnik ijodkorlik, musiqa san'ati) bo'yicha amaliy-metodik faoliyatni samarali tashkil etishga tayyorlashdan iborat.*

Mazkur maqsadga erishish uchun "Bolalar san'ati" o'quv predmeti doirasida quyidagi **pedagogik vazifalar** hal qilinadi:

bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarni bolalar san'atining umumiy asoslaridan xabardor qilish;

talabalarda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar san'atining barcha yo'nalishlari (badiiy ijodiyot, texnik ijodkorlik, musiqa san'ati)ga oid nazariy bilimlarni hosil qilish;

bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar san'atining badiiy ijodiyot, texnik ijodkorlik, musiqa san'ati kabi yo'nalishlarda amaliy-metodik faoliyatni tashkil etish malakalarini rivojlantirish;

bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarni maktabgacha ta'lim muassasalarida badiiy ijodiyot, texnik ijodkorlik va musiqa san'ati kabi yo'nalishlardagi bolalar ijodiy faoliyatini samarali tashkil etishga tayyorlash.

"Bolalar san'ati" o'quv fanining tarkibiy asoslari: maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa ta'limi; maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bayram va ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish; maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatini hamda dunyoqarashini shakllantirish; maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatni tashkil etish.

"Bolalar san'ati" o'quv fanining predmeti – *bolalar san'atining asosiy yo'nalishlari, tarkibiy asoslari, mazmuni, ustuvor tamoyillari, muhim bosqichlari, samarali shakl, metod, vosita va texnologiyalari.*

"Bolalar san'ati" o'quv fanining obyekti – *maktabgacha ta'lim muassasalarida badiiy ijodiyot, texnik ijodkorlik va musiqa san'ati kabi yo'nalishlardagi bolalar ijodiy faoliyatini tashkil etish jarayoni.*

Har qanday o'quv fani boshqa turdosh fanlar bilan o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikda rivojlanadi. Shunga ko'ra "Bolalar san'ati" o'quv fani muayyan fanlar bilan o'zaro aloqador va bog'liq bo'lib, ularning g'oyalariga tayangan holda bolalarning ijodiy faoliyatini muvaffaqiyatli yo'lga qo'yish jarayoni takomillashtirilib boriladi.

"Bolalar san'ati" o'quv fani quyidagi fanlar bilan o'zaro aloqador sanaladi: "Bolalar psixologiyasi va psixologik diagnostika", "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi", "Maktabgacha ta'lim metodikasi", "Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish", "Jismoniy tarbiya", "Musiqa ta'limi", "Tasviriy faoliyat" va boshqalar.

"Bolalar san'ati" o'quv fanining ilmiy-tadqiqot metodlari: bolalar badiiy ijodiyoti, bolalar texnik ijodkorligi va bolalar musiqa san'atiga oid asarlarni o'rganish;



suhbat (bolalar, tarbiyachilar va ota-onalar bilan); anketa (ota-onalar va tarbiyachilar uchun); bolalarning ijodiy ishlarini o'rganish; tashxislovchi metodlar; pedagogik kuzatish; nazariy tahlil; modellashtirish; pedagogik tajriba; matematik-statistik tahlil.

Qobiliyatli bolalar bilan ishlashning an'anaviy ta'lim jarayonidan farqli tomoni – bu pedagogik faoliyatning maxsus o'quv va tarbiyaviy ishlar dasturlari asosida tashkil etilishi sanaladi. Maxsus dasturlar mazmunan iqtidorli bolalarni o'qitishning o'ziga xosligini ifoda etadi.

Bu kabi o'quv va tarbiyaviy ishlar dasturlarini yaratishda ma'lum tamoyillar asosida ish yuritiladi. Ayni vaqtda pedagogika amaliyotida M.Karne tomonidan asoslangan tamoyillar asosida faoliyat yuritilmoqda. Ular quyidagilardan iborat:

Qobiliyatli bolalar bilan ishlash uchun maxsus o'quv va tarbiyaviy ishlar dasturlarini yaratishning ustuvor tamoyillari (M.Karne g'oyasi)

1. *Dasturning individuallashtirilganligi.*
2. *Dasturlarni tuzishda tarbiyachilarning ishtirokini ta'minlash.*
3. *Dasturlarni yaratish va undan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining amaliyotida foydalanishdagi shaxsiy mas'uliyat.*
4. *Tarbiyachilarning kasbiy malakalarini oshirish.*
5. *Tarbiyachilarning kasbiy malakasini oshirishga qo'shimcha mablag'larni jalb qilish.*
6. *Dasturda turli metodlarning o'rin olishi.*
7. *Tarbiyalanuvchilarning individual va guruhli tayyorgarlik darajasini baholash.*

Ushbu tamoyillar asosida o'quv va tarbiyaviy ishlar dasturlarini yaratish ham iqtidorli bolalar bilan ishlash jarayoniga o'qituvchilarni jalb etishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat mazmunining shakllanishiga yordam beradi.

Iqtidorli bolalar bilan ishlashga qaratilgan davlat siyosati bu borada mavjud imkoniyatlardan to'laqonli foydalanishni taqozo etadi. Tarbiyachilarning to'g'ri yondashishi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qobiliyat bolalarni tarbiyalashda muayyan samaralarga erishishni kafolatlaydi.

1998-yildan boshlab respublikada Tashhis markazlarining faoliyat olib bormoqda.

O'z tarkibiga psixolog, pedagog, fiziolog, tibbiyot xodimlari kabi mutaxassislar jalb etilgan markaz olti-yetti yoshli bolalarning maktab ta'limiga tayyorgarlik darajasini aniqlash vazifasini bajarmoqda. Bizning nazarimizda, ularning faoliyati aynan bolalarning iqtidori darajasini aniqlash, ularni layoqati, qobiliyati va iqtidori darajasiga ko'ra turli yo'nalishlarda faoliyat yurituvchi ta'lim muassasalarga jalb etishdan iborat bo'lishi lozim. Markaz faoliyati yordamida iqtidorli bolalarni o'z vaqtida va to'g'ri aniqlash, ularning iqtidorini yanada rivojlantirish uchun qulay pedagogik sharoitlarni yaratish, ularni kasbga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

Umumiy yoki maxsus iqtidorga ega bolalarga ta'lim va tarbiya berish o'ta murakkab jarayon. Ana shu jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etish maqsadida ixtisoslashgan maktablarni tashkil etish borasida xalqaro tajriba to'plangan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy maqsadi "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" da ko'rsatib berilgan.



Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy **maqsadi** – ularni dunyoni badiiy tasavvur etishga tayyorlash hamda badiiy-ijodiy qobiliyatlarga ega bo'lishlarini ta'minlash orqali ijodiy rivojlantirishga erishish¹³ dan iborat.

Maqsadga erishish yo'lida quyidagi **vazifalar** hal qilinadi:

tarbiyalanuvchilarni musiqa, badiiy adabiyot va folklor namunalari, teatr san'ati, tasviriy va xalq amaliy san'ati, bayram va ommaviy tadbirlar, qo'shiq, raqs san'ati bilan yaqindan tanishtirish;

ularda nuqta madaniyatini rivojlantirish;

tarbiyalanuvchilarni applikasiya qilishga o'rgatish;

maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiiy va tashlandiq materiallardan o'yinchoqlar yasash o'rgatish;

tarbiyalanuvchilarni dunyoni badiiy tasavvur etishga tayyorlash;

maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Ular:

tegishli turdagi ta'lim tashkiloti faoliyati mazmunini yorituvchi hujjatlarda bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish g'oyalarining aks etganligi;

maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimning shakllanganligi;

tarbiyalanuvchilarning maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan kasbiy malaka, kompetensiyalarga egaliklari;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy qobiliyatini samarali rivojlantirishga xizmat qiladigan vositalarning mavjudligi;

maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda oila va tegishli tashkilot o'rtasida o'zaro hamkorlikning qaror topganligi;

xalqaro tashkilotlar va tadbirkorlik subyektlari imkoniyatlarining maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilganligi va boshqalar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy qobiliyatini samarali rivojlantirishda turli subyektlar o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega.


Hamkorlik – maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishda qatnashuvchi subyektlar imkoniyatlarining bolalarda ijodiy qobiliyatini samarali rivojlantirish maqsadida o'zaro birlashtirilishi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini samarali rivojlantirish bir guruh **subyektlar**ning hamkorligi asosida amalga oshiriladi. Binobarin (1-rasm).

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy qobiliyatini samarali rivojlantirish masalasi davlat siyosati darajasida o'rganilayotganiga qaramay bu borada muayyan muammolar mavjud.

¹³ Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari // <https://lex.uz/docs/5179335?query>.

Asosiy subyektlar



1-rasm. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish jarayonining asosiy subyektlari

Sohaga oid adabiyotlarni o'rganish va ular asosida nazariy tahlilni tashkil etish bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida quyidagi muammolar mavjudligini ko'rsatdi:

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy qobiliyatini tashxislash mexanizmi ishlab chiqilmagan;

maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini aniqlagan holda ularni rivojlantirishga nisbatan individual yondashuv yetarlicha qaror topmagan;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyachilari bolalarda ijodiy qobiliyatni samarali rivojlantirish borasida yuqori darajada kasbiy malaka, kompetensiya, ish tajribasi va mahoratiga ega emas;

maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda ta'lim tashkiloti, oilalar va ijtimoiy muassasalar o'rtasida mustahkam hamkorlik o'rnatilmagan;

respublika miqyosida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga oid mahalliy ilg'or ish tajribalarini o'rganish va ularni muvofiqlashtirish yo'lga qo'yilmagan;

maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga oid xorijiy tajribalarning keng o'rganilishiga hanzugacha erishilmayapti.

Ayni vaqti maktabgacha ta'lim tashkilotlari va ularning faoliyatini boshqaruvchi rahbar muassasalarning oldiga zudlik bilan hal qilinishi zarur bo'lgan vazifalar qo'yilmoqda.

II. Ijod, ijodiyot va ijodkorlik tushunchalari. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda dastlab ijod, ijodiyot va ijodkorlik tushunchalarining mazmunini bilib olish talab qilinadi.

Pedagogik, psixologik, san'at, xususan, adabiyot yo'nalishlarida ijod, ijodiyot va ijodkorlik tushunchalari keng tadqiq qilingan.



“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ijod, ijodiyot va ijodkorlik tushunchalariga ma‘no jihatidan yondashuvlar keltirilgan. Xususan:

Arabchadan yaratish, kashf qilish, vujudga keltirish “ijod” tushunchasi ikki xil ma‘noni anglashiga urg‘u beriladi: 1) badiiy, ilmiy, san‘atga oid asar yoki moddiy boylik yaratish, vujudga keltirish, yaratuvchilik faoliyati; 2) yaratuvchanlik faoliyati mahsuli, samarasi.

Arabcha “ijodiyot” esa lug‘aviy jihatdan “ijodiy ish bilan bog‘liq faoliyat, ijod” ma‘nolarini anglatadi.

“Ijodkorlik” tushunchasi esa arabcha “ijod”, shuningdek, forscha “kor” va o‘zbekcha “lik” qo‘shimchalari yordamida hosil qilingan tushuncha sifatida “ijodkorning ishi”, “ijodkorga xos faoliyat” va “yaratuvchanlik” ma‘nolarini anglatadi.

Ijod – insonning yangi moddiy va ma‘naviy ne‘matlar yaratish faoliyati. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajribasi, iste‘dodi namoyon bo‘ladi. Ijod dastlab inson tasavvurida tug‘iladi, keyin unga taalluqli masalalar yuzasidan izlanishlar olib boriladi, boshqalar bajargan ishlar tanqidiy ko‘rib chiqiladi, tahlil etiladi, kuzatishlar, tajribalar o‘tkaziladi, mantiqiy xulosalar chiqariladi, gipotezalar qilinadi, bular tajribada sinab ko‘riladi, noto‘g‘ri bo‘lsa yangilanadi va hokazo¹⁴.

M.H.Usmonboyeva tomonidan “ijod” tushunchasi shunday ta‘riflanadi: **ijod** – ijtimoiy subyektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi. Darhaqiqat, ijod bir vaqtning o‘zida ham faoliyat ham faoliyat natijasi (ijodiy mahsulot) sifatida namoyon bo‘ladi¹⁵.

Ijodiy izlanishlar natijasi turli shakllarda (badiiy asar, matematik formula va boshqalar ko‘rinishida) yuzaga chiqadi. Uni jamiyat e‘tirof etsagina haqiqiy, to‘liq ijod bo‘ladi. Ijod fan-texnikani, madaniyatni bo‘yitadi, rivojlantiradi.

Ijodni shartli ravishda ikki guruhga: ilmiy ijod va badiiy ijodga bo‘lish mumkin.

Olimlar faoliyati ilmiy ijodga, san‘atkorlar, yozuvchilar faoliyati badiiy ijodga qaratilgan. Ba‘zi kishilarda har ikki ijod yo‘nalishida faoliyat yurita olish malakalari rivojlangan bo‘lishi mumkin.

Ilmiy ijodda tabiat va jamiyat hayotining obyektiv qonuniyatlari aks etsa, badiiy ijodda ma‘naviy hayot muammolariga san‘atkorning subyektiv, o‘ziga xos qarashlari, his-tuyg‘ulari aks etadi.

Badiiy ijodda hayotning turfa ranglari hamda voqealari orasidan ibratli va ijtimoi‘li ahamiyatli bo‘lganlari tanlab olinadi va badiiy umumlashtiriladi. Bu turdagi ijod murakkab jarayon bo‘lib, inson faoliyatining idrok etish, baholash, qadrlash singari turlari bilan bog‘liq holda amalga oshadi. Buning uchun ijodkor erkin xayol, ozod tafakkur, keng ko‘lamli tasavvur, milliy g‘urur va yuksak orzularga ega bo‘lishi kerak. Odatda badiiy ijod mahsulotining ommaviyligi va ijtimoiy ahamiyati ana shu bilan

¹⁴ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Зебунисо – Конирил / 4-том. Бош тахрир ҳайъати аъзолари: М.Аминов ва бошқ. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002. – 82-б.

¹⁵ Креатив педагогика / Ўқув-методик мажмуа. Тузувчи: Н.Муслимов, М.Усмонбоева, А.Бўриев. – Т.: ЎТМ ПКҚТМОТМ, 2016. – 6-б.



belgilanadi. Ijodning taraqqiy etishida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari hal qiluvchi ahamiyatga ega¹⁶.

“Xalq og‘zaki ijodiyot” tushunchasi ham til iste‘molida keng qo‘llaniladi. “Ijodiyot” tushunchasiga berilgan izohdan kelib chiqadigan bo‘lsa, xalq tomonidan amalga oshirilgan ijod va bu ijod natijasida yig‘ilgan ijodiy mahsulotlar to‘plami ma‘nosini ham ifodalash mumkin.

Ayni o‘rinda M.H.Usmonboyeva “ijodkorlik” tushunchasini shunday izohlaydi: ijodkorlik – muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasi¹⁷.

Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o‘zgarishining o‘zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogengizi – tug‘ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog‘liq.

Ma‘lumki, kasbiy tajriba bilim, ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, kasbiy-ijodiy faoliyat ko‘nikmalarining o‘zlashtirilishi nafaqat amaliy ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga, kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo‘lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining yetarli darajada o‘zlashtirilishi talab etadi.

Ijodkor shaxsning shakllanishini uning o‘zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur‘ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatleri, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog‘liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi taqozo etadi¹⁸.

E.P.Torrens ijodkorlikni “tartiblikdan tashqariga chiqish” deb yuritib, fikrlash jarayonini tasvirlaydi. Muallif bolalarni ijodiy fikrlashga o‘rgatishning to‘rtta afzalligini ko‘rsatib o‘tadi. Ular:

1. *Ijodiy fikrlash yaxshi ruhiy salomatlik va shaxsiyatni rivojlantirishga yordam beradi.*

2. *Ijodiy fikrlash yangi bilimlarni egallashga olib keladi.*

3. *Ijodiy fikrlash kunlik muammolarni hal qilishda yordam beradi.*

4. *Ijodiy fikrlash bugungi va kelajak avlodlarning hayotida yordam beradi.*

III. Ijodkorlik qobiliyati mazmuni. “Zamonaviy ta‘limning eng muhim vazifalaridan biri shaxs tarbiyasida yangicha yondashuvni tashkil etishdir. Bu jarayonlar bolaning ijodiy faol, mustaqil fikrlovchi, muloqotchan va turli vaziyatlarga

¹⁶ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Зебунисо – Конирил / 4-том. Бош тахрир хайъати аъзолари: М.Аминов ва бошқ. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002. – 82-б.

¹⁷ Креатив педагогика / Ўқув-методик мажмуа. Тузувчи: Н.Муслимов, М.Усмонбоева, А.Бўриев. – Т.: ЎТМ ПКҚТМОТМ, 2016. – 6-б.

¹⁸ Ўша манба. – 6-7-б.



moslashuvchan bo'lishini ta'minlaydi. Hozirgi kunda bolalarda kretivlik masalasi o'rganilmagani dolzarb masalalardan biridir"¹⁹.

Pedagogik va psixologik manbalarda "qobiliyat", "iste'dod" ("talant") tushunchalari birdek qo'llaniladi. So'nggi yillarda "iqtidor" tushunchasi "iste'dod" tushunchasining muqobili sifatida qo'llanilmoqda. Manbalarda qayd etilishicha, qobiliyat "shaxsning osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyat"²⁰, iste'dod, iqtidor esa "shaxsning ma'lum faoliyatda ifodalanadigan qobiliyatining yuqori darajasi"²¹ demakdir.

Odatda, ijodiy qobiliyat ijodiy mazmunga ega faoliyat jarayonini tashkil qilishda ko'zga tashlanadi. Shu sababli, "ijodiy faoliyat" tushunchasining mohiyatini anglab olish maqsadga muvofiqdir.

Ijodiy faoliyat – shaxsning hissiy holati – ta'sirlanish, ilhomlanish, ruhiy iztirob, nimanidir yaratishga bo'lgan kuchli xohish-istaklariga tayangan holda ruhiy va aqliy imkoniyatlarni ishga solgan holda nimanidir yaratish, mavjud narsalarni takomillashtirish, yangilashga qaratilgan faoliyati sanaladi.

Ijodiy faoliyat jarayonida namoyon bo'ladigan yoki ijodiy jarayonni nihoyatda oson, samarali tashkil qilishga yordam beradigan qobiliyat ijodiy qobiliyat sifatida aks etadi. Shunga ko'ra "ijodiy qobiliyat" tushunchasini izohlash mumkin.

Ijodiy qobiliyat – shaxs tomonidan ijodiy (nimanidir yaratish, asoslash, modellashtirishga qaratilgan) faoliyatni qiyinchiliklarsiz oson, samarali tashkil qilishga yordam beradigan qobiliyat.

Qobiliyat mohiyatiga ko'ra umumiy va maxsus iqtidor kabi guruhlarga bo'linadi. Qayd etilgan hislatlar umumiy iqtidorga xosdir. Umumiy iqtidor yaxlit holda kamdan-kam kishilardagina namoyon bo'ladi. Insoniyat tarixida bu kabi maxsus xislatga ega kishilar sifatida Aleksandr Makedonskiy va Napoleon Bonopart nom qozonganlar. Manbalarda yozilishicha, ular bir vaqtning o'zida yetti xil faoliyatni bajara olganlar. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy qadriyatlarni qayta tiklash, milliy tarixni xolis yoritishga qaratilgan harakat natijalari buyuk sohibqiron Amir Temurning hammaxsus xislatga ega bo'lganligini ko'rsatdi.

Maxsus qobiliyat turli ko'rinishdagi faoliyatlar (matematik, texnik, musiqa, tasviriy san'at, adabiyot (poeziya va proza), jismoniy tayyorgarlik va boshqalar) bo'yicha namoyon bo'ladi.

Demak, qobiliyat, iste'dod va iqtidor:

- 1) muayyan faoliyat va uni bajara olish darajasi;
- 2) individual xususiyat sifatida aks etadi.

¹⁹ Мирзакаримова А.Н. Мактабгача ёшдаги болаларда креативлик хусусиятларини ривожлантириш //Мактабгача таълим ж. / Ж. Дошкольное образование. – Т.: 2019. № 5 (78). – 76-б.

²⁰ Психология. Қисқача изоҳли луғат / Тузув.: М.Г.Давлетшин ва бошқ. Масъул муҳар. М.Г.Давлетшин. – Т.: ТДПУ, 1998. – 18-б.

²¹ Ўша манба. – 44-б.



Shaxs iqtidori mohiyatiga ko'ra turli yo'nalish va darajada ko'zga tashlanadi. Ya'ni: 1) yo'nalishiga ko'ra: ilmiy tafakkur (ilm-fan yo'nalishida), badiiy tafakkur (adabiyot yo'nalishida), musiqa (musiqa yo'nalishida), sport (sport sohasida), aqs (xoreografiya yo'nalishida), tasviriy san'at (rassomlik yo'nalishida), amaliy san'at (milliy hunarmandchilik, haykaltaroshlik yo'nalishlarida), texnik iqtidor (texnika yo'nalishida), harbiy mahorat (harbiy sohada), ijtimoiy moslashuvchanlik (ijtimoiy munosabatlar yo'nalishida);

2) darajasiga ko'ra: qobiliyatlilik, iqtidorlilik, noyob iqtidorga egalik (daholik).

Qobiliyatga egalik turli vaziyat va ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Kishilik tafakkuri tarixida noyob iqtidorga egalik quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lganligi barchaga ma'lum, ya'ni:

1) yoshlik yillaridanoq badiiy, musiqiy va tasviriy san'at asarlarini yarata olish (Alisher Navoiy, Aleksandr Sergeyevich Pushkin, Vilyam Sheksper; Wolfgang Amadey Motsart, Lyudvig Van Betxoven, Fridrik Shopen, Iogann Sebastyan Bax; Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, Bronnarroti Mekelanjelo, Rafael (Rafaello Santi);

2) yoshlik yillaridanoq o'ta murakkab matematik amal va fizik formulalarni bajara olish (Lev Davidovch Landau, Mixayil Lomonosov, Tomas Alva Edison);

3) yoshlik yillaridanoq jang qilish san'atini namoyon etish (Aleksandr Makedon-skiy, Amir Temur, Napoleon Bonapart, Aleksandr Suvorov).

Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida ularning shaxsiga xurmat bilan munosabatda bo'lish, o'z-o'zini anglashlari, o'zini namoyon qilishlari, o'zini o'zi tasdiqlashlari uchun zarur shart-sharoit berish kerak. Shu sababli, bolalarni kattalar, ota-onalar, tarbiyachilar tomonidan kuzatib borish, maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiyatini rivojlantirish uchun ijodiy muhit yaratish juda muhimdir²².

Shuni ta'kidlash kerakki, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bolalarda eng muhim aqliy va amaliy harakatlarni shakllantirish bilan bevosita bog'liq. Tashqi tomondan, ular o'zlarini quyidagi shakllarda qobiliyatli ekanini namoyon qiladi:

1. *Kuzatish, solishtirish va tahlil qilish.*

2. *Sabab-oqibat munosabatlari va qarama-qarshiliklarni aniqlash.*

3. *Asl, noan'anaviy hodisalarni an'anaviydan farqlay olish.*

4. *Mustaqil ravishda yangi yechimlarni izlash, turli xil dizayn usullaridan foydalangan holda muammoli vaziyatlarni o'rganishda ishtirok etish, o'z navbatida ijodiy rivojlanishning turli sohalarini birlashtirish.*

Qobiliyatli bolalar alohida xususiyatlari bilan tengdoshlaridan ajralib turadilar. Ularga xos bo'lgan eng muhim xususiyatlar quyidagilardir:

1) maxsus qobiliyatlarni namoyon eta olish;

2) yuksak natijalarni qo'lga kiritish imkoniyatlariga egalik;

3) bir yoki bir necha yo'nalishlarda (aqliy salohiyat, ta'lim olishga bo'lgan o'ziga xos xususiyat, ijodiy va samarali tafakkur, tasviriy yoki amaliy san'atga bo'lgan layoqat; psixomotor qobiliyatlarga tayangan holda) muayyan natijalarni qo'lga kiritganlik²³.

²² Ветлугина Н.А. Художественное творчество и ребенок / Монография. - М.: Педагогика, 2012. - С. 78.

²³ Одарённые дети (Пер. с англ.). - М.: Прогресс, 1991, С. 16.



Qobiliyatli bolalar ega bo'lgan maxsus qobiliyatlar orasida:

– bir vaqtning o'zida bir necha faoliyatni bajara olish (masalan, eshitish, ko'rish, o'qish, yozish, fikr yuritish, muloqot qilish va boshqalar);

– atrofida kechayotgan ikki yoki bir necha voqelikni birdek qabul qilish (jumladan, o'qituvchining ma'ruzasini eshitgani holda, sinfdagi har bir o'quvchi faoliyatini kuzata olish);

– o'ta qiziquvchanlik (tabiat va jamiyatda kechayotgan har bir voqea-hodisa (garchi ular eng ahamiyatsiz, e'tiborga tashlanmaydigan bo'lsa-da) mohiyatini bilishga intilish, haddan ziyod ko'p savollarning berilishi);

– miya faoliyatining biokimyoviy va elektrik faolligi (miya deyarli to'xtovsiz faoliyat ko'rsatib, nihoyatda kam vaqt «dam oladi», shuningdek, bilish jarayonida noaniqliklar ko'zga tashlansa, ular tezda bartaraf etiladi; uyquchanlik iqtidorli bolalarga xos xususiyat emas);

– nutqi va fantaziyasining boyligi (iqtidorli bolalarning aksariyati juda erta gapirishni o'rgangan, ularning nutqi kutilgandan ko'ra yuqori, shuningdek, ularda fantaziya (tasavvur qilish) qobiliyati nihoyatda kuchli);

– kuchli xotira (yirik hajmdagi matnni, jumladan, dostonlarni bir marta o'qish bilan to'raligiga yodlab olib, uni so'zma-so'z qayta hikoya qilib berish qobiliyati)ga egalik kabilar alohida o'rin tutadi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

– ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi mashqlar bilan ijodiy fikrlash uchun aqlni turli sohalarda ishlashga o'rgatish kerak;

– kattalar tomonidan majburlash, “uni o'yna”, “buni o'yna”, “xato qilding”, “mana bunday bajar” qabilida ish tutish bola ijodkorligiga zid uslublardir; “o'zim bajarishim uchun menga yordam ber” qabilida ish yuritish maqsadga muvofiqdir; bola erkin “kim bilan”, “nima bilan”, “qachon” tushunchalarini o'zi hal qilsin; o'zi ko'rib, eshitib, harakat qilib, mushohada, ya'ni mantiqiy fikrlay olsin;

– dasturiy ma'lumotni bosqichma-bosqich murakkablashtirish yo'nalishida amalga oshirilishi zarur: kuzatilgan hodisalar ko'lamini kengaytirish va u yoki bu hodisalar haqidagi bilimlarni ketma-ketlikda chuqurlashtirish va umumlashtirish;

– ekskursiyada ta'limiy va tarbiyaviy vazifalar birgalikda hal etilishi lozim; shuning uchun o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar hajmini rejalashtirish hamda qanday his-tuyg'u, munosabat, axloqiy sifat, estetik ehtiyojlarni faollashtirish avvaldan o'ylanishi kerak²⁴.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorligida quyidagilar namoyon bo'ladi:

1. *Chizish, modellashtirish, hikoya qilish, raqs tushish, qo'shiq aytish, o'yin o'ynash.*

2. *Yaratilgan obrazni yangicha ko'rinish – chizma, hikoya, model va hokazolarda aks ettirish, yangicha talqinlarni yaratish.*

3. *O'z xatti-harakatlarining boshlanishi, oxiri va hokazolarni mustaqil belgilash.*

4. *Yangi vaziyatda ilgari o'zlashtirilgan tasvirlash usullari yoki ifoda vositalarini qo'llash.*

²⁴ O'sha manba. – 80-b.



5. Bolaning barcha jarayonlarda tashabbus ko'rsatishi.

6. Faoliyat, xususan, tasvirlarni yaratish jarayonida muammoni hal qilish usullari, vositalarini izlash.

"Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari"da ijodiy yo'naltirishning muhim tarkibiy qismlari sifatida quyidagilar belgilab berilgan: 1) dunyoni badiiy tasavvur etish; 2) badiiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.

Har ikki tarkibiy qismlar bo'yicha turli yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasi quyidagilar bilan belgilanadi:

1. Dunyoni badiiy tasavvur etish yo'nalishi bo'yicha:

3-4 yoshli bolalar: illyustratsiya, o'yinchoq, xalq amaliy san'ati asarlarini o'rganishda emotsional ta'sirlanadi; tabiat obyektlarida, o'yinchoq, bolalarning o'z kiyimlarida ranglar jilosini anglaydi; tanish qo'shiqlarni biladi; diqqat bilan tovush, ohanglarni tinglaydi; tasviriy san'at elementlaridan foydalanadi.

4-5 yoshli bolalar: O'zbekiston xalq amaliy san'ati (so'zana, keramika) haqida ilk tushunchaga ega; san'atga tegishli kasblarning ayrimlari haqida tushunchaga ega (rassom, bastakor, aktyor); ayrim san'at turlari va janrlarini farqlaydi (qo'shiq, raqs, musiqa, she'riyat, topishmoq, rasm, haykaltaroshlik); ayrim arxitektura qurilmalari haqida tushunchaga ega (yashash joyi va jamoat joyi); qo'shiq va navolarda yuqori va past tovushlarni farqlaydi; ayrim musiqiy asboblar (pianino, dutor, doira)ning chalinishini farqlaydi; musiqaga monand raqsga tushishi mumkin.

5-6 yoshli bolalar: musiqiy asarga hissiy munosabat bildiradi; musiqaga monand harakatlar o'ylab topishi mumkin; badiiy asarlar qahramonlari rolini o'ynashi mumkin; amaliy san'at turlari haqida birlamchi tushunchaga ega; shaxsiy loyihalar yaratishda g'oyalar bildiradi; musiqada uslublarni farqlaydi; kichik ssenariylar tuzib, sahna ko'rinishlari tashkil eta oladi; tabiiy materiallardan qo'l ishlari yasaydi; kiyimlarni bezashi, guldastalar tuzishi, soddada retsept asosida taom tayyorlashi mumkin.

6-7 yoshli bolalar: she'rni ifodali o'qib bera oladi; tanish asarlarni mustaqil so'zlab beradi, ularni sahnalashtirishda ishtirok etadi; she'riy va nasriy badiiy asarlarga munosabat bildiradi; musiqiy asarning xarakterini aniqlashga qodir; bolalar shoiri, yozuvchisi va bastakorlari hamda ularning asarlarini biladi; tasviriy san'at turlarini farqlaydi.

2. Badiiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish yo'nalishi bo'yicha:

3-4 yoshli bolalar: tasviriy materiallar nomini biladi va to'g'ri qo'llaydi; soddada kompozitsiyalar, alohida buyumlarni chizadi; tasvirlanayotgan predmetlarga mos ranglarni tanlaydi va bo'yaydi; bolalar musiqiy asboblarida (buben, nay, ksilofon) chalinishga taqlid qiladi; bolalar guruhi bilan qo'shiq aytadi; raqsga tushadi (juftlikda aylanadi, oyoqlari bilan depsinadi, predmetlar bilan musiqaga monand harakatlanadi); plastilindan berilgan soddada shakllarni yasaydi; tayyor shakllardan tasvirlar yaratadi, turli shakldagi qog'ozlarni yasatadi; qumdan turli shakl va piramidalar quradi.

4-5 yoshli bolalar: predmetlar shaklini aniq ko'rsatgan holda qismlarga boy tasvirlar chizadi; sujetli rasm, predmet va personajlar chizadi; shakllarni turli texnika asosida bo'yaydi; loy, xamir va plastilindan yasaydi; faoliyati boshida ko'z oldiga keltirib



tasavvur qiladi; xorda va yakkaxon qo'shiq aytadi; raqs harakatlarini hissiyotlarni namoyon etish va muloqot vositasi sifatida qabul qiladi; musiqiy asboblarda chaladi (qo'ng'iroqcha, doira, metallofon, uch burchak); kattalar yordamida barmoqlar teatri sahna ko'rinishlarida ishtirok etadi.

5-6 yoshli bolalar: murakkab predmetlar chizadi va ularni dekorativ naqshlar bilan yasatadi (choynak, gilam, ro'mol, lagan); xotira yoki tasavvuriga ko'ra sujet yaratadi; qog'ozdan va tabiat materiallaridan applikasiya-hajmli oranjirovkalar yaratadi (siluetlar, otkritkalar, kitob yorliqlari); muhit yoki shaxsiy loyihalarini yasatadi; qog'oz buklash, yirtish, qirqish yo'li bilan shakllarning harakati va proporsiyalarini yoritgan holda kichik sujetli kompozitsiyalar yaratadi; tengdoshlari bilan ijodiy o'yinlar yaratishi mumkin; shaxsiy ishlarida turli ifoda vositalarini qo'llaydi; jamoaviy loyihalarda g'oyalar taklif etadi.

6-7 yoshli bolalar: turli predmetlardan kompozitsiyalar yaratadi; individual va jamoada qo'shiq ayta oladi; raqsda harakatlariga jilo bergan holda shaxsiy namuna yaratishi mumkin; musiqiy asboblarda yakkaxon yoki orkestrda jo'r bo'lib chalishi mumkin; g'oya yaratadi va tatbiq etadi; maqsadga erishishda o'rindosh sifatida turli predmetlar qo'llaydi; turli spektakllarda rol ijro etib ishtirok etadi; olamni o'zgartirishda insonning yaratuvchi rolini anglaydi; buyumlarni ikkilamchi qo'llashda g'oyalar taklif etishi mumkin.

"Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi" ko'rsatilishicha, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish jarayonining yakuni, ya'ni, maktab ta'limiga o'tish chog'ida 6-7 yoshli bolalar o'zlarida quyidagi sifatlarni namoyon qiladi: san'at va madaniyatga qiziqish namoyon qiladi;

milliy an'analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotning bir qismi sifatida idrok etadi;

san'atning muayyan turini afzal ko'rishini mustaqil ravishda ifodalaydi;

olingan bilim va ko'nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o'z ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq atish uchun foydalanadi;

insonning dunyoni o'zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi.

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri sanaladi. Mazkur faoliyat yo'nalishining mohiyati maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining mazmunini yorituvchi me'yoriy hujjatlarda o'z aksini topgan. Ularga ko'ra maktab yoshiga yetgunga qadar tarbiyalanuvchilar dunyoni badiiy tasavvur etish hamda bir turkum badiiy-ijodiy qobiliyatlarni o'zlashtira olishlari zarur. Bunday qobiliyatlar sirasida rasm chizish, qo'shiq aytish, raqsga tushish, jismoniy faollikni ifodalovchi harakatlarni tashkil qilish kabilar muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini samarali rivojlantirishga maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan oila, sohaga aloqador ijtimoiy muassasalar o'rtasida o'zaro hamkorlikka erishish orqali erishiladi. Ayni vaqtda maktabgacha ta'lim tashkilotlari oldida bu borada muayyan pedagogik vazifalarni ijobiy hal qilish vazifasi turibdi.



Nazorat savollari:

1. Qobiliyat va ijodiy qobiliyat deganda nimani tushunasiz?
2. Nima uchun maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish muhim?
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda qanday maqsad ko'zlanadi?
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish jarayonida qaysi subyektlar ishtirok etadi?
6. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda qanday omillar muhim?
7. Ijod, ijodiyot va ijodkorlik tushunchalari qanday ma'noni anglatadi?
8. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi"ga maktabgacha yoshdagi bolalar qanday ijodiy qobiliyat sifatlarini o'zlashtira olishlari zarur?

Test topshiriqlari:

1. Ijtimoiy madaniyatning estetik zavq beruvchi, voqelikni badiiy obrazlar vositasida aks ettiruvchi ayrim sohalari – bu ...
 - a) kino;
 - b) teatr;
 - c) san'at;**
 - d) sirk.
2. Bolalarning badiiy obrazlarni yaratish, badiiy-estetik mazmundagi asarlar (kuy, qo'shiq, raqs, sahna asari)ni ijro etish maqsadida tashkil etilgan faoliyati
 - a) bolalar kinosi;
 - b) bolalar san'ati;**
 - c) bolalar teatri;
 - d) bolalar folklori.
3. Bolalar san'ati ...bo'lgan yosh davri bolalarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.
 - a) 3 yoshdan boshlab 6 (7) yoshgacha;
 - b) 3 yoshdan boshlab 11 (12) yoshgacha;**
 - c) 3 yoshdan boshlab 13 (14) yoshgacha;
 - d) 3 yoshdan boshlab 17 (18) yoshgacha.
4. Badiiy ijodiyot, texnik ijodkorlik, musiqa san'ati. Ular bolalar san'atining asosiy yo'nalishlari.
 - a) ustuvor tarmoqlari;
 - b) yetakchi sohalari;
 - c) muhim bo'g'inlari;
 - d) asosiy yo'nalishlari.**



5. “Bolalar san’ati” o’quv fanining ... – bo’lajak tarbiyachi-pedagoglarni MTMda bolalar san’atining barcha yo’nalishlari bo’yicha amaliy-metodik faoliyatni samarali tashkil etishga tayyorlash.

- a) mazmuni;
- b) maqsadi;**
- c) obykti;
- d) predmeti.

6. “Bolalar san’ati” o’quv fanining predmeti – bolalar san’atining asosiy yo’nalishlari, tarkibiy asoslari, mazmuni, ustuvor tamoyillari, muhim bosqichlari, samarali shakl, metod, vosita va texnologiyalari.

- a) mazmuni;
- b) maqsadi;
- c) obykti;
- d) predmeti.**

7. “Bolalar san’ati” o’quv fanining obykti – maktabgacha ta’lim muassasalarida badiiy ijodiyot, texnik ijodkorlik va musiqa san’ati kabi yo’nalishlardagi bolalar ijodiy faoliyatini tashkil etish jarayoni.

- a) obykti;**
- b) maqsadi;
- c) mazmuni;
- d) predmeti.

8. Dasturni individuallashtirish; dasturlarni tuzishda tarbiyachilarning ishtirokini ta’minlash; dasturni yaratish va undan maktabgacha ta’lim tashkilotlarining amaliyotida foydalanishda shaxsiy mas’uliyat kabi tamoyillar ... tomonidan asoslangan.

- a) E.N.Lunkina;
- b) F.Qodirova;
- c) M.Karne;**
- d) E.P.Torrens.

9. ... yildan boshlab respublikada Tashhis markazlarining faoliyat olib bormoqda.

- a) 2002;
- b) 1996;
- c) 1998;**
- d) 2010.

10. Bolalarni dunyoni badiiy tasavvur etishga tayyorlash; badiiy-ijodiy qobiliyatlarga ega bo’lishlarini ta’minlash ularni ijodiy rivojlantirish ... sanaladi.

- a) vazifasi;
- b) maqsadi;**
- c) omillari;
- d) tamoyillari.

11. Tarbiyalanuvchilarni musiqa, badiiy adabiyot va folklor namunalari, teatr san’ati, tasviriy va xalq amaliy san’ati, bayram va ommaviy tadbirlar, qo’shiq, raqs san’ati bilan yaqindan tanishtirish – bolalarni ijodiy rivojlantirish ...sanaladi.

- a) vazifasi;**
- b) maqsadi;



- c) omillari;
- d) tamoyillari.

12. ... - maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishda qatshanuvchi subyektlar imkoniyatlarining bolalarda ijodiy qobiliyatini samarali rivojlantirish maqsadida o'zaro birlashtirilishi.

- a) hamjihatlik;
- b) homiylik;
- c) vasiylik;
- d) hamkorlik.**

13. Ijodkorga xos faoliyat - bu ...

- a) ijod mahsuli;
- b) ijodkorlik;**
- c) ijodkor;
- d) qiziquvchanlik.

14. Ijodiy fikrlash yaxshi ruhiy salomatlik va shaxsiyatni rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu fikr muallifi - ...

- a) E.N.Lunkina;
- b) F.Qodirova;
- c) M.Karne;
- d) E.P.Torrens.**

15. Shaxsning hissiy holati - ta'sirlanish, ilhomlanish, ruhiy iztirob, nimanidir yaratishga bo'lgan kuchli xohish-istaklariga tayangan holda tashkil etiladigan faoliyat - bu ...

- a) amaliy faoliyat;
- b) ilmiy faoliyat;
- c) ijodiy faoliyat;**
- d) jismoniy faoliyat.

16. ... - shaxs tomonidan ijodiy (nimanidir yaratish, asoslash, modellashtirishga qaratilgan) faoliyatni qiyinchiliklarsiz oson, samarali tashkil qilishga yordam beradigan qobiliyat.

- a) estetik qobiliyat;
- b) ilmiy qobiliyat;
- c) jismoniy qobiliyat;
- d) ijodiy qobiliyat.**

17. 1) dunyoni badiiy tasavvur etish; 2) badiiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish. Bular bolalarni ijodiy rivojlantirishning asosiy ...

- a) vazifalari;
- b) yo'nalishlari;**
- c) tamoyillari;
- d) omillari.



Amaliy topshiriq:

1-topshiriq. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasining 2-§ bilan tanishib chiqish asosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida ma'lumot bering.

2-topshiriq. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasining 2-§ bilan tanishib chiqing va maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish borasidagi vazifalarni ko'rsating.

1.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalash

Reja:

1. Estetik tarbiya va ta'limning nazariy asoslari.
2. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning estetik didini rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar.
3. Estetik tarbiyaning asosiy vazifalari, mazmuni va metodlari.
4. Estetik tarbiya vositalari.

Tayanch tushunchalar: tarbiya, ta'lim, estetika, estetik tarbiya, estetik ta'lim, maktabgacha ta'lim, bolalar, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar, estetik tarbiya mazmuni, estetik tarbiya metodlari, estetik tarbiya vositalari.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori // <https://lex.uz/docs/4327235>.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-son (2020-yil 22-dekabr) Qarori // <https://lex.uz/docs/5179335?query>.
3. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi // <https://lex.uz/docs/4327235>.
4. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari // <https://lex.uz/docs/5179335?query>.
6. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi. – T: YUNISEF, 2018. – 72 b.
7. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti // <https://lex.uz/docs/5179335?query>.
8. Maktabgacha pedagogika / Darslik. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova. – T: "Tafakkur" nashriyoti, 2019, 688 b.
9. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. –T.: "Fan va texnologiya", 2012, 268 b.



I. Estetik tarbiya va ta'limning nazariy asoslari. Ijtimoiy tarbiyaning asosiy turlaridan biri – bu estetik tarbiya sanaladi. Aqliy, axloqiy, mehnat tarbiyasini estetikasiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Estetik tarbiya (lot. "estezio" – go'zallikni his etaman) – shaxsni ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari, turmush go'zalliklarini anglash, idrok etish, to'g'ri tushunishni o'rganish, uning estetik didini o'stirish, unda go'zallikka muhabbat uyg'otish, go'zallikni yaratish qobiliyatini rivojlantirish.

Estetik tarbiyani tashkil qilish orqali shaxsning tabiiy va ijtimoiy borliq, voqelik, maishiy turmush, mehnatga estetik munosabati shakllanadi. Shunga ko'ra estetik tarbiyaning maqsadini belgilash mumkin.

Estetik tarbiya)ning maqsadi – shaxsning tabiiy va ijtimoiy borliq, voqelik, maishiy turmush, mehnatga estetik munosabatini shakllantirishdan iborat.

Shaxsni estetik jihatdan tarbiyalash, unda estetik qobiliyat, didni shakllantirish va rivojlantirish masalalari alohida fan doirasida o'rganiladi. Bu fan "Estetik asoslari" deb nomlanadi.

Estetika asoslari – nafis san'atni, badiiy ijodiyotni, tabiat va turmushdagi go'zallikning mohiyati, shakllarini, inson va ijtimoiy borliq o'rtasidagi qadriyatlar munosabatini o'rganuvchi fan.

Estetik tarbiya axloqiy qiyofa, ijobiy xulq-atvor me'yorlarini tarkib toptirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim muassasalarida musiqa va tasviriy san'at darslari, adabiyot kabi fanlarning o'qitilishi estetik tarbiyani samarali yo'lga qo'yish vositasi hisoblanadi.

Oilada va ta'lim muassasalarida nafosat tarbiyasini tashkil etish orqali o'quvchilarda estetik qiziqish, estetik ehtiyoj, estetik his-tuyg'u, estetik did, estetik mulohaza, estetik ong, estetik ideal, estetik qarash hamda estetik faoliyat ko'nikmalari shakllantiriladi.

Odatda estetik tarbiyaning asosiy mohiyati quyidagi tayanch kategoriyalar yordamida ochib beriladi:

Estetik did – estetik axborotlar oqimi, estetik va axloqiy me'yorlar yig'indisi orqali shakllanib, shaxsning buyum, hodisalarga estetik baho berishida yaqqol namoyon bo'ladigan hodisa.

Estetik ehtiyoj – shaxsning voqelikni estetik jihatdan bilib olishga undovchi subyektiv omil (ichki intilish).

Estetik dunyoqarash – tabiiy va ijtimoiy borliqqa estetik qadriyatlar – go'zallik, xunuklik, kulguli, fojiviy va b. asosida yondashishga asoslangan dunyoqarash.

Estetik faoliyat ko'nikmalari – estetik ehtiyojlarni qondirish yo'lida muayyan xatti-harakatni amalga oshirishga imkon beradigan ko'nikmalar.

Estetik his-tuyg'u – shaxsning voqelikka, kishilarga, o'z faoliyatiga munosabati.

Estetik ideal – subyekt bilan obyekt, inson bilan ijtimoiy borliq butunligining tarixan eng to'liq uzviy birligi bo'lib, bu birlik tub maqsadlar sifatida shaxs ijodiy kuchlarining erkin va har tomonlama rivojlanishida o'z ifodasini topadi.

Estetik idrok – ijtimoiy voqelik, buyum, hodisalarning go'zalligini ongda yaxlit aks etishi. U go'zallik his etilganda yuzaga keladi va aniq maqsadga yo'naltiriladi.



Estetik madaniyat – go‘zallikni his etish, undan zavqlanish, mavjud go‘zalliklarni asrash va boyitish yo‘lida o‘zlashtirilgan bilim, amalga oshiriladigan estetik faoliyat sifat darajasini belgilovchi ko‘rsatkich. Bolalarning estetik madaniyatga egaliklarini quyidagi mezonlarga ko‘ra aniqlash mumkin: estetik bilimlarning tarkib topganligi; estetik madaniyatning tarbiyalanganligi; estetik va madaniy meros namunalaridan xabardor bo‘lish; estetik tuyg‘uning rivojlanganligi; ijtimoiy hayot, tabiat va mehnat go‘zalliklarini his etish; go‘zallikka intilish ehtiyojining rivojlanganligi; estetik idealning shakllanganligi; fikrlash, faoliyat, xatti-harakat va tashqi ko‘rinishda go‘zal bo‘lishga intilish.

Estetik qarash – estetik ongning g‘oyaviy negizi, tabiat, hayot, san‘at mohiyati haqidagi estetik fikr-mulohazalar va g‘oyalar tizimi.

Estetik ong – shaxsga nazariy tushunchalar asosida predmet, buyum, voqelik va hodisalar mohiyatini estetik baho baholay olish imkonini beruvchi his-tuyg‘ular, sezgilar, tasavvur va qarashlar shakli.

Estetik qiziqish – shaxsning estetik faoliyatni tashkil etishga, voqelik va san‘at asarlarini estetik jihatdan o‘zlashtirishga kirishishi²⁵.

Estetik faoliyat ko‘nikmalari – estetik ehtiyojlarni qondirish yo‘lida amalga oshiriladigan xatti-harakat ko‘nikmalari²⁶.

Estetik mulohaza – shaxsning aniq bir estetik hodisaga munosabatini bildiradigan aqliy harakati.

Shaxs o‘zi ega bo‘lgan estetik ongi va estetik faoliyat ko‘nikmalariga tayangan holda predmet, buyum, voqelik yoki hodisaning qiymati va kamchilik-nuqsoni haqida hukm chiqara oladi, estetik baholaydi.

Estetik tarbiya bola tug‘ilgandan boshlab umrining oxirigacha amalga oshiriladi. Shu sababli, u nafaqat maktabda, balki sinfdan va maktabdan tashqari sharoitlarda uyushtiriluvchi tadbirlarda, turli anjumanlarda yosh avlodni go‘zallik va nafosatni his etishga undovchi vositadir.

Estetik tarbiya faqat narsa va hodisalarning mohiyatini anglash, go‘zal jihatlarini ko‘ra bilishnigina emas, balki ichki go‘zallikni his qilish hislatini ham tarbiyalaydi. Insondagi xulqiy go‘zallikni qadriga yetishga undaydi.

Estetik faoliyatga kirishish vazifasi har bir tarbiyalanuvchining tasviriy san‘at, musiqa, xoreografiya to‘garaklarida faol ishtirok etishi, ijodiy birlashmalar, guruhlar, studiyalar va hokazolarda qatnashishini nazarda tutadi.

Ijtimoiy tarbiya maqsadi va vazifalarini amalga oshirish uchun tarbiya jarayonining xususiyatlarini anglab olish muhim ahamiyatga ega.

II. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarning estetik didini rivojlanishidagi o‘ziga xos xususiyatlar. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tashkil etiladigan estetik tarbiya o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Eng muhim xususiyat estetik tarbiyani tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etishdir.

²⁵ Педагогика. Изоҳли луғат / Ў.Асқарова, М.Усмонбоева ва бошқ. – Наманган: НамДУ, 2014. – 62-63-б.

²⁶ Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб / Мет.қўлл. У.И.Иноятов, Н.А.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Иноғомова. – Т.: ТДПУ, 2012. – 106-107-б.



Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan estetik tarbiya bolalarda axloqiy sifatlar, ijobiy xulq-atvor me'yorlarini tarkib toptirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Estetik tarbiyani olib borish jarayonida tarbiyalanuvchilarda estetik his-tuyg'u, estetik didni tarbiyalash, ularning ijodiy qobiliyatlari, estetik ehtiyojlari va go'zallikni sevish, go'zallikka intilish tuyg'ularini rivojlantirish, estetik madaniyatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Estetik tarbiya – tarbiyalanuvchilarda estetik ongini, borliqqa, tabiatga nisbatan estetik munosabatini shakllantirish, estetik didni qaror toptirish, go'zallikni sevish va qadrlashga o'rgatishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat va jarayon.

Bolalarni estetik tarbiyalash va rivojlantirish estetik tarbiya tizimi yordamida amalga oshadi. Estetik tarbiyani tashkil etish tizimida qator tamoyillar yotadi²⁷.

Estetik tarbiyaning barcha uchun umumiyligi shundaki, kattalar va bolalar ma'naviy hayotda, kundalik mehnat, san'at va tabiat bilan muloqotda, turmushda va shaxslararo munosabatda estetik hodisalar bilan doimiy ravishda o'zaro munosabatda bo'ladi. Ana shu jarayonda ularning go'zalligi va xunukligi, fojiali va kulgili jihatlari namoyon bo'lib boradi. Bundan ma'lum bo'ladiki, estetik savodlilik, ideallar, estetik rivojlanish va badiiy ta'limsiz, ishda mahsulotni estetik takomilga yetkaza olmasdan, shaxsning har tomonlama barkamol bo'lib rivojlanishi mumkin emas.

Estetik tarbiyani tashkil etish tizimi yana **tarbiyaviy jarayonga yaxlit yondashuv** tamoyiliga asoslanadi. Bolalarning estetik tarbiyasida san'atning barcha turlari o'z-o'zidan birga harakatlanadi, bolaga yaxlit ta'sir ko'rsatadi. Bunday o'zaro harakat badiiy asarlar, tasviriy san'at, musiqiy savodxonlikni oshirishda mustahkam aloqadorlik natijasida amalga oshadi. Bundan tashqari estetik tarbiya fan, mehnat, jismoniy madaniyat, estetik munosabat va turmush go'zalliklarini ochish hisobiga ham amalga oshadi.

Estetik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi ekani bolalarning butun badiiy-estetik faoliyatini hayot, jamiyatning amaliy taraqqiyoti, bolalarda dunyoqarash va axloqiylikni shakllantirish jarayoni bilan o'zaro aloqadorligini anglatadi. Jamiyatning demokratlashuvi – go'zallik va axloqiylik manbaidir.

Bola shaxsini estetik va umumiy shakllantirishning o'zaro aloqadorligi bolaning badiiy va umumiy psixik rivojlanishi birligi tamoyilini taqozo etadi. Bolalarning badiiy-estetik faoliyati ularda his etish, emotsiya, obrazli va mantiqiy xotira, nutq, fikrlashni jadal rivojlanishini ta'minlaydi.

Estetik tarbiyaning amaliyligi ahamiyatga egaligi to'g'ridan-to'g'ri bolalarning badiiy-ijodiy va mustaqil faoliyati tamoyiliga amal qilinishiga bog'liqdir. Milliy xalq o'yinlari, xalq qo'shiqlari, she'rlar, hikoyalar, ocherklar tadqiqotchilik ko'nikmalarini hosil qiladi, bolalarning badiiy rivojlanishi, alohida va jamoaviy ijodkorligi vositasida ma'naviy hayot mazmuni shakllanadi.

Bolalarning hayotini estetiklashtirish tamoyili munosabat, faoliyat, bolalarning munosabatlarini go'zallik qonunlari, ulardan quvonish hissini uyg'otish asosida tashkil etishni talab etadi.

²⁷ Лихачев Б.Т. Педагогика – М.: ЮРАЙТ, 2003. – С.395-397.



Bolalarning estetik tarbiyasi tizimi ularning yosh bilan bog'liq psixologik-pedagogik o'ziga xosliklarini hisobga olish tamoyili asosiga quriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida estetik tarbiyani tizimli tashkil etishda uning mohiyatini, uning yetakchi g'oyalarni ifodalovchi ushbu tamoyillarga qat'i rioya etiladi (2-rasm)²⁸:



2-rasm. Estetik tarbiyaning ustuvor tamoyillari.

Maktabgacha ta'lim yoshining turli davrlari bilan bog'liqlikda estetik tarbiyani amalga oshirishning o'ziga xosliklari ham aniq namoyon bo'ladi.

Ilk yoshli bolalarda hali ularning estetik tarbiyasi to'g'risida emas, balki ularning hissiy va sensor rivojlanishi to'g'risida o'ylash kerak. Bola yaltiroq buyoqdan xursand bo'ladi, bir maromdagi tovush va harakatlardan huzur qiladi. Bola hayotining birinchi yilida ularning sensor-hissiy qabul qiluvchanligi takomillashib boradi. Bu yoshdagi bolalarda hissiy kechinmalarning shakllanishida kattalar muhim rol o'ynaydi. Kattalarning ochiq yuz bilan jo'shqin ohangda gapirishlari bolaga buyumlarning u yoki bu xususiyatlariga ijobiy munosabatda bo'lishiga yordam beradi. Va, aksincha, kattalarning ogohlantiruvchi ovozi, ular yuzidagi tundlik alomati yoki humrayib qarashlari, jerkib, siltab tashlashlari bolalarda shu buyumga yoki uning sifatiga salbiy munosabatni shakllantiradi.

Bola hayotining ikkinchi yilida uning idroki asta-sekin takomillasha boradi. Bolalar endi faqat borliq xususiyatlarini emas, shu bilan birga san'at asarlaridagi ayrim estetik ifoda vositalarini ham idrok eta boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalarda musiqaning quvnoq va g'amgin kuylariga, ularning qattiq va sokin ohangiga, ohista va tezligiga javob ta'siri paydo bo'ladi.

O'rta yosh guruhi davrida bolalar estetik idrokining rivojlanishida muhim o'zgarishlar yuz beradi. Ularning estetik idroki ancha aniq va tabaqalashgan bo'lib qoladi. Ammo u qisqa-qisqa bo'lib, bolaning shaxsiy tajribasi va qiziqishiga bog'liq bo'lib qoladi. Bu yoshdagi bolalar badiiy obrazni eng oddiy estetik baholay oladi, ba'zi

²⁸ Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. – T.: "Fan va texnologiya", 2017. – 167-168-b.



bir estetik vositalarni to'g'ri anglaydigan, tasvir mohiyatini tushunadigan bo'lib qoladi.

Bolalarda go'zallikni idrok etish jarayoni aniq ifodalangan, ta'sirli, faol tusda bo'ladi. Bu ayniqsa, ular qo'g'irchoq teatri, kino, multfilm, telespektakllarni tomosha qilganlarida aniq namoyon bo'ladi. Bolalar asar qahramonlari harakatiga qo'shilib bemalol harakat qiladi, ularning muayyan vaziyatda o'zlarini qanday tutishlarini aytib turadilar, go'yo o'zlarini ular bilan birga o'ynayotgandek his etadi. Bu yoshdagi bolalar tanish bo'lgan san'at asarlarini yangi asarlar bilan solishtiradi va ba'zi bir xulosalar chiqaradi. Bolalarni she'rni hikoyadan, badiiy asarning ba'zi bir janrlarini, tasviriy san'at va musiqaning ayrim turlarini (ertakni hikoyadan, marshni raqsdan, allani o'yindan va b.) bir-biridan ajrata boshlaydi.

Katta yosh guruhining oxiriga kelganda ular musiqani, badiiy asarlarni diqqat bilan tinglaydi, tasviriy san'at asarlarini sinchiklab kuzatadi, ulardagi ijobiy qahramonlar xatti-harakatlardan quvonadi, yomonlikni qoralaydi. Bolada musiqaviy va shoirona tinglash qobiliyati rivojlanadi. Ularda ayrim musiqa janrlariga, adabiy va tasviriy san'at asarlariga nisbatan barqaror qiziqish paydo bo'ladi. Bolalarda badiiy ijodiy qobiliyat rivojlana boshlaydi, ular mustaqil ravishda topishmoqlar, ashulalar, ertaklar, she'rlar to'qiydilar, applikatsiya va rasmlar ishlaydi. Endi ular o'zlarining va o'rtoqlarining ishlarini baholaydigan bo'lib qoladi.

Kuzatayotgan san'at asarlari, eshitayotgan musiqa asarlari, o'qilayotgan she'rlarning eng nozik tomonlarini ko'ra biladilar, seza boshlaydi. Badiiy asarlardagi ba'zi she'riy obrazlarni eslab qoladilar va o'z nutqlarida ishlatadilar. Tevarak-atrofdagi go'zallikka, san'atga, badiiy va o'yin faoliyatining xilma-xil turlariga nisbatan ularda qiziqish shakllana boshlaydi.

III. Estetik tarbiyaning asosiy vazifalari, mazmuni va metodlari²⁹. Estetik tarbiyaning vazifalari tarbiyaning umumiy maqsadlaridan kelib chiqib, bolalarning yosh imkoniyatlariga qarab belgilanadi. Estetik tarbiya vazifalarini hal etish bolalarda tashabbuskorlik, ma'lum natijalarni oldindan bilish, ularga intilish, orzu qila bilish kabi sifatlarni shakllantirish bilan uzviy bog'langandir.

Yuqorida ko'rsatilgan vazifalar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning har bir yosh guruhlarida estetik tarbiya berishning mazmuni va metodlari ishlab chiqiladi.

Estetik tarbiyaning mazmuni bolaning estetik faoliyati orqali amalga oshiriladigan bilim, malaka va ko'nikmalarni estetik hissiyot, qiziqish, estetik ehtiyoj, estetik did va mulohazalarni tarbiyalashni o'z ichiga oladi.

Bular quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

– o'yin, mehnat jarayonida, maishiy faoliyatda ijtimoiy va tabiat voqealari bilan tanishtirish orqali tevarak-atrofdagi borliqqa nisbatan estetik munosabatni tarbiyalash;

– san'at asarlari (badiiy tarbiya) vositasida estetik tarbiya berish.

Pedagogika fanida bolalarni chizishga, loy va plastilindan narsalar yasashga, ashula aytishga va shunga o'xshashlarga o'rgatish metodikasi mukammal ishlab chiqilgan.

²⁹ Ushbu paragrafni yoritishda quyidagi manbadan foydalanildi: Maktabgacha pedagogika / Darslik. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpulatova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova. – T.: "Tafakkur" nashriyoti, 2019. – 208-210-b.



Bola ijodining mazmuniga ta'sir etadigan asosiy vosita, bolani hayajonlantiradigan, uning xayol va hislariga ta'sir etuvchi narsa tevarak-atrofdagi yorqin, jonli taassurotlardir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan estetik tarbiyaning vazifalari uning maqsadi asosida belgilanadi. Manbalarda ushbu ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan estetik tarbiyaning asosiy vazifalari ko'rsatilgan.

Sh.A.Sodiqovanning yondashuviga ko'ra:

tarbiyalanuvchilarga ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari, turmush go'zalliklari, ularni anglash to'g'risidagi bilimlarni berish;

tarbiyalanuvchilarda ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari, turmush go'zalligini anglash, his qilish qobiliyatini tarbiyalash;

tarbiyalanuvchilarda mavjud go'zalliklarni qadrlash hissi, estetik didni shakllantirish, go'zallikka muhabbat uyg'otish;

tarbiyalanuvchilarda go'zallikni yaratish ehtiyojini qaror toptirish, estetik qobiliyatni shakllantirish³⁰.

F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpulatova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamovanning yondashuvlariga ko'ra:

Bolalarni hayotdagi, voqelikdagi go'zallikni tushunishga, sevishtga, tabiatda va turmushda, yaratuvchilik, mehnatda, ijtimoiy hayotda, kishilar xatti-harakatida bolalarga tushunarli bo'lgan go'zalliklarni ko'ra bilishga o'rgatish;

ularda estetik his, estetik did, estetik munosabatni tarbiyalash, kuchlari yetganicha hayotda go'zallik yaratishda faol ishtirok etish istagini tarbiyalash;

bolalarni badiiy ijodning turli janrlarida (badiiy asar, musiqa, qo'shiq, rasm va boshqalar) yaratilgan san'at asarlarini ko'rish, tushunish va sevishtga o'rgatish orqali ularda estetik ongini shakllantirish;

chiroylini xunukdan, g'amginlikni xursandchilikdan farqlay olish;

ranglar, shakl, tovushlarni bir-biridan ajrata olish kabi sensor etalonlar bilan tanishtirish;

bolani san'atning turli sohalari: ashula, o'yin, she'r o'qish, qayta hikoya qilish, ijodiy faoliyat (ijodiy o'yin, hikoya qilish, rasm chizish, biror narsa yasash yoki qurish) kabilarda yanada faolroq harakat qilish va o'zini ko'rsata bilishga o'rgatish;


bolalarda badiiy ijodiy qobiliyatni, xayolni o'stilish, fazoviy, rang munosabatlarini, mo'ljalga olish, ko'rish xotirasi, qo'llarni chaqqon harakat qildira olish malakasi, jo'shqin kayfiyatni ko'rsatuvchi hissiy sezgirlikni rivojlantirish va hokazo³¹.

"Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari"³²ni inobatga olgan, shuningdek, yuqorida nomlari keltirilgan mualliflarning yuqoridagi fikrlariga tayangan va ularni umumlashtirgan holda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan estetik tarbiyaning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin (3-rasm):

³⁰ Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika / Darslik. – T.: "Fan va texnologiyalar", 2017, 168-b.

³¹ Maktabgacha pedagogika / Darslik. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpulatova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova. – T.: "Tafakkur" nashriyoti, 2019. – 209-b.

³² Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari // <https://lex.uz/docs/5179335?query>.



3-rasm. Estetik tarbiyaning asosiy vazifalari.

Pedagogika fanida bolalarni chizishga, loy va plastilindan narsalar yasashga, ashula aytishga va shunga o'xshashlarga o'rgatish metodikasi mukammal ishlab chiqilgan.

Badiiy faoliyatning hamma turlarida ham ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish estetik idrok va hislarni rivojlantirish bilan bog'liq holda olib boriladi. Agar bola qishki tabiatning go'zalligini his eta olsa, u, albatta, shu go'zallikni rasmda, hikoyasida aks ettiradi. Agar bola badiiy adabiyotlardagi obrazlarni idrok eta olsa, undagi qahramonlar bola tushunchasiga yaqin bo'lsa, bunday kitoblar bolalar o'yini uchun rasm chizish va loydan narsalar yasash uchun bitmas-tuganmas manba bo'lib xizmat qiladi. Agar bolalar tilning go'zalligini, she'rning ritmini, ohangdorligini his eta olsalar, o'zlari ham kichkina she'rlar to'qib, qofiyalar tanlashga urinadilar.


Bolalardagi fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun badiiy qobiliyatning hamma turlarida ham xayolning ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi ta'minlanadi. Bolalarni ijodiy maqsad qo'yishga o'rgatiladi.

Bolalarning mustaqil ijodiy faoliyatlari bayramlarda, ko'ngil ochish kechalarida, ekskursiya va sayrlarda, har xil o'yinlarda amalga oshiriladi. Bolalar o'zlarining badiiy ijodiy mahoratlarini, qobiliyatlarini bemalol, erkin namoyish qilishlari uchun tarbiyachi kerakli shart-sharoitni yaratib berishi zarur. Bolalarning bu xildagi mustaqil faoliyatlariga rahbarlik qilishda tarbiyachi yakka tartibda yondashishi lozim. Shu orqali u bolalarning o'ziga xos qobiliyat va imkoniyatlarini o'rganadi.



Bu hali bolaning kelajakda qanday mutaxassis bo'lishini aniqlash huquqini bermaydi. Lekin tarbiyachilar va ota-onalar bolalarning qiziqishlariga diqqat-e'tibor bilan qarashlari lozim. Ular bolani diqqat bilan kuzatayotib, unda musiqa, rasm, qurish-yasash va boshqa sohalaridagi iste'dodning ilk kurtaklarini ko'rishlari mumkin. Boladagi qobiliyatlarning shakllanishi kattalarning mana shu kurtaklarni avaylab o'stirishlariga, ularga to'g'ri rahbarlik qilishlariga bog'liq³³.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida estetik tarbiya muayyan metodlar yordamida tashkil etiladi. Estetik tarbiya mavzusida yaratilgan ko'plab ilmiy ishlarda ushbu tarbiyani maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil etishda qo'llaniladigan metodlar³⁴ ikki guruhga ajratilgan. Ya'ni (4-rasm):



4-rasm. Estetik tarbiyaning samarali metodlari.

I. Bolalarni estetik didni o'stiradigan vositalar bilan tanishtiruvchi metodlar:

Namoyish metodi – maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga “o'rganilayotgan obyektning harakat dinamikasini ochish, predmetning tashqi ko'rinishi, ichki tuzilishi haqida ma'lumot berish maqsadida qo'llaniladigan metod”³⁵. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni estetik faoliyat ko'nikmalariga ega bo'lishi uchun tarbiyachi ma'lum harakatni bevosita bajarib ko'rsatish jarayonida uning mazmunini yoritib beradi. Odatda, tarbiyalanuvchilar muayyan harakatni tarbiyachi bilan birgalikda bajaradi. Harakatlarni birgalikda bajarish hali atrof-borliqni to'liq anglab yetmagan bolalarni rag'batlantirish bilan birga jarayonni tashkil qilishga bo'lgan qiziqishini rivojlantiradi.

Pedagogik kuzatish – aniq maqsad asosida tarbiyalanuvchilarning estetik faoliyatni tashkil qilish jarayonidagi amaliy xatti-harakatlarini uzluksiz, izchil va tizimli nazorat qilib borishni ta'minlovchi metod. “Pedagogik kuzatishning samarasi quyidagi shartlarga muvofiq taminlanadi: kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;

³³ Maktabgacha pedagogika / Darslik. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpulatova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova. – T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2019, 211-b.

³⁴ Методы и формы эстетического воспитания // <https://students-library.com/library/read/53811-metody-i-formy-esteticheskogo-vospitania>

³⁵ Педагогика. Изоҳли луғат / Ў.Асқарова, М.Усмонбоева, Х.Рахматова, Ф.Эҳсонова, Ф.Асқарова. – Наманган: НамДУ, 2014, 137-б.



kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish; kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish; har bir holatning mohiyatini sinchiklab o'rganish; xulosa chiqarishga shoshilmaslik"³⁶.

Tushuntirish – tarbiyalanuvchilarga estetik faoliyatni tashkil etishda bajariladigan xatti-harakatlarning mazmunini og'zaki bayon orqali ochib berish, yoritishga qaratilgan metod. "Bu metod hikoyaga nisbatan birmuncha keng qo'llaniladi. Undan odatda nazariy materiallar hamda murakkab masalalarni o'rganishda foydalaniladi. Tushuntirish jarayonida o'quv materialining bir qadar qiyin unsurlari ko'zga tashlanadi va shu asosda materialning mohiyati ochib beriladi. Tushuntirish samarasi ko'p hollarda o'qituvchining ko'rgazmali vositalardan oqilona foydalanishiga bog'liq bo'ladi"³⁷.

Tahlil – maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning estetik faoliyatni tashkil qilishdagi faolligi, bu jarayonga ishtiyoq bilan kirishishi, estetik qiymatga mahsulotni yaratishga bo'lgan intilishi darajasini ifodalovchi ko'rsatkich yoki xulosalarni ularning mazmuniga ko'ra tekshirish, nazariy jihatdan o'rganish va baholash. Tahlil natijalariga ko'ra maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy faoliyatga jalb qilish istiqboli belgilanadi, tarbiyachilarning bu boradagi pedagogik harakatlari rejalashtiriladi.

Kattalarning namunasi – tarbiyachilar, ota-onalar va boshqa katta yoshli kishilarning estetik faoliyatni tashkil etish – rasm chizish, she'r yoki qo'shiq aytish, applikatsiya yasash, tabiat go'zalligi hamda turmush estetikasidan bahra olishda bolalarga ibrat ko'rsatishga qaratilgan metod.

II. Bolalarda badiiy faoliyat ko'nikmalarini shakllantiruvchi metodlar:

Namoyish metodi. Ushbu metod to'g'risida yuqorida ma'lumot berib o'tildi. Ayni o'rinda namoyish metodining bolalarda badiiy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati xususida qisqacha to'xtalib o'tiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni estetik faoliyat ko'nikmalariga ega bo'lishi uchun tarbiyachi ma'lum harakatni bevosita bajarib ko'rsatishib, bolalarni ana shu harakatlarni takrorlashga undaydi. Tarbiyalanuvchilarning tarbiyachi boshchiligida ko'rsatilgan harakatni birgalikda bajarishlari ham jarayonning zavqli bo'lishini ta'minlaydi, ham ularda ma'lum ko'nikmani hosil qiladi.

Mashq – aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni bajarish ko'nikmalarini egallash yo'lidagi ko'p marta takrorlanishlar bo'lib, mashqsiz ko'nikma, malakalarni shakllantirish mumkin emas. Mashqlar og'zaki, yozma, gradikaviy (texnik jarayonlar mohiyatini ifodalash), ijtimoiy-foydali, jismoniy va boshqa turlarga bo'linadi³⁸.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalash jarayonida bajariladigan mashqlar ular tomonidan ma'lum harakat ko'nikmalarini, masalan, rasm (aylana, uchburchak, to'rtburchak, yulduzcha, uycha rasmi), qo'shiq aytish (past, o'rta va baland notalarda kuylash), she'r (ifodali) o'qish, raqs (maxsus) harakatlarini bajarish,

³⁶ Ўша манба. – 155-б.

³⁷ Педагогика назарияси / ОТМ учун дарслик. Муаллифлар: М.Х.Тохтаходжаева ва бошқ. М.Х. Тохтаходжаеванинг умумий таҳрири остида. – Т.: "Moliya-iqtisod", 2010. – 44-б.

³⁸ Педагогика назарияси / ОТМ учун дарслик. Муаллифлар: М.Х.Тохтаходжаева ва бошқ. М.Х. Тохтаходжаеванинг умумий таҳрири остида. – Т.: "Moliya-iqtisod", 2010. – 48-б.



yasash (applikasiya yoki tabiiy va qoldiq materiallardan o'yinchoqlar yasash), modellashtirish (simdan o'yinchoq mashinani modellashtirish) ko'nikmalarining samarali o'zlashtirilishiga imkon yaratadi. Mashqlarning doimiy, izchil olib borilishi 6-7 yoshli bolalarda ma'lum harakatlarni bajarish ko'nikmalarining malakaga aylanishini ta'minlaydi.

Tushuntirish - tarbiyalanuvchilarga estetik faoliyatni tashkil etishda bajariladigan xatti-harakatlarning mazmunini ham og'zaki, ham amaliy tarzda ochib berish, yoritishga xizmat qiladigan metod. Bu jarayonda tarbiyachining tushuntirishi ko'rgazmali tushuntirish xarakteriga ega bo'ladi.


Muammoli vaziyat metodi - mashg'ulotlar jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish va yechishdan iborat metod bo'lib, uning asosida didaktik ziddiyatlar yotadi. Ziddiyatlarni bartaraf etish nafaqat ilmiy bilish yo'li shu bilan birga o'quv yo'li hamdir. Maktabgacha ta'lim muassasalarida muammoli vaziyat metodidan foydalanish bolalarni fikrlashga, muammoga nisbatan o'z fikrini bildirishga o'rgatadi. Albatta bu jarayon tarbiyachi tomonidan unga yo'naltiruvchi savollarni berish, uning javoblarini ma'qullash, zarur o'rinlarda javoblarni bola bilan birgalikda to'g'rilash asosida amalga oshiriladi. Bu metoddan estetik tarbiyani tashkil qilish chog'ida faol, maqsadli foydalanish tarbiyalanuvchilarni nafaqat fikrlashga o'rgatadi, balki ularda fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, dunyoqarashini boyitadi.

Mazkur metodlar yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarda go'zallikni sevish, uni asrash, inson mehnatini qadrlash, mehnat qilishga rag'batli bo'lish, badiiy-estetik faoliyatni tashkil qilish ko'nikmalari shakllanadi.

IV. Estetik tarbiya vositalari. Shaxsning estetik madaniyatini shakllanishi ko'p jihatdan estetik kamolotiga ta'sir o'tkazishda foydalaniladigan vositalarga ham bog'liq.

Estetik tarbiya vositalari - maktabgacha ta'lim tashkilotlarida estetik ta'lim va tarbiya "jarayonining ta'sirchanligini oshirish maqsadida qo'llaniladigan moddiy buyumlar, narsalar, ma'naviy omillar, faoliyat (o'yin, o'qish, mehnat, muloqot), hissiy yondashuv ko'rinishidir"³⁹.

Binobarin, estetik tarbiya aynan estetik tarbiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan vositalar yordami va ta'sirida tashkil etiladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning estetik tarbiyalash jarayoniga bevosita samarali ta'sir ko'rsatadigan vositalar quyidagilardan iborat (5-rasm):



5-rasm. Estetik tarbiya samarali vositalari

³⁹ Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб / Мет.қўлл. У.И.Иноятов, Н.А.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Иноғомова. – ТДПУ, 2012, 93-б.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning estetik tarbiyalash vazifalarini amalga oshirish uchun ma'lum bir sharoitlarni yaratish lozim. Bolalarni o'rab turgan muhit, **turmush estetikasi** ana shunday eng muhim vositadir. Turmush estetikasi o'zida ko'plab detallarni qamrab oladi.

Shuningdek, bolalarni borliqni va uning go'zalligini tahlil etib borishga o'rgatish lozim: "Seni ko'ylagingga qaysi rangdagi tuflari mos tushadi, deb o'ylaysan?", "Uyimiz devoriga ko'proq qaysi rangdagi parda to'g'ri tushadi: ko'kmi yoki yashil?". Mazkur holatda bolaning aynan javobining o'zi muhim emas, asosiysi uning e'tiborini rangning mos kelishi yoki kelmasligiga qaratish, shuningdek, bolada u ham go'zallik yaratishi mumkinligi haqidagi xulosani hosil qilishga erishishdir.

Mashg'ulotlar jarayonida bolalarning e'tiboriga estetik jihatdan ko'rimli, chiroyli uy-ro'zg'or buyumlarini havola qilish mumkin:



Jirafali krujka

//<https://www.joom.com/ru/products/1521604035180>
501784-83-1-39131-1516741353



Yalqov tasviri tushirilgan krujka

//<https://dombutik.ru/kruzhki-i-chashki/kruzhki.html/nid/67977>



Kiyik tasviri tushirilgan krujka

//<https://sc02.alicdn.com/kf/HTB1d5NLVXXXXapXpXXq6x.jpg>



Termos

//<https://designboom.ru/blog/post/napitki-s-soboy-termosy-i-termokruzhki/>



Ichimlikni issiq saqlovchi krujka

//<https://designboom.ru/blog/post/napitki-s-soboy-termosy-i-termokruzhki/>



Bir martalik likobcha

//<https://isaloni.su/raznoe/chtomozhno-sdelat-iz-tarelok-odnorazovyh-podelki-iz-odnorazovyh-tarelok-svoimirukami.html>

Estetik tarbiyaning eng muhim vositasi – **tabiat**dir. Tabiat bilan doimiy ravishda munosabatda bo'lmay turib, estetik jihatdan rivojlanish, estetik tarbiyani uyushtirish mumkin emas. Boshqacha aytganda, tabiat hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydigan



go'zallik manbai. U estetik his-tuyg'u, kuzatuvchanlikni rivojlantirish uchun boy material beradi. Ayniqsa, tabiat badiiy obrazlar orqali ifodalansa, yanada o'zining estetik jihatini yaqqol namoyon etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni jonli tabiat bilan tanishtirish ularni estetik tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, mashg'ulotlarni, xususan, o'yinlarni tabiat qo'ynida tashkil qilish ularni tabiiy borliqqa yaqinlashtiradi.

Shuningdek, bolalarni tabiat manzaralari (peyzaj) tasvirlangan rasm va portretlarni tomosha qilishga jalb etish, ular asosida suhbat, savol-javoblarni tashkil qilish nafaqat estetik didni rivojlantiradi, tabiatga, atrof-borliqqa nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi hamda tarbiyalanuvchilarning dunyoqarashlarini boyitadi.

Mashg'ulotlar jarayonida bolalarning e'tiboriga quyidagi portretlarni havola qilish mumkin:



Ivan Ivanovich Shishkin

"Javdarzor" (1878-yil)

[//https://ru.wikipedia.org/wiki/Рожь_\(картина_Шишкина\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Рожь_(картина_Шишкина))



Ivan Ivanovich Shishkin

"Qayinzordagi jilg'a" (1883-yil)

[//https://school-ethiopia.ru/baza-sochinenij/moj-lyubimiy-hudozhnik-shishkin.html](https://school-ethiopia.ru/baza-sochinenij/moj-lyubimiy-hudozhnik-shishkin.html)

Mashg'ulotlarda, shuningdek, bolalarni o'zbek rassomlari tomonidan ishlangan tabiat mavzusidagi tasviriy san'at asarlari bilan ham tanishtirish ularda estetik didni tarbiyalash bilan birga rassomlik san'atiga bo'lgan qiziqishni ham uyg'otadi.



Ortiquali Qozoqov

"Gullayotgan daraxt" (2006-yil)


[//http://ortikali-kozokov.narod.ru/pey.html](http://ortikali-kozokov.narod.ru/pey.html)



Ortiquali Qozoqov

"Kuz" (1985-yil)

[//http://ortikali-kozokov.narod.ru/pey.html](http://ortikali-kozokov.narod.ru/pey.html)



Mashg'ulotlarda tabiat haqida she'r va qo'shiqlarni tarbiyalanuvchilar bilan birgalikda o'rganish ham ularning tabiatga bo'lgan muhabbatini oshiradi.

Masalan: Abdulla Po'latovning "Quyosh" she'rida ana shu jihat yorqin aks etgan:

Quyosh buncha shoshasan,
Bulutlardan oshasan.
Botmay tursang bo'lmasmi?
Yoki onang ko'nmasmi?
Shoshma, bir oz, botmay tur,
"Yotog'inga' ketmay tur!
Botmay tursang, juda soz,
O'ynab olaman biroz.
So'ngra mayli botsang ham,
Yotog'inga ketsang ham!⁴⁰

Yoki Abdulla Po'latovning yana bir "Qish zavqi" deb nomlangan she'rida ham bolalarning o'yinlari orqali ularni tabiat hodisalari bilan tanishtirish orqali estetik didini o'stirishga erishish mumkin.

Tiniq suv shildir-shildir,
Muz tagidan oqqanda.
Chana uchgim keladir,
Qish fasli qor yoqqanda.
Qor ustidan chanalar,
G'iz-g'iz uchar o'q kabi.
Chunki o'ynab bolalar,
Qizib ketar cho'g' kabi.
Ba'zan qor bo'ron o'ynab,
Quvlab qor otamiz.
Qorqiz, qorbobo yasab,
Qish zavqini totamiz!⁴¹

Jonajon tabiat estetik tarbiyaning qudratli vositasi bo'lib xizmat qiladi. Tevarak-atrofdagi tabiat go'zalligi hatto eng kichik bolani ham quvontiradi. Uning tuyg'ular va xayollarda saqlangan go'zalligi bolalikda ayniqsa, chuqur va yorqin idrok qilinadi, inson bularni butun hayoti davomida esidan chiqarmaydi.

Sayr, ekskursiya vaqtida tarbiyachi bolalarning diqqatini tabiatning rang-barangligiga, uning o'zgarishi va uyg'unligiga qaratadi, tabiat hodisalariga qiziqish uyg'otadi, unga muhabbat va ehtiyotkorlik munosabatini tarbiyalaydi, asrab-avaylashga o'rgatadi. Bularning hammasi bolalarning estetik didlarini tarbiyalaydi, ular kishilarning mehnat natijalarini yaqqol ko'rib, atrofdagi go'zallik inson mehnati tufayli yuzaga kelishiga ishonch hosil qiladilar. Mana shu jihatdan estetik tarbiyaning yana bir vositasi sifatida mehnat yuzaga chiqadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari yer maydonchasi va tabiat burchagidagi o'simlik va hayvonlarni kuzatish hamda parvarish qilish bolalarda estetik idrokni, ularga

⁴⁰ Pulatov Abdulla. "Quyosh" she'ri // <https://qwert.uz/2020/08/14/quyosh-bolalar-uchun-she'r>.

⁴¹ Пулатов Абдулла. Қиш завқи // <https://qwert.uz/2020/08/17/қиш-завқи-болалар-учун-шеър>.



nisbatan to'g'ri munosabatni, go'zallik yaratish xohishini shakllantiradi hamda qizg'in faoliyatga undaydi. Yilning yoz fasllarida polizda, gulzorda, yer maydonchasida mehnat qilish jarayonida ham bolalar estetik zavq oladilar. Kuzda o'z mehnati mevasini yeyish bolaga alohida estetik huzur bag'ishlaydi. Dala va bog'larga sayrga borganda tabiatning go'zalligi va boyligidan, u yerdagi dehqonlarning yaratuvchilik mehnatlaridan benihoya zavqlanishadi.

Estetik tarbiya vositalari orasida **san'at** (musiqa: qo'shiqchilik, raqs; tasviriy san'at: chizish, yasash, applikatsiya) muhim o'rin egallaydi. San'at – ijtimoiy ong va faoliyatning o'ziga xos shakli bo'lib, tevarak-atrof va borliqni badiiy obrazlarda aks ettirilishidir.

Estetik tarbiyaning eng muhim vositasi sifatida san'at nafaqat badiiy qadriyatlarni idrok qilish, balki ularni yaratishni ham o'z ichiga oladi. Badiiy qadriyatlarni yaratishga jamiyat a'zolarining, ayniqsa, yosh avlodning faol ishtirok etishi ularda estetik did-farosat va talab-ehtiyojlarning rivojlanishiga, ijodkorlik qobiliyatlarini rag'batlantirishga olib keladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni estetik jihatdan tarbiyalashda san'atning xilma-xil turlari va janrlaridan, xususan, musiqa: qo'shiqchilik, raqs; tasviriy san'at: chizish, yasash, applikatsiyadan foydalaniladi.



Bolalar xori // articles/
bolshoi-detskii-hor-
istorija-i-sovremennost/



Bolalar milliy raqsi
// acebook.com/madaniyat.uz/
photos/pcb.206302536048999/
2063025023823366/?type



Bola "ijodi"
//http://orenschool.ru/news/
podvedeny-itogi-gorodskogo-
konkursa-risunkov-sredi-
doshkolnikov-pust-vsegda-
budet-solnce



"Gullagan daraxt"
(Ruxshona, 7 yosh,
Namangan viloyati)



"Aylanadan yasalgan daraxt"
//https://mishka-knizhka.ru/
poznajka-dlja-detej-4-6-let/
podelki-dlja-detej-4-6-let/
applikacii-dlja-detej-4-6-let/



"Shovullayotgan oltin boshloqlar" //
https://www.maam.ru/detskijsad/
konspekt-nod-master-klas-po-
aplikacii-shumjat-kolosja-zoloty.html

Estetik tarbiyaning vositalaridan yana biri **qo'g'irchoq teatri**dir. Qo'g'irchoq teatri dunyoning ko'plab xalq va elatlariga qadim zamonlardan buyon ma'lum. U jamiyat



hayotida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Qo'g'irchoq teatri har qaysi davlatda turli shaklda, turli hajmda, o'ziga xos tarzda taraqqiy etib, rivojlanib kelgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalashda qo'g'irchoq teatri vositasidan samarali foydalanish – bolalarning iqtidori, obyektiv borliq haqidagi tasavvuri, dunyoqarashini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitni yaratishi bilan ahamiyatlidir. Zero, qo'g'irchoq teatri vositasida bolaning atrof-muhit, hayot haqidagi tasavvurlari, taassurotlari, u yoki bu hodisalarni tushunish, go'zallikni ko'ra bilish va his etishga mas'uliyat hissi oshadi.

Qo'g'irchoq teatrining bolalarning estetik tarbiyalashda nihoyatda kuchli ta'sir etishi uning soddaligi, odatdan tashqari jo'shqinligi va qo'g'irchoqligi, shuningdek, badiiy so'z, musiqa, qo'shiq, raqs, tasviriy san'at kabi tarkibiy qismlarning uzviy jiplashib ketganligi bola ko'z o'ngida yaqqol namoyon bo'lishidir.



“Musiqali choyxona” qo'g'irchoq teatri

//<http://yntymak.kg/uz/andizhonning>
– u-ircho-teatri-ushda/




“Buratino” ertagi asosidagi qo'g'irchoq teatri

//<https://homebusiness.ru/kukolnyj-teatr>

Maktabgacha yoshdagi bolalarning qo'g'irchoq teatri vositasida estetik sifatlarini shakllantirish jarayonida quyidagi bosqichlarning amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir: o'tkazilishi rejalashtirilgan teatr oldi suhbat (bolalarda teatr qahramonlarining o'ziga xos tabiati, xatti-harakatlari haqidagi tasavvurlarini savol-javob asosida aniqlash); teatrning ta'sirchan, his-tuyg'u va mazmunga boy tarzda o'tkazilishi; teatr namoyishidan so'nggi suhbat (bolalarning voqealar, ularning mazmun-mohiyatini haqidagi fikrlari) .

Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy didini o'stirishda **adabiyot (bolalar uchun badiiy asarlar)** muhim rol o'ynaydi. Kitoblar faqat bolalarning yoshiga mos, mavzu, mazmun bilangina emas, shu bilan birga bayon qilish usuli hamda bezatilishi bilan ham ajralib turishi juda muhimdir.

Ayniqsa, ikki-uch yoshli bolalar uchun chiqarilgan kitoblarda so'zlardan ko'ra rasmlarning ta'siri katta bo'ladi. Bola kitobchadagi rasmlarni qayta-qayta o'z o'rtoqlariga, kattalarga, qo'g'irchoq'iga “o'qib” berish bilan uning mazmunini o'z xotirasida mustahkamlaydi. Kitobdagi chiroyli, yorqin rasmlar bolalarning badiiy didini tarbiyalaydi.



Ochko'z-boy

(O'zbek xalq ertagi)


<https://kitoblardunyosi.uz/xattot-press-nashriyoti/ochko-z-boy>



Chiroyli uycha

(Rus xalq ertagi)

[//https://kitoblardunyosi.uz/bolalar-kutubhonasi/chiroyli-uycha?limit=75](https://kitoblardunyosi.uz/bolalar-kutubhonasi/chiroyli-uycha?limit=75)



“Cho'kib ketgan ko'za”

(Hind xalq ertagi)

[//https://kitoblardunyosi.uz/bolalar-kutubhonasi/chukib-ketgan-kuza?limit=75](https://kitoblardunyosi.uz/bolalar-kutubhonasi/chukib-ketgan-kuza?limit=75)

Bolalar tomonidan eng ko'p o'qiladigan kitoblar ertaklardir. Ertaklar qisqa sujetli, tilining hayotiy va jonliligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari ertak qahramonlarining bolalarga yaqin va tanish ekanligi ham ular bilan birga hayratlanish, voqealarni qiziqish bilan eshitish imkonini beradi⁴².

Estetik tarbiya maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rasm chizish, qirqib yelimlash, loy ishi kabi faoliyatlar orqali amalga oshiriladi. Ana shu nuqtayi nazardan bolalarni estetik tarbiyalashda tasviriy san'at muhim rol o'ynaydi. Bolalarning badiiy-estetik tasavvurlari tevarak-atrofdagi jonli va jonsiz narsa-hodisalarni turli usullar (rasm chizish, qirqib-yelimlash, loydan narsalar yasash, tikish), an'anaviy (akvarel bo'yog'i, bo'r, qalam, mo'yqalam, flomaster, rangli qalam va iplar, qog'oz, karton, yelim, igna) va noan'anaviy (paxta, gubka, barmoqlar yordamida, sham, gugurt cho'plari) vositalar orqali tasvirlashda namoyon bo'ladi. Bularni badiiy-estetik savodxonlikning dastlabki elementlari sifatida qabul qilish mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tasviriy ko'nikma va malakalarni oson o'zlashtiradi. Ikki-uch yoshli bola qalam va mo'yqalamni to'g'ri ushlab malakasini oson egallaydi, undan foydalanishni qiyinchiliksiz o'rganib oladi⁴³.

Demak, maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyatida estetik tarbiya alohida o'rin tutadi. Estetik tarbiya maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy, estetik qobiliyatni rivojlantirish bilan birga ularda atrof-borliqqa, tabiatga, mehnatga ijobiy munosabatni tarbiyalaydi. Qolaversa, bolalarda estetik dunyoqarashni shakllantirish uchun zamin yaratadi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning estetik didini rivojlanish o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Bu xususiyatlar estetik tarbiyani tashkil qilishda ularning yosh, psixologik, fiziologik imkoniyatlarini inobatga olishni taqozo etadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida estetik tarbiyani samarali tashkil etishda ana shu maqsadga xizmat qiladigan vositalar (turmush estetikasi, tabiat, san'at (qo'shiqchilik, raqs, tasviriy san'at va boshqalar), qo'g'iroq teatri, badiiy kitoblar)ning

⁴² Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika / Darslik. – T: “Fan va texnologiyalar”, 2017. – 174-175-b.

⁴³ O'sha manba. – 176-b.



tarbiyaviy ta'siridan maqsadli, o'rinli foydalanish kutilgan natijalarni qo'lga kiritishga yordam beradi.

Nazorat savollari:

1. "Estetika" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
2. Estetik tarbiya qanday maqsadga xizmat qiladi?
3. Estetik tarbiyaning umumiy mohiyati qaysi fan tomonidan o'rganiladi?
4. Estetik did deganda nimani tushunasiz?
5. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan estetik tarbiya qanday tamoyillarga asoslanadi?
6. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni estetik tarbiyalashda qanday vazifalar hal qilinadi?
7. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida estetik tarbiya qanday metodlar yordamida tashkil etiladi?
8. Kattalarning namunasi qanday metod?
9. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida estetik tarbiyani tashkil qilishda mashq metodi qanday ahamiyatga ega?
10. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni estetik tarbiyalashda qanday vositalardan foydalaniladi?

Test topshiriqlari:

1. Shaxsning tabiiy va ijtimoiy borliq, voqelik, maishiy turmush, mehnatga estetik munosabatini shakllantirish – bu estetik tarbiyaning...
 - a) omillari;
 - b) tamoyillari;
 - c) vazifalari;
 - d) maqsadi.**
2. Nafis san'at, badiiy ijodiyot, tabiat va turmushdagi go'zalliklari, inson va ijtimoiy borliq o'rtasidagi qadriyatlar munosabatini o'rganuvchi fan – ...
 - a) Estetika olami;
 - b) Estetika asoslari;**
 - c) Estetika dunyosi;
 - d) Estetika qonuniyati.
3. – shaxsning voqelikni estetik jihatdan bilib olishga undovchi subyektiv omil (ichki intilish).
 - a) estetik ehtiyoj;**
 - b) estetik his-tuyg'u;
 - c) estetik idrok;
 - d) estetik dunyoqarash.
4. – maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalash tamoyili.
 - a) tarbiyalanuvchilarda estetik ongini rivojlantirish;
 - b) tarbiyaviy jarayonga yaxlit yondashuv;**
 - c) borliqqa, tabiatga nisbatan estetik munosabatini shakllantirish;
 - d) integral yondashuv.



5. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida foydalaniladigan estetik tarbiya metodlari ... guruhga ajratiladi.

- a) 8 ta;
- b) 6 ta;
- c) 4 ta;

d) 2 ta.

6. Bolalarni estetik didni o'stiradigan vositalar bilan tanishtiruvchi metodlar – ular ...

- a) tushuntirish, muammoli vaziyat metodi, tahlil; kattalarning namunasi;
- b) namoyish, mashq, tushuntirish, muammoli vaziyat metodi;

c) namoyish, pedagogik kuzatish, tushuntirish, tahlil; kattalarning namunasi;

- d) namoyish, pedagogik kuzatish, bolalar ijodini o'rganish; tahlil.

7. Estetik tarbiyaning ta'sirchanligini oshirish maqsadida qo'llaniladigan moddiy buyumlar, narsalar, ma'naviy omillar, faoliyat, hissiy yondashuv. Ular – estetik tarbiyaning ...

a) vositalari;

- b) shakllari;
- c) metodlari;
- d) texnologiyalari.

8. Turmush estetikasi, tabiat, san'at, qo'g'irchoq teatri, adabiyot. Ular – estetik tarbiyaning ...

a) vositalari;

- b) shakllari;
- c) metodlari;
- d) texnologiyalari.

9. Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalashda foydalaniladigan tabiat mavzusidagi kartinalar – bu ...

- a) natyurmort;

b) peyzaj;

- c) portret;
- d) marina.

10. Maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'g'irchoqlar yordamida tashkil etiladigan sahna ko'rinishi – bu ...

- a) qo'g'irchoq tanlovi;
- b) qo'g'irchoq ko'rgazmasi;
- c) qo'g'irchoq o'yini;

d) qo'g'irchoq teatri.

Amaliy topshiriqlar:

1-topshiriq. Bosma va elektron adabiyotlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun estetik ta'sirchan she'rlardan 3 tasini tanlash.

2-topshiriq. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtirilishi mumkin bo'lgan va bolalarga kuchli estetik ta'sir etadigan 2 ta ertakni aniqlang va sahna ko'rinishini loyihalashtiring.

1.3. Estetik tuyg'uning rivoji – tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida

Reja:

1. Estetik taraqqiyot va shaxsning estetik ongi.
2. Ta'lim-tarbiya ishlarida o'zbek xalq amaliy san'ati.

Tayanch tushunchalar: estetika, tarbiya, estetik tarbiya, ta'lim, estetik ta'lim, tuyg'u, estetik tuyg'u.


Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi. – T: YUNISEF, 2018. – 72 b.
2. Bulatov S.S. Naqqoshlik. – T: "Fan va texnologiyalar", 2010.
3. Xasanov R. Amaliy bezak san'ati metodikasi. – T: ТДПУ, 2003.
4. Qodirxo'jayev R. Badiiy bezak san'ati. – T: "Iqtisod-moliya", 2008.
5. Фуломов К. Амалий санъат / О'Ю учун ўқув қўлл. – T: "Iqtisod-moliya", 2007.

I. Estetik taraqqiyot va shaxsning estetik ongi. Insoniyat hayoti bevosita evolutsion (tadrijiy) taraqqiyotga asoslanadi. Ba'zan inqilobiy, ya'ni, keskinlikka asoslangan o'zgarishlar ro'y bersa-da, ular izchil, doimiy tarzda sodir bo'lmaydi. Evolutson (tadrijiy) taraqqiyot muayyan bosqichlarga asoslanadi. Bosqichlarning har biri o'zidan keyingi davr va davrlar uchun "poydevor" bo'lib xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo hududida sodir bo'lgan estetik taraqqiyotning umumiy mohiyati butun insoniyat uchun xos bo'lgan estetik taraqqiyot mazmunini o'zida aks ettiradi. Shu sababli ayni o'rinda Markaziy Osiyo hududida sodir bo'lgan estetik taraqqiyotning umumiy mohiyati to'g'risida so'z yuritiladi.

Ta'lim muassasalari uchun mo'ljallangan "Estetika asoslari" nomli o'quv qo'llanmada ko'rsatilishicha, Markaziy Osiyo hududida sodir bo'lgan estetik taraqqiyot quyidagi bosqichlar⁴⁴ bo'yicha davrlashtirilgan (oxirgi ikki bosqich muallif – Z.Radjabova yondashuvi asosida belgilandi; 6-rasm):



6-rasm. Estetik tafakkur taraqqiyotining asosiy bosqichlari.

⁴⁴ Умаров Э., Каримов Р., Мирсаидова М., Ойхўжаева Г. Эстетика асослари / Касб-хунара коллежлари учун ўқув қўлл. – T: Чўлпон номидаги НМИУ, 2013, 14-60-б.



1. Milodning VII asrigacha bo'lgan davrdagi estetik tafakkur. Markaziy Osiyo xalqlarining ajdodlari bundan bir necha ming yillar oldin yashagan bo'lib, ular bu zaminda yuksak taraqqiyot, o'ziga xos estetik madaniyat vujudga kelishida mashaqqatli yo'lni bosib o'tganlar. Eng qadimgi kishilarning istaklari, orzu-umidlari eposlardagi afsonaviy obrazlar qiyofasida o'z ifodasini topgan. Afsonalar, dostonlar, to'y sayillarda, xalq yig'inlarida, bayramlarda, safarlarda aytilgan qo'shiq, laparlar, lirik she'r, maqol-matallar estetika fanining uzoq tarixga ega ekanligidan dalolat beradi. Ular "To'maris", "Shiroq", "Manas", "Go'ro'g'li", "Chambil qamali" dostonlarida o'z aksini topgan.

Bu davrda, ayniqsa, xalq og'zaki ijodi – folklor asarlarda tabiat, uning yil fasllaridagi o'zgarishlari, xalqning dehqonchilik, chorvachilik borasidagi harakatlari, erishgan yutuqlari qo'shiq qilib aytilgan, she'r sifatida ifodalangan. Insoniyat tarixininng bu davrida g'orlar, papirus qog'ozlar, teriga chizilgan rasmlarda ham kishilarning tirikchilikni o'tkazish yo'lida olib borgan harakatlari – dehqonchilik, ayniqsa, ov jarayonlari aks etgan.

Xususan, zardushtiylikning muqaddas kitobi – "Avesto" asarida mehnat nihoyatda ulug'lanadi. Mehnatni yaxshilik, moddiy noz-ne'matlar manbai deb biladi. Inson saxovatli bo'lishi uchun, avvalo, mehnat qilishi, o'z qo'li bilan noz-ne'matlar yaratishi zarurligi uqtiriladi. "Avesto" da: "Don ekan kishi taqvodorlik urug'ini ekadi, u Mazdaga ixlosmandlik e'tiqodini olg'a suradi, imonni oziqlantirib turadi..", deyiladi. Bunga amal qilish o'n ming marta ibodat qilish bilan barobar, yuzlab qurbonlik qilishga teng. Ekin ekish, mehnat qilish – yerdagi yovuzlikni yo'qotishdir, deb qaraladi. "Avesto" da "G'alla yerdan unib chiqqanda devlar larzaga keladi, g'alla o'rib olinayotganda devlar nola-faryod chekadi, g'alla yanchib un qilinayotganda ular mahv bo'ladi. G'allaning mo'l-ko'l bo'lishi devlarning labiga qizitilgan temir bosilgandek ularni tum-taraqay qiladi"⁴⁵ deya mehnat ulug'lanadi.

Ekin ekmok, yovuzlikni yer yuzidan tugatmoq demakdir. Chunki "bug'doy o'stirilsa, devlarni qora ter bosadi, sovurilgan bug'doy tayyor bo'lsa, devlar zaiflashib qoladi, un tayyor bo'lsa devlar nola-fig'on chekishadi.. Devlarni mag'lub etish uchun xonadonda hamisha unli ovqat bo'lishi lozim. Bu ovqatni yegandan so'ng ular juda qizishib ketishadi va qocha boshlashadi".

Asarda insonning go'zalligi naslning tozaligi bilan belgilangan. "Avesto" da naslning pokligi, tozaligiga ham alohida e'tibor berilgan, qattiq nazorat qilingan, qarindosh-urug', aka-ukaning quda bo'lishi qoralangan.

"Avesto" da yaxshi (ezgu) fikr deganda yaqin kishilarga mehribonlik, muhtojlik va xavf-xatar ostida qolganda yordam berishga shaylik, kishilar baxt, saodati uchun faol kurashishga doimo tayyor turish, hamma bilan ahil, totuv yashash va boshqalar tushuniladi.

Asarda yer, suv, zamin, xona, badan, kiyim-kechak, oziq-ovqatlarni toza tutish va saqlashga alohida e'tibor berilgan. Unda go'ristonlarni shahar va qishloqdan yiroqda tashkil etish, uni o'rab qo'yish, murlashuylarni maxsus tozalikka rioya qilishi, murda tekkan libos, yerlarni qatron qilish (suvga to'ldirib bo'shatish, yomg'ir suvi bilan

⁴⁵ Хошимов К., Нишонова С. Педагогика тарихи / Дарслик. – Т.: 2005. – 28-29-б.



yuvish, to'ldirib bo'shatish ta'kidlanadi.... Inson yashayotgan xonadagi obrexxonada yuvinish va cho'milish qat'iy an etilgan.

"Avesto" asarida insonning tabiatga bo'lgan munosabati, tabiat va atrof-muhit muhofazasi, tabiiy manbalarni asrash, ularga nisbatan mas'uliyatli yondashish masalalariga alohida o'rin ajratilgan. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra Yer, suv, havo muqaddas. Shu sababli ularga mas'uliyatli munosabatda bo'lish insoniy burch sanalgan. Atrof-muhitning ifloslanishiga sabab bo'ladigan har qanday xatti-harakatga nisbatan qat'i jazo belgilangan. Masalan, atrof-muhitga zarar yetkazgan va uni asrash qoidalarini buzgan kishi 400 qamchi urish bilan jazolangan. Suv sifatining tez buzilishi, suvda turli mikroblarning tez ko'payishi uchun qulay muhit mavjudligi anglangan holda, "Avesto"da suv havzalariga tupurish u yoqda tursin, qo'lni chayish ham an etilgan. Turli ehtiyojlar uchun zarur bo'lgan suv ma'lum miqdorda idishda olinib, so'ng ishlatilgan. Maishiy chiqindilar, turli hayvon jasadlari, daraxtlar chirindilarini bartaraf etish masalalariga ham e'tibor berilgan.

Masalan, inson yoki hayvon o'ligi tushgan soy, ariq, hovuz va quduqlarni bir necha marta qatron qilish kerakligi aytiladi. Qatron usullari sifatida: 1) suv havzasini suvga to'ldirib bo'shatish; 2) yomg'ir suvi bilan yuvish; 3) bir necha marta suv to'ldirish kabi harakatlar qayd etiladi.

Masalan, inson yoki hayvon o'ligi tushgan soy, ariq, hovuz va quduqlarni bir necha marta qatron qilish kerakligi aytiladi. Qatron usullari sifatida: 1) suv havzasini suvga to'ldirib bo'shatish; 2) yomg'ir suvi bilan yuvish; 3) bir necha marta suv to'ldirish kabi harakatlar⁴⁶ qayd etiladi.

Asarda atrof-muhit tozaligini saqlash, turli kasalliklarning oldini olish vositalari, axlat, maishiy chiqindilarni quyidagi yo'llar bilan bartaraf etish zarurligiga urg'u berilgan:

1. Axlatlarni berkitish, ifloslangan joylarni tuproq, tosh, kul yordamida ko'mib tashlash (bu yo'l bilan kasallik tarqatuvchi mikroblar o'ldirilgan yoki kamaytirilgan).

2. Otash (olov), issiqlik va sovuqlik vositasida yo'qotish (olov (otash) barcha kasallik omillarini bartaraf etuvchi eng samarali vosita hisoblangan, olov yordamida hatto kiyim-kechaklarni zararlantirish mumkinligi qayd etilgan).

3. Kimyoviy usul (bu usul kul, sirka, sharob, turli giyohlar (sada, piyoz, aloe, sandal)ni tutatishga asoslangan)⁴⁷.

Asarida bolalarni yoshlik paytidanoq daraxt ko'chati o'tkazish, uy-ro'zg'or qurollarini yasash, yerga ishlov berish va chorva bilan shug'ullanishga o'rgatish zarurligi aytilgan⁴⁸. Bolalarning bu kabi yumushlarni to'g'ri tashkil etishga o'rgatish ikki jihatdan ahamiyatlidir. Ya'ni: 1) qayd etilgan faoliyat orqali hayotiy ehtiyojlar qondirilgan; 2) bolalar ko'chatlarni o'tkazish, yerga ishlov berish, chorva mollarni parvarishlash chog'ida texnik qoidalarga rioya qilish, atrof-muhitga zarar yetkazmaslikka doir odatlarni o'zlashtirib borganlar.

⁴⁶ Ўша манба. – 32-б.

⁴⁷ Ўша манба. – 32-б.

⁴⁸ Ўша манба. – 31-б.



2. Islom madaniyatida estetik qarashlar⁴⁹. Qur’oni karim va hadisi shariflar Islom madaniyati va estetikasining manbaidir. Bu davrda dunyoviy ilm-fan ilohiyot bilan bog’liq holda o’qitilib, tavhid – Allohni bilish, uning sifatlarini anglash, ya’ni: “Alloh go’zal, u yaratgan narsalar ham go’zal, u go’zalikni yoqtiradi, shu bois komil insonning xatti-harakatlari ham go’zal bo’lishi, inson go’zallikka go’zallik bilan javob berishi kerak”, degan fikr mavjud edi.

Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy «AI-adab al-mufrad» («Odoh durdonalari») asarida inson xulqi go’zalligi haqida bunday hadislarini keltirgan: Rasululloh: «Yaxshilik – axloqning chiroyli bo’lishi, gunoh esa ko’nglingda g’ashlik paydo boladigan (nojo’ya) ishni qilishdadir. Uni odamlar bilib qolishini xohlamaydigan bo’lsang, mana shu ishni qilmog’ing gunohdir», dedilar. Yana bir hadisda ko’ngil shodligi, yaxshilik va yomonlik haqida, boylik bilan maqtanmaslik xususida bunday deyiladi: «Rasululloh: «Boylik yomonliklardan saqlanadigan odamlar uchun zararsizdir. Mana shunday kishilar uchun tani sog’lik boylikdan ham yaxshiroqdir va ko’ngil shodligi (Allohga shukrona aytiladigan ne’matlardan biri)dir».

«Odob durdonalari»da axloqiy go’zallik haqida yana bunday hadislarini o’qiyimiz: Rasululloh: «Sizlarning yaxshilaringiz – axloqi yoqimli bo’lganlaringizdir», - der edilar.

Shu asarda yana ko’ngil sahiyligi haqida shunday deyiladi: «Boylik — molning ko’pligi emas, balki nafs (ruh)ning boyligidir». Shuningdek. Qur’oni Karimda yana: «Tangri sizlarning tashqi ko’rinishlaringiz yoki mol-u dunyolaringizga emas, balki didlaringizga, ishlaringizga qarab baho beradi», deb ta’kidlanadi.

Markaziy Osiyo musiqa san’ati miloddan oldingi asrlardayoq xalqning turmush madaniyatidan munosib o’rin olgan edi. Xalq sayillari, to’y-tomoshalari, “Navro’z” bayrami va boshqa marosimlar kuy va qo’shiqsiz o’tmas edi. Masalan, Mahmud Koshg’ariyning “Devon-u lug’atit turk” kitobida keltirilgan qo’shiqlar yurtimizda nafosatning juda keng tarqalganidan dalolat beradi. Bu kitobda mehnat va marosim qo’shiqlari, qahramonlik qo’shiqlari hamda ishqiy, axloqiy-ta’limiy she’rlar keng o’rin olgan. Qo’shiq va she’rlarda mehnat jarayonlari, maishiy hayot manzaralari, kishilarning jo’shqin his-tuyg’ulari, umid va orzulari ifodalangan. Mehnat qo’shiqlarida bunyodkorlikka, mehnat mashaqqatlarini yengillatishga, hordiq chiqarishga da’vat etiladi.

O’zbek milliy musiqiy merosida maqom alohida o’rin tutadi. Binobarin, “Shashmaqom”ning shakllanishi ham qadimgi davrlarga borib taqaladi. U dastlab 24 maqom, keyin 12 maqom (unga Borbad Marvaziy asos solgan, deb taxmin qilinadi) va nihoyat XV asming mashhur musiqa olimi Najmiddin Kavkabiy (1516-yilda vafot etgan) tomonidan olti maqom – “Shashmaqom” shaklida qaror topdi.

Sharq Uyg’onish davrining estetik tafakkuri taraqqiyotida Kaykovusning 1082-1083-yillarda yaratilgan “Qobusnoma” asari muhim o’rin tutadi. Go’zallik tuyg’usini idrok etish, ya’ni borliqqa estetik munosabatda bo’lish insonning axlo-

⁴⁹ Ушбу кичик параграф мазмунини ёритувчи материаллар қуйидаги манбадан олинди: Умаров Э., Каримов Р., Мирсаидова М., Ойхўжаева Г. Эстетика асослари / Касб-хунар коллежлари учун ўқув қўлл. – Т.: Чўлпон номидаги НМИУ, 2013. – 14-60-б.



qiy-xulqiy hislatlari orqali namoyon bo'lishi haqidagi Sharq ilk Uyg'onish davri mutafakkirlarining falsafiy-estetik qarashlari islom estetikasining mohiyat-mag'ziga asoslanadi. Shu bois "Qobusnoma" da ham estetik qadriyatlar axloqiy qadriyatlarga o'rab bayon qilingan.

Kaykovusning pand-nasihatlar mazmuni go'zal xulqli, komil insonga qaratilgan bo'lib, ular ilohiy, dunyoviy go'zalliklarni qadrlashga da'vatlar bilan nurlantirilgan.

Ulug' alloma Umar Xayyom ham estetika rivojiga katta hissa qo'shgan.

"Dunyoda yaxshi narsalar ko'p va ularni ko'rib bahramand bo'lish odamlarni shod etadi va tabiatlarini pokiza qiladi, ammo hech narsa go'zal yuz o'rnini bosa olmaydi, chunki go'zal yuz shunday quvonch baxsh etadiki, boshqa hech qanday quvonch unga teng kela olmaydi. Agar go'zal yuz yana yaxshi xulq bilan uyg'unlashsa, baxt-saodatning eng yuqori darajasi bo'ladi", deb yozadi Umar Xayyom "Navro'znoma" asarida.

Sharq Uyg'onish davri ma'rifati va madaniyati haqida so'z borganda, uni Islom dini bilan uzviy bog'liq ekanligini e'tirof etish kerak. Islom dini dunyo diniga aylanishi munosabati bilan musulmon o'lkalarida ilm-fan taraqqiyotiga keng yo'l ochildi.

3. XIV-XV asr falsafiy, adabiy-estetik tafakkuri taraqqiyoti. Amir Temur va Temuriylar davrida mo'g'ul bosqini tufayli butunlay vayron etilgan Samarqand shahri qayta qurildi. Shahar tevaragi Oha- nin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, So'zangaron va Feruza atalmish oltita Amir Temur inshootlari. darvozali qal'a devori bilan o'rab chiqilgan. Ko'rkam va muhtasham binolardan tashqari turli- tuman kasbdagi hunarmandlar mahallalari qad ko'targan.

Amir Temur Samarqand atrofida o'z farzandlariga atab ko'shklar, go'zal bog'lar barpo ettirdi. Mohir me'mor, tajribali sohibkorlar aql-zakovati, mehnati, mahorati bilan barpo etilgan Bog'i Dilkusho, Bog'i Chinor, Bog'i Baland, Bog'i Shamol, Bog'i Bihisht, Bog'i zog'on, Bog'i Nav, Bog'i Jahonnamo, Bulbog', Bog'i Bo'ldu, Bog'i Naqshi jahon, Bog'i Davlatobod, Bog'cha, Bog'i Maydon kabi 14 ta chorbog' va ulardagi go'zal ko'shklar o'sha davr sayilgoh-bo'stonchilik, bog'dorchilik san'atining namunalaridir.

XIV-XV asr falsafiy, adabiy-estetik tafakkuri taraqqiyoti Alisher Navoiy nomi bilan bog'liq. Navoiy falsafiy, adabiy-estetik qarashlari markazida komil inson tarbiyasi, uning olam go'zalliklari orasidagi hayot tarzi qanday bo'lishi kerak, degan masala turadi. Alloma go'zallikni, nafis san'atni yuksak qadrlab, nafis san'at inson ma'naviy olami, kamoli uchun kalit ekanini ta'kidlaydi.

Alisher Navoiy nigohida bahor chamanlari, husn-u jamol gulshani, mangu yashilligini yo'qotmagan savr-u shamshodlar va aksincha, xazon fasli, ravza ashjori (jannat daraxtlari)ning ishq va hijron gulxanlarida kuyib-yonishi, lola qonin to'kuvchi charx, gulzorsiz qolgan bulbullar – barchasi ruhlar olamidadir:

Navbahor ayyomi bo'Imish, men diyor-u yorsiz,
Bulbul o'lg'ondek xazon fasli gul-u gulzorsiz.
Goh sarv uzra, gahiguluzra bulbulnag'masoz,
Vahki, menmen gung-u lol, ul sarvi gulruksorsiz.



Baytlar davomida shoir aytadi: jannatda dildorsiz, ya'ni ishqsiz, yonishsiz (faqat yeb-ichish va mol-mulk dardida) bir dam tursam, jannat daraxtlari go'zal ko'rinmaydi, ular nazarimda o'tinday, daraxtlarning gullari esa olovdek jonimni kuydiradi.

Navoiy o'zining "Farhod va Shirin" dostonida Farhod devorlarni suratlar bilan bezab, ularda Shirin rasmini chizganligini, ayni vaqtda Shirin g'oyat go'zal hur-parilar qurshovida ham o'zining beqiyos husni bilan ajralib turgani tasvir etilganini hikoya qiladi.

Navoiyning adabiy, tarixiy va falsafiy asarlarida go'zallik, nafis san'at haqidagi fikrlar istagancha topiladi. Shu bilan birga uning adabiy-estetik qarashlari «Majolis un-nafois», «Mezon ul-avzon» va «Mufradot» asarlarida yana yorqin ifodasini topgan.

Alisher Navoiyning fikricha, go'zal ko'ngilni ochadi, xunuk hayotni o'ksitadi, yaxshi xulqli go'zal – jannat huridir, yomon tabiatli xunuk – do'zaxbon devdir.

Mirzo Ulug'bek davrida Samarqand, Sheroz, Hirotda rivojlangan xattotlik, naqqoshlik va musavvirlik san'ati Kamoliddin Behzod kabi iste'dodli kishilarning kamoloti uchun zamin bo'ldi. Miniatyura san'ati, tabiat ko'rinishlari, kishilar portretlari, hayot lavhalarini tasvirlovchi asarlar paydo bo'ldi. Adabiyot rivoji bilan uzviy bog'liq bo'lgan kitobat san'ati ham shu davrda keng rivojlandi.

Miniatyura san'atining markazida inson shaxsi turadi. Uni mohirlik bilan tasvirlashda Kamoliddin Behzod tengsiz bo'lgan.


Markaziy Osiyoda badiiy bezakli qo'lyozmalarning aksariyati Navoiy va Behzod davrida Hirotda yaratilgan. Behzod va uning izdoshlari Alisher Navoiy, Sulton Husayn, Jomiy, Nizomiy, Dehlaviy, Ali Yazdiy kabi adiblar va tarixchilarning asarlariga chiroyli rasmlar ishlashgan.

Sa'diy Sheroziy o'zining «Guliston» asarida shunday hikoya qiladi: «Ota sayohat orzusidagi o'g'luga «sayyohatchi yo boy, yo olim, yo chiroyli, yo ashulachi, yoki hunarmand bo'lishi kerak», deydi. Chunki, masalan, «Bir chimdim husn-u jamol bir dunyo mulk-u moldan yaxshiroqdir. Go'zallik dardman ko'ngillarning malhami, qulf eshiklarning kalitidir. Tabiiydirki, kishilar uning suhbatini dil orzulari deb bildilar va unga xizmat etmakni faxr hisoblaydilar».

XIV-XV asrda voizlik (notiqlik) san'ati ham rivoj topdi. Qadimda so'z aytuvchi notiqni voiz, uning nutqini esa va'z deb ataganlar. Voizlik bilimdonlikni, salohiyatni, so'zga boylikni, va'z ayta olish iste'dodini, yoqimli ovozni talab etardi. Husayn Voiz Koshifiyning «Axloqi Muxsiniyn», «Futuvvati sultoniya», Alisher Navoiyning «Majolis-un-nafois», «Zayniddin Vosifiyning «Bado'e-ul-voqoye'», Xondamirning «Makorim-ul-axloq» kabi asarlarida voizlik san'ati haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Notiqlik san'ati juda katta ijodiy mehnat va mas'uliyat talab etadi. Ba'zilar nutq madaniyatini chiroyli so'zlarni topib gapirish deb tushunishadi. Notiqlar chiroyli so'zlarni emas, balki odamlarning yuragiga tez yetib boradigan so'zlarni aytishgan. Pahlavon Mahmud hu haqda shunday yozadi:

Nutqing bahi nutq dunyoda ey do'st, yo'qdir,
Qutlug' bu kalomda hech kam-u ko'st yo'qdir.



Yong' oq-ku so' zing, kerakmas archimoq, chaqmoq,
Hammasi mag' iz uning, po' choq-po' st yo' qdir.

4. XVI-XIX asrlarda estetik taraqqiyot. XVI-XIX asrlarda estetik tafakkur taraqqiyotida Darvesh Ali Changiyning «Risolai musiqiy», Maleho Samarqandiyning «Muzakkir u' asxob», Zayniddin Vosifiyning «Bado'e-ul-vaqoye'» asarlari muhim ahamiyat kasb etdi.

Movarounnahr va Xuroson Uyg' onish davri mutafakkirlari san' atning voqelikka munosabati muammolariga asosiy e' tibor qaratgan bo' lsalar, XV-XVII asrlarda yaratilgan risolalarda, tazkiralarda ijod amaliyotidan kelib chiqqan holda fikr- mulohazalar bayon qildilar. Demak, bu o' rinda estetika nazariyasi bilan uning amaliy masalalari o' zaro bog' lanib ketganini ta' kidlash lozim bo' ladi. Shuningdek, bu davrda Nodira, Turdi, Maxmur, Gulxaniy, Sher Muhammad Munis, Ogahiy kabi bir qator zabardast nafosat namoyondalari yashab, ijod etdilar.

O' zbekistonda ilg' or estetik g' oya namoyondalari H.H.Niyoziy, Abdulla Avloniy, Behbudiy, Fitrat kabilar o' zbek ada biyoti, teatri, san' ati sohalarida chuqur, sermazmun ijod qildilar. Abdurauf Fitrat «O' zbek musiqasi va uning tarixi» asarida qadimda xonaqohlarda aytiladigan «Naqshi Mullo» kuyi Abdurahmon Jomiy asari, Shashmaqomdagi «Qari navo» kuyini esa Alisher Navoiy asari ekanini eslatib o' tadi. Shuningdek, u o' zining 1913-yilda yozgan «Hind sayyohi» asarida me' moriy obidalarining achinarli ahvolda ekanligini kuyinib tasvirlaydi. O' rta Osiyoda juda ko' p ilg' or estetik tafakkur namoyondalari yashab ijod etdilar. Ularning noyob asarlari hanuzgacha xalq ommasini tarbiyalash ishiga o' z hissasini qo' shmoqda.

O' rta asrlarda musulmon san' atining nazariy va amaliy tajribalarini umumlashtirib, Yevropa Uyg' onish davri mutafakkir va san' atkorlari puxta o' zlashtiradilar. Bu qarashlar yangicha ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar shakllanayotgan vaqtlarda ham Yevropa hududlari doirasida rivojlanib, yoyilib boraverdi. Bunga asosiy sabab, Sharq san' atkorlari g' arblik kasbdoshlaridan ancha oldin san' atning ilohiy va dunyoviy mazmunini qaror toptirishga muvaffaq bo' lgan edilar. Markaziy Osiyo xalqlari san' atining taraqqiyparvarligi va estetik jihatdan ahamiyatliligi xuddi ana shu tamoyillari bilan izohlanadi.

5. Turkistonda ma' rifatparvarlik estetikasi. XIX asrning ikkinchi yarmida Chor Rossiyasi tomonidan Turkistonning istilo qilinishi oqibatida ijtimoiy hayotda muayyan darajada ichki muvozanat va nisbiy turg' unlik yuzaga keldi, madaniy-estetik va badiiy jarayonlar jonlandi, yevropacha madaniyatning qadriyatlarini keng tarqalishiga sharoit yaratildi. Bu narsa Turkiston ziyolilarini ma' rifatparvarlik sohasida yanada faolroq ishlashga, targ' ibot-tashviqot ishlarini kengroq olib borishlariga turtki bo' ldi, yangicha falsafiy-badiiy asarlarning yuzaga kelishiga olib keldi. Ahmad Donish, Abay, To' xtagul, Furqat, Muqimiy va boshqa ma' rifatparvarlar mustamlakachilik yo' li bilan kirib kelgan rus va Yevropa madaniyatiga muayyan darajada ijobiy munosabatda bo' ldilar, uni o' ganishga kirishdilar.



Turkistonda juda qadimdan mavjud va asosan nazariy rivojlanib kelgan ma'rifatparvarlik endilikda amaliy jarayonga aylandi, boshqacha aytganda, turkistonlik ziyolilar keng miqyosda amaliy ma'rifatchilik faoliyatlari bilan shugullana boshlaydilar. Bir tomondan, o'sha davr vaqtli matbuotida ma'naviyat va siyosatga bag'ishlangan dolzarb mavzuda maqolalar e'lon qildilar, rus madaniyatining rang-barang janrlariga doir o'z munosabatlarini (masalan, Furqat) bildirdilar.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida bu tafakkur tarzi va idrok tizimiga milliy-ozodlik kayfiyati kirib keladi, natijada yuqoridagi qarash va munosabatlarda keskin o'zgarishlar yuz beradi.

Mavjud yaroqsiz ijtimoiy munosabatlarga qarshi norozilik, zarur taqdirda kurash yo'lini tutish ma'rifatparvarlikning siyosiy maqsad va mohiyatini ifoda etadi. Jadidchilik harakati buni to'g'ri tushungan holda, ma'rifat nafaqat bilimlarni tarqatish, targ'ib qilish, balki shu bilan birga har qanday «bid'at»ga qarshi ongli kurashish, uni bartaraf etish, sog'lom mafkuraviy tamoyillarni xalq o'rtasida tarqatishdan iboratligini ham anglab yetadi.

Faol ma'rifatchilik harakatlari tufayli Turkistonda ham yangi usuldagi maktablar ochiladi, milliy matbuot shakllanadi, milliy konsertlar, adabiy-badiiy o'qish tadbirlari amalga oshiriladi, yevropacha teatr, o'nlab ma'rifiy jamiyatlar, nashriyotlar faoliyat ko'rsata boshlaydi.

Ma'rifatparvarlik harakatining keyingi davri Rossiya va Turkiston hududida ro'y bergan keskin siyosiy voqealar bilan bog'lan- gandır. Shubhasiz, o'lkada yuzaga kelgan milliy-ozodlik harakatlari uning mazmuni va yo'nalishini tashkil etdi. Bu davr Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon singari badiiy madaniyat arboblari ijodiga kuchli ta'sir etadi.

Tarixan Turkiston xalqlari estetik tafakkurida go'zallik va ezgulik tushunchalari falsafiy-tasavvufiy tamoyillar, milliy qadriyatlar va umuminsoniy mazmun, shuningdek, sodda demokratik va ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan uyg'un holda namoyon bo'lganligi o'z-o'zidan ravshan. Ma'rifatparvar allomalar bu an'analarni davom ettirib, ezgulik va go'zallikni yaxlit hodisa tarzida idrok etadilar. Ularning fikricha, go'zallik ham, ezgulik ham insonda shodlik, mamnunlik tuyg'usini hosil qiladi, hodisalarning insoniy va ijtimoiy mohiyatini chuqur tushunishga asos bo'ladi. Biroq go'zallik bilan bog'langan har qanday shodlik va xushnudlik estetik zavq-shavqsiz amal qilmaydi.

Estetik zavq, rohatlanish insonning obrazli fikrlashi bilan tutashdir. Go'zallikni idrok etish jarayoni ko'proq emotsional holatni ifodalab, inson hissiyotlari, asosan, ko'rish hamda eshitish sezgilari orqali namoyon bo'ladi. Go'zallik bevosita amaliy-moddiy foydali manfaatlarni nazarda tutmaydi, aksincha, u insonning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Go'zallikdan farqli o'laroq, ezgulik muayyan amaliy maqsadlarga bo'ysunadi, u inson xulqining mezoni bo'lib, kishi- larning axloqiy munosabatlaridagi insoniylikni ifodalaydi. U ma'lum ma'noda go'zallik baxsh etadigan emotsionallik, mamnunlik tuyg'ularidan kam farq qiladi, ayni vaqtda kishining xayoli, sof tasavvuri bilan emas, balki konkret xatti-harakati yoki muayyan axloqiy faoliyatiga bog'liq holda



idrok etiladi. Shu sababli ma'rifatparvarlar insoniy go'zallikning negiziga ezgulik tushunchasini qo'yadilar, buningisiz go'zallikni tasavvur eta olmaydi, degan fikrni ilgari suradilar. Ahmad Donishning yozishicha, «aqli odamlarning alomati, ulardagi yaxshilikning yomonlikdan ko'proq bo'lishida»dir⁵⁰.

Jamiyatni xunuklashtiradigan illatlar haqida so'z yuritganda Abay birinchi o'ringa nodonlikni qo'yadi. Nodonlik ilmsizlik natijasi bo'lib, hayvonlikka yaqinlikdir. Erinchoqlikdan turmushdagi barcha yomon qiliqlar kelib chiqadi, u baxtsizlikning sababchisi, undan tekinxo'rlik tarkib topadi⁵¹. Xususan:

Ko'klam kelsa, qolmaydi qishning izi,
Qulp urar ko'kalamzor yerning yuzi;
Jon kiradi borliqqa, tabiatga,
Ona yanglig' jilmayar kunning ko'zi⁵².

VI. XX asrda estetik taraqqiyot⁵³. 1929-yilda o'zbek musiqali teatriga asos solindi. 1933-yilga kelib Hamza nomli akademik drama teatri ish boshladi. Har qanday mafkuraviy tazyiqlarga qaramasdan milliy ruh ustuvor bo'lib qolaverdi. Xalqimiz orasidan uning asriy dil armoni, orzu-istaklarini kuylagan Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Ota G'iyos Abdug'aniyev, Domla Halim Ibodov, Mulla To'ychi Toshmuhamedov, Madrahim Sheroziy, Shorahim Shoumarov, Abror Hidoyatov, Soraxonim, Tamaraxonim, Lutfixonim, Mukarramaxonim singari nomdor san'atkorlar yetishib chiqdi va dovrug' qozondi.

O'zbekistonda madaniy qurilish jarayonining chuqurlashib borishiga mamlakatda avj olgan totalitar tuzum zo'ravonligi va bedodligi jiddiy to'sqinlik tug'dirdi. Bunday keskin, nosog'lom muhitda madaniyat muassasalarining faoliyati cheklanib, bu soha xodimlarining ijodkorligi har tomonlama qiyin-qistov va siquvga olindi. Bu esa respublika madaniy hayoti maromining normal kechishiga, shubhasiz, salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Bu davrda o'zbek adabiyoti ham jiddiy hayotiy sinovlar jarayonini boshdan kechirdi. O'zining boy tarixiy an'alariga ega bo'lgan bu adabiyot xalq ruhining ko'zgusi sifatida uning ma'naviy hayotini tashkil qilishda, zamon muammolarini idrok etish hamda hal etishda o'z hissasini qo'shib bordi. Sovetlar nazarida adabiyot kuchli mafkuraviy qurol sifatida yangi tuzumni mustahkamlashga xizmat qilishi, millionlar ommasini shunga da'vat etmog'i kerak edi. VKP(b) MQning 1925-yil 18-iyunda qabul qilgan «Partiyaning adabiyot sohasidagi siyosati to'g'risida» nomli qarorida shu ruh, g'oya aks ettirilgandi.

⁵⁰ Ahmad Donish. "Navodirul vaqoye". - T.: 'Tafakkur', 2008, 388- b.

⁵¹ Abay. Tanlangan asarlar. - T.; Adabiyot va san'at nashriyoti, 2005. -

⁵² Abay. O'lanlar va nasihatlar & Tanlangan asarlar // <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborakin/abay-olanlar-nasihatlar.html>.

⁵³ Бу ўринда келтирилган маълумотлар ушбу манбадан олинди: Usmonov E., Karimov R., Mirsaidova M., Oyxojayeva G. O'zbekiston tarixi /Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. - T.: "O'qituvchi", 20014, 23-b.



Bu hujjat o'zbek adabiyoti va uning namoyondalari uchun ham qo'llanma hisoblanardi. Unda ochiqdan ochiq sovet mafkurasiga zid adabiyot «burjua mafkurasi xizmatkori», deb e'lon qilingandi. Biroq har qanday tazyiq-u ta'qiblarga qaramay o'zbek adabiyoti bu yillarda muhim yutuqlarga erishib, jiddiy o'zgarishlar yo'lidan ilgarilab bordi. Bu o'rinda Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar», «Mehrobdan chayon», Cho'lponning «Kecha va kunduz», Sadridin Ayniyning «Odina», «Sudxo'ring o'limi», Fitratning «Abulfayzxon», Oybekning «Qutlug' qon», G'afur G'ulomning «Ko'kan», «Yodgor» va shu singari o'z davri uchun muhim voqea bo'lgan badiiy g'oyasi yuksak asarlarni alohida qayd etmoq lozim bo'ladi.

1937–1940-yillarda O'zbekiston shahar va qishloqlari radiolashtirildi. Yangidan 264 ta ko'chma va doimiy kino qurilmalari o'rnatildi. 1941-yilda kitob nashr qilish 4375 nomga yetkazildi va 48 mln. nusxani tashkil etdi. 40-yillar boshlariga kelib kutubxona, klub, badiiy havaskorlik jamoalari soni 2 baravarga ko'paydi.

50–80-yillarda adabiyotda roman va povest janrlari rivojlandi. Urush voqealari, mehnatkashlarning front orqasidagi mehnati Oybekning «Nur qidirib» va «Quyosh qoraymas», Sh.Rashidovning «Qudratli to'lqin», Shuhratning «Shinelli yillar», Said Ahmadning «Ufq», O.Yoqubovning «El boshiga ish tushsa», G'G'ulomning «Toshkentliklar» romanlarida aks ettirildi.

Urushdan keyingi tiklash va tinch qurilish davri hayotini tasvirlovchi «Oltin vodiyan shabadalar» (Oybek), «Qo'shchinor chiroqlari» va «Sinchalak» (A.Qahhor), «G'oliblar» va «Bo'rondan kuchli» (Sh.Rashidov), «Ixtos» (I.Rahim) kabi romanlar va povestlar yaratildi.

Yozuvchi Parda Tursunning «O'qituvchi» romani qishloq ziyolilari faoliyatini ochib berdi. Primqul Qodirovning «Yulduzli tunlar», «Uch ildiz», O.Yoqubovning «Diyonat», Mirmuhsinning «Umid» asarlarida yosh zamondashlarimizning ma'naviy qiyofasi, hayoti va mehnati aks ettirildi.

Rahmat Fayziyning «Hazrati inson», O'Umarbekovning «Odam bo'lish qiyin», O'Hoshimovning «Nur borki, soya bor» romanlarida odob-axloq masalalari yoritildi.

O'zbek she'riyatining 60-80-yillardagi taraqqiyoti A.Oripov, E.Vohidov, Sayyor, N.Nazrullayev, B.Boyqobilov, E. Oxunova, O.Hojiyeva, H.Hudoyberdiyeva, O.Matjon va boshqa ko'plab shoirlarning ijodiy kamoloti bilan bog'liq holda kechdi. Uyg'unning «Abu Rayhon Beruniy», O.Yoqubovning «Ulug'bek xazinasi», M.Shayxzodaning «Mirzo Ulug'bek» kabi tarixiy mavzudagi asarlari yaratildi.

O'zbekistonda teatr va musiqa san'ati birmuncha o'sdi. Hamza nomidagi teatr jamoasi Shekspirning «Otello» va «Yuliy Sezar», Uyg'unning «Navbahor», Abdulla Qahhorning «Shohi so'zana», N.Hikmatning «Sevgi afsonasi», Uyg'un va I.Sultonning «Alisher Navoiy» asarlarini sahnalashtirdi.

O'zbek davlat filarmoniyasining musiqiy jamoalari samarali faoliyat ko'rsatdi. Faqat T.Jalilov nomidagi O'zbek davlat orkestri repertuaridan 1300ga yaqin asarlar o'rin oldi. «Lazgi», «Shodlik», «Go'zal» xoreografik ansambllari ham o'zbek va boshqa qardosh xalqlar ashula va raqslarini namoyish etdilar. «Bahor» xalq raqs ansambli, Yalla vokal cholg'u ansambllari jamoalarining konsertlari xalqqa manzur bo'ldi.



O'zbek teatrining rivojlanishiga rejissyorlardan M.Uyg'ur, Ye.Bobojonov, A.Ginzburg, T.Xo'jayevlar, aktyorlardan Abror Hidoyatov, O.Ho'jayev, A.Bakirov, S.Eshonto'rayeva, Sh.Burhonov, N.Rahimov, R.Hamrayev, Z.Muhammadjonov, B.Qoriyeva, Ya.Abdullayeva, G.A'zamov, Yo.Ahmedov va boshqa san'atkorlar salmoqli hissa qo'shdilar. Xalqimiz o'zbek san'ati dovrug'ini baland ko'targan H.Nosirova, M.Turg'unboyeva, Tamaraxonim, G.Izmailova, S.Qobulova nomlarini xurmat bilan e'zozlab kelmoqda.

1946–1985-yillar O'zbekiston kino san'atining yuksalish yillari bo'ldi. N.G'aniyev yaratgan «Tohir va Zuhra» (1945), «Xo'ja Nasriddinning sarguzashtlari», «Farg'ona qizi» kabi kinofilmlar xalq olqishiga sazovor bo'ldi.

60–70-yillarda o'zbek kino san'atiga yosh talantli rejissyorlar, aktyorlar kirib keldi. Sh.Abbosov, A.Hamroyev, R.Botirov, E.Eshmuhammedov, H.Ahmarov shular jumlasidandir. Sh.Abbosovning «Mahallada duv-duv gap» (1961), «Sen yetim emassan»(1963), «Toshkent – non shahri» (1970), «Abu Rayhon Beruniy»(1974), A.Hamroyevning «Shiddat» (1971), R.Botirovning «Seni kutamiz, yigit» (1972), E.Eshmuhammedovning «Nafosat»(1967) va «Umid qushi» (1975) kabi filmlarida davr farzandlarining hayoti, iste'dodu izlanishlari tasvirlangan.

Tasviriy san'at rivojlandi. Ch.Ahmarov va O'Tansiqboyevlar devoriy rasmlar, mozaika va manzara janri bo'yicha, V.Ye.Kaydalov va M.Nabiyevlar portret janri bo'yicha muhim asarlar yaratdilar. Rassomlar, haykaltaroshlar va arxitektorlar birlashib yirik monumental binolarni, maydonlarni ta'mirlash, naqshlar, rassomlik va haykaltaroshlik asarlari bilan bezatish an'anaga aylandi. Poytaxtning yirik jamoat binolari M.Usmonov rahbarligida ganch o'ymakorligi, Q.Haydarov va O.Fayzullayev rahbarligida yog'och o'ymakorligi bilan bezatildi.

O'zbek sirk ustalari – Toshkenboyevlar, Zaripovlar, Xo'jayevlar, Madaliyevlar va masxaraboz-qiziqchi Akrom Yusupov va boshqalarning chiqishlari, nafaqat O'zbekistonda, shuningdek, boshqa mamlakatlarda ham muvaffaqiyat qozondi va tomoshabinlarga manzur bo'ldi.

7. Mustaqillik davri estetik taraqqiyoti⁵⁴. Mustaqillik yillarida badiiy adabiyotda milliylik, ming yillik tarixiy ijodiy an'analar, umuminsoniy qadriyatlar, erkin fikr yuritish tamoyillari tiklandi. Badiiy adabiyotda mustaqillikni asrab-avaylash, ozod va obod Vatan qurish, barkamol insonni tarbiyalash, milliy o'zlikni anglash kabi masalalar bosh mavzu bo'lib qoldi.

Abdulla Oripov, Odil Yoqubov, Primqul Qodirov, Xurshid Davronlarning tarixiy roman, pyesa va qissalarida ulug' ajdodlarimiz Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Z.M.Bobur va boshqalarning siymolari umuminsoniy va milliy qadriyatlarga mos tarzda yangicha talqinda yoritildi.

Xalqaro Sholoxov mukofoti laureati To'lepbergen Qayipbergenovning «U dunyoga, bobomga xat» asari, Shukrulloning «Kafansiz ko'milganlar» romanida, Nazar Eshonqulovning «Qora kitob» povestida, O'tkir Hoshimovning «Tushda kechgan

⁵⁴ Ушбу ўринда берилган маълумотлар қуйидаги манбадан олинди: Усмонов Қ., Содиқов М., Бурхонова С. Ўзбекистон тарихи / Дарслик. – Т.: “Moliya-iqtisod”, 2005. – 373-379-б.



umrlar», Togʻay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» singari asarlarda mustabid sovet davrida xalq boshiga solingan gʻam-alamlar haqqoniy tasvirlangan.

Tohir Malikning «Shaytanat» (4 kitob), Hojiakbar Shayxovning «Tutqin odamlar» asarlarida insonni iymon va vijdondan ozdirishga, razolat va qabohat ummoniga botirishga urinuvchi yomonlik dunyosi, mafiya olami shaytonlari fosh qilinadi, ularga nisbatan nafrat tuygʻulari tarannum etiladi. Omon Muxtorning «Toʻrt tomon qibla» nomli trilogiyasi, Barot Boyqobulovning «Oʻzbeknoma» tarixiy-falsafiy dostoni, Abduqahhor Ibrohimovning «Biz kim, oʻzbeklar» badiiy-tarixiy asari, Azim Suyunning «Oq va qora», A.Qutbiddinning «Izohsiz lugʻat» sheʼriy asarlari zamonaviy oʻzbek adabiyotining yorqin ifodasidir.

Mustaqillik yillarida meʼmorchilik sanʼati yanada rivojlanib, takomillashib bormoqda. Meʼmorchilikda ikki asosiy tamoyil koʻzga tashlanadi. Ulardan biri sharqona meʼmoriyatning anʼanaviy qonun-qoidalariga rioya etishdir. Bu tamoyil Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Turkiston saroyi, Oliy Majlis, Senat, Toshkent shahar hokimiyati binolari timsolida oʻz aksini topgandir.

Meʼmorchilikdagi ikkinchi tamoyil esa Oʻzbekistonning jahon hamjamiyatidan munosib oʻrin olish sari intilishini namoyish etuvchi jahon meʼmorchiligining eng yaxshi yutuqlaridan foydalanishda namoyon boʻlmoqda. Bunday binolar jumlasiga «Interkontinental», «Sheraton» mehmonxonalari, «Oʻzekspomarkaz», Milliy bank, Markaziy bank, «Toshkentplaza» savdo markazi, Respublika birja markazi, banklararo moliyaviy xizmatlar Markazi, Oʻzbekiston Davlat konservatoriyasi va boshqa binolarni kiritish mumkin. Mustaqillik yuzlab akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun mahobatli binolar bunyod etildi.

Mustaqillik yillarida badiiy kulolchilik, pichoqchilik, zargarlik, ganchkorlik, yogʻoch oʻymakorligi, naqqoshlik, kashtachilik, zardoʻzlik, gilamdoʻzlik, bezakchilik kabi amaliy sanʼat turlari tiklandi va yangi maʼno-mazmun bilan rivojlanib bormoqda. Mustaqillik sharofati bilan dizayn sanʼati ham jadal rivojlanmoqda.

Bu yillarida kino sanʼati rivoj topdi. 1996-yilda «Oʻzbekfilm» tasarrufida 8 ta kinostudiya, 30ga yaqin mustaqil ijodiy studiyalar faoliyat yuritdi. 1996-yilda tashkil etilgan «Oʻzbekkino» davlat aksionerlik kompaniyasi, uning davlat tomonidan moddiy jihatdan qoʻllab-quvvatlanishi kino sanʼatining rivojida muhim ahamiyatga ega boʻldi. 1997-yil 22–29-may kunlari XII Xalqaro Toshkent kinofestivali boʻlib oʻtdi. Unda 32 ta davlat va 8 ta xalqaro tashkilotdan vakillar, kino sanʼati ustalari qatnashdi. «Buyuk Amir Temur» filmi ijodkori R.Ibrohimovga festival bosh sovrini – «Neksiya» avtomobili berildi.

Mustaqillik yillarida oʻnlab hujjatli filmlar yaratildi. «Oʻzbekiston bahorlari», «Ulkan odim», «Ular Germaniyada oʻqigan edilar», «Oʻzbekiston qahramonlari», «Umid qaldirgʻochi», «Istiqlol fidoyilari» va boshqalar shular jumlasidandir.

1992-yilda «Oʻzbekdavlat sirk» respublika birlashmasining tashkil etilishi sirk sanʼatining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega boʻldi. Toshkent sirki zamonaviy talablar asosida qayta taʼmirlandi, unga Oʻzbekiston xalq artisti Toshkenboy Egamberdiyev nomi berildi. Anʼanaviy sirk sanʼatining unutilgan turlari tiklandi va rivojlandi. Isteʼdodli yoshlarga amaliy yordam berish maqsadida 1996-yilda estrada-



sirk kolleji ochildi. 1998-yilda Toshkent sirkida iste'dodli yoshlarga ko'maklashuvchi bolalar studiyasi ochildi.

Mustaqillik yillarida milliy musiqa va qo'shiqchilik san'ati rivojlandi. Respublika madaniyat ishlari vazirligi, 1992-yilda tashkil etilgan «Xalq ijodi va madaniy-ma'rifiy ishlar respublika Markazi», uning viloyatlardagi bo'limlari musiqa va qo'shiqchilik san'atini, havaskorlik va folklor jamoalari faoliyatini rivojlantirish, unutilgan xalq ohanglarini tiklash maqsadida turli xil ko'rik tanlovlar, festivallar tashkil etdilar. 1992-yilda Toshkentda «Asrlarga tengdosh navolar» va «Boqiy ovozlar», Xorazm viloyatida folklor jamoalari, askiya, qiziqchi va masxarabozlarning, Qo'qonda katta ashula, lapar va yalla ijrochilarining ko'rik-tanlovlari o'tkazildi.

«O'zbekiston – Vatanim manim» qo'shiq tanlovini tashkil etish yo'lga qo'yildi. Tanlov jarayonida Vatan, mustaqillikni e'zozlovchi yuzlab yangi qo'shiqlar yaratildi. «O'zbekiston – Vatanim manim», «Men seni sevaman, O'zbekiston», «Vatan yagonadir», «Mustaqillik gullari», «Ona yurtim», «O'zbekiston askarlari» qo'shiqlari shular jumlasidandir.

1997-yil 11-martda qabul qilingan Respublika hukumatining ««Sharq taronalari» Xalqaro musiqa festivalini o'tkazish to'g'risida»gi qarori musiqa san'atining noyob namunalarini keng targ'ib qilish, rivojlantirishda dasturamal bo'lib xizmat qildi.

Jamiyat madaniy-ma'rifiy hayotida, aholida tarixiy xotirani tiklash va mustahkamlashda muzeylarning ahamiyati katta. Shu boisdan ham mustaqillik yillarida mavjud muzeylarni ta'mirlash, ularni yangi eksponatlar bilan boyitish, yangi muzeylar barpo etishga alohida e'tibor berildi.

Namanganda ulug' o'zbek shoiri Boborahim Mashrab muzeyi, Xorazmda hofiz

Hojixon Boltayev nomli maqomchilar muzeyi, Urganchda Xorazm amaliy san'ati va tarixi muzeyi, Buxoroda temirchilik muzeyi, Samarqand viloyatining Oqtosh shahrida xalq baxshisi Islom shoir Nazar o'g'lining uy-muzeyi, Toshkentda o'zbek ayollari orasidan chiqqan birinchi huquqshunos olim Hadicha Sulaymonova muzeyi, o'zbek raqqosasi M.Turg'unboyeva muzeyi singari uy muzeylari tashkil etildi.

1996-yil 1-sentabr kuni Toshkentda Osiyoda yagona bo'lgan Olimpiya shon-shuhrat muzeyi faoliyat ko'rsata boshladi. Bu muzey o'zbekistonlik sportchilarning xalqaro musobaqalardagi muvaffaqiyatlarini namoyish etadigan, mamlakatimizda sport harakatini rivojlantirish markazi bo'lib qoldi.

1996-yil 18-oktabrda Toshkentda Temuriylar tarixi davlat muzeyi ochildi. Muzey temuriylar davri ruhini aks ettiruvchi o'sha davrga xos tarixiy jihozlar, qurol-aslahalar, lashkarboshilar va oddiy jangchilarning kiyim-boshlari, oltindan yasalgan uy-buyum ashyolari, musiqa asboblari, Amir Temur, Bobur qo'lyozmalari, Ulug'bekning astronomik qurilmalari va boshqa 2000 dan ortiqroq tarixiy, madaniy yodgorliklar bilan jihozlangan.



II. Ta'lim-tarbiya ishlarida o'zbek xalq amaliy san'ati. O'zbek xalq amaliy san'ati o'ziga xos boy an'analariga ega⁵⁵. Bizning davrimizga qadar yetib kelgan o'zbek milliy amaliy san'ati asarlari xilma-xildir. Bular (7-rasm).











7-rasm. O'zbek xalq amaliy san'ati turlari

Amaliy san'atning bu qayd etilgan turlari har manzilning o'ziga xos mahalliy xususiyatlariga ega bo'lib, shakl va naqsh bo'yoqlarida aks ettiriladi. Bu esa ustalar orasida o'ziga xos ishlov buyumlari va xilma-xil bezash asboblari mavjudligidan dalolat beradi.









O'zbek xalq amaliy san'ati turlari bir necha xil uslubda yaratiladi (1-jadval):

⁵⁵ O'zbekiston xalq amaliy san'ati va uning rivojlanishi // <http://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/13176-o-zbekiston-xalq-amaliy-san-ati-va-uning-rivojlanishi>.

Xalq amaliy san'ati turlaridan namunalar

№	Xalq amaliy san'ati turlari	Namunalar	
1.	Kulolchilik	 <p data-bbox="465 611 844 668">//http://www.ddsmfa.uz/uz/fargona-viloyatiga-xush-kelibsiz</p>	 <p data-bbox="883 472 1188 668">//https://www.google.com/search?rlz=1C1CHBD_ruUZ806UZ806&bi-w=1366&bih=657&sxsrf=AOaemvJ_yhf-ncPqn5TNL_DwKDknGyaa-DQ:1639064836684&source</p>
2.	Naqqoshlik	 <p data-bbox="444 915 859 1024">//https://www.google.com/imgres?imgurl=https_hozir.org_dars-ishlanmasi-v_7979_html_797f56e7.jpg&imgrefurl</p>	 <p data-bbox="879 915 1188 1024">https://www.google.com/imgres?imgurl=https_hozir.org_dars-ishlanmasi-v_7979_html_797f56e7.jpg&imgrefurl</p>
3.	O`ymakorlik (yog'och va ganch)	 <p data-bbox="444 1258 859 1372">//https://www.google.com/imgres?imgurl=https_hozir.org_dars-ishlanmasi-v_7979_html_797f56e7.jpg&imgrefurl</p>	 <p data-bbox="879 1258 1188 1372">//https://www.google.com/imgres?imgurl=https_hozir.org_dars-ishlanmasi-v_7979_html_797f56e7.jpg&imgrefurl</p>
4.	Kashtachilik	 <p data-bbox="452 1601 859 1652">//https://www.google.com/search?q=Kashtachilik+namunalar&tbm</p>	 <p data-bbox="879 1568 1188 1652">//https://www.google.com/search?q=Kashtachilik+namunalar&tbm</p>



5.	Do'ppido'zlik	 <p data-bbox="418 462 817 548">//https://www.google.com/search?q=Do'ppidozlik+namunalar&tbm=isch&ved</p>	 <p data-bbox="848 443 1146 559">//https://www.google.com/search?q=Chust+do'ppisi+namunalar&tbm=isch&ved</p>
6.	Zardo'zlik	 <p data-bbox="418 868 817 953">//https://www.google.com/search?q=Zardo'zlik+namunalar&tbm=isch&ved=2ahUKEwjy1</p>	 <p data-bbox="848 805 1146 972">//https://www.google.com/search?q=Zardo'zlik+namunalar&tbm=isch&chips=zardo'zlik+namunalar,online_chips</p>
7.	Tikuvchilik (milliy liboslar)	 <p data-bbox="418 1205 817 1321">//https://www.google.com/search?q=Zardo'zlik+namunalar&tbm=isch&chips=zardo'zlik+namunalar,online_chips</p>	 <p data-bbox="848 1210 1146 1321">//https://www.google.com/search?q=Milliy_o'zbek+liboslari+(ayollar)+namunalar&tbm</p>
8.	Zargarlik	 <p data-bbox="418 1582 817 1643">//https://www.google.com/search?q=Zargarlik+namunalar&tbm=isch&ved</p>	 <p data-bbox="848 1572 1146 1652">//https://www.google.com/search?q=Zargarlik+namunalar&tbm=isch&ved</p>



9.	Pichoqchilik	 <p data-bbox="455 382 848 462">//https://www.google.com/search?q=Pichoqchilik+namunalar&tbm=isch&ved</p>	 <p data-bbox="876 382 1192 462">//https://www.google.com/search?q=Pichoqchilik+namunalar&tbm=isch&ved</p>
10.	Toshtaroshlik	 <p data-bbox="455 702 848 782">//https://www.google.com/search?q=Tosh+o'ymakorligi+namunalar&tbm=isch&ved</p>	 <p data-bbox="876 702 1192 782">//https://www.google.com/search?q=Tosh+o'ymakorligi+namunalar&tbm=isch&ved</p>
11.	Misgarlik (Kandakorlik)	 <p data-bbox="455 1144 848 1186">//https://www.google.com/search?q=Misgarlik+namunalar&tbm=isch&ved</p>	 <p data-bbox="876 1077 1192 1157">//https://www.google.com/search?q=Misgarlik+namunalar&tbm=isch&ved</p>
12.	Gilamdo'zlik	 <p data-bbox="455 1506 848 1586">//https://www.google.com/search?sxsrf=AOaemvLZ7080gyuju5q0mxkK12SB1YkwDg:c1639082329655&source</p>	 <p data-bbox="876 1458 1192 1576">//https://www.google.com/search?sxsrf=AOaemvLZ7080gyuju5q0mxkK12SB1YkwDg:1639082329655&source</p>



<p>13.</p>	<p>Beshiksozlik</p>	 <p>//https://www.google.com/search?q=Beshik+namunalar&tbm=isch&ved</p>	 <p>//https://www.google.com/search?q=Beshik+namunalar&tbm=isch&ved</p>
<p>14.</p>	<p>Oshpazlik</p>	 <p>//https://www.google.com/search?q=Milliy+taomlar+namunalar&tbm=isch&ved</p>	 <p>//https://www.google.com/search?q=Milliy+taomlar+namunalar&tbm=isch&ved</p>
<p>15.</p>	<p>To'qish (adras, savat, banoras) san'ati</p>	 <p>//https://www.google.com/search?q=Savat+to'qish+namunalar&tbm=isch&ved</p>	 <p>//https://www.google.com/search?q=Dastgohda+atlas+to'qish&tbm=isch&ved</p>
<p>16.</p>	<p>Yog'och va metall dan ishlangan uy-ro'zgor-or buyumlari</p>	 <p>//https://www.google.com/search?q=Yog'och+va+metall dan+ishlangan+uy-ro'zgor+buyumlari&tbm=isch&ved</p>	 <p>//https://www.google.com/search?q=Yog'och+va+metall dan+ishlangan+uy-ro'zgor+buyumlari&tbm=isch&ved</p>



17.	Milliy qandolatchilik	 //https://www.google.com/search?q=\BA&tbm=isch&ved	 //https://www.google.com/search?q=&tbm=isch&ved
18.	Milliy qo'g'irchoqlarni yasash	 //https://www.google.com/search?rlz=1C1CHBD_ruUZ806UZ806&sxsrf	 //https://www.google.com/search?rlz=1C1CHBD_ruUZ806UZ806&sxsrf

O'zbekistonda amaliy san'atning kashtachilik, gilam, palos to'qish va zardo'zlik kabi turlari tobora taraqqiy etib bormoqda.

O'zbekiston o'zining rang-barang shoyi, atlas, beqasam, xon atlas va boshqa turli buyumlari bilan uzoq asrlardayoq nom chiqarib kelgan. Hozirgi vaqtda badiiy to'qimachilik san'ati Marg'ilon, Farg'ona, Namangan, Samarqand va Buxoro shaharlarida juda rivojlangan.

Badiiy to'qimachilik sohasining asosiy shoxobchalaridan bo'lgan gilamchilik san'ati ham keng tarqalgan. Mohirlik bilan tayyorlangan gilamlar, paloslar, sholchalar xalq to'qimachilik san'ati asosida har manzilda turli shakllarda to'qiladi. Qarshi va Koson tumanlarida rang-barang bo'yoq va geometrik shakldagi guldor sholchalar, Samarqand viloyati tumanlarida uzun patlik julqirs shakldagi paloslar, Andijonning Oyim qishlogida "qiziloyoq" gilamlar to'qiladi. Xiva esa tiqin texnikasi asosida to'qiladigan gilamlari bilan mashhurdir.

Keyingi paytlarda O'zbekistonda kulolchilik ishlari anchagina yo'lga qo'yildi. Sopol buyumlarni yasash va unga bo'yoq berishda har bir shahar va tumanning o'ziga xos uslubi mavjud bo'lib, ustalar o'zlariga xos an'analarga egadir. Buxoro va G'ijduvon ustalari ko'proq qizg'ish-jigarrang bo'yoqlarda, Rishton ustalari ko'kimtir, moviy-havo rang, Samarqand ustalari yashil-sariq rang tusda, Shahrisabz ustalari qizg'ish bo'yoqdan foydalanadilar.

O'zbekistonning qo'l-hunar san'atida mis buyumlariga badiiy naqsh o'yish kasbi alohida o'rin tutadi. Asosan bu hunar ko'proq Qo'qon, Qarshi, Buxoro, Shahrisabz,



Xiva shaharlarida rivoj topgan Naqqosh miskar ustalar tomonidan nozik shakllarda ajoyib ishlangan choy idish, qumg'on, choynak, barkash, kuldon, patnislar va xilma-xil buyumlarni har bir xonadonda uchratish mumkin.

Yog'ochdan sharq an'anasi asosida xilma-xil badiiy buyumlar ishlaydigan o'zbek yog'ochsozlari orasida alohida uslubga ega bo'lgan ustalar ko'p. Yog'och o'ymakorlik san'ati Xiva, Buxoro, Samarqand, Shahrisabz va Toshkentda ko'proq rivoj topgan. O'ymakor ustalar o'z hunarlarini asosan eshik, ustun, darcha, tepa tuynuk va shu kabi binokorlik qismlarini yasashda namoyon etib kelganlar. Hozirgi vaqtda ular o'z san'atlarini aholi, jamoat binolarini bezatishga baxsh etmoqdalar. Yog'och buyumlar do'konida turli xil buyumlarning (kiyim ilgichlar, shifonerlar, divan, stol-stullar) yangicha shaklda ishlanganiga ko'zingiz tushadi. Bularning ko'rinishi chiroyli, sodda, ishlatishda ancha o'ng'aylik tug'diradi. Ular yangi yetishib chiqqan ustalarning ijodiy mahsulidir. Bu ishda yorqin bo'yoqlarni tanlagan bo'yoqchilarning ham hissasi katta.

Yog'ochga naqsh ishlash san'ati taxminan IV asrdan boshlangan. Badiiy jihatdan bezalgan gulli naqshdor o'rta asr yodgorliklari hozirgi davrga qadar saqlanib qolgan. Qadim zamonlardan boshlab madrasalarning to'sini, araqi, ustunlari, boylar yoki jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan joylar, amaldorlar qurdirgan mehmonxonalar naqqoshlar tomonidan nafis (nozik) naqshlar bilan bezatib kelingan.

Madrasa devorlari va karniz oraliqlariga ganch ustalari nafis gullarni o'yib ishlashgan.

Naqqoshlik ayniqsa sabr-toqat, mustahkam asab, yuksak quntni talab qiluvchi hunardir. X asrda yashab o'tgan Qobusning nabirasi Kaykovus ham kasb-hunar o'rganish har bir yoshning burchi, deb hisoblagan.

Bola tarbiyasida hunar o'rganishning ta'siri, halol mehnat kabi axloqiy tushunchalar shubhasiz yuksak ma'no kasb etadi. Bu bilan insonlar o'rtasida do'stlik aloqalarini rivojlantirishga, turmush darajasini taraqqiy ettirishga yaxshi dalillar keltiriladi.

Kaykovus o'z zamonasining farzandlari mehnatsiz, ilm-hunarsiz na ilm cho'qqisiga, na ma'rifatga ega bo'lishi mumkin emasligini o'zining hayotiy tajribasi orqali tushuntiradi. U: "Bilimni egallamoq uchun mehnat qilish, badanni dangasalikdan qutqarish foydalidir. Chunki dangasalik, ishyoqmaslik badanning buzilishiga, kasallanishiga sababchi bo'ladi. Agar mehnat qilib badanni o'zingga bo'ysindirmasang, sog'lom va baland martabali bo'la ol-maysan..." - degan edi.

Kasb va hunar yoshlar vaqtining behuda o'tishiga yo'l qo'ymaydi. Hunar va kasb o'rganish yoshlarni har qanday nojo'ya xatti-harakatlardan xoli qiladi. Hayotda uchragan qiyinchiliklar oqibatida tug'ilishi mumkin bo'lgan yomon fikrlardan qaytishga o'rgatadi.

Jahonga mashhur bo'lgan buyuk olim va mutafakkirlar Aristotel, Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Nosir Xisrav, Nizomiy Ganjaviy, Muslihiddin Sa'diy, Umar Xayyom, Alisher Navoiy, Bedil, Bobur kabilar kishilik madaniyati taraqqiyotining rivoji uchun o'zlarining ilmiy-badiiy ijodlari bilan katta hissa qo'shganlar. Ular jozibador go'zalliklar insonlar qalbiga doimo shodlik baxsh etib, har qanday g'am-g'ussa, iztiroblarni yenga olishiga ishonganlar. Bobur o'z zamonasidagi badiiy naqshli



irmoqlar bilan gul soluvchi naqqoshlar mehnatini yuksak qadrlab, ularni tez-tez o'z huzuriga chorlab, esdalik sovg'alar taqdim etgan va ular haqida: "Mehnatda sinalgan elda aziz", - deb maqol yaratgan.

A.Navoiy esa, naqqoshlar hunaridan zavqlanib, ularga el oldida boqiy umr tilagan. Bu olimlar naqsh gullarining topilishi va takomillashishiga, o'ymakorlik ishlarining davom etib rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shganlar.

VII-VIII asrlardagi hukmdorlarning Varaxsha shahridagi saroylarida amaliy san'atning xilma-xilligi jihatidan kishini hayron qoldiradigan namunalari saqlangan. IX-XI asr boshlarida Markaziy Osiyo tarixida badiiy madaniyat, ayniqsa arxitektura tez rivojlangan. Arab bosqinchilarining bostirib kirishi tufayli bu davr O'rta Osiyo madaniyatini uch bosqichga bo'lish mumkin, ya'ni:

1. VIII-IX asr o'rtalarida shahar ichkarisida olib borilayotgan qurilish ishlari juda susayib ketdi.

2. IX-X asrning ikkinchi yarmida mamlakat Bag'dod xalifaligidan ozod bo'lgandan keyin shahar ichkarisida xarob joylarni qayta tiklash ishlari avj olib ketdi.

3. XI-XII asrlar va XIII asr boshlarida Markaziy Osiyoda feodal tuzum hukmronligida arxitektura va shahar qurilishlari yuqori darajaga ko'tarildi.

4. XVII-XVIII asrlarda ko'plab turar joy binolarini bezashda amaliy san'at asarlari qo'llanila boshlandi. XIX asrga kelib bezakning hamma turlariga xos qat'iy, aniq kompozitsiyalar ishlab chiqildi.

5. XIX asrning ikkinchi yarmigacha lojivor sarg'ish, qizil-jo'sha sabzi bo'yoqlar ishlatilib kelindi. XIX asr oxirlarida ochiq rangli bo'yoqlar, masalan, sariq sabzi, shingobi bo'yoqlar topildi. O'zbek naqshlarida bo'yeqlarning tuslari doim bir tekisda: quyuq, tekis, o'tkir tusli bo'yoqlar ishlatiladi. Masalan, qora tusdan oq tusga, jo'sha tusdan to'q yashil tusga, yashil tusdan sariq tusga o'tiladi.

Naqqoshlik san'ati haqida birorta ham kitob yoki maktab bo'lmagan. Ustalar hunarni ustozlaridan yoki otalaridan o'rganganlar. Naqsh ustalari shogirdlari yordamida boylarning mehmonxonolari, saroy va madrasalarni bezatib tirikchilik o'tkazganlar.

XX asrning 20-yillaridan boshlab O'zbekistonning ko'pgina shaharlarida badiiy san'at ishlarini rivojlantirish maqsadida artellar va kombinatlar ochiladi. Artellarda o'quvchilar uyushmasi tuzilib, har bir uyushmaga bir ikkitadan ustalar birlashtiriladi. Hunar o'rganuvchilar ishning murakkabligiga qarab 3 oydan 6 oygacha shogird bo'lar va shogirdlik vaqtida har oyda oylik va o'rganish uchun material hamda asbob-uskunalar bilan ta'minlanardi. Shogirdlik vaqti tugagandan keyin ular imtihon topshirib, qilgan ishlariga va bilimlariga qarab malaka darajasini olardi. Toshkentda P.P. Benkov nomidagi Rassomlar tayyorlash maktabida 1952-53 o'quv yilida amaliy san'at bo'limi ochilib, bu yerda birinchi tashkil etilgan o'quv ishlab chiqarish kombinatini bitirib chiqqan ustalar va O'zbekistonda nom chiqargan xalq ustalari dars berishdi. Bular orasida Yoqubjon Raufov, Muhiddin Rahimov, Jalil Hakimov, Mahmud Usmonov, Toir To'xtaxo'jayev va boshqalar bo'lgan. 1949-yilda Ostrovskiy nomli o'quvchilar saroyida,



1954-yilda Lenin nomli o'quvchilar saroyida naqqoshlik va ganchkorlik to'garagi ochilib, unda o'quvchilar har ikkala san'at turini zo'r qiziqish bilan o'rganadilar.

Toshkentda badiiy amaliy san'at sohasida kasb-texnika maktabi ochiladi. Maktab qoshida o'ymakorlik, miskarlik, zargarlik va gilamchilik ustaxonalari tashkil qilinadi.

Hozirgi vaqtda ustalar o'z shogirdlari bilan birgalikda teatr, klub va muzey binolarini naqsh bilan bezab, mehnatlarini elga manzur etmoqdalar. Bundan tashqari, ko'rgazmalar uchun badiiy buyumlarini ishlab o'z mahoratlarini namoyish qilmoqdalar.


Keyingi yillarda xalq san'atiga bag'ishlangan qator kitoblar nashr etilmoqda. Masalan, o'zbek xalqining atoqli naqsh ustasi Qosimjon Olimjonovning ijodiga bag'ishlangan "Toshkent naqshi", toshkentlik o'ymakor usta Maqsud Qosimov ijodiga bag'ishlangan "Toshkent o'yma-korligi", xorazmlik usta Abdulla Boltayev ijodiga bag'ishlangan kitoblar shular jumlasidandir. Bunday kitoblar yosh naqqoshlarni tarbiyalashda, o'z hunar va malakalarini yanada takomillashtirishda, zamonaviy ijodiy ishlar yaratishda yordam beradi.

Ta'lim-tarbiya ishlarida o'zbek xalq amaliy san'ati namunalarini tayyorlashga qaratilgan pedagogik faoliyatning yo'lga qo'yilishi ta'lim oluvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantiradi, ularni badiiy-estetik didga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Shu sababli uzluksiz ta'lim tizimining muayyan bosqichlari, xususan, maktabgacha, boshlang'ich, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchi hamda o'quvchilarga o'zbek xalq amaliy san'ati, uning turlari, badiiy-estetik imkoniyati, shaxsni estetik shakllantirishdagi o'rni va roli to'g'risidagi bilimlarni berish umumiy pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni o'zbek xalq amaliy san'ati turlari bilan tanishtirish dasturga asoslanuvchi mashg'ulotlar, to'garaklar asosida amalga oshiriladi.

Bolalarning yosh, psixologik va fiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda


6-7 yoshli tarbiyalanuvchilar, asosan, quyidagi o'zbek xalq amaliy san'ati turlari bilan tanishtirib boriladi (8-rasm):



8-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar tanishtirilayotgan o'zbek xalq amaliy san'ati turlari.



Bugungi kunda umumiy oʻrta taʼlim maktablarida avvaligi “Mehnat” fani oʻrniga oʻqitilishi yoʻlga qoʻyilgan “Texnologiya” fani boʻyicha sinfda va sinfdan tashqari sharoitlarda tashkil etilayotgan mashgʻulotlarda esa oʻquvchilarga, asosan, oʻzbek xalq amaliy sanʼatining quyidagi turlari boʻyicha nazariy va amaliy bilimlar berilmoqda (9-rasm):



9-rasm. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻquvchilarga tanishtirilayotgan oʻzbek xalq amaliy sanʼati turlari.

Shunday qilib, Markaziy Osiyoda estetik taraqqiyot bir qancha bosqichlarda kechgan. Bu bosqichlarning har birida sanʼatning muayyan turida oʻsish, rivojlanish kuzatilgan. Ularning har biri har bir davr kishilarining estetik ongini oshirishga xizmat qilgan. Qaysi davrda boʻlishidan qatʼi nazar Markaziy Osiyo hududida shakllangan estetik gʻoyalarning negizida inson goʻzalligi, uning shakllanishi axloqiy tamoyillar asosiga qurilgan. Asrlar davomida taraqqiy etgan oʻzbek xalq amaliy sanʼati ham katta estetik imkoniyatga ega boʻlib, nafaqat kishilar turmushini chiroyli, koʻrkam boʻlishini taʼminlagan, balki shaxsning estetik didini rivojlantirishga ham xizmat qilgan. Hozirgi kunda taʼlim muassasalarida ham oʻzbek xalq amaliy sanʼati turlarining estetik imkoniyatlariga samarali foydalanishga eʼtibor qaratilmoqda.

Nazorat savollari:


1. Markaziy Osiyoda kechgan estetik taraqqiyot qanday bosqichlarga boʻlinadi?
2. Milodramizning VII asrigacha boʻlgan davrdagi estetik tafakkur qanday asarlarda oʻz aksini topgan?
3. “Avesto” asarida atrof-muhit tozaligini saqlashning qanday usullari koʻrsatilgan?
4. Inson xulqi goʻzalligi haqidagi hadislar Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning qaysi asarida bayon qilingan?
5. Insonning borliqqa estetik munosabatda boʻlishi toʻgʻrisidagi asar “Qobusnoma”ning muallifi kim?
6. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida Farhod katta estetik taʼsirga ega qanday hunar egasi boʻlgan?
7. XVI-XIX asrlarda voizlik (notiqlik) sanʼati toʻgʻrisida qanday asarlar yaratilgan?



8. Turkistonda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida estetik tarbiya g'oyalari qanday tamoyil negizida rivojlandi?
9. Toshkent davlat konservatoriyasi qachon tashkil etildi?
10. XX asrning 50–80-yillarda o'zbek adabiyotida qanday janrlar rivojlandi?
11. Mustaqillik yillarida me'morchilik san'atida qanday ikki asosiy tamoyil ko'zga tashlanadi?
12. O'zbek xalq amaliy san'atining qanday turlarini bilasiz?
13. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'zbek xalq amaliy san'atining qaysi turlari bo'yicha bolalarga nazariy va amaliy bilimlar beriladi?
14. O'rta maktablarida "Texnologiya" fani doirasida o'quvchilar asosan qanday o'zbek xalq amaliy san'atining turlari bilan tanishadi?

Test topshiriqlari:

1. Markaziy Osiyo hududida estetik taraqqiyot ... bosqichda sodir bo'lgan.
 - a) 5 ta;
 - b) 6 ta;
 - c) 7 ta;**
 - d) 8 ta.
2. Milodramazning VII asrigacha bo'lgan davrdagi estetik tafakkur ... o'z aksini topgan.
 - a) ilmiy asarlarda;
 - b) xalq og'zaki ijodida;**
 - c) arxeologik qazilmalarda;
 - d) bosma asarlarda.
3. "Avesto"da insonning go'zalligi ... bilan belgilangan.
 - a) axloqan barkamolligi;
 - b) jismoniy yetukligi;
 - c) aqlining tiniqligi;
 - d) naslning tozaligi.**
4. Islom madaniyatida estetik qarashlar ... g'oyasiga asoslanadi.
 - a) Alloh go'zal va u go'zallikni sevadi;**
 - b) Alloh adolatgo'y va u adolatni sevadi;
 - c) Alloh kamtar va u kamtarlikni sevadi;
 - d) Alloh saxiy va u saxiylikni sevadi.
5. "Shashmaqom" ... maqomdan iborat.
 - a) yigirma to'rt ta;
 - b) o'n ikki ta;
 - c) olti ta;**
 - d) ikki ta.
6. Amir Temur Samarqand atrofida ... go'zal bog'lar.
 - a) 8 ta;
 - b) 10 ta;
 - c) 12 ta;
 - d) 14 ta.**



7. Miniatura san'atining markazida inson shaxsi turadi. Uni mohirlik bilan tasvirlashda ... tengsiz bo'lgan.

a) Pir Sayid Tabriziy;

b) Kamoliddin Behzod;

c) Moniy;

d) Mirak Naqqosh.

8. "Risoi musiqiy" asarining muallifi -

a) Maleho Samarqandiy;

b) Darvesh Ali Changiy;

c) Zayniddin Vosifiy;

d) Mavlono Najmiddin Kavkabi.

9. Abay jamiyatni xunuklashtiradigan illatlar haqida so'z yuritganda birinchi o'ringa ... ni qo'yadi..

a) bilimsizlik;

b) poraxo'rlik;

c) xasislik;

d) nodonlik.

10. O'zbek musiqali teatriga asos solingan yil - ...

a) 1929-yil;

b) 1917-yil;

c) 1924-yil;

d) 1933-yil.

11. "O'zbekdavlati" respublika birlashmasi tashkil etilgan yil - ...

a) 1990-yil;

b) 1996-yil;

c) 1992-yil;

d) 1998-yil.

12. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar ... kabi o'zbek xalq amaliy san'ati turlari bilan tanishtiriladi.

a) kulolchilik, naqqoshlik, kashtachilik, do'ppido'zlik, zardo'zlik;

b) kulolchilik, kandakorlik (misgarlik), kashtachilik, o'ymakorlik, oshpazlik;

c) kulolchilik, naqqoshlik, kashtachilik, milliy qandolatchilik, oshpazlik;

d) to'qish (savat) san'ati, gilamdo'zlik, naqqoshlik, kashtachilik, milliy qandolatchilik, oshpazlik.

Amaliy topshiriqlar:

1-topshiriq. O'zbek xalq amaliy san'ati tarixiga oid bosma hamda elektron asarlar asosida qo'g'irchoq san'atining taraqqiyotiga oid ma'lumotlarni to'plang va ular asosida buklet tayyorlang.

2-topshiriq. O'zbek xalq amaliy san'atining o'ndan ortiq turi mavjud. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga o'zbek xalq amaliy san'atining, asosan, beshta turi o'rgatiladi. Nima uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga o'zbek xalq amaliy san'atining quyidagi turlari o'rgatilmagani haqida o'ylab ko'ring va fikringizni asosli tarzda bayon qiling!



II BOB. MAKTABACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MUSIQA TA'LIMINI TASHKIL ETISH METODIKASI

2.1. Musiqa bolalarning estetik idrokini shakllantiruvchi vosita sifatida

Reja:

1. Musiqa bolalarning estetik idrokini shakllantiruvchi vosita sifatida.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarga milliy san'at va musiqiy ta'lim berishning asosiy maqsad va vazifalari.
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotida musiqa ta'lim-tarbiyasini amalga oshirish uchun zaruriy qo'llanma, o'yinchoq va ko'rgazmali materiallar.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun moslashtirilgan "O'zbek xalq bolalar cholg'u asboblari" to'plami.

Tayanch tushunchalar: musiqa, idrok, estetik idrok, bolalarning estetik idroki, milliy san'at, musiqa ta'limi, musiqa tarbiyasi, "O'zbek xalq bolalar cholg'u asboblari" to'plami.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-son (2020-yil 22-dekabr) Qarori // <https://lex.uz/docs/5179335?query>.
2. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi. – T.: YUNISEF, 2018. – 72 b.
3. Maktabgacha pedagogika / Darslik. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpulatova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova. – T.: "Tafakkur" nashriyoti, 2019. – 688 b.
4. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. –T.: "Fan va texnologiya", 2012. – 268 b.

I. Musiqa bolalarning estetik idrokini shakllantiruvchi vosita sifatida. O'zbek milliy musiqa san'ati boy tarixga ega. Markaziy Osiyo hududida yashagan xalqlar, elat va millatlarning madaniy, ma'naviy ehtiyojini qondirishda musiqa san'ati ham o'ziga xos o'rin tutadi. "Ma'lumki, Markaziy Osiyo xalqlarining musiqa san'ati va she'riyati bir-biridan ajralmagan holda (sinkretik) yuzaga kelgan bo'lib, milodgacha bo'lgan I ming yillikka to'g'ri keladi. Bu esa o'z navbatida eng qadimiy og'zaki musiqiy-she'riy ijod namunalari keltirilgan qahramonlik va ular haqidagi xalq dostonlari, qo'shiqlar va poemalar majmui bilan xarakterlanadi. Jumladan, Shiroq, Rustam, Siyovush kabi afsona va qo'shiqlarni bunga misol qilib keltirish mumkin"⁵⁶.

⁵⁶ Жамолова Д. Ўрта аср шарқ алломаларининг муסיқий қарашлари //Ж. ЎзДСМИ хабарлари. – Т.: 2019. - №3(11). – 60-6.



Tarixiy manbalarda o'zbek xalqi hayotida musiqaning ilk elementi sifatida onalar allasining ham namoyon bo'lgani aytiladi. Zero, onalar allasining shakllanish ildizlari qadim tarixga borib taqaladi.

Rus bolalar folklori tadqiqotchisi N.M.Melnikovning o'rganishiga ko'ra, "bu janrdagi qo'shiqlarning ildizi bizni urug'-jamoa tuzumiga olib boradi"⁵⁷. Folklorshunos olimasi N.M.Eliashning fikricha, beshik qo'shig'i o'z ildizlari bilan insoniyatning tongiga, urug'chilik tuzumi ibtidosiga borib taqaladi: ayrim takrorlanuvchi qichqiriqlar shaklida esa: beshik folklori urug'chilik davridan avval ham mavjud bo'lishi tabiiy⁵⁸.

Tadqiqotchi M.N.Melnikov allalarning paydo bo'lish va rivojlanish tarixi yuzasidan so'z yuritar ekan, "onalarning instinktiv faoliyati natijasi bo'lmay, balki ijtimoiy tajribalar, ijtimoiy ong mahsuli"⁵⁹ ekaniga urg'u beradi.

Yana bir tadqiqotchi A.Vetuxov esa: "Ona o'zining tug'ma sezgirligi bilan bola uchun faqat qo'shiq kerakligini ...tinchlantiruvchi, yorqin va monoton qo'shiq kerakligini anglatadi. Shu zaylda alla shakli yuzaga keldi"⁶⁰ deydi.

Garchi allalarning aynan qaysi davrdan boshlab ijro etilib kelinayotganligi to'g'risida aniq ma'lumotlar mavjud bo'lmasa-da, biroq, shuni ishonch bilan aytish mumkinki, ularning yaratilishi insoniyat tomonidan musiqiy ohanglar o'zlashtirilishi bilan bog'liqdir. Zero, og'zaki ijodning o'ziga xos janrlari bo'lgan xalq qo'shiqlari, laparlar aynan musiqiy ohanglarga asoslangandir. Allalar esa mustaqil qo'shiq turi hamda xalq og'zaki ijodi namunalaridan biri sanaladi. Musiqiy ohanglarning yaratilishi ham odam va olamning uyg'unligini anglatadi.

Barcha musiqiy asarlar singari allalar ham uch asos, ya'ni, so'z – qo'shiq matni (Abu Nasr Forobiy talqinida band), ohang va ijro dan tarkib topadi. "Bu ilm shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qotgan (odamlar) xulqini tartibga keltiradi, mukammallikka yetmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo'lgan (odamlar) xulqining muvozanatini saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir, chunki tana kasal bo'lsa, ruh ham so'nadi, tana to'siqqa uchrasa, ruh ham to'siqqa uchraydi"⁶¹.

"O'zbek, uyg'ur va tojik xalqlari orasida "alla" nomi bilan yuritiladi. Odatda oddiy kuylar bilan, ba'zida esa regitativ tarzda, beshik yoki belanchakni tebranish sur'atiga mos ravishda ijro etiladi. Matni, asosan, to'rtlik: ohang, ijro uslubi erkin, badihago'y. Alla onaning bolaga bo'lgan mehr-muhabbati, umid va orzulari, yaxshi niyat va tilaklarini anglatish bilan birga ruhiy kechinmalarini ham ifodalaydi. Shu bois ba'zi alla namunalarini yig'i ohangiga yaqin bo'ladi"⁶².

⁵⁷ Ёқуббекова, М. Ахлоқий тарбиянинг ибтидоси / – Андижон : Педагогика жамияти, 1986. – 9-б.

⁵⁸ Элиаш Н.М. Русские народные колыбельные песни: опыт классификации фольклорного жанра: автореф. дис. филол. Наук. – Сызрань, 1944. – С. 5.

⁵⁹ Ўзбек халқ аллалари : алла-ё алла / Тўпловчи ва нашрга тайёрл. О.Сафаров. – Т.: Ўқитувчи, 1999. – 12-б.

⁶⁰ Эл суярим, алла: ўзбек халқ аллалари / Тўплаб нашрга тайёрл.ва сўзбоши муаллифи О.Сафаров; масбул муҳар. Т.Мирзаев. – Т.: Ўзбекистон, 2009. – 96 б.

⁶¹ Форобий А.Н. Фозил одамлар шаҳри. – Т.: Халқ мероси, 1993. – 176-б.

⁶² Ўзбекистон миллий энциклопедияси. А–Бешбалиқ / 1-жилд. – Т.: "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2000. – 228-б.



Markaziy Osiyo hududida juda qadimdan xalq orasida mashhur bo'lgan qo'shiq va raqslar – bu marosim qo'shiqlari va raqslari sanaladi. Bunday qo'shiq va raqslar sirasiga dehqonchilik, hosil yig'im-terimi, ov jarayonini tashkil qilish, Tangridan yomg'ir yog'dirishni so'rash haqidagi, shuningdek, to'y va aza marosimlarida ijro qilinadigan qo'shiq va raqslar qiradi.

“Movarounnahr va Xurosondagi islomgacha bo'lgan dinlar qatorida Kushon (I- IV asrlar) va Eftalitlar (V-VI asr o'rtalari) davlatlari davrida chetdan kirib kelganbudda va xristian dinlari musiqa bilan bevosita bog'liq bo'lsa-da, ammo vatani Xorazm hisoblangan. Muqaddas kitobning eng qadimiy qismlaridan “Yasna” atalmish 17-bobi “Gotlar”- “Gimnlar” deb nomlangan. Ular turli marosimlarda ijro etiladigan qo'shiqlarni o'z ichiga oladi. Qo'shiqlarni ijro etish, duolarni o'qish, ibodat davomida ovozni idora etish va ijroning ta'sir kuchini oshirish yo'llari Zardusht misolida ko'rsatiladi. Masalan, “Zaratushtra (Zardusht) bola tug'ilgan zahoti she'riy duolarni to'rt marta to'xtab-to'xtab, har gal ovozini balandroq ko'tarib o'qigan”⁶³.

“Avesto”ning “Gotlari” musiqa jo'rligida ijro etilib, duolar o'z vaqtida lozim mutanosiblik (garmoniya) bilan va muayyan pardalarda (registr), ovozlarining zarur ohanglari va pardalarni to'la saqlagan holda kuylanishi talab qilingan”⁶⁴.

VII-VIII asrlarda mahalliy musiqiy-poetik an'analar muhimlashadi, og'zaki an'anadagi xalq hamda professional musiqa shakllari yuzaga keladi. Barbad (VI – VII) ijodi xuddi shu davrlarga to'g'ri keladi. U Markaziy Osiyoning dastlabki bastakorlaridan biri bo'lib, uning nomi hayotligidayoq afsonaga aylanib ketgan edi. U o'zida qo'shiqchi, musiqaga hamda yuqori badiiyatga ega bo'lgan asarlar muallifi kabi hislatlarini mujassamlashtirgan edi. Ehtimol, shu sabab bo'lgan bo'lsa kerak, har qanday hukmdor o'z saroyida Barbadning tashrifidan mamnun bo'lgan. U Eron shohi Xusrav II Parviz saroyida eng ko'p muddat xizmat qilgan⁶⁵.

Qo'shiq va raqs san'atining tarixiy rivoji bilan birga ularning mazmuni, janri, ohangini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy faoliyat ham amalga oshirilgan. Xususan, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Najmiddin Kavkabiy, Darvish Ali Changiy kabi buyuk allomalarning ko'plab risolalarida sozandalik san'ati, musiqa ilmi to'g'risida adabiyotlarda ko'plab ma'lumotlar bayon etilgan⁶⁶.

“Kitob fi ixso al-iyqo” (“Ritmilar turkumlari haqida kitob”), “Kitob fin nakra muzofa ilal-iyko” (“Ritm bilan bog'langan ohanglar haqidagi kitob”) alohida o'rin tutadi. Musiqiy-ijodiy jarayon “Kitob ul-musiqa alkabir” (“Musiqa haqida katta kitob”), “Kalom fi-l musiqiy” (“Musiqa haqida o'ylar”), fundamental tadqiqot “Kitob fi ixso al-ulum va at-ta'rif” (“Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi”) asarlarida bosh muammo sifatida o'rganilgan⁶⁷.

⁶³ Махмудов Т. Авесто ҳақида. – Т.: Шарқ, 2001. – 41-б.

⁶⁴ Қодиров М. Дин. Авесто ижрочилик. – Т.: Нафосат, 1993. - № 3-4. – 15-б.

⁶⁵ Гофурбеков Т.Б. Творческие ресурсы национальной мелодии и их переломление в узбекской советской музыке. – Т.: Фан, 1987. – С. 7.

⁶⁶ Жамолова Д. Ўрта аср шарқ алломаларининг муסיқий қарашлари //Ж. ЎзДСМИ хабарлари. – Т.: 2019. - №3(11). – 60-61-б.

⁶⁷ Ўша асар. – 60-б.



Ulug' mutafakkir Abu Nasr Forobiyning "Musiqqa haqida katta kitob" nomli ko'p jildli asarida musiqqa nazariyasi va tarixi, turli musiqqa asboblari, kuylar va ularning ichki tuzilishi, tovushlar, ritmlar, ohanglar haqida ma'lumot berdi; ilmi iyqo, ilmi ta'lif fanlariga asos soldi. Yuqoridagi asarida o'tmishdagi musiqashunos va tadqiqotchilar musiqqa taraqqiyotiga katta hissa qo'shganini alohida qayd qiladi. Shuningdek, kuylar uyg'unligi, kuy ijro etish usullari haqida so'z yuritadi.

Rivoyatlarda keltirilishicha, Abu Nasr Forobiy yangi musiqqa asbobi yaratgan, kuy bastalagan, mohir sozanda sifatida nom chiqargan. Allomaning aytishicha, musiqiy tasavvurlar inson ruhining eng nozik joyidan qaynab chiqib, ohang holida sezgi quvvatlariga ta'sir qiladi"⁶⁸.

Abu Nasr Forobiy musiqani uch turga ajratadi: lazzat yetkazadigan; his-hayajonni ifodalovchi; tasavvur uyg'otuvchi. Ayni paytda Abu Nasr Forobiy "uch xususiyatning barchasiga ega bo'lgan musiqqa, shubhasiz, nisbatan yetuk bo'ladi. Bunday musiqqa faqat vokal bo'lishi mumkin", degan edi⁶⁹.

Abu Ali Ibn Sinoning "Davo kitobi" asarida "Ilmda musiqiy to'plam", "Najot kitobi" asarida "Musiqqa haqida kichik bayon", "Bilimlar kitobi" asarida esa "Musiqqa" bo'limlari mavjud bo'lgan.

Allomaning "Musiqqa fani haqidagi risola"sidagi boblardan biri ritm, she'r hamda she'riy vaznlar masalasiga bag'ishlangan edi. Forobiyga o'xshab, Ibn Sino ham she'riy janr va shakllarning urf-odatlariga bevosita bog'liq ekanligini hamda ularning boyitishga intilishini ta'kidlaydi⁷⁰.

Kaykovusning "Qobusnoma" asarining o'ttiz beshinchi bobi "Shoirlik rasmi zikrida" deb nomlanadi. Ushbu bobda alloma quyidagi fikrlar orqali shoirlarga nasihat qiladi: "Bir xil vazn va bir xil kifoyaga qanoat qilmag'il, san'atsiz va tartibsiz she'r aytmag'il. She'rda zarb, ya'ni ohang, yaxshi sado, mung bo'lsa va shaklda al'al bo'lsa, ya'ni vazni to'la bo'lsa, yaxshi bo'lur". Ayniqsa, asarning o'ttiz oltinchi bobida, ya'ni "Hofizlik va sozandalik zikrida" aytilganki, "hofiz bo'lsang, xushfe'l, quvnoq bo'l hamisha pok, mutayyab va xush zamon bo'lg'il va o'z ishingga mashg'ul bo'lg'il, yaramas xulq, qo'pol bashara bo'lmag'il. Hamma vaqt og'ir yo'llarni chertmag'il, chunki barcha mashq va ohangni bir xilda chertish shart emasdur, nedinkim odamlarning barchasi bir xilda bo'lg'on ermaslar, ta'blari ham bir-biriga muvofiq ermas, ya'ni xalq muxtalifdurlar"⁷¹ deyilgan.

Musiqqa tarixi tadqiqotchilari orasida XV asrning ikkinchi yarmi XVI asrning birinchi yarmida yashab o'tgan Mavlono Najmiddin Kavkabi Buxoriy (vafoti 1532-yil) alohida o'rin tutadi. Mavlono Najmiddin Kavkabi Buxoriy "shoir va olim, sozanda, ijrochi va bastakor bo'lib, musiqqa nazariyasi, ritmika va qofiyaga oid tadqiqotlarni olib

⁶⁸ Абу Наср Форобий // <https://oyina.uz/kiril/generation/53>.

⁶⁹ Жамолова Д. Ўрта аср шарқ алломаларининг муסיқий қарашлари //Ж. ЎзДСМИ хабарлари. – Т.: 2019. – №3(11). – 61-б.

⁷⁰ Ибн Сино. Свод науки о музыке / Пер. А.В.Сагдеева. Музыкальная эстетика стран Востока. – М.: 1967. – С. 73.

⁷¹ Кайковус. Қобуснома // <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/kaykovus-qobusnoma.html>.



borgan. Ayniqsa, uning Buxoro maqollari asosida musiqa va soʻz uygʻunligi haqidagi tadqiqoti alohida ahamiyatga egadir. Bu koʻp yillik ilmiy izlanishlar natijada uning “Musiqi haqida risola”, “Kuylarining turlari”⁷² singari asarlari yaratildi.

“Oʻzbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PQ-4038-son (28-noyabr 2018-yil) Qarori ga muvofiq, “Xalq cholgʻulari ijrochilari”, Mukarrama Turgʻunboyeva nomidagi “Milliy raqs ijrochilari”, Yu.Rajabiy nomidagi “Yosh maqom ijrochilari” respublika koʻriktanlovlarini anʼanaviy tarzda oʻtkazilishi bugungi kunda yetishib kelayotgan yosh sozanda va xonandalar, yaʼni, sanʼat ahlining nihollari uchun ochib berilayotgan keng imkoniyatlardan biridir.

Musiqa maktabgacha taʼlim tashkilotlarida bolalarning estetik idrokini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyat tizimining muhim tarkibiy elementi, boshlangʻich asosi hamda estetik idrokni rivojlantiruvchi muhim vosita sanaladi.

Oʻz mohiyatiga koʻra musiqa “inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovush (ton, nagʻma)lar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi sanʼat turi. Uning mazmuni oʻzgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi muayyan musiqiy badiiy obrazlardan iborat. Musiqa insonning turli kayfiyatlari (masalan koʻtarinkilik, shodlik, zavqlanish, mushohadalik, gʻamginlik, xavf-qoʻrquv va boshqalar)ni oʻzida mujassamlashtiradi. Bundan tashqari, musiqa shaxsning irodaviy sifatleri (qatʼiyatlik, intiluvchanlik, oʻychanlik, vazminlik va b.)ni, uning tabiati (mijozi)ni ham yorqin aks ettiradi.

Musiqa asarlari mazmunida badiiy gʻoyalar umumlashgan holda berilib, musiqali obrazlarning oʻzaro munosabatlari (taqqoslanish, toʻqnashuv, rivojlanish kabi) jarayonida shakllanadi. Mazkur jarayonning xususiyatlariga koʻra musiqa mazmuni ham turli - epik, dramatik, lirik belgilarga ega boʻlishi mumkin. Bulardan insonning ichki dunyosi, ruhiy holatlarini ifodalashga moyil boʻlgan lirika musiqaning «botiniy» tabiatiga ancha yaqindir. Musiqaning mazmuni – shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qiymatlarning birligidan iborat boʻlib, bunda maʼlum xalq, jamiyat va tarixiy davrga xos ruhiy tarovat, surʼat, ijtimoiy fikr va kechinmalar umumlashgan holda ifodalanadi. Musiqa shakllari har bir davrning maʼnaviy-maʼrifiy talablariga javob bergan holda, ayni vaqtda inson faoliyatining koʻpgina jabhalari (muayyan jamoaviy tadbirlar, odamlarning oʻzaro etik va estetik taʼsir etish, muloqot qilish jarayonlari) bilan mushtarakdir. Musiqaning, ayniqsa, insonning axloqiy va estetik didini shakllantirish, hissiy tuygʻularini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini ragʻbatlantirish vositasi sifatida roli juda muhimdir.

Har bir alohida olingan musiqa tovushi birlamchi ifodaviy imkoniyatga ega boʻlsada musiqa tovushlarining muvaqqat nisbatlari esa baland-pastlik munosabatlari tuzilmalarida, musiqiy ritm va metrda oʻz aksini topadi. Dunyoning aksariyat xalqlari musiqa madaniyati, jumladan, oʻzbek musiqa folklori, anʼanaviy musiqa va bastakorlik ijodiyotida lad asosini turli koʻrinishdagi diatonika tashkil etadi. Kompozitorlik

⁷² Соломонова Т.Е. Вопросы ритма в узбекском песенном наследии. – Т.: Фан, 1978. – С. 63.



musiqada (ayniqsa, XX asrda rivoj toptan yo'nalishlarda) diatonika bilan birga xromatika ham keng o'rin olgan"⁷³.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga musiqa ta'limini berish ularda borliqni estetik idrok qilishga imkon beradi. Buning natijasida bolalarda borliqqa, tabiatga, mehnatiga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantiradi, hissiyot (boshqalarning kechinmalarini tushunish, ularga nisbatan hamdard bo'la olish, atrofdagilarga muhabbatli bo'lish, kattalarni xurmat, kichiklarni izzat qilish kabi sifatlar)ni tarbiyalaydi, tasavvurini boyitib, dunyoqarashini kengaytiradi.

II. Maktabgacha yoshdagi bolalarga milliy san'at va musiqiy ta'lim berishning asosiy maqsad va vazifalari. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatida musiqa ta'limi alohida o'rin tutadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan musiqa ta'lim-tarbiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat (10-rasm):



10-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifalari.

*Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy san'at va musiqiy ta'limni tashkil qilishdan ko'zlangan asosiy **maqsad** – maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqani tinglay olish, qo'shiq kuylash va musiqa jo'rligida ma'lum harakatlarni bajarish ko'nikmalarini hosil qilish, musiqiy did va qobiliyatni rivojlantirish, hissiyotni tarbiyalashdan iborat.*

Musiqa yordamida orqali dunyoqarashini shakllantirish hamda o'stirib, bolalarga musiqani o'rgatish jarayonida unda hayot o'z aksini topishini anglatishdir. Shuni


⁷³ Фатхуллаева М.Г. Шахсни баркамол қилиб шакллантиришда музиканинг ўрни ва аҳамияти // "Science and Education" Scientific Journal. December 2020 / Volume 1 Special Issue 4. – pp. 274-283 //www.openscience.uz



alohida ta'kidlash lozimki, musiqa mashg'ulotlari oldiga qo'yilgan pedagogik maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun, avvalo, bolalarning musiqiy o'quvi va qobiliyatlarini muntazam ravishda o'stirib borish lozim.

Musiqiy mashg'ulotlarni olib borishda musiqa rahbari bolalarning yoshi va qiziqishlarini e'tiborga olishi lozim. Mashg'ulotning tuzilishi o'quv materiallarining mazmunidan kelib chiqishi kerak. Bunda asarlarning ta'limiy, tarbiyaviy ahamiyati, badiiy saviyasi, bolalar yoshiga mosligini hisobga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan musiqiy mashg'ulotlarda bolalar tomonidan quyidagi faoliyat ko'nikma, malakalari o'zlashtiriladi (11-rasm):



11-rasm. Musiqiy mashg'ulotlarda bolalar tomonidan o'zlashtiriladigan ko'nikma, malakalari.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlarining davomiyligi bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda olib boriladi. Shunga muvofiq mashg'ulotlar (2-jadval):

2-jadval

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlarini davomiyligi

№	Guruhlar	Mashg'ulotlarini davomiyligi
1.	Kichik guruh	15-20 daqiqa
2.	O'rta guruh	20-25 daqiqa
3.	Katta guruh	25-30 daqiqa
4.	Tayyorlov guruhi	30-35 daqiqa



Mashg'ulotlar davomida bolalar qo'shiq kuylashga, musiqa tinglashga, musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish va cholg'u asboblari va ularga jo'r bo'lishni o'rganib boradi. Qo'shiq kuylash musiqa mashg'ulotining asosini tashkil etadi. Har bir qo'shiq ma'lum pedagogik maqsadlarni amalga oshirishni ko'zda tutib tanlanadi. Qo'shiqlarni ma'lum bir tizimga solishda oddiydan murakkabga qarab borishga rioya qilish kerak. Qo'shiq kuylash yengil va oson amalga oshirilishi tufayli bolalar diqqatini tez jalb etadi. Musiqa ijrochiligida ovoz eng qulay vositadir, chunki qo'shiq kuylashni turli sharoitlarda tez va oson tashkil etish mumkin. Qo'shiq kuylash jarayonida bolaning fikrlash qobiliyati, nutqi, idroki o'sadi. Bolalar ovozini asrab tarbiyalashning zarur shartlaridan biri qo'shiqlarni ularning yoshiga va ovoz diapazoniga qat'i rioya etib tanlashdan iborat.

Bolalarni qo'shiq aytish va raqsga tushishga o'rgatishda faqat to'g'ri aytish va harakat qilishni emas, balki ifodali ijro etish hamda yengil, chiroyli va latofat bilan raqsga tushishga o'rgatib borish maqsadga muvofiq.

Qo'shiq kuylab raqsga tushishda asosan, xalq og'zaki ijodi asarlaridan foydalaniladi, bu bolalarni axloqiy-estetik tarbiyalash uchun qimmatli vositadir.

Bolalarning kuylashdan ko'ra, tinglash imkoniyatlari kengroq. Musiqa tinglash orqali bolalarning badiiy idroki rivojlanadi. Musiqashunos olimlar bolalarni musiqiy tarbiyalashda musiqa tinglash faoliyatiga alohida e'tibor beradilar. Chunki, har bir insonning musiqa madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda musiqa tinglash ko'nikmasi muhim o'rin egallaydi. Musiqa tinglash uchun tavsiya etilgan va repertuarga kiritilgan musiqiy asarlar musiqiy obrazlar orqali bolalarda jonajon Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, tabiatni e'zozlash, hamjihatlik, rahm-shafqat kabi hislatlarni shakllantirishga qaratilgan.

Musiqa mashg'ulotlarida musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish bolalarning axloqiy-ma'naviy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqaga mos raqs, o'yin harakatlarini bajarish bolalarning diqqatini jamlash, xotirasini mustahkamlash va jismonan sog'lom o'sishlariga yordam beradi. Eng muhimi, raqs va ritmik harakatlar vositasida bolalarning musiqiy iqtidori, ritmik tuyg'ular shakllanadi, xotirasi charxlanadi. Musiqiy-ritmik harakatlar bolaning harakatchan, chaqqon bo'lishiga yordam beradi, qomatining to'g'ri o'sishiga ta'sir ko'rsatadi.

Bolaga tetiklik va g'ayrat bag'ishlab, turli emotsional hislarini uyg'otadi. Raqs kuylari esa bolalarda ajoyib ichki his-tuyg'ular, kechinmalar hosil qilib, beixtiyor raqsga tushishga undaydi va ularni behad zavqlantiradi. Musiqa mashg'ulotlari davomida bolalar musiqa cholg'u asboblari jo'r bo'lish bolalar uchun g'oyatda yoqimlidir, chunki musiqa cholg'u asboblari, tovushli o'yinchoqlar sifatida har bir bolani qiziqtiradi. Bolalar musiqa chalg'u asboblari, birinchi navbatda, bolalarda ijrochilik mahorati, musiqiy o'quvi va qiziqishni o'stiradi. Musiqa asarlarini diqqat bilan tinglash, musiqaning xarakterini his etish musiqa cholg'u asboblari farqlashga, tovush balandligini bilishga o'rgatadi. Bolalar qo'shiqni kuydan ajrata olishga, qo'shiq so'zlarini aniq, tushunarli kuylashga, kirish qismidan so'ng qo'shiqni birga boshlash va tugallashga, metallofonda oddiy kuylarni, doirada oddiy ritmlarni ijro etishga



harakat qiladi. Musiqa mashg'ulotlarida bolalar guruhidan bolalar musiqa cholg'u asboblari orkestri, vokal ansambllari tuzish mumkin bo'ladi. Kichik hajmdagi o'zbek xalq kuylaridan boshlab, kattaroq asarlargacha bolalar shiqildoqchalar, doirachalar va rumbalardan turli ritmik usullarni chalishni o'rganadi⁷⁴.

III. Maktabgacha ta'lim tashkilotida musiqa ta'lim-tarbiyasini amalga oshirish uchun zaruriy qo'llanma, o'yinchoq va ko'rgazmali materiallar. Har qanday ta'lim jarayoni uni samarali tashkil etilishini ta'minlovchi o'quv qo'llanmalar, tavsiiyanomalarga tayangan holda tashkil qilinadi. Shunga ko'ra maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham bolalarga musiqa savodini o'rgatishda to'garak rahbari yoki tarbiyachi tegishli sohaga oid maxsus adabiyotlari bilan ta'minlanishi zarur. Biroq, afsuski, respublikada maktabgacha ta'lim tashkilotlarining to'garak rahbari yoki tarbiyachilar bolalarga musiqa savodini o'rgatishga oid maxsus adabiyotlar bilan ta'minlanmagan va masala dolzarbligicha qolmoqda. Sohaga oid bosma va elektron manbalar bilan tanishish natijasida respublika maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun maxsus tayyorlangan bolalar qo'shiqlari va musiqalari to'g'risidagi adabiyotlarning mavjud emasligi aniqlandi. Birgina D.Soipova tomonidan tayyorlangan "Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi"⁷⁵ nomli o'quv qo'llanmaning bir bobi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa savodxonligi masalasiga bag'ishlangani aniqlandi.

Muammoning qo'shni davlatlar, xususan, Rossiya FRdagi ahvoli o'rganilganda musiqa to'garagining rahbarlari va tarbiyachilarning bu borada muammoga duch kelmasliklariga guvoh bo'lindi. Zero, rossiyalik hamkasblar maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun mo'ljallangan bolalarga musiqa savodini o'rgatishga oid o'nlab maxsus adabiyotlar bilan ta'minlangan. Ayni o'rinda ulardan ayrimlari misol sifatida keltiriladi (3-jadval):

3-jadval

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga musiqa savodini o'rgatishga oid dasturiy-metodik ta'minot⁷⁶

Mualliflar	Nomlanishi	Nashr o'rni
Kaplunova N.M. Novoskolseva I.A.	"Jo'shqin qarsak" ("Ladushki"; ashula aytib, qarsaq chalgan holda o'ynaladigan o'yin)	- SPb.: OOO Muzikalnaya palitra, 2001
Burenina A.I.	"Ritmik mozaika" ("Ritmicheskaya mozaika")	- SPb.: LOIRO, 2000
Burenina A.I.	"Jonliroq depsinamiz, kichkintoylar" ("Top-xlop, malishi")	- M.: Linka-Press, 2005
Kononova N.G.	"Bolalar musiqa asboblari yordamida o'yin orqali bolalarni o'qitish" ("Obucheniye doshkolnikov igre na detskix muzikalnix instrumentax")	- M.: Prosvesheniye, 1990

⁷⁴ Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. -T.: "Fan va texnologiya", 2012. - 178-180-b.

⁷⁵ Соипова Д. Музыка ўқитиш назарияси ва методикаси / Ўқув қўлл. - Т.: Республика методика ва ахборот маркази, 2009. - 30-33-б.



⁷⁶ Махсус адабиётларнинг номлари рус тилидан муаллиф - З.Т.Раджапова томонидан эркин таржима қилинди.

Zimina A.I.	“Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar musiqiy tarbiyasining nazariyasi va metodikasi” (“Teoriya i metodika muzikalnogo vospitaniya detey doshkolnogo vozrasta”)	- M.: Prosvesheniye, 2004
Komissarova L.Yu.	Maktabgacha ta’lim yoshi bolalari musiqiy tarbiyasining ko’rgazmali-didakti vositalari” (“Naglyadno-didakticheskiye sredstva muzikalnogo vospitaniya doshkolnikov”)	- M.: Prosvesheniye, 2001
Orlova D.Ye.	“Bolalarni kuylashga o’rgating, 5-6 yosh” (“Uchite detey pet”, 5-6 let)	- M.: Prosvesheniye, 1996
Orlova D.Ye.	“Bolalarni kuylashga o’rgating, 6-7 yosh” (“Uchite detey pet”, 6-7 let)	- M.: Prosvesheniye, 1996
Bekina S.I.	“Musiq va harakat, 5-6 yosh) (“Muzika i dvijeniye, 5-6 let)	- M.: Prosvesheniye, 1983
Ledyaykina Ye.G.	“Zamonaviy bolalar uchun bayramlar” (“Prazdniki dlya sovremennix malishey”)	- Yaroslavl akademiya razvitiya 2002
Radinova O.P.	“Musiqiy durdonalar” (“Muzikalnie shedevri”)	- SPb.: Gnom, 2004

Maktabgacha ta’lim tashkilotida musiq ta’lim-tarbiyasini amalga oshirish, odatda, bolalarni ritm, shovqinli va zarbalar bilan tanishish bilan boshlanadi. Ota-onalarga bolalar uchun musiq asboblari sotib olish tavsiya etiladi. Bularning barchasi bolaga musiqiy madaniyatni tezroq o’rganish va turli musiq asboblari qanday professional tarzda o’ynashni o’rganish imkonini beradi.

Bolalar musiq asboblari xilma-xil bo’lib, ularni quyidagi turlar⁷⁷ga ajratish mumkin.

Bolalar musiq asboblari asosiy turlari⁷⁸

I. Barabanlar			
Bu guruhga baraban, uchburchak, tamburlar, ksilofon kiradi. Ular vestibulyar apparatlar va ritm tuyg’usini rivojlantiradi. 1 yoshdan katta bolalarning barchasiga to’g’ri keladi. Ularni qo’lda ushlab turish juda qulay. Ksilofonlar biroz kattaroq bolalar uchun mos bo’lib, ajoyib ovozi bilan ularni maftun etadi.			
			
Nog’ora	Metallofon	Ksilofon	Baraban
II. Puflama musiqiy asboblari			
Bularga surnay, hushtak, garmoshka, trubalar kiradi. Bolaning yuqori nafas a’zolarini rivojlantirish orqali immunitet tizimini mustahkamlaydi. Bolalarning nutqi ravon bo’lishida bu turdagi asboblari juda foydali. Eng oddiy trubalar 2 yoshli bolalar uchun trubalar, surnaylar, hushtaklar, garmoshkalar 3-4 yosh va undan katta bolalarga mos keladi.			

⁷⁷ Музыкальные инструменты для самых маленьких // <https://www.akusherstvo.ru/guide/muzykalnye-instrumenty-dlya-samyh-malenkih>.

⁷⁸ Musiq asboblari rasmlari Google.com ning “Qidiruv” tizimidan olindi



			
Truba	Surnay	Garmoshka	Hushtak





III. Klaviaturalar

Ko'p tarqalgan musiqa asboblari bolib, ular qo'llarning ishini, mayda motorikalarni yaxshi rivojlantiradi. Xilma-xillik tufayli har qanday yoshdagi bolaga, hatto bir yoshli bola ham chalishi mumkin. Bu turdagi o'yinchoqlar keng klavishlarga ega. Katta yoshdagi bolalar uchun modellar tashqi ko'rinishidan kattalarning musiqa asboblari yaqin, ammo ulardanda yaxshiroq dizaynga ega.

	
Bolalar uchun klaviatura 1	Bolalar uchun klaviatura 2

IV. Torli musiqa asboblari

Bolalarda mayda motorikalarni hamda harakat yo'nalishlarini olish ko'nikmalarini rivojlantirishga juda mos keladi. Ma'lum bir intensivlik va kuch bilan tortadigan iplarning tebranishlaridan hosil bo'ladigan tovushlar allalar ohangiga o'xshaydi. Shu sababli bolalar ular bilan maza qilib o'ynaydi. Bu turdagi musiqiy asboblarga gitara, skripka, rubob, tanbur kiradi. 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarga mos keladi.

			
Gitara	Rubob	Skripka	Tanbur

V. Shovqinli musiqa asboblari

Bu turdagi musiqa asboblari bolalarni ovozlari bilan tanishtirishga xizmat qiladi. Shaqildoq, marakas, buben, rumba va boshqa o'yinchoq musiqa asboblari kiradi. Ular yordamida bolalarning qo'l muskullari rivojlantiriladi, ovozlarni ajrata olish qobiliyatini o'stiradi.

			
Buben	Marakas	Rumba	Shaqildoq

VI. Qo'l bilan ijro qilinadigan klavishlar

Ularga qo'l bilan ijro qilinadigan garmoshkalar kiradi. Ular harakatlar yo'nalishlarini rivojlantiradi. Bolalar tomonidan murakkab barmoq va qo'l harakatlarining ko'nikma, malakalari samarali o'zlashtiriladi.




Garmoshka 1



Garmoshka 2

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa ta'lim-tarbiyasini tashkil qilishda ko'rgazmali materiallardan ham foydalaniladi. Bu jarayonda qo'llaniladigan ko'rgazmali materiallar ikki guruhga ajratiladi. Ular (12-rasm).



12-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa ta'lim-tarbiyasini tashkil qilishda foydalaniladigan ko'rgazmali materiallar

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan pedagogik faoliyatning asosiy yo'nalishlaridan biri – musiqa ta'limi va tarbiyasini tashkil qilish sanaladi. Musiqa ta'limi va tarbiyasini tashkil qilishda aniq maqsad va vazifalar ko'zlanadi. Belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda musiqa to'garagining rahbariyoki tarbiyachilar bolalarga musiqasavodini o'rgatishga oid metodik adabiyotlar bilan ta'minlangan bo'lishi zarur. Shuningdek, musiqa ta'lim va tarbiyasining samarali bo'lishi qo'shiq va raqslarni o'rganish jarayonini turli o'yinchoqlar va bolalar musiqa asboblari bilan jihozlangan xonada tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Bolalarni maktabgacha ta'lim yoshidan musiqa asboblarni chalishga o'rgatish ularda qo'l va tana harakatlarining rivojlanishiga ham yordam berish bilan birga badiiy-estetik did va idrokni tarbiyalaydi.



Nazorat savollari:

1. Markaziy Osiyo xalqlarining musiqa san'ati qachondan rivojlangan?
2. Allalarning shakllanishi kishilik taraqqiyotining qaysi davriga to'g'ri keladi?
3. Markaziy Osiyo hududida shakllangan marosim qo'shiqlari va raqslarida qanday g'oyalar ifodalanadi?
4. Ulug' mutafakkir Abu Nasr Forobiyning qaysi asarida musiqa nazariyasi va tarixi, turli musiqa asboblari, kuylar va ularning ichki tuzilishi, tovushlar, ritmlar, ohanglar haqida ma'lumotlar berilgan?
5. Abu Ali Ibn Sinoning qaysi asarlarida musiqa asoslari va tarixi to'g'risida so'z yuritilgan?
6. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqiy ta'limni tashkil qilishda qanday maqsad ko'zlanadi?
7. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan musiqa ta'lim-tarbiyasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
8. Musiqiy mashg'ulotlarda bolalarda qanday ko'nikma, malakalar shakllantiriladi?
9. Kichik guruhlarda musiqa mashg'ulotlarining davomiyligi qancha bo'lishi kerak?
10. Bolalar musiqa asboblari qanday asosiy turlarga ajratiladi?
11. Truba, surnay, garmoshka va hushtak bolalarning qanday musiqa asboblari turiga kiradi?
12. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa ta'lim-tarbiyasini tashkil qilishda nechta turdagi ko'rgazmali materiallardan foydalaniladi?

Test topshiriqlari:

1. Markaziy Osiyoda musiqa san'ati ... bilan birga rivojlangan.
a) rassomlik;
b) adabiyot;
c) she'riyat;
d) hunarmandchilik.
2. Barcha musiqiy asarlar uch asos, ya'ni, dan tarkib topadi.
a) so'z, ohang va nota;
b) so'z, ohang va ijro;
c) so'z, ohang va harakat;
d) so'z, ohang va raqs.
3. "Avesto"ning marosimlarda ijro etiladigan qo'shiqlarni o'z ichiga oladi.
a) "Gotlar";
b) "Vendidat";
c) "Yasna";
d) "Yasht".
4. Bolalarda qo'shiq kuylash va musiqa jo'rligida ma'lum harakatlarni bajarish ko'nikmalarini hosil qilish musiqiy ta'limningsanaladi.
a) metodikasi;
b) tamoyillari;



c) vazifalari;

d) maqsadi.

5. Tayyorlov guruhlarida musiqa mashg'ulotlarini davomiyligi ... daqiqani tashkil qiladi.

a) 15-20;

b) 20-25;

c) 25-30;

d) 30-35.

6. Bolalar musiqa asboblari ... turga ajratiladi.

a) 7 ta;

b) 5 ta;

c) 3 ta;

d) 2 ta.

7. Bolalar musiqa asboblari ... turga ajratiladi.

a) 7 ta;

b) 5 ta;

c) 3 ta;

d) 2 ta.

8. ... bolalar musiqa asboblarining barabanlar turga mansub.

a) uchburchak, tanbur, ksilofon;

b) surnay, hushtak, garmoshka, truba;

c) gitara, skripka, rubob, tanbur;

d) shaqildoq, marakas, buben, rumba.

9. ... bolalar musiqa asboblarining puflama musiqiy asboblari turga kiradi.

a) uchburchak, tanbur, ksilofon;

b) surnay, hushtak, garmoshka, truba;

c) gitara, skripka, rubob, tanbur;

d) shaqildoq, marakas, buben, rumba.

10. ... bolalar musiqa asboblarining shovqinli musiqa asboblari turga kiradi.

a) uchburchak, tanbur, ksilofon;

b) surnay, hushtak, garmoshka, truba;

c) gitara, skripka, rubob, tanbur;

d) shaqildoq, marakas, buben, rumba.

11. ... bolalar musiqa asboblarining torli musiqa asboblari turga kiradi.

a) uchburchak, tanbur, ksilofon;

b) surnay, hushtak, garmoshka, truba;

c) gitara, skripka, rubob, tanbur;

d) shaqildoq, marakas, buben, rumba.

12. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa ta'lim-tarbiyasini tashkil qilishda ... ko'rgazmali materiallardan foydalaniladi.

a) 7 ta;

b) 5 ta;

c) 3 ta;

d) 2 ta.

Amaliy topshiriqlar:

1-topshiriq. Bosma va elektron manbalar asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining katta va tayyorlov guruhlarida o'rganish mumkin bo'lgan 6 ta bolalar qo'shiqlarini aniqlang. Ularni qanday mezonlarga ko'ra aniqladingiz?

2-topshiriq. O'zingiz tanlagan bolalar qo'shiqlarining ikkitasi uchun raqs harakatlarini loyihalashtiring (sahnalashtiring).

2.2. Musiqa mashg'ulotlarida qo'shiq o'rgatish metodikasi, yangi ashulani o'rgatishdagi asosiy jarayonlar (vokal, jamoa malakalarini o'stirish)

Reja:

1. Musiqa mashg'ulotlarida qo'shiq o'rgatish metodikasi, yangi ashulani o'rgatishdagi asosiy jarayonlar.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda qo'shiqchilik ko'nikmalarini tarbiyalash.
3. Bola eshituv qobiliyati (slux) va ovozni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari.
4. Qo'shiq kuylashga o'rgatishning metodlari va yo'llari.

Tayanch tushunchalar: mashg'ulot, qo'shiq o'rgatish, musiqa mashg'ulotlarida qo'shiq o'rgatish, metodika, musiqa mashg'ulotlarida qo'shiq o'rgatish metodikasi, ko'nikma, qo'shiqchilik ko'nikmalari, tarbiyalash, qo'shiqchilik ko'nikmalarini tarbiyalash, eshituv qobiliyati (slux), ovoz, eshituv qobiliyati (slux)ni rivojlantirish, ovozni rivojlantirish, qo'shiq kuylash, o'rgatish, qo'shiq kuylashga o'rgatish, qo'shiq kuylashga o'rgatish metodlari, qo'shiq kuylashga o'rgatish yo'llari.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi. – T.: YUNISEF, 2018. – 72 b.
2. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti // <https://lex.uz/docs/5179335?query>.
3. Maktabgacha pedagogika / Darslik. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpulatova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova. – T.: "Tafakkur" nashriyoti, 2019. – 688 b.
4. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. –T.: "Fan va texnologiya", 2012. – 268 b.
5. Соипова Д. Музыка ўқитиш назарияси ва методикаси / Ўқув қўлл. – Т.: Республика методика ва ахборот маркази, 2009.

I. Musiqa mashg'ulotlarida qo'shiq o'rgatish metodikasi, yangi ashulani o'rgatishdagi asosiy jarayonlar⁷⁹. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotlarining

⁷⁹ Ушбу кичик мавзуни ёритишда қуйидаги манба маълумотларидан фойдаланилди: Соипова Д. Музыка ўқитиш назарияси ва методикаси / Ўқув қўлл. – Т.: Республика методика ва ахборот маркази, 2009. – 46-47-б.



dasturi davlat hujjati bo'lib, musiqa rahbarini ta'limiy-tarbiyaviy ishi, bolalarni barkamol tarbiyalab maktab ta'limiga tayyorlashini nazarda tutadi.

Musiqa mashg'ulotlarini rejalashtirar ekan, pedagog bolalar aqliy, jismoniy, emotsional yuklamalarini hisobga olish kerak va shunga ko'ra o'rganadigan repertuar va faoliyat turlarini ketma-ketligini to'g'ri tuzish kerak.

O'quv materialini murakkabligiga ko'ra xilma-xildir: ko'proq aqliy faoliyati, diqqatni talab qiladigan vazifalarni mashg'ulotlar boshida berish kerak. Kuylashdan oldin murakkab jismoniy mashqlarni berish mumkin emas, chunki bunday mashqlar bolalarni nafas olishlarini qiyinlashtiradi.

Amaliyotga ko'ra faoliyat turlarini quyidagicha berish maqsadga muvofiq. Mashg'ulot boshida kichik musiqiy-ritmik mashqlar ular birorta raqs elementlari ham bo'lishi mumkin. Bunday harakatlar bola diqqatini jamlaydi.

Ritmik mashqlardan so'ng bolalar o'tiradilar va musiqa tinglaydilar. Keyin esa qo'shiq kuylashga o'tadilar. Bolalar bir mashq davomida 2-3-ta qo'shiq kuylashadi. Masalan, marsh, raqs, qo'shiq jarayonida musiqa savodidan xabardor bo'ladilar. Bunday mashg'ulotlar mavzuli mashg'ulotlar deyiladi.

Yana biri bu kompleks mashg'ulotlardir. Bunda bolalar bilan faqat musiqa, balki, adabiyot va tasviriy san'at bilan shug'ullanadilar. Bunday mashg'ulotlar asosida uchta san'atni birlashtiruvchi badiiy obraz yotadi. asalan, "Qish zavqi", "Kuz keldi", "Bahor".

Har bir bolaning musiqiy qobiliyatini va maqsadga muvofiq va har tomonlama ta'lim-tarbiya beruvchi mashg'ulotlardir. Ularda har xil faoliyat turlari: kuylash, ritmik harakatlar bajarish, musiqa tinglash, musiqa savodi bilan tanishish kabi faoliyatlar uzviy bog'lab olib boradilar. Musiqa faoliyatini bajarish bolalarni faolroq bo'lishlariga asos bo'ladi. Tashkil etiladigan bayramlar ham qiziq va muvaffaqiyatliroq o'tadi.

Musiqa mashg'ulotlari butun guruh bilan bir vaqtda o'tkaziladi. Uning mazmuni va tuzilishi bolalar yoshi va beriladigan vazifalarga bog'liq. Bir yashar bolalarda mashg'ulotlar qisqa o'tadi. Bir yarim yashar bolalarda 10-13 daqiqa olib boriladi. Musiqa mashg'ulotlari 2-guruhdan boshlab haftasiga ikki marta o'tkaziladi. Musiqa mazmuni – qo'shiq o'rgatish, musiqa tinglash, ritmik harakatlar bajarishni qamrab oladi. Bolalarni bilim va malakalariga qo'yildigan talablar har bir guruh uchun faoliyat turiga qarab tuziladi.

Bunday mashg'ulotlarning qiyinligi shundaki, bolalarning diqqatini bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga ko'chirish kerak bo'ladi. Shu ketma-ketlikni reja asosida amalga oshirish murakkabdir. Chunki bolalarning psixologik xususiyatlarini hisobga olsak ular bugun o'rgangan asarlarini keyingi safar unutishlari mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ertaliklar va bayramlar davlatimizning muhim voqealari bilan bog'liq tarzda tashkil etiladi. Turli xil bayramlarga bag'ishlangan ertaliklarda bolalar mamlakatimizning muhim sanalari va bayramlari bilan tanishib boradilar. Bunday ertaliklarda musiqa asosiy o'rinda turadi. Bunday ertaliklarda bolalar qo'shiq kuylaydilar, raqsga tushadilar, bolalar musiqiy cholg'ularida ijro etadilar.



Bunday bayram-ertaliklar uchun ataylab ssenariylar yoziladi. Ssenariylar mavzusi bayram ruhiga yaqin bo'lishi, turli xil she'rlar, kuy va qo'shiqlardan tashkil topgan bo'lishi kerak. Demak, bayram ertaliklaridagi repertuar xilma-xil bo'lmog'i lozim. Tanlanadigan repertuarining mazmuni bayram⁸⁰.

II. Maktabgacha yoshdagi bolalarda qo'shiqchilik ko'nikmalarini tarbiyalash.

Tarbiyachi va ota-onalar shuni yodda tutishlari kerak, bolalarda diapazon yoshga qarab shakllanadi, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda qo'shiq diapazoni faqat birinchi oktavaning "re" sidan ikkinchi oktavaning "do" sigacha kengayadi, bu yerda bolalarning «ishchi» diapazoni birinchi oktavaning "mi – si" tovushlari cheklangan eng yengil tovushga erishadi.

Maktabgacha bolalarda eshitish qobiliyatini rivojlantirish uchun quyidagi mashq va o'yinlardan foydalanish tavsiya qilinadi:

I. Bolalarda musiqani eshita olish qobiliyatini rivojlantirish uchun mashqlar:

Bolalarda musiqani eshita olish qobiliyatini rivojlantirish uchun quyidagi mashqlar to'plamidan ham foydalanishingiz mumkin:

1. "5 ta unli" mashqi. Bolalar chuqur nafas oladi va unli tovushlarni imkon qadar cho'zib, takrorlaydi. Tovush qanchalik uzoqroq cho'zilsa, shuncha yaxshi. Tovushlarni cho'zishda ularning musiqiy ohangga ega bo'lishi ixtiyoriy, ammo imkon qadar bunga erishish kerak. "I", "E", "A", "O", "U" unlilarini cho'zib ayta olish kerak. Aynan shu asosda bolalarda ovoz paychalari rivojlanadi. Agar bu tartib saqlanmasa, u holda qo'shiqlarni kuylash qiyin bo'ladi. Shu tartib uch marta takrorlanadi. Mashq har bir bola bilan mashg'ulot vaqtida bir marta amalga oshiriladi. Mashq tik turgan holda bajariladi.

2. "Tarzan" mashqi. Ushbu mashq ham "5 ta unli" mashqi kabi bajariladi. Bolalar Tarzan kabi "I", "E", "A", "O", "U" unlilarini cho'zib aytadi. Ammo tovushlar cho'zib aytilayotgan vaqtda bolalar o'z ko'kraklariga ohista uradi. Ko'krakka urish juda ehtiyotkorlik bilan bajariladi. Mashq uchun zarbaning kuchi bo'lishi muhim emas, balki urishni amalga oshirish muhim. Mashq faqat tik turgan holda amalga oshiriladi.


3. "K'yu-iks" mashqi. Bu mashqni bajarishda "K'yu-iks" bo'g'ini o'ttiz marta talaffuz qilinadi. Bunda nafaqat bo'g'inni talaffuz qilish, balki "k'yu" talaffuz qilinganda lab doirani hosil qilishi, "iks" aytilganda esa kulayotgan holat namoyon bo'lishi kerak. Ushbu mashq ovoz paychalarini bo'shashtirish uchun amalga oshiriladi, shuning uchun uni mashg'ulotlar vaqtida kamida o'n marta bajarish mumkin. Ushbu mashqni gapirishdan yoki to'g'ridan-to'g'ri qo'shiq aytishdan oldin bajarish foydalidir⁸¹.

4. "Gammalar" mashqi. "Do" dan "do" gacha bo'lgan tovushlarni goh ko'tarib, goho tushirib kuylash; har bir notadan keyin tahlil qilish.

5. "Intervallar" mashqi. Bir xil tovushda turli intervallarda baland va past ovoz bilan qo'shiq aytish.

⁸⁰ Соипова Д. Музыка ўқитиш назарияси ва методикаси / Ўқув қўлл. – Т.: Республика методика ва ахборот маркази, 2009. – 46-47-б.

⁸¹ Как научиться петь? 3 упражнения, которые помогут развить голос // https://courseburg.ru/news/kak_nauchitsya_pet-p9755.html.



6. Bolalarni audio yoki video lavha bilan birga sevimli qo'shiqni kuylashga o'rgatish⁸².

II. Bolalarda musiqani eshita olish qobiliyatini rivojlantirish uchun o'yinlar:

1. "Shiqildoqlar" (turli ovoz chiqaradigan shiqildoqlar yordamida bolalar tovushlarni aniqlashlari kerak).

2. "Necha nafar bola kuylayapti" (bir nechta bola qo'shiq kuylaydi, qolganlar ularni necha nafar ekanliklarini aniqlashlari kerak).

3. "Musiqiy exo" ("Musiqiy jarang (qaytar tovush)"); bir guruh bolalar qo'shiq kuylaydi, ikkinchi guruhdagilar ularni takrorlaydi).

4. "Telefon simidagi qushlar" (musiqa rahbari bir necha xil qushlarning tovushini fortepianoda ijro qiladi, bolalar ovoz qaysi qushga tegishli ekanini topadi).

5. "Uycha" (musiqa rahbari bir necha xil hayvonlarning tovushini fortepianoda ijro qiladi, bolalar ovozi qaysi hayvonga tegishli ekanini topadi)⁸³.

III. Bola eshituv qobiliyati (slux) va ovozni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga musiqa savodini berishda ularning yosh, psixologik va fiziologik xususiyatlarini, shuningdek, ularning qo'shiq kuylash yoki raqsga tushish layoqatiga egaligi va, albatta, har bir tarbiyalanuvchining bu boradagi individualligi inobatga olinadi.

3 yoshda ovoz apparati endi shakllana boshlaydi. Qo'shiqchilik ovozi hali yo'q, nafas qisqa, lekin bolalar shu davrda juda qiziquvchan bo'lib, kattalar ijrochiga bajonudil qo'shiladi, jumalarning ba'zi tovushlarini kuylay olishadi. Asosiy vazifa boshlang'ich kuylash malakalarini rivojlantirish va mustahkamlash. Bu yoshdagi bolalar qo'shiqni butun yaxlitligicha kuylay olishmaydi, faqat ba'zi qismlarinigina kuylay olishadi.

4 yoshga kelib ovoz kuchayadi, ular eng oddiy qo'shiqlarni kuylay olishadi. Bunda bolalarda tabiiy tovushda kuylashga, zo'riqmasdan, tovushni siqmasdan kuylashga o'rgatishga e'tibor qaratiladi. Ushbu yoshda muhim ishlardan biri bu talaffuz ustida ishlash. Bolalar bu yoshda hali ko'p so'zlarni ma'nosini tushunmaydi. Ularga so'zlarning mazmunini va to'g'ri talaffuzini tushuntirish kerak. Bu yoshdagi bolalar umumiy bir sur'atda kuylashi qiyin kechadi. Bu narsa tarbiyachining doimiy e'tiborida bo'lishi va bolalarning birgalikda kuylashga o'rgatishi kerak.

5 yoshdagi bolalar ma'lum darajadagi umumiy musiqiy tayyorgarlikka ega bo'lib, ular murakkab bo'lmagan qo'shiqlarni musiqa to'garagi rahbariga ergashib kuylaydi. Bu yoshdagi bolalarning ovozi ancha mustahkamlangan bo'lib diapazon re 1 – si 1 oralig'ida kengaydi. Nafas biroz mustahkamlangan, chuqurlashgan, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish malakalariga egadir.

O'rta guruhlarda bolalarni musiqa savodiga o'rgatishda quyidagi vazifalar bajariladi:

1. Tabiiy tovushda zo'riqmasdan kuylash. Bu malaka ustida muntazam ravishda ish olib boriladi.

2. To'g'ri nafas olish, ya'ni bir jumlaning bir nafasda kuylash.

⁸² Упражнения для развития музыкального слуха // <https://shademark.ru/drugoe/uprazhneniya-dlya-razvitiya-muzykalnogo-sluha-2.html>.

⁸³ Как развить музыкальный слух // <https://xn--80akjgcylo.xn--p1ai/kak-razvit-muzykalnyj-sluh>.



3. To'g'ri talaffuzga e'tibor berish.

4. Artikulatsiya ustida ishlash (qo'shiq ijrosi vaqtida og'izni to'liq ochishga, past jag'ni zo'riqtirmasdan, siqmasdan ochib kuylash).

5. Ansambl malakalari – qo'shiqni birga boshlab, birga tugatishga erishish. Bu yoshdagi bolalarni jo'rsiz ijroga o'rgatish (yaxshi o'rganilgan va mustahkam biladigan qo'shiqni jo'rsiz aytishi mumkin) kerak.

Katta guruhda kuylashga o'rgatishda ham muayyan jihatlarga, ya'ni, tovush hosil qilish ustida ishlaganda zo'riqmasdan kuylashga e'tiborini qaratadi, ammo ovoz jaranglashining turli-tuman bo'lishiga, ya'ni tabiiy, jarangdor, chaqqon, yengil, mayin kuylashga erishish kerak.

Bu davrda bolalar diksiya (urg'u)ni to'g'ri qo'llash va o'z-o'zini eshitishga, ovoz kuchini boshqarishga, so'zlarni aniq talaffuz etishga o'rgatiladi. Shu sababli musiqa rahbari doim bolalar sof kuylashga e'tibor berishi kerak.

Kuylashning sifati kuylash holatiga ham bog'liq. Ifodali kuylashga erishishda dinamik tuslar, ansambl malakalari to'g'ri bajarilishi muhim.

Maktabga tayyorlov guruhida musiqiy-estetik masalalar alohida ahamiyat kasb etadi. 6-7 yoshli bolalarda kuylashga ehtiyoj kuchayadi. Maktabga bolalarni puxta egallagan bilim va malakalar bilan yuboriladi.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalaridan quyidagilar talab etiladi:

I. Qo'shiqni ifodali ijro etish:

- jarangdor, kuychan, yengil ovoz bilan kuylash;
- ko'krak va yelkani ko'tarmasdan nafas olish;
- jumlaning boshida olingan nafasni jumlaning oxirigacha tejab sarflash;
- artekulatsiya malakalari, so'zlarni (unli va undosh harflarni) aniq va burro talaffuz qilish.

2. Qo'shiqni birga boshlab birga tugatishi (bunda bolalar sur'atni tezlashtirmasdan yoki sekinlashtirmasdan qo'shiqni tugatishga o'rgatiladi):

- ritm va tempni aniq his qilishi;
- kuyni sof intonatsiya qilishi, yonidagi do'stini kamchiligini ayta olishi;
- tanish bo'lgan qo'shiqni asbob jo'rligida yoki jo'rsiz ijro eta olish;
- kuyning yuqoriga va pastga harakatlanishi, uzun va qisqa tovushlarni aniqlay olishi;
- notalar nomlarini bilishi va ularning yozilishini bilishi kerak.


III. Jamoa va yakka kuylay olishi (bunda bolalar qomatlarini tik tutgan holda qo'shiq ayta olish malakalarini namoyon qilishga o'rgatiladi).

IV. Qo'shiq kuylash diapazonini rivojlantirishi (do (do#) 1-re2).

Maktabga tayyorlov guruhi bolalari quyidagi qo'shiqchilik malakalarini o'zlashtira olishlari lozim:

1. Tovush hosil qilish (yengil, yuqori, jarangdor, kuychan). Musiqa rahbari qo'shiq o'rgatish jarayonida o'zi yoki yaxshi kuylaydigan bola misolida ko'rsatadi.

2. Unli tovushlar (a, o, u, e, i)ni to'g'ri talaffuz qilish. Bunda kuylashdan oldin ovoz sozlash mashqlarida (lya-le-li bo'g'inlari) qo'llashi maqsadga muvofiqdir.

- 
3. Qo'shiqchilik nafasi ustida ishlash.
 4. Diksiya rivoji. Bola matnni mazmunini tushungan holda to'g'ri kuylashi kerak.
 5. Intonatsiya (stroy) ning sofligi va to'g'riligiga erishish.

IV. Qo'shiq kuylashga o'rgatishning metodlari va yo'llari. Ta'lim jarayonida shaxsda u yoki bu ko'nikma, malakalarni shakllantirish yoki rivojlantirish muayyan metodlar yordamida amalga oshiriladi. Ana shu maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni samarali tashkil qilish uchun ma'lum yo'llar tanlanadi. Shu sababli pedagogik faoliyatni tashkil qilishda maqsaddan kelib chiqqan holda samarali metodlar tanlanib, kutilgan natijani qo'lga kiritishga imkon beradigan yo'llar aniqlanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham bolalarga musiqa savodini o'rgatishda quyidagi metodlar⁸⁴ dan foydalaniladi:

A. Kichik guruh (3-5 yoshli) bolalarini kuylashga o'rgatish

Metodik usullar:

1. Musiqa rahbari tomonidan qo'shiqni ifodali emotsional ijroda ko'rsatish.
2. Qo'shiqni birinchi bor tanishtirish jarayonida rasm, o'yinchoqlar bilan qo'shiqni mazmunini ochib berish.
3. O'yin shakllarini qo'llash.
4. Qo'shiqni ijro qilish (musiqa rahbari asarni 2-3 marta fortepianoda chalib beradi va bolalar bilan birgalikda kuylaydi).
5. Qo'shiq matnini kuy bilan birgalikda o'rganish.

B. O'rta guruh bolalarini kuylashga o'rgatish

Metodik usullar:

1. Qo'shiqni o'rgatish jarayonida fortepiano jo'rligida yoki jo'rsiz olib borish.
2. Musiqa rahbarining ovozi bilan kuylashga o'rgatish (bolalar uchun qo'shiq kuylash ko'nikma, malakalarini o'zlashtirishni osonlashtiradi).
3. Qo'shiq o'rgatish jarayonida musiqiy jummalarni bolalarni guruhlarga bo'lib, navbatma-navbat kuylatish (bunday metodni qo'llash orqali bolalarning eshituvi qobiliyati va diqqati rivojlanadi).
4. Cho'zib kuylash (kontelenno ijrosi; bunda kuylash oldidan ovoz sozlash mashqlarini bajarishga e'tibor beriladi, mashqlar bolalarda ovoz va to'g'ri nafas olish malakalarini rivojini ta'minlashdi).

S. Katta guruhda kuylashga o'rgatish

Metodik usullar:


1. Aks-sado usuli (kuylash jarayonida exo hosil qilish bolalarda eshitish va to'g'ri ijro qilish qobiliyatini rivojlantiradi).
2. Qiyoslash-taqqoslash (qo'shiqni o'rganish jarayonida musiqa rahbarining o'zi, shuningdek, bir-ikki nafar tarbiyalanuvchining ijrosi eshitiladi va bolalar bilan ovozdagi farqlar tahlil qilinadi).

⁸⁴ Ушбу кичик мавзуни ёритишда қуйидаги манба маълумотларидан фойдаланилди: Соипова Д. Муסיқа ўқитиш назарияси ва методикаси / Ўқув қўлл. – Т.: Республика методика ва ахборот маркази, 2009. – 30-33-б.

D. Maktabgacha tayyorlov guruhlarida kuylashga o'rgatish

Metodik usullar:

1. Qo'shiq kuylashdan oldin ovoz sozlash (do-re-mi-fa-sol-lya-si-do; do-si-lya-sol-fa-mi-re-do tarzida ovoz sozlanadi).
 2. Qo'shiqni yuqori va past tonalliklarda transportda kuylash (ya'ni yuqori va past tonalliklarning o'rnini tez-tez o'zgartirish orqali kuylash).
 3. Kuyni eshitish qobiliyatini rivojlantirish.
 4. Kuyni qo'l harakatida ko'rsatish (dirijorlik elementlari).
- Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni qo'shiq kuylashga o'rgatishda samarali yo'llardan ham foydalaniladi. Quyidagi yo'llar bolalarni qo'shiq kuylashga o'rgatishda samarali hisoblanadi (13-rasm):



13-rasm. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni qo'shiq kuylashga o'rgatishda samarali yo'llar

Mutaxassislar tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlarini sifatli, samarali tashkil etish yuzasidan quyidagi tavsiyalar⁸⁵ beriladi:

Musiqqa rahbari uchun eslatma

Musiqqa mashg'ulotlarida eng ko'p qo'llaniladigan qo'shiq aytish usullaridan foydalaning:

O'zingiz baland ovozda qo'shiq ayting (baytma-bayt (kupletma-kuplet); har ikki qatorni alohida-alohida).

“Exo” (sokin-baland ovozda).

“Zanjir” (navbat bilan qo'shiq kuylash).

Qarsak chalgan holda xona bo'ylab yurish.

Kuylanadigan qo'shiqni kartochkalar asosida aniqlash.

Og'ziz yopiq holda qo'shiq aytish.

Bo'g'inlarga urg'u bergan holda qo'shiq aytish.

Solfejo.

Birinchi tovushni kuylash (“Sozlovchi”)/

“M ...” dan “r ...” ga tez o'tish asosida kuylash.

Berilgan belgi (signal) asosida qo'shiq aytish (bayroq ko'tarilganda qo'shiq aytiladi – bayroq tushirilganda qo'shiq aytish to'xtatiladi).

“Yashirlab” (“Pichirlab”) qo'shiq aytish.

85 Как развить музыкальный слух // <https://xn--80akjgcylo.xn--p1ai/kak-razvit-muzykalnyj-sluh>.



“Xor va dirijyor” o‘yini asosida qo‘shiq aytish.

“Soatchalar – devor soatchalar” (qarsak chalish – oyoqni polga urish).

Qo‘shiq aytish, ohangni o‘zgartirish.

Dirijorlik elementlaridan foydalanish.

Lablar holatini kartochkalar asosida ko‘rsatish.

“Musiqiy narvon” (past ovoz bilan kuylashni boshlab, asta-sekin yuqori notalarga o‘tish).

Tez aytishlar (“Qora qo‘ng‘iz qorong‘ida yolg‘iz qoldi”, “Olam qalam bilan, qalam olam bilan”, “Vali bolalar bilan voleybol o‘ynadi”, “Sharif shartta sharfini o‘radi”, “Qo‘ldosh qo‘liga qo‘lqopini qoqib kiydi”, “Qorqiz — qorday oppoq, oyday oyqiz”, “Archa atrofida barcha ancha charchadi”, “Qahraton qishning qahri qattiq”, “Akula – kula-kula ko‘zlari ola-kula bo‘lardi-ya”, “Gulobod — gullar bilan obod”⁸⁶)yordamida til harakatini, ovozni rivojlantirish

Kapella (xor bilan birga) kuylash.

Yakkaxon va ansamblda kuylash.

Shunday qilib, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining faoliyatiga musiqa ta‘lim-tarbiyasi alohida o‘rin tutadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga musiqa ta‘limini berishga nisbatan alohida yondashuq talab qilinadi. Bu yoshdagi bolalarning yosh, psixologik, fiziologik xususiyatlari shuni taqozo qiladi. Shu sababli bolalarga qo‘shiq kuylashni o‘rgatishga oid maxsus metodika shakllantiriladi. Maxsus metodika turli o‘yin va mashqlar bilan boyitiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar guruhlarining o‘ziga xosligidan kelib chiqqan holda ularda alohida metodika asosida mashg‘ulot tashkil qilinadi.

Nazorat savollari:

1. Musiqa mashg‘ulotlarining boshida nima uchun kichik musiqiy-ritmik mashqlar bajariladi?

2. Kompleks mashg‘ulotlar nimalardan tashkil topadi?

3. Musiqa mashg‘ulotlari necha nafar tarbiyalanuvchi bilan olib boriladi?

4. Musiqa mashg‘ulotlari 2-guruhdan boshlab haftasiga necha marta o‘tkaziladi?

5. Bolalarda musiqani eshita olish qobiliyatini rivojlantirish uchun qanday mashqlardan foydalaniladi?

6. Bolalarda musiqani eshita olish qobiliyatini rivojlantirish uchun qanday o‘yinlardan foydalaniladi?

7. O‘rta guruhlarda bolalarni musiqa savodiga o‘rgatishda qanday vazifalar bajariladi?

8. Kuylashni o‘rganishda maktabga tayyorlov guruhi bolalaridan nimalar talab etiladi?

9. Maktabga tayyorlov guruhi bolalari qanday qo‘shiqchilik malakalarini o‘zlashtira olishlari lozim?

⁸⁶ Tez aytishlar (latin) // <https://qwert.uz/category/tez-aytishlar-patter/tez-aytishlar>.



10. Bolalarga qo‘shiq kuylashni o‘rgatishda qanday metodlar qo‘llaniladi?
11. Bolalarga qo‘shiq kuylashni o‘rgatishda qanday yo‘llardan foydalaniladi?

Test topshiriqlari:

1. Musiqa mashg‘ulotlarini rejalashtirishda ... ning ketma-ketligini to‘g‘ri tuzish kerak.
- a) ssenariy va faoliyat turlari;
 - b) repertuar va faoliyat turlari;**
 - c) reja va faoliyat turlari;
 - d) loyiha va faoliyat turlari.
2. Bolalar bir mashq davomida ... qo‘shiq kuylaydi.
- a) 5-6 ta;
 - b) 4-5 ta;
 - c) 3-4 ta;
 - d) 2-3 ta.**
3. Musiqa mashg‘ulotlari bir yarim yashar bolalarda olib boriladi..
- a) 10-13 daqiqa;**
 - b) 10-11 daqiqa;
 - c) 8-10 daqiqa;
 - d) 5-7 daqiqa.
4. “I”, “E”, “A”, “O”, “U” unllilarini cho‘zib aytishga asoslanadigan mashq – bu
- a) “K‘yu-iks” mashqi;
 - b) “Tarzan” mashqi;
 - c) “5 ta unli” mashqi;**
 - d) “Gammalar” mashqi.
5. “I”, “E”, “A”, “O”, “U” unllilarini cho‘zib aytish va ko‘krakka yengil urishga asoslanadigan mashq – bu
- a) “K‘yu-iks” mashqi;
 - b) “Tarzan” mashqi;**
 - c) “5 ta unli” mashqi;
 - d) “Gammalar” mashqi.
6. Lablar yordamida doirani va kulayotgan holatni hosil qilishga asoslanadigan mashq – bu
- a) “K‘yu-iks” mashqi;**
 - b) “Tarzan” mashqi;
 - c) “5 ta unli” mashqi;
 - d) “Gammalar” mashqi.
7. Notalarda “do” dan “do” gacha bo‘lgan tovushlarni goh ko‘tarib, goho tushirib kuylashga asoslanadigan mashq – bu
- a) “K‘yu-iks” mashqi;
 - b) “Tarzan” mashqi;



c) “5 ta unli” mashqi;

d) “Gammalar” mashqi.

8. 3 yoshda ...endi shakllana boshlaydi..

a) ovoz kuchi;

b) ovoz apparati;

c) ovoz diapazoni;

d) tovush paychalari.

9. 4 yoshga kelib ... kuchayadi.

a) tovush;

b) ovoz;

c) nutq tempi;

d) ovoz kuchi.

10. 5 yoshdagi bolalarda diapazon ... oralig'ida kengaydi.

a) re 1 – fa 1;

b) re 1 – sol' 1;

c) re 1 – lya 1;

d) re 1 – si 1.

10. 5 yoshdagi bolalarda diapazon ... oralig'ida kengaydi.

a) re 1 – fa 1;

b) re 1 – sol' 1;

c) re 1 – lya 1;

d) re 1 – si 1.

Amaliy topshiriqlar:

1-topshiriq. Bastakor Sobir Boboyevning “Bugun bayram” qo'shig'ini maktabga tayyorlov guruhida o'rganish metodikasini ishlab chiqing.

2-topshiriq. Bastakor Dilorom Omonullayevaning “Paravoz” qo'shig'ini samarali o'rganish uchun mashq va o'yinlarni tanlang.

2.3. Maktabgacha yoshdagi bolalarga musiqa jo'rligida harakatlanishga o'rgatish

Reja:

1. Musiqa va jismoniy harakat.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'zbek xalq raqs elementlariga o'rgatish.
3. O'zbek milliy raqslari namunalari.

Tayanch tushunchalar: musiqa, jismoniy harakat, bolalar, maktabgacha yoshdagi bolalar, raqs elementlari, o'zbek xalq raqs elementlari, raqs elementlariga o'rgatish, maktabgacha yoshdagi bolalarni o'zbek xalq raqs elementlariga o'rgatish, milliy raqs, o'zbek milliy raqslari, namuna, o'zbek milliy raqslari namunalari.



Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi. – T.: YUNISEF, 2018. – 72 b.
2. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. –T.: "Fan va texnologiya", 2012. – 268 b.
3. Saitova E.Y., Abraykulova N.E.. Xoreografiya va raqs san'ati asoslari. – T.: "Fan va texnologiya", 2015, - 54-57-b.
4. Соипова Д. Муסיқа ўқитиш назарияси ва методикаси / Ўқув қўлл. – Т.: Республика методика ва ахборот маркази, 2009. – 70-71-б.
5. Табинбаев А., Казаков Б. Ўзбек халқ миллий ўйинларининг ривожланиши, ёшларни тарбиялашдаги аҳамияти, педагогик таърифи ва мактаб программасидаги ўрни / Ўқув-мет.қўлл. – Нукус: Қорақалпоқ ДУ нашриёти, 2015. – 14-23-б.

I. Musiqa va jismoniy harakat. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlarida musiqiy ritmdan keng foydalaniladi. Mohiyatiga ko'ra ritmning asosini musiqa tashkil qiladi va turli jismoniy mashqlar, raqslar, sujetga o'xshash harakatlar chuqurroq idrok etish va tushunish vositasi sifatida ishlatiladi. Ritm turlari ularda qo'llaniladigan harakatlarning xarakteri bilan chambarchas bog'liq. Ritm uchun harakatlar manbalari jismoniy mashqlar, raqs va sujetga o'xshash harakatlar hisoblanadi.

Ritm – *musiqaning mazmuni va xarakterini harakatlar yordamida ochib beradigan musiqiy faoliyat turlaridan biri.*

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlarida musiqiy ritmdan foydalanishda alohida maqsad va uning negizida turkum vazifalar belgilanadi.

Musiqiy ritmning maqsadi *bolalar tomonidan musiqaning idrok etilishi (uni ifodalash vositalari, shakllarini ajratib ko'rsatish)ni ta'minlash, ularning tasavvurlarini chuqurlashtirish, musiqiy ohanglarni bir-biridan farqlashni o'rgatish orqali ifodaviy harakat ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.*

Qadim zamonlardan beri musiqaga mos harakatlarni bajarish bolalarni tarbiyalashda qo'llanilgan (qadimgi Hindiston, Xitoy, Gretsiya). Ammo birinchi marta shveytsariyalik o'qituvchi va bastakor Emil Jak-Dalkroze musiqiy ritmning bolalarni rivojlantirishdagi rolini o'rgandi va uni musiqiy ta'lim usuli sifatida asosladi. Shuningdek, harakatlarning plastikligi va ekspressivligini rivojlantirish vazifasini qo'ydi.

Emil Jak-Dalkroze asoslagan musiqiy-ritmik ta'lim tizimining qimmatini va hayotiyligi uning insonparvarlik xarakteriga egaligi bilan belgilanadi. Bastakor fikricha barcha bolalarga ritmni o'rgatish zarur. Zero, musiqiy ritm bolalarda hissiyotni, ijodiy tasavvurni rivojlantirdi, harakatlarda o'zini namoyon qilish qobiliyatini shakllantirdi.

E. Jak-Dalkroze ritmik mashqlar tizimini yaratib, uni o'z shogirdlariga bir necha yillar davomida o'rgatdi. Bastakor musiqiy-ritmik mashqlarni vositalar – to'p, lenta bilan birlashtirildi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlarida jismoniy harakatlardan samarali, o'rinli foydalanish quyidagi **vazifalar**ni hal qilishga yordam beradi (14-rasm):



14-rasm. Musiqa mashg'ulotlarida jismoniy harakatlardan foydalanish vazifalari

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llanilayotgan bolalarning musiqlik-ritmik tarbiyasi E.Jak-Dalkroze tizimining yetakchi qoidalari asosiga qurilgan. Ritm bo'yicha Vera Griner, Mariya Rumer, Elena Konorova va boshqalar ritmik darslar uchun yuksak badiiy repertuar tanlashga alohida e'tibor qaratdi. Ular o'z ishlarida xalq qo'shiq va kuylaridan, zamonaviy kompozitorlar ijodidan keng foydalandi. O'tgan asrning 20-yillardan boshlab bolalar bog'chalari, musiqa va teatr maktablari, institutlari, konservatoriyalar, shuningdek, tibbiyot muassasalari uchun ritmik ta'lim tizimlari ishlab chiqildi.

Musiqlik harakat bolaning sog'lig'iga foydali ta'sir ko'rsatadigan vositalardir. Musiqlik-ritmik harakatlar lelakssiya (bo'shashtirish) funksiyasini bajaradi, hissiy ta'sirlanishga erishishga yordam beradi, aqliy zo'riqish, jismoniy charchoqni bartaraf qiladi. Musiqa miyaga buyuradigan ritm asab tarangligini yengillashtiradi. Harakat va raqs bolaga boshqa bolalar bilan do'stlashishga yordam beradi, ma'lum bir psixoterapevtik ta'sir ko'rsatadi.

Neyropsixologlarning fikricha, musiqlik qobiliyat insonning biologik merosining bir qismi bo'lib, har bir sog'lom bolada mavjud. Musiqlik qobiliyatlarni rivojlantirish



uchun bolaga o'zini bir nechta musiqiy faoliyat turlarida sinab ko'rish imkoniyatini berish kerak, ulardan biri musiqiy harakatdir.

Musiqiy-ritmik harakat har qanday imo-ishora yoki harakat mazmunning hissiy ifodasi, shakli bo'lish bilan birga tasvirlarning "hosil qilish"ining usuli ham hisoblanadi. Imo-ishora, harakat, plastika hissiy holatni o'zida umumlashtiradigan musiqiy-ritmik harakat alohida xususiyatga ega. Bolalarda musiqaga mos ravishda "yurakdan o'ynash", harakatlarni tana, qalbning har bir hujayrasi bilan "plastik tarzda kuylash" qobiliyatini yoshligidan shakllantirish kerak.

Bunday harakat bolalarga fikrni uzoqroq ifodalash yoki fikrning assimetriyasini his qilish, u yoki bu asarning xarakterini his qilish, musiqaning rivojlanishi, joylashishining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatish, shuningdek, o'zini namoyon qilishga yordam beradi.

Musiqqa eshitish organi orqali idrok etilsada, u shaxs organizmining umumiy holati – qon aylanish, nafas olish tizimi va boshqalarga ta'sir qiladi.

B.M.Teplov musiqani idrok etishni vosita reaksiyalari (vokalizatsiya, barmoqlarning kichik harakatlari va boshqalar) bilan birga olib borish lozimligini isbotladi. Shuning uchun harakatlar ohangning tabiati, tovushning sifati (silliq, aniq, keskin), musiqiy-ifodaviy vositalari (ohang, dinamika, ohangning ko'tarilishi va tushishi, sur'at, ritm, ritmika va boshqalar) haqida tushunchasini faollashtiradigan usullar sifatida muvaffaqiyatli qo'llaniladi. Musiqaning bu xususiyatlarini qo'l harakati, raqs va tasviriy harakatlar yordamida modellashtirish mumkin⁸⁷.

Qo'shiq kuylash ovoz apparatini rivojlantiradi mustahkamlaydi, nutqni yaxshilaydi (logoped vrachlar kuylashni nutq talaffuzini davolovchi vosita sifatida qo'llaydi), ovozni eshitish koordinatsiyasini yaxshilaydi. Kuylash jarayonida to'g'ri o'tirish nafas olish tizimiga ijobiy ta'sir qiladi.

Musiqiy-ritmik harakatlar bajarish jarayonida bolalar musiqqa bilan birgalikda turli harakatlarni bajaradi. Bu esa o'z navbatida bola qomatini to'g'ri rivojlanishiga, uning koordinatsiyasini, to'g'ri qadam qo'yish, yurishini to'g'ri va yengil bo'lishiga imkon beradi. Musiqadagi barcha dinamik, ritmik va sur'atga daxldor ifoda vositalari bolalarni bir holatdan boshqa holatga o'tishlariga, charchoqlarini yozishlariga, kayfiyatlarini ko'tarishlari uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Buyuk mutafakkir Ibn Sino musiqqa ovozlarning kishi ruhiga ta'siri haqida ham o'z fikrlarini bayon etgan. Bu borada buyuk alloma mashhur "Qonun-fit-tib" ("Tib qonunlari") asarida quyidagilarni ta'kidlaydi: "Tanani chiniqtirishda chaqaloqlar uchun juda foydali vositalar qatoriga, birinchidan, yengil tebratish, ikkinchidan, odatda uxlatish uchun aytiladigan qo'shiqlar – allalar kiradi. Bolaning ushbu ikki narsani idrok etish darajasiga muvofiq uning jismoniy mashqlarga va musiqaga moyilligini aniqlanadi. Ularning birinchisi tanaga, ikkinchisi esa ruhiyatga tegishlidir"⁸⁸.

⁸⁷ Музыкальное воспитание дошкольников // https://saratov-dmsh19.ucoz.ru/publ/muzykalnoe_vospitanie_doshkolnikov_antipina_v_p/1-1-0-3.

⁸⁸ Ражабов И. Мақомлар. – Т.: "Санъат", 2006. – 18-б.



Anglanganidek, Ibn Sino ma'naviy tarbiya bolaning chaqaloq yoshidan belanchagini tebratish davomida (jismoniy tarbiya) alla (qo'shiq) aytish vositalari bilan mushtarak tarzda olib borilishi lozimligini aytib o'tgan⁸⁹.


II. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'zbek xalq raqs elementlariga o'rgatish.

Kishilik jamiyatining dastlabki davrlarida shovqinli, betartib o'yinlar bora-bora ma'lum musiqaviy ohang pantomim hamda plastik harakatlar orqali amalga oshirila boshlangan keyingi davrlarda, bunday etnografik talqindagi o'yinlar turli shakllarga ko'chib "Ayiq o'yini", "Dev o'yini", "Maymun o'yini" so'ngra "Pishiq o'yini", "Ot o'yini", "Yumronqoziq o'yini", "Echki o'yini", "Bo'ri o'yini", "Kaltak o'yini", "Burgut o'yini", "It o'yini" (irrilator o'yini), "Quyvon o'yini", "Tulki o'yini", "Jaku-jaku" kabi ko'pgina o'yinlar avloddan avlodga o'tib kelayotgani ma'lum. Ular bevosita yoxud bilvosita bolalar folklor o'yinlariga ham aloqadordir.

Shu tariqa "o'yin" so'zi turkiy xalqlarining o'ynamoq so'zi bilan bog'liq holda (o'y, aql, hikmat ma'nolarini beradi). Aql-fahmni, harakat va imo-ishoralar vositasida ifoda etmoqlik esa o'yinlarning dunyoga kelishida muhimdir. O'zbek o'yinlari, jumladan bolalar folklor o'yinlari boshqa turkiy xalqlardagi kabi o'zining ilk davrida sehr, jodu, afsun va e'tiqodlari ham o'zida mujassamlashtirgan edi. Xalq ijodiyoti materiallarini tarixiy qiyosiy-tipologik o'rgatish shuni ko'rsatdiki, folklordagi ilk sujet va motivlar ko'pgina konkretlashgan san'at turlari bir-birlari bilan uyg'unlashgan, ba'zi hollarda esa aynan o'xshash holda kelardi.

Xalq o'yinlari eng qadim vaqtlardan boshlab xalq hayot tarzini, orzu-armonlarini, ma'naviy-ma'rifiy, estetik dunyoqarashini mujassamlashtirgan holda shu kunimizga qadar o'sib, mazmun maqsadiga ko'ra teranglashib bizgacha yetib kelgan. Boshqa san'at turlaridan farqli o'laroq o'yinlarda xalq ruhiyati, psixologiyasi, koloriti, yosh avlod tarbiyasiga bo'lgan munosabatida yorqin aks etgan. Sekun-asta xalq o'yinlari musiqa elementlari bilan boyitib borilgan.

Zamonaviy sharoitda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqiy-ritmikada qo'llaniladigan jismoniy harakatlar asosan quyidagicha turlanadi (15-rasm):



15-rasm. Musiqiy-ritmikada qo'llaniladigan jismoniy harakatlarning turlari

⁸⁹ Соипова Д. Музыка ўқитиш назарияси ва методикаси / Ўқув қўлл. – Т.: Республика методика ва ахборот маркази, 2009. – 70-71-б.



Zamonaviy bolalar kompozitsiyalarining asosini xalq raqslari tashkil etadi. Mavzuga o'xshash harakatlar hayvonlar va qushlarning odatlariga taqlid qilish, turli xil transport vositalarining harakati, har qanday kasbga xos harakatlar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Musiqiy-ritmik mashqlarni shartli ravishda tayyorgarlik va mustaqil mashqlarga bo'lish mumkin. Birinchisi, muayyan harakatlar turlarini bajarishdan oldin o'rganadigan mashqlarni o'z ichiga oladi. Shunga ko'ra, bolalar ritmik ravishda "prujina"ning harakatini bajarish, oyoqdan oyoqqa sakrash, to'g'riga sakrab chopish, ikki oyoqda sakrash va hokazolarni o'rganadilar. Bolalar musiqiy obrazlarni turli vosita va belgilar (quyonlar, otlar, Buratino, Sholg'omvoy, Qovoqvoy va boshqalar) orqali ifodalaydi.

O'zbek xalqi orasida hayvonlar va qushlar mavzuidagi juda qiziqarli "Kaptar o'yini", "Chag'alak", "Yumronqoz", "Ot o'yini" kabi keng ommalashgan raqslarni o'rganish orqali bolalar oson, ritmik, dinamik "sakrashlar"ni bajaradi. Bu esa ularning kayfiyatini ko'tarish bilan birga ruhiy va jismoniy zo'riqishlardan xalos qiladi.

Shuningdek, xalq orasida "Karnaymi, surnay", "Nina, ip va tuguncha", "Tapir-to'pur qayrag'och", "Qovoq ekish", "Xo'rozlar jangi", "Xo'roz va tovuq", "Qoch bolam, qush keldi", "Oq terakmi-ko'k terak" kabi o'yinlar ham mashhur bo'lgan.

Milliy xalq o'yinlari orasida dramalashgan o'yinlar muhim o'rin tutadi. O'zbek qo'g'irchoq teatrining negizi xalqning qadimiy "qo'g'irchoq o'ynatish" san'ati asosida paydo bo'lgan. Muayyan badiiy obrazni ifodalaydigan qo'g'irchoq mamlakat va xalq hayotidagi tarixiy-turmush voqealarini aks ettiradi, madaniy-maishiy o'zgarishlarning afzalligi va kamchiliklarini ifodalaydi.

Dramalashgan o'yinlar ko'pincha musiqa jo'rligida va qahramonlarning raqslari bilan o'tkaziladi. Bolalar katta yoshli kishilarning hayotini, mehnat faoliyatini, tabiat hodisalarini kuzatib hamda xalq tomoshalarida qatnashib, o'zlari ko'rgan narsalarni o'yinlarida tasvirlagan.

Dramalashgan o'yinlarga o'zbek xalq ertaklari va afsonalari asos qilib olingan. Mana shunday o'yinlarning maqsadi ertaklar va afsonalarni ijro etishdir. Dramalashgan o'yinlar o'z mazmuniga ko'ra juda yorqin bo'ladi. Ularda ishtirok etuvchilar esa hayvon yoki qush bo'lsin, odam bo'lsin, badiiy obrazning barcha xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan shaxslardir. Bunda hayvonot olami insoniy xususiyatlarga ham ega bo'ladi. Ertakning mazmuni, qatnashuvchi shaxslar o'rtasidagi kurash bolani qiziqtiradi va uning qalbini rom qiladi.

Qo'shiq va raqs o'yinlari xalq madaniyatining o'ziga xos janri, xalqimizning milliy og'zaki, teatr va musiqa an'analari targ'ibotchisi sifatidagi folklorlarga asoslanadi. Ular xalqimizning ma'naviy boyligini, estetik didini ifodalaydi.

Harakatlarda mualliflik kompozitsiyasiga ega bo'lgan raqslar o'z ichiga milliy raqs elementlarini oladi. Masalan, "Lazgi", "Dilxiroj", "Andijon polkasi" va boshqalar. Bu guruhda o'ziga xos raqs alohida o'rin tutadi – undagi raqs elementlari o'zlarining xarakteristikalari bo'yicha turli personajlar (masxarabozlar, qor parchalari, mushukchalar, ayiqlar, pingvinlar va boshqalar)ning harakatlariga mos keladi.



Erkin raqslarga bolalarning o'zlari o'ylab topadigan barcha raqs va dumaloq raqs kiradi. Ular tanish raqs elementlaridan foydalanadilar. Dastlab o'qituvchi faol yordam beradi, bolalarga u yoki bu musiqa uchun uning xarakteri va shakliga ko'ra qaysi harakatlarni tanlash yaxshiroq ekanligini maslahat beradi. Keyin bolalar o'z kuchlarini sinab ko'rishadi va kattalar maslahatisiz "o'z" raqsini yaratadilar. Bular "Non yopganda mening oyim", "Yomg'ir yog'aloq", "Quyosh chiqdi olamga" va boshqalar.

Musiqiy o'yin (ritmning uchinchi turi) bolalar bog'chasida o'yin faoliyatining bir turi sifatida musiqiy rivojlanishning muhim usuli hisoblanadi. Musiqa o'yinning hissiy tomonini kuchaytiradi, bolani ertak qahramonlari dunyosiga yuklaydi, xalq an'analarni kiritadi - bularning barchasi musiqa asarini idrok etish va tushunishni chuqurlashtiradi, musiqiy-ritmik va harakat qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi⁹⁰.

Musiqiy o'yinlar:

1) cholg'u musiqali o'yinlar (sujetli va sujetsiz);

2) qo'shiq aytiladigan o'yinlarga (aylana raqs va chiqishlar) bo'linadi.

Hikoyali o'yinlarda musiqa tasvirlarini ifodali tarzda yetkazish kerak, sujetsiz o'yinlarda esa musiqaning umumiy kayfiyati, uning ifodali vositalari (temp, dinamik soylar, metro ritmi, musiqa shakli) bilan bog'liq vazifani bajarish kerak.). Masalan, "Echki va uloqchalar" ertak-musiqiy o'yinida bolalar ushbu personajlarga xos harakatlarni majoziy ma'noda bajarishlari lozim! Bolalar o'zlarining harakatlarini o'yinning past kontrastli qismlariga va dinamik soylarga o'zgartiradilar; bundan tashqari, ohangning oqimli xarakteri raqs personajining bo'sh yugurishida uzatiladi.

Qo'shiq aytiladigan o'yinlarda harakatlarning tarkibi musiqaning xarakteriga, tasvirlariga va matnga bog'liq. Bu yerda xalq raqslarining elementlari, turli xil dumaloq raqs tuzilmalari (juftlikda, saflarda, yo'nalish o'zgarishi bilan doiralarda) qo'llaniladi. Masalan, "Xo'roz" o'yinida asosiy vazifa qarg'aning "qizil etiklarda, zarhal sirg'alarda" ajoyib qiyofasini yetkazishdir, uning raqs rus xalq raqs elementlarini o'z ichiga oladi: aylanma. oyoqlarni tovonga qo'yish, kasrli qadam. Takrorlanuvchi ritmik naqshni his qilish uchun (oxirgi variatsiyada bir oz o'zgarish bilan) bolalarga qarsak chalish, musiqa ostida yurish taklif etiladi. Alohida ifoda vositalaridagi barcha ishlar hazilda qarg'a obrazini idrok etishni chuqurlashtirishga va uni harakatlarda jonli yetkazishga yordam beradi⁹¹.









III. O'zbek milliy raqsleri namunalari⁹². Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'zbek xalq raqslarining elementlaridan foydalanish bolalarda raqs harakatlari ko'nikmalarini samarali shakllantiradi. O'zbek xalq raqslerida quyidagi elementlar ko'p qo'llaniladi (4-jadval):

⁹⁰ Табинбаев А., Казаков Б. Ўзбек халк миллий ўйинларининг ривожланиши, ёшларни тарбиялашдаги аҳамияти, педагогик таърифи ва мактаб программасидаги ўрни / Ўқув-мет.кўлл. – Нукус: Қорақалпоқ ДУ нашриёти, 2015. – 14-23-б.

⁹¹ Опыт работы по теме: «Развитие музыкально-ритмических движений у детей старшего дошкольного возраста» // <https://www.prodlenka.org/metodicheskie-razrabotki/325446-opyt-raboty-po-teme-razvitie-muzykalno-ritmic>.

⁹² Ushbu kichik mavzu quyidagi manba materiallari asosida yoritildi: Saitova E.Y., Abraykulova N.E.. Xoreografiya va raqs san'ati asoslari. – T.: "Fan va texnologiya", 2015, - 54-57-b.

O'zbek xalq (Farg'onacha) raqslarining asosiy elementlari⁹³

			
Rasmiy holat	1-holat	2-holat	3-holat
			
4-holat	5-holat	6-holat	7-holat

Quyida keltiriladigan mashqlar bolalar tomonidan milliy raqs elementlarini puxta o'zlashtirishga yordam beradi:

1. Qo'lning kaft va barmoqlari uchun mashqlar – kaft va barmoqlarni ko'tarib-tushirish. Bunda qo'llar tayyorlov holatidan boshlab, 1-holat orqali 2-holatgacha ko'tariladi va yana shu holatlar orqali dastlabki holatga qaytiladi. Barmoqlarning to'liq, titratmali, qirsillatish, ichkariga va tashqariga aylantirish kabi turlaridan foydalaniladi. "Qanot", "Gul bargi", "Yirikto'lqin", "Mayin sabo", "Labi g'uncha", "Labishakar" kabi harakatlardan foydalaniladi. Mashq vaqtida kaft va barmoqlarning mayin bajarilishiga e'tibor berish kerak.

2. Yelka uchun mashqlar – ikkala yelkani bir vaqtning o'zida yuqoriga va pastga ko'tarib-tushirish hamda birin-ketin oldinga va orqaga harakatlantirish. Bunda yelkalarni qizlar mayinlik va noz bilan ("Titratma" harakati), yigitlar esa keskin va viqor bilan bajarishlari kerak.

3. Bosh uchun mashqlar. Boshni qo'llarning harakatlanishiga qarab to'g'riga, o'ng va chap tomonlarga, yuqori va pastga qarab burish. Bosh va bo'yinning "Qiyg'ir bo'yin", "Iyak qoqish", o'ng va chapga egish harakatlaridan foydalaniladi.

4. Yuz uchun mashqlar. Yuzdagi a'zolar raqs obrazi xarakterini ochib berishda muhim o'rinni egallagani bois, mashqlar alohida o'rgatiladi. Jilmayish, nim tabassum,

⁹³ O'zbek milliy raqs elementlari ifodalangan rasmlar Google.com qidiruv tizimidan olindi //https://www.google.com/search?sa=X&rlz=1C1CHBD_ruUZ806UZ806&sxsrf.



qosh chimirish, qoshni kerib olish, qosh qoqish, ko'zni suzish, yumib olish, o'qrayib qarash kabi mimik harakatlarni bajarish. Bimda mavzuga oid kuy va ko'zgdan foydalanib yuz a'zolari harakatlantiriladi.

5. Ko'z uchun mashqlar – sahna (xona)ning sakkizta nuqtasiga qarash. To'g'riga, yuqoriga, pastga, o'ng tomonga to'g'riga, yuqoriga, pastga, chap tomonga to'g'riga, yuqoriga, pastga "Iyak qoqish" harakati bilan qarash. O'ngdan chap tomonga "Qiyg'ir bo'yin" harakatini bajarib "Iyak qoqish" harakati bilan tugatish, shu harakatni chapdan o'ngga takrorlash.

6. Oyoq uchun mashqlar – oyoqlarni juftlab oyoq uchiga ko'tarilish, oyoq uchini ko'tarib tovonda turish, tizzalarni oldinga ko'tarish, oyoqlarni bukish, sakrash, otish kabi turlari bajariladi. "Nuqtali yurish", "Yon yo'rg'a", "Oddiy qadam tashlash", "Oqsatma", "Ufori", "Chalmash ufori" harakatlardan foydalaniladi.

7. Gavda uchun mashqlar – tebranish, silkinish, egilish. Gavda qo'l, yelka, oyoq, bosh harakatlariga mos holda tebranadi, oldinga va orqaga egiladi, o'ng va chapga buriladi. "Belquchar", "Sildirma", "Polda yotib aylanish", "Tik turib orqaga, yon tomonlarga egilish", "O'turib orqaga, yon tomonlarga egilish" kabi harakatlardan foydalaniladi.

8. Aylanishlar uchun mashqlar - avval 4 ta nuqtaga qarab, keyin 2 ta nuqtaga qarab, so'ngra bitta nuqtaga qarab aylanishga moslashish. O'ng va chap tomonlarga, oldinga, orqaga, bir joyda turib o'ng va chapga, katta aylana bo'ylab qo'llarning 1-, 3- va 7-holatlarida aylanish mumkin. O'ng tomonga aylanganda gavda og'irligi o'ng oyoqqa o'tadi va o'ng oyoq uchi bilan aylanadi. Chap tomonga aylanganda gavda og'irligi chap oyoqqa o'tadi va chap oyoq uchi bilan aylanadi. Gavdani tik tutish lozim. Aylanishlarning "Charh", "Tizzalab", "Belquchar", "Spiral" ko'rinishli, turli holatlardagi turlari bor:

a) qo'llar I holatda, bosh to'g'rida; 3-sanoqda uch marta o'ng tomonga, o'ng oyoq uchi bilan aylanish; 4-sanoqda dam olinadi, qo'llar 6-holatga kelib "Gul bargi" harakatidan yana 1-holatga ochiladi; aylanish chap tomondan qaytariladi; har safar aylanishda oyoqlar tayyorlov holatida qoladi;

b) qo'llar 3-holatda, bosh to'g'rida; 1 sanog'ida bir marta o'ng tomonga, o'ng oyoq uchi bilan aylanib 6-holatda bitta qarsak chalinadi; aylanish chap tomondan qaytariladi; har safar aylanishda oyoqlar tayyorlov holatida qoladi;

d) qo'llar «Belquchar» holatda (dumaloq shakldagi o'ng qo'l oldida, chap qo'l orqada); ikkala oyoq uchiga ko'tarilgan; o'ng tomonga sakkiz sanoqqa "Spiral" shaklida pastdan yuqoriga o'sib aylanish; qo'llar "Belquchar" holatdan asta-sekin 1-holatga ochiladi; aylanish chap tomondan qaytariladi; har safar aylanishda oyoqlar tayyorlov holatida qoladi;

e) 'sho'x-sho'x' aylanish. Qo'llar ong 4-holatda, bosh to'g'rida; 3 sanoqda uch marta o'ng tomonga, o'ng oyoq uchi bilan aylanish; 4-sanoqda qo'llar chap 4-holatga ochiladi; aylanish chap tomondan qaytariladi; har safar aylanishda oyoqlar tayyorlov holatida qoladi;

f) o'ng qo'l 1-holatda, chap qo'l 6-holatda, bosh to'g'rida; 3-sanoqda uch marta, chap oyoq uchi bilan chap tomonga aylanish; 4-sanoqda qo'llar almashadi; aylanish o'ng tomonga qaytariladi.



9. Oyoq harakatlaridan namunalari: ‘Oddiy qadam tashlash’: o‘ng oyoq uchini tortib oldinga qadam qo‘yiladi, so‘ng chap oyoq uchi tortilib oldinga qadam qo‘yiladi; Qadam tashlash shu tarzda davom etadi; tizzalarni bukmay bajarilishiga e‘tibor berilishi kerak; ‘nuqtali yurish’ – o‘ng oyoq uchini tortib oldinga polga tegizib, so‘ng yarim o‘tirish orqali oyoq to‘liq polga qo‘yiladi; bu harakat chap oyoqdan davom ettiriladi: harakat orqaga bajarilganda oyoq uchini tortib orqaga harakatlanadi; harakatni yonga bajarganda o‘ng oyoq uchini tortib yonga polga tegizib, so‘ng oyoqni chap oyoqning old tomoniga qo‘yib yarim o‘tirish orqali oyoq to‘liq polga qo‘yiladi; xuddi shu harakat chap oyoqdan davom ettiriladi.

“Oqsatma” – bir sanog‘iga o‘ng oyoqni orqaga sal ko‘tarib oyoq uchi polga uriladi; ikki sanog‘iga chap oyoq tizzalarni bukilmagan holatida polga qo‘yiladi; chap oyoqda bajarilganda harakatni chap oyoq boshlaydi; bu harakatni bir joyda turib, oldinga, orqaga, yon tomonlarga yurib bajarish mumkin.

10. Qo‘l harakatlaridan namunalari:

“Qanot yoyish”: qo‘llar 1-holatda ikki tomonga to‘lqinlantirilib bajariladi; barmoqlar, kaftlar, bilak va tirsaklar, yelkalar juda mayinlik bilan harakatlanadi.

“Gul bargi”: qo‘llar 1-holatdan 6-holatga keladi; kaftlar 1-holatda tashqariga qaragan bo‘lsa, 6-holatda ichkariga qaragan holda bajariladi; bu harakatni 6-holatda kaftlarni ichkariga yopib va tashqariga ochib bajarish ham mumkin.

“Yirik to‘lqin”: qo‘llar o‘ng tomon 5-holatdan 6-holat orqali chap tomon 5-holatga harakatlantiriladi va ikkinchi tomonga takrorlanadi; harakatni bajarganda suvning kuchsiz yirik to‘lqinini tasvirlash kerak.

“Mayin sabo”: qo‘llar 2-holatda o‘ng va chap tomonlarga harakatlantiriladi; harakatni bajarganda esib turgan mayin shabbodani tasvirlash kerak; barmoqlar, kaftlar, bilak va tirsaklar, yelkalar juda mayinlik bilan harakatlanadi.

“Labi g‘uncha”: qo‘llar 6-holatda bir-birining ustida kaftining ichki qismi o‘ziga qaratilib turiladi; kaftlar ichkari tomoniga bir-birining ustidan 3-4 marta aylantirilib to‘xtaydi; to‘xtagan vaqtda bir qo‘l ustida ikkinchi qo‘l qoladi. Kaftlar tashqariga qaragan, kichik barmoq yuqorida, bosh barmoq pastda bo‘lishi lozim.

“Labi shakar”: chap qo‘l belni quchib, o‘ng qo‘l kaftining ichki tomoni labga yaqin turgan holda barmoqlar noz bilan lablarga tegar-tegmas silkinadi; so‘ng, qo‘l 1-holatga ochiladi, kaft tashqariga qaragan; bu harakat ikkinchi tomonga bajariladi.

“Uzum uzish”: qo‘llar o‘ng tomon 4-holatdan 1-holat orqali chap tomon 4-holatga harakatlantiriladi va ikkinchi tomonga takrorlanadi; harakatni bajarganda kaftlar aylantirilib, barmoqlarni qirsillatish kerak; qaysi qo‘l yuqorida bo‘lsa ko‘z nigohi shu tomonga qaratiladi; harakatni bajarganda uzumni uzib olganni tasvirlash kerak.

“Novda egilishi”: qo‘llar o‘ng tomon 3-holatdan chap tomon 3-holatga harakatlantiriladi va ikkinchi tomonga takrorlanadi; harakatni bajarganda kaftlar aylantirilib, barmoqlarni qirsillatish kerak; qaysi qo‘l yuqorida bo‘lsa ko‘z nigohi shu tomonga qaratiladi; harakatni bajarganda novdaning egilganini tasvirlash kerak.

Shunday qilib, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida musiqa mashg‘ulotlarida milliy kuy, qo‘shiq-larni o‘rganishda o‘zbek xalq raqslarining elementlaridan ham foydalaniladi. Bundan ko‘zlangan maqsad qo‘shiq o‘rganish jarayonini zavqli, qiziqarli



bo'lishini ta'minlash, bolalar tomonidan qo'shiq mazmunini to'liq idrok qilishga erishishdir. Qo'shiq kuylashni o'rganishda raqs harakatlarini qo'llash bolalarni qomatni tik tutishga, to'g'ri nafas olishga, qon aylanish va nafas tizimi organlari faoliyatini yaxshilashga yordam beradi. Qolaversa, qo'shiqlar jo'rligida raqslarni ijro qilish bolalarda jamoaviylik hissini uyg'otadi, hissiyotlarini tarbiyalaydi. Raqslarning milliy qo'shiqlar asosida bo'lishi bolalarni o'zbek xalq raqslari bilan tanishtirishga imkon yaratadi. Natijada bolalarda milliy o'zbek raqslariga nisbatan mehr uyg'onadi.

Nazorat savollari:

1. Ritm nima?
2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqiy ritmdan foydalanish qanday maqsad uchun xizmat qiladi?
3. Musiqa mashg'ulotlarida jismoniy harakatlardan foydalanish qanday vazifalarni hal qilishga yordam beradi?
4. Musiqiy-ritmik ta'lim tizimi kim tomonidan asoslangan?
5. Musiqiy-ritmik mashqlar qanday vositalar yordamida bajariladi?
6. Ta'lim muassasalarida ritmik ta'lim tizimlari qachondan ishlab chiqildi?
7. Zamonaviy sharoitda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqiy-ritmikada qanday turdagi jismoniy harakatlar qo'llanilmoqda?
8. Ta'lim muassasalarida hayvonlar va qushlar mavzuidagi qanday raqslar o'rgatiladi?
9. Dramalashgan o'yinlar qanday tashkil qilinadi?
10. O'zbek milliy raqslarini o'rganishda qanday mashqlardan foydalaniladi?

Test topshiriqlari:

1. ... – musiqaning mazmuni va xarakterini harakatlar yordamida ochib beradigan musiqiy faoliyat turlaridan biri.
 - a) jismoniy harakat;
 - b) ritm;**
 - c) mexanik harakat;
 - d) dinamik harakat.
2. Musiqiy ohanglarni bir-biridan farqlashni o'rgatish orqali ifodaviy harakat ko'nikmalarini shakllantirish – bu musiqiy ritmning
 - a) tamoyillari;
 - b) bosqichlari;
 - c) vazifalari;
 - d) maqsadi.**
3. Bolalarda musiqiy obrazlarni rivojlantirish, ko'rkam qomatni shakllantirish, musiqiy qobiliyatni rivojlantirish – bular musiqiy ritmning
 - a) tamoyillari;
 - b) bosqichlari;
 - c) vazifalari;**
 - d) maqsadi.



4. Musiqiy ritm ... tomonidan musiqiy ta'lim usuli sifatida asoslandi.

a) Emil Jak-Dalkroze;

b) Mariya Rumer;

c) Vera Griner;

d) Elena Konorova.

5. Zamonaviy sharoitda musiqiy-ritmikada qo'llaniladigan jismoniy harakatlar ... ga ajratiladi.

a) 7 tur;

b) 5 tur;

c) 3 tur;

d) 2 tur.

6. Xalq orasida hayvonlar va qushlar mavzuidagi ... kabi raqslar ommalashgan.

a) "O'rmondagi uycha", "Burgut", "Yumronqoziq", "Ot o'yini";

b) "Yumronqoziq", "Ot o'yini", "Xo'roz o'yini", "Kabutar";

c) "O'rmondagi uycha", "Burgut", "Xo'roz o'yini", "Kabutar";

d) "Kaptar o'yini", "Chag'alak", "Yumronqoziq", "Ot o'yini".

7. Dramalashgan o'yinlar musiqa jo'rligida va ... bilan o'tkaziladi.

a) jismoniy harakatlar;

b) qahramonlarning raqslari;

c) obrazlarning bellashuvi;

d) sujetning rivojlanishi.

8. Musiqiy o'yinlar ...ga bo'linadi.

a) 8 tur;

b) 6 tur;

c) 4 tur;

d) 2 tur.

9. Cholg'u musiqali o'yinlar ...ga ajratiladi.

a) aylana raqslar va polkalar;

b) aylana raqslar va chiqishlar;

c) sujetli va sujetsiz;

d) polkalar va hazil raqslar.

10. Qo'shiq aytiladigan o'yinlar...ga ajratiladi.

a) aylana raqslar va polkalar;

b) aylana raqslar va chiqishlar;

c) sujetli va sujetsiz;

d) polkalar va hazil raqslar.

Amaliy topshiriqlar:

1-topshiriq. Internet tarmog'i orqali "Dutor raqsi"ning video lavhasini toping va bolalarda qaysi muhim milliy raqs elementlariga asoslangan ko'nikmalarni rivojlantirish haqida o'ylab ko'ring.

2-topshiriq. Maktabga tayyorlov guruhlarida "Dutor raqsi"ni o'rganish ssenariysini ishlab chiqing.



III BOB. MAKTABACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BAYRAM VA OMMAVIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH METODIKASI

3.1. Maktabacha ta'lim tashkilotlarida bayram va ommaviy tadbirlarni o'tkazish

Reja:

1. Ertalik va bayramlar haqida tushuncha.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik didini tarbiyalashda ertalik va bayramlarining ahamiyati.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik didini tarbiyalashda o'yin-kulgu kechalarini o'tkazishda o'ziga xos xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar: maktabgacha ta'lim tashkilotlari, ertaliklar, bayram ertaliklari, bayram ertaliklarining ahamiyati, did, estetik did, maktabgacha yoshdagi bolalar, estetik didni tarbiyalash, maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik didini tarbiyalash, kechalar, o'yin-kulgu kechalari.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi. – T: YUNISEF, 2018. – 72 b.
2. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti // <https://lex.uz/docs/5179335?query>.
3. Maktabgacha pedagogika / Darslik. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpulatova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova. – T: "Tafakkur" nashriyoti, 2019. – 688 b.
4. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. –T: "Fan va texnologiya", 2012. – 268 b.

I. Bayram ertaliklari haqida tushuncha. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatida turli kecha va bayramlar o'ziga xos o'rin tutadi. Turli kecha va bayramlarning o'tkazilishi bolalar hayotini yanada zavqli bo'lishini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ertaliklar – odatda kunning birinchi yarmida o'tkaziladigan tadbir bo'lib, unda o'tgan ta'lim davri mobaynida bolalar tomonidan nimalar o'rganilganligi namoyish qilinadi⁹⁴.

Har bir bolaning hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan bu kabi ertaliklar maktabgacha ta'lim tashkiloti ega bo'lgan tadbirlar rejasiga muvofiq tashkil etiladi va o'tkaziladi. Ertaliklar aytib o'tilganidek, kunning birinchi yarmida, ya'ni ertalab

⁹⁴ Что такое утренник? // <https://mbdou-273.ru/wp-content/uploads/2018/04/Konsultaciya-Chto-takoe-utrennik.pdf>.



o'tkaziladi. Shu sababli ular ertalik (ertalab tashkil qilinadigan tadbir) deb nomlanadi.


Ertaliklarning kunning birinchi yarmida o'tkazilishi bolalarning yosh va fiziologik xususiyatlari bilan bog'liq. Barcha, ayniqsa, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar jismoniy jihatdan ertalab faol, kuch-quvvatga to'lgan bo'ladi. Kunning ikkinchi yarmiga borib, bolalar charchaydi, shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, shuningdek, uyda ham ular biroz uxlab olishadi. Bordi-yu, ertaliklar kunning ikkinchi yarmida tashkil qilinsa, bolalarning charchog'i tufayli tadbirlarni tashkil qilishda kutilgan natijaga erishilmaydi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun ertaliklarning kunning birinchi yarmida o'tkazilishi majburiy. Faqat istisno tarzdaгина maktabga tayyorlov guruhidagina ertaliklar kunning yarmi yoki ikkinchi yarmida o'tkazilishi mumkin.

Belgilangan ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasiga muvofiq maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertaliklar bilan birga bayramlar ham tashkil qilinadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bayram – muayyan xalqning tarixiy-madaniy an'analari bilan bog'liq holda qandaydir voqelik yoki kimningdir sharafiga tashkil etilishi nazarda tutilgan holda zamonaviy yil hisobi bo'yicha tavqimda alohida qayd qilingan sanalar munosabati bilan tashkil qilinadigan tadbir hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil qilinadigan ertalik va bayramlar muhim atributlarga ega. Xususan (16-rasm):



16-rasm. Ertalik va bayramlarning muhim atributlari

Musiq'a. Ertalik va bayramlarda musiq'a yetakchi o'rinni egallaydi. Shu sababli musiq'ani tanlashga katta e'tibor berilishi kerak. Yaxshi musiq'a va uni sifatli ijro etish bolalarda badiiy didni rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, ularda ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otadi. Musiq'a bayramning umumiy xarakteri va mazmuniga va uning alohida daqiqalariga mos kelishi kerak.

Yangi yil archasi bayramida zalga kirish uchun quvnoq, jonli musiq'a yangraydi. Musiq'a yuqori sifatda ijro etilishi uchun musiq'a rahbari o'zining ijrochilik qobiliyatiga ko'ra kuy, qo'shiq va raqslarni tanlab, ularning ustida ishlashi kerak. Musiq'a bayramda



katta rol o'ynasa-da, uni doimiy ravishda ijro etish shart emas. Bu holda musiqa badiiy so'zlar bilan almashtiriladi (bolalar she'rlar, topishmoqlar o'qiydi). Agar bolalar bog'chasida pianino bo'lmasa, musiqa har qanday asbobda ijro etilishi mumkin: akkordeon, tugma akkordeon, skripka, gitara yoki grammofon yozuvi.

Qo'shiqlar. Ularsiz bayram bo'lmaydi. Qo'shiq bola uchun eng qulaydir. Qo'shiqlar xor, kichik bolalar guruhlar va solistlar tomonidan ijro etiladi. Bolalar tabiiy, ifodali ovozda qo'shiq aytishlari kerak. Bayram dasturida nafaqat bayram mavzusidagi qo'shiqlar, balki o'yin, xalq qo'shiqlari, hazil qo'shiqlar ham bo'lishi mumkin. Bayramda qo'shiqlar soni ortiqcha miqdorda bo'lishi kerak. Kichik guruhlarda uchdan beshgacha qo'shiq ijro etiladi, katta guruhlarda esa – to'rt yoki oltita. Bayram uchun qo'shiq repertuarini tuzishda buni hisobga olish kerak.

Qo'shiqlar bolalarning qaysi diapazoniga ega ekanligiga qarab, yuqori yoki pastroq bo'lishi kerak. Ba'zan ertalik va bayramlarda bolalar xori asbobdan uzoqroqqa joylashtiriladi va bolalar musiqa rahbarini ko'rmaydi. Bunday holda, boshlovchi dirijor rolini o'z zimmasiga olishi, bolalarga zarur vaqtda qo'shiqni boshlashiga yordam berishi, qo'shiqni kim boshlashini eslatishi, ovozning kuchayishi va zaiflashishini ko'rsatishi mumkin. Bolalarni shunday joylashtirish kerakki, ularning har biri musiqa rahbari yoki boshlovchini ko'ra olsin. Orqa tarafdagi bolalarni supaga qo'yish kerak.

O'yinlar. Ular har doim bolalarga quvonch, zavq bag'ishlaydi. Shu sababli ularni bayram dasturiga kiritish kerak. Bayram uchun o'yinlarni tanlashda nafaqat ishtirokchilarning, balki tomoshabin-bolalarning ham qiziqishini hisobga olish kerak. Tadbirlarda harakatli o'yinlar bilan birga o'tirgan holda o'ynaladigan musiqali o'yinlarni ham tanlash mumkin.

Bayramda o'ynaladigan o'yinlar kundalik mashg'ulotlarga qaraganda biroz yorqinroq bo'lishi kerak. Masalan, "Tulki va o'rdaklar" o'yinida qushlar uchun qushlarning tumshug'ini yoki chizilgan konturlari bo'lgan kostyumlarni va tulki uchun esa shlyapa qo'yish lozim.

Raqslar. Ular bolalarga quvonch va zavq bag'ishlaydi. Bayram dasturi uchun har bir bola yaxshi biladigan va ijro etishni xohlagan raqs harakatlarini tanlash maqsadga muvofiqdir. Ertalik va bayram dasturlariga ijro qilish uchun milliy raqslar, bolalar juftlik raqslari yoki improvizatsiya raqslarini kiritish kerak.

Badiiy so'z. Tadbirlarda badiiy so'z muhim o'rin tutadi, bolalar she'rlar o'qiydi, ertak va hikoyalar sahnalashtiriladi. Bolalar faoliyatida ekspressivlik juda muhim: shunda asar mazmunini bolalar yaxshiroq anglaydi va chuqurroq muhrlanadi.

Biroq, tarbiyachilar ko'p kuzatiladigan xatoni takrorlamasliklari kerak. Ko'p holatlarda bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha ishlar tizimli amalga oshirilmaydi. Natijada bayram oldidan she'rlarni intensiv o'rganish boshlanadi. Bu esa bolalarda ularga qiziqishni pasaytiradi. Tarbiyachilar o'z farzandlaridan bayramda she'r o'qishni talab qiladigan ota-onalarning xohish-istaklarini qondirish uchun bolalarni zo'riqishlariga sabab bo'ladi. Bunday yo'l tutish noto'g'ri. Bir bayramda bir guruh bolalarga she'r o'qish imkoniyatini berib, boshqasiga hali chiqish qilmagan bolalarni tayyorlash zarur.



Dasturda qo‘shiqlar, o‘yinlar, raqslar, chiqishlar tasodifan tartibga solinmaydi. Ularning ketma-ketligini puxta o‘ylangan holda ta‘minlanadi. Masalan, bolalarning e‘tibori biroz susayganda, dasturning ikkinchi yarmida, qiziqarli, kulgili chiqishlarni kiritish kerak. Quyidagi holatni hisobga olish kerak: agar bolalar boshqa kiyim kiyish uchun zaldan chiqib ketishsa, ular qiziqarli raqs yoki o‘yinni ko‘rish imkoniyatidan mahrum bo‘lmasliklari kerak.

Bir nechta o‘yinlar yoki raqslar, she‘rlarni ketma-ket rejalashtirish noo‘rin. Bu ketma-ketlik bolalar uchun zerikarli.

Kostyumlar. Ertalik, bayramlarda kiyiladigan kostyumlar dizayni badiiy didni, shuningdek, xarajatlarini talab qiladi. Har bir maktabgacha ta‘lim tashkilotlari kostyum yasash imkoniga ega emas. Milliy raqslar, ertak tomoshalari va o‘yinlarni ijro etishda ota-onalar kostyum detallarini mustaqil ta‘minlashlari (masalan, xo‘roz yoki tulki uchun shlyapa va dum yasash, o‘zbek xalq raqslari uchun qizlar boshlariga ro‘mol o‘rashlari) mumkin. Kostyum qismlarini sodda va yorqin bezashga muvaffaq bo‘lgan bolalar bog‘chalari o‘z tajribalarini boshqalar bilan bo‘lishishlari maqsadga muvofiq. Buning uchun ular o‘zlari yasagan kostyumlarning chizma yoki naqshlarini maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga yoki “Maktabgacha ta‘lim” jurnaliga yuborishlari mumkin.

Bezatilgan xona. Ertalik va bayramlarni tashkil qilishdan avval zal, guruh xonalari, qabulxona va maydon bezatiladi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotining binosiga yaqinlashganda bolalar bayramona ko‘rinishni payqashadi. Foyedagi devorga yangi devor gazeta osiladi. Guruh xonalari ham bayramona ko‘rinadi. Odatda xonalar bayroqlar, gullar, turli o‘yinchoqlar, sharlar, tasmalar bilan bezatiladi. Bezaklarning barchasi bolalarni xursand qiladi, bayramona kayfiyatni yaratadi.

Bayram uchun sotib olingan avtomobil, qo‘g‘irchoq va boshqa o‘yinchoqlar bayram bezaklari emas, bolalar ularni har kuni o‘ynaydi.

Sovg‘alar. Ertalik, bayramlarning yakunida bolalarga o‘yinchoq yoki shirinliklar ulashiladi. Masalan, “Archa bayrami”ning yakunida Qorbobo bolalar bilan “Kim yashiringanini toping?!” o‘yinini o‘ynadi. Katta qog‘oz qalpoq keltiriladi. Bir nafar tarbiyalanuvchi bolalardan yashirinadi. Qolganlar ko‘zlarini yumdi, “vaqt keldi” degan ishora bilan bolalar ko‘zlarini ochib, kim yashiringanini aytishadi. Qog‘oz qalpoq ko‘tarilib, javob to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligi tekshiriladi. Oxirgi marta bolalar uzoq vaqt kim yashiringanini taxmin qila olmaydi va qalpoq ko‘tarilganda ular bu gal sovg‘alar yashiringanini ko‘rishadi. Ba‘zan bolalar sovg‘alarni guruh xonasida qabul qilib olishadi. Biroq, zalda sovg‘alarni qabul qilish bayramni yanada quvonchli bo‘lishini ta‘minlaydi.

Bayram taassurotlari. Bayram tugadi, lekin bayram taassurotlari bolalar xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Bolalar ularni o‘rtoqlari, o‘qituvchilari, ota-onalari bilan baham ko‘radi, o‘yinlarda, rasmlarda va modellashtirishda aks ettiradi. Taassurotlarni chuqurlashtirish va bayramda olingan zavqni uzoq vaqt yodda qolishi uchun tarbiyachilar bolalarga bayram atributlari, o‘yinlar uchun liboslar qismlarini beradi, musiqa rahbari bolalarning iltimosiga ko‘ra guruh xonasida ba‘zi bayram



qo'shiqlari, o'yinlar, raqslar va dramtizatsiyalarni takrorlaydi. Ko'pincha bolalar uzoq vaqtdan keyin ham ertalik va bayramlarni, ulardagi ishtiroklarini eslashadi.

II. Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik didini tarbiyalashda bayram ertaliklarining ahamiyati. Bayramni bolalar bog'cha ostonasiga kirgan paytdan boshlab his qilishlari kerak. Maxsus tozalik, xonani bezatish, bolalar va kattalar uchun aqli kiyimlar darhol bayramona kayfiyatni yaratadi. Pedagoglar bolalar va ota-onalarni samimiy qutlab, bayram bilan tabriklaydi. Bayram kunlari maktabgacha ta'lim tashkilotdagi menyu ham g'ayrioddiy, bayramona bo'lishi kerak, idish-tovoqlar chiroyli bezatilgan. Agar kostyumlar oldindan tayyorlangan bo'lsa, bayram atributlari tayyorlanadi, o'qituvchi bolalarning yonida bo'lsa, tinch, bayramona muhit yaratiladi.

Zalga kirishdan oldin uzoq, mashaqqatli kutish bo'lmasligi kerak. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun siz bolalarga ziyofat materiallarini tarqatish va chiqishga tayyorlanish vaqtini hisoblashingiz kerak. Tartibsizlik, uzoq vaqt turish bolalarni charchatadi, ularning kayfiyatiga, ertangi kundagi xatti-harakatlariga salbiy ta'sir qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil qilinadigan ertalik va bayramlar muayyan vazifalarni hal qilishga yordam beradi. Ya'ni:

birinchidan, ular bolalar faoliyati uchun motivatsizdir. Uzoq vaqt davomida bolalar qo'shiq aytishni, raqsga tushishni, she'r aytishni o'rgandi. Bu vaqt oralig'ida ularga o'zini qanday tutish va bir-biriga to'g'ri munosabatda bo'lishni o'rgatishdi. Qolaversa, bolalar o'z yaqinlariga qiziqarli sovg'alar tayyorlash maqsadida dekorativ ijodkorlik bilan shug'ullanadi. Ertaliklar – oila a'zolari va do'stlarga bolaning mahoratini namoyish qilish uchun ajoyib imkoniyat;

ikkinchidan, ertaliklar ota-onalar va bolalar munosabatlarini mustahkamlashning ajoyib usuli. Tayyorgarlik davrida ota-onalar farzandlari bilan she'rlar o'rganadi, bayramona kiyimlarni tanlaydi. Bu jarayonda ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi aloqa kuchaydi;

uchinchidan, bolalar bayramlari bolalarda jamoaviylik tuyg'usini shakllantirishga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi kundalik faoliyat ham ko'proq bolalarning individual rivojlanishga qaratilgan. Bayram tomoshasi bolalar xorini shakllantirishni, jamoaviy raqslarni, sahna ko'rinishlarini mashq qilishni o'z ichiga oladi;

to'rtinchidan, ertaklar bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish vositasidir. Tadbirlarni tayyorlash va o'tkazish jarayonida bolalarning vokal, aktyorlik va xoreografik qobiliyatlari ko'zga tashlanadi. Bayramlarning o'zida alohida bolalarning iste'dodi yaqqol namoyon bo'ladi, bu esa ota-onalarni o'z qobiliyatlarini rivojlantirishga jiddiyroq yondashishga undaydi;

beshinchidan, ertalik va bayramlar ota-onalar hamjamiyatini shakllantirishga hissa qo'shadi. Ota-onalar bir-birlari bilan tanishadi, yaqinroq muloqot qiladi, ba'zi muammoli vaziyatlarni hal qilishda o'zaro ta'sir o'tkazadi;

oltinchidan, ertaliklar bolalarni axloqiy qoidalar va borliq bilan tanishish muammolarini muvaffaqiyatli hal qilishga yordam beradi. Har qanday tadbirga



tayyorgarlik ko'rish ushbu bayramning o'ziga xos xususiyatlari, uning tarixi, an'analari, qoidalari bilan tanishishni talab qiladi.

Ertalik va bayramlar oddiy o'yin-kulgi emas, balki bolalar va kattalar (pedagog xodimlar va ota-onalar)ning uzoq muddatli ishi hisoblanadi. Bolalar ertaliklari bir qator muhim pedagogik muammolarni hal qiladi⁹⁵.

Yaxshi tashkil etilgan bayramlar bolaning aqliy jarayonlarini rivojlantirishga, uning shaxsiyatini shakllantirishga foydali ta'sir ko'rsatadi, bolaga o'z qobiliyatini, ijodiy layoqatini ko'rsatishga imkon beradi. Qolaversa, ertangi kunlarda pedagogik ishning ma'lum bir natijasi ham tashkilotchilar, ham bolalar uchun umumlashtiriladi. Tadbirga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan mas'uliyatli vazifa sanaladi.


Ertalik va bayramlar ota-onalar va tarbiyachilarni xursand qilish uchun tashkil etilmaydi. Ularni tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad – bolalar shaxsini shakllantirish, his-tuyg'ularni shakllantirish, atrofdagilarga nisbatan estetik munosabatni qaror toptirish, har bir bolaga yangi qobiliyat va iste'dodlarni kashf etish, mavjud ko'nikmalarni rivojlantirish, ularda axloqiy, vatanparvarlik fazilatlarini tarbiyalash, ularning dunyoqarashini kengaytirishdan iborat.

Odatda ertalik va bayramlar o'zida san'atning ko'plab turlari – musiqa, qo'shiqchilik, raqs, badiiy so'z, tasviriy san'at va hokazolarni birlashtiradi.

Bayramga tayyorgarlik bolalar uchun sinfda nutq va musiqani rivojlantirishga qaratilgan ajoyib rag'batdir. Bolalar biron bir sababga ko'ra qo'shiqlar, she'rlar va raqs harakatlarini o'rganishadi, lekin keyinchalik ertaliklarda ota-onalarga o'zlarining barcha mahoratlarini namoyish etishlari va hatto buning uchun sovg'alar olishlari uchun bolaning motivatsiyasida muhim o'rin tutadi. Rag'bat bo'lsa, bola ko'proq ishlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tadbirlarni rejalashtirish o'quv yilining boshida amalga oshiriladi. Bunda tarbiyachilarning yig'ilishi o'tkazilib, yil uchun ish rejasi muhokama qilinadi. Bayramlar tanlovi mavjud va ularni o'tkazishning taxminiy sanalari belgilanadi.

Ertalik va bayramlarga tayyorgarlik quyidagi **bosqichlar**da amalga oshiriladi (17-rasm):



17-rasm. Ertalik va bayramlarga tayyorgarlik bosqichlari

⁹⁵ Детские утренники – почему это важно // <https://www.ya-roditel.ru/parents/base/experts/detskie-utrenniki-pochemu-eto-vazhno>.



1-bosqich: bayramga tayyorgarlik. Bayram va ko'ngilochar tadbirlarga tayyorgarlik maktabgacha ta'lim tashkiloti hayotining umumiy kundalik ish tartibini buzmasdan, bolalarning qiziqishlariga mos, ularning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tizimli va izchil ravishda amalga oshiriladi.

Tayyorgarlikni tadbirning o'zidan 1,5 oy oldin boshlash tavsiya etiladi. Mashg'ulotlarda bolalarga yaqinlashib kelayotgan bayram haqida gapirib beriladi. Qanday bayram ekanligini va nimaga bag'ishlanganligini tushuntiriladi.

Agar bayram avvalgi yili ham nishonlangan bo'lsa, hamma nima bo'lganini eslaydi. Har bir bolaning bayramda ishtirok etishini ta'minlash kerak. Bu bosqichda bolalar o'z vazifalarini, bayramga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish jarayonida o'zlarining rolini tushunishlari kerak.

2-bosqich: ssenariy ustida ishlash. Ish davomida ssenariyga o'zgartirish va tuza-tishlar kiritiladi. Ssenariyning yakuniy versiyasi bayram boshlanishidan oldin paydo bo'ladi. Bayram ssenariysini muhokama qilishda har bir tarbiyachining rolini, uning vazifalarini aniqlash, bolalar kiyimlarini almashtirish, kutilmagan daqiqalarni o'tkazishda yordam berish va boshqalar uchun mas'ul shaxslarni tayinlash tavsiya etiladi.

3-bosqich: rollarni taqsimlash. Bayramning davomiyligi uning mazmuniga va unda ishtirok etayotgan bolalarning yosh xususiyatlariga bog'liq.

Bolalar uchun nutq materialini ularning individual nutq xususiyatlarini, qo'shiq va raqslar esa ularning ijrochilik qobiliyatini hisobga olgan holda taqsimlanadi. Ota-onalar nutq materialini o'rganishda faol yordam beradi. Ba'zi bolalarga, ularning individual psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda individual chiqishlarni ishonib topshirish mumkin.

4-bosqich: bolalar bilan mashq qilish. Keyinchalik, to'g'ridan-to'g'ri ish she'rlar, qo'shiqlar o'rganish, raqslarni sahnalashtirish, zalni bezash, kostyumlar uchun aksessuarlar tayyorlash boshlanadi.

Guruhda dastur materialini boshqalarga qaraganda osonroq va tezroq o'rganadigan bolalar bo'ladi. Bunday bolalarga murakkabroq she'rlar yoki rollarni topshirish mumkin. Rollar taqsimlangandan so'ng, bolalar bilan she'rni ifodali o'qish; qo'shiqlar matnini, raqslar va aylana raqslarni o'rganishga qaratilgan individual ish boshlanadi.

5-bosqich: ota-onalar bilan ishlash. Xonalarning bezatilishi, kostyumlarni tayyorlashda ota-onalarning yordamidan foydalaniladi. Kostyumlar bayram mazmuniga mos kelishi, bolalar uchun badiiy va tushunarli bo'lishi, badiiy va estetik didni rivojlantirishi, barcha ishtirokchilarda quvonchli kayfiyatni yaratishi, bo'lajak tadbirlarga qiziqish uyg'otishi lozim.

Zalni tadbirga tayyorlash, tadbirdan keyin zalni tozalashga barcha tarbiyachilar bilan birga ota-onalar ham ishtirok etishlari mumkin.

Tadbir qahramonlarining kostyumi qulay bo'lishi, erkin harakatlanishiga xalaqit bermasligi, bolalarning bo'yi va o'lchamiga mos kelishi kerak. Bundan tashqari, kostyum bayramning mazmuni, ruhiga mos kelishi kerak. Agar kostyumlar bayram ssenariysida ko'rsatilmagan bo'lsa, u holda bolalar bayram uchun o'zlarining xohishlariga ko'ra kiyinadi. Boshlovchining tashqi ko'rinishi ham e'tibordan chetda qolmaydi. Kiyim-kechak, poyabzal va bo'yanish bayramona bo'lishi kerak.



6-bosqich: ertalik mashg'ulotni o'tkazish. Tadbirdan 2 hafta avval tayyorgarlik mashg'ulotlari tashkil qilinadi. Unda barcha nomerlar alohida holda ko'rib chiqiladi.

7-bosqich: tadbirni sarhisob qilish. Bayram tugagach, uning ustida ishlash tugamaydi. Bayram boy bo'lgan quvonchli, yorqin taassurotlar bolalarning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Tarbiyachining vazifasi bolalar bayramda va uni tayyorlash jarayonida olgan ko'nikmalar, qobiliyat va bilimlarni rivojlantirishdir. Bayram natijalarini bolalar bilan muhokama qilish kerak. Odatda, bo'lib o'tgan ertalik haqida suhbat o'tkaziladi, u haqidagi g'oyalar va taassurotlar aniqlanadi. Bolalarning javoblarini yozib, ularni ota-onalar uchun stendga qo'yish tavsiya etiladi. Guruhlar va zalning bayramona bezaklari tadbirdan keyin bir necha kun davomida saqlanishi, keyin esa olib tashlanishi mumkin. Bu bolalar bilan bajariladi.

Pedagogik ishning samaradorligi ko'p jihatdan ertalik va bayramlarni o'tkazish sifatini baholash quyidagi mezonlarga ko'ra amalga oshiriladi: bolalarning bayram paytidagi faoliyati, ularning hissiyligi, holati, faolligi va qiziqish darajasi; ijrolarning sifati – musiqa rahbari va tarbiyachilarining faolligi, ssenariyni tuzishdagi professionalligi, bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rollarni taqsimlash qobiliyati, darajasi va bir-birlari va bolalar bilan o'zaro munosabatlari; foydalanilgan musiqiy repertuarining sifati, uning qulayligi, badiiyliги va bayram mavzusiga muvofiqligi; bayramning tashkiliy lahzalari, bayramga tayyorgarlik ko'rishda butun jamoa ishining izchil tashkil etilganligi; bayramga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishning barcha bosqichlarida pedagogik jamoa a'zolarining o'zaro hamkorligi.

8-bosqich: bayramning keyingi ta'siri. Tasviriy san'at mashg'ulotlari davomida maktabgacha yoshdagi bolalar "Bizning bayramimiz" mavzusida rasm chizishadi. Musiqa darslarida bolalar o'zlarining sevimli raqslarini va individual belgilarning harakatlarini takrorlaydi. Ba'zi chiqishlar bir necha marta takrorlanadi, ijrochilarni almashtiradi⁹⁶.

III. Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik didini tarbiyalashda o'yin-kulgu kechalarini o'tkazishda o'ziga xos xususiyatlari. Estetik tarbiyaning mazmuni serqirra bo'lib, musiqa tarbiya eng asosiy o'rinni egallaydi. Musiqiy ta'limning oliy maqsadi: yosh avlodni milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan hamda musiqa boyligini idrok eta oladigan, yetuk, barkamol, madaniyatli, nafaqat o'z milliy an'alarini, balki boshqa millatlar madaniyatidan boxabar va bu an'ana, madaniyatlarini xurmat qiladigan qilib voyaga yetkazishdan iboratdir. Bunda nafosat tarbiyasining ahamiyati benihoya kattadir.

Bayram ertaliklari estetik tarbiyani tashkil qilishdagi muhim tadbirlardan biridir. Ertaliklar bog'cha hayotining eng muhim va tarkibiy qismiga aylangan bo'lib, tantanavorlik, xursandlik va shodlik holatini vujudga keltiradi, bolalarning badiiy didini tarbiyalaydi. Bayram ertaliklaridan maqsad, bolalarni nafosat olamiga olib kirish, ularda ajoyib yorqin taassurotlar qoldirish va shodlik baxsh etishdan iboratdir.

⁹⁶ Праздничные утренники в детском саду. Общие методические указания // https://ale07.ru/music/notes/song/book/ds/pr_utrenniki2.htm; Kasimova A.R. Организация и проведение утренников в детском саду // <https://docplayer.com/123658959-Organizaciya-i-provedenie-utrennikov-v-detskom-sadu-bez-prazdnikov-ne-byvaet-detstva-prazdnichnye-utrenniki-v-detskom-sadu-vazhnaya-sostavnaya-chast.html>.



Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining kichik, o'rtta, katta va tayyorlov guruhlarida olib boriladigan barcha ertalik va bayramlar vositasida bolalarda insoniy fazilatlar tegishli yoshdan boshlab shakillantiriladi. Ertalik va bayramlarni o'tkazish jarayonida bola hayotiy voqelikni musiqaviy obrazlar orqali idrok etib boradi. Bolalar yoshiga xos musiqa asarlari kichikintoylarda unutilmas taassurot qoldiradi, ularni ruhiy dunyosini boyitadi. Bog'cha sharoitidagi musiqaviy tarbiya badiiy adabiyot va tasviriy san'at bilan uzviy bog'langan holda amalga oshiriladi.

Kichik va o'rtta guruh bolalari uchun bayramona ertak katta yoshdagi bolalardan alohida o'tkaziladi, chunki katta guruh bolalari uchun bayram mazmunini bolalar idrok etishlari qiyin. Bundan tashqari, uzoq davom etadi, bu esa charchatadi. Kichik guruhlarining bolalari uchun ertak dasturida qo'shiqlar, she'rlar, o'yinlar, raqslar, spektakllar ham mavjud, ammo kitobdagi amaliy materiallardan ko'rinib turibdiki, ma'lum bir yoshga mos keladigan oddiyroq.

Kichik guruhlarining bolalari uchun matining davomiyligi taxminan **30-40 daqiqa**, katta guruhlar uchun – **45-60 daqiqa**.

Agar ikkala ertak ham bir kunda o'tkazilsa, birinchi navbatda bolalar uchun ertak boshlanadi. Kichikintoylar har doim ertalabki soatlarda, kattalar esa tushdan keyin, lekin kechki soat 16 dan kechiktirmasdan bayram qilishadi. Tadbirning davomiyligi – **30 daqiqa**.

Ertalab bolalar charchamaydilar, ular qo'shiqlar, o'yinlar, raqslar va boshqa raqamlarni yaxshiroq idrok qililgan holda ijro etadi. Tayyorlov guruhlar uchun matnlar ko'pincha tushdan keyin o'tkaziladi. Bu ota-onalarga bayramda ishtirok etish imkoniyatini berish uchun amalga oshiriladi.

O'zbekistonning mustaqilligi yillarida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish, ularni milliy tarbiya an'analari asosida tarbiyalahga alohida e'tibor qaratildi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertalik va bayramlar shaklan va mazmunan o'zgardi. Ayni vaqtda ushbu tashkilotlarda asosan quyidagi ertalik va bayramlar nishonlanmoqda (18-rasm):




18-rasm. MTTda tashkil etiladigan asosiy ertalik va bayramlar



Mustaqillik bayrami



O'qituvchi va murabbiylar kuni



"Mehrjon bayrami"



"Yangi yil bayrami"



Vatan himoyachilari bayrami



A.Navoiy tavalludi kuni



Xalqaro xotin-qizlar bayrami



"Navro'z bayrami"



Xotira va qadrlash bayrami



"Gul va qushlar bayrami"



"Sog'lomjon va polvonjon"
ertaligi



Bolalarni maktabga kuzatish
tadbiri

Har bir bayramning o'z ma'nosi va alohida xususiyati bor.

Kichik, o'rta, katta va tayyorlov guruhlarida olib boriladigan barcha ertalik va bayramlar bolalarning yosh, psixologik va fiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda rejalashtiriladi.

Kichik va o'рта guruhlarda tashkil qilinadigan ertalik va bayramlar

1. "Mustaqillik bayrami". Bu bayram tadbiri 1-sentabrda o'tkaziladi. Tadbir O'zbekiston Davlat madhiyasining yangrashi bilan boshlanadi. Bolalar Vatanimiz haqidagi she'rlarni yoddan o'qib, qo'shiqlar ijro etadilar.

2. "Mehrjon bayrami" – Bobodehqon va ona zaminni ulug'lovchi bayramdir. U 25-oktabrdan 5-noyabrgacha o'tkaziladi.

3. "Archa bayrami". Bu bayramda Qorbobo, Qorqiz va sevimli ertak qahramonlari ishtirok etadilar.

4. "8-mart – Onajonlar bayrami".

5. "Navro'z bayrami" 21-martdan boshlanadi.

6. "Sog'lom va polvonjon tadbiri" esa 1-iyunda o'tkaziladi.

Katta va tayyorlov guruhlarida tashkil qilinadigan ertalik va bayramlar

1. "1-sentabr – Mustaqillik bayrami". Bayram tadbirlari orqali bolalarda vatanparvarlik va baynalminallik tuyg'ulari tarkib toptiriladi.

2. 1-oktabr – "O'qituvchilar va murabbiylar kuni".

3. Til bayrami. Bu bayram "Til – dil kaliti", "Ona tilim – jonu dilim" nomlari ostida nishonlanadi.

4. "Mehrjon bayrami" – hosil bayrami.

5. 8-dekabr – Konstitutsiya kuni. Shu munosabat bilan "Qomusimiz – nomusimiz" tadbiri o'tkaziladi.

6. "Archa bayrami" ertaligi.

7. 14-yanvar. "Vatan himoyachilari kuni".

8. 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan konsert uyushtiriladi.

9. 21-mart – Navro'z bayrami. Bu tadbirda, asosan, u urf-odatlarimiz va qadriyatlarimiz haqidagi sahna ko'rinishlari va kuy qo'shiqlar ijro etiladi.

10. Gullar va qushlar bayrami may oyida o'tkaziladi. Bolalar O'zbekiston gullari va qushlari haqida she'r hamda qo'shiqlar aytadilar.

11. "Sog'lomjon va polvonjon", "Sog'lom tanda – sog' aql" tadbirlari 1-iyunda o'tkaziladi. Bayramda turli estafeta va bellashuvlar uyushtiriladi.

12. Maktabda kuzatish bayrami. "Xayr, bog'chajon – salom, maktab!"⁹⁷.

Kichik, o'рта, katta va tayyorlov guruhlarida olib boriladigan barcha ertalik va bayramlarda myayyan g'oyalar ilgari suriladi. Masalan, har yili 1-sentabrda nishonlanadigan **"Mustaqillik bayrami"** da vatanni sevish va e'zozlash, unga munosib farzand bo'lib yetishish, uning yutuqlaridan faxrlanish hissi tarbiyalanadi.

"Mustaqillik kuni" bayrami bolalarda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, vatanparvarlikni, inson o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish, ko'nikma va malakalarini hosil qilish, tarbiyalashga keng imkoniyat yaratadi.

Ushbu bayramni tashkil etishda avvalambor o'tkaziladigan joy tanlash, bezatish (mustaqillikdan keyingi yillardagi shoirlar, fotomantajlar, mustaqillikga erishganimiz xaqidagi fikrlar yozilgan lozingerlar va boshqalar) sahna qurish va uni ham bayramona bezatish, bolalarga vatan, ona xalqimiz yurtimiz erishayotgan mustaqillikdan so'nggi

⁹⁷ Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqiy didaktik o'yinlar. Bolalar o'yinlarida musiqa // <https://hozir.org/maktabgacha-talim-muassasalarida-musiqiy-didaktik-oyinlar.html?page=3>.



yillarda erishayotgan va qo'lga kiritayotgan yutuqlar xaqidagi qo'shiqlar va albatta xalqimizning dilidan, tilidan o'rin olgan va yo'qolmay kelayotgan xalq qo'shiqlari, yalla, lapar, folk'lor-etnografik qo'shiqlar, katta ashula, bolalar qo'shiqlari, aytishuvlar o'rgatiladi va sahnada kuylashlari uchun tayyorgarlik ko'riladi.

“Mustaqillik kuni”da asosan o'tkaziladigan joyni O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlari bilan bezatiladi. Devoriy ro'znomalar qilinadi, qatnashchilar milliy liboslarda bo'lishadi. Bayram O'zbekiston Respublikasining madhiyasini ijro etish bilan boshlanadi.

Bayram katta guruh bolalari bilan o'tkazilib, ular O'zbekiston Respublikasi madhiyasini kuylaydi. Kichik va o'rta guruh bolalari tomoshabin sifatida qatnashadi. Ertalikdagi o'yinlar, inssenirovkalarda xalqimizning erishgan yutuqlari, mehnatning insonga quvonch baxsh etishi odamlarning bir-biriga mehr-oqibati, qadriyatlarimiz ko'rsatilishi kerak. Musiqa rahbari bayram dasturini tuzishda ijodiy yondashib, zamonaviy bolalar qo'shiqlari bilan bir qatorda, o'zbek xalq qo'shiqlarini ham dasturga kiritishimiz lozim.

Bundan tashqari bolalar uchun qiziqarli bo'lgan milliy raqslar, tomoshalar va o'yinlar o'tkaziladi. Har bir qo'shiq, raqs va tomoshalarda asosiy mavzu mustaqillik sezilib turishi kerak.

“O'qituvchi va murabbiylar kuni”. Bu bayram ham yili 1-oktabrda nishionlanadi. Bog'chada bir, ikki kun ilgariroq o'tkazish mumkin. Bayram asosini ustoz murabbiyga, bog'chada esa tarbiyachilarga bag'ishlangan she'r va ashulalar sahna ko'rinishlari raqslar tashkil etiladi. Bu bayramni ham o'tkazishdan oldin joy tanlanadi, sahna qilinadi va bayramona bezatiladi, ya'ni devoriy ro'znomalar, ulug' allomalar, mutafakkirlar sur'atlari ota-onaga, ustozlarga qarata aytilgan shiorlar va sahna ko'rinishlariga zarur vositalar bilan bezatiladi. Bayramga ota-onalar va boshqa mehmonlar taklif etiladi va ularga ham bag'ishlangan she'r va qo'shiqlar aytiladi. Iloji bo'lsa, bog'chadagi me'yorda kulgili bo'lgan, qiziqatli sahna ko'rinishlar, raqslar ijro etiladi.

“Mehrjon bayrami”da mehnat mavsumi yakuniga yetayotganligini ifodalab, «Quyosh bobo» ga minnatdorchilik bildirib, «Bobodehqon» mehnatini, «Ona yer» saxovatini, mehr-muruvvatini, “Kuzjon”ning to'kin sochinligini ramziy obrazlar orqali chuqurroq idrok etishlariga erishish lozim. Bu bayramni katta, o'rta va kichik guruh tarzida o'tkazish mumkin. Bayram tantanalarida iloji boricha o'zbek milliy asboblarini (karnay, sunray, nog'ora) jalb qilish tavsiya etiladi. Imkoniyat bo'lmasa, fonogrammadan foydalanish lozim. Askiyalar va kichik sahnalashtirilgan ertaklar ham bo'lishi tavsiya etiladi. Qo'shiq, lapar (aytishuv) va askiyalar mazmuni bolalarga tushunarli bo'lishi kerak.

“O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni”. Bu bayram har yili 8-dekabr kunida nishonlanadi. Bu bayramda ham avvalo tadbir o'tkaziladigan joy tanlab olinadi va O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlari Konstitutsiyasining yoshlarga oid moddalaridan kiritilgan devoriy ro'znomalar chiqarib sahna qilinib, uni bayramona konsertbop etib bezatiladi. Bayram asosini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mazmuniga taalluqli savol-javoblardan iborat bo'lgan o'yinlar,



viktoralalar, topshiriqlar, ashula hamda raqsni tashkil etadi. O'yinlar yutib chiqqan va topshiriqlarni a'lo bajargan bolalarga Konstitutsiya kitobi sovg'a tariqasida berilsa, bu sovg'a bolaning butun umri davomida esda qolarli voqea ham bo'lib qolishi mumkin, yoki Konstitutsiya kitobining rasmi solingan surat ham bo'laveradi.

"Yangi yil bayrami" butun dunyoda ramziy qabul qilingan bo'lib, jahon bolalarining eng sevimli bayramidir. Bu bayram har yili barcha ta'lim-tarbiya muassasalarida 25-dekabrddan boshlanib, 10-yanvargacha davom etadi. Unda chiroyli bezatilgan archa, quvnoq kuy, qo'shiq va o'yinlar Qorbobo, Qorqiz va turli ertak qahramonlari, o'rmon hayvonlari ishtirok etib, bolalar bilan xursandchilik qiladi.

Bayram o'tkazish uchun kattaroq zal tanlanadi va uni rang-barang yaraqlab turgan chiroqlar, o'yinchoqlar, qorparchalari va asosan zal o'rtasiga archa o'rnatiladi u ham an'anaviy tusda bezatiladi.

Bolalarni Qorbobo va Qorqiz yo'qlaydi. Bolalar qorboboga o'zlari tayyorlagan she'r, qo'shiq va raqslarni hamda sahna ko'rinishlarini namoyon etadi. Bezatilgan archa atrofida yugurib tomosha ko'rsatiladi, har xil o'yinlar o'ynashadi. Bolalarni tarbiyalashga turli ertak qahramonlari kelishadi. Bayram oxirida Qorbobo bolalarga sovg'alar taqdim etadi.

Yangi yil barcha uchun eng quvonchli, eng qutlug' bayram. Shuning uchun u erkin, eng esda qoluvchi bayram bo'ladi.

"Vatan himoyachilari kuni". Bayram o'tkaziladigan joy tanlab olinadi, bayramona, harbiy ruhda, ayniqsa, bolalar turli she'r, qo'shiq va raqslar bilan sahnaga chiqib, o'g'il bolalarni – bo'lajak vatan himoyachilarini tabriklashadi.

Tadbirga harbiylarni taklif qilib ular bilan suhbatlar uyushtirib turish mumkin. Bolalarga qiziqarli bo'lgan harbiy texnika, transportlar haqida batafsil tushuntirib berilsa, yanada yaxshiroq bo'ladi. Bu tadbirda bolalar turli harbiy qo'shiqlarni, yurish, ya'ni marsh qo'shiqlarini hamda sahnaviy ko'rinishlari ijro etilishi mumkin. Bu jarayon ularda, Vatanga, xalqqa va ota-onalariga, ustozlariga, tarbiyachilarga bo'lgan sadoqat va xurmat izzatni tarbiyalaydi.

Bunday tadbir ham bolalarni uzoq vaqtgacha esida saqlanib xotirasida muhrlanib qoladi.

"8-mart bayrami"da avvalo o'tkaziladigan joy va sahna ajoyib bahoriy kayfiyatda bezatiladi, ota-onalarini, onalarini, buvilar, tarbiyachi ayollarni tabriklashadi.

Mashg'ulotlarda, mehnat mashg'ulotlarida sovg'alar tayyorlashadi. Musiqa mashg'ulotlarida esa onalariga va ustoz-tarbiyachilariga bag'ishlangan she'r, qo'shiq va raqslarni o'rganishadi. O'g'il bolalarga qiz bolalarni shu kuni tabriklash lozimligi uqtiriladi. Bu bayram ham juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, u bolalarga onalariga, tarbiyachilariga, qizlarga umuman ayol kishilarga nisbatan xurmat e'zozlash, qadrlash tuyg'ularini shakllantiradi.

Bayramda bolalar onalari, buvilari, opalari, tarbiyachilariga bo'lgan mehrlari va ulkan muhabbatlarini qo'shiq, she'r, raqs, o'yinlarida ifodalaydi. Ularning mehnatlarini e'zozlab, minnatdorchilik bildirib, o'z qo'llari bilan yasagan sovg'alarini taqdim etadi. Ular uchun katta, o'rta va kichik guruhlarda konsert uyushtiriladi. Bayram uchun



to'g'ri tanlangan qo'shiq, musiqa, sahna ko'rinishlari bolalarda xushchaqchaq kayfiyat tug'dirishda katta ahamiyatga ega. Ular bayramning umumiy xarakteriga, mazmuniga mos bo'lishi kerak. Agar bog'chada xalq cholg'u asboblariidan tuzilgan bolalar ansambli bo'lsa, uni ham bayram dasturiga kiritish kerak.

"Navro'z bayrami"da uyg'onayotgan borliq, tabiat ulug'lanadi. Qadriyat, urf-odat udumlarini aks ettiruvchi mazkur bayram, tabiat uyg'onishi, yangi mehnat mavsumining boshlanishi, tabiat go'zalligidan zavqlanish va uni asray bilish, ko'kalamzorlashtirish, mehnatni ulug'lash kabi g'oyalarni o'zida mujassam etadi. Qo'shiq-yallalar kuylanadi, o'lan-aytishuvlar va turli xil qiziqarli o'yinlar o'tkaziladi. Bu bayramni bog'cha sharoitidan kelib chiqqan holda, zalda yoki hovlida o'tkazish mumkin.

Qadimda sharq xalqlari o'z sayllariga odamlarni karnay-surnay orqali chorlaganlar. Shuning uchun bayramning tantanali qismida milliy cholg'u asboblardan yoki fonogrammadan foydalanish lozim. Badiiy qismda quvnoq qo'shiqlar yangraydi.

"Xotira va qadrlash kuni". Bu bayram har yili 9-may kuni nishonlanadi. Bolalar vatan, o'zbek xalqi uchun o'z jonini ayamaganlar, qatag'on urush yillarida shahid ketgan vatandoshlarimizni xotirlar ertaliklarni o'tkazishadi. Tadbirlarda jasorat ko'rsatganlar haqida hikoyalar, she'rlar, qo'shiqlar aytiladi.

Tarbiyachilar, muzeylarga sayohatlar, xotira bog'lariga ekskursiyalar tashkillashtirishlari mumkin.

Ana shunday tashkiliy ishlar bolalar tarbiyasida katta o'rin tutadi. Chunki, vatan uchun jonini berganlar, qahramonlik ko'rsatganlar ota-bobolari, muzeylarda ko'rgan tushunchalari bolalarga yanada Vatan tuyg'usini, o'zbek xalqini sevishni, jasoratli bo'lishni tarbiyalaydi.

Buyuk siymolar tavallud topgan kunlar uchun badiiy musiqiy nafosat soatlarini tashkil etish, bolalarda milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirib boradi. Ularning rasmlarini ko'rsatib, buyuk xizmatlari haqida ma'lumotlar berish, bolalar yoshiga mos asarlari bilan tanishtirish esa bolalar ma'naviyatini oshiradi. Shuningdek, bayramlar bolalarni Respublikamizda yashaydigan barcha millat va xalqlarning urf-odatlarini, qo'shiq va o'yinlari bilan tanishtirish hamda ularga nisbatan xurmat ruhida tarbiyalashda katta o'rin egallaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida dasturlar asosida o'tkaziladigan va rejalashtirilgan ertalik, bayram tadbirlaridan tashqari tarbiyachilarning o'zlari turli xil o'zbek milliy urf-odatlariga xos ertaliklarni tashkil etishlari mumkin.

Bu faoliyat ham bolalarda ertaliklarni va boshqa tadbirlarni bir xil emas, har xil ko'rinishda yoki noana'naviy usulda o'tkazilsa ancha ijobiy natija ko'rsatadi. Ular milliy urf-odatlarimizni an'analarimizni chuqur o'zlashtirib oladi. Bejizga – "Yoshlikda olingan bilim – toshga o'yilgan naqsh kabidir" deb aytilmagan.

Shunday ekan, maktabgacha ta'lim muassasalarida ertalik va bayramlarni pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Ular bolalarni har tomonlama tarbiyalash, ularda estetik did, qobiliyat va ijodiy tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ertalik va bayramlarni tashkil qilish va



o'tkazish rang-barang mavzularda bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Qolaversa, ularni tashkil qilish va o'tkazish bir qator shartlarga asoslanadi. Ularning inobatga olinishi kutilgan natijalarni qo'lga kiritish imkonini beradi.

Nazorat savollari:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil qilinadigan ertaliklar nima?
2. Tadbirlar nima uchun "ertaliklar" deb nomlanadi?
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil qilinadigan bayram deganda nimani tushunasiz?
4. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil qilinadigan ertalik va bayramlar qanday atributlarga ega bo'ladi?
5. Ertalik va bayramlar maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik didini tarbiyalashda qanday ahamiyatga ega?
6. Ertalik va bayramlarga tayyorgarlik qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?
7. Ertalik va bayramlarga tayyorgarlik chog'ida rollarni taqsimlash qanday amalga oshiriladi?
8. Tadbir qanday mezonlarga ko'ra sarhisob qilinadi?
9. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qanday ertalik va bayramlar tashkil qilinadi?
10. Nima uchun kichik va katta guruhlarda tashkil qilinadigan ertalik va bayramlar bir-biridan farqlanadi?

Test topshiriqlari:

1. Kunning birinchi yarmida o'tkaziladigan tadbir – bu ...
 - a) bayram;
 - b) ertalik;**
 - c) tanlov;
 - d) musobaqa.
2. Ertaliklarning kunning birinchi yarmida o'tkazilishi bolalarning ... xususiyatlari bilan bog'liq.
 - a) yosh va psixologik;
 - b) yosh va individual;
 - c) yosh va fiziologik;**
 - d) psixologik va individual.
3. ... – tavqimda alohida qayd qilingan sanalar munosabati bilan tashkil qilinadigan tadbir.
 - a) bayram;**
 - b) ertalik;
 - c) tanlov;
 - d) musobaqa.
4. Musiqa, qo'shiqlar, o'yinlar, raqslar, badiiy so'z, kostyumlar, bezatilgan xona, sovg'alar, bayram taassurotlari. Ular ertalik va bayramlarning – ...
 - a) ustuvor xususiyatlari;
 - b) asosiy jihatlari;
 - c) muhim atributlari;**



d) samarali vositalari.

5. Bayram kunlari maktabgacha ta'lim tashkilotdagi menyu ham ... bo'lishi kerak.

a) g'ayrioddiy, hayratomuz;

b) g'ayrioddiy, kamtarona;

c) g'ayrioddiy, shohona;

d) g'ayrioddiy, bayramona.

6. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tadbirlarni rejalashtirish o'quv yilining ... amalga oshiriladi.

a) boshida;

b) yarmida;

c) yakunida;

d) ixtiyoriy ravishda.

7. Ertalik va bayramlarga tayyorgarlik ... bosqichda amalga oshiriladi.

a) 2 ta;

b) 4 ta;

c) 6 ta;

d) 8 ta.

8. Tayyorgarlikni tadbirning o'zidan ... oldin boshlash tavsiya etiladi.

a) 2,5 oy;

b) 2 oy;

c) 1,5 oy;

d) 1 oy.

9. Tadbirdan ...avval tayyorgarlik mashg'ulotlari tashkil qilinadi.

a) 2,5 hafta;

b) 2 hafta;

c) 1,5 hafta;

d) 1 hafta.

10. Kichik guruhlar uchun tadbir ... davom etadi.

a) 30-40 daqiqa;

b) 20-30 daqiqa;

c) 15-20 daqiqa;

d) 10-15 daqiqa.

11. Katta guruhlar uchun tadbir ... davom etadi.

a) 45-60 daqiqa;

b) 30-45 daqiqa;

c) 20-35 daqiqa;

d) 10-15 daqiqa.

12. Tushdan keyin tashkil qilingan tadbir ... davom etadi.

a) 60 daqiqa;

b) 50 daqiqa;

c) 40 daqiqa;

d) 30 daqiqa.

Amaliy topshiriqlar:

1-topshiriq. Maktabga tayyorlov guruhlari uchun ertalik va bayramlar rejasini ishlab chiqing.

2-topshiriq. Kichik guruhlarda o'tkaziladigan "Navro'z bayrami" uchun ssenariy tayyorlang.

3.2. Maktabgacha ta'limda turli yoshdagi teatr faoliyati bo'yicha mashg'ulotlarning asosiy vazifalari

Reja:

1. Badiiy asarni sahnalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Ertakgacha bo'lgan yo'l.
3. Tarbiyachi va maktabgacha bolalar guruhining dramatik faoliyati.

Tayanch tushunchalar: maktabgacha ta'lim, teatr, faoliyat, teatr faoliyati, mashg'ulot, teatr faoliyati bo'yicha mashg'ulot, badiiy asar, sahnalashtirish, badiiy asarni sahnalashtirish, ertak, faoliyat, dramatik faoliyat, tarbiyachi, maktabgacha bolalar guruhi, tarbiyachi va maktabgacha bolalar guruhining dramatik faoliyati.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi. – T: YUNISEF, 2018. – 72 b.

2. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti // <https://lex.uz/docs/5179335?query>.

3. Maktabgacha pedagogika / Darslik. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpulatova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova. – T: "Tafakkur" nashriyoti, 2019. – 688 b.

4. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. –T: "Fan va texnologiya", 2012. – 268 b.

5. Dramatizatsiya skazok v detskom sadu v starshey gruppe: rekomendatsii vospitately // https://pedsovet.su/dou/6123_dramatizatia_skazok_v_starshey_gruppe.

I. Badiiy asarni sahnalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatida muhim o'rin egallagan va bolalarni badiiy-estetik jihatdan samarali tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlardan yana biri badiiy asarlarni sahnalashtirishdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtirish uchun mashhur ertaklar juda mos keladi. Xalq ertaklari ibratli va sodda tilda yaratilganligi sababli ular maktabgacha yoshdagi barcha barcha guruhlarida sahna asarlarini qo'yishga imkon beradi. Katta guruhda ertaklarni sahnalashtirish, ayniqsa, samarali sanaladi. Bu 5-6 yoshli bolalarning psixologik xususiyatlari bilan bog'liq.

Badiiy asarlarni sahnalashtirish – badiiy asar mazmunini dramaturgiya shaklga o'zgartirish bo'lib, unda asar g'oyasi harakatlar, qahramonlar xarakterining to'qnashuvi orqali ifodalanadi⁹⁸.

⁹⁸ Драматизация сказок в детском саду в старшей группе: рекомендации воспитателю // https://pedsovet.su/dou/6123_dramatizatia_skazok_v_starshey_gruppe.



Bu jarayonda asar qahramonlari xarakterining to'qnashuvi ularning xulq-atvori, ular o'rtasidagi umumiy suhbat (dialog)larda aks etadi.


Badiiy asarlarni sahnalashtirish quyidagi asosiy maqsadlarga erishishga imkon beradi:

1. Ta'limiy maqsad: bolalarni ertaklar bilan tanishtirish, qahramonlar va ularning harakatlarini tahlil qilish, baholashga o'rgatish.

2. Rivojlantiruvchi maqsad: ertaklarni sahnalashtirish orqali bolalarning tasavvuri, diqqati, xotirasi, hissiyoti va nutqini rivojlantirish, ularda muloqot malakalari va jismoniy faollikni tarbiyalash.

3. Tarbiyaviy maqsad: bolalarda badiiy-ijodiy qobiliyatni rivojlantirish, ularda xalq og'zaki ijodi namunasi – ertaklar orqali estetik didni shakllantirish, do'stlik va o'zaro yordam tuyg'ularini tarbiyalash.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida teatrlashtirilgan faoliyatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat (19-rasm):



19-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tashkil etiladigan teatrlashtirilgan faoliyatning asosiy vazifalari


Bolalarda kattalar bilan hamkorlikda teatr faoliyati ko'nikmalarini rivojlantirish bolalar, ota-onalar, tarbiyachilar, musiqa rahbarining birgalikda sahna asarini qo'yish, katta guruh bolalarining kichik tarbiyalanuvchilar oldida chiqishlarini tashkil qilish va hokazolarda namoyon bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ertaklarni sahnalashtirishda tayyorgarlik jarayoni muhim ahamiyatga ega. Bunda tarbiyachi yoki musiqa rahbari asosiy vosita sifatida kartochkadan foydalanadi. Kartochkalar sahnalashtirilgan ertaklar to'g'risidagi asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ularda sahna asarlarining maqsadlari, atributlari va bezaklari ko'rsatiladi.

II. Ertakgacha bo'lgan yo'l. Ertaklarni sahnalashtirishda tayyorgarlik jarayonida tarbiyachi yoki musiqa rahbari bolalarga tanlangan ertakda yoritilgan mavzuni muhokama qiladi, shuningdek, voqea va personajlar bilan tanishtiradi.

Sahnalashtirish uchun turli materiallar: xalq va muallif ertaklari, she'riy yoki nasriy asarlardan foydalanish mumkin. 5-6 yoshli bolalar C.Perroning "Zolushka" yoki G.X.Andersenning "Oppog'oy" kabi ertaklarini juda yaxshi idrok etadi.

Tayyorgarlik jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi (20-rasm):



20-rasm. Ertaklarni sahnalashtirishga qaratilgan tayyorgarlik jarayonining asosiy bosqichlari

1-bosqich: ertakni o'qishga kirishish. Bolalarni "o'rmon" ertagiga moslashtirish uchun musiqiy jarayon (o'rmon tovushlari ijro qilish, qushlarning ovozi, bo'rilarning uvillashi)ga jalb qilinadi. "O'rmon"ning maketi rangli qog'ozlardan yasaladi.

2-bosqich: bolalarga ertaklar taqdim etish. Bu bosqichda tarbiyachi tomonidan ertak ifodali o'qiladi yoki ertak matning audio yozuv qo'yib beriladi.

3-bosqich: ertakni muhokama qilish:

3.1-bosqich: lug'at bilan ishlash. Ba'zi so'zlar va hatto iboralar bolalar ularni qanday tushunishlarini bilish uchun bolalar bilan muhokama qilishga arziydi (masalan, maqtanchoq, panjalar, yovvoyi hayvonlar; itlar uni ko'tarib, yo'guraylik).

3.2-bosqich: Ertakning umumiy takrorlanishi.

3.3-bosqich: savol-javobni uyushtirish. Tarbiyachi savollar berish orqali bolalar tomonidan ertak mazmuning to'liq tushunilishiga erishiladi. Bunda bolalarning hissiyotlarini uyg'otadigan savollardan foydalaniladi. Masalan: Quyvon kimga maqtandi? U buni qanday qildi? Qanday ovoz bilan, qanday ifoda bilan?

3.4-bosqich: ertak qahramonining xarakterini muhokama qilish. Masalan, "Quyvonning ini" ertagini sahnalashtirish chog'ida bolalarga: Quyvon ertakning boshida va oxirida quyvon nima dedi? tarzida bolalarga savol beriladi.



3.5-bosqich: qo'g'irchoq teatri yordamida tarbiyachi va bolalarning o'zaro hamkorliklarida sinov spektaklini namoyish qilish.

3.6-bosqich: rollarni taqsimlash, qahramonlar xarakterini muhokama qilish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining katta guruhida ertaklarni sahnalashtirishning muvaffaqiyati: bolalarning psixologik xususiyatlari, ijodiy qobiliyatlari va qiziqishlari, ishtirokchilarning dastlabki tayyorgarlik darajasi kabi omillarga bog'liq⁹⁹.

III. Tarbiyachi va maktabgacha bolalar guruhining dramatik faoliyati. Teatr pedagogikasi bolalarni tarbiyalashda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni o'z ichiga oladi va kattalar bilan ijodiy muloqot jarayonida bolaning subyektiv pozitsiyasini ta'minlashga xizmat qiladigan sharoitni yaratadi. Gumanistik pozitsiya nuqtayi nazaridan, barcha bolalar iqtidorli, shu sababli tarbiyachi hamda musiqa rahbarining vazifasi har bir bolaning iste'dodini ochib berish, unda o'ziga bo'lgan ishonchni qaror toptirish, muvaffaqiyatini his qilish imkoniyatini berishdir.

Maktabgacha yosh davrida bolani kattalarning e'tibori, g'amxo'rliqi, mehri bilan o'rab olish juda muhimdir. Mehr-muhabbat bo'lgan muhitda ulg'aygan bolalarda hissiy kechinmalar uyg'onadi. Ular dunyoga ishonch, atrofdagilarga mehr bilan munosabatda bo'lish zarurligini anglab yetadi.

Teatr bolalar uchun eng ta'sirchan san'at turlaridan biri. Obrazga kirgan bola turli rollarni o'ynaydi, ko'rgan va uni qiziqtirgan narsaga taqlid qilishga harakat qiladi va bundan hissiy zavq oladi.

Tomoshabinlar oldida sahnada tez-tez sodir bo'ladigan chiqishlar bolaning ijodiy kuchi va ma'naviy ehtiyojlarini ro'yobga chiqarishga, erkin bo'lish va o'z-o'zini xurmat qilishga o'rgatadi. Ijrochi va tomoshabin funktsiyalarining almashinishi bolaga o'rtoqlariga o'z pozitsiyasini, mahoratini, bilimini, tasavvurini namoyish etishga yordam beradi.

Teatrlashtirilgan o'yin va tomoshalar bolalarda qiziqish va osonlik bilan tassavurga berilishini ta'minlaydi. Ularni o'zining va boshqalarning xatolarini payqash, baholashga o'rgatadi. Bolalarda mustaqil fikr shakllanadi. Ularni omma oldida ifodalashni, borliqni yanada yorqinroq his qilishni o'rganadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertaklarni sahnalashtirish dastur asosida amalga oshiriladi. Dastur uch o'quv yiliga mo'ljallanadi.

Dasturni amalga oshirish jarayonida bolalar bilan ishlashda quyidagi **shakllardan** foydalaniladi:

ertaklarni o'qish va birgalikda tahlil qilish;

ertaklardan parcha ijro etish;

kompyuterdan foydalangan holda ertaklar, bolalar qofiyalari, she'rlar tinglash;


rejissyor spektakli (qurilish va didaktik material bilan);

ertaklardagi eng yorqin va hissiyotli voqealarni nutqiy sharhlash va tasvirlangan voqealarning shaxsiy ma'nosini tushuntirish bilan chizish va bo'yash;

so'z, stol va ochiq o'yinlar;

pantomimik tadqiqotlar va mashqlar;

⁹⁹ Тот источник: Драматизация сказок в детском саду в старшей группе: рекомендации воспитателю // https://pedsovet.su/dou/6123_dramatizatia_skazok_v_starshey_gruppe.



nafas olish mashqlarini bajarish;
artikulyar gimnastikani bajarish;
soʻzlar bilan barmoq oʻyinlarini oʻynash;
adabiy til meʼyorlarini oʻrganish.

Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida ertaklarni sahnalashtirishda bolalar bilan ishlash bir qator **shartlarga** asoslanadi. Ular quyidagilardir:

bolalarning oʻz istaklarini inobatga olgan holda rolga tanlashni amalga oshirish;
barcha bolalarni oʻrganilayotgan sanʼat asarini sahnalashtirishga undash;
har bir bola qanday rollarni oʻynaganligini, uning asosiy yutuqlari nimada ekanligini kuzatib borish;

bolalar tomonidan ertakning mazmunini idrok qilish va uni yodda saqlab qolinishiga erishish.

Ertaklarni sahnalashtirishda bolalar quyidagi **koʻnikma va malakalarni** oʻzlashtira olishlari zarur:

sahnaga qoʻyish uchun ertak, sheʼr, qoʻshiqni tanlashda oʻz fikrini bildirish;
oʻzida zoʻriqishni yenga olish;

har qanday qahramonning rolini yodlay olish, uning xarakterini aytib bera bilish;
tilning bir maromda tebranishini, iboralarni turli tezlikda talaffuz qilish;

ertaklar asosida eskizlar chizish;

eng oddiy dialogni shakllantirish;

rolni ijro qilishga masʼuliyat bilan yondashish;

sahna asarining hissiy vositalari (turish, imo-ishoralar, mimika, ovoz, harakatlar) ni oʻz faoliyatida qoʻllash;

Ertaklarni sahnalashtirish orqali bolalarda oʻziga ishonch hamda jamoada oʻynash qobiliyati shakllanadi¹⁰⁰.

“Chivinboy”, “Qizgʻanchiq it”, “Tuyaqush bilan qoplon”, “Maqtanchiq quyon”, “Rostgoʻy bola”, “Arilarning gʻazabi”, “Tulki bilan turna”, “Sholgʻom”, “Qumursqa”, “Kaptar sovgʻasi”, “Arslon bilan it”, “Tuyaqush bilan qoplon”, “Echki, qoʻy va boʻrilar”, “Tulki bilan Turna”¹⁰¹ kabi ertaklarni sahnalashtirish bolalarni badiiy-estetik jihatdan samarali tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, maktabgacha taʼlim tashkilotlarining faoliyatida badiiy asarlar, ertaklarni sahnalashtirish, yaʼni teatr faoliyati ham muhim oʻrin tutadi. Ertaklarni sahnalashtirish bolalarni teatr madaniyati qoidalari bilan tanishtiribgina qolmay, bolalarda badiiy-estetik did, idrok, qobiliyatni rivojlantiradi. Ularning hissiyotini tarbiyalaydi. Hissiy kechinmalarga ega boʻlgan bolalarda borliqqa, atrofdagilarga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi, nutq rivojlanadi, tengdoshlar bilan muloqot qilishni oʻrgatadi. Qolaversa, ertaklarning sahnalashtirilishi bolalarda badiiy

¹⁰⁰ Иванова В. А. Организация театрализованной деятельности в детском саду через речевое развитие детей //Актуальные задачи педагогики : материалы II Междунар. науч. конф. – Чита : Изд-во Ж. Молодой ученый, 2012. – С. 46-48.

¹⁰¹ Жумабоев М. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga oʻqib, hikoya qilib beriladigan ertaklar // <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/maktabgacha-tarbiya-yoshidagi-bolalarga-oqib-hikoya-qilib-beriladigan-ertaklar>.



asarlarni o'qitishga bo'lgan qiziqishni rivojlantiradi. Shu sababli maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatiga bolalar uchun sevimli bo'lgan ertaklarni sahnalashtirishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Bu boradagi faoliyatning dastur asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi esa maktabgacha ta'lim tashkilotlarida teatr faoliyatini tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilinishini ta'minlaydi.

Nazorat savollari:

1. Badiiy asarni sahnalashtirish qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?
2. Badiiy asarni sahnalashtirish deganda nimani tushunasiz?
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida badiiy asarni sahnalashtirishda qanday maqsadlar ko'zlanadi?
4. Maktabgacha ta'lim tashkilotida teatrlashtirilgan faoliyatning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5. Ertaklarni sahnalashtirishga qaratilgan tayyorgarlik jarayoni qanday bosqichlardan iborat?
6. Ertaklarni sahnalashtirishning uchinchi bosqichida qanday vazifa bajariladi?
7. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertaklarni sahnalashtirishga oid dasturda nimalar ko'rsatiladi?
8. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertaklarni sahnalashtirishga oid dasturni amaliyotga joriy qilishda qanday faoliyat shakllaridan foydalaniladi?
9. Ertaklarni sahnalashtirishda bolalar bilan ishlash qanday shartlarga asoslanadi?
10. Ertaklarni sahnalashtirishda bolalar qanday ko'nikma va malakalarni o'zlashtiradi?
11. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qanday ertaklarni sahnalashtirish maqsadga muvofiq deb o'ylaysiz?

Test topshiriqlari:

1. Badiiy asar mazmunini dramaturgiya shaklga o'zgartirish – bu ...
 - a) badiiy asarlarni mutolaa qilish;
 - b) badiiy asarlarni tahlil qilish;
 - c) badiiy asarlarni sahnalashtirish;**
 - d) badiiy asarlar o'rganish.
2. Ertaklarni sahnalashtirish, ayniqsa, ... da samarali sanaladi.
 - a) o'rta guruhda;
 - b) kichik guruhda;
 - c) katta guruhda;**
 - d) tayyorlov guruhida.
3. Ertaklarni sahnalashtirishda bolalarni ular bilan tanishtirish – ... maqsad sanaladi.
 - a) ta'limiy;**
 - b) rivojlantiruvchi;
 - c) tarbiyaviy;
 - d) strategik.



4. Bolalarda kattalar bilan hamkorlikda teatr faoliyati ko'nikmalarini rivojlantirish – teatrlashtirilgan faoliyatning ... sanaladi.
- a) vositasi;
 - b) shakli;
 - c) maqsadi;
 - d) vazifasi.**
5. Ertaklarni sahnalashtirishda tayyorgarlik jarayoni ... bosqichni o'z ichiga oladi.
- a) 9 ta;
 - b) 7 ta;
 - c) 5 ta;
 - d) 3 ta.**
6. Ertakni o'qishga kirishish ertaklarni sahnalashtirishning ... dir.
- a) birinchi bosqichi;**
 - b) ikkinchi bosqichi;
 - c) uchinchi bosqichi;
 - d) to'rtinchi bosqichi.
7. Ertakni muhokama qilish ertaklarni sahnalashtirishning ... dir.
- a) birinchi bosqichi;
 - b) ikkinchi bosqichi;
 - c) uchinchi bosqichi;**
 - d) to'rtinchi bosqichi.
8. Rollarni taqsimlash ... doirasida amalga oshiriladi.
- a) birinchi bosqich;
 - b) ikkinchi bosqich;
 - c) uchinchi bosqich;**
 - d) to'rtinchi bosqich.
9. Ertaklarni sahnalashtirish ...asosida amalga oshiriladi.
- a) reja;
 - b) dastur;**
 - c) Nizom;
 - d) davlat talabi.
10. Ertaklarni o'qish va birgalikda tahlil qilish; ertaklardan parcha ijro etish; so'z, stol va ochiq o'yinlar; pantomimik tadqiqotlar va mashqlar – bular ertaklarni sahnalashtirishning ... sanaladi.
- a) vositalari;
 - b) metodlari;
 - c) shakllari;**
 - d) texnologiyalari.

Amaliy topshiriqlar:

1-topshiriq. Maktabgacha tayyorlov guruhida sahnalashtirish uchun bolalarning sevimli ertaklaridan birini tanlang.

2-topshiriq. Tanlangan ertakni sahnalashtirish loyihasini ishlab chiqing.

3.3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'g'irchoq teatrini o'tkazish

Reja:

1. Qo'g'irchoq teatrining tarixi.
2. Qo'g'irchoq teatri turlari.
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'g'irchoq teatrini tashkil etish.

Tayanch tushunchalar: teatr, qo'g'irchoq, qo'g'irchoq teatri, tarix, qo'g'irchoq teatrining tarixi, tur, qo'g'irchoq teatri turlari, maktabgacha ta'lim tashkiloti, qo'g'irchoq teatrini tashkil etish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'g'irchoq teatrini tashkil etish.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi. – T.: YUNISEF, 2018. – 72 b.
2. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti // <https://lex.uz/docs/5179335?query>.
3. Maktabgacha pedagogika / Darslik. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpulatova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova. – T.: "Tafakkur" nashriyoti, 2019. – 688 b.
4. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. –T.: "Fan va texnologiya", 2012. – 268 b.

I. Qo'g'irchoq teatrining tarixi. Bolalarni axloqiy-estetik tarbiyalashda qo'g'irchoq teatri vositasidan samarali foydalanish, ularning iqtidori, obyektiv borliq haqidagi tasavvuri, dunyoqarashini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratishi bilan ahamiyatlidir. Mazkur teatr dunyoning ko'plab xalq va elatlariga qadim zamonlardan buyon ma'lum. U jamiyat hayotida ko'plab muhim ahamiyat kasb etgan. Qo'g'irchoq teatri har qaysi davlatda turli shaklda, turli hajmda, o'ziga xos tarzda taraqqiy etib, rivojlanib kelgan.

Qo'g'irchoq teatri – chodir ichida yoki parda ortida yashiringan aktyor-qo'g'irchoqbozlar tomonidan qo'g'irchoqlarni harakatga keltirish orqali ko'rsatiladigan ko'ngilochar tomosha.

Odatda qo'g'irchoq teatrida hajmli va yarim hajmli qo'g'irchoqlardan foydalaniladi. Qo'g'irchoq teatrining rivojlanish tarixi xususida ikki xil qarash mavjud:

- 1) bolalar o'yini qo'g'irchoq teatrining dastlabki ko'rinishidir;
- 2) teatrning kelib chiqishi niqoblilar teatriga borib taqaladi¹⁰².

Qo'g'irchoq teatrining rivojlantirish tarixi ontogenez (kelib chiqish) nuqtayi nazaridan tabiatni ilohiylashtirishga oid marosimlarning tashkil etilish davriga borib taqaladi. Bu turdagi teatrning rivojlanish tarixidan ma'lumki, qadim zamonlarda kishilar yog'ochlar, ularning po'stloqlari va sopoldan turli hayvonlar, qushlar, shuningdek, ma'budlarning haykalchalarini yasab, ularga sig'ingan, ularni harakatga keltirib, o'ynatgan.

¹⁰² Қўғирчоқ театри // <https://qomus.info/encyclopedia/cat-q/qogirchoq-teatri-uz>.



Qadimgi yunon olimlari Gerodot, Ksenofont, Arastu (Aristotel), Goratsiy, Avreliylarning ma'lumotlariga ko'ra qo'g'irchoq teatri miloddan avvalgi V-VI asrlarda paydo bo'lgan.

G'arb mamlakatlarida esa XIX asrning o'rtalaridan boshlab xalq qo'g'irchoq teatri inqirozga uchrab, uning o'rnida yangi shakldagi – yozma drama teatri shakllandi. Xuddi shu vaqtdan boshlab havaskor va yarim professional teatr truppalari paydo bo'ldi. XX asrning boshida Rossiyadagi xalq qo'g'irchoq teatrlari yangi qarashlar asosida modernizatsiyalashga nisbatan ehtiyoj yuzaga keldi. Shu sababli an'anaviy qo'g'irchoq teatrlarining asriy tajribasiga tayangan holda yangi turdagi qo'g'irchoq teatrlarining faoliyati yo'lga qo'yildi. 1924-yilda Peterburg (hozirgi Sankt-Peterburg) shahrida Ye.S.Demmeni rahbarligida Peterburg Qo'g'irchoq teatri ishga tushdi. 1931-yilda esa S.V.Obrazsov rahbarligida Markaziy Qo'g'irchoq teatri tashkil qilindi.

Markaziy Osiyo, shu jumladan, O'zbekiston hududida ham VIII asrgacha otashparastlik, Budda dinlarga e'tiqod qilgan kishilar o'zlari yoqtirgan ma'budlarning haykalchalari e'zozlanib, ular bilan jonli mavjudot sifatida muloqotda bo'lib kelgan. Bu esa qo'g'irchoq teatrlarining o'ziga xos ibtidoiy ko'rinishi sanaladi.

Keyinchalik, ya'ni Islom dini targ'ib etilgan davrdan boshlab, teatr harakati sahnalariga ko'chgan va o'yin shaklida bolalarning hayotiga ham kirib kelgan.

O'zbek milliy xalq teatri o'tgan asrda asosan ikki xil: masxaraboz-qiziqchilar hamda qo'g'irchoq teatri faoliyati shaklda namoyon bo'lgan.

Masxaraboz-qiziqchilar faoliyati bir necha janr: sahnalashtirilgan chiqishlarni bajaruvchilar – askiyaboz, dorboz, muallaqchi, nayrangboz (fokuschi), yog'ochoyoq ustalari va musiqachilardan tashkil topgan.

Qo'g'irchoq teatri faoliyati qo'g'irchoqlar yordamida tashkil qilinadigan sahna ko'rinishi yoki qo'g'irchoq o'yinidan iborat bo'lgan.

Sharqda ushbu teatrlarning muayyan shakllari, jumladan, soyalar teatri mavjud bo'lgan va u "Fonus xayol", "Chodir xayol", "Chodir jamol" deb nomlangan.

Tadqiqotchilar N.P.Ostroumova, N.S.Likoshinalar o'zbek teatrlarining ikki muhim turini aniqlagan. Ular:

- 1) "Qo'l qo'g'irchoq" (qo'lda yasalgan qo'g'irchoqlar teatri);
- 2) "Chodir xayol" ("O'qinchi qo'g'irchoq teatri")¹⁰³.

XX asrning boshlarida O'zbekiston hududida qo'g'irchoqbozlarning 40 ga yaqin guruhi (har guruhda qo'g'irchoqboz, korfarmon, 2-3 nafar sozanda) faoliyat olib borgan.

So'nggi yarim asrdan ortiq davr mobaynida xalq teatrlari yangicha mazmun va shakllarda rivojlanib, professional teatrlar, xususan, masxaraboz-raqqoslar, yangi dramatik teatrlar paydo bo'ldi.

Yangi turdagi Qo'g'irchoq teatrlarining faoliyati ham XX asrning boshlariga to'g'ri keladi. 1939-yilda Toshkentda Respublika "Qo'g'irchoq teatri", 1968-yilda Andijon shahrida "Lola" qo'g'irchoq teatri tashkil etilgan. 2005-yilgi ma'lumotga ko'ra

¹⁰³ История кукольного театра в Узбекистане // <https://xreferat.com/47/5877-1-istoriya-kukolnogo-teatra-v-uzbekistane.html>.



O'zbekistonda 10 ta davlat tasarrufidagi va ko'plab havaskor qo'g'irchoq teatrlari faoliyat ko'rsatadi¹⁰⁴.

O'zbek milliy an'anaviy qo'g'irchoq teatrining asosiy qahramoni – Kachal Polvon hisoblanadi. Kachal Polvon qo'g'irchoq'ining obrazi qo'lga kiyilgan holda o'ynatilgan. Qo'g'irchoqning bosh qismi yog'ochdan yasalgan bo'lib, egnida ko'ylak, chopon, boshida do'ppi bo'lgan. Tashqi ko'rinishida qirra burun, qalin qosh yaqqol ko'zga tashlangan.

Kachal Polvon oddiy xalq vakili sifatida teatr tomoshalarida qatnashgan. U ishtirok etgan teatr tomoshalarini XIV asrdan boshlab xalqning e'tiborini qozongan. Manbalarda ko'rsatilishicha, hozirgi kunga qadar turli ko'rinishga ega bo'lgan Kachal Polvonning sarguzashtlari yetib kelgan.

Ushbu sarguzashtlarda, asosan, uchta tarix, ya'ni:

1) Kachal Polvonning Bichaxon ismli qizni sevib qolishi, u bilan uchrashuvi va unga uylanishi;

2) o'z iti tomonidan talanishi;

3) ijtimoiy, shaxslararo to'qnashuvning sujeti yoritilgan.

Kachal Polvon har gal kulgili holatlarga tushib qolgan. Shunga ko'ra uning fe'l-atvori ziddiyatli etib ifodalanadi. U turli vaziyatlarda o'zida ijobiy va salbiy sifatlarni namoyon qilgan. Kachal Polvon garchi turli ziddiyatli voqeliklarning ishtirokchisiga aylanib qolishiga qaramay u hayotiy va xalqchil qahramon sanaladi.

U doimo xushkayfiyat bilan o'zi duch kelgan hayotiy to'siqlarni yengib kelgan, yomon fe'lli amaldorlar, sudxo'rlarning kirdikorlarini fosh qilgan, adolatni yoqlagan, rostgo'y, halol mehnat bilan kun kechiradigan kishilarni zulmkorlardan himoya qilgan¹⁰⁵.

II. Qo'g'irchoq teatri turlari. Qo'g'irchoq teatri teatr san'atining asosiy turlaridan biri bo'lib, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar tomonidan sevib tomosha qilinadi.

Bolalar bog'chasida teatr faoliyatining keng yo'lga qo'yilishiga qo'g'irchoq teatridan foydalanmasdan erishish mumkin emas. Binobarin, qo'g'irchoq teatri bolalarning teatr san'ati sohasiga oid bilimlarini rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy bo'g'inidir.

Qo'g'irchoq teatri bolalarning sevimli tomoshalaridan biridir. U o'zining yorqinligi, rang-barangligi, dinamikasi bilan bolalarni o'ziga jalb qiladi. Qo'g'irchoq teatrida bolalar o'ziga tanish va yaqin bo'lgan, jonlanib, harakatlanadigan, gapiradigan va yanada jozibali o'yinchoqlarni ko'radi. Qo'g'irchoq teatri bolalar uchun eng qulay san'at turlaridan biridir.






¹⁰⁴ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Қизилқумут – Хурмўз / 11-том. Бош таҳрир ҳайъати аъзолари: М.Аминов ва бошқ. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2006. – 213-б.

¹⁰⁵ Машғулотларни ўтказиш методикаси / Ўқув-услубий мажмуа. Тузув.: Г.И.Уалиева, Н.И.Режаметова. – Т.: ТДПУ ҳузуридаги ХТХҚТМОХМ, 2018. – 99-99-б.

Bugungi kunda qo'g'irchoq teatrlarining ko'plab **turlari** mavjud. Ular (5-jadval):

5-jadval

Qo'g'irchoq teatrining turlari¹⁰⁶







No	Turlar	Mazmuni	Ko'rinishi
1.	Stolda o'ynaladigan qo'g'irchoqlar teatri	Bolalarning stoli yoki gilamcha sahna maydoni bo'ladi. Bu turdagi teatr qo'g'irchoqlarini sotib olish ham, mustaqil yasash ham mumkin	
2.	Yassi qo'g'irchoqlar teatri	Stolda o'ynaladigan qo'g'irchoq teatrining boshqa bir ko'rinishi bo'lib, qo'g'irchoqlar karton, plastik, yog'och va boshqa materiallardan hajmli emas, balki yassi qilib yasaladi	
3.	Diskli qo'g'irchoqlar teatri	Qog'oz va qisqichlar yordamida diskdan qo'g'irchoq yasaladi. Qog'ozga qo'g'irchoqning rasmi chizilib, diskka yelim bilan yopishtiriladi. "Oyoqcha"lar qisqichlardan hosil qilinadi	
4.	Konus va silindrli qo'g'irchoqlar teatri	Qo'g'irchoqlar konus va silindrdan yasaladi. Ularning ichiga qo'l kaftini tiqib, o'ynatish mumkin	
5.	Qutidagi qo'g'irchoqlar teatri	Qog'ozli qo'g'irchoqlar va hajmli buyumlar yordamida o'ynaladigan teatr. Barcha elementlar qutichaga joylangan bo'ladi. Qutini kengaytirilib, sahnani "hosil qilish" mumkin	

¹⁰⁶ Жадвалда берилган суратлар қуйидаги манбалардан олинди: Слепых М. Театры бывают разные // <https://www.maam.ru/detskijasad/teatry-byvayut-raznye.html>; Поварницына Ж. "Вережковый театр" для детей дошкольного возраста // <https://www.maam.ru/detskijasad/varezhkovyi-teatr-prednaznachen-dlja-postanovki-skazok-detmi-doshkolnogo-vozrasta.html>.



6.	<p>Qoshiqchali (qisqichli, stakanli, tayoqchali) qo'g'irchoqlar teatri</p>	<p>Qahramonlarning obrazi qog'ozlarda tasvirlanib, ular qoshiq (qisqich, stakan, tayoqcha)ga yopishtiriladi (mahkamlanadi). Bolalar ularni "harakatlantiradi"</p>	
7.	<p>Petrushka teatri ("Bibabo")</p>	<p>Matolardan yasalgan qo'g'irchoqlarni qo'l kafti va bilakka kiygan holda o'ynaladigan teatr. Petrushkalar rus xalq ertaklarining qahramonlari hisoblanadi</p>	
8.	<p>Barmoqli qo'g'irchoqlar teatri</p>	<p>Kichik hajmli qo'g'irchoqni 1 ta yoki bir nechta barmoqqa "kiygan" holda o'ynaladigan teatr</p>	
9.	<p>Matoli qo'g'irchoqlar teatri</p>	<p>Yumshoq matodan to'qish yoki tikish, iplardan to'qish orqali qo'g'irchoqlar yasash, ularni qo'lga "kiyish" asosida rollar o'ynaladigan teatr</p>	
10.	<p>Barcha barmoqlarga kiyiladigan qo'g'irchoqlar teatri</p>	<p>Qo'g'irchoqlar xuddi qo'lqop singari barcha barmoqlarga kiyiladi va rol ijro etiladigan teatr</p>	
11.	<p>"Jonli qo'g'irchoqlar teatri"</p>	<p>Bolalar qahramonlarning obrazlarini kostyumlarni kiygan holda yaratadi va rol ijro qiladigan teatr. "Jonli qo'g'irchoqlar teatri"ning asosiy qahramonlari turli ertaklardagi personajlarning kostyumlarini kiyib olgan bolalarning o'zlaridir</p>	



12.	“Kayfiyat teatri”	Turli kayfiyatlarni o‘zida namoyon qilgan qahramonlar obrazi yordamida rollar o‘ynaladigan teatr	
13.	Magnitli teatr	Yassi teatrning bir ko‘rinishi bo‘lib, qahramonlar va dekoratsiya magnet yordamida doskaga yopishtiriladi	
14.	Qo‘lning yuzasiga mahkamlangan qo‘g‘irchoqlar teatri	Qahramon va personajning tasviri qog‘ozda ifodalanadi, bolalar ularni qo‘llarning tashqi tomoniga mahkamlangan holda rol o‘ynaydi	
15.	Niqoblar teatri	Bosh kiyim sifatida niqobli obraz va qahramonlar shakllantiriladi, bolalar ularni kiygan holda rol o‘ynaydi	
16.	Tantamareski (aktyorning yuziga asoslangan) teatr	Kartonning o‘rtasi o‘yilgan holda atrofiga chizish orqali personaj, obrazlar hosil qilinadi, bolalar ularni kiyganda yuzlari ko‘rinib turadi	
17.	Geometrik shakldagi qo‘g‘irchoqlar teatri	Bolalar Kub-bola, Shar-bola, Aylana-bola, Uchburchak-bola va boshqa qahramonlar sifatida mato, qog‘ozdan yasalgan geometrik figuralar o‘rnatilgan qalpoqlarni kiyib, sahna ko‘rinishini namoyish qiladi	



18.	Kitobcha-teatr	Hajmli, harakatlanuvchi teatr bo'lib, qahramonlar "jonlantirilib", voqealarning ma'nosi tasvirlarni almashtirish orqali ifodalanadi	
19.	Bolalarning bo'yi barobaridagi qo'g'irchoqlar teatri ((Marionetka teatri))	Bolalar bo'yi o'zlariga teng qo'g'irchoqlar yordamida sujetli rollarni ijro qiladi	
20.	Soyalar teatri	Oy pardaning orqa tomonidan obrazlar harakatlanadi, tomoshabin-bolalarga ularning soyasi ko'rinadi	
21.	Kovralindagi teatr	Obraz va personajlarni mustaqil tayyorlash mumkin, ular kovralinga yopishtiriladi; yopishtirilgan detallar tushib ketmasligi bilan rol ijro qilishga qulay	

III. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'g'irchoq teatrini tashkil etish.


Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida katta spektakllarni qo'yish mumkin emas. Kichik sahnali kichik ertak asosida o'zlarining o'yinchoqlari yordamida qo'yishlari mumkin. Bu sahna ko'rinishlarining har biri bolalarda katta taassurot uyg'otadi, ularga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlaydi.

Har qanday badiiy asar qo'g'irchoq teatri orqali ko'rsatilsa, uning mazmuni bolalar uchun yanada tushunarli bo'ladi.


Qo'g'irchoq teatri uchun eng kerakli bo'lgan shirmani tayyorlab olish kerak. Shirma (qo'g'irchoq teatri tashkil etiladigan, atrofi mato bilan o'ralgan sahna)ning balandligi 50 sm, uzunligi 80 sm bo'lib, reyka (yupqa, ensiz uzun taxta) yordamida tayyorlanadi. Reykalar bir-biriga mix yordamida mahkamlanadi. Orqa tomonidan ikki yonga ochiladigan qilib charm bilan birlashtiriladi va unga parda tikiladi. Tayyor shirma o'rnatiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtiriladigan qo'g'irchoq teatri uchun tayyorlanadigan shirmalar xilma-xil ko'rinishga ega. Misol uchun shirmaning quyidagi ko'rinishlarini keltirish mumkin (6-jadval):

Qo'g'irchoq teatri sahnasi - shirmalarning ko'rinishlari



**Murakkab
konstruksiyali shirma**



**Reyka va kartondan
yasalgan shirma**



**Plastik materialdan
yasalgan shirma**



**Reykadan to'rtburchak
shaklda yasalgan shirma**



**Kartondan yasilib, bo'yoq
bilan ishlov berilgan
shirma**




**Reyka va matodan
yasalgan yoymali shirma**



Pardali shirma



**Reyka va matoli
pardadan
vasalgan shirma**



**Shirmaning
konstruksiyasi**

Qo'g'irchoqlarni pape-mashe usulida tayyorlash mumkin.

Ertak qahramonlari tayyor bo'lgach, matn asosida tomosha sahnalashtiriladi.

Sahna asaridagi ertak qahramonlari – asosan, personajlar, ertak matnini o'qib boradigan boshlovchi (ertakchi buva yoki buvi)lar sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi kunda teatr uskunalarining oddiyligi, namoyish qilishning osonligi sababli qo'g'irchoqlar yordamida tomoshalarni ko'rsatish keng ommalashmoqda.



Dekoratsiyalar kartondan yasaladi. Ularni qo'lda chizish, qog'oz nusxa, kalka yoki yog'och andoza yordamida qirqish mumkin. Dekoratsiyalarga tabiiy ko'rinish beriladi. Uy derazasidan "sahna" sifatida foydalanish mumkin. Buning uchun deraza tokchasiga qizil qog'oz yoki mato yopishtiriladi.

Teatr personajlari kartondan tayyorlanib, turli ranglarga bo'yaladi. Ularni harakatlanadigan qilib ham tayyorlash mumkin.

Qo'g'irchoqlarda ko'z, og'iz teshiklari qilinadi. Ulardan o'tgan yorug'lik figuralarni jonlantiradi. Figuraning bir yoki bir nechta qismini harakatlanadigan qilish mumkin. Agarda figuraning biror qismi yupqaroq qog'ozdan qilinsa, unga jonlilik tusini berish mumkin bo'ladi. Qo'g'irchoqlarni yasashda fantaziya cheklanmaydi.

Turli shakllar ekran bo'ylab harakat qiladi, shuning uchun ularning old tomonidan ko'rinadigan qilib yasash kerak. Qimirlamay o'tiradigan yoki turadigan shakllar yon tomondan yasaladi. Shakllar cho'plarga mahkamlanadi. Ularning uzunligi pastki to'siq bilan baravar, ya'ni 6-8 sm bo'ladi. Pastki to'siq qo'g'irchoqni o'ynatayotgan ijrochining qo'lini to'sib turadi. Tomosha vaqtida tarbiyachi yoki musiqa rahbari matnni o'qiydi, bolalar shakllarni boshqaradi.

Dekoratsiya elementlarini joylashtirish va personajlar figurasini harakatlantirish mumkin bo'lgan har qanday yotiq (gorizontal) tekislik stol teatri uchun sahna maydoni bo'la oladi. Ko'pincha "sahna maydoni" sifatida stolning ustki qoplamasidan foydalaniladi. Foydalanish jarayonida sahna harakati uchun sathni bir oz cheklashni unutmash kerak. Aks xolda u yoyiq, noaniq bo'lib qoladi. Maxsus sahna ham tayyorlash mumkin. Uning atrofida bolalar bemalol harakat qilgan holda shakllarni yurgizadi. Tekislikka rang berish, unda sodir bo'ladigan harakatlarga muvofiq keladigan konstruksiyani yasash orqali bolalarda arxitektura kompozitsiyasini anglash sezgisini, dekorativ bezash qobiliyatini rivojlantirishga muvaffaq bo'linadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'g'irchoq teatrini tashkil qilish dasturda tavsiya qilingan hamda bolalarga ko'proq yoqadigan ayrim ertak personajlarining mavjud bo'lishini taqozo qiladi.

Teatr spektakllarining dekoratsiyalari, atributlari kattalar bilan hamkorlikda bolalar tomonidan tayyorlanishi mumkin. Bunday holatda tarbiyachi bolalarning mustaqil ijodiy faoliyatlarini birlashtirishga e'tibor qaratishi lozim. Qo'g'irchoq teatri tomoshalari uchun "sahna"ni bezashda turli hajm va kattalikdagi geometrik shakllarni birlashtirish imkoniyati mavjud¹⁰⁷.

Demak, maktabgacha ta'lim takilotlarida qo'g'irchoq teatrini o'tkazish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, bo'lajak tarbiyachilar dastlab qo'g'irchoq teatrining tarixi, ularning turlariga oid nazariy ma'lumotlardan yetarli darajada xabardor bo'lishlari zarur. Qo'g'irchoq teatrining turlari to'g'risidagi ma'lumotlarni puxta o'zlashtirgan bo'lajak tarbiyachilar kelgusida kasbiy faoliyatlarida ularning har biri bo'yicha ertaklarni sahnalashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'g'irchoq teatrini tashkil etish, eng avvalo, bolalarning hayotini zavqli bo'lishiga yordam beradi. Qolaversa, ularda badiiy-estetik did, qobiliyat, tasavvur

¹⁰⁷ Мактабгача таълим ташкilotларида қўғирчоқ театрini ташкил этиш ва жиҳозларини ясаш лойиҳаси // <https://infourok.ru/maktabgacha-talim-tashkilotlarida-Blar-yasash-4364247.html>.



va dunyoqarashni shakllantiradi. Bolalar katta guruhlarga o'tgani sari ular yanada rivojlanadi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatida qo'g'irchoq teatrlarini samarali tashkil qilish pedagogik faoliyatning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanishi zarur.

Nazorat savollari:

1. Qo'g'irchoq teatri qanday teatr?
2. Qo'g'irchoq teatrlarining rivojlanish tarixi to'g'risida necha xil qarash mavjud?
3. Gerodot, Ksenofont, Arastu (Aristotel)ning qarashlariga ko'ra qo'g'irchoq teatri qachon paydo bo'lgan?
4. XX asrning boshlarida O'zbekiston hududida qo'g'irchoqbozlarning qancha guruhi faoliyat olib borgan?
5. Toshkentda Respublika "Qo'g'irchoq teatri" qachon tashkil etilgan?
6. O'zbek milliy an'anaviy qo'g'irchoq teatrlarining asosiy qahramoni kim?
7. Bugungi kunda qo'g'irchoq teatrlarining qanday turlari mavjud?
8. Yassi qo'g'irchoqlar teatri qanday teatr?
9. Diskli qo'g'irchoqlar teatri uchun qo'g'irchoqlar qanday yasaladi?
10. Qanday qo'g'irchoqlar teatrida qoshiqlardan foydalaniladi?
11. Petrushka qo'g'irchoqlari qaysi millatning milliy qahramonlari?
12. "Jonli qo'g'irchoqlar teatri"ning asosiy qahramonlari kimlar?
13. Tantamareski teatri qanday teatr?
14. Qo'g'irchoq teatrlarining sahnasi qanday nomlanadi?
15. Shirma qanday materiallardan tayyorlanadi?

Test topshiriqlari:

1. Chodir ichida yoki parda ortida yashiringan aktyor-qo'g'irchoqbozlar tomonidan qo'g'irchoqlar harakatlantiriladigan teatr – bu ...
 - a) opera teatri;
 - b) satirik teatr;
 - c) dramatik teatr;
 - d) qo'g'irchoq teatri.**
2. Qo'g'irchoq teatrlarining rivojlanish tarixi xususida qarash mavjud.
 - a) bir xil;
 - b) ikki xil;**
 - c) uch xil;
 - d) to'rt xil.
3. Qadimgi yunon olimlarining ma'lumotlariga ko'ra qo'g'irchoq teatri miloddan avvalgi ... da paydo bo'lgan.
 - a) VII-VIII asrlar;
 - b) VI-VII asrlar;
 - c) V-VI asrlar;**
 - d) IV-V asrlar.



4. ...da Peterburg (hozirgi Sankt-Peterburg) shahrida Ye.S.Demmeni rahbarligida Peterburg Qo'g'irchoq teatri ishga tushdi.

- a) **1924-yil;**
- b) 1925-yil;
- c) 1926-yil;
- d) 1928-yil.

5. Sharqda "Fonus xayol", "Chodir xayol", "Chodir jamol" deb nomlangan teatr – 6y

....

- a) masxarabozlik;
- b) qo'g'irchoq o'yini;
- c) **soyalar teatri;**
- d) qo'l qo'g'irchoq.

6. ...da Toshkentda Respublika "Qo'g'irchoq teatri" tashkil etilgan.

- a) **1939-yil;**
- b) 1924-yil;
- c) 1931-yil;
- d) 1968-yil.

7. O'zbek milliy an'anaviy qo'g'irchoq teatrining asosiy qahramoni – bu

- a) Alpomish;
- b) Farhod;
- c) Nasriddin Afandi;
- d) **Kachal Polvon.**

8. Bugungi kunda qo'g'irchoq teatrlarining ... turlari mavjud.

- a) 10 dan ortiq;
- b) **20 dan ortiq;**
- c) 30 dan ortiq;
- d) 40 dan ortiq.

9. Qo'g'irchoqlari karton, plastik, yog'och va boshqa materiallardan hajmli qilib yasalmaydigan teatr – bu

- a) Konus va silindrli qo'g'irchoqlar teatri;
- b) Diskli qo'g'irchoqlar teatri;
- c) **Yassi qo'g'irchoqlar teatri;**
- d) Qutidagi qo'g'irchoqlar teatri.

10. Qo'g'irchoqlari xuddi qo'lqop shaklida bo'lgan teatr – bu

- a) "Konus va silindrli qo'g'irchoqlar teatri";
- b) "Diskli qo'g'irchoqlar teatri";
- c) **"Barcha barmoqlarga kiyiladigan qo'g'irchoqlar teatri";**
- d) "Qutidagi qo'g'irchoqlar teatri".

11. Ijrochi bolalarning yuzlari ko'riib turadigan teatr – bu

- a) **"Tantamareski teatr";**
- b) "Geometrik shakldagi qo'g'irchoqlar teatri";
- c) "Kitobcha-teatr";



d) "Marionetka teatri".

12. Bolalarning bo'yi barobar qo'g'irchoqlar yordamida rollar ijro qiladigan teatr – bu ...

a) "Tantamareski teatr";

b) "Geometrik shakldagi qo'g'irchoqlar teatri";

c) "Kitobcha-teatr";

d) "Marionetka teatri".

13. Qo'g'irchoq teatri tashkil etiladigan, atrofi mato bilan o'ralgan sahna – bu ...

a) amfiteatr;

b) shirma;

c) arena;

d) gesh cahna (sahna oldi).

14. Shirmaning balandligi va uzunligi tegishli ravishda ... sm bo'ladi.

a) 70/100;

b) 60/90;

c) 50/80;

d) 40/70.

Amaliy topshiriqlar:

1-topshiriq. Kichik guruhda "Qo'g'irchoq teatrining turlari" mavzusida ijodiy loyiha (taqdimot, albom, buklet, portfole) tayyorlang va uni namoyish qiling.

2-topshiriq. Kichik guruhda shirmaning modeli (maketi)ni tayyorlang va ushbu ijodiy mahsulotning reklamasini tashkil eting.

3.4. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertaklarni sahnalashtirish metodikasi

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertaklarni sahnalashtirish.

2. Stol teatrini sahnalashtirish.

3. Ertak qahramonlarini, karton teatrini sahnalashtirish jihozlari.

4. Barmoq teatrlarini sahnalashtirish.

Tayanch tushunchalar: maktabgacha ta'lim tashkiloti, ertak, sahnalashtirish, ertaklarni sahnalashtirish, metodika, ertaklarni sahnalashtirish metodikasi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertaklarni sahnalashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertaklarni sahnalashtirish metodikasi, stol teatri, stol teatrini sahnalashtirish, ertak qahramonlari, ertak qahramonlarini sahnalashtirish jihozlari, karton teatri, karton teatrini sahnalashtirish jihozlari, barmoq teatrlari, barmoq teatrlarini sahnalashtirish.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o’quv dasturi. – T.: YUNISEF, 2018, 72 b.
2. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standarti // <https://lex.uz/docs/5179335?query>.
3. Maktabgacha pedagogika / Darslik. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpulatova, N.M.Kayumova, M.N.A’zamova. – T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2019. – 688 b.
4. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. –T.: “Fan va texnologiya”, 2012, 268 b.
5. Maktabgacha ta’limda ijodiy faoliyat asoslari / Ma’ruzalar matni. Tuzuvchi: M.Norbosheva. – Termiz: Termiz DU, 2018, 14-15-b.
6. Tanlov o’quv moduli / O’quv-uslubiy majmua. Tuzuv.: L.R.Mirjalolova, O.A.Maxmudova, D.Maxmudova. – T.: TDPU huzuridagi XTXQTMOHM, 2018. – 35-37-b.

I. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ertaklarni sahnalashtirish. Ertaklarni sahnalashtirish ijodiy jarayon. Bu jarayonda bolalar bilan ishlash, sahnalashtirish uchun tanlangan ertakni o’qish, qahramonlar va personajlarning harakatlarini muhokama qilish, turli materiallardan qo’g’irchoq va personajlar obrazlarini yaratishda ham tarbiyachi yoki musiqa rahbari ijodiy kayfiyatni yaratishga diqqatni qaratishi zarur.

Qo’g’irchoqlar yordamida tashkil qilinadigan teatr tomoshalari uchun qahramonlar, personajlarning obrazlari bolalar tomonidan tarbiyachi yoki musiqa rahbari boshchiligida birgalikda yasalishi muhim. Binobarin, bu jarayonda bolalarda qo’l bilan ishlash, ranglarni tanlash, chizilgan obrazlarni bo’yash malakalari, shuningdek, fikrlash qobiliyati shakllanadi.

Tarbiyachi tomonidan ish jarayonining qizg’in dialoglar yordamida tashkil etilishi esa bolalarning nutqini o’stiradi, lug’at boyligini ko’paytiradi. Buning uchun tarbiyachi bolalarga ularni faoliyat va fikrlashga rag’batlantiruvchi savollar bilan murojaat qilishi, javoblarni shoshilmay tinglashi, yo’l-yo’lakay ularni to’g’rilashi, qaytarilgan to’g’ri javoblar uchun bolalarni “Ajoyib”, “Barakalla”, “Juda to’g’ri”, “To’g’ri, ammo mana buni qanday bajariladi?” tarzida bolalarni ish jarayoniga ilhomlantira olishi kerak.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil qilinadigan teatr tomoshalari uchun turli materiallar: kartonlar, matolar, ingichka yog’ochlar, qoshiqlar, stakanlar, bir martalik plastik idishlar, yelim, paxta, ip, igna, qaychi, mix va boshqa xomashyolar kerak bo’ladi.

Qo’g’irchoq teatrlarini sahnalashtirishda tarbiyachi dastlab har bir guruh bolalarini yoshi, qiziqishiga alohida e’tibor bergan holda ertak tanlashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ertaklarni sahnalashtirishda har bir guruh bolalarining yoshi, ongi, qiziqishini inobatga olib, ish jarayonida quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

Kichik guruhlarda

- bolalarning teatr haqidagi dastlabki tasavvurlarini rivojlantirish;
- bolalar ertak qahramonlarining nomlarini bilishlariga erishish;
- bolalarga teatr madaniyati haqida ma’lumot berish;



- bolalar tomonidan tarbiyachining boshchiligi va hamkorligida teatr qahramonlarining soʻzlarining yod olinishiga erishish;
- teatr tomoshalari uchun tayyorlangan andozalarni boʻyash, tartibli ravishda joylashtirish.

Oʻrta guruhlarda

- bolalarning qoʻgʻirchoq teatri haqidagi tasavvurlarini shakllantirish;
- sahnada hayvonlar va ertak qahramonlarini koʻrsatib, ularni harakatga keltirish;
- bolalarga oʻzlarini aktyor sifatida erkin tutishlariga imkon yaratish;
- bolalarni teatr madaniyatiga oʻrgatish;
- bolalarning tarbiyachi yordamida dekoratsiyalar tayyorlashda mustaqil boʻlishlariga erishish.

Katta guruhlarda

- bolalarda aktyorlarning soʻzlashuvi, qoʻshiqlar kuylashi haqidagi tushunchalarni hosil qilish;
- bolalarga teatr tomoshasidan ixtiyoriy rol tanlash imkonini berish;
- bolalar qoʻgʻirchoqlarni mustaqil yasashi, kiyim tanlashi uchun sharoit yaratish.

Tayyorlov guruhlarida

- bolalarning teatr haqidagi dastlabki bilimlarini mustahkamlash;
- bolalarga qoʻgʻirchoq teatri badiiy sanʼatning turlaridan biri ekanini tushuntirish;
- bolalarda teatr sanʼatiga qiziqishni uygʻotish.

Bu oʻrinda sevimli ertaklar asosida sahnalashtiriladigan ayrim turdagi teatr tomoshalari uchun qahramonlar va personajlarni tayyorlash jarayoni toʻgʻrisida soʻz yuritiladi.

1. Ertaklarni sahnalashtirish uchun pahmoq qoʻgʻirchoqlarni yasash. Soʻnggi yillarda maktabgacha yoshdagi bolalar oʻrtasida tobora ommalashayotgan qoʻgʻirchoq teatri turlari orasida kovralinga yopishtiriladigan qoʻgʻirchoqlar teatri sanaladi.

Pahmoq qoʻgʻirchoqlar yordamida ertaklarni sahnalashtirish uchun personajlar quyidagicha tayyorlanadi:

- 1-bosqich: personajlar karton qogʻozdan qirqib olinadi;
- 2-bosqich: karton qogʻozlar rangli boʻyoq yoki guash yordamida boʻyaladi;
- 3-bosqich: tayyor boʻlgan personajlar ertak matni bilan birga papkaga solib qoʻyiladi.

Bu turdagi teatr tomoshasi uchun pahmoq qoʻgʻirchoqlar tayyorlanadi. Teatrning oʻziga xosligi shundaki, bolalar ertak qahramonlarini bevosita koʻra olmaydi. Buning sababli personajlar pahmoq ekran (kovralin)ga yopishtiriladi.

Balandligi 40 sm, uzunligi 60 sm boʻlgan qalin karton yoki faner ustiga pahmoq gazlama (kovralin) yopishtirilib, ekran "hosil qilinadi". Personajlar ana shu ekranga yopishtiriladi.

Ertak mavzusiga mos keladigan detallar turli xomashyolardan qirqib olinadi va yelimlanadi. Bunda, dastlab, bolalarga jihozlash uslubi tarbiyachi tomonidan bajarib koʻrsatiladi.



Qo'g'irchoqlarning bosh qismi uchun turli "qutichalar" – qaymoq, yogurt yoki sutdan bo'shagan kubik, silindr shaklidagi idishlardan tayyorlanadi. Eng muhimi, bu idish ichiga bolalarning qo'li sig'ishi kerak.

Sahna uchun qo'g'irchoqlar ikki usulda yasaladi:

- 1) qahramonning to'liq holdagi figurasi;
- 2) qahramonning faqatgina bosh qismi obrazi.

Tayyor figuralarga matodan yubkalar tikiladi. Bolalarning qo'l barmoqlari ushbu figuralarni ifodalovchi qutichalar ichiga berkitiladi.

Bunday qo'g'irchoqlarni "gapirtirish uchun" og'iz sifatida qutichada tuynuk hosil qilinadi. Qutichaning o'rtasidagi bu tuynukdan ko'rsatgich barmoq bir oz chiqarib qimirlatilsa, qo'g'irchoq go'yo gapirayotganday tuyuladi.

2. Ertaklarni sahnalashtirish uchun sakrovchi o'yinchoqlarni yasash. Bunday o'yinchoqlarni yasash uchun dumaloq rezina kerak bo'ladi. Qog'oz bo'laklaridan uyum hosil qilinadi. Bu uyumdan turli ertak qahramonlarining bosh qismi yasaladi. Bu kabi o'yinchoqlarni yasashda qog'oz, turli mato, paralon, sim kerak bo'ladi. Bolalar hayotini muhofaza qilish maqsadida uchi o'tkir simlar, to'g'nog'ich, skrepka va boshqa shikastlantiruvchi asboblardan ehtiyot bo'lish kerak.

Sakrovchi o'yinchoqlarni yasash uchun kichik kartonga shaxs va hayvonlarning tasviri chiziladi, ammo, oyoqlar chizilmaydi. Chizilgan tasvir qirqib olinadi. Figuralar bolalar kaftining orqa tomoniga rezina bilan mustahkamlanadi, ko'rsatgich yoki o'rta barmoqqa atir shishasining qopqog'i yordamida tayyorlangan o'yinchoq yoki qo'g'irchoq kiygiziladi. Barmoqlar stol ustida harakatga keltiriladi. Katta va tayyorlov guruhlarning bolalari bunday o'yinchoqlarni mustaqil tayyorlashlari mumkin.

3. Ertaklarni sahnalashtirish uchun qo'lqop (barmoqli yoki barmoqsiz qo'lqop) qo'g'irchoqlarini yasash. Bolalarning eski qo'lqoplari shu nomdagi qo'g'irchoqlarni yasash uchun xomashyo bo'lib xizmat qiladi. Bunday qo'g'irchoqlarni ham bolalarning o'zlari yasashlari mumkin.

Qo'lqopning asosiy qismi qo'g'irchoqning boshi, katta barmoq esa dumi vazifasini bajaradi. Qo'lqopni to'lig'icha muayyan hayvonga aylantirib olish ham mumkin. Bunda katta barmoq dum vazifasini o'taydi, qo'lqopning asosiy qismi qo'g'irchoqning tanasi bo'ladi. Unga yetishmayotgan bosh va boshqa detallar qo'shimcha ravishda birlashtiriladi.

Bordi-yu, qo'lqop topilmasa, qo'g'irchoqlarni yasashda to'qilgan buyum yoki matodan foydalaniladi. Ba'zan ertaklarning qahramonlarini, masalan, kuchukcha, mushukcha, quyuncha, bo'ri, tulkichalarni ikkita qo'lqopdan yasash ham mumkin. Bu nihoyatda oson.

Qo'lqopning katta barmog'i dum bo'ladi, uning ortiqcha qismlari tikib tashlanadi. Qahramonlarning ayrim detallarini jihozlashda tugmachalar, dur donachalarini ishlatish mumkin¹⁰⁸.

II. Stol teatrini sahnalashtirish. Bolalar bilan birgalikda ertaklarni sahnalashtirish orqali ertak qahramonlarining ("Oltin tarvuz", "Zumrad va Qimmat") o'ziga xos


¹⁰⁸ Танлов ўқув модули / Ўқув-услугий мажмуа. Тузув.: Л.Р.Миржалолова, О.А.Махмудова, Д.Махмудова. – Т.: ТДПУ ҳузуридаги ХТХҚТМОХМ, 2018, 35-39-б.



xususiyatlari aniqlanadi, ularga mos xatti-harakatlarni ijroda qanday aks ettirish kerakligi tushuntiriladi. Bolalarning sahna nutqi (ifodali, aniq talaffuz), sahnadagi harakat erkinligi, soʻz va harakat uygʻunligiga ega boʻlishlariga diqqat qaratiladi.

Stol teatri – stolning yuzasi bolalar tomoshasi uchun sahna sifatida tanlanadigan teatr.

Stol teatrining bir necha turi mavjud (21-rasm):



21-rasm. Stol teatrining asosiy turlari

Stol teatrining asosiy turlari quyidagi koʻrinishlarga ega boʻladi (7-jadval):

7-jadval

Stol teatri asosiy turlarining koʻrinishlari¹⁰⁹

		
Qutidagi stol teatri	Shirmasiz stol teatri	Shirmali stol teatri
		
Likobcha va stakanli stol teatri	Tayoqchali stol teatri	Fetr (junli yoki sintetik mato)li stol teatri

¹⁰⁹ Жадвалда берилган расмлар қуйидаги манбадан олинди: Ширма для настольного театра // <https://www.maam.ru/obrazovanie/nastolnyj-teatr/page4.html>.



Stol teatrining o'ziga xosligi shundaki, o'yinning barcha atributlarini stol ustida joylashtira olish uchun qahramonlar va personajlar kichik hajmli bo'lishi kerak. Shu bilan birga tabiiy materiallardan tayyorlangan qahramonlar va personajlarni joylashtirish uchun qutiga ega bo'lish zarur¹¹⁰.

Tanlangan ertak ovoz chiqarib o'qiladi, qahramonlar, ularning harakatlari, munosabatlari tahlil qilinadi. Ertak bolalarda qahramonlarning xatti-harakatini muhokama qilib, baholash ko'nikmasini o'stirishi bilan birga yaxshilikning doimo g'alaba qozonishiga ishonch uyg'otadi. Bolalar ertakni tahlil qilish jarayonida "Kishilardagi qanday sifatlar sizga yoqdi? (yoki yoqmadi?)", "Nima uchun?", "... nima uchun jazolandi? (yoki rag'batlantirildi?)", "Nima uchun ertakdagi ba'zi qahramonlarga hatto tabiat kuchlari ham yordam beradi? (yoki ba'zilaridan yuz o'giradi?)" kabi savollarga javob topadi.

Spektakldagi barcha ishtirokchilarning rollari va majburiyatlari taqsimlanadi. Bir yoki ikkita tarbiyalanuvchining chiqishni ko'rsatishi mumkin. Bu bir vaqtning o'zida sahnadagi raqamlar soniga va ularning harakatlariga bog'liq.

Matn ustida ishlash oxirida dizayn tartibga solinadi va mashqlar boshlanadi.

Mashqlar bolalarning harakatlari samarali bo'lgunga qadar davom etadi, shundan so'ng spektakl tomoshabinlarga ko'rsatilishi mumkin.

Tomosha bolalar oldida stolga o'tirishadi. Ijrochi bolalarning qo'llarini yopish uchun kartondan uzunligi 40-50 sm, balandligi 8 sm bo'lgan to'siq qo'yiladi.

Sahnaning umumiy dizayniga qarab, fon monoxromatik (bir xil) yoki bir necha ranglarga bo'yalgan bo'ladi.

Sahnadagi harakatlar qanchalik ko'p bo'lsa, spektakl shunchalik qiziqarli bo'ladi. Shuning uchun, figuralar sahnaning yaxlit maydoni bo'ylab harakatlanishi, tomoshabinlarga ikkala tomoni bilan burilishi, istalgan yo'nalishda kelishi va ketishi zarur.

Auditoriyadagi bolalar uchun stullarning birinchi qatori 3-4 m masofada joylashtirilishi kerak. Dastlabki ikki qatorda sakkizdan ortiq stul qo'yish shart emas, aks holda chekkada o'tirgan bolalar sahnani yaxlit holda ko'ra olmaydi. Keyingi qatorlarga 10 ta, orqaga esa 12-14 ta stulni qo'yish mumkin.

III. Ertak qahramonlarini – karton teatrini sahnalashtirish jihozlari.

Qo'g'irchoq teatrining yana bir turi karton deb ataladi, chunki undagi hamma narsa kartondan iborat – sahna, manzara, fon va figuralar. Spektaklni namoyish qilish uchun teatr stol ustiga qo'yiladi.

Karton teatri – ertak qahramonlari, barcha personajlar kartondan yasaladigan teatr.

Boshqa qo'g'irchoq teatrlari kabi karton teatri ham bir necha ko'rinishga ega bo'ladi (8-jadval)¹¹¹:

¹¹⁰ Виды театров в детском саду: традиционные и нетрадиционные // <https://infourok.ru/metodicheskie-rekomendacii-vidi-teatrov-v-detskom-sadu-3713907.html>.

¹¹¹ Картонный театр // <https://wowtoys.by/products/kukolnyj-teatr-iz-kartona.html>; Картонные фигурки для кукольного театра "Герои сказок" - Колобок Сфера // <https://sbermegamarket.ru/catalog/details/kartonnye-figurki-dlya-kukolnogo-teatra-geroi-skazok-kolobok-sfera-1000255195>.

Karton teatrining ko‘rinishlari

		
<p>To‘rtta dekoratsiyali karton teatri</p>	<p>Kartondan yasalgan ertak qahramonlari</p>	<p>“Uy” shaklidagi karton teatri</p>

Ushbu teatr mahsulotlari ham tayyor holda sotiladi. Ammo sahnaning kattaligi va figuralari bir guruh bolalarga ko‘rsatish uchun kichik. Shuning uchun tomosha rekvizitlarini bolalarning o‘zlari tayyorlagani ma’qul. Bunday sahna va figuralar hajm jihatidan ancha katta bo‘ladi.

Karton teatrlarini sahnalashtirishda kartondan yasalgan yassi va hajmsiz qo‘g‘irchoqlar ishtirok etadi. Bir tomonli shakllar ip, sim va shu kabilar yordamida faqat bir tomonga harakat qiladi. Kartoning ikkinchi tomoniga ikkinchi rasm yopishtiriladi, shu bilan figura tayyor hisoblanadi. Shundan so‘ng yarimta g‘altak va cho‘p orqali balandligi 9-10 sm bo‘lgan taglik tayyorlanadi. Cho‘pning uchiga figura o‘rnatiladi, g‘altak yiqilib tushmasligi uchun uning tagiga doira qilib qirqilgan karton yopishtiriladi.

Karton teatrlarini sahnalashtirishda yuqoridan turib ip, sim bilan boshqariladigan shakllardan ham foydalanish mumkin. Bunday qo‘g‘irchoqlar yengil harakat qiladi, burila oladi.

Jonivorlar shakllarini bolalar badiiy kitoblardan kalkaga ko‘chirishlari mumkin. Kalkadagi rasmdan nusxa olinib, ikkita oq qog‘ozga tushiriladi. Tushirilgan rasmlar rangli qalam bilan bo‘yaladi, bittasi kartonga yopishtiriladi va karton shu rasm konturi bo‘ylab qirqiladi.

Sahna uch bo‘lak karton yoki fanerdan yasaladi. Uning asosiy qismlari: orqa devor, pol va oldi peshtoqli devordir.

Devorlarga ikki tomondan karton polosalar yopishtiriladi, bu polosalarga dekoratsiyalar osiladi. Dekoratsiyalarni ularning o‘zlaridan katta va qalin kartonga yopishtirish kerak. Chunki dekoratsiyalar yopishtirilganda ular qirqilib ketishi mumkin.

Pardaning rasmi ham o‘zidan kattaroq kartonga yopishtiriladi, bu uni ko‘tarish va tushirishga qulaydir.

Sahna (shirma)ning tagligi ko‘rinmasligi zarur. Buning uchun uni bo‘yash yoki unga rangli qog‘oz yopishtirish talab qilinadi.



Ayrim spektakllar uchun harakatlanuvchi dekoratsiyalar kerak bo'ladi. Bunday dekoratsiyalar figuralarning tez harakat qilayotganligini bildirish uchun qo'llaniladi.

Shirmadan 20-22 sm oraliq dekoratsiya o'rnatiladi. Agarda tomoshada o'rmon, dala, daryo, tog'larni tasvirlash lozim bo'lsa, ularga mos keladigan suratni topib, unga oq ramka qilish, rasmni kartonga yopishtirish kerak. Dekoratsiyani yarim doira shaklida egish ham mumkin.

Sahna (shirma) stol ustiga qo'yiladi, uning orqasida esa figuralarni yurgazadigan va ular uchun gapiradigan bolalar turadi.

Agarda pesa davomida dekoratsiya o'zgarib turishi kerak bo'lsa, ularni kitob shaklida birlashtirilgan kartonga yopishtirilishi lozim. Uning har bir sahifasidan bitta dekoratsiya joy oladi¹¹².

Harakatlanuvchi dekoratsiya 3-4 metrli qog'oz lentadan ishlanib, orqa devorga qilingan teshikdan o'tkaziladi va kerak vaqtda tortib, harakatga keltiriladi. Aytaylik, figura chap tomonga harakat qildirilmoqchi bo'lsa, dekoratsiya o'ng tomonga tortilib tez harakat qilayotgandek tasavvur hosil qilinadi.

Sahnani o'zgacha shaklda qurish ham mumkin, bunday holda uning old qismi trilyajga o'xshaydi. Unda peshtoq – sahna oynasi qirg'iladi. Bunday holda oyna orqasida undan 2-3 sm oraliqda ingichka dumaloq cho'p o'rnatiladi. Cho'pni o'rnatishdan oldin unga 10 tacha sim aylanalar kirgizilib, ularga suriladigan parda o'rnatiladi. Parda burma bo'lishi uchun tanlangan mato kengroq bo'lishi kerak.

Bunday qurilgan sahna dekoratsiyalar ko'p qavatli parda ko'rinishiga ega bo'ladi yoki karton doiraga joylashadi. Bu doira ingichka mixda aylanib, dekoratsiyani tezda almashtirish, ba'zi hollarda harakatlanuvchi dekoratsiyani ko'rsatish imkonini beradi.

Sahnani yoritish katta ahamiyatga ega. Ularni shunday joylashtirish kerakki, ular sahnani yoritсин, ammo uning nuri tomoshabin-bolalarga tushmasin.

Musiqqa barcha sahnalashtirilgan postanovkalarining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, spektakl musiqali kirishdan boshlanadi. Musiqali tanaffus vaqtida dekoratsiya almashadi. Tovush va yorug'lik effekti bilan birikkan musiqqa soya teatri tomoshalarida ham, stol teatrlarini sahnalashtirishda ham mukammal badiiy tasvirni yaratish imkonini beradi. Bu ko'rinishlarda ovozgga taqlid qilish, xo'rozning qichqirishi, mushukning miyovlashi, ayiqning o'kirishi hamda shovqin effektlari-yog'ayotgan yomg'ir ovozi, parovozning pishillashi va shu kabilardan foydalaniladi¹¹³.

IV. Barmoq teatrlarini sahnalashtirish. Bolalar o'z qo'li bilan yasagan o'yinchoqlardan teatr, stol va barmoq teatrlarini sahnalashtirishda foydalanishi mumkin. Bunda bolalar oddiy tomoshabin bo'lib qolmasdan, ular mehnat qiluvchi ijodkorga aylanib, kichik guruh bolalariga sahna qo'yib berish bilan ularni xursand qiladi.


Barmoq teatri – qo'g'irchoqlar, hayvonlar, qandaydir predmetlardan iborat personaj-figuralar to'plami.

Boshqa qo'g'irchoq teatrlari kabi karton teatri ham bir necha ko'rinishga ega bo'ladi (9-jadval):

¹¹² Мактабгача таълимда ижодий фаолият асослари / Маърузалар матни. Тузувчи: М.Норбошева. – Термиз: Термиз ДУ, 2018. – 14-15-б.

¹¹³ Ўша манба. – 33-35-б.

Barmoq teatrining ko'rishlari¹¹⁴

		
Shirmali barmoq teatri	Matoli barmoq teatri personajlari to'lam	Matoli barmoq teatri personajlari
		
Ipdan to'qilgan barmoq teatri personaji	Mato va paxtadan yasalgan barmoq teatri personajlari	Matoli barmoq teatri personajlari
		
Matoli barmoq teatri personajlari	Kkarton va matoli barmoq teatri personajlari	Matoli barmoq teatri personajlari

Personaj-figuralar yordamida uncha katta hajmga ega bo'lmagan hikoya va barcha bolalar uchun sevimli bo'lgan ertaklarning mazmuni harakatlar yordamida ifodalanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har bir tarbiyalanuvchi o'zi istagan va so'zlarini yod olgan figurani barmog'iga "kiygan" holda rol ijro qila oladi.

¹¹⁴ Жадвалда берилган расмлар куйидаги манбадан олинди: Здвижкова В. Пальчиковкй театр своими руками//<https://www.maam.ru/detskijasad/palchikovyi-teatr-svoimi-rukami-391921.html>.



Barmoq teatrida ishtirok etadigan figuralar bolalarda mayda motorika (harakat va harakatlar yoʻnalishi)ni belgilash malakasini rivojlantiradi. Shuningdek, nutqning oʻsishi, lugʻat boyligini koʻpayishiga yordam beradi¹¹⁵.

Barmoq teatri qahramonlarini qogʻoz va yumshoq matodan yasash mumkin. Qogʻozdan konus va silindr shaklida barmoqqa kiyiladigan shaxs, hayvonlarning tasviri tayyorlanadi hamda uzuk shaklida yasalgan qogʻoz xalqaga yelimplab, barmoqqa kiyib olinadi.

Ertak qahramonlarini kichik qutichalardan ham yasash mumkin. Qutichalarning tag tomonidan barmoqni kirgizish uchun joy tayyorlab, qutichaga xohlagan qiyofa berish mumkin. Quticha, masalan: gugurt qutisi, kublar, aylana shakldagi qutichalar va boshqalarning qulay tomonidan barmoq sigʻadigan kichik teshikcha qilib qoʻyiladi. Barmoq teatrlarining sahnalashtirish uchun turli matolardan foydalaniladi. Bunda gazlamaning sitilib ketmaydigan xili tanlanadi va uning teskari tomonidan tikib, soʻngra oʻngiga agʻdariladi, qolgan joyi tikib chiqiladi.

Bolalar andozaning teskari tomonidan koʻz, qosh, burun, ogʻiz, soch, jiyak, lenta va toʻrli bezaklarni mustaqil oʻzlari yopishtiradi.

Barmoq teatrini qogʻoz quyqasidan ham yasash mumkin. Bunda qogʻozdan silindr shakli yasaladi. Barmoqqa mos qilib qogʻoz qoldiqlarini silindrga kirgizib, coʻng istalgan shaklni yasash mumkin. Yopishtirilgan qogʻoz qurigandan keyin bosh qismlarini boʻyash lozim.

Baʼzi detallarni qogʻozdan qirqib, yelimplab qoʻysa ham boʻladi. Masalan: quloqlarni, koʻzlarni tugmachadan, matolardan, turli iplardan esa sochlarini qilish mumkin. Bunday oʻyinchoqlarni katta va tayyorlov guruhi bolalari mustaqil bajaradi¹¹⁶.

Demak, maktabgacha taʼlim tashkilotlarining faoliyatida ertaklarni sahnalashtirish bolalar hayotini zavqli boʻlishiga yordam berishi bilan birga ularning badiiy-estetik didi, idroki, qobiliyati va dunyoqarashini rivojlantirishga yordam beradi. Bu jarayonda, ayniqsa, stol va barmoq teatrlarini sahnalashtirishga diqqatni qaratish lozim. Zero, bu ikki turdagi qoʻgʻirchoq teatrlari bolalarda mayda motorika harakatlarini faollashtiradi. Natijada ular faol harakatlanish, harakat yoʻnalishlarini toʻgʻri belgilashni oʻrganadi.

Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida teatr faoliyatini olib borish sahna jihozlariga ega boʻlishni taqozo etadi. Hozirgi kunda ishlab chiqaruvchilar tomonidan qoʻgʻirchoq teatrining barcha turlari boʻyicha tayyor metodik ishlanmalarga asoslangan mahsulotlarni sotuvga chiqarilmoqda. Ulardan ham maktabgacha taʼlim tashkilotlarida teatr faoliyatini tashkil etishda oʻrinli foydalanish mumkin. Ammo, tarbiyachi yoki musiqa rahbari boshchiligida bolalarning oʻzlari tomonidan teatr jihozlarini tayyorlash muhimdir. Binobarin, ularni tayyorlash chogʻida bolalarda ijodiy qobiliyat va tafakkur rivojlanadi.

¹¹⁵ Батракова Е. Пальчиковый театр как средство развития речи детей дошкольного возраста // <https://www.maam.ru/detskijasad/palchikovyi-teatr-kak-sredstvo-razvitija-rechi-detei-doshkolnogo-vozrasta.html>.

¹¹⁶ Танлов ўқув модули / Ўқув-услугий мажмуа. Тузув.: Л.Р.Миржалолова, О.А.Махмудова, Д.Махмудова. – Т: ТДПУ ҳузуридаги ХТХҚТМОХМ, 2018. – 35-37-б.

Nazorat savollari:

1. Ertaklarni sahnalashtirishda kichik guruhlarda nimalarga e'tibor qaratiladi?
2. Ertaklarni sahnalashtirishda tayyorlov guruhlarining tarbiyachi qanday vazifani bajarishi zarur?
3. Pahmoq qo'g'irchoqlar yordamida ertaklarni sahnalashtirish qanday bosqichlardan iborat?
4. Pahmoq qo'g'irchoqlar yordamida ertaklarni sahnalashtirish uchun sahna qanday tayyorlanadi?
5. Pahmoq qo'g'irchoqlar yordamida ertaklarni sahnalashtirishda qo'g'irchoqlar qanday usullarda yasaladi?
6. Sakrovchi o'yinchoqlarni yasashda asosiy xomashyo nima?
7. Stol teatri qanday teatr?
8. Stol teatrining nechta turi mavjud?
9. Stol teatri tomoshasida tomoshabin-bolalar uchun stullar qanday joylashtiriladi?
10. Karton teatrining o'ziga xos xususiyati nimadan iborat?
11. Karton teatrida dekoratsiya shirmadan qancha masofada o'rnatiladi?
12. Barmoq teatri bolalar uchun qanday ahamiyatga ega?

Test topshiriqlari:

1. Pahmoq qo'g'irchoqlar yordamida ertaklarni sahnalashtirish... dan iborat.
 - a) 5 bosqich;
 - b) 4 bosqich;
 - c) 3 bosqich;**
 - d) 2 bosqich.
2. Pahmoq ekran (kovralin) ... diametrga ega.
 - a) 40/60;**
 - b) 30/50;
 - c) 20/40;
 - d) 10/30.
3. 1) qahramonning to'liq holdagi figurasi; 2) qahramonning faqatgina bosh qismi obrazi. Ular stol teatri uchun qo'g'irchoqlarni yasash ...
 - a) shakllari;
 - b) metodlari;
 - c) vositalari;
 - d) usullari.**
4. Sakrovchi o'yinchoqlarni yasashda zarur bo'lgan eng muhim xomashyo – bu...
 - a) to'quv iplari;
 - b) qog'oz uyumlari;
 - c) dumaloq rezina;**
 - d) yumshoq paxta.
5. Qo'lqop qo'g'irchoqlarini yasashda katta barmoq ... vazifasini bajaradi.
 - a) oyoq;



b) qo'l;

c) yuz;

d) dum.

6. Stol teatrida stolning bolalar tomosha uchun sahna bo'ladi.

a) yuzasi;

b) oyoq;

c) yon tomoni;

d) cheti.

7. Stol teatrining ... turi mavjud.

a) 7 ta;

b) 5 ta;

c) 3 ta;

d) 2 ta.

8. Sahnadagi ...ning ko'pligi spektaklni qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi.

a) tomoshabinlar;

b) dekoratsiyalar;

c) personajlar;

d) harakatlar.

9. Karton teatrlarida kartondan yasalgan ... qo'g'irchoqlar ishtirok etadi.

a) yassi va hajmli;

b) yassi va hajmsiz;

c) yumaloq va hajmli;

d) yumaloq va hajmsiz.

10. Barmoq teatri qahramonlari ... dan yasaladi.

a) sim va qattiq mato;

b) sim va yumshoq mato;

c) qog'oz va yumshoq mato;

d) qog'oz va qattiq mato.

Amaliy topshiriqlar:

1-topshiriq. Kichik guruhda stol teatri uchun sahna (shirma)ni tayyorlang.

2-topshiriq. Bolalarning sevimli ertagi asosida karton teatri uchun qahramonlar obrazini yasang va taqdim eting.

3-topshiriq. Kichik guruhda barmoq teatri uchun personajlarni yasang va ularni taqdim qiling.



IV BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQ MADANIYATINI HAMDA DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH

4.1. Badiiy adabiyot vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni san'atga bo'lgan qiziqshlarni shakllantirish

Reja:

1. Badiiy adabiyot vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni san'atga bo'lgan qiziqshlarni shakllantirish.
2. Bolalarni ma'naviy va estetik ruhda tarbiyalashda badiiy adabiyotning o'rni.
3. Bolalarni axloqiy-estetik ruhda tarbiyalashda kichik folklor janrlari namunalardan foydalanish.

Tayanch tushunchalar: adabiyot, badiiy adabiyot, vosita, badiiy adabiyot vositasi, maktabgacha yoshdagi bolalar, san'at, qiziqsh, san'atga bo'lgan qiziqsh, san'atga bo'lgan qiziqshlarni shakllantirish, badiiy adabiyot vositasida san'atga bo'lgan qiziqshlarni shakllantirish, ma'naviy ruhda shakllantirish, estetik ruhda shakllantirish, folklor, folklor janrlari, namuna, foydalanish, kichik folklor janrlari namunalaridan foydalansh.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi. – T: YUNISEF, 2018, 72 b.
2. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti // <https://lex.uz/docs/5179335?query>.
3. Maktabgacha pedagogika / Mashg'ulotlik. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpulatova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova. – T: "Tafakkur" nashriyoti, 2019, 688 b.
4. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. –T: "Fan va texnologiya", 2012, 268 b.

I. Badiiy adabiyot vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni san'atga bo'lgan qiziqshlarni shakllantirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarda san'atga bo'lgan qiziqshni shakllantirishda badiiy adabiyot eng ta'sirchan omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Badiiy adabiyot yordamida bolalarda kitob o'qishning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyati, shaxsga zavq bag'ishlovchi, shuningdek, azal-azaldan qadrlanib keladigan manba ekanligi to'g'risidagi tushunchalar hosil qilinadi. Tarbiyachi bolalarni izchil badiiy adabiyotlar bilan tanishtirib borara ekan, ularda kitob o'qish kundalik odatga aylanadi. Shu bilan birga bolalar kitoblarni asrashni o'rganadi.

Bolalarga kattalar – tarbiyachi va ota-onalar tomonidan pedagogik ta'sir ko'rsatish asosida ularda kitobga, kitob o'qishga bo'lgan ijobiy munosabat shakllantiriladi.



Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyalanuvchilarida badiiy adabiyotga, san'atga bo'lgan qiziqishni rivojlantirishda tarbiyachi, musiqa rahbari va ota-onalar muayyan vaqt oralig'ida o'z faoliyati samaradorligini tahlil qilib borishlari zarur. Bosib o'tilgan jarayonni tahliliy o'rganish tarbiyachi, musiqa rahbari va ota-onalarga bolalarda kitob o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirish yo'lida erishilgan yutuq, yo'l qo'yilgan kamchiliklardan xabardor bo'lish, yutuqlarni boyitish, kamchiliklarni barataraf etish yo'lida amaliy harakatni tashkil qilish, istiqbol loyihalarini ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.

Badiiy adabiyot vositasida bolalarning san'atga bo'lgan qiziqishini shakllantirishda bolalar adabiyoti muhim o'rin tutadi.

Badiiy adabiyot – san'atning mustaqil turi bo'lib, unda voqelik badiiy ifodalar, to'qima obrazlar yordamida qahramonlar xarakterining to'qnashuvi asosida yoritiladi.

Bolalar adabiyoti – bolalar va o'smirlar (15-16 yoshgacha bo'lganlar) uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop va publisistik asarlar majmui.

Bu turdagi adabiyotlar maxsus ishlab chiqiladi. Bolalar adabiyotida badiiy tasvirlar orqali ifodalanadi. Shu jihatiga ko'ra ular bolalarni hissiy, ruhiy, axloqiy va estetik jihatdan tarbiyalash imkoniyatiga ega.

Jahon miqyosida bolalar adabiyotining eng ommabop turi – bolalar badiiy adabiyotlari sanaladi. Bu turdagi asarlarning yorqin namunalari sifatida Aleksandr Pushkin, Charl Perro, Gans Kristian Andersen, Yakov va Vilgelm Grimmlarning mashhur ertaklari, shuningdek, Daniel Defoning "Robinzon Kruzo", Migel de Servantesning "Don Kixot", Jonatan Sviftning "Gulliverning sayohati", Mark Tvenning "Tom Soyerning sarguzashtlari", Astrid Lindgrenning "Karlson va Mittivoy" kabilarni aytib o'tish mumkin.

Sharq yozma adabiyotida ham bolalar uchun asarlarni yaratishda e'tibor qaratilgan. Shu maqsadda "Pandnoma", "Mav'izatnoma", "Nasihatnoma", "Axloq kitoblari" singari nomlar yaratilgan asarlar bolalar adabiyotining dastlabki namunalari hisoblanadi. Masalan, Kaykovusning "Qobusnoma" ("Mav'izatnomai Kaykovus"), Shayx Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston", Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" asarlari shular jumlasidandir.

Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror", "Mantiq ut-tayr" va "Mahub ul-qulub" asarlari, Muhammad Sharif Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarlari ham o'zbek bolalar adabiyotining mumtoz namunalari hisoblanadi.

Bolalar adabiyotining shakllanishi barcha xalqlarda maktabchilik faoliyati, bolalarni o'qitish va ta'lim berish bilan uzviy bog'liq holda kechgan.

Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida yuzaga kelgan jadidchilik harakati doirasida bolalar uchun badiiy adabiyotlar ham yaratilgan. Jumladan, Saidrasul Aziziy, Munavvar Qori Abdurashidxon o'g'li, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Mahmud Behbudiy kabi ma'rifatparvarlar tomonidan yaratilgan "Alifbo" va "O'qish kitoblari" o'z ichiga xalq og'zaki ijodi namunalari va ma'rifatparvarlar tomonidan yaratilgan badiiy-adabiy ijod namunalari olgan.



O'zbekistonda XX asrning 20-yillarida bolalar uchun nasriy va nazmiy asarlar yaratadigan adiblar guruhi shakllandi. Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, G'ayratiy, Shokir Sulaymon, Ilyos Muslim, G'ulom Zafariy, Sadriddin Ayniy, Elbek, Zafar Diyor, Sulton Jo'ra, Qudrat Hikmat, Quddus Muhammadiy, Shukur Sadulla, Hakim Nazir, Po'lat Mo'min kabi ijodkorlarning asarlari o'zbek bolalar adabiyotining rivojida muhim o'rin tutadi.

Shuni alohida qayd etib o'tish joiz, o'zbek bolalar adabiyotida ham ertak janri keng rivojlandi. Hamid Olimjonning "Oygul bilan Baxtiyor", "Semurg' yoki Parizod va Bunyod", Mirtemirning "Ajdar", Shukur Sa'dullaning "Uch ayiq", "Ayyor chumchuq", Zafar Diyorning "Yangi ertak", "Toshxon bilan Moshxon", "Tulkining hiylasi", Sulton Jo'raning "Zangori gilam", "Qaldirg'och" singari ertaklari xalq og'zaki ijodi an'analari asosida yaratilgan. XX asrning 30-yillaridan boshlab o'zbek bolalar she'riyati ham rivojlandi.

XX asrning 40-60-yillarida o'zbek bolalar adabiyoti yanada rivojlandi. Bu davrda Nosir Fozilov, Xudoyberdi To'xtaboyev, Tolib Yo'ldosh, Farhod Musajonov, Latif Mahmudov kabi adiblarning sa'i-harakatlari bilan bolalar uchun bir-biridan qiziqarli asarlar yaratildi. Xuddi shu davrda Uyg'un, Mirtemir, Asqad Muxtor, Sayd Ahmad, Shuhrat, Mirzakalon Ismoilov, Mirkarim Osim singari yoshi katta ijodkorlar ham yosh bolalar uchun turkum asarlarni taqdim qildi. Ayniqsa, Quddus Muhammadiyning beshta kitobdan iborat "Tabiat alifbosi" bolalarni tabiatga, hayvonot va o'simliklar dunyosiga mehr-muhabbat ruhida tarbiyaladi.

XX asrning 50-60-yillarida G'afur G'ulomning "Shum bola", Oybekning "Bolalik", Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar", Nazir Safarovning "Ko'rgan-kechirganlarim", Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sehrli qalpoqcha", "Sariq devni minib", "Sariq devning o'limi", Hakim Nazirning "So'nmas chaqmoqlar", "Yonar daryo", "Kichkintoy" kabi asarlari eng sara asarlar qanchadan-qancha o'rin oldi¹¹⁷.

Bolalar adabiyotida kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallangan badiiy adabiyotlar o'ziga xos o'rin tutadi.

Maktab yoshidagi bolalar uchun badiiy adabiyotlar – mazkur yoshdagi bolalarning yosh, psixologik, fiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda yaratilgan kichik hajmli badiiy asarlar bo'lib, ular bolalarga badiiy-ifodaviy obrazlar orqali borliq, ijtimoiy munosabatlar, axloqiy qoidalar to'g'risida ma'lumotlar beradi.

Bolalar adabiyotining boshlang'ich asosi – xalq og'zaki ijodi sanaladi. Jumladan, topishmoq, tez aytish, o'yin qo'shiqlari, rivoyat, afsona, ertak, maqol, masal va dostonlar xalq og'zaki ijodining namunalari sifatida bolalarda borliq haqidagi tasavvurni shakllantiradi, ularni fikrlashga o'rgatadi, nutqini rivojlantiradi.

Ko'rsatib o'tilgan xalq og'zaki ijodi namunalari qadim-qadimdan bolalarni ijtimoiy munosabatga tayyorlashga xizmat qilgan.

Kitobxonning yoshini hisobga olish bolalar adabiyotining eng asosiy xususiyatlaridan biridir. Xususan, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun badiiy

¹¹⁷ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Бешик – Гидрофизика / 2-том. Бош тахрир ҳайъати аъзолари: М.Аминов ва бошқ. – Т: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2001, 125-б.



adabiyotlarni yaratishda ko'rgazmalilik, asar mazmunini tasviriy vositalar – rasmlar, obrazlar orqali yoritishga e'tibor qaratiladi.

Kichik yoshdagi bolalar badiiy asarlarining yana bir xususiyati uning harakatga boyligidir. Asarlar sujeti voqealarning tezkor, qiziqarli, fantaziyaga, yumorga boy ravishda yechilishini talab qiladi.

Pedagogik faoliyatda bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olish ular uchun badiiy asarlarni to'g'ri tanlashga imkon beradi. Zero, yosh xususiyatiga ko'ra ushbu yoshdagi bolalar uchun: kichik hajmli, qiziqarli, rasmlar hamda yorqin ranglar bilan bezatilgan, o'ziga xos original shaklga ega badiiy asarlarni tanlash taqozo etiladi.

Tarbiyachi, musiqa rahbari va ota-onalar faoliyatini izchil, uzluksizlik, tizim tashkil qilish bolalarda kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatning davomiy va samarali tashkil etilishini ta'minlaydi. Binobarin, aynan izchillik, uzluksizlik, tizimlilik negizida jarayon tadrijiy tarzda rivojlanadi, mavjud omillarning ta'siri va imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish uchun zarur pedagogik sharoit yaratiladi.

Bolalarni badiiy adabiyotlar bilan tanishtirishda maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan oilalar o'rtasida o'zaro hamkorlikka erishish zarur. Bu hamkorlik bolalarning qiziqishi va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ularni kitob o'qishga, kitob o'qishdan zavqlanishga, asar mazmunini tushunishga va kitob o'qishdan olgan taassurotlarini atrofdegilar bilan o'rtoqlashishga odatlantiradi.

Yosh xususiyatlariga ko'ra maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy va tabiiy borliqqa oid axborotlarni ko'z orqali samarali qabul qiladi. Shunga ko'ra maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida kitob o'qish bilan birga asar mazmuni, sujetini suratlar, plakatlar, asarning o'zi va taqdimot asosida yoritish maqsadga muvofiq sanaladi. Binobarin, vizualizatsiya bolalarning asar voqeligi haqidagi tasavvurlarining aniq, to'liq bo'lishiga yordam beradi.

Bolalar yosh, psixologik va fiziologik xususiyatlarga ko'ra serharakat, beqaror diqqatga ega, shu bilan birga matn, tasvir, ovoz ko'rinishdagi ko'plab axborotlarni qabul qilishga qiziquvchan bo'ladi. Shu sababli muayyan vaqtda ularning diqqatini biror-bir obyektga "ushlab turish" oson kechmaydi. Maqsadga erishishning yagona chorasi ularning e'tiboriga qiziqarli, rang-barang badiiy adabiyotlarni havola etishdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga rang-barang badiiy adabiyotlarni taqdim etish lozim.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar bilan badiiy adabiyotlarni o'qish bilan birga o'qilgan sujetlar asosida rasmlar chiziladi, teatr tomoshalari sahnalashtiriladi, ertak qahramonlarining obrazlarini aks ettiradigan qo'g'irchoq va o'yinchoqlar yasaladi, she'r hamda dialoglar yodlanadi, asar voqeligini o'zida aks ettirgan audio yozuv va musiqa asarlari tinglanadi. Bularning barchasi bolalarda badiiy asarlar vositasida san'at, uning turlariga bo'lgan qiziqishni oshiradi, badiiy so'z san'ati malakalari o'zlashtiriladi.


II. Bolalarni ma'naviy va estetik ruhda tarbiyalashda badiiy adabiyotning o'rnini. Badiiy kitoblar, ularni o'qishga bo'lgan qiziqish 6-7 yoshli bolalarda kuchli



bo'ladı. Bolalarni badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish ularni ma'naviy, estetik jihatdan samarali tarbiyalashga yordam beradi. Shu bous bog'chalarda bolalar o'rtasida badiiy asarlarni targ'ib qilishni izchil amalga oshirish zarur.

Bolalarda kitobga, kitob o'qishga bo'lgan qiziqish o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi.

Aksincha, maktabgacha ta'lim yoshi bolalarining yosh, psixologik va fiziologik xususiyatlarini o'rganish ularda kitobga, kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni rivojlantirishda bir qancha muhim omillarning ta'siridan foydalanish maqsadga muvofiq ekanini ko'rsatadi. Ular quyidagilardir (22-rasm):



22-rasm. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda badiiy adabiyot orqali san'atga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish

I. Bolalar adabiyotlari. Bu turdagi kitoblarni yaratish ta'lim berishga ehtiyojning vujudga kelishi bilan paydo bo'lgan. O'tgan vaqt mobaynida yaratilgan bolalar adabiyotlari mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tuzum, milliy-madaniy qadriyatlar, shuningdek, kitobga bo'lgan milliy yondashuvdan kelib chiqqan holda takomillashib bordi. Zamonaviy bolalar adabiyotlari o'z mazmuni, g'oyasi, dizayni, didaktik imkoniyatlariga ko'ra bugungi kun talabi va ehtiyojiga to'la javob berardi.

Bugungi kunda kitob do'konlarida o'yinchoq, kesik, yumshoq va manzarali (panorama)¹¹⁸ kitoblar mavjud bo'lib, ularning o'ziga xos dizayni, poligrafiyasi bolalarning diqqatini tortib, ularda badiiy asarlarni o'qishga bo'lgan qiziqishni oshirmoqda. Bu kabi kitoblardan maktabgacha ta'lim muassasalari hamda boshlang'ich ta'limning 1-2-ikkinchi sinflarida foydalanish tarbiyalanuvchi va tarbiyalanuvshilarda kitobxonlik ko'nikmalarini dastlab shakllantirish, so'ngra sekin-asta rivojlantirib borish imkoniyatini beradi.

Bolalar uchun mo'ljallangan kitoblarning barchasi besh jihatdan amaliy qiymatga ega: birinchidan, bolani atrof-muhit bilan yaqindan tanishtirgan holda ularning tasavvurini boyitadi; ikkinchidan, ularda kitobga, kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni hosil qiladi; uchinchidan, bolalarni ongini boyitadi, nutqi va tafakkurini boyitadi, to'rtinchidan, boy tasavvurga ega bo'lishini ta'minlaydi, nutq boyligini oshiradi; beshinchidan, mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini hosil qiladi.

¹¹⁸ Книжки-панорамки // https://www.google.com/search?q=книжки-панорамки+для+детей&tbm=isch&source=univ&sa=x&ved=2ahukewixszs_8zngahvqliskhstganeqsar6bagbeae#imgrc=00po7ulgjplw8m.



Bugungi kunda ishlab chiqaruvchilar bolalarni kitobga, kitob o'qishga qiziqtirish maqsadiga musiqali, gapiruvchi, oynali, tirqishli, siljiydigan elementli, taktil kabi turdagi kitoblarni ham taqdim etmoqda. Ayni o'rinda qanday kitoblar "taktil kitoblar" deb nomlanishi xususida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Taktil kitoblar – cho'ntaklariga turli rasm, applikatsiya, tikish-to'qish ishlari va mayda yumshoq o'yinchoqlar solingan kitoblar¹¹⁹.

Bu kabi kitoblarning tarkibiy elementlari rasmlardan tashqari yirik harf va raqamlar yordamida chop etilgan yoki disk (avvallari kasseta)ga hikoyalar, tovushlar (yomg'ir tovushi, qorning g'irchillashi, otlarning chopishi, biron-bir musiqa asbobida ijro etilayotgan kuy, avtomashinaning ishlayotgan motori, tramvay tovushi, avtomashinalarning signali, tez yordam mashinasi sirenasining ovozi va boshqalar) yozilgan matnlarga ega bo'ladi. Taktil kitoblarda, odatda, brayl yozuvlari ham ilova qilinadi va bu turli darajada ko'rish imkoniyati cheklangan bolalarni badiiy asarlar hamda atrof-muhit bilan tanishtirish imkoniyatini yaratadi.

Pedagog V.P.Yermakovning e'tirof etishicha, taktil kitoblardan o'quv-tarbiya jarayonida foydalanish ko'rish imkoniyati cheklangan bolalarni atrof-muhitni ilmiy qabul qilishga yaqinlashtirish, ularning badiiy va ijtimoiy tajribalarini boyitishga xizmat qiladi¹²⁰.

II. Oilaviy o'qish. O'z mohiyatiga ko'ra "oilaviy o'qish – ota-onalarning farzandlari bilan birgalikda badiiy adabiyotlarni o'qish asosida ularda intilishni kuchaytiradigan axloqiy mavzulardagi suhbatlardir"¹²¹. Suhbatlar tanlangan badiiy asar mohiyati, xarakteri, janri, hajmiga ko'ra qisqa va uzun bo'lishi mumkin. Oila davrasida badiiy asarlar yuzasidan kechadigan suhbatlarda muloqot, asosan, ota-onalar (buva-buvilar) va farzandlar o'rtasida kechadi. Biroq, bu kabi suhbatlar yoshi katta (o'smir, o'spirin) aka-opalar va uka-singillar o'rtasida ham tashkil etilishi mumkin. Suhbat jarayonida kattalarning vazifasi "bolalarni bilish faoliyatiga yo'naltirish va tafakkur qilishga undashdan iborat bo'lishi"¹²², qolaversa, ularning "har kungi belgilangan yoki kechqurungi bo'sh vaqtda birgalikda tashkil etiladigan eng yaxshi, xayrli oilaviy an'anaga aylanishi"¹²³ ga erishish zarur.

Ayni vaqtda bolalar yozuvchi va shoirlari, nashriyotlar hamda savdo tarmoqlari orqali maktabgacha ta'lim yoshi bolalari uchun quyidagi turdagi kitoblar taqdim etilmoqda (10-jadval):

¹¹⁹ Тактильная книга что такое? // http://www.tagilib.ru/bibliofeels_club/club_program/a_special_children_special_books/tactile_book_the_requirements_methodology_work.php.

¹²⁰ Талабалар китобхонлиги даражасини ва мутолаа фаоллигини оширишга кўмаклашиш лойиҳаси // <http://tanlov.uz/ru/event/talabalar-kitobonligi-darajasini-va-mutolaa-faolligini-oshirishga-ko'maklashish-loyiasi>.

¹²¹ Формирование читательского интереса у младших школьников на уроке литературного чтения // <https://nsportal.ru/npo-spo/obrazovanie-i-pedagogika/library/2017/10/29/formirovanie-chitatelskogo-interesa-u-mladshih>.

¹²² Тот источник: Формирование читательского интереса у младших школьников на уроке литературного чтения // <https://nsportal.ru/npo-spo/obrazovanie-i-pedagogika/library/2017/10/29/formirovanie-chitatelskogo-interesa-u-mladshih>.

¹²³ Тот источник: Формирование читательского интереса у младших школьников на уроке литературного чтения // <https://nsportal.ru/npo-spo/obrazovanie-i-pedagogika/library/2017/10/29/formirovanie-chitatelskogo-interesa-u-mladshih>.

Maktabgacha ta'lim yoshi bolalari uchun mo'ljallangan kitoblar¹²⁴

O'yinchoq kitoblar



Kesik kitoblar



Yumshoq kitoblar



Manzarali (panorama) kitoblar



Har qanday jarayonda bo'lgani kabi oilaviy o'qishni tashkil etish ham muayyan shartlar asosida kechsagina kutilgan natijaga olib keladi. Shu sababli, oilaviy o'qishni samarali yo'lga qo'yish uchun ota-onalar bolalarga metodik yordam ko'rsatishlari lozim. Bu o'rinda boshlang'ich tarbiyachining pedagog olim T.P.Zarutskaya tomonidan ota-onalarga ohista o'qish tartibi bo'yicha tavsiya etgan ushbu eslatmadan xabardor bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

¹²⁴ Мўминова Д.А. Бошланғич синф ўқувчиларида китобхонлик кўникмаларини ривожлантириш механизмини такомиллаштириш: пед.фанл.бўйича фалс.докт. (DPh) ... дис. – Наманган: 2020, 106-б.

Ota-onalar uchun eslatma

I bosqich. Matnni 5-7 daqiqa davomida o'qish.

II bosqich. O'qiganlarni qayta hikoya qilish.

III bosqich. 1-2 soat davomida dam olish.

IV bosqich. Yana bir xat boshi (abzas)ni o'qish.

V bosqich. O'qilgan parchani qayta hikoya qilish.

VI bosqich. Dam olish¹²⁵.

III. Mashg'ulotlar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatida kitob o'qish mashg'uloti muhim o'rin tutadi. O'qish jarayonida zarur pedagogik sharoitlarni yaratish asosida dasturda belgilangan tartibda bolalar tomonidan badiiy asarlarni o'rganish malakalarini o'zlashtirilishi ta'minlanadi. Mashg'ulotlarda mavzular negizida berilgan matnlarni samarali o'zlashtirish bolalarlarning kitob o'qishga, kitobxonlikka bo'lgan qiziqish, ehtiyoj, intilishlarini rivojlantiradi.

IV. O'yinlar. Harakatli va didaktik o'yinlar zamonaviy boshlang'ich ta'limda o'qitish samaradorligini oshirishda o'ziga xos o'rin tutadi. Zero, yosh va psixologik xususiyatlariga ko'ra bolalar 6-7 yoshgacha borliqni asosan o'yin orqali anglaydi. Ular o'yin orqali kattalarning xatti-harakatlarini imitatsiyalaydi, o'zlarining atrofdagilarga, tabiatga bo'lgan munosababtni ifodalaydi. Harakatli va didaktik xarakterdagi o'yinlarning bolalar faoliyatini davomli, tizimli tashkil etishga bo'lgan ta'sirini inobatga olgan holda ular yordamida bolalarda kitob o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirish, kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Bolalarda kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirishning muhim vositasi sifatida badiiy xarakterdagi o'yinlardan foydalanish "asar mohiyatini chuqurroq anglash, bolalarning e'tiborini kitoblarning badiiy qiymatiga qaratish"¹²⁶ ga yordam beradi. Binobarin, "badiiy xarakterdagi o'yinlarning maqsadi asar mazmunini yangicha talqin etish yoki uning negizida yangi g'oyalarni yaratish"¹²⁷ bo'lib, ular bolalarda kitob o'qishga ijobiy munosabatni qaror toptiradi, qiziqishni oshiradi, shuningdek, fikrlash, mustaqil ravishda o'z fikrini ifoda etish qobiliyatini tarbiyalaydi.

V. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligi. Bolalarda kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'lim tashkiloti hamda oila o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Zero, ta'lim tashkiloti o'zining pedagogik kontengenti, ularning pedagogik-psixologik tajribasiga ko'ra oilada bolalar bilan kitob o'qishda samaradorlikka erishish yuzasidan ota-onalarga amaliy-metodik ko'rsatmalar, tavsiyalar berish imkoniyatiga ega. Tarbiyachilar oilalar bilan tarbiyalanuvchilarda kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish loyihalariga ega bo'lishlari, ana shu loyihada oila bilan hamkorlik yo'nalishi, tadbirlar ko'lamini aks ettiruvchi bandlar bo'lishi zarur.

¹²⁵ Заруцкая Т.П. Развитие самостоятельной читательской деятельности младших школьников // <https://nsportal.ru/nachalnaya-shkola/chtenie/> 2012/03/ 31/razvitie-samostoyatelnoy-chitatelskoy-deyatelnosti-mladshikh.

¹²⁶ Жесткова Е.А. Мир детства в творческом сознании и художественной практике В.И.Даля // Ж. Филологические науки. Вопросы теории и практики. – М.: 2014. № 4-3 (34). – С. 73.

¹²⁷ Тот источник. – С. 73.



VI. Audio kitoblarni birgalikda tinglash. Ma'lumki, kitoblarni fonografda tinglash buyuk kashfiyotchi Tomas Edison tomonidan taklif qilgan. Bugungi kunda "audiokitoblar tobora mashhurlikka erishmoqda"¹²⁸.

Bolalarda kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishda ham audio kitoblardan foydalanish mumkin. Zero, psixologik xususiyatlariga ko'ra bolalar uch guruhga ajratiladi:

- 1) audistlar – eshitganlarini yaxshi eslab qoluvchilar;
- 2) vizualistlar – ko'rganlarini yaxshi eslab qoluvchilar;
- 3) kinestetiklar – bajarganini yaxshi eslab qoluvchilar.

Qolaversa, global axborotlashuv sharoitida bosma kitobni o'qigandan ko'ra audio kitoblarni o'qishni afzal ko'ruvchilarning soni tobora ortib bormoqda. Mobil telefon, planshet orqali audio kitoblarni o'qish bir qadar afzallikka ega. Chunki undan foydalanish alohida joy, manzil tanlamaydi.

Ayni o'rinda shuni ham aytib o'tish kerak, audio kitoblardan foydalanish qanchalik qulay bo'lmasin, ulardan foydalanish muayyan kamchiliklarga ham ega. Jumladan, elektron qurilmalar elektr quvvatida ishlaydi, doimiy ravishda elektr quvvati ta'sirida bo'lish inson salomatligi uchun ham zararli sanaladi. Qolaversa, "kitobni tinglayotganda inson ongi diqqatni bir yerga jamlamaydi. Matnni ko'rmay turib, kamroq narsani eslab qolinadi. Shunday tajriba amalga oshirilgan: ishtirokchilarga audio kitoblarni tinglash taklif etilgan. Ular parallel ravishda boshqa ish bilan shug'ullanmay, ataylab kitobga quloq solishgan. Biroq baribir chalg'ishgan"¹²⁹.

Shu bois, bizning fikrimizga ko'ra, boshlang'ich ta'lim, umuman holganda, uzluksiz ta'limning boshqa bosqichlarida ham audio kitoblardan foydalanish pedagogik faoliyatda qo'llaniladigan asosiy vosita bo'lmasligi, pedagogik faoliyatning "rang-barangligi"ga erishish, tarbiyalanuvshilarni qiziqtirish uchun vaqti-vaqti bilan foydalanish zarur. Zero, mazkur yosh davrida tarbiyalanuvchilarni bosma kitoblardan foydalanishga o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

III. Bolalarni axloqiy-estetik ruhda tarbiyalashda kichik folklor janrlari namunalardan foydalanish. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni axloqiy-estetik tarbiyalashda kichik janrli bolalar folklori namunalariidan foydalaniladi.

Bolalar folklori – kichik hajmli folklor asarlarni o'z ichiga olgan xalq ijodiyoti.

Juda qadimdan rivojlanib kelgan ushbu janr odatda bolalar yoki ular uchun kattalar tomonidan yaratiladi. Xalq folklori janrining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bolalar folklori bolaning tinglashiga, aytib yurishiga, o'yiniga, qo'shig'iga moslangan bo'ladi.

O'zbekistonda "Bolalar folklori" namunalari to'plam holida 1932-yildan nashr etila boshlangan. Kattalar tomonidan yaratiladigan alla, ovutmachoch va erkalamalar onalar mehr-muhabbati bilan yo'g'rilgan bo'lib, ularda go'dakning istiqboliga oid

¹²⁸ Норбобоев Н. Китоб ва мутолаа маданияти /Методик-библиографик қўлланма //http://natlib.uz/Content/userfiles/upload/pdf.word.excel/мутахассислар-учун/услугий-фаолият/1Ахборот/Китобвамутолаамаданияти_482/20КБ.pdf.

¹²⁹ Ўша манба: Норбобоев Н. Китоб ва мутолаа маданияти /Методик-библиографик қўлланма //http://natlib.uz/Content/userfiles/upload/pdf.word.excel/мутахассислар-учун/услугий-фаолият/1Ахборот/Китобвамутолаамаданияти_482/20КБ.pdf.



orzu-umidlar, bola yashayotgan muhit o'z ifodasini topadi.

Bolani beshikka belash, o'tqazish, atak-chechak yurgizish, sakratish, o'ynatish va ovutishlarda "Toy-toy", "Bordi-bordi" va boshqa ovutmachoklar aytiladi.


Bolalar qo'shiqlarining ko'pi yil fasllari bilan bog'liq. "Boychechak", "Oftob chiqdi olamga", "Chittigul", "Laylak keldi, yoz bo'ldi", "Qurbaqa", "Qaldirg'och" kabi qo'shiqlarni bolalar tom boshida, dalalarda, qishloq ko'chalarida aytishadi. Ular bahor kelishi, yomg'ir yog'ishi, quyoshning olamni isitishi, ilk chechak, birinchi qor kabi fasl va tabiat hodisalari bilan bog'liq.

"Bu bog'chada olisha", "Zuv-zuv borag'on", "Chamanda gul", "Oq sholi, ko'k sholi" kabi qo'shiqlar turli davrda aytilaveradi. Ularda ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik, hunar va san'at bilan bog'liq mehnat jarayonlari, kattalar xatti-harakatlariga taqlid aks etadi.

O'yinlar, qo'shiqlar ham bolalarning aqliy va jismoniy kamolotga yetishiga yordam beradi, ularda zavq uyg'otadi. Bolalar folklorining murakkab turi bo'lgan o'yinlarda drama va musiqa unsurlari chatishib ketgan. O'yinlarni kichik yoshdagi bolalar "Choriy chambar", "Hakkalakam" kabi sanama o'yinidan, katta bolalar "Qushim boshi" degan topishmoqdan boshlaydi.

Bolalar bog'chalarida, maktablarda o'yinlardan keng foydalaniladi. Bu turdagi folklori yosh avlodni intizomli, jasur, qat'iyatli, qiyinchiliklarni yengishga, o'rtoqlariga yordam berishga tayyor bo'lish singari yaxshi sifatlarga ega bo'lib o'sishlariga yordam beradi. Uning ayrim namunalarini maktabgacha ta'lim tashkilotlarining dasturlaridan o'rin olgan¹³⁰.

O'zbek bolalar folklori quyidagi mustaqil janrlardan tarkib topgan (23-rasm):



23-rasm. O'zbek bolalar folklorining janr turlari

¹³⁰ Bolalar folklori. B harfi // <https://qomus.info/encyclopedia/cat-b/bolalar-folklori-uz>.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'zbek bolalar folklorining quyidagi namunalaridan samarali foydalanish mumkin:

II. Alla¹³¹

Alla aytay, jonim bolam, quloq solgin, alla
Shirin allam tinglab asta, uxlab qolgin, alla
Ko'zlarining tomgan suvga hayron bo'lma, alla-ya
Baxtinga sen katta bo'lgin, hazon bo'lma, alla

Istiqboling porloq seni, jajjiginam, alla-ya
Baxtinga sen katta bo'lgin, hazon bo'lma, alla

Sevganimdan yodgorimsan, oltin qo'zim, alla-ya
Men sho'rlikday to'kilmagin, ko'rar ko'zim, alla

Alla, alla, alla-ya

Alla aytay, jonim bolam,
Quloq solgin, alla.
Shirin allam tinglab asta
Uxlab qolgin, alla.

Yuzlaringga tomga suvga
Hayron bo'lma, alla-ya,
Baxtinga sen katta bo'lgin
Xazon bo'lma, alla.

Istiqboling porloq sening
Jajjiginam, alla-ya,
Baxtinga sen katta bo'lgin
Xazon bo'lma, alla.

Sevganimdan yodgorimsan
Oltin qo'zim, alla-ya,
Men sho'rlikday to'kilmagin
Ko'rar ko'zim alla.

Alla-ya, alla.

Alla aytay, jonim bolam, orom olgin, alla,
Qo'zichog'im, tinglab nolam, uxlab qolgin, alla.
Onang so'zin tingla bolam, quloq solgin, alla,
Mayli, olim bo'lma, ammo odam bo'lgin, alla.

¹³¹ Ўзбек алласи // <https://uforum.uz/showthread.php?t=14238>.



Ko'zim nuri, ko'zlarimni nurin olgin, alla,
 Baxtinga tez katta bo'lgin, omon bo'lgin alla.
 Mehrim senda, kamolingni tinglar qalbim, alla
 Buloqdek jo'sh, maysalardek tez ulg'aygin, alla.

Onang ko'zi ko'zlaringga ziyo bo'lsin, alla,
 Otang so'zi so'zlaringga dunyo bo'lsin, alla.
 Toqatli bo'l, otangdayin mard o'g'lon bo'l, alla
 Yurtingni sev, xalqing uchun qalqon bo'lgin, alla.

II. Ertak¹³²

“Yaxshilik ketidan yaxshilik keladi” ertagi

(Xudoyberdi To'xtaboyev)

Kunlardan bir kun Xorazm yurtining podshohi mamlakatda eng chiroyli so'z aytish bahsini o'tkazmoqchi bo'libdi. O'sha kundan boshlab chiroyli so'z, go'zal so'z degan gaplar odamlarning og'zidan tushmay qolibdi. Ana shu gaplar bahsga aylanib, katta bir kengash o'tkazilibdi. Kengash butun mamlakatga e'lon qilingan ekan. Bir dehqon yigit men ham qatnashay, sovringa ega bo'lsam, bir qo'shho'kiz olardim, deya niyat qilibdi. Shohona darvoza oldiga kelib, qo'lidagi o'roq, yelkasidagi ketmonni yerga qo'yib, „Bismilloh“, deb ichkari kirib, safga qo'shilibdi. Bahs avjiga chiqqan ekan.

O'z taxtida bahslarni kuzatib, tantana bilan o'tirgan shohga qo'lini ko'ksiga qo'yib, ta'zim qilib salom yo'llabdi. Bahsni saroy a'yonlari baholab o'tirishar ekan.

Shunda bahsda qatnashayotgan bir kishi o'rnidan turib:

– Yomonlik qilma! Yomonlik ketidan yomonlik keladi, – degan gaplarni aytibdi. Qilni qirq yoradigan hakamlar qarsak chalib olqishlashibdi. Shoh ham qarsak chalibdi.

Navbat dehqon yigitga kelibdi.

– Yaxshilik qil! Yaxshilik ketidan yaxshilik keladi, – deb qo'lini ko'ksiga qo'yibdi. Atrofdagilar qarsak chalishibdi. Shoh esa o'rnidan turib qarsak chalibdi.

– Shahanshohim, – deb so'rabdi hakamlardan biri. – Birinchi ishtirokchi o'z so'zini aytganida yengilgina qarsak chaldingiz, ikkinchi qatnashchi so'zini aytganida esa o'rningizdan turib ketdingiz. Sabab ne? Buni biz – ha-kamlarga ayting, – debdi.

– Aslida ikkovlari ham foydali so'zni aytishdi, lekin birinchisi „yomonlik“ deyishi bilan negadir qalbim muzlab ketgandek bo'ldi. Ikkinchisi yaxshilik degan so'zni aytishi bilan qalbimdagi muz erib ketgandek bo'ldi. Shuning uchun o'rnimdan turib qarsak chaldim. To'g'ri so'zni, chiroyli so'zni yoqimli qilib aytgani uchun birinchi sovrin shu dehqon yigitga berilsin, – deb farmon beribdi.

“Chol bilan sichqon” ertagi

(O'zbek xalq ertagi)

Bor ekan-da, yo'q ekan, och ekan-da, to'q ekan. Qadim zamonda shu go'zal Nanay tomonda bir chol-u kampir bor ekan. Bular baxt uchun tug'ilgan ekan. Ammo choli tushmagur anqovroq ekan.

¹³² Barchasi bolalar uchun: www.ertak.uz //https://ertak.uz.



Kunlardan birida kampir cholga o'tin olib kelishni buyuribdi va qo'liga o'roq bilan non beribdi. Chol o'tinga boribdi-yu, o'rog'ini yo'qotib, quruq qaytibdi. Chol bo'lgan voqeani aytibdi. Kampir cholni rosa koyibdi. Kampir yana cholni o'tinga yuboribdi.

Bu safar u cholga pishgan kishmish bilan non beribdi. Chol ovqatni bir shum sichqonga oldiribdi, och qaytibdi. Keyin u kampiriga hasrat qilibdi. Ammo choli tushmagur mug'ombir ekan. U sichqon bilan juda qalin do'st-ulfat ekan. Ovqatni ham u bilan baham ko'rishni istar ekan. Kampir achchig'idan otashkurakni qizdirib, sichqon yoniga boribdi. Kampir ovozi cholning ovozigaga o'xshatib:

– Hoy, sichqonjon, sichqonjon,
Og'zingni och, ulfatjon.
Men kishmish olib keldim
Och og'zingni o'rtoqjon, –

debdi. Sichqon ochko'zligidan uyida turib, og'zini ochgan ekan, kampir otashkurakni sichqonning og'ziga tiqib yuboribdi. Sichqonning og'zi kuyib qolibdi. Ertasiga chol yana sichqonjonning oldiga kelibdi. U do'stini ovqatga chaqiribdi. Bechora sichqonjonning g'azabi kelib, chiyillabdi:

– Chiy-chiy, ket nari,
Sira kelma men sari.
Sen sabab og'zim kuydi,
Chiy-chiy ket nari.
Sen sabab bo'g'zim kuydi,
Sira kelma men sari, – debdi.

3. Ermaklar, qochirimlar¹³³

Tomdan tarasha tushdi,
Zulfim yarasha tushdi,
Achamga qolgan oshni,
Shodmon – yalaqi ichdi.
Shodmon – yalaqini quvlab ketyapsam,
Yo'ldan qamchin topib oldim,
Qamchin akamga berdim,
Akam menga ro'mol berdi,
Ro'molni qizga berdim,
Qiz menga don berdi,
Donni tovuqqa berdim,
Tovuqmenga tuxum berdi,
Tuxumni o'choqqa ko'mdim,
Taq etdi, paq etdi,
Ikki ko'zim boqib qoldi.

¹³³ Мурадова З. Коль не поделишься айраном... (О семантике узбекских детских песен) // <http://slovo.nx.uz/airan>.

4. Tez aytish

Charxim chakalak,
Tanobi charxim chakalak,
Charximda gunoh yo'g'u.
O'zim hakalak.

Oq choynakka ko'k qopqoq,
Ko'k choynakka oq qopqoq.

Qishda kishmish pishmashmish,
Pishsa kishmish, qishmashmish.

“Bir tup tut. Bir tup turp.
Bir tup tut, bir tup tutning tagida bir tup turp.
Bir tup tut bir tup turpning tomirini turtib turibdi.
Bir tup turp bir tup tutning tomirini turtib turibdi.

5. Topishmoqlar

A. Bolalar topishmoqlari

Yog'ochdan silliq tani,
Ilma teshik badani,
Bag'ridan o'tsa havo
Taralar mayin navo
(Nay)¹³⁴
Sirti tayoq,
Ichi bo'yoq
(Qalam)
Og'zi do'ppidek,
Ichi qizil, xumdek.
(Tandir)
O'zi bitta,
Qulog'i to'rtta.
(Qozon, to'rt qulog'i)
Qora sigir qarab turar,
Sariq sigir yalab turar.
(Qozon, olov)
Osti imorat,
Usti imorat,
O'rtasi otashxona.
(Samovar)
O'zi katta,

¹³⁴ Болалар фольклори // http://turizm.kasaba.uz/uz/uzbek_legends_and_mythes/childrens_folklore.



Kichikka yegiladi.
(Choynak)
O'zi turar jimgina,
Qulog'i bor birgina.
(Choynak)
Tap-tap etadi,
Tagidan karvon o'tadi.
(Elak)
Tak-tak tomdan qor yog'adi.
(Elak)
Ishini bitirdi,
Eshik tagiga y'tirdi.
(Supurgi)
Kunduzi yuradi-yuradi,
Oqshom tik turadi.
(Hassa)¹³⁵

B. Hazil so'roqlar va so'z o'yini¹³⁶

Nima hamma tilda ham gapiradi?
(Aks-sado)
Nimaning besh barmog'i boru
Lekin birorta ham tirnog'i yo'q?
(Qo'lqop)
Nimaga odam orqaga o'girilib qaraydi?
(Orqasida ko'zi yo'q)
Qilichdan o'tkir nima?
(Ko'z)
Tipratikan qishda nima qiladi?
(Uxlaydi)
Yumuq ko'z bilan nimani ko'rish mumkin?
(Tush)
Dunyoda bir narsa borki, u bo'lmasa hech kim bir-birini tanimaydi, u nima?
(Ism)
Yuki bo'lsa yuradi, yuksiz to'xtaydi.
Nima ekan u?
(Osma soat)
Qaysi joyda daryolar suvsiz,
Shaharlar uysiz bo'ladi?
(Xaritada)
Qaysi hayvon butun qish bo'yi boshini pastga qilib uxlaydi?
(Ko'rshapalak)

¹³⁵ Топишмоқлар жавоби билан // <http://axbor.sorbon.ru/cr/topishmoqlar-javobi-bilan>.

¹³⁶ Ҳазил сўроқлар ва сўз ўйини // <https://ziyouz.uz/ozbek-xalq-ogzaki-ijodi/ozbek-xalq-topishmoqlari/azil-suro-lar-va-suz-ujini>.



Qaysi joyda osmon pastda bo'ladi?

(Suvda)

Qaysi vaqtda soatga qarash mumkin emas?

(Uxlaganda)

Kecha «ertaga», ertaga «kecha» bo'ladigan kun qaysi?

(Bugun)

Qanday idishni sira to'ldirib bo'lmaydi?

(Teshik idishni)

Dengiz ostida qanday tosh bo'lmaydi?

(Quruq tosh)

Qanday soat bir sutkada ikki marta vaqtni to'g'ri ko'rsatadi?

(To'xtagan soat)

Yomg'ir yog'ib turganda, qarg'a qanday daraxtga qo'nadi?

(Ho'l daraxtga ko'nadi)

Suv qayerda ustundek turadi?

(Quduqda)

Qachon uchni ko'rib o'n besh deymiz?

(Kunduz soat 3 da)

Besh harfdan iborat bo'lgan sichqon ushlaydigan qopqonni topa olasizmi?

(Mushuk)¹³⁷

6. Bolalar o'yin qo'shiqlari¹³⁸

Boychechagim boylandi,

Qozon to'la ayrondirr.

Ayroningdan bermasang,

Qozon-tovog'ing vayrondir.

Naqarot:

Qattiq yerdan qaqalab chiqqan boychechak,

Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.

Shaftoli pishdi,

Tagiga tushdi.

Xomini uzdim

Dadam urishdi.

Laylak keldi, yoz bo'ldi,


Qanoti qog'oz bo'ldi.

Laylak boradi toqqa,

Quloqlarida halqa.

¹³⁷ Ҳазил сўроқлар ва сўз ўйини //https://ziyouz.uz/ozbek-xalq-ogzaki-ijodi/ozbek-xalq-topishmoqlari/azil-suro-lar-va-suz-ujini.

¹³⁸ Болалар фолкълори //http://turizm.kasaba.uz/uz/uzbek_legends_and_mythes/childrens-folklore.



Halqani op qochaylik,
El boshiga sochaylik.
Elning murodi kulsin,
Laylak balandroq uchsин.

Qor yog'di gupillatib,
Qor buva to'qqillatib,
Kirib keldi maktabga
Soqolin selkillatib.

7. Erkamalar

Ko'zlari munchog'im,
O'zimmi ovunchog'im.
Bamisli qo'g'irchog'im,
Yig'lamagin, toychog'im¹³⁹.

Bolaginam, toychog'im,
O'zinning ovunchog'im.
Onasining quvonchi,
Uning umid-ishonchi.

Bolaginamning bolasi,
Qantdek o'rik donasi.
Mard o'g'lon bo'lishidan
Umidvordir onasi¹⁴⁰.

8. Masxaralamalar¹⁴¹

Soli qo'rqqoq,
Bo'lmaydi o'rtoq.
Biz to'yda o'ynamiz,
U yuradi o'zi toq.

Iroda chaqma chaqar,
Ayting, u kimga yoqar?
O'z qilig'in jafosini
U hali ko'p bor tortar.

9. Sanamalar¹⁴²

Qovun palak,
Guvak otdi.

¹³⁹ Турғунов Ш.Д. Наманган болалар фольклорининг жанрлар таркиби ва локал хусусиятлари: филол. Фанл. бўйича фалс.доктори (PhD) дис.автореф. – Андижон: 2019. – 18-б.

¹⁴⁰ Эркамалар муаллифи М.Х.Усмонбоева.

¹⁴¹ Масхаралалар муаллифи М.Х.Усмонбоева.

¹⁴² Бола ҳаётида бадий сўзнинг аҳамияти (алла, топишмоқ, эртақ ва тез айтишлар) //http://taqvim.uz/uzc/news/view/153.



Guvak emas,
Chuvak otdi.
Chuvak qovun
Shirin ekan,
Safdan chiqsin
Qo'lim tekkan.

Bir, ikki,
Olma dikki.
Safar oyi,
Sariq chumchuq,
Bog'da turmay,
Tez uchib chiq!
Bir, ikki,
Olma dikki.
Sariq chumchuq
Uyga kirdi,
San tezroq chiq!

Aziz ko'chaga chiqdi,
Arobasi buzildi,
Unga nechta mix kerak?
Bir, ikki, uch, to'rt,
Besh, olti, yetti – ketdi!

Gujum-gujum pomidor,
Oyim bergan pomidor,
Qani sanab ko'ray-chi!
Bir, ikki, uch, to'rt,
Besh, olti, yetti, ketdik!
Bir, ikki, uch,
Uchdan qolgan puch.

Agar bilag'on bo'lsang,
Sen joyingdan ko'ch!
Bir, ikki, uch,
Birlikdadir kuch.
Dambir-do'mbir,
Dambir-do'mbir,
Birlikdadir kuch.



Bolalar folklori namunalari bilan maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatida izchil foydalanish quyidagi natijalarga erishishga imkon beradi: bolalarda o'zbek xalq og'zaki ijodiy, xususan, bolalar folklori to'g'risidagi tushunchalar hosil bo'ladi; bolalarning nutq apparati (nutq hosil qiluvchi organlar faoliyati) takomillashadi; bolalar so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga, o'z fikrini ifodalashga, o'ylashga o'rganadi; bolalarning lug'at boyligi oshadi; bolalarda estetik did, badiiy-ijodiy qobiliyat rivojlanadi.

Shunday qilib, xalq og'zaki ijodining kichik janrlaridan maqsadli va tizimli foydalanish bolalar tomonidan badiiy-ijodiy faoliyat ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Shu sababli maktabgacha ta'lim yoshidan bolalarni xalq og'zaki ijodi namunalari bilan tanishtirish maqsadga muvofiqdir. Bir qancha omillar bolalarda kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonga o'z ta'sirini ko'rsatib, uning samarali kechishini ta'minlaydi. Bolalar adabiyotlari, oilaviy o'qish, mashg'ulotlar, maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligi, o'yinlar, audio kitoblarni birgalikda tinglash kabi omillar bu jarayonning samaradorligini ta'minlashda o'ziga xos o'rin tutadi.

Nazorat savollari:

1. Badiiy adabiyot nima?
2. Bolalar adabiyoti deganda nima tushunasiz?
3. Jahon adabiyotining bolalar uchun yozilgan qanday namunalari bilasiz?
4. Maktab yoshidagi bolalar uchun mo'ljallangan badiiy adabiyotlar qanday xususiyatlarga ega?
5. Sharq yozma adabiyotida bolalar uchun qanday asarlar yaratilgan?
6. O'zbekistonda XX asrning 20-yillarida bolalar adabiyotida ijod qilgan adiblardan kimlarni bilasiz?
7. XX asrning 50-60-yillarida O'zbekistonda bolalar uchun qanday asarlar yaratildi?
8. Maktabgacha ta'lim yoshi bolalarini badiiy adabiyotlar bilan tanishtirishda qanday omillar ahamiyatli sanaladi?
9. Qanday kitoblar taktit kitoblar deb nomlanadi?
10. Oilaviy o'qishni tashkil qilishda ota-onalar qanday yo'l tutishlari kerak?
11. Audio kitoblar deganda nima tushuniladi?
12. Bolalar folklori nima?
13. Bolalar folklorining qanday janrlari mavjud?
14. Maktabgacha ta'lim yoshi bolalarining yoshiga mos qanday folklor namunalari bilasiz?

Test topshiriqlari:

1. Bolalar va o'smirlar (15-16 yoshgacha bo'lganlar) uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop va publisistik asarlar majmui – bu ...
 - a) jahon adabiyoti;
 - b) kattalar adabiyoti;
 - c) bolalar adabiyoti;**
 - d) o'zbek adabiyoti.



2. Astrid Lindgrenning “Karlson va Mittivoy” asari – ... ning namunasi.

a) jahon adabiyoti;

b) rus adabiyoti;

c) o‘zbek adabiyoti;

d) qirg‘iz adabiyoti.

3. ... o‘rta asr bolalar adabiyotining namunasi sanaladi.

a) Zahiriddin Boburning “Boburnoma” asari;

b) Kaykovusning “Qobusnoma” asari;

c) Muqimiyning “Sayohatnoma” asari;

d) Gulbadanbegimning “Humoyunnoma” asari.

4. “Tabiat alifbosi” asarining muallifi –

a) Xudoyberdi To‘xtaboyev;

b) Zafar Diyor;

c) Nazir Safarov;

d) Quddus Muhammadiy.

5. Bolalar adabiyotlari, oilaviy o‘qish, mashg‘ulotlar, o‘yinlar, maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila hamkorligi, audio kitoblarni birgalikda tinglash. Ular bolalarni badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish ... sanaladi.

a) omillari;

b) shakllari;

c) metodlari;

d) vositalari.

6. ... – cho‘ntaklariga turli rasm, applikasiya, tikish-to‘qish ishlari va mayda yumshoq o‘yinchoqlar solingan kitoblar.

a) musiqali kitoblar;

b) audio kitoblar;

c) taktil kitoblar;

d) yumshoq kitoblar.

7. O‘yinchoq, kesik, yumshoq va manzarali (panorama) kitoblar – ... uchun mo‘ljallangan.

a) o‘spirin yoshidagi bolalar;

b) o‘smir yoshidagi bolalar;

c) maktabgacha ta’lim yoshi bolalari;

d) o‘rta maktab yoshi bolalari.

8. Badiiy asarlarni ovozlashtirish va ovoz tashuvchi vositalar yordamida tarqatishga xizmat qiluvchi kitoblar – ... dir.

a) audio kitoblar;

b) taktil kitoblar;

c) taqdimot kitoblar;

d) elektron kitoblar.

9. ... – kichik hajmli folklor asarlarni o‘z ichiga olgan xalq ijodiyoti.

a) nasriy asarlar;

- b) fantastik asarlar;
- c) sarguzasht asarlar;
- d) bolalar folklori.**

10. Alla, ertak, ermaklar, qochirimlar, tez aytish, topishmoq, bolalar o'yin qo'shiqlari, erkalama, masxaralamalar, sanamalar. Ular o'zbek bolalar folklorining

- a) janr vositalari;
- b) janr turlari;**
- c) janr shakllari;
- d) janr metodlari.

Amaliy topshiriqlar:

1-topshiriq. Kichik guruhda bosma va elektron manbalar asosida bolalar folklori namunalarini to'plang.

2-topshiriq. To'plangan namunalar asosida "Bolalar va bolalar folklori" mavzusida taqdimot tayyorlang va uni taqdim qiling.

4.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatini shakllantirish yo'llari

Reja:

1. Nutq madaniyatini shakllantirish.
2. Nutqning tovush madaniyatini rivojlantirishga oid ishlar.
3. Tarbiyachining badiiy o'qish yoki hikoya qilib berishga tayyorgarlik ko'rishi.

Tayanch tushunchalar: maktabgacha yoshdagi bolalar, nutq, nutq madaniyati, shakllantirish, yo'l, nutq madaniyatini shakllantirish yo'llari, tarbiyalash, tovush madaniyati, tovush madaniyatini tarbiyalash, tarbiyachi, badiiy o'qish, hikoya qilib berish, tayyorgarlik, tayyorgarlik ko'rish.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi. – T.: YUNISEF, 2018. – 72 b.
2. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti // <https://lex.uz/docs/5179335?query>.
3. Maktabgacha pedagogika / Mashg'ulotlik. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpulatova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova. – T.: "Tafakkur" nashriyoti, 2019. – 688 b.
4. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. –T.: "Fan va texnologiya", 2012. – 268 b.
5. Бабаева Д.Р. Нутқ ўстириш методикаси / Ўқув қўлл. – Т.: "Fan va texnologiya", 2009. – 18-19-б.

I. Nutq madaniyatini shakllantirish. "Nutq madaniyati" atamasining mohiyatini tushunish, eng avvalo, shaxsning ma'naviy madaniyati va uning umumiy rivojlanish



darajasi; insoniyatning ma'naviy va madaniy merosining qadriyat ekanini anglashni taqozo etadi.

Nutq chinakam madaniy bo'lishi uchun u nafaqat to'g'ri, balki boy bo'lishi kerak, bu ko'p jihatdan shaxsning leksik bilimiga bog'liq. Shu sababli doimo bolalarning so'z boyligini ko'paytirish talab qilinadi.

Nutq madaniyati – bolalar tomonidan nutqning adabiy til me'yorlari: moslik, izchillik, boylik, soflik, estetik va axloqiy, maqsadlarga muvofiqligi kabilarga rioya qilgan holda ifodalanishi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ fazilatlarini rivojlantirish uchun ish jarayonida turli xil vositalardan foydalanish talab qilinadi. Bular teatr faoliyati, rivojlantiruvchi o'yinlar, etyudlar, suhbatlar, vaziyatlarni modellashtirish.

Muloqot inson hayotining, demakki, madaniyatning bir qismidir. Aynan muloqot jarayonida bola o'zini o'rab turgan borliqni o'rganadi, madaniy qadriyatlarni o'zlashtiradi va yaratadi. Chaqaloqning nutq madaniyati nutqiy uning o'zini o'zi anglash jarayonida shakllanadi, u milliy adabiy nutqning tashuvchilari mavjud bo'lgan joyda paydo bo'ladi va rivojlanadi¹⁴³.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning nutq madaniyatini shakllantirishda quyidagi qonuniyatlar inobatga olinadi:

Birinchi qonuniyat: ona tilidagi nutqni idrok etish qobiliyati bola nutq organlari muskullarining mashq qildirilishiga borliq (shuning uchun ham so'z, ibora va gaplarni talaffuz etishni takomillashtirish uchun nutq organlarini mashq qildirishga yetarli darajada e'tibor berish muhimdir).

Ikkinchi qonuniyat: nutq ma'nosini tushunish bola tomonidan nutqning leksik va grammatik qonuniyatlarining o'zlashtirilishiga bog'liq.

Uchinchi qonuniyat: nutqning ifodaviyligini o'zlashtirish bolada fonetika, leksika va grammatikaning ifoda vositalarini tushunishga bo'lgan moyillikka bog'liq (maktabgacha katta yoshdagi bolalarni nutq ifodaviyligini tushunishga o'rgatish hamda bu hissiyotlarning bola tomonidan o'zlashtirilishiga erishish lozim).

To'rtinchi qonuniyat: nutqni boyitish, avvalo, nutq ko'nikmalarini takomillashtirishga bog'liq (agar oldingi yosh bosqichida maktabgacha katta yoshdagi bola nutqini shakllantirish muvaffaqiyatli bo'lgan bo'lsa, undan keyingi nutqni boyitish jarayoni hamda uni o'zlashtirish oson va tez kechadi). Bundan tashqari, tadqiqotchilar tomonidan nutqni boyitish jadalligi tilni his etish, bilish imkoniyatlari (sezish, xotira, idrok qilish, fikrlash), iroda kuchining rivojlanishiga ham bog'liq.

Beshinchi qonuniyat: nutq me'yorlarini o'zlashtirish tilni his etishning rivojlanishiga bog'liq¹⁴⁴.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatining rivojlanishidagi muammolar quyidagilardir:

¹⁴³ Кривенко Н. А., Дедюкина М. И. Развитие речевой культуры у детей посредством этноэтикета старшего дошкольного возраста // Научно-мет.элек.ж. "Концепт". – Москва: 2017. – Т. 25. – С. 339–341

¹⁴⁴ Бабаева Д.Р. Nutq ўстириш методикаси / Ўқув қўлл. – Т.: "Fan va texnologiya", 2009. – 18-19-б.



1. Faqat oddiy jumladan iborat monologik nutq ("vaziyatli nutq" deb ataladi); bunda bolalar umumiy gapni grammatik jihatdan tuza olmaydi.

2. Yomon nutq. Bu holatda bolalarning soʻz boyligi yetarli boʻlmaydi.

3. Jarangli soʻzlar bilan nutqni boyitish (bu televideniye dasturlarini tomosha qilish natijasi sanaladi), adabiy boʻlmagan soʻz va iboralardan foydalanish.

4. Yomon dialogik nutq: savolni malakali va tushunarli shaklda tuza olmaslik, agar zarur va talab qilinsa, u holda toʻgʻri boʻlsa, qisqa yoki loʻnda javob beradi.

5. Monologni tuza olmaslik: masalan, taklif qilingan mavzu boʻyicha hikoya yoki tavsiflovchi hikoya, matnni oʻz soʻzlari bilan takrorlashi.

6. Oʻz fikrlari va xulosalarini mantiqiy asoslay olmaslik.

7. Nutq madaniyati koʻnikmalarining mavjud emasligi: ohangdan foydalana olmaslik, ovoz balandligi va nutq tezligini sozlay bilmaslik.

8. Yomon diksiya (urgʻuni qoʻyq olmaslik)¹⁴⁵.

Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida bolalarda nutq madaniyatini shakllantirishda tarbiyachi ayrim logopedik usullardan foydalanishi, yaʼni, xuddi logoped kabi nutq kamchiliklarining oldini olishga qaratilgan ishlar bilan shugʻullanishi lozim.

Tovush artikulyatsiyasini egallash murakkab va uzoq davom etadigan jarayon boʻlib, u koʻpincha besh yil, baʼzan esa yetti yilgacha choʻziladi. Bu boradagi ishlar muvaffaqiyatli olib borilgan taqdirda besh yoshdan boshlab bola sof "adabiy til"da soʻzlay boshlaydi.

"Ilk qadam" davlat dasturida bola 6-7 yoshda barcha tovushlar artikulyatsiyasini toʻliq oʻzlashtira olishi zarur.

Bolalar orfoepik talaffuzli shaxslar orasida tarbiya topayotgan boʻlsa, ularni tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilishga oʻrgatish oson uddalanadi. Bordi-yu, bolalar shevaga xos yoki xalqona talaffuzdagi soʻzlarni eshitib ulgʻayotgan boʻlsa, u holda mazkur jarayon juda qiyin kechadi.

Pedagogik amaliyotning koʻrsatishicha, bolalar urgʻu (prosodema)ni toʻgʻri qoʻya oladi. Ayniqsa, ovoz ohangi modulyatsiyasini oʻzlashtirishda bolalar urgʻuni toʻgʻri qoʻyishni tez uddalaydi. Koʻpchilik bolalar prosodemalarni deyarli mashqsiz oʻzlashtirib oladi.

6-7 yoshda bolalar gapning mazmuni (tugallangan fikr)ni soʻzlovchining ohangiga qarab tushunishni oʻrganadi. Bu jarayonda ular ikki tugallangan ohangni:

1) bayon ohangi;

2) soʻroq ohangini puxta oʻzlashtiradi.

Tugallangan ohanglar bilan bir vaqtda bolalarga urgʻuni mantiqiy qoʻya olish (gapning ahamiyatini taʼkidlagan holda oʻqish) koʻrsatiladi. Yaʼn, yoyiq gapning mantiqiy boʻlaklarini oʻzaro uygʻunlashtirish maqsadida tugallanmagan ohangni bajarishni mashq qiladi.

Tilshunoslikka oid adabiyotlarda ohanglar oltita turga ajratiladi (A.N.Gvozdev):

¹⁴⁵ Формирование речевой культуры у детей дошкольного возраста //https://nsportal.ru/detskiy-sad/razvitie-rechi/2014/05/15/formirovanie-rechevoy-kultury-u-detey-doshkolnogo-vozrasta.



1) sanash ohangi (“Va gu suyuqqon, yosh, oltin olmadek toblangan malika tomon yeldek uchdi”);

2) qarama-qarshi qo’yish ohangi (“Chol uchinchi marta to’r tashladi, - to’rga bitta baliq ilindi, shunchaki oddiy baliq emas, oltin baliq”);

3) chaqiriq ohangi (“Nima kerak Sizga, bobo”; “Ko’zgu jonim, yo’limni yorit, menga barcha haqiqatlarni so’zla!”);

4) ogohlantirish ohangi (yoki ikki nuqtali ohang; (“Oltin baliq javob beradi: “Qayg’urmagil, bobo, uyinga bor, Xudo yor bo’lsin!”; “Chol hayron bo’ldi va qo’rqib ketdi: o’ttiz va yana uch yil baliq ovladi, ammo baliq gapirganini eshitmagan edi”);

5) kirishish ohangi (“Mana u moviy dengizga keldi (dengiz suv bo’tanalashgan edi), u oltin baliqni chaqira boshladi...”);


6) alohida-alohida bo’laklarga ajratish ohangi (“Ammo malika yosh, tobora chiroyiga chiroy qo’shib borar edi, shu bilan birga bo’ychan, baland bo’yli bo’ldi – g’unchadek ochildi, qora qoshli bo’ldi, axloqi go’zallashdi”).

Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarda tovush madaniyatini rivojlantirishda nutqning boshqa tarkibiy qismlari – lug’atni boyitish, bog’lovchi nutqni hosil qilish, gapni grammatik jihatdan to’g’ri tuzish kabi vazifalar ham hal qilinadi.

II. Nutqning tovush madaniyatini rivojlantirishga oid ishlar. Nutqning tovush madaniyatini rivojlantirish ona tilidagi muloqotda tovushlarni aniq ifodalash, ularni to’g’ri talaffuz qilish, so’zlar va iboralarni aniq, to’g’ri talaffuz qilish, to’g’ri nutqiy nafas olish, shuningdek, ovoz kuchidan yetarli darajada foydalana olish qobiliyatini rivojlantirishni, shuningdek, nutqning me’yoriy sur’ati va ifodalilikning turli ohanglarni hosil qilish vositalari (nutq musiqasi, ma’noli sukut saqlash, urg’ularni to’g’ri qo’yish, nutqning sur’ati, ritmi va tembrini to’g’ri bo’lishiga erishish)dan foydalanishni o’z ichiga oladi.

Bolalarda to’g’ri va yaxshi jaranglaydigan nutqni rivojlantirar ekan, tarbiyachi quyidagi vazifalarni hal etishi zarur: bolalarda tinglash qobiliyatini, uning tarkibiy qismlari: diqqat bilan tinglash (jarangiga ko’ra tovushni va uning yo’nalishini aniqlay olish), fonematik tinglash, nutq sur’ati va ritmini qabul qila olish malakalarini asta-sekin rivojlantirib borish; artikulatsiya apparatini rivojlantirish; nutqiy nafas olish, ya’ni so’zlash chog’ida erkin so’zlay olish uchun qisqa nafas olish va davomli nafas chiqarishni o’rgatish; muloqot sharoitidan kelib chiqqan holda ovoz balandligini boshqarish qobiliyatini tarbiyalash; o’zbek tilidagi tovushlarini to’g’ri talaffuz qilish malakalarini shakllantirish; har bir tovushni, shuningdek, so’zlar va iboralarni aniq va tushunarli, orfoepiya qoidalariga muvofiq talaffuz qilishga odatlantirish; tez yoki sekin emas, mo’tadil nutq sur’atini hosil qilish; nutq bayonida hissiyotlar ham ifodalash, mazmunli to’xtalish, urg’u, ohang, sur’at, ritm va tembr yordamida nutqning ifodaviy bo’lishiga erishish.

Nutqning tovush madaniyatini rivojlantirish quyidagi asosiy yo’nalishlarda amalga oshiriladi (24-rasm):



24-rasm. Nutqning tovush madaniyatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlar

1. Bolalarda nutqni tinglash qobiliyatini rivojlantirish. Bolalarda nutqni shakllantirishning dastlabki davrida nutqni tinglashga oid asosiy komponentlarni rivojlantirish bir maromda bormaydi. Shu sababli, nutqni rivojlantirishning birinchi bosqichida tinglash ko'nikma, malakalarini shakllantirishga diqqat qaratiladi.

Bolalarda tovush balandligining o'zgarishi nutqning his-hayajonli bo'lishi (jahd qilinsa, unga javoban yig'laydi, xushmuomala, mayin munosabatga javoban jilmayadi) va tembri (onasi va boshqa yaqinlarini ovozlaridan tanish)ga bog'liq. Shuningdek, so'zning ritmik sur'ati, ya'ni sheva-bo'g'in tarkibi (so'zdagi bo'g'inlar soni, asosiy urg'uning joyiga bog'liq bo'lgan tovush tuzilishi xususiyatlari) nutq sur'ati bilan birlikda qabul qilinadi.

Asta-sekin nutqni rivojlantirishda fonematik tinglash qobiliyati, ya'ni bir tovushni boshqasidan aniq ajrata olish va buning natijasida ayrim so'zlarni tani, tushunish qobiliyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yaxshi rivojlangan nutqni tinglash qobiliyati ona tilining barcha tovushlarini aniq va to'g'ri talaffuz qilishni ta'minlaydi, so'zlashda uning balandligini to'g'ri boshqarish, ohista, ifodali bayon qilish imkonini beradi.

Nutqni tinglash qobiliyatini rivojlantirish artikulyatsiya apparatini rivojlantirish bilan uzviy bog'liq.

Nutqni tinglash qobiliyatini rivojlantirishda yana bir muhim jihat – bolalarda nutq jarangdorligining turli ko'rinishlari, ya'ni tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, so'zlarni aniq va tushunarli bayon etish, ovozni pasaytirish yoki kuchaytirish, nutq balandligi, tezligi, sur'ati, uni jadallashtirish va sekinlashtirish, tembral ishlov berish (iltimos, buyruq va boshqalar) malakalarining shakllantirishga qaratilishidir.

2. Artikulyatsiya apparatini rivojlantirish. Nutqiy tovushlar og'iz bo'shlig'ida shakllanadi, uning shakli va hajmi harakatchan a'zolar: lablar, til, pastki jag', og'izning yumshoq yuqori qismi, qizilo'ngach holatiga bog'liq bo'ladi.

Artikulyatsiya – nutq a'zolari: lab, til, pastki jag', og'izning yumshoq yuqori qismi, qizilo'ngach)ning tovush hosil qilishdagi harakati va holati¹⁴⁶.

Artikulyatsiya apparati tuzilmasidagi buzilishlar: qisqa tilosti tuguni, noto'g'ri tishlashish, og'iz yuqori qismining haddan tashqari balandligi yoki pastligi va boshqa

¹⁴⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А – Д / 5 жилдли. Биринчи жилд. А.Мадвалиев таҳр.остида. Таҳрир ҳайъати: Э.Бегматов. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006, 101-б.



ayrim kamchiliklar bolalarning tovushni noto'g'ri talaffuz qilishga odatlanishlariga olib keladigan dastlabki omillardir. Bordi-yu, bolaning artikulasiya apparati organlari harakatchan, o'zi tinglash qobiliyatiga ega bo'lsa, bunday holatda ko'pincha bolaning o'zi tovush talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishga qodir.

Agarda bolaning artikulasiya apparati harakatida nuqsonlar (masalan, tilning kam harakatlanishi) mavjud bo'lsa, bunday holatda u tovushlarni noto'g'ri talaffuz qiladi, sust, noaniq va tushunarsiz gapiradi.

Bu o'rinda tarbiyachining vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

tilning harakatchanligini rivojlantirish;

lablarning yetarli darajadagi harakatchanligini rivojlantirish;

pastki jag'ni tovushlarni talaffuz qilish uchun muhim bo'lgan holatda tutib turishni o'rgatish.

3. Nutqiy nafas olishni rivojlantirish. O'pkadan kekirdak, bo'g'iz, og'iz bo'shlig'i yoki burun orqali chiqayotgan havo oqimi tovush hosil qiluvchi manba hisoblanadi.

Nutqiy nafas olish tabiiy ro'y beradigan nutqiy bo'lmagan nafas olishdan farqli ravishda ixtiyoriy nafas olish hisoblanadi.

Nutqiy bo'lmagan nafas olishda nafas olish va nafas chiqarish burun orqali amalga oshiriladi, o'zining davomiyligiga ko'ra nafas olish nafas chiqarishga deyarli teng bo'ladi.

Nutqiy nafas olish og'iz orqali amalga oshiriladi, nafas olish tez, nafas chiqarish esa sekinroq ro'y beradi. Nutqiy bo'lmagan nafas olishda nafas olishdan keyin darhol nafas chiqariladi, so'ngra pauza saqlanadi. Nutqiy nafas olishda esa nafas olinganidan keyin pauza saqlanadi, so'ngra asta-sekinlik bilan nafas chiqariladi.

To'g'ri nutqiy nafas olish tovushning to'g'ri hosil bo'lishini ta'minlaydi, nutqning tegishli balandlikda bo'lishini ta'minlash, pauzalarga aniq rioya qilish, nutqning tez-sekinligini va ifodaviyligini saqlash uchun zarur sharoitlarni yaratadi.

Nutqiy nafas olishdagi xatoliklar umumiy zaiflik, adenoidik o'simtalar, turli yurak-tomir kasalliklari oqibati bo'lishi mumkin.

Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi nafas chiqarishdan oqilona foydalana olmaslik, nafas olayotib so'zlash, o'pkani yetarli darajada havo bilan to'ldirmaslik kabi nutqiy nafas olishdagi nomutanosibliklar noto'g'ri tarbiya, kattalarning bolalar nutqiga yetarli darajada e'tibor bermaganliklari oqibatida ham yuz bergan bo'lishi mumkin.

Zaif nafas oladigan va nafas chiqaradigan maktabgacha yoshdagi bolalar odatda, past ovozda so'zlaydi, uzun iboralarni talaffuz qilishda qiynaladi. Nafas chiqarishda havodan nooqilona foydalanilganida nutqning izchilligi buziladi, chunki bolalar iboraning o'rtasida nafas olishga majbur bo'ladi.

Odatda bunday bolalar so'zlarni oxirigacha aytmaydi va ba'zan ibora so'nggida ularni shivirlab aytadi. Ba'zida bolalar uzun iborani nihoyasiga yetkazish uchun nafas olib so'zlashga majbur bo'ladi. Natijada nutq noaniq bo'ladi, bolalar xuddi tiqilib qolgandek so'zlaydi. Chunki, tezlashtirilgan nafas chiqarish iboralarni mantiqiy pauzalarga rioya qilmasdan jadal sur'atda so'zlashga majbur qiladi.



Nutqiy nafas olishni rivojlantirishda tarbiyachi quyidagi vazifalarni hal qiladi: maxsus o'yinli mashqlardan foydalangan holda erkin, bir tekis va uzaytirilgan nafas chiqarishni o'rgatish;

pedagog nutqiga taqlid qilgan holda undan to'g'ri, oqilona foydalanish (kichik iboralarni uzoq nafas chiqarish bilan talaffuz qilish)ni o'rgatish.

4. Ovoz ustida ishlash. Ovoz apparati vositasida uning balandligi, kuchi va tembri turlicha bo'lgan tovushlar chiqariladi; ularning umumiyliги aynan inson ovozi aniqlyadi.

Ovoz o'zida quyidagi xususiyatlarni namoyon qiladi:

Ovoz kuchi – tovushlarni muayyan balandlikda talaffuz etish, shuningdek, tovushni bor ovozi bilan talaffuz eta olish qobiliyati.

Ovoz balandligi – ohangning ko'tarilishi va pasayishi, yuqori ovozdan past ovozga o'tish va aksincha.

Ovoz tembri – ovozning mayinligi (jarangdor, jarangsiz, titroqli, bo'g'iq va boshqalar).

Ovozning ohangdorligi – ovozning jaranglash chastotasi, yoqimsiz belgilar (bo'g'ilish, xirillash, ping'illash – dimog' bilan gapirish)ning yo'qligi.

Ovozning "uchqurligi" – ovozning balandligini ko'tarilmasa ham uni yetarlicha uzoq masofadan eshitish mumkinligi.

Ovozning harakatchanligi – ovozning kuchi, balandligi, sur'atining ortiqcha zo'riqishsiz o'zgarishi.

Ovoz ohangi – so'zlovchi nutqining ifodaviyligini ta'minlash, uning his-tuyg'ulari va maqsadni ifodalash uchun ovozning hissiy ranglar bilan boyitilganligi¹⁴⁷.

Uning sifati nafas olish, ovoz va artikulyatsiya apparatlarining birgalikdagi faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

Yuqori nafas yo'llarining turlicha tebranishlari, surunkali shamollash, adenoid o'simtalar va hokazolar ovozda buzilishlarning yuz berishiga yordam beradi. Ko'pincha maktabgacha yoshdagi bolalarda ovoz buzilishi undan noto'g'ri foydalanish: doimiy ravishda baqirib so'zlash, ayniqsa, yilning sovuq davrida ko'chalarda baland ovozda so'zlash orqali ovoz tugunchalarini zo'riqtirish, bola ovozi diapazoniga mos kelmaydigan ohangda so'zlash (masalan, bolalar o'zlaridan kichik bolalarning chiyildoq nutqiga taqlid qilish yoki "dadasining nomidan" baland ovozda so'zlashga urinish) oqibatida yuz beradi. Ovozda buzilishlar burun-tomoq yoki yuqori nafas yo'llari kasalliklarini boshdan kechirgan hamda kasallik paytida yoki sog'ayganidan so'ng darhol ovozni asrash rejimga rioya qilmagan bolalarda ham vujudga kelishi mumkin.

Ovoz imkoniyatlaridan noto'g'ri foydalanish bola shaxsining o'ziga xos xususiyatlari (juda uyatchan bola ko'pincha past ovozda, kirishimli bolalar baland ohanglarda so'zlashadi)ga, noto'g'ri tarbiyaga (agarda atrofdagilarning o'zlari baland ovozda so'zlasalar bolalar ham noiloj shunga o'rganadi) bog'liq.

¹⁴⁷ Основные характеристики и свойства голоса // <https://www.sibkursy.ru/stati/texnika-rechi/osnovnye-xarakteristiki-i-svoystva-golosa.html>.



Agarda xonada doimiy shovqin-suron (radio, televizor, maktabgacha ta'lim tashkilotidagi doimiy shovqin-suron va hokazolar) bo'lsa, u holda bolalar baland ovozda so'zlashga majbur bo'ladi.

Bolalar bilan ovoz ustida ishlashda tarbiyachi quyidagi vazifalarni hal qiladi:

o'yinlar va o'yinli mashqlar jarayonida ovozning asosiy sifati – kuchi va balandligini rivojlantirish;

bolalarni zo'riqmasdan so'zlashga o'rgatish;

bolalarni ovozdan turli vaziyatlarga mos (past-baland) holda foydalanishga odatlantirish.

III. Tarbiyachining badiiy o'qish yoki hikoya qilib berishga tayyorgarlik ko'rishi. Maktabgacha ta'lin yoshidagi bolalarga badiiy o'qib yoki hikoya qilib berishga tayyorgarlik jarayon sifatida o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi.

Mashg'ulotga tayyorgarlik quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi:

– ishlab chiqilgan badiiy daraja va tarbiyaviy ahamiyatga ega mezonlarga muvofiq asarni bolalarning yoshini, bolalar bilan ishlashda joriy ta'limiy va tarbiyaviy ishlarni, sanani hisobga olgan holda ish usullarini oqilona tanlash;

– dastur mazmuni – adabiy-ta'lim vazifalarini aniqlash;

– tarbiyachini asarni o'qishga tayyorlash; asarni bolalar asosiy mazmunini, g'oyasini tushunib olishlari va tinglaganlarini (hissi) his qilishlari uchun o'qish kerak.

Buning uchun adabiy matnni adabiy tahlil qilish kerak: muallifning asosiy g'oyasini, qahramonlarning tabiatini, ularning munosabatlarini, harakatlarining motivlarini tushunish.

Tayyorgarlik ishlari bolalarni kitob o'qishga: badiiy matnni idrok etishga, uning mazmuni va shaklini tushunishga tayyorlashni ham o'z ichiga oladi.

Badiiy o'qish va hikoya qilish mashg'ulotini o'tkazish metodikasi va uning qo'llash mashg'ulot turiga, badiiy asarning mazmuniga va bolalarning yoshiga bog'liq.

Bolalar bilan uyushtiriladigan o'qish faoliyatni uch bosqichga tashkil qilinadi:

1-bosqich: asar bilan tanishish. Bu bosqichning asosiy maqsadi badiiy so'z orqali bolalar tomonidan asarning mazmunini idrok qilinishini ta'minlash.

2-bosqich: o'qilganlar asosida suhbat qurish. Bu bosqich bolalarda asarning mazmuni, adabiy-badiiy shakli, badiiy ifoda vositalarini oydinlashtirish maqsadida o'qilganlar asosida suhbat qurishga yo'naltiriladi.

3-bosqich: matnni takroriy o'qish. Bu bosqichda bolalarda hosil bo'lgan hissiy taassurotni mustahkamlash va idrok etilganlarni chuqurlashtirish uchun matnni takroriy o'qish tashkil etiladi.

Mashg'ulotni o'tkazish tinch muhitni, bolalar faoliyatini to'g'ri tashkil qilishni, tegishli hissiy muhitni yaratishni talab qiladi.

O'qishdan oldin qisqacha kirish suhbatini, bolalarni idrok etishga tayyorlash, ularning tajribasini, hozirgi voqealarni asar mavzusi bilan bog'lash mumkin.

Bolalar bilan she'r yodlashda tarbiyachi quyidagi ikkita vazifani hal qiladi:

1. She'rlarni yaxshi yodlashga erishish (she'rni xotirada uzoq vaqt saqlash qobiliyatini rivojlantirish).



2. Bolalarni she'rni ifodali o'qishga o'rgatish.

Ikkala vazifa ham bir vaqtning o'zida hal qilinadi. Agar avval matnni yodlash, keyin esa ifodalilik ustida ishlansa, bolaga sh'erni qayta o'rgatishga to'g'ri keladi. Chunki bola dastlab sh'erni ifodasiz o'qiydi.

Tarbiyachi mashg'ulotning boshida bolalarda hissiy kayfiyatni yaratishi, she'riy asarni idrok etishlari va yodlashlari uchun qulay holatni yaratishi kerak. Buning uchun she'r mavzusi bilan bog'liq kichik suhbat uyushtiriladi.

Aslida, bu suhbat nasriy asarni o'qishdan oldin olib boriladigan suhbatga o'xshaydi. Suhbat jarayonida matn mazmuniga yaqin, bolalarga ularning hayotidagi voqeani eslatuvchi savollar beriladi. Bu jarayonda bolalarni topishmoq, rasm, o'yinchoq bilan so'zlashish, katta yoshdagi bolalarga shoirning adabiy portretini taqdim etish mumkin. Bolalarni qiziqtirgan va ularda ko'tarinki kayfiyatni hosil qilgan tarbiyachi janr yoki muallifni inobatga olgan holda mashg'ulotni nomlaydi.

Bunday suhbatdan so'ng bolalarni she'rning musiqiyligi, ohangdorligini idrok etishdan chalg'itmaslik uchun yodlashni maqsad qilmagan holda ular tomonidan she'rni ifodali o'qish amalga oshiriladi. Bolalar tomonidan sh'er mazmunining to'g'ri idrok etilishi matnning qanchalik ifodali o'qilganiga bog'liq.

Tarbiyachi ifodali o'qishidan so'ng qisqa tanaffusni tashkil qiladi. Tanaffus chog'ida bolalar o'zlarida she'rning ta'sirida yuzaga kelgan hissiy tuyg'ularni anglab olishlari kerak.

She'rning mazmunini chuqurroq idrok etish va idrokni chuqurlatish maqsadida asar tahlili o'tkaziladi. Tahlil she'r haqidagi suhbat bo'lib, she'rda ifodalangan g'oyalarga asoslanadi. Savol-javoblarga asoslangan tahlil she'rning mazmuni va xususiyatlari (til, obrazli ifoda vositalari)ning birligi asosida tushunishga yordam beradigan tizim bo'lishi zarur.

Qayta o'qilgandan so'ng she'r bolalar tomonidan takrorlanishi kerak. Bunda she'rni yaxshi yod olgan va o'qish istagini bildirgan bolalar uni o'qiydi. Barcha bolalar matnni tezda yodlay olmaganligi sababli, tarbiyachi ularga yordam beradi.

Bolalar tomonidan she'r yod olingach u takror-takror o'qiladi. Matnni qayta-qayta tinglash, uni takrorlash, qismlar o'rtasida mantiqiy aloqa o'rnatish bolalar tomonidan she'rning yod olinishiga yordam beradi.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatida bolalarni badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish ham alohida yo'nalish hisoblanadi. Bolalarni badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish ularda nutq madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi. Badiiy adabiyotlarni tarbiyachi rahbarligida o'qish, she'rlarni yod olish bolalarda idrokni, diqqatni, tasavvurni, dunyoqarashni ham rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar bilan badiiy asarlarni o'qitish o'ziga xos jarayon bo'lib, u muayyan tayyorgarlik asosida amalga oshiriladi. Tayyorgarlik jarayonining metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilish bolalar bilan badiiy asarlarni o'qish, she'rlarni yod olish jarayonini zavqli bo'lishini ta'minlaydi.



Nazorat savollari:

1. Nutq madaniyati deganda nimani tushunasiz?
2. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning nutq madaniyatini shakllantirishda qanday qonuniyatlar inobatga olinadi.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatining rivojlanishida qanday muammolar ko'zga tashlanadi?
4. A.N.Gvozdev ohanglarni qanday turlarga ajratadi?
5. Bolalarda nutqning tovush madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat qanday yo'nalishlarda amalga oshiriladi?
6. Nutqiy tovushlarni shakllantirishda qanday organlar ishtirok etadi?
7. Artikulatsiya nima?
8. Artikulatsiyani rivojlantirishda tarbiyachi qanday vazifani bajaradi?
9. Nutqiy nafas olishni rivojlantirishda tarbiyachi qanday vazifalarni hal qiladi?
10. Ovoz o'zida qanday xususiyatlarni namoyon qiladi?
11. Bolalar bilan ovoz ustida ishlashda tarbiyachi qanday vazifalarni bajaradi?
12. Bolalar bilan uyushtiriladigan o'qish faoliyatni nechta bosqichga tashkil qilinadi?
13. Bolalar bilan she'r yodlashda tarbiyachi qanday ikkita vazifani hal qiladi?
14. She'r yodlashda tahlil nima uchun o'tkaziladi?

Test topshiriqlari:

1. ... – bolalar tomonidan nutqning adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda ifodalanishi.
 - a) nutq boyligi;
 - b) nutq madaniyati;**
 - c) nutqning to'g'riligi;
 - d) nutqning ifodaviyligi.
2. Nutq ma'nosini tushunish bola tomonidan nutqning leksik va grammatik qonuniyatlarining o'zlashtirilishiga bog'liq. Ushbu fikr bolalarda nutq madaniyatini rivojlantirish ni ifodalaydi.
 - a) tamoyili;
 - b) qoidasi;
 - c) qonuniyati;**
 - d) talabi.
3. Faqat oddiy jummalardan iborat monologik nutq, yomon nutq, monologni tuza olmaslik, yomon diksiya. Bular – maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatining rivojlanishidagi ...
 - a) xatolar;
 - b) nuqsonlar;
 - c) kamchiliklar;
 - d) muammolar.**



4. A.N.Gvozdev ohanglarni ... turga ajratiladi.

- a) 6 ta;
- b) 7 ta;
- c) 8 ta;
- d) 9 ta.

5. Bolalarda nutqni tinglash qobiliyatini, artikulasiya apparatini, nutqiy nafas olishni rivojlantirish, ovoz ustida ishlash. Bular – nutqning tovush madaniyatini rivojlantirishning

- a) asosiy tamoyili;
- b) asosiy omillari;
- c) asosiy yo'nalishlari;**
- d) asosiy bosqichlari.

6. Nutq a'zolari: lab, til, pastki jag', og'izning yumshoq yuqori qismi, qizilo'ngach)ning tovush hosil qilishdagi harakati va holati – bu ...

- a) diapazon;
- b) intonatsiya;
- c) diksiya;
- d) artikulasiya.**

7. Ovoz kuchi, ovoz balandligi, ovoz tembri, ovozning ohangdorligi, ovozning "uchqurligi", ovozning harakatchanligi, ovoz ohangi. Ular – ...

- a) ovoz dinamikasi;
- b) ovoz xususiyatlari;**
- c) ovoz registri;
- d) ovoz diapazoni.

8. O'qish faoliyati ...da amalga oshiriladi.

- a) uch bosqich;**
- b) to'rt bosqich;
- c) besh bosqich;
- d) olti bosqich.

Amaliy topshiriqlar:

1-topshiriq. Maktabga tayyorlov guruhida o'qish uchun badiiy asar tanlang.

2-topshiriq. Tanlangan badiiy asarni o'qish bosqichlarini belgilang.



V BOB. MAKTABACHA TA'LIM ASHKILOTLARIDA TASVIRIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISH

5.1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning dunyoqarashini shakllantirishda tasviriy faoliyatning ahamiyati

Reja:

1. Turli yosh guruhlar tarbiyasida tasviriy faoliyat tushunchasining mazmuni.
2. Kichik yosh guruhlar tarbiyasida tasviriy faoliyatni tashkil etish va estetik qobiliyatlarini shakllantirish.
3. Katta yosh guruhlarida rasm chizish mashg'ulotlari vositasida ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Tayanch tushunchalar: maktabgacha yoshdagi bolalar, dunyoqarash, shakllantirish, dunyoqarashni shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning dunyoqarashini shakllantirish, faoliyat, tasviriy faoliyat, kichik yosh guruhlari, katta yosh guruhlari, tasviriy faoliyatni tashkil etish, qobiliyat, shakllantirish, estetik qobiliyatni shakllantirish, chizish, rasm chizish, mashg'ulot, vosita, ko'nikma, malaka, shakllantirish, rasm chizish ko'nikmasi, rasm chizish ko'nikmasini shakllantirish, rasm chizish malakasi, rasm chizish malakasini shakllantirish.


Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi. – T: YUNISEF, 2018.
2. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti // <https://lex.uz/docs/5179335?query>.
3. Nurmatova M.Sh., Hasanova Sh.T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi. – T: "Cho'lpon", 2010.
4. Nurmatova M.Sh., Hasanova Sh.T., Azimova D. Ustaxonada amaliy mashg'ulot. – T: "Musiq", 2010.

I. Turli yosh guruhlar tarbiyasida tasviriy faoliyat tushunchasining mazmuni. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat bo'yicha tashkil qilingan mashg'ulotlar bolalarga beriladigan estetik tarbiya masalalarini yechishda katta ahamiyatga ega. Chunki tasviriy faoliyat o'z xususiyatiga ko'ra badiiy faoliyat hisoblanadi. Badiiy faoliyat mashg'ulotlarining barcha turlari bolalarda go'zallikni bilish uchun, borliqqa emotsional-estetik munosabatni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi.

Tasviriy faoliyat – maxsus materiallar, tasviriy vositalar (buyoqlar, qalamlar, cho'tkalar, bo'rlar, flomasterlar, guashlar va boshqalar) yordamida borliqdan olingan taassurotlarni hamda unga nisbatan munosabatni ifodalovchi badiiy-ijodiy faoliyat.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladigan bolalar tasvirish faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardir (25-rasm):



25-rasm. Bolalar tasvirish faoliyatining asosiy yo'nalishlari

Chizish – turli qalam, buyoq, flomaster, guash va boshqalardan turli tasvirlarni hosil qilish.

Yasash – tabiiy va sun'iy, shuningdek, qirqim materiallar: loy, plastilin, mato va qog'oz qirqimlari, bir martalik plastik buyumlar, yog'ochlar, donlar, urug', barg, savzovot, tosh, shisha, somon, qovoq va boshqalar yordamida turli predmet, o'yinchoq, qo'g'irchoq, applikatsiya va mozaikalarni hajmli yoki yassi tarzda yaratish.

Modellashtirish – muayyan predmetlarning kichik nusxasi (masalan, bolalar uchun mashinalar)ni yasash.

Qurish-yasash – kub, lego, yog'och va boshqa materiallardan muayyan predmet (masalan, uy, ko'prik, yo'l va boshqalar)ni konstruksiyalash.

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bu rasm chizish, loy, applikatsiya, qurish-yasash mashg'ulotlaridir. Bu mashg'ulotlar maktabgacha ta'lim muassasasining barcha guruhlarida aniq bir vaqtda, rejim asosida, uyushtiriladi.

I kichik guruhda yilning boshida uncha katta bo'lmagan guruhlar bilan, yilning ikkinchi yarmidan boshlab butun bir guruh bilan uyushtiriladi.

Guruhlarda bolalarning yosh, psixologik xususiyatlari va fiziologik imkoniyatlarini hisobga olgan holda tasviriy faoliyat mashg'ulotlarining vaqti turlicha bo'ladi. Ya'ni (11-jadval):

“Tasviriy faoliyat” mashg'ulotlari jarayonida:

badiiy didni tarbiyalash;

amaliy badiiy faoliyat va malakalarni rivojlantirish;

fantaziya, ijodiy fikrlash va tasavvur qilish, idrok qilishni rivojlantirish;

qo'lning aniq harakatlari va barmoqlarning mayda motorikasini rivojlantirish;

kasbiy badiiy-ijodiy faoliyat kurtaklarini namoyon bo'lishi uchun imkon yaratish kabi ta'limiy va tarbiyaviy masalalar hal etib boriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun ishlab chiqilgan takomillashtirilgan “Ilk qadam” davlat dasturining tuzilishi va mazmunining tahlilidan ayonki, kichik guruhlardan boshlab eng ko'p vaqt tasviriy faoliyatga ajratilgan. Agar tasviriy faoliyatning boshqa turlari: applikatsiya (0,5 soat), qurish-yasash (0,5 soat) va loy



ishi (1 soat) qo‘shib hisoblansa, jami 4 soatni tashkil etadi. Haftalik yuklama 12 soatni tashkil etilishi e‘tiborga olinsa, tasviriy faoliyat uchun ajratilgan soatlar barcha faoliyatlarning uchdan bir qismini tashkil etadi.

Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarining muvaffaqiyatli uyushtirish, unga zarur bo‘lgan materiallarni o‘z vaqtida tayyorlashga ham bog‘liq. Bu tayyorgarlik ishlari quyidagilardan iboratdir:

1. Tarbiyachi rasm va applikasiya mashg‘uloti uchun kerakli kattalikdagi va rangdagi qog‘oz varaqlarini tayyorlaydi (tasvirlanadigan predmetning tuzilishiga ko‘ra). Qog‘oz varag‘iga oldindan orqa tomoniga bolalarning ismi, familiyasi, mashg‘ulot o‘tkaziladigan sana yozib qo‘yiladi.

2. Tarbiyachi oldindan qalam uchlarini ochib qo‘yadi (albatta, 4-5 qalam ortiqcha qilib tayyorlab qo‘yiladi). Katta tayyorlov guruhlarida bolalar qo‘proq akvarel bo‘yog‘ini ishlatadi. Oldindan bo‘yoqlar ho‘langan bo‘lishi lozim. Mo‘yqalamlar yaxshilab yuviladi.

3. Mashg‘ulot uchun lattalar, bankachalarni tayyorlash zarur. Suv bankalarga mashg‘ulot boshlanish arafasida quyiladi.

4. Applikasiya uchun rangli qog‘oz yig‘masi tayyorlanadi (ortiqcha miqdorda).

5. Kleyster (undan tayyorlanadigan yelim) tayyor qilib qo‘yiladi.

6. Loy haftada bir marotaba tayyorlanadi, polietilen plyonkalarda saqlanadi. Tarbiyachi har bir bolaga loy parchasini qo‘yish uchun taxtachalar, katta tayyorlov guruhlar uchun ko‘rgazmalar, harakatlanuvchi taxtachalar tayyorlaydi, ho‘l yoki nam lattalar berilishi kerak.

7. Plastilin ham rangi bo‘yicha tayyorlanib, rangdor mayda detallarni yasash jarayonida beriladi. Ko‘proq katta guruhlarda beriladi, oldindan issiqda yumshatib qo‘yiladi.

11-jadval

Guruhlarda tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarining davomiyligi¹⁴⁸

No	Guruhlar	Davomiyligi
1.	I kichik guruh	5-7 daqiqadan 10-15 daqiqagacha
2.	II kichik guruh	15-20 daqiqagacha
3.	O‘rta guruh	20-25 daqiqagacha
	Katta va tayyorlov guruhlar	30-35 daqiqagacha

¹⁴⁸ Nurmatova M.Sh., Hasanova Sh.T. Rasm, buyumlar yasash va tasviriy faoliyat metodikasi / O‘quv qo‘ll. Muharrir H.Yusupova. —T.: Musiqqa, 2012, 50-6.



8. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ko'rgazmali materiallar: masalan, predmetlar, o'yinchoqlar, illustratsiyalar, xalq amaliy dekorativ san'at namunalari ham bo'lishi lozim.

9. Har bir guruhda bolalar ishining tahlili uchun ko'rgazmalar bo'lishi kerak; mashg'ulot uchun zarur bo'lgan materiallarning har biri aniq, bir joyda, faoliyat turlariga qarab saqlanishi kerak, navbatchilar bunda ularni mashg'ulot uchun tayyorlay olishlari lozim.

10. O'rta guruhdan boshlab bolalar ham tarbiyachi bilan birgalikda mashg'ulotga tayyorlanish jarayoniga, ya'ni navbatchilikka jalb qilinadi. Har bir guruhda, har bir bola yoki navbatchilar vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi¹⁴⁹.

Rasm chizish bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatishda asosiy o'rin egallaydi va uchta turni o'z ichiga oladi: alohida predmetlarni chizish; sujetli rasm chizish; dekorativ rasm chizish.


Tasviriy faoliyatga o'rgatishning maqsadi – borliqni tasavvur qilishda bolalarga yordam berish sanaladi.

Bolalarda kuzatuvchanlikni rivojlantirish, estetik go'zallik hissini tarbiyalash hamda tasvirlab berish usullarini o'rgatish tushuniladi. Bu bilan birga tasviriy faoliyatning asosiy vazifasi-ma'lum bir yosh uchun mos tasviriy materiallari bilan turli xil predmetlarning turli timsollarini yaratish kabi ijodiy bolalarda shakllantirish amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida har bir o'tkaziladigan mashg'ulotlarda bolalarni mustaqil ishlashga, qo'l muskullarini rivojlantirishga o'rgatib borish zarur. Tarbiyachi har bir o'tkaziladigan mashg'ulotiga ijodiy yondashgan holda va o'z mahoratini ishga solgan holda yangilik yarata olishlari lozim.

Bolalar ilk yosh guruhidan boshlab, tayyorlov guruhigacha ish jarayonlari oddiydan murakkabga qarab boradi. Buning uchun o'tkaziladigan mashg'ulotlarda ayniqsa tasviriy faoliyat, rasm, applikatsiya, loy ishlarini yaratishda amaliy ish fanining ahamiyati kattadir¹⁵⁰.

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlar uch bosqichdan iborat bo'ladi (26-rasm):



26-rasm. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarining asosiy bosqichlari

¹⁴⁹ O'sh manba. – 51-b.

¹⁵⁰ "Махсус мактабгача таълимда машғулотларни ўтказиш технологияси" модули бўйича / Ўқув-услубий мажмуа. Тузув.: Л.Р.Миржалолова ва бошқалар. – Т.: А.Авлоний номидаги ХТТРМХҚТМОИ, 2018. – 67-69-б.



II. Kichik yosh guruhlar tarbiyasida tasviriy faoliyatni tashkil etish va estetik qobiliyatlarini shakllantirish¹⁵¹. Maktabgacha yosh bolalarda tasviriy faoliyat (chizish, modellashtirish, yasash, qurish) ko'nikma, malakalarini samarali rivojlantirish uchun qulay davr hisoblanadi. Kichik yosh guruhi bolalarida tasviriy faoliyat ko'nikma, malakalarini rivojlantirish badiiy-estetik ta'sirga ega. Zero, bolalar tomonidan badiiy tasvirlarning yaratilishi ularda turli his-tuyg'u va kechinmalarning namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Shu sababli, bolalarda tasvirlar yordamida hodisalarga nisbatan hissiy munosabatni tarbiyalashda tasviriy faoliyat imkoniyatidan o'rinni foydalanish zarur.

Chizish, modellashtirish, yasash, qurish jarayonlari bolalarda nafaqat individual xususiyatlarni namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Balki chizish, modellashtirish, yasash, qurishga bo'lgan ehtiyojga egalik va uni qondirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil qilishga rag'bat uyg'otadi.

Bolaning cho'tka, qalam bilan birinchi harakatlari u idrok etadigan narsa yoki hodisaning mazmuniga bog'liq. Bola tasvir orqali o'zi anglagan holatni idrok qila boshlaydi. Borliqni o'zi chizgan, yasagan tasvir yordamida anglash bola uchun yoqimli jarayon bo'lib, o'ziga, o'z imkoniyatiga bo'lgan ishonchni hosil qiladi.

Bu yoshdagi har qanday faoliyat o'yin shaklida tashkil etiladi. Shu jumladan tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bolalarni o'ziga jalb qiladi. O'yin usullarining qo'llanishi mashg'ulot jarayoniga bolalarda hissiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi, ular uchun jonli bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasvir faoliyat mashg'ulotlarini olib borishda quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- bolalarda qalam, cho'tka, bo'yoq bilan bajariladigan harakatlarga qiziqishni uyg'otish;
- qalam, bo'yoqlar bilan ishlangan tasvirlar haqida tasavvur hosil qilish;
- bolalarning idrokini rivojlantirish, ularda obyektlarning shaklini ajratib ko'rsatish, obyektlarni ularning konturi bo'ylab bir yoki boshqa qo'l bilan kuzatish orqali ularda borliqni hissiy qabul qilish tajribasini boyitish;
- bolalarda ularga tanishgan hodisalarning mazmunini anglashga o'rgatish;
- bolalarning diqqatini qalam (cho'tka) yordamida qog'ozda iz qoldirishga qaratish, qalam (cho'tka)ning qog'ozda harakatini kuzatishga o'rgatish;
- bolalarning e'tiborini ular tomonidan qog'ozda tasvirlangan turli xil chiziqlar, konfiguratsiyalarga qaratish;
- bolalarni o'zlari chizgan tasvirlar, ularning ko'rinishi, rangi haqida o'ylashga undash;
- bolalarda o'zlari chizgan shtix va chiziqlardan quvonish hissini uyg'otish;
- bolalarda o'zlari yaratgan tasvirlarni hissiy qabul qilishga rag'batlantirish;
- bolalarda ular avval o'zlashtirgan shtix, chiziq, dog' va shakllarni ongli ravishda takrorlashga odatlantirish;

¹⁵¹ Ushbu kichik mavzuni yoritishda quyidagi manbadan foydalanildi: Лукутцова Э.К. "Методика организации изобразительной деятельности в младшей группе" // <https://nsportal.ru/detskiy-sad/risovanie/2017/03/18/metodika-organizatsii-izobrazitelnoy-deyatelnosti-v-mladshey-gruppe>.



- bolalarda atrofdagi narsalarni estetik idrok etish tuyg'usini rivojlantirish;
- bolalarni qamlarning ranglarini farqlashni, ularni to'g'ri nomlashni o'rganish;
- bolalarda turli xil chiziqlar (uzun, qisqa, yotiq, tik, qiya chiziqlar)ni chizish ko'nikma, malakalarini shakllantirish;
- bolalarda turli xil chiziqlarni kesib o'tish, obyektlar (lentalar, ro'molchalar, yo'llar, oqimlar, muzliklar, panjara va boshqalar)ni o'xshatib chizish ko'nikma, malakalarini shakllantirish;
- bolalarni atrofdagi hayotni idrok etishlarini tashkil qilish orqali dumaloq narsalarni chizishga ko'niktirish;
- rasm chizishda to'g'ri holatlar (erkin o'tirish, qog'ozga juda egilib olmaslik, bo'sh qo'lning qog'ozni ushlab turishi)ni shakllantirish;
- bolalarni xomashyo, tasviriy faoliyatni tashkil qilish uchun zarur bo'lan asbob-uskunalarini to'g'ri saqlashga, ulardan to'g'ri foydalanishga o'rgatish;
- qalam va cho'tkani erkin, to'g'ri ushlashni o'rganish.

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini o'tkazishda qattiq va yumshoq oddiy hamda rangli qamlar, bo'yoqlar, cho'tkalar kabi asbob-uskunalar ishlatiladi. Cho'tkalar katta, bo'yoqlarni kerakli suyuqlikda suyultirib beradigan bo'lishi kerak.

Birinchi rasm chizish mashg'ulotlarida barcha bolalarga bir xil rangdagi bo'yoqlarni berish yaxshidir, shunda ular cho'tkani va bo'yoqni qanday ishlatilishiga diqqatni qaratishadi. Keyingi mashg'ulotda bo'yoq rangini o'zgartirish mumkin, lekin yana barcha bolalarga bir xil rangdagi bo'yoq berilishi kerak. Faqat turli xil rangdagi bo'yoqlarni turli stollarga qo'yish mumkin. O'quv yilining oxiriga kelib, ikkita yoki to'rtta rangdagi bo'yoqlarni bitta stolga qo'yish kerak.

Bo'yoqlar bilan chizishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

- qo'shimchalar (barglarning tushishi, izlar): "top-top" - cho'tka qog'ozda yuradi;
- cho'tkani choyshab ustiga tortish - yuqoridan pastga - chiroyli qizil lenta, chapdan o'ngga - uzoq yo'l;
- cho'tka harakatlarining yotiq va tik kombinatsiyasi;
- chiroyli panjara.

Qalam bilan chizishda esa quyidagi texnikalar qo'llaniladi:

- qisqa tik shtrixlar - yomg'ir, o't, panjara,
- yitiq (iz, lentalar, mushuk mo'ylovi);
- spiralda dumaloq chiziqlar (mo'ridan tutun, ip koptoki);
- dumaloq yopiq chiziqlar (rul g'ildiraklari, koptok, koptoklar).

Birinchi mashg'ulotlarda bolalarni qalam va bo'yoqlar bilan tanishtiriladi. Qalam va bo'yoqlar bilan ishlash qoidalari haqida Qalam shohi va Cho'tkalar malikasi mashg'ulotga "tashrif buyurib", o'zlari bilan ishlash qoidalari haqida bolalarga "gapirib berishlari" mumkin. Keyinchalik ushbu materiallar almashtiradi, ammo ular bilan ishlash ko'nikmalarini mustahkamlash uchun qalam chizish bo'yicha bir nechta mashg'ulotlar o'tkazilishi, keyin bir nechta mashg'ulot - bo'yoqlar bilan o'tkazishi kerak.

Masalan: yomg'irni qalam bilan chizish: yomg'ir tomchilari shtrixlar ritmi bilan chiziladi: qalam o'ng qo'lda to'g'ri ushlab turiladi, boshqa ranglar orasida ko'k rangni



ajratib ko'rsatish; "mushukning mo'ylovi" bir-biridan yaqin masofada qisqa yotiq chiziq larni chizish asosida tasvirlanadi.

Bolalar ko'plab ranglar koptoklarni (qizil, yashil, ko'k)ni chizishganda dumaloq harakatlarda ip koptoklarini chizishni o'rgatishdi.

Chizma mazmuni tarbiyachi tomonidan belgilanadigan ikki-uch mashg'ulotdan so'ng, mashg'ulot bolalarning xohishiga ko'ra o'tkaziladi. Bolalar o'zlari xohlagan narsani tasvirlaydi, ko'pchilik qog'ozda qalam bilan rasm chizadi yoki ilgari o'rganilgan tasvirlarni takrorlaydi.

Bolalar ba'zi ko'nikma va malakalarni o'zlashtirganda birgalikda rasm chizish mumkin. Jamoaviy ish 8-10 nafar boladan iborat kichik guruhlarda amalga oshiriladi. Bu ish bolalarga "yonma-yon" rasm chizish quvonchini beradi.

Bo'yoqlar bilan chizish uchun mavzular quyidagicha belgilanishi mumkin:

1. "Tekis yo'l bo'ylab" – cho'tka bilan chizish o'rgatiladi, qog'ozga ritm asosida to'lqinsimon chiziladi.

2. "Tovuq" (qo'l izi tushiriladi) – bolalarda bo'yoqning yorqin rangiga hissiy munosabatni uyg'otish, rangli dog'lardan zavqlanish uchun qo'llaniladi.

3. "Kuzgi barglarning to'kilishi" – shtrixlar ritmi bilan tabiat hodisasi tasvirlanadi; bolalar o'ng qo'lda cho'tkani to'g'ri ushlab turishni, yorqin shtrixlardan zavqlanishni o'rganadi.

4. "Keling, qo'g'irchoqning kiyimini bezatamiz – qo'g'irchoqning kiyimi shtrixlar bilan bezatiladi.

Tayyor chizmalarni ko'rish uchun guruh xonasida stend yoki molbert bo'lishi kerak. Tayyor chizmalarni bolalar bilan ko'rib chiqish, birinchi navbatda, ularning e'tiborini umumiy ishga: ranglarni tanlashga qaratiladi. Bu bolalarda tasavvurni, idrokni rivojlantiradi, so'z boyligini oshirishga hissa qo'shadi.

Bir oy ichida bajarilgan ishlar ko'rgazma stendida ota-onalar tomonidan ko'rsatilishi mumkin. Ko'rgazma mavzu va aniq maqsad asosida tashkil qilinadi. Tayyorlangan ishlarining bajarilgan sanasi ko'rsatiladi.

Har bir ishning pastki o'ng burchagida bola familiyasi, ismining birinchi harfi qo'yiladi. Bola uchun alohida plastik papka (fayl)larda u tomonidan bajarilgan ishlar saqlanai. Bu koptoklar bolalarning chizish malaka va ko'nikmalarining rivojlantirish jarayonini kuzatish, diagnostika qilish va tarbiyachining ishini baholashga xizmat qiladi.

Rasm mashg'ulotlarida quyidagi metod va usullardan foydalaniladi:

A. Asosiy metodlar:

1. Naturadan foydalanish metodi – kuzatish asosida predmet yoki ko'rinishning tasvirini yaratishga asoslangan metod. Metod quyidagi vazifalarni hal qilishga yordam beradi:

- tasvirlashning butun jarayonini o'z ichiga mujassamlashtiradi;
- predmetning birlamchi tahlili;
- tasvirni naturaga nisbatan taqqoslash;
- natijaning shaklini, holatini, rangini taqqoslash;

– natijadagi rasm va naturani taqqoslash yo‘li bilan baholash.

2. Namunadan foydalanish metodi – tasviriy mahsulotni avval ishlangan ishlarga qarab tayyorlashga asoslangan metod. Bolalar o‘zlari ko‘rgan va kuzatgan tasvirlarga asoslangan holda topshiriqni bajaradi.

3. Rasmlardan foydalanish metodi – tayyor rasmlar bolalarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini aniqlash, tasviriy usullar va vositalarni tushuntirish uchun xizmat qiladigan metod. Bolalarning kuzatishlari ko‘pincha qisqa muddatli bo‘ladi. Shuning uchun rasmlardan foydalanish qayta idrok qilishga va keyingi tasvir uchun xarakterli bo‘lgan eng asosiysini aniqlashga yordam beradi¹⁵².

B. Asosiy usullar:

1. Tasvir obyektini kuzatish usuli. Unga ko‘ra bolalarda borliqda kechayotgan hodisalarini kuzatish va didaktik o‘yinlar orqali predmetlar va ularning xossalari haqidagi tasavvurlar takomillashtiriladi va boyitiladi.

2. Passiv harakatlar usuli. Bu usul yordamida rasm chizishda bola tomonidan unga mos keladigan harakatlarni oson o‘zlashtirishi uchun qo‘llanilad. Bolalar aylana, tik yoki yotiq harakatlarni amalga oshiradi.

3. Tasvirning yo‘llarini ko‘rsatish:


- ko‘p nuqta yoki shtrixlar yordamida qor yoki yomg‘ir tasvirlanadi;
- aylana harakatlar – doiralalar, koptok, koptoklar, tutun;
- bir tomonlama harakatlar – yotiq: yo‘llar, o‘lchagichlar;
- tik: ustunlar, panjara, o‘t.

Ko‘rgazma ko‘pincha bolalar tomonidan qo‘shiq, sh‘er va raqslarini ijro etish asosida tashkil qilinadi.

4. Obrazli vaziyatlarni yaratish usuli – turli badiiy faoliyat turlarining o‘zaro bog‘liqligini ta‘minlash: masalan, tasvirlari asosida ertak kitoblarini ko‘rib chiqish.

Ishlar keyingi mashg‘ulotga qadar saqlanadi, agar xohlasalar ota-onalar ularni uylariga olib ketishlari mumkin.

Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida rasm chizishning quyidagi turlari qo‘llaniladi (27-rasm):



27-rasm. Rasm chizishning asosiy turlari

1. Mazmunli rasm chizish. Mazmunli rasm chizishning asosiy maqsadi bolaning atrof-muhitdan olgan taassurotlarini ifodalashga o‘rgatishdir. Mazmunli rasm – bir necha mazmunning ma‘lum rangda tasvirlanishi. Bolalar kichik hikoya, ertak asosida va bolalarni o‘rab turgan tevarak-atrofnı, tabiatni mazmunli chizishga harakat qiladi.

¹⁵² O‘sha manba. – 84-86-b.



2. Dekorativ rasm chizish. Dekorativ rasm chizish tasviriy faoliyatning boshqa turlari kabi bolada estetik tuyg'uni rivojlantiradi. Bolalarni xalq amaliy san'ati namunalari bilan tanishtirishda tarbiyachi ularda vatanparvarlik ruhini shu san'at asarlarini yaratayotgan odamlarning mehnatiga xurmat kabi tuyg'ularni tarbiyalash kerak.

Bolalarni dekorativ rasm chizishga o'rgatishda tarbiyachi ularda naqsh komponentlarining o'zaro bog'liqligini, rangini, kompozitsiyasini shakl elementini ko'rishga o'rgatadi. Dekorativ rasm chizishda rang qobiliyatning rivojlanishi asosiy masala bo'lib hisoblanadi¹⁵³.

Individual ishlash. Rasm chizish ko'nikmalarini tezda rivojlantirish va mustahkamlash uchun bolalar bilan individual ishlarni bajarish kerak bo'ladi. Buni ertalab yoki tushdan keyin mashg'ulotdan tashqarida tashkil etish mumkin.

Tarbiyachi rahbarligida 2-3 nafar boladan iborat kichik guruhlarda ishlash kerak.

Bunda ishni to'g'ri bajarish, asbob-uskunalaridan foydalanish, bolaning umumiy va hissiy holatini kuzatish, o'z ishi haqida gapirish istagini uyg'otish ko'nikmalarini mustahkamlash kerak.

Eng muhimi guruhda bolalarning badiiy va estetik rivojlanishiga yordam beradigan rivojlantiruvchi muhitni yaratish kerak.

III. Katta yosh guruhlarida rasm chizish mashg'ulotlari vositasida ko'nikma va malakalarini shakllantirish¹⁵⁴. Tasviriy faoliyat tayyorlov guruhida alohida o'rin tutadi. 6-7 yoshli bolalarda vizual-obrazli fikrlash ustunlik qiladi, chunki ular ko'rgan yoki tasavvur qila oladigan narsalarni yaxshi takrorlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar rasm chizishning barcha asosiy texnikasi va usullarini allaqachon bilishadi, bundan tashqari ular eshutilgan ertaklar yoki ko'rilgan filmlar uchun eskizlar, rasmlarni tayyorlashdan xursand bo'ladi. Shuning uchun tarbiyachilar yangi materialni mustahkamlash uchun tasviriy faoliyatni tanlash tavsiya qilinadi.

Bu o'rinda bolalarning tasviriy faoliyati "Ko'chib yuruvchi qushlar" mavzusi asosida bosqichma-bosqich ko'rib chiqiladi.

I. Tayyorgarlik bosqichi: mashg'ulot rejasini tuzish. Natija tarbiyachining jarayonning barcha tafsilotlarini puxta o'ylashiga, mavzuni shakllantirishiga, materiallarni tanlashiga, kerakli asbob-uskunalarini tayyorlashiga va eng muhimi, bolalarning qiziqish darajasiga bog'liq bo'ladi.

6-7 yoshli bolalar turli texnika va usullardan foydalangan holda rasm chizish tajribasiga ega va obrazli faoliyatning ushbu turi uchun talab qilinadigan asbob-uskunalar bilan allaqachon tanish bo'lishadi.


Faoliyat jarayonida quyidagi asbob-uskunalaridan foydalaniladi:

qalamlar (rangli va rasmning konturlarini chizish uchun qulay bo'lgan oddiy, o'rtacha yumshoqlikdagi qalamlar);

guash;

¹⁵³ O'sha manba. – 97-98-b.

¹⁵⁴ Ushbu kichik mavzuni yoritishda quyidagi manbadan foydalanildi: Как интересно провести занятие по рисованию в подготовительной группе на тему "Птицы" // <https://paidagogos.com/podgotovitelnaya-gruppa-risovanie-pereletnyie-ptitsyi.html>.



akvarel;
flomasterlar.

Oddiy printer qog'ozini "Qushlar" mavzusidagi rasm uchun eng yaxshi tanlov bo'ladi. Bundan tashqari, u oq va rangli choyshablar bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, chizish quyidagi xomashyolarda bajarilishi mumkin:
karton (turli xil zichlik);
akvarel uchun varaqlar.

A4 formatidagi qog'ozga chizish qulay. Bordi-yu, kompozitsiyani jamoaviy asosda yaratish rejalashtirilgan bo'lsa va fon yaratish, chizmaning ba'zi elementlarining konturlarini tayyorlash uchun kattalar yordamini olish nazarda tutilgan bo'lsa A2 yoki A3 formatidagi qog'ozlar bilan ishlashga ruxsat beriladi.

II. Mashg'ulot jarayonini tashkil etish bosqichi. Bolalar allaqachon turli noan'anaviy texnikada chizmalar yaratish uchun yetarli tajribaga ega bo'lishadi.

Bolalar tasviriy faoliyatning rasm chizishning an'anaviy usullaridan foydalanadi:
shablona muvofiq tayyorlangan konturlarni bo'yash;

kompozitsiyani to'ldirish (bolalar tayyorlangan fonda qushlarni chizish);

eskiz chizish, ayniqsa, tayyor rasmlardan qayta chizish (bu turdagi chizma katta guruhda faol qo'llaniladi, keyin esa tayyorlov guruhida takomillashtiriladi);

tayyor andozalarni kuzatish va bo'yash (kichik detallar bilan juda murakkab konturga ega bo'lgan blankalar yordamida);

hayotiy kuzatishlar asosida (masalan, bolalar sayr vaqti kuzatgan daraxt shoxlari yoki janubga uchib ketayotgan qushlarning harakatlari) rasm chizish.

Eng samarali eskiz – tabiat asosida chizilgan eskiz sanaladi. E'tibor bering, qushlar tanasining konturlari: patlar, qanotlar yoki bosh ularning umumiy obrazlarini chizish uchun tayyor namuna bo'la oladi.

Bolalar rasmni qog'oz maydonida taqsimlashni juda samarali uddalaydi, ya'ni ular tasvirning chegaralarini aniq tasavvur qilishadi.

6-7 yoshda bolalar:

har qanday shaklni bo'yash (hatto elementar soyalar bilan);

har qanday yo'nalishda ingichka va yo'g'on chiziqlarni chizish;

bo'yoqlar bilan yupqa chiziqlar chizishda cho'tkani varaqqa nisbatan tik holda ushlab turish va cho'tkani qalin chiziqlar uchun burchak ostida ushlab turish;

bo'yoqlarga namlangan ho'l cho'tkani ishlatish;

kerakli soyalarni olish uchun palitraning ranglarini aralashtirish;

kerakli effektini olish uchun qalam bilan bo'yash texnikasidan foydalanish, ularni turli yo'nalishlarda joylashtirish.

Qushlarni chizish bo'yicha mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rayotganda, tarbiyachi ushbu usullarni bolalarning ularni qanchalik yaxshi bilishiga qarab, shuningdek, maqsad va vazifalardan kelib chiqib birlashtirishi mumkin:

III. Faoliyatning qo'shimcha turlaridan foydalanish bosqichi. Mashg'ulotlar jarayonida tasviriy faoliyatning qo'shimcha turlaridan ham foydalanish mumkin. Yiliga bir necha marta taqvim-mavzuviy reja asosida u yoki yangi mavzu bo'yicha qo'shimcha mashg'ulotni tashkil qilish mumkin.



applikatsiya (masalan, rangli qog'ozdan kesilgan daraxtlarga qo'ngan qushlarni bo'yash mumkin);

modellashtirish (plastilin o't yoki butalar, daraxtlarning shoxlarini yasash);
qog'ozdan qush inlari, qushlarni oziqlantiruvchi chizish mumkin).

IV. Bolalar bilan individual ishlash bosqichi. Individual yondashuvni muayyan tartibda amalga oshiriladi.

Har bir bola o'ziga xos qobiliyatga ega. Bu fikr bolalar tomonidan chizilgan rasmlarni o'rganishda yana bir bor tasdiqlanadi. Vazifa va ish jarayoni bir xil bo'lsa ham ranglari, tasvirlangan obyektlarning shakllari va boshqa xususiyatlariga ko'ra bolalar chizgan rasmlar har xil bo'ladi. Individuallashtirishning asosiy maqsadi bolaning ijodiy qobiliyatini ro'yobga chiqarish, uni rivojlantirishga yordam berishdir.

Guruhlarda bolalar stollarda o'tirishadi va bo'yashadi. Individual yondashuv bolalarning rasm chizish tezligini hisobga olishga imkon beradi. Agar bola avval qalam konturini chizmasdan bo'yoqlar bilan yaxshi chizsa u holda unga bunday imkoniyatni berish mantiqan to'g'ri bo'ladi. Boshqa tomondan, agar bolaning chizilgan rasmida nuqtalar aniq ifodalansa, uni 2-3 element bilan to'ldirib, tugallangan rasmni ranglashiga ruxsat berishish mumkin.

Individuallashtirishda quyidagi vazifalar hal qilinadi:

tun / tong / kunduzi kompozitsiyasini chizish;

turli taxminlar asosida yaqinroq, uzoqroq ko'rinishga ega eskizlarni yasash;
berilgan element (o'rmon, daryo, yo'l va boshqa)larni eng mos joyga qo'yish.

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari uchun mavzu tanlash muhim jarayon sanaladi.

Muayyan guruh bilan ishlash tizimi belgilashda taqvimiy-mavzuviy rejalashtirish asosida qushlar mavzusiga takroran murojaat qilish mumkinligini nazarda tutadi.

Bolalar rasm chizishni quyidagi vaziyatlarda amalga oshirishi mumkin:

tasviriy faoliyat turining texnikasini o'rganish bosqichlari (masalan, masofada joylashgan elementlarning tasviri, tabiat namunasida rasm yaratish)da;

tabiiy hodisalarni o'rganishda (ba'zi qushlar uchun iqlimni o'zgartirish zarurati tug'ilganda);

fasllar nazarda tutilganda (kuzning ramzi sifatida ko'chib yuruvchi qushlarni tasvirlashda).

Mashg'ulot mavzusi tanlangan vaziyatga mos ravishda boshqacha bo'lishi mumkin.

Ya'ni:

1. "Ko'chmanchi qushlar uchmoqda".
2. "Qushlar janubga uchadi".
3. "Parrandachilik fermasi".
4. "G'oz".
5. "Hovuzdagi oqqush".
6. "Boyo'g'li".
7. "Chumchuqlar".
8. "Chumchuqlar galasi".
9. "Mening derazam ostidagi jo'ja".

10. "Qaldirg'ochlar".

Bir nechta qushlarning tasvirini o'z ichiga olgan kompozitsiyalarni yaratish guruhga vazifa sifatida topshiriladi. Bunda bolalar kichik qog'oz varag'iga qushni chizishadi va keyin o'z ishlarini bitta umumiy fonga yopishtiradi.

Ertaklarni o'rganish bilan bog'liq mavzularni alohida shakllantirish kerak:

1. "Ochil dasturxon".
2. "Oltin xo'roz".
3. "Quyoning ini".

Psixologlar tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida musiqadan foydalanishni tavsiya etadi. Bu nafaqat dam olishga yordam beradi, balki bolalarda yanada to'liq tasvir hosil bo'lishiga hissa qo'shadi.

"Qushlar" mavzusidagi mashg'ulotda quyidagi musiqalardan foydalanish mumkin:

1. V.A.Motsart, "O'rmonda tong".
2. A.Vivaldi, "Fasllar" (tegishli mavsumni tanlash orqali).
3. P.I. Chaykovskiy, "Fasllar".
4. P.I.Chaykovskiy, "Oqqush ko'li" baleti (parchalar).

Mashg'ulotlarda, shuningdek, she'rlardan ham foydalanish yaxshi samara beradi. Mavzuga oid yodlangan she'rlar bolalar tomonidan mashg'ulot avvalida yoddan o'qib beriladi.

Kombinatsiyasiz rasm chizishni tasavvur qilish qiyin. Shu sababli, tasviriy materiallar sifatida mavzu bo'yicha individual rasmlar, chizmalar, shuningdek, multimedia taqdimotlaridan foydalanishingiz mumkin. Multfilmlardan parchalarni ko'rish ham maqsadga muvofiqdir. Bu materiallar ko'rib chiqilgach bolalar ma'lumotni qanchalik yaxshi qabul qilganligini tekshirish mumkin. Ushbu jarayon so'rovnomada yordamida amalga oshiriladi. Ya'ni:

1. Qanday qushlar ko'chib yuradi?
2. Nima uchun qushlar janubga uchadi?
3. Bizning hududimizda qanday qushlarni yashaydi?
4. Qishda qushlarga qanday yordam bera olasiz?

Savol-javoblardan so'ng bolalarga ko'chib yuradigan qushlar haqida ma'umot beradigan quyidagi plakat namoyish qilinadi (12-jadval):



Ko'chib yuradigan qushlar¹⁵⁵



So'fitor'gay (to'rg'ay)




Mayna



Jibljibon



Qorayaloq



Sassiipopishak




Qaldirg'och



Qizilqush



Chittak



Qizilishton




Zarg'aldoq



Mayna



Qizildum chumchuq



Laylak



Turna



Kakku



Bulbul

¹⁵⁵ Suratlar ushbu manbalardan olindi: Какие птицы улетают на зиму, а какие остаются зимовать на родине? // <https://allforchildren.ru/why/which10.php>; googli.com – qidiruv manbasi



Demak, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat va uni tashkil etish pedagogik jarayonning yana bir muhim tarkibiy qismi, bolalar faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan bir sanaladi. Tasviriy faoliyat chizish, tabiiy va sun'iy, shuningdek, qirqim materiallardan yasash, modellashtirish hamda qurish-yasash kabi harakatlarni o'z ichiga oladi. Mazkur faoliyat negizida rasm chizish muhim ahamiyatga ega. Binobarin, rasm chizish mashg'ulotlari bolalarning turli sohalarida olgan bilimlarni mustahkamlaydi, estetik didni shakllantirivsh, ijodiy salohiyatini rivojlantiradi. Turli guruhlarda tasviriy faoliyat avvaldan ishlab chiqilgan reja asosida tashkil qilinadi va unda guruhlarning xususiyatlari inobatga olinadi.

Nazorat savollari:

1. Tasviriy faoliyat nima?
2. Qanday materiallar tasviriy materiallar sanaladi?
3. Tasviriy faoliyatning asosiy yo'nalishlarini nimalar tashkil qiladi?
4. Chizish va yasash nimalarni anglatadi?
5. Modellashtirish deganda nimani tushunasiz?
6. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning qurish-yasash faoliyati qanday materiallar asosida amalga oshiriladi?
7. O'rta guruhlarda tasviriy faoliyat qancha davom etadi?
8. Katta va tayyorlov guruhlar tashkil qilinadigan tasviriy faoliyatning davomiyligi qancha?
9. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari tayyorgarlik ko'rishda tarbiyachi qanday vazifalarni bajaradi?
10. Bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish qanday maqsadni ko'zlaydi?
11. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlar uch bosqichda amalga oshiriladi?
12. Kichik yosh guruhlar tarbiyasida tasviriy faoliyatni tashkil etish qanday kechadi?
13. Bo'yoqlar bilan chizishda nimalarga e'tibor qaratiladi?
14. Rasm mashg'ulotlari qanday metod va usullar yordamida tashkil qilinadi?
15. Katta yosh guruhlarida rasm chizish mashg'ulotlari vositasida bolalar qanday ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi?

Test topshiriqlari:

1. Maxsus materiallar, tasviriy vositalar yordamida borliqdan olingan taassurotlarni hamda unga nisbatan munosabatni ifodalovchi badiiy-ijodiy faoliyat – bu....
 - a) ijodiy faoliyat;
 - b) ijtimoiy faoliyat;
 - c) tasviriy faoliyat;**
 - d) estetik faoliyat.
2. Chizish, yasash, modellashtirish, qurish-yasash. Ular – bolalar tasvirish faoliyatining

 - a) muhim vazifalari;



b) ustuvor tamoyillari;

c) yetakchi g'oyalari;

d) asosiy yo'nalishlari.

3. Turli qalam, buyoq, flomaster, guash va boshqalardan turli tasvirlarni hosil qilish – bu ...

a) chizish;

b) yasash;

c) modellashtirish;

d) qurish-yasash.

4. Kub, lego, yog'och va boshqa materiallardan muayyan predmet (masalan, uy, ko'prik, yo'l va boshqalar)ni konstruksiyalash – bu ...

a) chizish;

b) yasash;

c) modellashtirish;

d) qurish-yasash.

5. O'rta guruhlarda tasviriy faoliyat mashg'ulotlari ... davom etadi.

a) 10-15 daqiqa;

b) 15-20 daqiqa;

c) 20-25 daqiqa;

d) 30-35 daqiqa.

6. Katta guruhlarda tasviriy faoliyat mashg'ulotlari ... davom etadi.

a) 10-15 daqiqa;

b) 15-20 daqiqa;

c) 20-25 daqiqa;

d) 30-35 daqiqa.

7. Borliqni tasavvur qilishda bolalarga yordam berish ularni tasviriy faoliyatga o'rgatishning asosiy ... sanaladi.

a) maqsadi;

b) vazifasi;

c) sharti;

d) g'oyasi.

8. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlar ... dan iborat bo'ladi.

a) besh bosqich;

b) to'rt bosqich;

c) uch bosqich;

d) ikki bosqich.

9. Naturadan, namunadan va rasmlardan foydalanish. Ular rasm mashg'ulotlarida foydalaniladigan asosiy

a) shakllari;

b) metodlari;

c) usullari;

d) vositalari.



10. Tasvir obyektini kuzatish, passiv harakatlar, tasvirning yo'llarini ko'rsatish hamda obrazli vaziyatlarni yaratish. Ular rasm mashg'ulotlarida foydalaniladigan asosiy

- a) shakllari;
- b) metodlari;
- c) usullari;**
- d) vositalari.

11. Mazmunli rasm chizish va dekorativ rasm chizish. Ular tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida rasm chizishning asosiy ...

- a) turlari;**
- b) shakllari;
- c) ko'rinishlari;
- d) obrazlari.

Amaliy topshiriqlar:

1-topshiriq. Maktabga tayyorlov guruhida "Gullar" mavzusida rasm chizish mashg'ulotining loyahasini tayyorlang.

2-topshiriq. Bosma va elektron adabiyotlar bilan tanishish asosida bolalar chizgan rasmlar ko'rgazmasini tashkil qilish uchun zalni jihozlash loyahasini ishlab chiqing.

5.2. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalarni ranglar bilan tanishtirish usullari

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatning umumiy tushunchasi.
2. "Ilk qadam" o'quv dasturi asosida turli yosh guruhlar tarbiyasida tasviriy faoliyatdagi ranglar bilan tanishtirish mazmuni.
3. Bolalarning xalq amaliy-bezak san'ati, milliy o'yinchoqlar haqidagi bilimlarini rivojlantirishda ranglar bilan tanishtirish.

Tayanch tushunchalar: faoliyat, tasviriy faoliyat, mashg'ulot, tasviriy faoliyat mashg'ulotlari, bolalar, rang, tanishtirish, bolalarni ranglar bilan tanishtirish, usul, bolalarni ranglar bilan tanishtirish usullari, tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalarni ranglar bilan tanishtirish usullari, "Ilk qadam" o'quv dasturi, xalq amaliy-bezak san'ati, milliy o'yinchoqlar, bilim, rivojlantirish, bilimlarni rivojlantirish.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi. – T.: YUNISEF, 2018, 72 b.
2. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti // <https://lex.uz/docs/5179335?query>.
3. Nurmatova M.Sh., Hasanova Sh.T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi. – T.: "Cho'lpon", 2010.



4. Nurmatova M.Sh., Hasanova Sh.T., Azimova D. Ustaxonada amaliy mashg'ulot. – T.: "Musiqqa", 2010.

I. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatning umumiy tushunchasi. Tasviriy faoliyat ijodkorlik, tasavvur, fantaziya, kuzatish va boshqa muhim fazilatlarining namoyon bo'lishi va rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan o'ziga xos faoliyatdir. Rasm chizish, modellashtirish va applikasiya mashg'ulotlari bolalarga go'zallikni ko'rishga, san'at asarlarini, o'z ona tabiatining go'zalligi va boyligini tushunish va qadrlashga yordam beradi.

Chizish orqali bola o'z atrofidagi dunyoni bilish istagini bildiradi va rasm chizish orqali ma'lum darajada bu bilimlarning darajasini bilish mumkin. Bolalarning idroki, kuzatuvi qanchalik rivojlangan bo'lsa, ularning g'oyalar fondi qanchalik keng bo'lsa, ular o'z ishlarida voqelikni qanchalik to'liq va aniq aks ettirsa, chizgan rasmlari shunchalik boy hamda ifodali bo'ladi. Bolalarning tasviriy faoliyatida ular tafakkurining aniqlik va tasviriylik kabi o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi. Bolaning tasviriy faoliyati nafaqat individual funktsiyalar (idrok, xotira, fikrlash, tasavvur), balki umuman shaxsiy rivojlanish bilan ham chambarchas bog'liq. Bu bolaning manfaatlarini, temperamentini, ba'zi gender farqlarini ko'rsatadi.

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bolalarni maktabga tayyorlash bilan birga har tomonlama kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. V.A.Suxomlinskiy "Bolalarning qobiliyati va iste'dodining rivojlanishi ularning o'z qo'lida", - deb ta'kidlagan. Bolaning qo'li qanchalik mahoratli bo'lsa, u shunchalik aqlli bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida tasviriy faoliyat jarayonida bolani chizishga, yashashga, modellashtirishga o'rgatish uni maktab ta'limiga tayyorlash uchun zarur bo'lgan qo'lning motorik harakatlarini tashkil qilish malakalarini rivojlantiradi.

Har xil shakllarni modellashtirish, masalan, turli shakllarni yasash, obyektning tekshirish, loyni teng qismlarga bo'lish, bir xil plastilin bo'laklarini kesish, chimchilash, o'zgaruvchan elementlar bilan bezak chizish – bularning barchasi ko'rish qobiliyatini rivojlanishiga yordam beradi.

Tasviriy faoliyatning barcha malakalari qo'lning yozishga tayyorlaydi. Rasm chizishda uzluksiz yozish mexanizmlari: qo'lning yelkadan boshlab ishlay olish, tirsak va bilak bo'g'imlarida mahkamlash, taxtada yozish malakasi ham shakllanadi.

Turli buyum, predmet, o'yinchoq va qo'g'irchoqlarni yasashda bola kuchini taqsimlash, og'irlikni qo'lga o'tkazish, qalamni to'g'ri ushlab o'zlashtirishda quyidagi usullardan foydalanish samarali sanaladi:

- har xil turdagi (to'g'ri, to'liqlik) chiziqlardan naqshlar chizish;
- grafik texnikada nuqta, chiziq, chiziq bilan chizish;
- "guash va akvarel" texnikasida ho'llash, cho'tka, chiziq bilan chizish.

Asosiy hissiy me'yorlar (aylana, kub, to'rtburchak, uchburchak, romblar) bilan tanishish geometrik shakllarning shakli, rangi, hajmini ajratib olish qobiliyatini rivojlantirishga ta'sir qiladi. Bundan tashqari, murakkab shaklni tahlil qilish, qismlarni hajmi, joylashuvi bo'yicha bog'lash malakasi rivojlanadi. Bunga oddiy



hisoblash elementlari (hasharotning 6 oyogʻi, itning 2 ta qulogʻ, sigirning 1 ta dumi va boshqalar), anʼanaviy oʻlchovlar (obyektlarni ulahning oʻlchami, uzunligi, kengligi, balandligi boʻyicha taqqoslash) qoʻllash yordam beradi.

Tasviriy faoliyat mashgʻulotlari maktab taʼlimida zarur boʻlgan koʻnikma, malakalarni shakllantirish va mustahkamlashga yordam beradi:

- topshiriqni tinglash va yodlash;
- uni maʼlum bir ketma-ketlikda bajarish;
- ishlanmalarni maʼlum vaqt ichida saqlash;
- oʻz ishini baholash, xatolarini topish va ularni tuzatish;
- faoliyatingizni rejalashtirish;
- topshiriqni bajarishni oxiriga yetkazish qobiliyati;
- ish joyini, asboblarni va materiallarni tartibli holda saqlash.

Bundan tashqari, rasm chizish, yasash, applikasiya ishlari bolalarda ijobiy his-tuygʻularni uygʻotadi, tasviriy material bilan ishlashdan qoniqish hosil qiladi, psixologik yengillikka ega boʻlishga yordam beradi¹⁵⁶.

II. "Ilk qadam" oʻquv dasturi asosida turli yosh guruhlar tarbiyasida tasviriy faoliyatdagi ranglar bilan tanishtirish mazmuni. Rang tasviriy sanʼatda katta rol oʻynaydi. Rangning insonga hissiy taʼsiri juda kuchli. Rang (asarning rang tuzilishi) voqelikni ifodalash va haqqoniy tasvirlash vositalaridan biridir. Yorqin quyoshli quvonch yoki lirik, sokin, qaygʻu, fojiali toʻqnashuv – bularning barchasi rasmning maʼlum bir rang sxemasini belgilaydi.

Tasviriy sanʼat maktabgacha taʼlim tashkilotlarining estetik rivojlanishida muhim oʻrin tutadi. Rassomning tasavvurida tugʻilgan tasvirlar bolani unda ifodalangan vaziyatlarni boshdan kechirishga va tushunishga undaydi.

Har qanday sanʼat asari maʼlum kompozitsion tuzilishga ega. Chizma, rasm kompozitsiyasini rassom shunday quradiki, tomoshabin asardagi asosiy narsani his qiladi. Rassom oʻz maqsadi, fikrining eng ifodali yechimlarini qidiradi. Qisman, bola chizilgan rasmni yaratishda bu jarayonni juda soddalashtirilgan shaklda oʻz boshidan oʻtkazadi. Bolaga rassom oʻz maqsadiga qanday erishishini koʻrsatishi juda muhim.

Chizma yoki rasm kompozitsiyasini tahlil qilish chogʻida asar gʻoyasini, uning asar mazmuni bilan bogʻliqligi ochib berilishi kerak. Shunda bolalar sanʼat bilan tanishganlarida ularni boshqarish, tushunish osonroq boʻladi.

Rang – 1) boʻyash uchun ishlatiladigan modda, boʻyoq; 2) narsalarga suritilgan yoki singdirilgan buyoq, sir; 3) biror narsaning oʻziga xos boʻyogʻi, tus¹⁵⁷.

Tasviriy sanʼatda ranglar katta ahamiyatga ega, zero, u insonga juda kuchli hissiy taʼsir koʻrsatadi. Bolalarga ranglarni tanishtirish uchun mashgʻulotni maʼlum rangning nomi bilan bogʻlash, obyektlarni rang boʻyicha taqqoslash samarali sanaladi.

¹⁵⁶ Родина Т.А. Изобразительная деятельность дошкольников, ее значение в подготовке к школьному обучению // https://shkola7gnomov.ru/parents/nasha_ekspertiza/id/izobrazitelnaya-deyatelnost-doshkolnikov-ee-znachenie-v-podgotovke-k-shkolnomu-obucheniyu.


¹⁵⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Н – Тартибли / 5 жилдди. Учинчи жилд. А. Мадвалиев таҳрири остида. Таҳрир хайъати: Э.Бегматов ва бошқ. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007. – 347-б.



Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni ranglar bilan tanishtirish orqali ularda bo'yash ko'nikma va malakalarini o'zlashtiradi.

Bo'yash – rang berish, bo'yoq surtib bezashdan iborat xatti-harakat, faoliyat.

Bolalarning bo'yash faoliyati bo'yoqlar yordamida amalga oshiriladi. Bo'yash jarayonida bir nechta bo'yash vositalaridan foydalaniladi. Ular (28-rasm):



28-rasm. Bo'yashda ishlatiladigan vositalarning asosiy turlari

Kichik guruhlarda chizish uchun qora, qizil, sariq, ko'k, jigarrang, yashil rangdagi yumshoq qalamlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu olti turdagi rangli qalamlarning orasidan bolalarni tanishtirish uchun eng avval qizil va qora ranglarni tanlash to'g'ri bo'ladi. Keyin ko'k, yashil, sariq va jigarrang qalamlar bilan ishlash maqsadga muvofiqdir.

Ushbu guruhda bolalarni obyektlarning haqiqiy rangini anglashga o'rgatish vazifasi hozircha qo'yilmaydi.

Dastlabki mashg'ulotlarda bolalarga ikkita, keyin esa to'rtta rangli qalamlar beriladi. Agar bola har doim biron bir rangdagi qalam yoki bo'yoq olsa va boshqa ranglarni sezmasa, tarbiyachi unga boshqa rangda chizishni taklif qilishi mumkin. Ammo bu majburiy talab bo'lmasligi kerak.

Tarbiyachi bolalarga aniq topshiriq berib, tegishli bo'yoq rangini ko'rsatishi kerak. Keyingi mashg'ulotlarda esa asta-sekin bolalarga turli rangdagi bo'yoqlar va qalamlardan foydalanish, qog'ozga turli xil chiziqlar, shtrixlar va dog'larni qo'llash imkoniyatini berishi kerak.

Chizish va bu jarayonda bolalar tomonidan olingan taassurotlar o'rtasida uzviy aloqadorlik saqlanishi muhim.

Bolalar ko'p narsani biladi, ko'p ish qila oladi, ko'p narsani tushunadi, lekin ular hozircha hayotiy tajribaga ega emas.

Zamonaviy jamiyat erkin, tashabbuskor, ijodkor, ma'naviyatli va intellektual qobiliyatning yuqori darajasiga ega shaxslarga tobora ko'proq muhtoj bo'lmoqda. Shuning uchun ham bir guruh tarbiyachi va psixologlar ijodiy faoliyatni yangi mazmun, yangi uslub va shakllarda tashkil qilishga e'tiborni qaratishlari lozim.



Hayotining to'rtinchi yilida bolalarda obyektlarning shakli, hajmi, asosiy ranglari haqidagi tushuncalarning asta-sekin shakllanishi sababli idrok, fikrlash, xotira yaxshilanadi va rivojlanadi.

Rang bilan tanishish yil davomida rasm va applikatsiya mashg'ulotlarida tasviriy faoliyat bilan bog'liq topshiriqni jamoa bilan birgalikda bajaradi.

Birinchi mashg'ulotlarda turli yorqin ranglarni taklif qilish tavsiya etiladi. Chunki bolalar ularni oson farqlaydi va eslab qoladi. Keyin bolalarga ranglarning soyalarini ajratish va nomlash o'rgatiladi.

Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar qizil, sariq, yashil, ko'k, oq, qora kabi ranglarni, shuningdek, ranglarning soyalarini: pushti, ko'k, kulrang ranglarni ajrata oladi va nomlaydi.

Birinchi mashg'ulotlardan boshlab bolalarga oltita qalamlar to'plamini berishish mumkin. Lekin ularni darhol barcha ranglar bilan tanishishga va nomlashga majburlamaslik kerak. Tarbiyachi doimiy ravishda diqqatini tasvirlangan narsalarning rangi (masalan, "yashil o'tlarni, qizil mevalarni chizish")ga qaratishi kerak.

Bolalar bilan birgalikda tasviriy asarlarni tomosha qilishda, aniqrog'i mashg'ulot oxirida gullarning nomlari va ularning ranglarini bolalar bilan hamkorlikda aniqlash kerak. Ya'ni quyidagi tarzda: "Mana qanday go'zal sariq barg" yoki "Biz qancha uzuk chizdik? Ular qanday ranglarda?").

Shu tarzda bolalar asta-sekin barcha ranglarni o'rganadi. Rangni idrok etishni rivojlantirish, bolalarni ranglarni ajratish va nomlashga o'rgatish, shuningdek, ranglar haqidagi bilimlarni nafaqat rasm chizish mashg'ulotlarida, balki didaktik o'yinlarda, kundalik hayotda ham mustahkamlash zarur.

O'rta guruhda bolalar atrofdagi narsalar, obyektlar rangi bo'yicha farqlanadi degan fikrga ega bo'ldi. Ular allaqachon to'rt yoki olti rangning nomini bilishadi va bu ranglarni ajrata oladi. Bolalar chizma va ilovalarda rangdan erkin foydalanishlari uchun ularning diqqatini tevarak-atrofdagi predmetlar, san'at asarlaridagi ranglarga, ularni to'g'ri nomlashga qaratib borish zarur. Albatta, barcha bolalar ranglarning nomlarini eslay olmaydi.

Tarbiyachi rasm chizish jarayonida bolalarning ranglardan qanday foydalanishini passiv kuzatmasligi, balki ularning e'tiborini tasvirning rang sxemasiga qaratishi, ularni bo'yoq qanday rangda ekanligi haqida o'ylashga undashi kerak. Mashg'ulot yakunida tarbiyachi bolalardan qutiga rangli qalamlarni joylashtirishni so'raydi, ma'lum bir tartibda stakanlarga quyilgan akvarel yoki guash bo'yoqlar yuvib tozalanadi.

Tayyorlov guruhlarida bolalarga ular bajarishi ixtiyoriy yoki shart bo'lgan maxsus rang topshirig'i berilishi mumkin.

Bolalarga rangning ifodali imkoniyatlarini ko'rsatish kerak, bining uchun ulardan ko'proq ranglarning kombinatsiyasi haqida so'rash lozim.

Tasviriy san'atda asosiy ranglar yettita: qizil, sariq, yashil, ko'k, oq, qora, jigarrang. Bu ranglar "sof ranglar" deyiladi. Shuni ham ta'kidlash kerak: musiqa ham yettita notaga, kamalak yetti xil rangga ega. Qolgan barcha ranglar bu "sof ranglar"ning kombinatsiyasi.

Uch asosiy rang (qizil, sariq, ko'k), uchta yordamchi rang (to'q sariq, yashil, binafsha)



va moviy kamalakning yetti rangini tashkil qiladi. Kamalakdagi ranglar tartibini eslab qolish oson. Buning uchun siz quyidagi iborani bolalarga o'rgatish kerak:

Qizaloq Zarifa savat yasab, mazali kulchalarni soldi

Qizaloq	Zarifa	savat	yasab,	mazali	kulchalarni	soldi
<i>Qizil</i>	<i>Zarg'aldoq</i>	<i>Sariq</i>	<i>Yashil</i>	<i>Moviy</i>	<i>Ko'k</i>	<i>Siyohrang</i>

Kamalakning yetti rangidan tashqari, juda ko'p kompozitsion ranglar ham mavjud. Odamlar ularni obyektlarning nomlari bilan belgilashni ixtiro qildilar, masalan: o'simliklar: pushti – atirgul, och yashil – salat, xantal – xantal; meva va rezavorlar: olcha – pushti, olxo'ri – siyohrang, shaftoli – zarg'aldoq; qimmatbaho toshlar: feruza – yashil, agat – qora, zumrad – oq va boshqalar. Va ranglarning issiq va sovuq ekanligini ham unutmasligingiz kerak. Issiq: jigarrang, olcha, qizil, to'q sariq, sariq.

Bolalarni kamalakning ranglari bilan tanishtirish ham ularda ranglarni ajratish hissini rivojlantiradi (13-jadval):

13-jadval

Asosiy ranglarning turlari¹⁵⁸

Asosiy (birlamchi) ranglar



Ko'k



Sariq



Qizil



Yashil




Zarg'aldoq



Siyohrang
(Binafsha)

Qo'shimcha (ikkilamchi) ranglar

Issiq ranglar:
jigarrang;
pushti;
qizil;
to'q sariq; sariq



Sovuq ranglar:
yashil;
binafsha;
ko'k;
ochiq ko'k;
kulrang.

¹⁵⁸ Berilgan rasmlar google.com Qidiruv saytidan olindi.



Kamalakning yetti rangi:

Qizil, zarg'aldoq, sariq, yashil, havorahg, ko'k, binafsha (siyoh)rang

Mashg'ulot davomida chizmani chiroyli qilish uchun bo'yoq va qalamni to'g'ri ushlash kerakligini eslatib turish kerak, aks holda ular qalamlar rangini o'zgartirishga ehtiyoj sezmasdan boshida olingan bitta qalam bilan hamma narsani chizishlari mumkin.

6-7 yoshli bolalar obyektlar va ularning asosiy xususiyatlari (shakli, tuzilishi, hajmi, nisbati, rangi, ritmi va boshqalar)ni ajratib ko'rsatish, tahlil qilish, fikrlash jarayonlarini o'zlashtirdi. Bu nafaqat narsa va hodisalarni tasvirlash uchun, balki bolaning umumiy aqliy rivojlanishi uchun ham juda muhimdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalardan rangli qog'ozni chizish yoki kesish, so'ngra ertakda tasvirlangan yetti rangli gulni yopishtirish so'ralsa, spektral doira (kamalak ranglarini doira ichida joylashtirish) haqida tasavvurga ega bo'ladi.

Bolalarga faqat sovuq yoki issiq ranglarda emas, aksincha, qarama-qarshi ranglarda guldastani chizish yoki kesish, yopishtirish topshirig'ini berish mumkin.

Har bir bolaning yoqtirgan va yoqtirmaydigan ranglari bor. Qaysi rangni yoqtirish va yoqtirmaslik, ayniqsa, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Bolalarda rang tuyg'usini rivojlantirish uchun dekorativ rasm va turli xil bezak ishlari (applikatsiya, rasmni modellashtirish) katta imkoniyatga ega. Bu jarayonda xalq amaliy-bezak san'ati bolalarning tasviriy faoliyatini tashkil qilishda boy material taqdim etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil qilinadigan tasviriy faoliyat mashg'ulotida quyidagi omillarga tayanib ish ko'riladi:

1. Emotsional munosabat. Bu usul mashg'ulotda musiqiy asarlardan foydalanishni nazarda tutadi. Shuni esda tutish kerakki, musiqiy tasvir va musiqiy til bolalarning yoshiga mos kelishi kerak. Musiqa bolalarni birlashtiradi, hayajonlanganlarni tinchlantiradi, mashg'ulotga halaqit qiladiganlarni faollashtiradi.

2. Badiiy so'z. So'z va san'at o'zaro aloqador. Ular bir-birini to'ldiradi, tasvirni badiiy idrok etishni faollashtiradi. Bolalar, ayniqsa, she'riy satrlarning go'zalligiga hissiy munosabatda bo'lishadi.

3. Pedagogik drama. Guruh bolalari ko'pincha sayr qilishadi. Sayr haqqoniy yoki xayoliy bo'lishi mumkin. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlari chizgan mamlakatga sayohat qilishadi. Ertakning qiziqarli sujeti, rasm chizishning noan'anaviy



usullari – ularning barchasi bolalarda his-tuyg‘u va tasavvurni rivojlantirishiga xizmat qiladi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar uchun ijodiy fantaziya usuli qo‘llaniladi. Bolalar gilamda qulay o‘tirishadi, dam olishadi, ko‘zlarini yumadi, o‘rmon, daryo, dengiz tovushlarini tinglashadi. Tarbiyachining sokin, iliq ovozi tabiatning rasmini taqdim etishga yordam beradi, keyinchalik bolalar o‘z rasmlarida tasavvur qilganlarini gavdalantiradi.

Shuningdek, bolalar rassomlarning ustaxonalariga, ko‘rgazmalar zaliga sayohat qilishlari, shahar bo‘ylab, dalaga ekskursiya qilishlari mumkin. Sayohatlar davomida bolalar san‘at olami bilan bevosita aloqada bo‘ladi.

4. Raqs. Maktabgacha yoshdagi bolalar tana erkinligiga ega. Shuning uchun tasviriy faoliyatda harakat va raqs faol qo‘llaniladi. “Gullar raqsi”, “Havo koptogi”, “Quvnoq hayvonot bog‘i”, “Dengiz” kabi mashqlar bolalarda nafaqat egiluvchanlik (plastika) ni rivojlantiradi, balki bolaga erkinlikni his qilish, hissiy o‘zini namoyon qilish uchun imkoniyat yaratadi.

5. Teatr faoliyati. Teatr elementlari tasviriy faoliyatni faollashtiradi, bolalarda his-tuyg‘ularning rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Yodlangan rollar, pozitsiyalar, imo-ishoralar bolalarning hissiy tajribasiga asoslanadi. Kichik guruhlarda soya teatrining elementlari qo‘llaniladi. Bolalar o‘zi sevgan qahramondan asosiy, xarakterli narsani qabul qiladi.

6. O‘yin. Bolaning ichki dunyosini rivojlantirishning eng muhim usullaridan biri o‘yindir. O‘yin bolalarning tasavvur va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishning eng muhim usuli hisoblanadi. O‘yinda bolaning e‘tiborini eng muhim axloqiy, estetikaga ko‘rsatmalarga yo‘naltirish oson. Jumladan, didaktik o‘yinlar – “Ertakni tugating”, “Peyzajni to‘ldiring”, “Fasllar”, “Keraksiz predmetni toping”; grafik topshiriqlar – “Nuqtalar bo‘yicha chizish”, “Simmetriya” va boshqalar¹⁵⁹.

“Ilk qadam” davlat dasturida maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalar tomonidan tasviriy faoliyatda ranglar bilan tanishish borasida o‘zlashtiradigan ko‘nikma va malakalar ko‘rsatib berilgan. Xususan:

4-5 yoshli bolalar tomonidan ranglar bilan ishlash borasida o‘zlashtiriladigan ko‘nikma va malakalar:

oltita va undan ortiq ranglarning nomlarini biladi;

tasvirlar bilan ishlaganda ranglarni ajrata oladi;

rasm, xalq amaliy-bezak san‘ati namunalari (kashtalar, nashqlar, milliy qo‘g‘irchoqlar) asosida chizilgan eskiz uchun tegishli rangni tarbiyachining yo‘naltiruvchi savollari asosida tanlay oladi;

ranglarning oq yoki to‘q ekanligini ayta oladi;

tarbiyachi tomonidan namoyish qilingan predmetning rangini xatosiz aytib beradi;

tabiatga oid rasmlar chizilganda obyektlarga tegishli ranglar asosida bo‘yaydi (barglarni yashil rangga, quyoshni sariq rangga, gullarni qizil rangga va hokazolar tarzida).

¹⁵⁹ Значение изобразительной деятельности для всестороннего развития детей //.



6-7 yoshli bolalar tomonidan ranglar bilan ishlash borasida o'zlashtiriladigan ko'nikma va malakalar:

o'ngga yaqin ranglarning nomlarini biladi;

tasvirlar bilan ishlaganda ularni bo'yash uchun zarur ranglarni o'zi mustaqil tanlaydi;

rasm, xalq amaliy-bezak san'ati namunalari (kashtalar, nashqlar, milliy qo'g'irchoqlar)dan zavqlangan holda mustaqil ravishda eskizlarni yaratishga harakat qiladi, zarur o'rinlarda tarbiyachidan maslahat, ko'rsatma oladi;

ixtiyoriy olingan predmetlarning rangini aytib beradi;

sovuq va issiq ranglarni ajrata oladi;

kamalakning rangini tegishli tartib asosida sanab beradi;

gullar, meva va sabzavotlarning ranglarini ajrata oladi;

eskizlarni bo'yashda bo'yoqlarni mustaqil tanlashga harakat qiladi;

loydan, xamirdan yasalgan o'yinchoqlarni bo'yashda tegishli ranglarni tanlay oladi;

plastilindan o'yinchoqlar yasaganda predmetning shakli, tashqi xususiyatlariga ko'ra ranglarni tanlaydi.

III. Bolalarning xalq amaliy-bezak san'ati, milliy o'yinchoqlar haqidagi bilimlarini rivojlantirishda ranglar bilan tanishtirish. Milliy qadriyatga muhabbat eng avvalo oiladan shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlanadi. Oilada farzand uchun milliylik aks etgan qo'g'irchoqlar sotib olinsa, bolalar muassasasidagi o'yinchoqlar uning kelajakdagi o'ylari va orzularini amalga oshishiga xizmat qiladi¹⁶⁰.

Xalq amaliy san'atini o'rganish maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiyoti, badiiy didi va umumiy badiiy madaniyatini rivojlantirishning asosi hisoblanadi. Bolalar bog'chasida estetik tarbiya tizimida bolalarning dekorativ-amaliy faoliyati alohida o'rin tutadi.


Bugungi kunda maktabgacha ta'lim xalq amaliy san'atining ulkan tarbiyaviy imkoniyati bilan boyitildi. Hunarmandchilik, uning turlari bilan tanishish, milliy o'yinchoqlarni modellashtirish va bo'yash bolalarda tasviriy faoliyat ko'nikma, malakalarini samarali rivojlantirishga imkon beradi, ularda ijodiy faollik, mustaqillikni rivojlantiradi, xalq amaliy san'atiga qiziqishni kuchaytiradi.

Tasviriy faoliyatning deyarli barcha turlari orqali bolalarni xalq amaliy-bezak san'ati bilan tanishtirish mumkin. Bunda, ayniqsa, kashtachilikda qo'llaniladigan bezak buyumlari va ularning rang tasviri bolalarni ranglar bilan tanishtirishda o'ziga xos ta'sirga ega.

Kashtachilikda qo'llaniladigan bezak buyumlarining turi juda ko'p masalan, so'zana, kirpech, choyshab oyxalta, choy xalta, zardevor, palak, gul-kurpag dorpech, bugioma, parda, belbog', yostiq ustiga yopiladigan takyanush, do'ppi, ko'ylak, dastro'mol, hamyon, joynamoz, nimcha, maxsi-kavush, xaltacha va boshqalar badiiy did bilan bezatilgan. O'tmishda bu kashtalar oq va malla matolarga tikilgan. Keyinchalik satin, shoyi baxmalga tikiladigan bo'ldi.

¹⁶⁰ Ziyod, Ahror. Milliy qo'g'irchoqlarni yaratish qay ahvolda // <https://kun.uz/uz/44838066>.

Kashtachilikda bezak buyumlarining quyidagi turlari ishlatiladi (28-rasm):



28-rasm. Kashtachilikda qo'llaniladigan bezak buyumlarining asosiy turlari

1. Do'ppi – O'zbekistonda keng tarqalgan yengil bosh kiyim. Do'ppi kiyish dastlab Eron va turli xalqlar o'rtasida rasm bo'lgan. Asrlar davomida do'ppining turli xillari vujudga kelgan. Baxmalga, satinga, sidirg'a shoyiga ip, ipak va zar bilan do'ppi gullari tikilgan. O'zbekistonda, Toshkent, Chust, Buxoro, Samarqand, Boysun, Shahrisabz do'ppilari mashhur bo'lib, ular o'ziga xosdir.

Respublikaning barcha tumanlarida do'ppi tikiladi. Iroqi, Chust do'ppi, gilam do'ppi, chakma tur, qizil gul, piltado'zi, zardo'ppi, to'ldirma deb nomlanadigan milliy do'ppilar bor. Har bir do'ppi yaratilish uslubiga ega bo'lib, ular bir-biridan farq qiladi.

Masalan, Aragchin – sharsimon do'ppi, uni asosan keksalar kiyadi. Toshkentda sharsimon do'ppilar kanda xayol, bosma, chakmator, iroqi chok usullarida tikiladi.

Tus do'ppi – keng tarqalgan yassi yuzali do'ppi. Ko'pincha tus do'ppi chust do'ppi deb yuritiladi. Tus do'ppilarning birgina klassik variantining o'zida sakkizta chok uslubi qo'llaniladi. Masalan, zanjira, to'g'ri chok, chita, kungura, yetalatma, taroq, ova, pildiroq.

Chust do'ppisining tepasi kvadrat shaklida bo'rtib chiqib, yarim shar ko'rinishida bo'ladi. Toshkent do'ppisi sidirg'a (gulsiz) baxmaldan tikilgan bo'ladi.

Buxoro do'ppilari sidirg'a yoki guli baxmaldan jiyakli qilib tikiladi, jiyagi turli xil ipaklardan rangdor naqshli yo'rma usulida tikilgan bo'ladi.

2. Joynamoz – yerga solib ustida namoz o'qiydigan to'shama. Joynamoz har xil matodan tayyorlanib, uning uch tomoni mehrob shaklida tikilgan bo'ladi. Undan machit, madrasa va uylarda foydalaniladi. U turli o'lchamda bo'ladi. Joynamoz kashtachilikda juda chiroyli qilib bezatiladi.

3. Zardevor – uy jihozi, u sidirg'a shoyi baxmal, satinga kashta tikib bezatilgan badiiy buyum. Zardevor yangi tushgan kelinning uyiga, shiftiga yoki devoriga ilib qo'yiladi. U zar ip yoki ipak g'ajimli bo'lib, eni 40-70 sm, uzunligi mo'ljallangan uyning devoriga moslab tikiladi.

4. Palak – devorlarga ilinadigan eng yirik, eng qimmat bezak buyumlaridan biri. Palakda osmon va to'lin oy aks ettiriladi. Uni qadimda oq yoki malla bo'zga kashta



tikib tayyorlangan. U soʻzadan gullarining yirikligi, zaminiga ham kashta qoplanishi bilan farq qiladi. Palakni oʻrtasida yirik oy tasviri, qizil qirmizi, pushti ipak bilan kashtalanadi va atrofiga juda chiroyli qilib oʻsimliksimon naqshlar tikiladi. Naqshlar ichida koʻpincha bodom, qalampir elementlari qoʻllaniladi. Palakda qirqtacha oy ham tasvirlanishi mumkin. Shuning uchun oyining soniga qarab, palaklar olti oyli palak, oʻn ikki oyli palak, hattoki katta uylar uchun qirq oyli palak tikilgani maʼlum. Oylar turli ranglar bilan bir necha xil tasvirlangan. Mashhur kashtadoʻzlar baʼzida oyni ajoyib naqshlar bilan bezab, oʻz mahoratlarini namoyish etgan.

Agar oyni ichida sidirgʻa rangda ifodalangan boʻlsa, uni oypalak, agar naqshli boʻlsa gulpalak va hokazo nomlar bilan yuritiladi.








Keyingi vaqtlarda palakni qoʻl mehnati koʻp boʻlgani uchun soʻzana deyila boshlandi. Lekin hozir palakni qoʻlda tikishga katta ahamiyat berilmoqda.

5. Kirpech – tokchaga taxlab qoʻyilgan kiyim-kechak ustidan yoki devorning boʻsh joylariga ilib, uyni bezatib turishi uchun ishlatiladigan badiiy buyum. Kirpech kashtalari qoʻlda yoki mashinada tikiladi. Kirpech qoʻlda ilma kashta bilan bezaladi. U kiyim-kechakni changdan saqlaydi va uyni bezab turadi. Odatda, palakka oʻxshatib tikilgani kirpechpalak deb yuritiladi. Bu turi ham keng ishlatiladi.

6. Soʻzana – igna bilan tikilgan degan maʼnoni beradi. Soʻzana matoga kashta tikib tayyorlangan badiiy buyum boʻlib, xonani bezatish uchun devorga ilib qoʻyiladi. U satin, baxmal, shoyi va boshqa matolarga kashta tikib tayyorlanadi. U oʻziga xos badiiy koʻrinishga ega. Matoning rangidan ustalar kashta zamini sifatida foydalanadi. Shuning uchun u palakdan farq qiladi. Soʻzana har bir xonadonda boʻlgan, chunki har bir qiz turmushga chiqishidan oldin oʻzi uchun soʻzana tayyorlagan. Soʻzana kelinlarning sepi hisoblangan. Kambagʻal oilada soʻzanani malla, oq boʻzdan, badavlatroq oilalarida esa shoyidan, baxmaldan tikishgan. Soʻzana uchun kompozitsion joylashgan oʻsimliksimon naqshlardan foydalaniladi. Soʻzana oʻrtasida koʻpincha doirasimon gul tikilib atrofi guldor islmiy naqshlar bilan bezatiladi. Soʻzana tikish juda qadimdan rivojlangan, lekin XIX asrgacha boʻlgan davrlarda yaratilgan soʻzanalar saqlanmagan. Faqat XIX asrga oid Samarqand, Buxoro, Nurota, Fargʻona, Oʻratepa, Shahrisabz, Toshkent va boshqa joylardagi soʻzana turlaridan namunalar bor. Sanʼatning bu turi, ayniqsa, Oʻzbekiston hududida qadimdan keng tarqalgan. Keyingi paytlarda soʻzana mashinada tikilmoqda.

7. Choyshab – forscha-tojikcha ruyjotun chodiri degan maʼnoni bildiradi. Choyshab asosan taxmonga tutish, yotganda yopinish uchun toʻshak ustidan toʻshaladi. Toʻshak ustidan yopiladigan choyshab ham kashtali oq surp, taxmonga tutiladigan satin, shoyi, baxmal va boshqalardan tikiladi. Hozirgi vaqtda choyshabdan soʻzana kabi badiiy buyum sifatida ham foydalanib kelinmoqda (14-jadval):

Kashtachilikda qo'llaniladigan bezak buyumlarining asosiy turlari¹⁶¹

			
Do'ppi (erkaklar uchun)	Do'ppi (ayollar uchun)	Joynamoz	Zardevor
			
Palak	Kirpech	So'zana	Choyshab


Milliy o'yinchoqlar ham milliy an'analarni, qadriyatlarini eslatib turuvchi san'atdir. Hozirgi kunda milliy o'yinchoqlar turlari juda keng tarqalgan bo'lib ulardagi milliy liboslarimiz nimchalar, do'ppilar, poychalar, ro'mollar qadriyatlarimizni eslatib turadi. Qo'g'irchoq uchun kiyim tikishdan oldin andoza tayyorlab olamiz va shu andozani matoning ustiga qo'yib chizib olamiz va bochamiz. Qo'g'irchoqning oldin eskizi chiziladi va eskiz asosida bichib olinadi. Ana shu bichilgan bo'laklar birlashtiriladi va o'yinchoqning kerakli joylariga paxta solib chiqiladi.

Andozaning bichiq bo'laklari tayyorlanib tikilgandan so'ng liboslari shu o'lcham asosida bichiladi, liboslar bir-biriga uyg'un holda olib borilishi lozim¹⁶².

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy qo'g'irchoqlar va ularning amaliy bezaklari ham bolalarni ranglar bilan samarali tanishtirishga yordam beradi (15-jadval):

¹⁶¹ Keltirilgan rasmlar google.com Qidiruv saytidan olindi.

¹⁶² Milliy o'yinchoq turlari andozasini tayyorlash va gazlama ustiga joylashtirish // <https://fayllar.org/milliy-oyinchoq-turlari-andozasini-tayyorlash-va-gazlama-ustig.html>.

Milliy qo'g'irchoqlar va ularning amaliy bezaklari.¹⁶³

Milliy qo'g'irchoqlardagi ranglar koloriti bolalarda ranglarni anglash va ularni bir-biridan farqlash, rasm, eskizlarni bo'yashda ulardan to'g'ri foydalanishga oid tushunchalarni berish bilan birga ularda badiiy-estetik didni, estetik dunyoqarashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni milliy qo'g'irchoqlar bilan yaqindan tanishishlari uchun sharoit yaratib berish maqsadga muvofiqdir.

Xalq amaliy san'ati abadiy manbadir. Bu bolalarga foydali ta'sir ko'rsatadi, ularning ijodkorligini rivojlantiradi, ularni bilim bilan qurollantiradi¹⁶⁴. Xalq amaliy san'ati estetik tarbiya vositalaridan biri bo'lib, buning natijasida bolalarda estetik did, ularni tevarak-atrofdagi hayot, yaxlit olamdagi go'zallikka qiziqish shakllanadi. Badiiy didni shakllantirishga yordam beradi, bolalarni atrofimizdagi hayotdagi va san'atdagi go'zallikni ko'rish va tushunishga o'rgatadi. Xalq amaliy san'atining tabiati, uning emotsionalligi, rang-barangligi, o'ziga xosligi bolaning ijodkor shaxs sifatida o'sib, kamol topishiga yordam beradi, aqliy faolligini, estetik didini rivojlantiradi, bola go'zal va go'zal narsani sezadi va quvonadi, bola har tomonlama kamol topadi¹⁶⁵.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq amaliy san'ati bolaning shaxsini har tomonlama tarbiyalashga, uning ijodiy qobiliyatlari va tabiatan salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi; maktabgacha yoshdagi bolaning ma'naviy rivojlanishiga, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga faol ta'sir qiladi.

¹⁶³ Keltirilgan rasmlar google.com Qidiruv saytidan olindi.

¹⁶⁴ Декоративно-прикладное искусство в жизни детей дошкольного возраста //https://gigabaza.ru/doc/162797.html.

¹⁶⁵ Цвиренко И.А. Ознакомление дошкольников с народным декоративно-прикладным искусством //https://nsportal.ru/detskiy-sad/raznoe/2020/10/16/oznakomlenie-doshkolnikov-s-narodnym-dekorativno-prikladnym-iskusstvom.



Shu sababli guruhlarda bolalarda rang tuyg'usini rivojlantirishga oid ishlar izchil olib borilishi kerak.

Nazorat savollari:

1. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalar maktab ta'limida zarur bo'lgan qanday ko'nikma, malakalarni o'zlashtiradi?
2. "Rang" so'zi qanday ma'noni anglatadi?
3. Bo'yash deganda nima tushuniladi?
4. Bolalarning bo'yash faoliyatida qanday bo'yash vositalaridan foydalaniladi?
5. Qaysi ranglar asosiy (birlamchi) ranglar sanaladi?
6. Qo'shimcha (ikkilamchi) ranglar qaysilar?
7. Issiq ranglarga qaysi ranglar kiradi?
8. Sovuq ranglar qanday ranglardan tashkil topadi?
9. Kamalak qanday ranglardan iborat?
10. Qanday usul bolalarga kamalakning ranglarini oson yodda saqlab qolishga yordam beradi?
11. "Ilk qadam" davlat dasturiga ko'ra 4-5 yoshli bolalar ranglar bilan tanishishda qanday ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi zarur?
12. "Ilk qadam" davlat dasturiga ko'ra 6-7 yoshli bolalar ranglar bilan tanishishning qanday ko'nikma, malakalarini o'zlashtirishlari zarur?
13. Bolalarni ranglar bilan tanishtirishda kashtachilik qanday turlaridan foydalaniladi?
14. Milliy qo'g'irchoqlar bolalarni ranglar bilan tanishtirishda qanday ahamiyatga ega?

Test topshiriqlari:

1. Bo'yash uchun ishlatiladigan modda, bo'yoq – bu....
 - a) kolorit;
 - b) rang;**
 - c) fon;
 - d) mast.
2. Rang berish, bo'yoq surtib bezashdan iborat xatti-harakat, faoliyat – bu....
 - a) albinizm;
 - b) bezash;
 - c) bo'yash;**
 - d) tus berish.
3. Rangli qalamlar, barmoq bo'yog'i, akvarel, guash, cho'tkalar, suv idishi, molbert. Ular –
 - a) bo'yash omillari;
 - b) bo'yash shakllari;
 - c) bo'yash turlari;
 - d) bo'yash vositalari.**



4. Ko'k, qizil, sariq. Ular –

a) qo'shimcha ranglar;

b) asosiy ranglar;

c) aralash ranglar;

d) alohida ranglar.

5. Yashil, zarg'aldoq, siyohrang (binafsha). Ular –

a) qo'shimcha ranglar;

b) asosiy ranglar;

c) aralash ranglar;

d) alohida ranglar.

6. Jigarrang, pushti, qizil, to'q sariq, sariq. Ular –

a) qo'shimcha ranglar;

b) asosiy ranglar;

c) sovuq ranglar;

d) issiq ranglar.

7. Yashil, binafsha, ko'k, ochiq ko'k, kulrang.. Ular –

a) qo'shimcha ranglar;

b) asosiy ranglar;

c) sovuq ranglar;

d) issiq ranglar.

8. Qizil, zarg'aldoq, sariq, yashil, havorang, ko'k, binafsha (siyoh)rang. Ular –

a) qo'shimcha ranglar;

b) asosiy ranglar;

c) kamalakning ranglari;

d) issiq-sovuq ranglar.

9. Emotsional munosabat, badiiy so'z, pedagogik drama, raqs, teatr faoliyat, o'yin.
Ular – bolalarning tasviriy faoliyatida tayaniladigan ...

a) omillar;

b) vositalar;

c) shakllar;

d) tamoyillar.

10. Do'ppi, joynamoz, zardevor, palak, kirpech, so'zana, choyshab. Ular – kashtachilikda qo'llaniladigan bezak buyumlarining

a) asosiy omillari;

b) asosiy vositalari;

c) asosiy shakllari;

d) asosiy turlari.

Amaliy topshiriqlar:

1-topshiriq. O'rta guruhda bolalarni kamalakning ranglari bilan tanishtirishga oid o'yin loyihasini ishlab chiqing.

2-topshiriq. Kichik guruhda bolalarni kashtachilikda qo'llaniladigan amaliy bezak turlari bilan tanishtirishga oid taqdimot tayyorlang.

5.3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiiy materiallardan applikasiya va mozika mashg'ulotlarni o'tkazish texnologiyalari¹⁶⁶

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni applikasiya qilishga o'rgatishning ahamiyati.
2. Applikasiya ishini bajarishda ishlatiladigan kerakli asbob-uskunalar.
3. Kichik guruhlarda applikasiya qilishga o'rgatish.
4. O'rta guruhlarda applikasiya qilishga o'rgatish.
5. Katta guruhlarda applikasiya qilishga o'rgatish.
6. Tayyorlov guruhlarida applikasiya qilishga o'rgatish.
7. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mozaika mashg'ulotlarni o'tkazish.

Tayanch tushunchalar: maktabgacha ta'lim, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, material, tabiiy material, applikasiya, mozaika, mashg'ulot, o'tkazish, mashg'ulot o'tkazish, texnologiya, mashg'ulot o'tkazish texnologiyalari, applikasiya qilish, o'rgatish, applikasiya qilishga o'rgatish, asbob-uskuna, applikasiya ishini bajarishda ishlatiladigan asbob-uskunalar.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi. – T.: YUNISEF, 2018.
2. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti // <https://lex.uz/docs/5179335?query>.
3. Nurmatova M.Sh., Hasanova Sh.T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi. – T.: "Cho'lpon", 2010.
4. Nurmatova M.Sh., Hasanova Sh.T., Azimova D. Ustaxonada amaliy mashg'ulot. – T.: "Musiq", 2010.

I. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni applikasiya qilishga o'rgatishning ahamiyati.

Maktabgacha ta'limda bolalarni tasviriy faoliyat (rasm solish, loydan buyum yasash)ga o'rgatish bilan bir qatorda applikasiya va mozaikani yaratishga oid mashg'ulotlar ham maktabgacha ta'lim tashkilotlari dasturiga kiritilgan. Applikasiya mashg'uloti bolalarni har tomonlama o'sishida katta ahamiyatga ega. U bolalarning xayolotini boyitadi, kuzatuvchanlik qobiliyatini, qo'l malakasini, shuningdek, mo'ljallay olish, shakli, rangni sezish hissini rivojlantiradi, irodani tarbiyalaydi, ijodkorlik sifatlarini, diqqat va tasavvurni o'stiradi.

Tajribalar natijalarining ko'rsatishicha, insonlar eng kuchli sezgi qobiliyatiga ega bo'lganda 1300 xil rangni ajrata oladi. Borliq turli ranglardan iborat bo'lib, u insonga go'zallikdan zavqlanish imkoniyatini yaratadi. Ranglar uyg'unligiga asoslangan go'zallik insonga cheksiz zavq bag'ishlaydi. Rang sezish qobiliyatiga ega bo'lish esa bolalarni estetik jihatdan tarbiyalashga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida applikasiya mashg'ulotlarining izchil, uzluksiz, samarali, tizimli tashkil etilishiga e'tibor qaratiladi.

Applikasiya (lot. "appicatio" – moyillik; birlashish, qo'shish, joylashtirish) – 1) mato, qog'ozga rang-barang gazlama, qog'oz parchalarini yopishtirib yoki tiqib naqsh

¹⁶⁶ Ushbu mavzu katta o'qituvchi Sh.T.Hasanova bilan hamkorlikda tayyorlandi.

solish metodi; 2) xalq amaliy san'ati hamda tasviriy faoliyatning o'ziga xos turi; 3) shu usulda yasalgan gul, tasvir.

Applikatsiyada nihoyatda oddiy, hamisha har qanday sharoitda oson topish mumkin bo'lgan ashyolar ishlatiladi. Ular (16-jadval):


16-jadval

Applikatsiya tayyorlashda foydalaniladigan xomashyolar

No	Xomashyolar	No	Xomashyolar
1.	Rangli qog'oz	8.	Yog'och kukuni
2.	Somon	9.	Tuxum po'chog'i
3.	Terak puxi	10.	Mevalarning danaklari
4.	O'simlik bargi	11.	Qurigan choy qoldig'i
5.	O'simlik urug'i	12.	Jun iplarning qoldiqlari
6.	Mato (charm) qoldiqlari	13.	Biser donachalari
7.	Qum	14.	Dur donachalari

Turli shakllardagi applikatsiyalarni tayyorlashda qog'oz, somon, quritilgan o'simlik o'ramga joylashtirilib, turli ko'rinishlarda yelim bilan bir-biriga yopishtiriladi. Ularning ichiga mato, charm, jun, paxmoq tiqiladi.


Mazmuniga ko'ra applikatsiyalar uch turga ajratiladi (29-rasm):



29-rasm. Mazmuniga ko'ra applikatsiyaning asosiy turlari

Predmetli applikatsiya – muayyan, aniq predmetlarni aks ettiruvchi applikatsiya bo'lib, unda inson, hayvon, predmet yoki obyekt aks ettiriladi.

Predmetli applikatsiyalar quyidagicha bo'ladi (30-rasm):




30-rasm. Predmetli applikatsiya.



Mazmunli applikasiya – ma'lum sujet-mavzuga asoslangan applikasiya bo'lib, unda asosiy fonda ma'lum bir voqelik, hodisa tarkibiy elementlar yordamida yaxlit aks ettiriladi.

Odatda mazmunli applikatsiyalarga quyidagi applikasiya misol bo'la oladi (31-rasm):



31-rasm. Mazmunli applikasiya


Dekorativ applikasiya – bezak, ziynat maqsadlarida yaratilib, badiiy xarakter kasb etadigan applikasiya bo'lib, u shaxsga estetik zavq bag'ishlaydi.

Quyidagi applikasiya esa dekorativ applikasiya uchun misoldir (32-rasm):



32-rasm. Dekorativ applikasiya.

Applikatsiyalar ularning rangi bo'yicha ikki xil bo'ladi. Ular (33-rasm):



33-rasm. Rangi bo'yicha applikatsiyalarning asosiy turlari



Bir xil rangdagi applikatsiyalar odatda grafik shakllarda bo'lib, tarbiyalanuvchilarda shakllarni o'zaro bir-biridan farqlashga o'rgatishga yordam bersa, turli ranglarda shakllantirilgan applikatsiyalar esa go'zallik tarbiyalanuvchilarda estetik didni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Mono yoki poli ton xarakterga ega bo'lishidan qat'i nazar applikatsiyalarning barchasi badiiy ahamiyat kasb etadi.

Applikatsiyalar ular tayyorlangan xomashyolarga ko'ra ham turlarga ajratiladi. Ular (17-jadval):


17-jadval

Tayyorlangan xomashyoga ko'ra applikatsiya turlari

Nº	Turlari	Nº	Turlari
1.	Rangli qog'ozdan applikatsiya	8.	Yog'och kukunidan applikatsiya
2.	Somondan applikatsiya	9.	Tuxum po'chog'idan applikatsiya
3.	Terak puxidan applikatsiya	10.	Mevalarning danaklaridan applikatsiya
4.	O'simlik bargidan applikatsiya	11.	Qurigan choy qoldig'idan applikatsiya
5.	O'simlik urug'idan applikatsiya	12.	Biser donachalaridan applikatsiya
6.	Mato (charm) qoldiqlaridan applikatsiya	13.	Jun iplarning qoldiqlaridan applikatsiya
7.	Qumdan applikatsiya	14.	Dur donachalaridan applikatsiya

Rang applikatsiyaning ifodalash darajasini oshiruvchi vositadir. Shuning uchun applikatsiya ishida ranglarning o'zaro uyg'un bo'lishiga, bir-biriga mos tushishiga, xayoliy va dekorativ kompozitsiyaning ifodaviylik garmoniyasini izlab topishga e'tibor qaratilishi zarur.

Applikatsiya badiiy xarakterdagi faoliyatni oddiy yoki mos vositalar yordamida real asosni saqlagan holda tashkil etish vositasi hisoblanadi. Ushbu faoliyat yordamida mustaqil asarlar – panno, surat va plakatlar tayyorlanadi. Applikatsiya sifatida yaratilgan panno, surat va plakatlar mazmunan turlicha bo'ladi (34-rasm):



34-rasm. Panno, surat va plakatlarning asosiy turlari




Applikatsilarni yaratishda chamalash, buyumning hajmiy tasvirini fikran shakllantirishga katta e'tibor qaratiladi. Shuningdek, applikasiyalar uchun yana bir o'ziga xos jihat – ularning katta doirachalar yordamida shakllantirish sanaladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasini bezatish ishlarida ham bolalar applikasiya ishlarining o'rni katta.


O'quv jarayonlarida applikasiyalarni yaratish talabalarda qog'oz vositasida o'quv materiali mohiyatini kompozitsiya yordamida o'zlashtirish uchun sharoit yaratadi. Qolaversa, talabalar tomonidan tayyorlanadigan applikasiya ishlari estetik talabga javob bera olishi zarur. Binobarin, applikasiya predmetning umumiy, tipik va individual xususiyatlarini anglay olish, yoritishga o'rgatadi. Applikasiyalarning umumiy, tipik va individual xususiyatlari talabalarda ularning o'zaro bog'liqligi, yaxlitligi, qismlarning o'zaro aloqadorligini anglash, shuningdek, simmetrik chamalash, predmetning shaklini ifodalash, rangi (ranglari)ni bosqichma-bosqich ko'rsatish malakasini rivojlanadi.

Applikasiya ishlarini bajarishda bir nechta qirqish usullaridan foydalaniladi. Ular (35-rasm):




35-rasm. Applikasiyada foydalaniladigan qirqish usullari


Quyida qog'ozni ikki va bir necha marta buklab qirqishga doir misollar keltiriladi (36-38-rasmlar):



36-rasm. Qog'ozni ikki buklab (oddiy) qirqish.




37-rasm. Qog'ozni ikki buklab (murakkab) qirqish.



38-rasm. Qog'ozni bir necha marta buklab (murakkab) qirqish



II. Applikatsiya ishini bajarishda foydalaniladigan asbob-uskunalar. Ma'lumki, har bir ish, harakat yoki faoliyat ma'lum vositalar (ish qurollari, asbob-uskunalar, mexanizmlar va b.) yordamida tashkil etiladi. Asbob-uskunalar tayyorlanadigan applikatsiya mahsulotining xarakteriga ko'ra tanlanishi, xomashyolarning turiga mos bo'lishi bilan birga birga estetik talabga javob berishi, ular tartibli saqlanishi kerak. Ayrim asbob-uskunalarini saqlash uchun jihozlarni bolalarning o'zlari tomonidan tayrlash mumkin. M: qalamdonga ishlov berish orqali undan qaychi qo'yish maqsadida foydalanish mumkin. Yoki mo'yqalam qo'ygichni esa qalin kartondan bolalarning o'zlari yasashlariga uchun sharoit yaratib berish lozim. Ushbu asboblar bolalar tomonidan foydalanishda murakkablikni tug'dirmaydi va ular quyidagilardan iborat (39-rasm):



39- rasm. Applikatsiya tayyorlashda ishlatiladigan muhim asbob-uskunalar

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari tomonidan applikatsiyalarni tayyorlashda eng muhim asbob-uskunalar orasida qaychi muhim o'rin tutadi.

1. Qaychi – yupqa narsalarni, mato, qog'oz va sh.k.ni kesish uchun ishlatiladigan, o'rta yeridan bir-biriga vint bilan biriktirilgan ikki tig'dan iborat dastali asbob. U katta o'lchamli (14-20 smli), mayda detallarni qirqish uchun esa kichik o'lchamli (8-10 smli), uchi to'g'ri, uchi uchli (ular aylanaviy katta tasvirlarni qirqish uchun mo'ljallanadi) bo'lishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qaychi bilan ishlashda tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarga alohida talablar qo'yiladi. Bu boradagi talablar odatda taqiqlar sifatida ko'rinadi. Ular:

Qaychi bilan foydalanishdagi taqiqlar:

- stakanga qaychi uchi pastga qaragan holda qo'yilishi;
- do'stiga uzatganda ham uchini ushlagan holda uzatilishi;
- qaychini ko'ndalangidan ushlagan holda qo'lni silkitish;
- boshqalarga o'qtalish;
- qaychidan ko'rsatish vositasi (ko'rsatkich) sifatida foydalanish.

2. Yelim (forscha "yelim") – ba'zi buyumlarni tayyorlash, yasash uchun ishlatiladigan sun'iy modda (selluloza – yopishqoq modda).

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yelimlarning ham bir necha turidan foydalanish mumkin. Ya'ni:

- 1) yelim qalamcha (kley-pomada; spiral kley);

2) suyuq kley (PVA, "Moment" va b.).

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mo'yqalam, ularning bir necha turidan ham foydalaniladi.

3. Mo'yqalam (mo'y (jun) + qalam) – rangtasvir va grafikada, shuningdek, kalligrafiyada bo'yoqni mato, qog'oz va boshqa asosga surtishda ishlatiladigan asbob (qilqalam) bo'lib, u hayvonlarning junidan yumaloq, yassi, o'tkir uchli qilib tayyorlanadi. Mo'yqalamlar uchi engli, uchi ensiz, mo'yi kam va ko'p bo'ladi. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar badiiy ishlarni bajarishda mo'yqalamning ham bir necha turlaridan foydalanadilar.

4. Yelim uchun mo'yqalam. Tarbiyalanuvchilar 2-3 ta mo'yqalamga ega bo'lishlari kerak. Mo'yqalam applikasiyaning mazmuni, katta-kichikligiga bog'liq holda tanlanadi. Katta hajmdagi applikasiyaga uchi enli mo'yqalam, mayda detallarga esa kichik mo'yqalamdan foydalanish maqsadga muvofiq. Mo'yqalamlarni saqlashga nisbatan ham talab qo'yiladi. Ular quyidagilardan iborat:

Mo'yqalamdan foydalanish qoidalar:

- ish tugagandan so'ng mo'yqalamni yaxshilab yuvish;
- to'liq artish;
- yaxshilab quritish;
- qalamdonga mo'yqalamning mo'yini yuqoriga qilib qo'yish (shundagina mo'yqalam mo'yining tuzilishi yaxshi saqlanadi).

5. Mo'yqalam qo'ygich yelim ishlatishda yelimning ortiqchasi surkalib ketmasligi, stolni iflos qilmasligi uchun ishlatiladi.

6. Qalam (arabcha "qalam) – qamish pero) – o'rtasi ingichka, uzun grafit joylashgan cho'p shaklidagi, xat yozish, rasm solish, chizma chizish uchun ishlatiladigan yozuv, chizuv asbobi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida applikasiyalarni yasashda uning konturi (fr. "contour" – tashqi ko'rinish; narsalarning chiziqlar bilan tasvirlangan tashqi ko'rinishi, sirtqi shakli)ni chizish uchun turli qalamlardan foydalaniladi. Odatda ular:

- 1) oddiy M (myagkiy – yumshoq);
- 2) yarim yumshoq (tvyordo-myagkiy (TM) qalamlar bo'ladi.

Ular yaxshi ochilgan bo'lishi zarur. Kontur chizishda ruchka yoki kimyoviy qalamni ishlatish mumkin emas.

7. Yelim uchun idish – yelim kichik idishchalarga solingan bo'ladi. Bunday iishlar uchun plastmassa idishlar, sopol taqsimchalar tanlanadi. Yelim uchun idishlar ishni bajarib bo'lingandan so'ng tezda yuvib qo'yilishi kerak.

III. Kichik guruhlarda tarbiyalanuvchilarni applikasiya qilishga o'rgatish.

Maktabgacha ta'lim muassasasida applikasiya mashg'ulotlari birinchi va ikkinchi kichik guruhlardan boshlab olib boriladi. Bu guruhlarda barcha mashg'ulotlarda bolalar kattalar tomonidan tayyorlab berilgan shakllarni qog'ozga to'g'ri, turli xil ko'rinishlarda joylashtirish, terib chiqib yopishtirish kabi harakatlarni tashkil etadi. Bu jarayonda bolalarning asosiy vazifasi – yelimlash usullarini o'rgatish hisoblanadi. Kattalar uchun oddiy hisoblangan ushbu harakat bolalar uchun murakkab hisoblanadi.



Shu sababli bu borada tarbiyalanuvchilar bir qator harakatlarni ketma-ket bajarishga odatlanib boradi. Mazkur harakatlar quyidagilardan iboratdir:

- mo'yqalamni to'g'ri ushlab, unga ozgina yelim olish;
- shaklni teskarisi bilan qo'yib, yelimni butun shaklga tekis qilib surib chiqish;
- yelimni surayotganda chap qo'lining barmog'i bilan shaklni tutib turish;
- so'ng mo'yqalamga ehtiyotkorlik bilan qo'yib, shaklni sekin rang tomoni bilan o'girib, qog'oz varag'ining kerak joyiga qo'yish;
- salfetka yordamida sekin bosish, chekkalaridan chiqib ketgan ortiqcha yelimni sekingina artib olish.

Bu yoshdagi bolalarga ana shu harakatlarni egallab olish albatta oson emas. Bolalarda yelim va mo'yqalamlar bilan ishlashda eng sodda shakl-kvadrat va doiralalar bilan ishlash orqali zarur malakalarni hosil qilib borish maqsadga muvofiqdir. Yil davomida bolalar shu shakllarni nomini to'g'ri aytishni egallab olishlari lozim. Lekin butun yil davomida o'tkaziladigan applikasiya mashg'ulotlarida faqat shu shakllar bilan kifoyalanib qolish bo'lmaydi. Birinchi va ikkinchi kichik guruhlarda bolalarda dastlab bir, keyin ikki-uch qismdan tuzilgan predmetlar (qo'ziqorin, bayroqcha, qorbobo, uy va boshqalar)ni yopishtirishga o'rganadilar. Shuningdek, yil oxiriga borib bolalar olti-yetti xil rang - qizil, ko'k, sariq, yashil, jigarrangni to'g'ri aytib berishga o'rganishlari lozim. Bu guruhlarda bolalarning qo'llariga qaychi berilmaydi. Chunki bolalarning qo'l harakati hali yetarli taraqqiy etmagan va hali qirqish nazorati yetarli bo'lmaganligi sababli bolalar qo'lidagi qaychi xavf tug'dirishi mumkin.

Ikkinchi kichik guruhlarda bolalarni applikasiya tayyorlashga o'rgatishda ish uchun beriladigan materiallar va ular yordamida mashg'ulotlarni tashkil etish muhim ahamiyatiga ega. Binobarin, materiallarning ranglari bolalarning diqqatlarini tortib ularni chalg'itadi. Shuning uchun dastlabki mashg'ulotlarda tarbiyalanuvchilar materiallar bilan ishlash qoidalari bilan tanishtiriladi. So'ngra ularga alohida paketlarda materiallar tarqatiladi. Tarbiyachi mavzuni tushuntirib bo'lganidan so'ng material tarqatilib, bolalar materialni topshiriqqa mos ravishda tanlab olib, ketma-ket terib chiqadilar.

Tarbiyachi dastlab elementlarning qo'yib chiqilganini tekshiradi, shundan keyingina bolalarga yelim beriladi. Guruhlarda tarbiyachi bolalar bilan natura (kuzatib ishlashga imkon beruvchi namuna) asosida ishni tashkil etishlari, birgalikda ishlashlari kerak. Namunani ko'rsatish jarayonida tarbiyachi shaklning rangini alohida qayd etib o'tishi, barmog'i bilan uni ko'rsatishi, shaklning xususiyatlari bilan bolalarni batafsil tanishtirib o'tishi kerak. Tarbiyachi tomonidan ishning bajarilishini ko'rsatib berilishi bolalarda muayyan ko'nikma, malakalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, tarbiyachi ish tartibini ham jarayonning boshidan to oxirigacha (qanday shaklni tanlash, unga qanday qilib yelim surtish va boshqalar tarzida) ko'rsatib beradi. So'ngra tarbiyachi o'zining har bir harakatini so'z bilan izohlagani holda bolalar bilan birgalikda applikasiyalarni tayyorlaydi.



Kichik maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar esa tayyor shakllarni, ularning ranglarini bir-biriga mos holda tanlab olib yopishtiradilar. Samarali, badiiy did bilan tayyorlangan applikatsiyalar bilan dekorativ bezaklar sifatida guruhlar xonasini bezatish mumkin. Olib borilgan tekshirish ishlari shuni ko'rsatadiki, yaxshi uyushtirilgan applikatsiya mashg'ulotlari bolalarni boshqa mashg'ulotlar – dekorativ, predmetli va sujetli-mazmunli mashg'ulotlarining samarali tashkil etilishiga ijobiy ta'sir etadi. Natijada bolalarning sensor madaniyati rivojlanadi, qo'l bilan tahlil qobiliyati o'sadi va badiiy didlari shakllanadi.

IV. O'rta guruhlarda tarbiyalanuvchilarni applikatsiya qilishga o'rgatish.

Bola o'z hayotlarining beshinchi yiliga kelib ham psixologik, ham jismoniy jihatdan o'sadi. Bu esa bolalarning applikatsiya bo'yicha bajaradigan ishlarining sifat jihatidan o'zgarishiga olib keladi. Endilikda bolalar tuzilish jihatdan ancha murakkab bo'lgan predmetlarni tasvirlashga o'rganadilar.

O'rta guruhlarda tarbiyalanadigan bolalar kichik guruhlardagi tengdoshlariga nisbatan applikatsiyalar bilan ishlash ko'nikma, malakalarini ancha samarali egallashga muvaffaq bo'ladi. Bu guruh bolalari 2-3 qismli emas, balki 4-5 qismdan iborat predmetlarni tuzishga o'rganadilar. Dastlab, bu guruhga qaychi bilan ishlash kiritiladi. Bolalar qaychini to'g'ri ushlash, uni richagini ochish-yopish, to'g'ri qirqim olish, avval eskiz, keyin esa enli yoki keng qog'oz lentalar qirqishga o'rganadilar. Bu guruhda bolalar yelimplash malakasini egallashini davom ettiradilar. Bola hayotining beshinchi yilida doira, kvadratdan tashqari uchburchak, oval, uzun to'g'ri to'rtburchakni biladilar. Trapetsiya shaklini esa kichik guruhda bo'lgani kabi obrazli tasvirlashda davom etadi. Masalan: kichik guruhdagilarga qaraganda qo'shimcha havo rang, pushti, kulrangni ajratish va ularni to'g'ri aytishga o'rganadilar. Shuningdek, ular qog'oz varag'ida tez, oson yo'nalishlarni to'g'ri tanlashga o'rganadilar. Orqada, ketma-ket hamda teng masofada turadigan boshqa fazoviy tushunchalarni o'zlashtiradilar. Bolalar to'g'ri kesmalar qirqishdan tashqari aylanaviy shakllar qirqishga, kvadrat va to'g'ri to'rtburchakning burchaklarini dumaloqlashga, qirqib olingan aylanaviy shakllardan qo'ziqorin, minorcha, qorbobo kabi predmetlarni hosil qilishga o'rganadilar.

Applikatsiyada yopishtiriladigan detallar soni ham ko'payadi. Masalan: uychaning tasvirida faqat devorlari emas, balki eshik va derazalarni ham tasvirlashning uddasidan chiqadilar. Bu yoshga kelib, bolalarda shakl (to'rtburchak, kvadrat, doira, uchburchak) va rang (pushti rang, kulrang, havo rang va b.) bilan ishlash qobiliyati ham rivojlanadi. Bu guruhlarda qog'oz varag'ida to'g'ri mo'ljallashga o'rganib, quyidagi tushunchalar bilan tanishib boradilar:

- 1) orasida;
- 2) chekkada;
- 3) bir xil masofada va boshqalar

O'rta guruhlarda tarbiyachi asosiy diqqatni bolalarni qaychi bilan ishlashga odatlantirishga, qaychi va qog'ozni to'g'ri ushlashga, qirqish texnikasini egallab olishga o'rgatishga qaratadi. Yil davomida esa tarbiyachi bolalarni qirqishning turli usullari bilan tanishtiradi.



Bolalar, albatta, qaychi bilan ishlashni darhol o'zlashtira olmaydi. Shuning uchun bolalarni qaychi bilan ishlashga o'rgatishda tarbiyachi dastlab enli, ensiz kesmalar qirqishga o'rganish bo'yicha mashqlar bajarishga yo'naltiradi.

Har bir applikasiya mashg'ulotlarining mavzu va mazmuni turlicha bo'lishi lozim. Masalan: dastlabki mashg'ulotlarda tarbiyachi bolalarga "do'kon" uchun chipta, cheklar qirqishni taklif etadi. Yoki qirqilgan kesmalardan uycha, daraxt, panjara, narvon kabi predmetlarning oddiy ko'rinishini tasvirlash topshirig'ini berishi mumkin. Bu esa bolalarni mashg'ulotga qiziqishlarini oshirib, mashg'ulotlar bir xil bo'lishining oldini oladi.

Bir-ikkita mashg'ulotni o'tkazgach, keyingi mashg'ulotlarni bolalarni ijodiy faolligini o'stirish uchun tavsiya etish mumkin. Bunda bolalar o'zlari qirqib olgan rangli kesmachalardan turli predmedlar (yulduzlar, bayroqchalar, gullar)ning ko'rinishlarini tasvir etadi.

Keyingi applikasiya mashg'ulotlarida bolalar diagonali bo'yicha to'rtburchak, kvadratni, shuningdek, trapetsiya va uchburchak hosil qilishga o'rgatiladi. Sharf, sochiqni kvadrat va uchburchaklar bilan bezaydi. Shu bilan birga gilam, dastro'mollarni kvadrat bilan, taqsimchalarni esa doiralar bilan bezashlari mumkin. Tayyor siluet (narsalar va qiyofaning uning soyasiga o'xshab chizilgan shakl)lar ham berish mumkin. Bolalar oval va doira shaklni hosil qilib qirqishga ancha qiynaladi. Ular doiraviy shakldagi predmetlardan: tursa yiqilmas qo'g'irchoq, meva-sabzavotlar, piramida va b.ni qirqib yopishtiradi. O'quv yilining davomida bolalarga mazmunli applekatsiya ishlari (masalan: Bo'g'irsoq yo'ldan dumalab ketayapti, o'tloqdagi jo'jalar, qo'ziqorinlar va hokazolar)ni ham taklif etishi ham mumkin. O'rta katta guruhlarda bolalarni jamoa bo'lib ishlashga o'rgatish ham muhim ahamiyatga kasb etadi.

Jamoa holda bolalar:

- 1) katta gilamni;
- 2) sabzavot va mevalardan tashkil topgan vitrinani;
- 3) osmonda uchib borayotgan samolyotlarni tasvirlashi mumkin.

Bundan tashqari bolalar o'z xohishlariga ko'ra ham turli applikasiya ishlarini bajarishlari mumkin. Ya'ni:

- 1) "Onam uchun sovg'a" mavzusidagi applikasiyani;
- 2) tayyor siluetni naqshlar bilan bezatish;
- 3) fartuk, qo'lqop va shapka kabilarni qirqib yopishtirish yoki bezatish.

Tarbiyachi bu guruhlarda ham applikasiya ishlarini bajarishga bolalarni yo'naltirishda turli metod va usullardan foydalanadi.

Ana shunday metodlardan biri – axborotli-retseptiv metod hisoblanadi. Bu metod tasvirlash lozim bo'lgan predmetni har tomonlama ko'rib chiqish va tahlil etishni o'z ichiga oladi. Tarbiyachi ko'proq bolalarning o'zlariga tasvirlanayotgan predmeti haqida gapirishga, uning sifati, belgisini aniq dalillar bilan aytishga, tasviriy yo'llarini mustaqil bilishga o'rgatib boradi. Bolalar predmetlarning tasvirlarini tuzish orqali, o'sha predmet shaklini qirqishga, uning tuzilishini to'g'ri tasvirlashga, qismlarning kattaligini to'g'ri berishga o'rganib boradilar. Mazkur guruhlarda qirqish ishi



birinchi marta bajariladi. Shuning uchun asosiy e'tibor bolalarga qaychini ushlab, qirqish usullarini amalda bajarib ko'rsatishga qaratiladi. Dastlabki mashg'ulotlarda tarbiyachi qaychi bilan qanday ishlash (richagini ochib, yopishni qanday, qayerdan ushlab)ni ko'rsatib beradi. Qaychi bilan ishlashga oid dastlabki mashqlarni 8-10 nafar tarbiyalanuvchi ishtirokida o'tkazish ma'qul. Zero, bunda tarbiyachi bolalarning harakatlarini birdek kuzatish va ularning har biriga o'z vaqtida yordam ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Qog'oz qirqishni bolalarga namoyish qilish orqali qaychini oldinga qanday harakatlantirish zarurligini ko'rsatadi. Kvadratlardan doiraviy shakllar qirqish uchun ularning faqat burchaklarini qirqish kerakligini ko'rsatish talab etiladi. Buning uchun qog'ozni qo'lda biroz harakat qildirish zarurligi uqtirilib, mazkur harakat amalda namoyish qilinadi.

Mazkur usuldan foydalanishda bolalarga dastlab oq qog'oz, so'ngra rangli qog'oz bilan harakatlarni bajarish tavsiya etiladi. Harakatni tarbiyachi dastlab o'zi bajargach, hozirgina namoyish etilgan qirqish usulining ixtiyoriy tanlangan bir bola tomonidan namoyish qilishni so'raydi. Bola harakatni amalda bajarayotgan vaqtda uning har bir harakatini tarbiyachi izohlab borishi zarur.

Bordi-yu, murakkab applikatsiyani tuzish zarur bo'lsa, u holda tarbiyachi flanigrafdan o'sha narsa (masalan: oyoqchasi va shapkachasi qo'ziqorinni, oyoqchasining pastda, shapkasining yuqorida joylashganligi kabi holat)ning illustrativ rasmlarini ko'rib chiqishni taklif etishi mumkin. So'ng tarbiyachi bolalarga savollar berib, obrazli ravishda bolalarni applikatsiya eskizi bo'yicha so'zlab berishga undaydi. Qo'l bilan shakl ko'rinishini tasvirlovchi harakatlarning bolalar tomonidan bajarilishi uchun zarur sharoit yaratib beradi. Bunda tarbiyachi namuna ko'rsatish usulidan foydalanadi. Namuna ko'rsatish usulidan, shuningdek, predmetning o'zi aynan mavjud bo'lmagan holatlarda ham foydalanish mumkin.

Mashg'ulotda qo'llaniladigan asosiy metodlardan yana biri – namoyish etish (yopishtirib ko'rsatish) metodi sanaladi. Ushbu metod qo'llanilganda yopishtirish jarayoni barcha bolalarga ko'rinadigan qilib namoyish etilishi lozim. Buning uchun yozuv taxtasi (doska) yoki molbertdan foydalanish mumkin.

Molbert – *yog'ochdan tayyorlangan uch oyoqli moslama, taglik bo'lib, unga rassom asar ishlash jarayonida kartina, rasm va hokazolar o'rnatiladi.*

Bolalar yopishtirish jarayonida ketma-ketlikni yaxshilab o'zlashtirib olishlari zarur. Bu malakani ular puxta o'zlashtirib olganlaridan keyin bolalarning o'zlarini yorishtirish jarayonini tashkil etishga jalb etish yoki amalda ko'rsatib berishning o'rniga, faqatgina og'zaki tushuntirish bilan kifoyalanish mumkin.

Ikkinchi katta guruhlarning bolalari bilan ishlashda o'yin metodidan samarali foydalanish mumkin va lozim. Binobarin, chunki bu metod bolalarda mashg'ulotlarga nisbatan qiziqishni uyg'otib, ularni faollashtiradi. O'yin metodidan foydalanishda bolalar bilan individual ishlash muhim ahamiyatga ega.

Odatda tarbiyachi bir bolaga yopishtirish jarayonini amalda ko'rsatsa, ikkinchi bolaga qanday harakatni bajarish kerakligini og'zaki tushuntirib beradi.



Bolalar ishini o'rganish (ko'rib chiqish) va tahlil qilish ham applikasiyalar tayyorlashda foydalaniladigan asosiy metodlardan yana biri hisoblanadi. Bolalar ishini o'rganish (ko'rib chiqish) va tahlil qilish chog'ida dastlabki mashg'ulotda tarbiyachi tayyor ishlarni maqtashi lozim. Keyingi mashg'ulotlarda esa tarbiyachi bolalar ishini o'rganish (ko'rib chiqish) va tahlil qilishda ishning ozoda bajarilganligi, rangning to'g'ri tanlanganligi va qog'ozda to'g'ri joylashtirilganligini hisobga olgan holda tahlil qiladi hamda bolalarni ham shunga (masalan, bolalar tursa yiqilmas qo'g'irchoqlarning orasida chiroylisi bilan birga shikastlanganlari borligini, ular esa, albatta, xafa bo'lishlarini aytishga) o'rgatib boradi. Tarbiyachining bu kabi harakatlari yilning ikkinchi yarmidan boshlab tashkil etiladi.

O'rta guruhlarda bolalar tayyor shakllardan applikasiya tuzish bilan birga o'zlari ham mustaqil ravishda shakllarni qirqib yopishtiradilar. Naturani tahlil qilishda bolalarning diqqati faqatgina rang va shaklgagina emas, balki qismlarning o'lchami va soniga ham tortiladi. Misol uchun bolalar tursa yiqilmas qo'g'irchoqning bitta katta, bitta o'rtacha va ikkita kichik sharchalardan iboratligini aniqlaydi.

Bolalar murakkab topshiriqlarni bajarish (masalan: uyni yopishtirish)ga jalb etilganda ularga alohida-alohida ish materiallari beriladi. Ish materiallari orasida uyning devori, tomi va oynasiga mos o'lchamlardagi rangli qog'ozlar mavjud bo'ladi.

O'rta guruhlarda naturani ko'rib chiqish namuna asosida olib borilishi shart emas. Bunda namunani tahlil qilishning o'zi yetarli. Namunani ko'rib chiqishda tarbiyachi bolalarning diqqatini uni yaxshilab ko'rib chiqishga tortib, quyidagi savollarni beradi:

1. Predmet qanday shakllardan tuzilgan?
2. Bu qanday shakl?
3. Uning rangi qanday?

Tarbiyachi predmetning qismlarini yoki naqsh elementlarini yopishtirish tartibini ko'rsatib beradi. O'rta guruhlarda tarbiyachi faqatgina predmetning muayyan qismini (masalan, uyni yopishtirishda uning tomini qirqishini) yoki naqshning ayrim elementini ko'rsatib berishi mumkin, qolgan harakatlarni bolalarning o'zlari bajaradi.

Mashg'ulotning oxirida tarbiyachi bolalar bilan birgalikda bajarilgan applikasiyani ko'rib chiqadi. Bu vaqtda quyidagilarni inobatga oladi:

- 1) applikasiya namunadagi predmetga o'xshaydimi?
- 2) shakllar toza yopishtirilganmi?

Tarbiyachi tahlildan so'ng bolalarning ishlarini baholashga yakun yasaydi.

V. Katta guruhda tarbiyalanuvchilarni applikasiya qilishga o'rgatish. Katta guruhlarda ko'pincha mashg'ulotning ma'lum qismini ikki (juftlikka) va undan ortiq (guruhda) bajariladigan jamoa ish sifatida tashkil etishi lozim. Bolalar birgalikda oldida turgan vazifani muhokama qiladi, ish tartibini rejalashtirishadi, bir-birlariga yordam ko'rsatadi.

Bolalar hayotining oltinchi yilida kuzatishlar, o'yin sensor tarbiyaning ta'sirida bolalarda predmetning rangi, shakli, kattaligi va boshqa sifatleri to'g'risida bilim, tasavvurlari shakllana boradi. Bu yoshga kelib bolalarda tasvirlash uquvi va texnik malakalar mavjud bo'ladi. Qo'l muskullari rivojlangan bo'lib, qaychi bilan qiladigan



harakatlari ancha aniq va ishonchli bo'ladi. Bu esa o'z-o'zidan applikatsiyaga o'rgatishning ancha murakkab vazifalarini hal etishni taqozo etadi.

Applikatsiya mashg'ulotlarida predmet to'g'risida ma'lumotlar berib boriladi.

Bu davrda bolalar shakllar bilangina emas, balki murakkab ranglar (och, to'q, yorqin ranglar va b.) bilan tanishib, ularni sezish va tanlay bilishga o'rganib boradilar. Applikatsiya tayyorlash jarayonida figuralarni bir-biri bilan taqqoslashga o'rganadi. Baland-past, keng-tor, ya'ni qalin-ingichka kabi tushunchalarni egallab, tushunib boradi. Shuningdek, qog'oz varag'ini mo'ljallay bilish bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar, tepada, pastda, o'rtasida, ketma-ket tushunchalarni egallashga harakat qiladi. Bu ishda bolalarni qaychi bilan qirqish metodlariga o'rgatib borish davom ettiriladi. Natijada bolalar o'rta guruhda egallagan qirqish metodlarini takrorlab, mustahkamlaydi va yangi qirqish metodlarini egallaydi. Bolalar tomonidan o'zlashtiriladigan yangi qirqish metodlari quyidagilardan iborat:

1) qog'ozni ikki buklab bir xil shakllarni qirqish metodi;

2) simmetrik shakllarni bir necha marta buklab (garmoshka qilib taxlab) qirqish metodi (bu metod yordamida gullar, barglar va hokazolar hosil qilinadi).

Bu guruhda tarbiyachi bolalarning diqqatini doimo ishning sifatiga qaratib boradi. Chunki qirqish va yopishtirishning sifati butun bir ishning yoki applikatsiyaning sifatiga ta'sir etadi. O'quv yilining boshida bolalar bilan doiraviy shakllarni qirqish ustida ishlanadi, chunki bolalar bu usulni o'rta guruhlarda yetarli darajada egallamagan bo'ladi. Bolalar predmetlarni qismlarga bo'lib, qirqib yopishtirishni o'rgangach, ularning qirqishning oqilona metodi – garmoshka metodi yordamida qog'ozni buklab qirqishga o'rganadi.

Ammo yilning boshida dumaloq shaklidagi predmetlarni qirqishni mustahkamlashga tarbiyachi quyidagi mavzulardagi ishlarni berishi mumkin:

1. "Kuzgi barglar".

2. "Sabzavot".

3. "Mevalar".

4. "Qo'ziqorinlar" va h.k.

Shu bilan birga o'quv yili davomida bolalar predmetli applikatsiya ishlari (samolyot, raketa, mashina, trolleybus va b.)ni bajaradi.

Qog'ozni garmoshka metodi yordamida buklab qirqish uchun turli predmetlar (bargli shoxcha, gullar, archa o'yinchoqlari)ni taklif qilish mumkin. Shuningdek, dekorativ applikatsiya bo'yicha: 1) shar, sochiq, kvadrat, gilam, doira, tarelka; 2) tayyor siluetlarni zontik, choynak, fartuk kabilarni bezatishni taklif etish mumkin.

Bolalarni simmetrik figuralarni qirqishga o'rgatishda tarbiyachi simmetrik tuzilishga ega bo'lgan predmetlar (guldon, nok, kapalak, masxaraboz va h.k.)ni taklif etadi.

Mashg'ulotlar jarayonida bolalar predmetli, dekorativ applikatsiyadan tashqari mazmunli applikatsiya ishlari (qyonning bo'g'irsoq bilan uchrashuvi, qor bosgan uycha, bayroq ushlagan qizcha kabilarni)ni ham bajaradi.

Katta guruhlarda bolalar o'z ixtiyorlari bilan ham applikatsiya ishlarini bajaradi. Bunda ular o'zlari olgan bilim, malakalarga tayangan holda harakatlarni mustaqil



bajaradi. Mashg'ulotlarda jamoaviy ishlashga alohida e'tibor qaratiladi. Bolalar jamoa bo'lib, gulzordagi gullarni, afsonaviy qushlar tasvirlangan gilamni, sevimli o'yinchoqlarni ifodalovchi applikatsiyalarni yaratishlari mumkin. Ushbu guruhlarda ham applikatsiya mashg'ulotlarida tasvirlash zarur bo'lgan predmetlarni tahlil qilish katta ahamiyatga ega. Bunda bolalarni savollar bilan faollashtirish, mustaqilliklarini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

Qolaversa, bolalarning ishlarini tahlil qilishda ularning e'tiborlarini predmetning shakli, rangi va turli xususiyatlariga e'tibor berish kutilgan natijalarga erishishga yordam beradi.

Bolalar xalq amaliy san'ati namunalarini ko'rib tahlil qilish, ranglar uyg'unligini, go'zalligini sezish, kompozitsiya (applikatsiya qismlarining tuzilishi, joylashishi va o'zaro munosabati, ularning qo'shib ketishi, yaxlitligi)ning mazmundorligini ochishga o'rgatiladi. Bu guruhlardan namunadan ayrim hollarda, ya'ni ishning yakunini namoyish qilishda foydalanish mumkin. Har bir qirqish metodlarini ko'rsatib berishga maqsadga muvofiq bo'lmadi. Tarbiyachi ko'proq bolalarning o'zlarini faollashtirib, bolalarning o'zlariga mustaqil ravishda qirqish yo'llarini, yopishtirish tartibini qidirib topishga undaydi. Agarda yangi qirqish yo'llari kiritiladigan bo'lsa, tarbiyachining o'zi qirqish yo'llari (masalan: qat-qat usulida qirqish, ayniqsa, simmetrik figuralarni qirqish)ni ko'rsatib beradi. Shuningdek, tarbiyachi ayrim predmetning qog'ozdagi tasviridan foydalanish (qo'l harakatlari bilan yurgizib chiqishi) mumkin.

Katta guruhlarda bolalar, shuningdek, qog'ozni qo'l bilan yirtib, mayda bo'lakchalardan foydalanib, tasvirini hosil qilish metodini o'zlashtiradi. Tarbiyachi bolalarni mustaqil, ijodiy ishlashga o'rgatib, ularda mazmundor applikatsiyalarni yaratish malakalarini shakllantiradi.

Tarbiyalanuvchilar tayyorlov guruhlariga o'tgach, ularning applikatsiya ishlari yanada murakkablashadi. Ular qirqimning yangi metodlarini egallay boshlaydi. Ular:


- 1) bir necha marta buklangan qog'ozdan qirqish metodi;
- 2) siluet qirqish metodi.

Siluet qirqish – eng murakkab metodlardan biri bo'lib, uni qo'llash jarayonida bolalar predmetning obrazini doimo xotiralarida tutib turishga, uning konstruksiyasi (qurilish-tuzilishi) va proporsiyasi (o'zaro muvofiqligi)ni kuzatib turishga, qo'l harakatini hosil qilinayotgan shaklning yo'nalishiga moslashishga o'rganadi. Shuning uchun bolalarni siluet qirqishga o'rgatishni sodda shakllar (baliq, sabzavot, mevalar) dan boshlash lozim.

Shu bilan birga ushbu guruhlarining bolalari turli shakllarda dekorativ naqsh, bir necha qismdan tuzilgan predmetlarni tuzishga, mazmunli applikatsiya tuzishda predmetlarni o'zaro muvofiq joylashtirishga hamda rang spektrining barcha ranglaridan foydalanishga o'rganadi.

Katta guruhlarda applikatsiya tayyorlashda bolalarni quyidagilarga o'rgatish vazifalari turadi:

- 1) to'g'ri harakat bo'ylab qirqish;
- 2) dumaloq shakllarni qirqish;

- 
- 3) ikkiga buklangan qog'ozni qirqish;
 - 4) bir nechta qismdan tuzilgan predmetlarni hosil qilish;
 - 5) geometrik va simmetrik shakllardan chiroyli dekorativ naqsh tuzish.

Bolalar tomonidan ushbu metodlardan foydalanishda vaqt tejaladi, mazmunli, chiroyli kompozitsiyani tayyorlashga muvaffaq bo'linadi. Metodlar bolalarga vaza, barglar, sabzavotlar va mevalarni shaklini qirqishga yordam beradi.

Katta guruhlarda bolalar shakllarni qog'ozning uchini qo'li bilan tekislab, barmoqlarda qirqishga o'rganadi. Dekorativ applikasiya ishlarida esa bu guruhlarda faqatgina tayyor geometrik shakllar berilmay, balki xilma-xil o'simlik shakllaridan gullar, barglar va b.ning elementlarini hosil qilish mumkin. Mazkur guruhlarda ham o'rta guruhlardagi kabi mavzularda, faqat detallar soni ko'paytirgan holda qorboboni boshida qalpog'i yoki qo'lida xaltasi bilan, qorqizni yuz qismidan mayda detallari (burun, ko'z va b.) bilan, samolyotni esa qanotlarida yulduzi bilan tasvirlangan applikasiyalar yaratiladi.

Katta guruhlarda tarbiyachi bolalarning tasavvurlariga asoslangan holda ular bilan naturani, uning qismlari, tuzilishini tahlil qilib, alohida qimlarga ajratib ko'rsatadi. Namunada agar bolalar predmetni birinchi marta tasvirlayotgan bo'lishsa foydalanish mumkin. Uni tahlil qilishni bolalarning o'ziga topshirish mumkin bo'ladi. Agar bolalar o'zlariga tanish predmetni bir necha detallari bilan tasvirlanayotgan bo'lishsa, namuna o'rnini natura bilan almashtirish mumkin. Masalan: oddiy uyni emas, afsonaviy yoki bayram uchun bezatilgan uyni katta va tayyorlov guruhlarda bir necha namunalardan foydalanib, ko'rsatish tavsiya etiladi. Bu holat bolalarning ijodiy faolligini oshiradi.

Bu guruhlarda bolalar qog'ozni ingichka buklab simmetrik shakllar qirqish metodini o'zlashtiradi. Mazkur metod murakkab bo'lganligi sababli I.A.Gusakova bolalarni u bilan dastlab tanishtirishda qog'ozni buklab chizilgan kontur berishni tavsiya etadi. Bolalar metodni o'zlashtirib olgach, ularni qunt bilan chamalab qirqishga o'rgatiladi.

Katta guruhlarda jamoa bo'lib, murakkab applikasiya ishlari: "Akvariumdagi baliqlar", "O'tloqdagi gullar", "Ko'chadagi uy va mashinalar" va boshqalar bajariladi. Jamoa bilan ishlashda har bir bola applikasiyaning muayyan qismini bajaradi. Keyin har bir qism umumiy fonga birlashtiriladi. Tarbiyachi ishni bolalarning xohishlariga ko'ra taqsimlaydi. Ba'zi jamoa ishlarni bajarishda bolalar 4-5 ta bo'lib, guruhchalarga birlashishadi.

VI. Tayyorlov guruhida tarbiyalanuvchilarni applikasiya qilishga o'rgatish.

Tayyorlov guruhlari uchun mo'ljallangan dasturda mazmunli applikasiyalarni yaratish ko'zda tutilgan. Shunga muvofiq bolalar "Ko'cha", "Akvarium" kabi mavzularda, shuningdek, «Bo'g'irsoq» kabi ertaklarga illyustratsiyalar bajarishlari mumkin.

Tayyor shakllarni yopishtirish tayyorlov guruhlarida ham davom ettiriladi. Simmetrik shakllardan naqshlar tuzishda ularga turli o'lcham va rangdagi tayyor shakllar beriladi. Shu bilan birga bu guruhlarda ham katta guruhlardagi kabi qog'ozni qo'l bilan yirtish metodidan foydalangan holda applikasiyalarni yaratish mumkin.

Tayyorlov guruhlari uchun mo'ljallangan dasturga siluet qirqish metodi yordamida applikasiyalarni tayyorlash mashg'ulotlari kiritiladi. Shuning uchun o'rgatish



metodlarining xarakteri bir qadar o'zgaradi. Naturani tahlil qilishda tarbiyachi ularning diqqatini barmoq harakatini amalga oshirish orqali predmetni konturiga tortadi.

Bunda barmoq harakatini qirqish qaysi qismdan boshlanadigan bo'lsa o'sha qismdan boshlash lozim. Bu guruhlarda bolalar endi predmet konturiga qandaydir detall qirqish (tipratikanni ignalari bilan tasvirlash)ni o'rganadi.

Albatta bolalar uchun ushbu metodni o'zlashtirish bir qadar qiyin. Shu sababli ish ikki bosqichda tashkil etiladi. Ya'ni:

1. Avval tayyorlab olingan qog'ozdan umumiy kontur qirqiladi.
2. So'ngra uning detallari – oyog'i yoki suzgichlari qirqiladi.

Ba'zi vaqtlarda siluet qirqish oldindan chizilgan kontur asosida qirqiladi. Bu narsa ko'proq murakkab o'simlik elementlaridan dekorativ shakllar tuzishda qo'llaniladi. Bu guruhlarda qog'ozni ikkiga buklab qirqishning murakkabroq metodi (archa, inson, hayvon shakllari) bilan tanishtiriladi.

Bu guruhlarda bolalar yana qirqishning murakkab metodi – qog'ozni bir necha marta buklash asosida qirqish metodi (salfetka, qor parchalari hosil qilish)ni o'zlashtirishga yo'naliriladi. Tarbiyachi bolalarga qog'ozni qanday buklash kerakligini, qirqish yo'llarini ko'rsatib beradi.

Tayyorlov guruhlarida ham sujetli-mazmunli applikasiyani yaratish davom ettiriladi. Bunda bolalarni shakllarni to'g'ri joylashtirib, yopishtirishga o'rgatiladi. Avval umumiy fon hosil qilinadi, keyin birin-keyin orqada, o'rtada va oldinda joylashgan predmetlar yopishtiriladi.

Mazkur guruhlarda ham applikasiya jamoa ish sifatida berilishi mumkin. Masalan: "Egri va to'g'ri" ertagida asosida bolalar 4 nafardan guruhlariga birlashtiriladi. Har bir guruh ertakning ma'lum ko'rinishini bajaradi. Bolalar ko'rinish elementlarini qirqib, joylashtirib olganlaridan so'ng ularni ketma-ketlikda yopishtirish tartibini aniqlaydi. Biri yelim surtadi, ikkinchisi uni joylashtiradi, uchinchisi latta bilan mahkam yopishtiradi. Bu ish bolalara o'zaro yordam, do'stlik va jamoaviylik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasining barcha guruhlarida ixtiyoriy applikasiya ishlarini yaratishga doir mashg'ulotlarni tashkil etish mumkin. Biroq, o'rta guruh bolalariga o'ylagan mavzular asosida tayyor shakllar beriladi. Katta guruhlarda esa bolalarning o'zlari o'ylagan mavzular bo'yicha shakllarni qirqadi. 6-7 yoshdagi bolalar bajariladigan applikasiya ishining mavzusi bo'yicha eskizni oddiy qalam bilan chizib olishlari, keyin esa eskizning detallari asosida applikasiyani shakllantirishlari mumkin.

VII. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mozika mashg'ulotlarni o'tkazish.

Bolalarni tasviriy san'at vositasida tarbiyalashda ularda mozaika yaratish qobiliyatini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega.

Mozika (fran. "mosaique" – "muzalarga bag'ishlangan") – turli xil materiallar: shisha, tosh va boshqalardan yasalgan kichik san'at asari.



“Mozaika” atamasi qanday paydo boʻlganligi siriligicha qolmoqda. Undan foydalanishning dastlabki namunalari Mesopotamiyada topilgan miloddan avvalgi IV asrga oid panellardir¹⁶⁷.

Mozaika sanʼat va hunarmandchilikning eng qadimgi turlaridan biridir. Uni hatto qadimgi yunonlar ham bilishgan. Biroz vaqt oʻtgach, qadimgi Rim va Vizantiyada mozaika ommalashdi. Keyinchalik mozaikalar deyarli barcha joyda - xususiyl uylarda ham, jamoat binolarida ham ishlandi.

Rim mozaikalari kichik smalt yoki tosh boʻlaklaridan yasalgan. Baʼzan oddiy toshlar ishlatilgan. Ammo smaltdan foydalanish palitrani sezilarli darajada kengaytirdi. Koʻpgina hollarda yer mozaika bilan, devorlar esa freskalar bilan bezatilgan.

Mozaika Vizantiyada gullab-yashnagan. U yerda IV-XIV asrlarda ulkan sobor mozaikalar bilan bezatilgan. Vizantiya va Rim mozaikalari oʻrtasidagi asosiy farq toshlarning kichikroq oʻlchamda boʻlganidadir. Shuningdek, Vizantiya mozaikasi yaltiroq fonning koʻpligi bilan ajralib turadi¹⁶⁸.

Rossiyada mozaika faqat X asrdan boshlab nasroniylik qabul qilingandan keyin paydo boʻldi. Ammo, afsuski, materialning qimmatligi tufayli u keng tarqalmadi.

XII asrda Florensiya mozaikasi paydo boʻldi. U rangli jasper va marmar plitalaridan yigʻilgan. M.Lomonosov rangli shisha yasashni qaytadan kashf qilgandan keyin Rossiyada Vizantiya yoki Rim mozaikasi texnikasidan foydalangan holda koʻplab panellar yaratilgan.

Uralda tosh qazib olish kuchayganligi sababli, rus mozaikasi paydo boʻldi. Rus mozaikasida nafaqat jasper va marmar, balki Ural marvaridlari – lapis lazuli, malaxit va boshqalar ishlatilgan.

Mozaika bugungi kunda ham oʻzining jozibadorligi va mashhurligini yoʻqotmagan. Zamonaviy sharoitda mozaikalarning materiallari arzon. Chunki hozirda sof smalt emas, balki shisha yoki shisha qotishmasi ishlatiladi.

Mozaikaning har doimgidek mashhurligi mozaikaning koʻplab afzalliklarga ega ekanligi bilan izohlanadi: u bardoshli, issiqlikka chidamli, suv oʻtkazmaydigan va zarbaga chidamli xususiyatlarga ega.

Hozirda mozaika yotqizishning ikki turi mavjud: oldinga (tasvir toʻgʻridan-toʻgʻri yuzaga yotqiziladi va gips qatlamiga oʻrnatiladi) va teskariga (tasvir qogʻozga yuzini pastga qaratib qoʻyiladi) qarab yotqizilgan koptoklamlar.

Qadimda mozaikaning bir necha turi qoʻllanilgan. Yaʼni:

1. Fon mozaikasi. Oddiy plitkalardan (odatda 300x300 mm oʻlchamda) yaratilgan.

2. Aralash mozaika. Koʻp rangli detallar tasodifiy ravishda yuzaga yopishtirilgan va qandaydir tashvish hissi paydo boʻladi.

3. Mozaik panellar (teskari terish usulidan foydalanish). Tayyor chizilgan asosga marmar, granit, konglomerat boʻlaklari qoʻllaniladi, soʻngra oʻz-oʻzidan yopishqoq plyonkaga, soʻngra panjaraga yopishtiriladi (alohida plitka olinadi).







¹⁶⁷ Горбатова, Е.В. Художественная мозаика: учеб. нагляд. пособие для педагогов учреждений, обеспеч. получение дошк. образования / Е. В. Горбатова. – Минск : Нац. инт образования, 2010. – С. 34.

¹⁶⁸ Заиграйкина С.П. Мозаики V века в Италии. О некоторых особенностях стиля //Вестник православного Свято-Тихоновского гуманитарного университета. – № 2. – 2014. – С. 9.

Bugungu kunda esa mozaikaning quyidagi turlaridan foydalanilmoqda (189-jadval):

18-jadval

Zamonaviy mozaikaning turlari¹⁶⁹

<p>Shisha mozaika</p>	<p>Sanoatda ishlab chiqariladi. Shisha keramika va toshga nisbatan afzalliklarga ega. Shisha suvga eng chidamli va yeyilishga chidamli material. Qolaversa, shisha nisbatan arzon material</p>	
<p>Smalt mozaika</p>	<p>Tabiiy birikmalar materialga rang va ajoyib kuch beradi. Shishadan farqli smalt shaffof emas. Ushbu mozaika keng joylarga samarali ishlanadi</p>	
<p>Sopol (Keramika) mozaika</p>	<p>Kvadrat, to'rtburchak shaklidagi, faqat kichikroq o'lchamdagi oddiy plitkalarga o'xshaydi. Ularda rang va soyalar juda xilma-xildir. Mozaika oddiygina sirlangan yoki "maxsus effektlar"ni o'z ichiga olishi mumkin</p>	
<p>Tosh mozaikasi</p>	<p>Tosh bardoshli material hisoblanadi. Qoplama uchun tabiiy toshni tanlab, hunarmandlar sun'iy eskirgan va sayqallangan plitkalarni birlashtirib, devorlarni yoki pollarni bezaydi</p>	
<p>Metall mozaika</p>	<p>Turli metallardan yaratilgan bo'lib, ular to'ldirgich bilan shakllantirilgan fovakni ifodalaydi. U eng inij mozaika hisoblanadi, shuning uchun uni quruq xonalarning ichki qismida ishlatish tavsiya etiladi</p>	
<p>Yog'ochdan yasalgan mozaika</p>	<p>Parket taxta yog'och mozaikaning yaxshi namunasidir. Namligi yuqori bo'lgan joylarda yog'och mozaikadan foydalanish tavsiya etilmaydi</p>	

¹⁶⁹ Искусство мозаики как средство развития цветовосприятия у детей // <https://infourok.ru/iskusstvo-mozaiki-kak-sredstvo-razvitiya-cvetovospriyatiya-u-detey-2736313.html>.



Bolalar o'yinchog'i ham "Mozaika" deb ataladi. U bo'laklarga ajratilgan stend bo'lib, o'z ichiga mayda rangli qismlarni oladi. Qismlar yassi sirt ustiga to'kiladi va zarur tartibda yig'iladi. Bu o'yin bolaning tasavvurini, badiiy didini rivojlantiradi. Rangli qog'ozdan mozaika yasash – irodali va diqqatni talab qiladigan bolalar uchun juda qiziqarli mashg'ulot sanaladi.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarda rangni badiiy idrok etishni rivojlantirishga yetarli e'tibor qaratish zarur.

Mazkur jarayonda quyidagi vazifalar hal qilinadi:

1. Bolalarni mozaika texnikasi, uning xususiyatlari va turlari bilan tanishtirish; qog'ozdan mozaika yasashda yordam beradi.

2. Bolalarning qog'oz mozaika bilan ishlash usullarini o'zlashtirishlari uchun sharoit yaratish.

3. Bolalarni yelim, rangli qog'oz, qalamlardan to'g'ri va tejamkor foydalanishga o'rgatish.

4. Bolalarda badiiy didni, ranglarni idrok etishni, qo'llarning nozik motorli ko'nikmalarini rivojlantirish.

5. Bolalarda iroda, sabr-toqat, diqqat, aniqlik va mehnatsevarlikni tarbiyalash.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida mozaikaning quyidagi turlarini bolalar bilan birgalikda yashash mumkin:

qog'oz mozaika;

qog'oz parchalaridan mozaika;

plastik idishlardan mozaika;

tuxum qobig'idan mozaika;

tabiiy materialdan mozaika.

Mozaika yashashga qaratilgan harakat quyidagi tartibda bosqichma-bosqich tashkil etiladi:

1-bosqich: oq yoki rangli kartonga andoza asosida biror predmet, hayvon, meva yoki sabzavotlarning rasmini chizish.

2-bosqich: rangli qog'ozlarni bo'laklarga bo'lish.

3-bosqich: chizilgan predmet (hayvon, meva yoki sabzavotlar)ning zarur maydoniga asta-sekin yelim surtish.

4-bosqich: rangli qog'ozning kesilgan mayda bo'laklarini rangga mos ravishda har bir maydonga yopishtirish¹⁷⁰.

Bolalar bilan ishlash uchun quyidagi turdagi mozaikalar qo'l keladi:

1. Yog'ochdan yasalgan mozaika. Ushbu turdagi mozaika tabiiy yog'ochdan tayyorlanadi. U bolalar uchun xavfsizdir.

2. Magnit mozaika. Bu mozaikaning juda mashhur turi, chunki magnitlar tufayli hosil qilingan manzara uzoq vaqt saqlanadi. Magnit mozaikaday ko'pincha "Alifbo" yoki raqamlar ko'rinishini hosil qilish mumkin. Ular nafaqat o'quv vositasi, balki o'quv qo'llanmasi sifatida ham xizmat qilish imkonini beradi.

¹⁷⁰ Сечная Ю.В. План-конспект занятия "Мозаика, ее виды. Бумажная мозаика "Грибы" // <https://www.prodlenka.org/metodicheskie-razrabotki/58291-plan-konspekt-zanjatija-mozaika-ee-vidy-bumaz>.



3. Uyali mozaika. Ushbu turdagi mozaika uzoq vaqtdan beri ma'lum. Bolalar turli shakl va o'lchamdagi kichik, yorqin "chinnigullar" dan mozaika yaratadi¹⁷¹.

Shunday qilib, maktabgacha ta'limda bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish ham pedagogik faoliyatning muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatishda rasm solish, loydan buyum yasash metodikasi bilan bir qatorda applikasiya va mozaika ham asosiy turlari sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotlari dasturiga kiritilgan. Applikasiya va mozaika mashg'uloti bolalarni har tomonlama o'sishida katta ahamiyatga ega. Ushbu mashg'ulotlar bolalarning xayolotini boyitadi, kuzatuvchanlik qobiliyatini, qo'l malakasini, shuningdek, mo'ljalay olish, shaklini va rangni sezish hissini rivojlantiradi, ijodkorlik sifatlarini, irodani tarbiyalaydi, diqqat va tasavvurni o'stiradi.

Nazorat savollari:

1. "Applikatsiya" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
2. Applikasiyalar tarbiyalanuvchilar uchun qanday tarbiyaviy ahamiyatga ega?
3. Applikasiya ishini bajarishda qanday asbob-uskunalaridan foydalaniladi?
4. Kichik guruhlarda tarbiyalanuvchilarni applikasiya qilishga o'rgatishda nimalarga e'tibor qaratiladi?
5. O'rta guruhlarda tarbiyalanuvchilarni applikasiya qilishga o'rgatish jarayoni qanday kechadi?
6. Katta guruhda tarbiyalanuvchilarni applikasiya qilishga o'rgatish metodikasi qanday?
7. Tayyorlov guruhida tarbiyalanuvchilarni applikasiya qilishga o'rgatish qanday xususiyatlarga ega?
8. Mozaikaning dastlabki namunalari qayerda topilgan?
9. Rossiyada mozaikaning qanday turi rivojlandi?
10. Mozaikaning qanday zamonaviy turlari mavjud?
11. Bolalar bilan mozaikani yasash nechta bosqichda tashkil qilinadi?
12. Bolalar bilan qanday turdagi mozaikalarni yasash mumkin?

Test topshiriqlari:

1. Mato, qog'ozga rang-barang gazlama, qog'oz parchalarini yopishtirib yoki tiqib naqsh solish metodi qanday nomlanadi?

a) applikasiya;

- b) mozaika;
- c) ornament;
- d) kombinatsiya.

2. Rangli qog'oz, yog'och kukuni, somon, tuxum po'chog'i, terak puxi, o'simlik bargi, o'simlik urug'i va b. Ular nima?

- a) applikasiya turlari;
- b) applikasiya metodlari;

¹⁷¹ Мозаика – развиваем моторику, воображение и логику // <https://deti-club.ru/mozaika-razvivaem-motoriku-voobrazhenie-i-logiku>.



c) applikasiya xomashyolari;

d) applikasiya mavzulari.

3. Aniq predmetlarni aks ettiruvchi applikasiya – bu ...

a) mazmunli applikasiya;

b) predmetli applikasiya;

c) dekorativ applikasiya;

d) kantli dekorativ applikasiya.

4. Ma'lum sujet-mavzuga asoslangan applikasiya – bu ...

a) mazmunli applikasiya;

b) predmetli applikasiya;

c) dekorativ applikasiya;

d) kantli dekorativ applikasiya.

5. ... – bezak, ziynat maqsadlarida yaratilib, badiiy xarakter kasb etadigan applikasiya.

a) mazmunli applikasiya;

b) predmetli applikasiya;

c) dekorativ applikasiya;

d) kantli dekorativ applikasiya.

6. Qaychi, yelim, mo'yoqalam, yelim uchun mo'yoqalam, oddiy qalam, qirqim uchun quticha. Ular – bezak, ziynat maqsadlarida yaratilib, badiiy xarakter kasb etadigan applikasiya.

a) applikasiya xomashyolari;

b) applikasiyada qirqish usullari;

c) applikasiya namunalari;

d) applikasiyada foydalaniladigan asbob-uskunalar.

7. Geometrik shakllarni qirqish, qog'ozni ikki buklab qirqish, kontur asosida qirqish, qismlar asosida buklab qirqish, siluet (chamalab) qirqish, qo'lda yirtish. Ular ... –

a) applikasiya xomashyolari;

b) applikasiyada qirqish usullari;

c) applikasiya namunalari;

d) applikasiyada foydalaniladigan asbob-uskunalar.

8. Rangi bo'yicha applikasiyalarning asosiy turga ajratiladi.

a) 8 ta;

b) 6 ta;

c) 4 ta;

d) 2 ta.

9. Rangli qog'ozdan, somondan, terak puxidan, o'simlik bargidan, o'simlik urug'idan, mato (charm) qoldiqlaridan, qumdan va boshqa applikasiya. Ular – ... applikasiya turlari.

a) rangi bo'yicha;

b) tayyorlangan xomashyoga ko'ra;



- c) mazmuniga ko'ra;
- d) predmetlar soniga ko'ra.

10. ... – yog'ochdan tayyorlangan uch oyoqli moslama, taglik.

a) molbert;

b) mo'yqalam;

c) siluet;

d) shirma.

11. ... – turli xil materiallar: shisha, tosh va boshqalardan yasalgan kichik san'at asari.

a) molbert;

b) mo'yqalam;

c) mozaika;

d) shirma.

12. Miloddan avvalgi IV asrga oid mozaikadan foydalanishning dastlabki namunalari ... da topilgan.

a) Florensiya;

b) Mesopotamiya;

c) Vizantiya;

d) Rossiya.

13. Shisha, smalt, sopol (keramika), tosh, metall va yog'ochdan yasalgan mozaika.

Ular – zamonaviy mozaikaning ...

a) materiallari;

b) shakllari;

c) turlari;

d) ko'rinishlari.

14. Bolalar bilan mozaika yashash ... da kechadi.

a) besh bosqich;

b) to'rt bosqich;

c) uch bosqich;

d) ikki bosqich.

5.4. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarda tabiiy materiallardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari

Reja:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodkorlikka o'rgatish.

2. Pape-mashe usulida o'yinchoqlar yasash.

3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiiy va tashlandiq materiallardan o'yinchoqlar yasash.

4. Maktabgacha yoshdagi bolalarga qog'oz va tabiat materiallaridan o'yinchoq yasashga o'rgatish.

Tayanch tushunchalar: faoliyat, tasviriy faoliyat, mashg'ulot, material, tabiiy material, foydalanish, tabiiy materiallardan foydalanish, imkoniyat, didaktik



imkoniyat, maktabgacha yoshdagi bolalar, ijodkorlik, o'rgatish, ijodkorlikka o'rgatish, maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodkorlikka o'rgatish, o'yinchoq, yasash, o'yinchoqlar yasash, Pape-mashe usuli, Pape-mashe usulida o'yinchoqlar yasash, material, tabiiy material, tashlandiq material, tabiiy materiallardan o'yinchoqlar yasash, tashlandiq materiallardan o'yinchoqlar yasash, qog'oz, qog'ozdan o'yinchoq yasash, tabiat materiallaridan o'yinchoq yasash, o'rgatish, qog'oz materiallaridan o'yinchoq yasashga o'rgatish, tabiat materiallaridan o'yinchoq yasashga o'rgatish.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi. – T: YUNISEF, 2018. – 72 b.
2. Nurmatova M.Sh., Hasanova Sh.T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi. – T: "Cho'lpon", 2010.
3. Nurmatova M.Sh., Hasanova Sh.T., Azimova D. Ustaxonada amaliy mashg'ulot. – T: "Musiq", 2010.
4. Мактабгача таълимда ижодий фаолият асослари / Маърузалар матни. Тузувчи: М.Норбошева. – Термиз: Термиз ДУ, 2018.

I. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodkorlikka o'rgatish¹⁷². Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni ijodiy faoliyatga o'rgatish ham tasviriy faoliyatning muhim yo'nalishi sanaladi. "Ilk qadam" davlat dasturida maktabgacha bolalarni ijodkorlikka o'rgatish ularni har tomonlama tarbiyalash, ularda badiiy-estetik munosabat, did, qobiliyat va dunyoqarashni shakllantirishning muhim talablardan biri ekanligi qayd etib o'tiladi.

Bolalarni ijodiy faoliyatga o'rgatish orqali ularda ijodiy faoliyat ko'nikma, malakalarini shakllantirish va izchil ravishda rivojlantirish maqsadi ko'zlanadi.

Belgilangan maqsadga muvofiq asosiy vazifalar belgilanadi. Ular quyidagilardir:

Bolalarda badiiy xarakterga ega qo'l mehnatiga bo'lgan qiziqishni uyg'otish;

mehnat faoliyati tashkil qilish ko'nikma, malakalarini shakllantirish;

maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatga muhabbatni tarbiyalash va ularni kasbga yo'naltirish;

bolalarda ijodiy ko'rgazmalar, o'yinlar uchun atributlar yasashga bo'lgan istaklarni uyg'otish;

bolalarni qog'oz, karton kabi materiallarning xususiyatlari bilan tanishtirish;

bolalarda badiiy-estetik xarakterdagi buyumlarni tayyorlash jarayonini

rejalashtirish;

bolalarga badiiy-estetik xarakterdagi buyumlarni tayyorlash texnologiyasini o'rgatish;

bolalarda mahsulotni tejash sifatlarini shakllantirish;

¹⁷² Ушбу кичик мавзуни ёритишда куйидаги манбаларга таянилди: Nurmatova M.Sh., Hasanova Sh.T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi. – T: "Cho'lpon", 2010; Мактабгача таълимда ижодий фаолият асослари / Маърузалар матни. Тузувчи: М.Норбошева. – Термиз: Термиз ДУ, 2018.



bolalarda buyumlar qoralamasining eskizi va suratini chizishdan avval ish joylarini tartibga keltirish, eskiz va suratlarni saqlash malakalarini shakllantirish;

bolalarni buyumlar yasash jarayonida oddiy asboblardan foydalanishga o'rgatish; ularni vaqtni tejashga, unumli ishlashga odatlantirish.

Ijodiy faoliyatning asosiy kategoriyalari ijod, ijodkorlik, ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulot sanaladi.

Ijod – *ijtimoiy subyektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi.*

Ijodkorlik – *ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish va aniq ijodiy natija (mahsulot)ni yaratishga qaratilgan harakat.*

Ijodiy faoliyat – *ijodiy mahsulotni qaratishga yo'naltirilgan faoliyat.*

Ijodiy mahsulot – *ijodiy faoliyatni samarali tashkil qilish orqali yaratilgan badiiy-estetik qiymatga ega mahsulot.*

Ijodiy qobiliyat insonga nafaqat hayotida qo'l kelishi, shu bilan birga undan foydalanishi uning tashqi ko'rinishini ham o'zgartirishi mumkin.

Bolalar ijodiyoti va uning o'ziga xos tomonlarini tushunish tarbiyachilardan faoliyatga nisbatan ijodiy yondashish malakalariga ega bo'lishni taqozo qiladi.

Bolalar ijodida ijodiy faoliyatning boshlang'ich bosqichida o'ziga xos xarakter xususiyatlar: avval o'zlashtirilgan ish usullarini yangicha mazmunda qo'llash; berilgan topshiriqlarni yangicha yondashuv, metod va usullar yordamida bajarish, o'z tuyg'ularini turli vositalar yordamida ifodalash, tasviriy faoliyat jarayonida faol va mustaqil ishtirok etish kabilar ko'zga tashlanadi.

Tasviriy faoliyatidagi ijodiylik bolalar tomonidan borliqning anglanishida emas, balki bolaning o'zi tayyorlayotgan "mahsulot"ga nisbatan ijodiy yondasha olishida namoyon bo'ladi. Jumladan, bola quyidagicha o'ylay olishi zarur: qalam va bo'yoqlar qog'ozda o'ziga xos iz qoldiradi, loy – yumshoq xomashyo, shu sababli undan turli narsalarni yasash mumkin.

Qalamdan qoladigan iz nimanidir ifodalashini tushunadigan bola o'z xohishi va kattalarning ko'rsatmasiga muvofiq qandaydir predmetni tasvirlashga harakat qilsa, unda bolaning faoliyati tasviriy xarakter tusini oladi. Bola o'z fikri, maqsadiga ega bo'lib, o'zining amaliy harakatlari orqali ularni namoyon etishga harakat qiladi.

Shu tariqa ijodiy jarayonning birinchi bosqichi – fikrning paydo bo'lish hodisasi sodir bo'ladi. Odatda rassom va yozuvchilar o'zlarida fikr paydo bo'lishi bilan uni mazmunan rivojlantiradi va bajarish vositalarini o'ylab yuradi. Rassomlar va yozuvchilarda amaliy harakatni tashkil etish uchun odatda uzoq vaqt talab etiladi.

Bolalarda esa ko'p holatlarda bunday jarayon kuzatilmaydi. Bola qanchalik yosh bo'lsa, u shunchalik o'ylagan narsasini tez tasvirlashga harakat qiladi. U hali o'z ishining natijasini va uni bajarish yo'lini oldindan ko'ra olmaydi. Avvaldan o'ylab ko'rish va ishni rejalashtirishni tasavvur qilish jarayoni bilan birgalikda amalga oshiradi.

Shu sababli bolalarning ijodiy faoliyati jarayonida ish mazmunini o'zgartirish hollari tez-tez uchrab turadi. Bola o'zi tasvirlayotgan rasmdagi timsollar sirasiga mavzuga mutlaqo taalluqli bo'lmagan detallarni kiritishi mumkin. Bolalarning tasviriy-ijodiy



faoliyatining o'ziga xos tomonlarini o'rganish uchun pedagogika sohasida bir qator pedagogik va psixologik tadqiqot ishlari olib borilgan.

Tasviriy faoliyat turkumiga kiruvchi mashg'ulotlarning o'rni beqiyos ekanligini e'tirof etgan holda bunday mashg'ulotlar ularda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishga ham tamal toshini qo'yishi shubhasizdir.

Bolalar rasm, appalikatsiya, loy ishi, qirqib yelimlash mashg'ulotlarida nafaqat biror ish bilan ma'lum muddat band bo'ladilar, balki yuqorida aytib o'tganlarimizga qo'shimcha ravishda ularda quyidagilar rivojlanadi va shakllanadi:

- tasviriy san'at sohasiga doir qobiliyatlari aniqlanadi va shakllantiriladi;
- qalam, mo'yqalamni ushlab, loy, plastilin bilan ishlash, qaychida ayrim narsalarni qirqib yelimlash orqali mayda qo'l mushaklari rivojlanadi;
- bola yozuv texnikasini egallashga tayyorlanadi;
- bola tasviriy faoliyat mashg'ulotlari orqali diqqatini bir joyga taqsimlay olishni va ishini oxiriga qadar bajarishni, o'tira olishni o'rganadi;
- tabiatni, atrof-olamni kuzatishni, uni asrab-avaylashni ardoqlashni, unga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishni o'rganadi;
- jamoa bo'lib mehnat qilish, ishni rejalashtira olish, o'rtoqlarini eshita olish va o'zaro fikr-mulohazalarni inobatga olgan holda ishlash malakalari shakllanadi;
- xalqimizning boy madaniy-ma'naviy merosi haqida tushuncha va tasavvurga ega bo'ladi va ularni o'z ishlarida ifodalashga o'rganadi.


Ijodkorlik qobiliyati insonning tabiiy va ijtimoiy dunyoni voqelikning obyektiv qonunlari asosida o'z maqsadi va ehtiyojlariga muvofiq o'zgartiradigan faoliyatidir. Ijod mahsuli bu inson ongining faol mahsulidir.

"Maktabgacha ta'lim Konsepsiyasi"¹⁷³da "maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-estetik va musiqiy tarbiya hamda ta'lim darajasini oshirish, erta yoshdan boshlab STEAM o'qitish asoslarini joriy etish" vazifasi belgilab berilgan. Hozirgi tadqiqotlar maktabgacha yoshdagi bolalar rasm chizish, loy va plastilin o'yinchoqlar yasashda ijodiy faoliyat ko'rsata olishini isbotladi. Albatta, bolalar ijodkorligi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, kattalar ijodkorligi mezonlariga javob bera olmaydi.

Ta'lim jarayonida, ertaklar eshitish, har xil rasmlarni ko'rish tufayli bola o'yinchoq yasashdan odin o'zi bevosita idrok etgan predmetlar doirasiga kirmaydigan narsalarni asta-sekin tasavvur qila boshlaydi. Bolada avval kattalarning og'zaki ta'siri bilan ixtiyoriy tasavvur obrazlari hosil bo'lib, keyinchalik ular bolaning mustaqil fikrlashidan vujudga kelishi mumkin.

Bolalarning ijodiy qobiliyatini shakllantirishda berilgan topshiriqlarning mazmunidan kelib chiqib, pedagogik faoliyat uch bosqichda tashkil qilinadi (40-rasm):

¹⁷³ "Maktabgacha ta'lim Konsepsiyasi" // <https://lex.uz/docs/4327235>.



40-rasm. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarining asosiy bosqichlari

Birinchi bosqichda bolalarga ulardan ijodiy faoliyatda dastlabki yo'nalishni talab qiladigan topshiriqlar beriladi. Bolalar tarbiyachining ko'rsatmalari ("O'zing yasa", "Bir narsa o'yla", "Qidirib top", "O'zgartir" kabilar) bo'yicha u bilan birga ishlab, o'zining ijodkorlik layoqatini namoyon etadi.

Ikkinchi bosqichda bolalarni aniq maqsadga muvofiq ishlashga va izlanishga da'vat etuvchi topshiriqlar beriladi. Bola tarbiyachi bilan birga ishlab, mavjud ko'nikmalarni kombinatsiyalash va o'zgartirish mumkinligini tushuna boshlaydi.

Uchinchi bosqich - bolani turli yo'nalishlar bo'yicha tasviriy faoliyatda fikrlash bo'yicha mustaqil harakat qilish, o'z ishlarini rejalashtirish hamda tasvirlash vositalarini tanlashga o'rgatadigan topshiriqlar beriladi.

Tarbiyachi bolalarga topshiriqni emotsional tarzda tushuntiradi. Zero, uning izohi bolalarni qiziqtirishi zarur. Buning uchun tarbiyachi goho o'yin elementlari va harakatlaridan foydalanishi mumkin. Masalan, mashg'ulotlarda ertak qahramonlari tashrif buyuradi va ular bolalarga topshiriq va uni bajarishga oid ko'rsatmalarni berishadi. Bolalar ko'z o'ngida qo'g'irchoqlar paydo bo'ladi. Ular birgalikda tomosha qo'yishni so'raydi. Ertak personajlarning kutilmaganda paydo bo'lishi bolalarni quvontiradi. O'yinchoqlarning harakatlarini ko'rib, bolalar sevinib ketadi, tarbiyachi ularga qarab murojaat qilayotganidan mamnun bo'ladi.

Agar tarbiyachi mashg'ulotda o'yin usulini qo'llayotgan bo'lsa, u mashg'ulot davomida o'yinda qatnashadigan personaj to'g'risida oldindan o'ylab qo'yadi. Masalan, qo'g'irchoq mana shunday personaj rolini bajarib, bolalar qanday ishlayotganligi, topshiriqni kim qanday bajarayotganligi bilan qiziqib ko'rishi mumkin. Keyin u bolalarning xatti-harakatlarini ma'qullaydi, ijodiy ishlashga qiynalayotgan bolalarga yordam beradi va ularni qo'llab-quvvatlaydi.

Mashg'ulotda har gal bir xildagi o'yin harakatlaridan foydalanish to'g'ri emas. Har bir mashg'ulot oldidan bolalarning ruhini ko'taradigan, kayfiyatini yaxshilaydigan amaliy harakatlar tashkil etiladi. Buning uchun bolalarga she'r o'qib berish, qo'shiq ijro qilish, topshiriqlarga oid topishmoqlarni aytgan holda bolalarni qiziqtirish zarur"¹⁷⁴.

¹⁷⁴ Мақтабгача таълимда ижодий фаолият асослари / Маърузалар матни. Тузувчи: М.Норбошева. - Термиз: Термиз ДУ, 2018. - 3-6-б.



II. Pape-mashe usulida o'yinchoqlar yasash. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni ijodiy faoliyatga jalb qilishda Pape-mashe usulidan foydalaniladi.


"Pape-mashe" (fr. "papier mâché" – "g'ijimlangan qog'oz", "ivigan qog'oz") – xamir, kraxmal yoki yelimga bo'laklangan qog'oz aralastirib plastilinga o'xshash massa – kleyster hosil qilish va bu massani qo'lda g'ijimlash orqali turli o'yinchoqlar, qo'g'irchoqlar tayyorlashdan iborat usul.

Mazkur usulning nomi garchi fransuzcha bo'lsa ham qog'oz yaratilgan Xitoyda asoslangan. Pape-mashe usulida yaratilgan dastlabki buyumlar – qadimgi qurol-yarog'lar, sovutlar Xitoyda olib borilgan arxeologik qazishmalar jarayonida topilgan. Ularni mustahkamlash uchun ko'p qavatli lok (ishlov berilgan moy) bilan qoplangan. Topilgan buyumlar Xan sulolasi davriga, ya'ni, miloddan avvalgi 202 hamda milodning 220-yillariga mansubdir.

O'sha davrlarda pape-mashe usulida tayyorlangan qurol-yarog'lar texnologik jihatdan mustahkam bo'lib, kamon o'qi hamda qilichning sirpanma zarbasiga dosh bera olgan. Bu kabi qurollar garchi juda mustahkam bo'lmasa-da, ammo yengil bo'lib jangchilarga tez, epchil harakatlanish imkonini bergan.

Pape-mashe usuliga bo'lgan qiziqish Xitoydan Yaponiyaga, Eronga tarqalgan. Bu mamlakatlarda turli bayramlar uchun niqoblar va boshqa atributlar yasalgan. Pape-mashe usuli izchil ravishda boshqa mamlakatlarga ham yoyilgan. O'rta asrlarda bu usul Yevropada juda mashhur bo'lgan. Jumladan, XVII asrning yarmidan boshlab Fransiyada pape-mashe texnikasi yordamida xususiy ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Dastlab bu usul yordamida qo'g'irchoqlar ishlab chiqarilgan bo'lib, ular juda ommalashgan. Inglizlar ushbu usulni taxminan 1679-yillarda o'zlashtirgan. Pape-mashe usulida Pyotr I davrida Rossiya hududida 1800-yillarda ommalashgan¹⁷⁵.

O'tgan yillar davomida pape-mashe usuli takomillashgan bo'lib, bugungi kunda uni qo'llashning uchta texnologiyasi mavjud (41-rasm):



41-rasm. Pape-mashening asosiy texnologiyalari

¹⁷⁵ Техника papier mâché – простор для творчества // <http://master-yu.com/hand-made/istoriya-i-tehniki-pape-mashe>.



1. Mayda ho'l qog'oz qirqimlarini avvaldan tayyorlangan modelga yopishtirishga asoslangan texnologiya. Klassik texnikaga asoslangan ushbu texnologiyaga ko'ra qog'ozdan 100 tagacha qatlam hosil qilinadi. Shu maqsadda avvallari kraxmalli kleyster ishlatilgan bo'lsa, hozirda polivinilatsetat (qizdirish yo'li bilan olingan) yelimdanda foydalaniladi. Uning asosiy shakli – gips bo'lib, sferik ishlanmaga asoslangan havo sharlarini tayyorlashda qo'llaniladi. Ba'zan mustahkam bo'lishi, yorilib ketmasligi uchun qog'oz qatlamlari orasiga mato – doka qo'shiladi.

2. Suyuq qog'ozli massa – kleyster yordamida turli buyum (qog'irchoq, o'yinchoq, maishiy buyum)larni tayyorlashga asoslangan texnologiya. Mayda bo'laklarga ajratilgan qog'ozning ustiga issiq suv quyiladi va bir sutkaga iliq joyga qo'yib qo'yiladi. So'ngra biroz isitiladi, eziladi, yumshatiladi va quritiladi. Hosil bo'lgan massa bo'r bilan yaxshilab aralashtiriladi. Qog'oz-bo'r aralashmasiga uni to'xtovsiz aralashtirgan holda smetana suyuqligi holatidagi plastik xamir hosil bo'lguniga qadar yelim qo'shiladi. Yelim sifatida kraxmal kleyster yoki duradgorlik yelimi ishlatiladi. "Xamir" tayyorlangan qolipga quyiladi yoki uning usti qatlami yig'iladi va toki to'la quriguniga qadar xona haroratida 1-5 kun davomida ushlab turiladi. Zamonaviy sharoitda bu tarzda yelim tayyorlash va tezroq quritish uchun maxsus ishlab chiqilgan 3D-printeridan foydalanilmoqda.

3. Yupqa yog'och (fanera)ga qattiq, mustahkam kartondan tayyorlangan plastinni yopishtirishga asoslangan texnologiya. Asosiy xomashyolar yog'och (fanera)ga va kleyster sanaladi. Olingan mahsulot kerakli shakllga keltiriladi va bo'yaladi.

Pape-mashedan o'yinchoqlar, turli kichik hajmli qog'iroq, haykalchalarni yasash oson bo'lib, ushbu usulda ishlash bolalarda mehnat malakalarini shakllanishiga, turli asbob va qo'shimcha materiallar bilan ishlash ko'nikmalarining rivojlanishiga yordam beradi. Bu usulda ishlaganda steklar, qarmoq ipi, yelim tayyorlash uchun idish, tayyor mahsulotni bo'yash uchun bo'yoq, mo'yqalamlar kerak bo'ladi.

Pape-mashedan massa tayyorlashning turli retseptlari mavjud. Qog'oz massasi va bo'r, loy, yog'och qipidlari, zig'ir moy bilan qo'shilgan suyuq duradgorlik yelimi bilan massani tayyorlash mumkin. Tayyorlangan xamirdan turli xil narsalar yasaladi.

Xamir 1-1,5 mm qalinlikda yoyilib, kerakli mahsulot ustiga yopishtiriladi, so'ngra quritib gruntlanadi. Grunt tayyor mahsulotga yupqa qilib surtiladi. U qurigach, uning sathi jilvir bilan sayqallanadi, shundan keyingina moy yoki yelimli bo'yoq bilan bo'yab, mahsulotni chiroyli ko'rinishga kelishi uchun harakat qilish kerak.

Pape-mashe texnikasi yordamida vazalar, patnislar, qutilar tayyorlanadi. Bu mahsulot oliy darajada mustahkam va uzoq vaqt xizmat qiladi. Pape-mashedan mahsulot tayyorlash – juda uzoq vaqt davom etadigan jarayon. Biron bir o'yinchoqni tayyorlash uchun deyarli bir kun vaqt ketadi.

Ish jarayoni qog'ozni tayyorlab olishdan boshlanadi. Dastlab o'rash uchun gazeta va qog'ozlar zarur. Qog'oz namlanadi, biroq ivib ketmasligi kerak. Bir idishda gazeta, ikkinchi idishda o'rash uchun ho'l qog'oz turadi. Undan so'ng nazarda tutilayotgan shakl yasaladi.



Piyola fanera (yupqa yog'och) ustiga to'nkarib qo'yiladi. Unga yupqa qatlam yog' (vazelin, o'simlik yog'i) surtiladi. Birinchi ish piyola ustiga faqat suvlangan qog'ozni yopishtirishdan boshlanadi. Shundan keyin namlangan kesma qog'ozlarga kleyster (kraxmal yoki undan tayyorlangan yelim) surtib, birin-ketin piyolaga yopishtirib, bittadan oralatib, bir-biriga ko'ndalang, bir kesma ikkinchiga yetadigan qilib qo'yib chiqiladi.

Yo'l-yo'l material (poloska)larning eni 1-2 sm, uzunligi esa piyolaning ikkala tomoniga yetib, faner ustiga tushib turadigan bo'lishi kerak. Bunday qog'ozlar ikki qatlam qilinib ochiq joylarni qoldirmay yelimlanadi. Shundan keyin yana ikki-uch qatlam yopishtiriladi.

Yodda tutish zarur: bu o'rinda endi yo'l-yo'l material (poloska)lar emas, balki qog'oz parchalari yopishtiriladi. Qog'oz, albatta, qo'lda yirtilishi kerak, shunday qilinsa, bir me'yordagi yelimlangan tekis qatlam hosil bo'ladi.

Demak, piyola ustiga bir necha qatlam (5-6-8) qavat qog'oz parchalari buyumning kattaligiga ko'ra yopishtiriladi. Qog'oz shaklni piyoladan ikki kundan keyin olish kerak. Agarda shakl piyoladan chiqmasa, uni bir oz quritish, pichoq bilan qirqib olish kerak. Chetlarini ohista to'g'rilab, qirqilgan joy yelimlanadi va bir-ikki sutka davomida quritiladi. Yaxshilab quritilgan pape-mashe shaklning sathi silliq qilib, jilvir qog'oz bilan tozalanadi.

Osma kosacha tayyorlash

Kerakli jihozlar:

- gazeta;
- papirus qog'ozi;
- qaychi;
- qog'oz uchun ishlatiladigan idish;
- bitta likopcha;
- uchta chashka;
- pufak;
- arqon.

Osma kosachani tayyorlash bosqichlari:

- 1) avval osma kosacha qanday kattalikda bo'lishi aniqlab olinadi;
- 2) sharsimon shaklga ega bo'lgan buyum (koptok) olinadi;
- 3) ish jarayonida koptok dumalab ketaverishi kerak emas, shu sababli u yopishqoq lenta bilan mahkamlanadi;
- 4) tayyorlab qo'yilgan qog'oz uchburchaklar shaklida kesib olinadi;
- 5) gazeta qog'ozi bir idishga, papirus qog'ozi esa boshqa idishga solib qo'yiladi;
- 6) qolgan qog'oz qavatlariga yaxshilab yelim surtiladi.

Idish qanchalik ko'p qavat bo'lsa, shuncha yaxshi. Keyin tayyor mahsulot quritiladi¹⁷⁶.

¹⁷⁶ Мактабгача таълимда ижодий фаолият асослари / Маърузалар матни. Тузувчи: М.Норбошева. - Термиз: Термиз ДУ, 2018. - 8-11-б.

Pape-mashe usulida “Lagan” yasash

Jarayon quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Suvni yaxshi shimadigan ikki xil rangdagi yupqa qog‘oz mayda bo‘lakchalarga bo‘linadi va yelim, suv tayyorlab olinadi.
2. Lagan sirtiga vazelin yoki moy surtiladi.
3. Oq yupqa qog‘oz bo‘laklarini suvga botirib lagan ustiga tekis qilib suv bilan yopishtiriladi.
4. Navbatdagi qog‘oz qavati esa boshqa oq rangdagi qog‘oz bo‘laklaridan yelimlanadi; bu qog‘oz qavatlarini yanglishib ketishdan saqlaydi; jarayon 6-7 marotaba takrorlanadi, oxirgi qavatni yopishtirish oq rangdagi qog‘oz bilan tugatilishi kerak;
5. Yasalgan buyum 3-4 kun yaxshilab quritilgandan keyin sirtidagi qog‘oz qolip ajratib olinadi.
6. Qolipning ichki qismini tekislab, unga xohlagan nusxani, masalan, paxta guli va boshqalar chiziladi.

Pape-mashe usulida “Tarvuz” yasash

Jarayon quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Oddiy bolalar pufagi olinadi, u puflanib, dumaloq shakl hosil qilinadi.
2. Pufakning sirtiga suvda namlangan qog‘oz bo‘laklarini bir tekis joylashtirib chiqiladi.
3. Ikki xil (ikki xil rangdagi) qog‘oz bo‘laklanadi.
4. Ustidan PVA yelimini surtib suv shimadigan qog‘oz bo‘laklari yelimlanadi.
5. Ketma-ket u yoki bu rangdagi qog‘oz yelimlanadi.
6. Bir qavat suv shimadigan qavatidan oq qog‘oz va shu tariqa qavatma-qavat yelimlanadi.
7. Ustki qavati tekis bo‘lishi uchun bo‘r maydalanib yelim bilan aralashtiriladi va yopishtirilgan qog‘oz ustiga surtiladi.
8. Yaxshilab quritiladi.
9. Qurigandan so‘ng kerakli bo‘yoqqa (bu o‘rinda yashil rangli bo‘yoq) bo‘yaladi.

Pape-mashe usulida “Qo‘g‘irchoq” tayyorlash

Kerakli ashyolar:

1. Emulsiya bo‘yog‘i.
2. Sof tuproqdan tayyorlangan loy.
3. Gazeta bo‘laklari.
4. Suv, un (kleyster tayyorlash uchun).
5. Oq qog‘oz.
6. Qora duxoba, ozgina oq chit, har xil matolar.
7. “PVA” va “Moment” kleylari.
8. Bo‘yi 40 sm, eni 2 sm yog‘och.
9. Temirli pivo idishi, mix.
10. Mochalka (gubka).
11. Guash, bo‘yoq, mo‘yqalam.
12. Leska, mayda qum qog‘oz.

Qo'g'irchoqni tayyorlash bosqichlari:

1. Avval loydan qo'g'irchoqning boshi yasaladi.
 2. Loydan yasalgan dumaloq shaklning bosh tarafidan, quloqlarining o'rtasidan leska bilan pastga qaratib bo'lib olinadi. Shunda boshning yuz va orqa qismi paydo bo'ladi.
 3. Silliq fanera ustiga yuz tarafi qo'yiladi.
 4. Alohida idishda alebastr suv bilan aralashtiriladi.
 5. Yuz qismiga ozgina yog' surtiladi va tayyorlangan alebastr quyilib, qolip tayyorlanadi.
 6. Qolip havoda quritiladi.
 7. Boshning orqa tarafi ham shu yo'l bilan tayyorlab olinadi.
 8. Alebastr qotganda so'ng ichidagi loy olib tashlanadi hamda qolip ichiga pape-mashe qilib bir necha qavat qog'oz yopishtiriladi; qolip ichiga bir necha bo'lak oq rangdagi qog'oz yelimlanadi. Bunda shaklning "bosh" ekani, unga tana rangini berish hisobga olinadi.
 - 9.. Suv va undan kleyster tayyorlab olinadi. Qolipning ichiga suvli qog'oz bo'laklari 4 qavat qilib yopishtiriladi.
 10. Kleyster yordamida gazeta bo'laklari yopishtiriladi.
 11. Kleyster yordamida 6 qavat hosil qilinadi.
 12. Ochiq havoga bir kunga qo'yiladi.
 13. Orqa tarafini ham shunday tartibda tayyorlanadi.
 14. Qolipdagi qurigan niqobning ustidagi ortiqcha qog'ozlar yirtib tashlanadi.
 15. Niqobning chetiga "Moment" kleydan surtib, orqa va oldi qismi yopishtiriladi.
 16. Qurigandan so'ng bir-biriga yopishtirilgan joyiga lenta qilib kesib olingan chit "PVA" yelimi bilan yopishtiriladi.
 17. Boshning hamma joyi oq qog'oz va kleyster bilan 2 qatlamli ishlov beriladi.
 18. Hosil bo'lgan bosh to'la qurigandan so'ng dahanning pastki tarafi qaychi yoki bigiz orqali teshiladi va oldindan tayyorlangan yog'och (40 sml) boshning tepa qismiga qoqib mahkamlanadi.
 19. Ustidan yana bir marta qog'oz bilan ishlov qilinadi.
 20. Tayyor bo'lgan boshni bo'yash uchun idishga bo'yoq tayyorlanadi: idishga suv, ohak, PVA yelimi solib, yaxshilab aralashtiriladi va qizil, sariq guashdan solinadi; bo'yoq odam tanasining rangiga o'xshatishi lozim.
 21. Yasalgan "bosh" mayda qum qog'oz yordamida silliqatlanadi.
 23. Bo'yoq bilan bosh qism gubkada bo'yaladi; bir xil qilib bo'yash muhim, buning uchun bo'yoq 2-3 marta beriladi.
- Bo'yoq qurigandan so'ng guash orqali qo'g'irchoqning ko'zi, qoshi va boshqa yuz qismlari chiziladi; so'ng qora duxoba yoqi qora matodan soch tayyorlanadi "bosh"ning yuqori qismiga yelimlanadi.
- Shunday qilib qo'g'irchoqning bosh qismi tayyor bo'ladi.
- Qolgan qismini tayyorlash uchun andoza orqali qo'g'irchoq tanasini oq chitdan kesib, tikib olinadi. Ko'krak qismi uchun gubkadan yarim doira shaklida kesiladi



va tikiladi. Yeng qismi uchun qo'l tayyor andoza orqali kesib, tikib olinadi va yeng qismiga mahkamlanadi. Tayyor andozadan ko'ylaklar tikib, kiygiziladi. Bosh qismiga tayyorlangan bo'yoq bilan qo'l, oyoq va bo'yin qismlari bo'yaladi. Qotgandan so'ng "PVA" yelimi bilan yog'ochga yopishtirib qotiriladi .

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pape-mashe texnikasi asosida bolalar uchun "Sovg'a" o'yinchog'ini tayyorlash ham muayyan bosqichlarda kechadi (19-jadval):

19-jadval

Pape-mashe usulida "Sovg'a" o'yinchog'ini tayyorlash bosqichlari¹⁷⁷



1-bosqich: kerakli xomashyo va vositalarni tayyorlab olinadi



2-bosqich: gazeta yoki qog'ozni 3-4 smli tasma shaklida shaklida bo'laklarga ajratiladi



3-bosqich: idishga PVA yelimi solinadi

¹⁷⁷ How to Create Papier Mâché // <https://www.wikihow.com/Create-Papier-Mâché>.




4-bosqich: yelim ustiga suv quyiladi



5-bosqich: yelim va suvni yaxshilab aralashtiriladi



6-bosqich: hosil bo'lgan massa – kleysterga bo'laklangan qog'ozlar solinadi



7-bosqich: biroz muddatdan so'ng yelim – kleysterga botirilgan qog'ozlar yelimi silqitib olinadi



8-bosqich: bolalar pufagi shishiriladi



9-bosqich: dastlabki yelimli qog'oz bolalar pufagiga yopishtiriladi



10-bosqich: yelimli qog'ozlar bolalar pufagiga ketma-ket yopishtiriladi



11-bosqich: bir nechta qatlamdan so'ng tayyor bo'lgan o'yinchoq yaxshilab quritiladi



12-bosqich: quritilgan o'yinchoq istalgan rangga akvarel yordamida bo'yaladi



13-bosqich: bolalar uchun ajoyib sovg'a tayyor bo'ladi, unga yozuvlar ham yozish mumkin

Pape-mashe usulida tayyorlangan o'yinchoq va qo'g'irchoqlardan namunalar (20-jadval):

20-jadval

Pape-mashe usulida tayyorlangan o'yinchoq va qo'g'irchoqlardan namunalar¹⁷⁸



Quyov



Qurbaqa



Boyo'g'li



Chuvchuqlar



Archa o'yinchog'i



Chashka

III. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiiy va tashlandiq materiallardan o'yinchoqlar yasash. Tabiiy materiallar tarbiyachi rahbarligida ekskursiyalarda to'planadi. Ekskursiya uyushtirishdan oldin bolalarga qilinadigan ish namunasi ko'rsatiladi.

Bolalar uni diqqat bilan kuzatib, unda ishlatilgan barg plastinkalarining shaklini, daraxt navlarini aniqlaydi. Shundan so'ng uyushtiriladigan ekskursiya rejasi tuziladi. Ekskursiya marshrutida alohida e'tibor beriladigan obyekt (archa, eman, zarang, akatsiya daraxtlari, hasharotlar, ninachi)lar aniqlanadi. Bolalarning e'tiborlari va aqliy faoliyatlarini kuzatilayotgan obyektning zarur bo'lgan asosiy muhim belgilari va xususiyatlarini ajratishga, to'planayotgan materialni to'g'ri baholashga yo'llaydigan savollar tuziladi.

Daraxtzorga kelganda bolalar kayfiyati ko'tarilib, ular har narsaga qiziqish bilan qaraydi. Barglar, ularning ranglari bolalarni ajablantiradi. Ular kuzning butun go'zalligini, uning ranglarini, to'qilgan barglar hidi va ular o'zining elastiklik xususiyatini yo'qotganligini, qattiqlashib, sinuvchan bo'lib qolganligini ko'radi. Bolalarning borliq,

¹⁷⁸ Berilgan rasmlar google.com Qidituv saytidan olindi.



tabiatga nisbatan zavqlanishlari kamayib borishiga qarab, ularning e'tibori barglarning shakli, daraxtlar navlariga qaratiladi. Ana shu vaqtda o'simliklarda sodir bo'layotgan ichki jarayonlar qisqa va tushunarli shaklda bayon etib beriladi: jumladan, o'simlik yangi sharoitlarga moslashib, qishga tayyorgarlik ko'ryapti. Barglarni to'kish o'ziga xos himoyadir. Chunki barglar suvni ko'p bug'lantiradi, qishda esa tuproqdan namlik juda kam miqdorda keladi.

Shundan keyin bolalarning e'tibori atrofda uchib yurgan kapalak, ninachilarga, ularning asosiy belgilariga qaratiladi. Hasharotlar, ularning tuzilishi mehnat darslarida hasharotlar applikasiyasini tayyorlash uchun obraz, to'plangan barglar material xizmatini o'tashi kerak.

Bolalar barglarni to'plar ekan, ularning ranglari, shakllarini qiyoslashni o'rganadi. Bu ularning kuzatuvchanligini o'stirishga yordam beradi. To'plangan barglar oldindan tayyorlab qo'yilgan daftar varaqlari orasiga qo'yiladi.

Shundan keyin bolalarga barglarning mashg'ulot o'tkazgunicha rangini yo'qotmasligi, buralib ketmasligi uchun qanday ishlov berish kerakligi tushuntiriladi.

Har bir ekskursiyada bolalarning e'tibori insonning yaratuvchilik mehnatiga albatta jalb etilishi kerak, Ekskursiya oxirida unga yakun yasaladi, ekskursiyada egallangan bilimlar umumlashtiriladi. Bundan tashqari, bolalarga kapalak va ninachilar tasviri tushirilgan rasmlarni ko'rib, ularning tanasi va qanotlarining shakli, rangi qandayligiga alohida e'tibor berish aytiladi.

Bunday ekskursiyalardan keyingi mashg'ulotda bolalar applikasiyalarni zo'r ishtiyoq bilan namoyish qiladilar, agarda applikasiyani o'z istaklariga ko'ra, o'zlari to'plagan materiallardan mustaqil yasash topshirilsa, bolalarning qiziqishlari yanada ortadi. Bunday mashg'ulot quyidagi sxemaga ega bo'ladi:

I. Mashg'ulot mavzusi va maqsadini belgilash.

II. O'tkaziladigan ekskursiya bo'yicha suhbatni tashkil qilish.

Suhbat quyidagicha tashkil qilinadi:

1. Qayerda ekskursiyada bo'ldik?
2. Qanday daraxtlarni ko'rdik, ularning nomlari qanday?
3. Biz ko'rgan daraxtlarning barglarining shakli bir xilmi?
4. Qanday hasharotlarni uchratdik?

III. Namuna tahlilini tashkil qilish.

Tahlil quyidagicha tashkil qilinadi:

1. Kapalak qanday qismlardan tashkil topgan?
2. Uning qismlari qanday joylashgan?
3. Kapalakni tasvirlashda qaysi daraxtlarning bargidan foydalanamiz?

IV. Ishni bajarish tartibini aniqlash.

Ish tartibi shunday aniqlanadi:

- a) kapalakning ayrim qismlari (tanasi, qanotlari)ning joylashishini tasvirlash;
- b) kapalakning tanasi va qanotlari uchun shakli hamda o'lchamlari bir xil bo'lgan barglarni topish;
- d) ularni qog'ozda joylashtirish;

e) ishni amaliy bajarish.

V. Tarbiyachining ishni bajarish usullariga oid ko'rsatmalari.

a) qurigan barglar bilan ishlaganda ehtiyotkor bo'lish;

b) barglarni rasmga joylashtirishda qaysi o'ringa mosligini o'ylab ko'rish;

d) yelimning har tomonga surtilib ketmasligiga e'tibor berish;

e) barglarni to'g'ri va kerakli tartibda yopishtirish.

VI. Applikatsiyani bajarish bo'yicha mustaqil ishni tashkil qilish.

Mustaqil ish quyidagicha tashkil qilinadi:

a) kapalakning ayrim qismlarini qog'ozda to'g'ri tasvirlash;

b) shakl, o'lcham va bo'yoqlarini to'g'ri tanlash;

d) yelimlash ishlarini tartibli bajarish;

e) kapalakning ko'z va mo'ylarini to'g'ri tasvirlash;

f) ish bajarilgan qog'ozning orqasida bargidan foydalanilgan daraxtlarning nomlarini yozish.

VII. Ishni baholash.

Ekskursiyadan keyin ijodiy xarakterdagi ishlarni tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Masalan: "Baliqlardan kompozitsiya tuzish" mavzusida ijodiy faoliyatni tashkil qilish mumkin.

Tarbiyachi bolalarga umumiy vazifa beradi, bolalar esa, tarbiyachining namunasi asosida o'z variantlarini izlaydi. Tarbiyachi doskaga baliq rasmi tasvirlangan plakatni osib qo'yib, bolalar bilan birgalikda baliq tanasi, boshi, qanotlari va dumining shakli tahlil qiladi.

Baliqning turiga ko'ra uning tanasi, qanoti va dumlari har xil bo'lishi mumkinligi aniqlanadi. Shuning uchun bu ishda turli tabiiy materiallardan foydalanish mumkin. So'ngra ishni bajarish tartibi aniqlanadi. Avval baliq qismlari uchun material tanlanadi, uning umumiy tarhi chiziladi. Shundan keyin qaysi detalning qanday tartibda yelimlanishi, detallarning joylari aniqlanadi va ishga kirishiladi. Bunday yumushlar bolalarda bajarilayotgan ishga ijodiy yondashish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Mashg'ulotga yakun yasash va bajarilgan ishni baholash vaqtida tarbiyachi foydalanilgan materiallarning nomini so'raydi. Bu tabiiy materiallar bilan ishlash mashg'ulotining taxminiy tuzilishidir"¹⁷⁹.

IV. Maktabgacha yoshdagi bolalarga qog'oz va tabiat materiallaridan o'yinchoq yasashga o'rgatish. Maktabgacha yoshdagi bolalarni qog'oz va tabiat materiallaridan o'yinchoq yasashga o'rgatish ham muhim ahamiyatga ega. Mashg'ulotlar davomida tabiiy materiallardan "Tizimcha" yasash, kartondan "Stakancha", matodan "Mo'yqalam artgich", "Ninachi va chumoli" yasash mumkin. Ayni o'rinda shular haqida so'z yuritiladi.

Mashg'ulotning maqsadi: bolalarni tabiiy materiallardan, kartondan, matodan foydalanib, turli ashyolar yasashga o'rgatish.

Mashg'ulotda bajariladigan vazifalar:

qo'l mehnati bilan shug'ullanishga o'rgatishni davom ettirish;

¹⁷⁹ Мактабгача таълимда ижодий фаолият асослари / Маърузалар матни. Тузувчи: М.Норбошева. – Термиз: Термиз ДУ, 2018. – 19-21-б.



bolalarda o'zlarining mehnat ko'nikmasi va malakalarini rivojlantirish; bolalarni tabiatni asrashga, muhofaza qilishga, tejamkorlikka o'rgatish.

Mashg'ulot jihozlari: dub daraxti, kashtan daraxti mevalari, na'matak guli mevasi, patlar, plastilin, novdachalar, karton qog'oz, yelim, ip, igna, mato qiyqimlari.

Mashg'ulotning borishi:

Tarbiyachi: bolalar, o'lkamizda oltin kuz fasli kezmoqda. Bilamizki, kuz faslida sabzavot, mevalar pishadi, to'g'rimi? Manzarali daraxtlarning mevalari ham pishib, ko'chalarda, xiyobonlarda ostiga to'kilib yotibdi.

Bolalar bilasizlarmi, bugungi mashg'ulotimizda sizlar bilan ana shu manzarali daraxt mevalaridan o'yinchoqlar yasaymiz. Faqatgina o'yinchoqlar emas, birinchi sinfga boradigan kichikintoylar uchun hisob-kitob mashg'ulotida foydalanish mumkin bo'lgan tizimchalarni ham yasaymiz.

Tizimcha yasalishi uchun qalinroq ip olamiz-da kashtan mevasini teshib, ipga o'tkazamiz.

Dastlab bolalar 10 raqami ichida sanashni o'rganishlari sababli, tizimchaga 10 ta mevani ipdan o'tkazib chiqamiz. Bu tizimchani eman daraxti mevasidan ham tayyorlash mumkin. Agar meva bir oz ko'rib qolgan bo'lsa, ozroq suvga solib qo'yilsa, ustki po'stlog'i yumshaydi va tizimchani tayyorlash mumkin bo'ladi. Qani kim sanab beradi?

Tarbiyachi: barakalla, bolalar sizlar bilan mana bunday stakanchalar tayyorlaymiz. Kvadrat shaklidagi karton qog'oz olib, undan doira qirqamiz. So'ng to'rtburchak shaklidagi qog'ozning pastki qismini bir sm enlikda qoldirib arra tishlariga o'xshatib kesib chiqamizda, ikki tomonini yelimlab, pastki qismidagi qirqilgan bo'laklarga yelim surtamiz va doirachaga yelimlaymiz. Stakancha tayyor. Bolajonlar, sizlar ham stakanchangizni tayyorlab bo'ldingizlarmi?

Barakalla! Stakan tayyor bo'lgan bo'lsa, endi mo'yqalamni artish uchun artgich, salfetka, tayyorlaymiz. Keraksiz matolardan bir necha kvadratchalar qirqib undan doirachalar hosil qilamiz. Doirachalarni ustma-ust qo'yib, o'rtasidan tiqib qo'yamiz. Mana mo'yqalam artgich ham tayyor bo'ldi.

Bolalar, o'yinchoq ham yasaylik, deyapsizlarmi? Albatta, o'yinchoqlar ham yasaymiz. Hozir na'matak va kashtan daraxtining mevasidan "Ninachi va chumoli"ni yasaymiz. Buning uchun kashtan mevasini olib, unga sal kichikroq kashtan mevasiga chumolining bosh qismini o'rnatamiz, oyoq-qo'llarini esa novdadan yasab, to'nkaga o'tkazib qo'yamiz, ko'zlarini esa plastilindan yasaymiz. Ninachining tanasi kashtan mevasidan tayyorlanib, uning orqa tomoniga gugurt cho'p o'rnatib, kichik kashtandan bosh qismni yasaymiz: qo'l-oyoqlarini aso novdadan tayyorlaymiz. Manzarali daraxt mevasidan qanotlarini yasab, plastilin bilan yopishtiramiz. Mana, ninachimiz ham tayyor! Qani eslangchi, ninachi haqidagi qaysi masalni bilasiz?

Bolalar javobi rag'batlantirilib, mashg'ulot yakunlanadi.

Bolalarga chiqindi materiallar (ip, shoyi, mo'yna, polietilen kabilar)dan foydalanib har xil mazmunda applikatsiyalar tuzish taklif etiladi. So'ng ularga matolardan o'yinchoqlar, turli bayram ertaliklari uchun ertak qahramonlarining



kiyimlari hamda quvnoq qiziqchilar, petrushkalar kiyimlarini tikishga ham o'rgatiladi. Bolalarning o'zlari yasagan o'yinchoqlar ijodiy, harakatli o'yinlar jarayonida namoyon bo'ladi. Quyidagi rasmlarda tabiat ashyolaridan bajarilgan o'yinchoqlar namunalari keltirilgan:

Tabiiy materialdan mozaika ishlari. Mozaika monumental dekorativ san'at turlaridan biridir. Turli davrlarda va turli mamlakatlarda mozaika qo'llaniladigan materiallariga ko'ra ham, naqshi va rasmlariga ko'ra ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. O'rta Osiyoda madrasalar, machitlar, hukmdorlarning saroylari mozaika bilan bezatilgan. Mozaika bilan binolarning tashqi qismlari, interyer devorlari va xalq amaliy san'ati asarlari bezatiladi. Mozaika ishlarida oyna sopol plitalardan foydalaniladi. Laosda rangli ko'zgu parchalaridan ajoyib mozaika asarlari yaratiladi, ular quyoshda bir-biriga qo'shilib va porlab, shodlik kayfiyatini yaratadi.

Mozaika bu rasm sathiga ayrim-ayrim parchalar (qog'oz, oyna, sopol plita, gul tojibarglari, urug', tuxum po'sti va shu kabilar) qo'yib chiqishdir. Tuxum po'stidan mozaika ishlarini bajarish uchun tuxum po'sti kerakli ranglarga bo'yaladi. Yuvib quritilgan tuxum po'sti mo'yqalam yordamida akvarel bo'yoqlar bilan bo'yaladi. Bo'yoq qurigandan keyin po'stni tanlangan rasmga ko'ra mayda va yirik bo'laklarga bo'linadi. Tuxum po'stidan applikasiya qilishda shunday tasvirlarni tanlash kerakki, ularning konturlari mumkin qadar tekis va mayda egri-bugrilari bo'lmasligi kerak. Kontur qora qog'oz orqali o'tkaziladi yoki shablondan aylantirib chiziladi. Avval rasm sathining bir qismiga yelim surtiladi. U yerga tuxum po'sti terib chiqiladi, keyin ikkinchi qismiga ham ish shu tartibda davom ettiriladi. Ortiqcha yelim toza latta bilan artib tashlanadi, po'st yaxshiroq yopishishi uchun ustidan sekin bosib qo'yiladi. Bunday ish odatda eng oddiy konturlardan boshlanadi. Turli meva va sabzavot, poliz ekinlarining urug'lari, danak, baliq tangalari, chig'anoq, mayda toshlar bilan xilma-xil applikasiya ishlarini bajarish mumkin. Ayni bir ishda turli materialdan foydalanish mumkin¹⁸⁰.

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni mehnat tarbiyasida tejamkorlikka o'rgatish. Bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalaridagi mehnat tarbiyasi oilaviy tarbiyadan ajralmagan holda olib borilishi kerak. Bolada mehnatsevarlikni tarbiyalashning barcha qulay sharoitlari maktabgacha ta'lim muassasalarida mavjud. Biz bolalarni mehnatga o'rgatibgina qolmasdan ularni tejamkorlikka ham o'rgatib borishimiz lozim. Bu borada xonadonlarda uchraydigan tashlandiq ashyolardan foydalanamiz. Har bir tashlandiq ashyodan biror bir buyum yasashni o'rgatsak, bolalarda ijodkorlik hissi ham shakllanib boradi. Masalan: suv ichimliklaridan bo'shagan idishlardan chiroyli o'yinchoqlar yasash mumkin. Svetofor, timsoh, ari, tulki o'yinchoqlari hamda chiroyli qalamdon, guldon yasash mumkin, bu o'yinchoqlarni yasashlari borasida bolalarda tejamkorlik hissi shakllanib boradi. Tashlandiq ashyo hisoblangan paypoq, kiyilmaydigan ko'ylaklar lentasimon qilib qirqib, ularni bir-biriga ulanadi, so'ng koptok qilib o'raladi.

Bu ipdan to'qilgan ashyolar juda mustahkam bo'lib, yuvilish va quritish juda osondir. Yana eski paypoqqa uyda ishlatilmay qolgan mayda sovun parchalarini

¹⁸⁰ Табиий ва ташландиқ материаллардан ўйинчоқлар яшаш // <http://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/9621-2021-01-26-09-15-35>.



solib, ulardan yostiqlar tikilsa, oshxonada mebel va muzlatkichni artish uchun qulay moxalka hosil bo'ladi.

Bolalarga tejamkorlik o'rgatilar ekan, ular yoshligidanoq buyum va materiallarni isrof qilmaslikni har bir narsani hayotda tejab ishlatishga ko'nikma va malaka hosil qilib borishlarini uqtirish zarur. Qog'oz karton va gazlama hamda tolali materiallar tayyor mahsulot bo'lib, ulardan turli o'yinchoqlar yasaladi, ularning chiqindilaridan ham tejamkorlik bilan foydalanish o'rgatiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida turli materiallar bilan ishlashda esa eng avvalo qaysi narsadan nimalar yasash mumkinligini rejalab, ularni tabiat qo'ynidan yig'ib olingandan, so'ng reja asosida turli o'yinchoqlar, ertaklar asosida ko'rsatmali ko'rinishlarga boy personajlar yasash mumkin. Turli omillar: eman daraxti mevasi po'stlog'i, na'matak mevasi, chig'anoqlar, yong'oq po'stlog'i, qovoq urug'lari, na'matak guli va boshqalardan xalq masallari, multfilm qahramonlarini; "Ninachi va chumoli", "Toshbaqa va chayon" masallar, ertak qahramonlarini yasashlari mumkin. Mehnat to'garaklarida daraxt novdalari qamish pahol, g'o'za chanoqlari hamda plastik massalar: plastilin, rezina, selofan, polietilen lentalari, plyonkalar, gugurt qutichalari, g'altak iplar, flomasterning tugaganlari hamda pista po'choqlari, danak po'choqlari, kungaboqar o'simligining kosachasi, tuxum po'choqlari ishlatiladi.

Tashlandiq narsalardan ham kerakli buyumlar, estetik zavq olsa bo'ladigan, ayniqsa o'z ko'rinishi, mazmuni bilan bolalarni tarbiyalashi mumkin bo'lgan narsalar yasalishi ular tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadi. Oilada, ota-onalar, bolalar bog'chasida tarbiyachi bolalarni ana shunday ishlarni amalga oshirishi uchun ushbu materiallarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishlikni ulardan unumli ham tejamkorlik bilan foydalana olishlikni uqtirib borishlari kerak. Shunday qilinsa, bolalar yashnab turgan daraxt shoxlarini shart kesib yoki sindirib olmaydi, daraxtlarni kuzatib, qurigan keraksiz shoxlarini kesib oladi. Kesib olayotganda o'sha shoxdan nima yasasa bo'ladi, chamalashni o'rganadi. Turli tabiat materiallarni to'plash, saqlash, ishlov berish yo'llarini qo'llash bolalarini tabiat bilan tanishgandagi bilimni mustahkamlaydi. Turli tabiat materiallari bilan ishlash mashg'ulotlarni rejalashtirish va materiallarni tanlashda albatta mahalliy sharoitlardan kelib chiqish kerakligini unutmaslik lozim.

Bunday mashg'ulotlar bolalarning ijodiy qobiliyatlarini o'stiribgina qolmay, ularni ijodkorlikka undaydi, estetik hissiyatini shakllantiradi. Bolalar turli materiallar bilan ishlash jarayonida turli tabiiy materiallarni to'plash, saqlash qoidalari bilan tanishadilar, bu tevarak-atrofnı muxfaza qilishga o'rgatadi. Turli tabiiy materiallarga ishlov berish va rejalashtirish, ulardan nimalar yasay olishni tahlil qilish hamda ishlov berish bolalarda mustaqil fikrlay olishni shakllantiradi. Bir so'z bilan aytganda ularda ijodkorlik qobiliyatini o'stiradi.

Obrazlar, personajlar, o'yinchoqlarni yaratishda bolalarning konstruktorlik va ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi, murakkab asboblar: bigiz, qaychi, bolg'acha, pichoqchalar bilan kattalar yordamida ishlata bilish malakalarini egallaydilar. Bolalar turli tabiat materiallari bilan ishlashlari alohida qiziqish uyg'otadi, ayniqsa loy, plastilin, daraxt shoxchalari, chinor urug'lari, turli qurigan barglar, daraxt po'stlari,



yelimlaridan foydalanib qushlar, jonivorlar, ertak ishtirokchilarining shakllarini qiziqib yasaydilar. Bunda ularning tassavvurlari personajlar bilan boyiydi.

Bolalar turli materiallar bilan ishlashda texnik xavfsizligi qoidalari, gigiyena-sanitariya holatlariga rioya qiladi, tejamkorlikka ham aloxida e'tibor beradi.

Bolalarga turli ashyolardan narsalar yasashni rejalashtirishni o'rgatar ekanmiz tabiiy materiallarning xossa va xususiyatini hisobga olgan, holda isrofgarchilikka ham yo'l qo'ymaslikni tushuntiriladi. Ularning shakl, ko'rinishlarini rejalab aniq narsa yasash yo'li bilan tejashni o'rgatiladi. Qanday asboblarni bolalarga berish mumkinligi va asboblarni to'g'ri ishlatish (sindirmaslik, buzmaslik) yo'llari uqtiriladi. Ish joyini tartibsiz qolishdan saqlashni ta'kidlanadi.

Ish mazmuni sodda murakkabligiga qarab, bosqichma-bosqich guruhlariga moslash hissi bilan tejamkorlik tuyg'usini singdirish talab etiladi. Yuqoridagi tartib-qoidalar bolalarda tejamkorlik, tadbirkorlik sifatlarini tarbiyalashda mehnat mashg'ulotlari samaradorligi oshiriladi.

Asosan tayyorlov guruhida bolaning yosh xususiyatini hisobga olib, sanchilmaydigan, kesmaydigan asboblardan foydalangan holda po'kak, turli bo'sh qutilar, qutichalar, daraxtlarning urug'lari, qurigan barglardan yelimlab yopishtirish, plastilin yordamida yopishtirish yo'li bilan turli shakldagi o'yinchoqlar yasashni o'rgatiladi va o'rganish jarayonida bolalar yig'ilgan tabiiy materiallarni o'rni bilan ishlatishga, turar joyini asrab-avaylashga, tabiatni muhofaza qilishga o'rgatish bilan tejamkorlik hissini rivojlantira boriladi. Taqlid qilishga, o'zlarini katta bo'lgandek his qilishga chaqiradi.

Oilada qizlar tarbiyasiga ko'proq e'tibor berilsa, kelgusida tejamkor tadbirkor uy bekasi bo'lishlikka zamin yaratiladi. Qizlarning qo'liga kattalar nazoratida igna berib, ip o'tkazishga, oddiy to'g'ri chok tikishga o'rgatiladi, o'ziga oddiygina peshband tikib olib ish qilsa, kiyimini asraydi. Akalari, ukalarining eski kiyilmaydigan jemper iplaridan paypoqchalar to'qib berilsa, yangi paypoqlarning yirtilishidan asraladi, paypoq puli tejalib, boshqa narsaga ishlatiladi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kattalar bilan birgalikda ishlashlari alohida ahamiyatga egadir. Masalan: bir yog'ochning o'zidan mitti beshiklar, bolalar aravachasi, suyang'ichlar, kitob javoni, kiyim ilgichlar, taxta, o'qlov, qorkurak, keli, quvi dastalari tayyorlashda bolalarni jalb qilish mumkin.

Albatta, bunda milliy an'anaga, ko'hna qadriyatlarga tayanilsa, bolani milliy ruhda tarbiyalashga katta hissa qo'shgan bo'lamiz. Turli materiallar bilan ishlash turidan tashqari texnik modellashtirish, ya'ni konstruktorlar bilan ishlash, qishloq xo'jalik mehnati, hamda o'z o'ziga xizmat turlari borki, bu mehnat turlarini bolalarga singdirishda ham tejamkorlikka alohida e'tibor beriladi, tarbiyalanadi. Mehnat mashg'ulotlarida texnik modellar - samolyot, parovoz, paroxodlar haqida tushuncha berib borish bilan birga shu texnikalar inson mehnatini osonlashtirgani haqida to'xtalib, ana shu texnikani asrab, uzoq vaqt ishlatish bilan hayotimizda tejamkorlikka erishayotganimiz, hayotimiz farovon bo'lib borayotganligini tushuntiradi¹⁸¹.

¹⁸¹ Ўша манба: Табиий ва ташландиқ материаллардан ўйинчоқлар ясаш // <http://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/9621-2021-01-26-09-15-35>.



Qum va alebastrdan applikasiya. Qum elab olinadi, ozgina bint yoki marli, tasvir yoki ertak asosida, tabiat manzarasi, PVA yelimi, qora kopirovka, kalka qog'oz, qora flamaster, akvarel bo'yog'i yoki guash, mo'yqalam, qora qalam, eski gazeta kerak bo'ladi.

Bajarish yo'li: tabiat manzarasi yoki ertak asosidagi tasvir oq qog'ozga kalka yordamida tushirib olinadi. Uning ustidan flamasterda tasvir tarhi chiziladi. So'ngra tushirib olingan tasvirga PVA yelimi surtiladi, doka yoki elakda elangan qum tezda tasvir ustiga sepiladi. Qurigach bo'yash ishi boshlanadi. Birinchi rang qurib bo'lgach, ikkinchisiga o'tiladi, quritib uchinchi ranga o'tiladi. Shu tariqa bo'yash ishi tugatiladi. Qumdan bajarilgan ish rangsiz lakda laklanmaydi.

Quyidagi tavsiya qilinayotgan applikasiya ishlarini bajarish murakkab emas. Ularni yasash uchun ijodkorlik qobiliyati, mahorat va ehtiyotkorlik talab qilinadi. Xususan qum va alebastr orqali bajariladigan applikasiya ishini bajarish uchun elangan qum va alebastr, ikki qavatli doka, ertak asosidagi rangli kitobcha, kalka qog'oz, PVA yelimi, qora flomaster, qora qalam, akvarel bo'yoq, bostirib olish uchun eski gazeta kerak bo'ladi. Avvalo, qum yoki alebastrni elakchada elab olinadi. Ular yirik tosh va boshqa narsalardan xoli bo'lishi kerak.

So'ngra ertak qahramonlari tasvirlari tanlab olinadi. Tanlangan tasvirni kalka, ya'ni xitoy qog'ozi orqali qora qalam yordamida tushirib oling. Oq qog'ozga yoki rangli fonga tushirib, ustidan qora flomaster yordamida yurgizib chiqiladi. Unga PVA yelimini tasvir ustiga chiqarib yubormay, tezlikda surtib chiqish kerak. Yelim surtilmay qolgan joyi qolmasin. Chunki alebastr yoki qum sepilganda yopishmay qolishi mumkin. Elangan qum yoki alebastrni ikki qavatli dokaga ikki qoshiqcha solib yelim surtilgan tasvir ustiga sepiladi. Bu ishni bajarib bo'lgach, qum yoki alebastrning ustini eski gazeta bilan bostirib olinadi. So'ng gazetani olib, tasvirni sekin ko'tarib qumli idishga silkitiladi. Yopishgan qum tasvir ustida qoladi, yopishmagani idishgan tushadi. So'ngra ikki soat quritish uchun vaqt kerak bo'ladi. Qum yoki alebastr yaxshilab qurigach, bo'yash ishlari bajariladi. Bo'yash uchun akvarel bo'yog'i yoki guash kerak bo'ladi. Bitta rangni bo'yab bo'lgach, quritib turib ikkinchi rangga o'tiladi. Chunki quritmay ketma-ket davom ettirilsa chaplanib ketishi mumkin. Qum va alebastrda bajarilgan ishlar rangsiz lakda laklanmaydi¹⁸².

Tuxum po'chog'idan buyum yasash. Tuxum po'choqlaridan bajariladigan applikasiya ishi uchun kerakli jihozlar: rangli, ertakli kitobchalar, oq qog'oz yoki rangli qog'oz, kalaka (xitoy qog'oz), PVA yelimi, tozalab yuvib quritilgan tuxum po'chog'i, akvarel bo'yoq, qora qalam, qora flomaster, rangsiz lak (PF-284). Tuxum po'chog'idan buyum yasash uchun tuxum po'chog'ini maydalangan va butun holda saklash mumkin. Tuxum po'chog'ini butun asrash uchun tuxumning ikki uchi teshiladi va uning ichidagilari puflab chiqariladi. Buning natijasida ichi bo'sh tuxum po'chog'iga ega bo'linadi. Bunday tuxum po'chog'i sinuvchan bo'lganligi uchun qutichalarda saqlash kerak.

¹⁸² Ўша манба: Табиий ва ташландиқ материаллардан ўйинчоқлар ясаш //http://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/9621-2021-01-26-09-15-35.



Butun tuxum po'chog'i va tuxum po'chog'ining maydalanganidan buyum tayyorlash mumkin. Masalan: kaptar, baliq, masxaraboz, kemacha, jo'ja va archa o'yinchoqlari. Avvalo tuxum po'chog'ini yuvib, quritib, xovonchada maydalanadi. Juda kukun bo'lib ketmasligi kerak. So'ngra rangli fonga tasvirni kalka qog'ozi yordamida qora qalamda tushirib olinadi va ustidan qora flomaster bilan tasvir ustidan yurgizib chizib chiqiladi, uning ketidan PVA yelimi surtiladi. Jarayonda tezlik bilan ishlash talab qilinadi. Sababi yelim qotib qolmasligi kerak. Surtilgan yelim ustidan maydalangan tuxum po'chog'ini qo'lda sepib, gazeta bilan bosib chiqiladi. Yopishgan tuxum po'chog'i tasvirda qoladi. Yopishmagani to'kiladi. Shundan keyin bo'yash ishini boshlash mumkin. Tasvirni rangli kitobchadagi tasvir rangiga qarab akvarel bo'yoqda bo'yaladi. Bo'yoqni iloji boricha suvga nisbatan ko'proq ishlatish lozim. Bitta bir xil rangga bo'yab quritib, ikkinchi rangni bo'yashga kirishiladi. Bo'yoq qurigach rangsiz lakda laklab chiqiladi. Shunda tuxum po'chog'i yaxshi yopishadi va yaltirab turadi.

Tuxum po'chog'idan "Sichqoncha" yasash

Kerakli ashyolar: tuxum po'chog'i, pushti rangdagi qog'oz yoki shu rangdagi mato, plastilin, PVA yelimi, qaychi, mo'yqalam, flomaster va qalam.

Bajarish usuli: shablon asosida sichqonchani qulog'ini ikki buklangan qog'oz yoki matodan qirqasiz, quloqlarini o'rtasidan qirqib bir-biriga yelimlaysiz va ozgina buklab, tuxumga yelimlanadi. Ingichka kesma qog'oz qirqiladi, bu mo'ylovi uchun. Flomaster yordamida ko'zi, og'zi, mo'ylovlarini chiziladi. Qulog'i va dumi yelimlanadi. Plastilindan kichkina dumaloq qilib tuxumning uchiga yopishtiriladi (bu burni). Ustidan yelim surtib qo'yiladi.

Zamonaviy sharoitda maktabgacha ta'lim muassasalarida disklar, bir martalik plastik idishlar kabi tashlandiq materiallardan ham o'yinchoqlar yasash mumkin (21-jadval):

21-jadval.

Tashlandiq materiallardan yasalgan o'yinchoqlar¹⁸³

Disklardan yasalgan o'yinchoqlar			
			
Bo'g'irsoq	Ko'ldagi o'rdaklar	Kuchuk	Lama

¹⁸³ Berilgan rasmlar quyidagi manbadan olindi: Поделка из бросового материала своими руками для детского сада: Поделки из бросового материала для детского сада // <https://isaloni.su/svoimi-rukami/podelka-iz-brosovogo-materiala-svoimi-rukami-dlya-detskogo-sada-podelki-iz-brosovogo-materiala-dlya-detskogo-sada.html>.



			
Mening itim	Gul	Filcha	Qurbaqa
Bir martalik plastik idishlardan yasalgan o'yinchoqlar			
			
Asalarilar	Ko'ldagi qurbaqa	Nilufar guli	Xonqizi
			
O'rdak	Gul va xonqizi	Ko'ldagi nilufar va qurbaqa	Tovus
Boshqa turli materiallardan yasalgan o'yinchoqlar			
			
Samolyot	Vazadagi gul	Bog'dagi kapalak	O'rgimchak

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni ijodkorlikka o'rgatish alohida o'rin tutadi. Bolalarda ijodkorlik ko'nikma, malakalari tasviriy faoliyat mashg'ulotlarda pape-mashe usulida, shuningdek, qog'oz tabiiy hamda tashlandiq materiallardan o'yinchoqlar yasash asosida shakllanadi. Tasviriy faoliyatning izchil, uzluksiz va tizimli tashkil etilishi esa bolalarda hosil bo'lgan ijodkorlik ko'nikmalarini malakalarga aylanishini ta'minlaydi. Ijodkorlik malakalari esa bolalarni doimiy ravishda ijodiy topshiriqlarni bajarishga undash asosida rivojlanib boradi. Tasviriy



faoliyat mashg'ulotlarida tabiiy materiallardan foydalanish bolalarda tabiatga nisbatan muhabbatni uyg'otadi, uni asrashga bo'lgan intilishni yuzaga keltiradi. Tashlandiq materiallar bilan ishlash, ular yordamida ijodiy mahsulotlarni yaratish esa bolalarni tejamkorlikka, mehnatni qadrlashga o'rgatadi. Shu sababli mashg'ulotlarida ijodiy faoliyat faol jalb etish dolzarb vazifadir.

Nazorat savollari:

1. Bolalarni ijodiy faoliyatga o'rgatish qanday maqsadni ko'zlaydi?
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy faoliyatga o'rgatish yo'lida qanday vazifalar hal qilinadi?
3. Ijod va ijodiy faoliyat deganda nimani tushunasiz?
4. Bolalar tomonidan ijodiy topshiriqlarni bajarish necha bosqichda kechadi?
5. "Pape-mashe" deganda nimani tushunasiz?
6. Pape-mashe usuli qachon shakllangan?
7. Bugungi kunda pape-mashe qanday texnologiyalarga asoslanadi?
8. Osma kosacha tayyorlash jarayoni qanday kechadi?
9. Pape-mashe usulida "Sovg'a" o'yinchog'ini tayyorlash bosqichlarida qanday harakatlar tashkil qilinadi?
10. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiiy va tashlandiq materiallardan o'yinchoqlar yasash qanday ahamiyatga ega?
11. Tasviriy faoliyat jarayonida qanday materiallar bilan ishlash bolalarni tejamkorlikka o'rgatadi?

Test topshiriqlari:

1. Bolalarda ijodiy faoliyat ko'nikma, malakalarini shakllantirish va izchil ravishda rivojlantirish. Bu – bolalarni ijodiy faoliyatga o'rgatishning ... sanaladi.
 - a) tamoyillari;
 - b) vazifalari;
 - c) maqsadi;**
 - d) omillari.
2. Bolalarga badiiy-estetik xarakterdagi buyumlarni tayyorlash texnologiyasini hamda buyumlar yasash jarayonida oddiy asboblardan foydalanishga o'rgatish, . Bu – bolalarni ijodiy faoliyatga o'rgatishning ... sanaladi.
 - a) tamoyillari;
 - b) vazifalari;**
 - c) maqsadi;
 - d) omillari.
3. ... – ijodiy mahsulotni qaratishga yo'naltirilgan faoliyat.
 - a) ijodiy faoliyat;**
 - b) ijtimoiy faoliyat;
 - c) mehnat faoliyati;
 - d) estetik faoliyat.



4. Badiiy-estetik qimmatga ega mahsulot – bu
- a) **ijodiy mahsulot;**
 - b) ilmiy mahsulot;
 - c) texnik mahsulot;
 - d) texnologik mahsulot.
5. “Pape-mashe” tushunchasi ... degan ma’noni anglatadi.
- a) “karton qog’oz”;
 - b) “tashlandiq qog’oz”;
 - c) **“g’ijimlangan qog’oz”;**
 - d) Xitoy qog’oz.
6. Xamir, kraxmal yoki yelimga bo’laklangan qog’oz aralashtirib plastilinga o’xshash massa – bu
- a) yelim;
 - b) **kleyster;**
 - c) smola;
 - d) emulsiya.
7. Pape-mashe usuli da paydo bo’lgan.
- a) Yaponiya;
 - b) Rossiya;
 - c) Fransiya;
 - d) **Xitoy.**
8. Zamonaviy sharoitda pape-mashe texnologiya asosida tayyorlanadi.
- a) besh xil;
 - b) to’rt xil;
 - c) **uch xil;**
 - d) ikki xil.
9. Gazeta, papirus qog’oz, qaychi, qog’oz uchun ishlatiladigan idish, bitta likopcha, uchta chashka, pufak, arqon. Ular pape-mashe usulida osma kosacha tayyorlash uchun kerak bo’ladigan
- a) sharoitlar;
 - b) **ashyolar;**
 - c) imkoniyatlar;
 - d) mablag’lar.
10. Pape-mashe usulida “Sovg’a” o’yinchog’ini tayyorlash ...da kechadi.
- a) **13 bosqich;**
 - b) 10 bosqich;
 - c) 6 bosqich;
 - d) 3 bosqich.
11. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tabiiy materiallardan o’yinchoqlar yasash bolalarniga o’rgatadi.
- a) **tabiatni sevish;**
 - b) insonni sevish;



- c) hayvonlarni sevish;
- d) o'simliklarni sevish.

12. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashlandiq materiallardan o'yinchoqlar yasash bolalarni o'rgatadi.

- a) ziqnalikka;
- b) boy bo'lishga;
- c) tejamkorlikka;**
- d) isrofgarchilikka.

Amaliy topshiriqlar:

1-topshiriq. Kichik guruhda pape-mashe usulida shamdon yasash loyahasini ishlab chiqing.

2-topshiriq. Bolalarning sevimli ertagi asosida tashlandiq materiallardan milliy qo'g'irchoq yasang.

3-topshiriq. Tabiiy materiallardan applikasiya tayyorlang.



XOTIMA

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri sanaladi. Mazkur faoliyat yo'nalishining mohiyati maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining mazmunini yorituvchi me'yoriy hujjatlarda o'z aksini topgan. Ularga ko'ra maktab yoshiga yetgunga qadar tarbiyalanuvchilar dunyoni badiiy tasavvur etish hamda bir turkum badiiy-ijodiy qobiliyatlarni o'zlashtira olishlari zarur. Bunday qobiliyatlar sirasida rasm chizish, qo'shiq aytish, raqsga tushish, jismoniy faollikni ifodalovchi harakatlarni tashkil qilish kabilar muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini samarali rivojlantirishga maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan oila, sohaga aloqador ijtimoiy muassasalar o'rtasida o'zaro hamkorlikka erishish orqali erishiladi. Ayni vaqtda maktabgacha ta'lim muassasalari oldida bu borada muayyan pedagogik vazifalarni ijobiy hal qilish vazifasi turibdi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyatini estetik tarbiya alohida o'rin tutadi. Estetik tarbiya maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy, estetik qobiliyatni rivojlantirish bilan birga ularda atrof-borliqqa, tabiatga, mehnatga ijobiy munosabatni tarbiyalaydi. Qolaversa, bolalarda estetik dunyoqarashni shakllantirish uchun zamin yaratadi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning estetik didini rivojlanish o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Bu xususiyatlar estetik tarbiyani tashkil qilishda ularning yosh, psixologik, fiziologik imkoniyatlarini inobatga olishni taqozo etadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida estetik tarbiyani samarali tashkil etishda ana shu maqsadga xizmat qiladigan vositalar (turmush estetikasi, tabiat, san'at (qo'shiqchilik, raqs, tasviriy san'at va boshqalar), qo'g'irchoq teatri, badiiy kitoblar) ning tarbiyaviy ta'siridan maqsadli, o'rinli foydalanish kutilgan natijalarni qo'lga kiritishga yordam beradi.

Markaziy Osiyoda estetik taraqqiyot bir qancha bosqichlarda kechgan. Bu bosqichlarning har birida san'atning muayyan turida o'sish, rivojlanish kuzatilgan. Ularning har biri har bir davr kishilarining estetik ongini oshirishga xizmat qilgan. Qaysi davrda bo'lishidan qat'i nazar Markaziy Osiyo hududida shakllangan estetik g'oyalarning negizida inson go'zalligi, uning shakllanishi axloqiy tamoyillar asosiga qurilgan. Asrlar davomida taraqqiy etgan o'zbek xalq amaliy san'ati ham katta estetik imkoniyatga ega bo'lib, nafaqat kishilar turmushini chiroyli, ko'rkam bo'lishini ta'minlagan, balki shaxsning estetik didini rivojlantirishga ham xizmat qilgan. Hozirgi kunda ta'lim muassasalarida ham o'zbek xalq amaliy san'ati turlarining estetik imkoniyatlariga samarali foydalanishga e'tibor qaratilmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan pedagogik faoliyatning asosiy yo'nalishlaridan biri – musiqa ta'limi va tarbiyasini tashkil qilish sanaladi. Musiqa ta'limi va tarbiyasini tashkil qilishda aniq maqsad va vazifalar ko'zlanadi. Belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda musiqa to'garagining rahbari yoki tarbiyachilar bolalarga musiqa savodini o'rgatishga oid metodik adabiyotlar bilan ta'minlangan bo'lishi zarur. Shuningdek, musiqa ta'lim va tarbiyasining samarali



bo'lishi qo'shiq va raqslarni o'rganish jarayonini turli o'yinchoqlar va bolalar musiqa asboblari bilan jihozlangan xonada tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Bolalarni maktabgacha ta'lim yoshidan musiqa asboblari chalishga o'rgatish ularda qo'l va tana harakatlarining rivojlanishiga ham yordam berish bilan birga badiiy-estetik did va idrokni tarbiyalaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga musiqa ta'limini berishga nisbatan alohida yondashuv talab qilinadi. Bu yoshdagi bolalarning yosh, psixologik, fiziologik xususiyatlari shuni taqozo qiladi. Shu sababli, bolalarga qo'shiq kuylashni o'rgatishga oid maxsus metodika shakllantiriladi. Maxsus metodi turli o'yin va mashqlar bilan boyitiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar guruhlarining o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda ularda alohida metodika asosida mashg'ulot tashkil qilinadi.

Musiqa mashg'ulotlarida milliy kuy, qo'shiqlarni o'rganishda o'zbek xalq raqslarining elementlaridan ham foydalaniladi. Bundan ko'zlangan maqsad qo'shiq o'rganish jarayonini zavqli, qiziqarli bo'lishini ta'minlash, bolalar tomonidan qo'shiq mazmunini to'liq idrok qilishga erishishdir. Qo'shiq kuylashni o'rganishda raqs harakatlarini qo'llash bolalarni qomatini tik tutishga, to'g'ri nafas olishga, qon aylanish va nafas tizimi organlari faoliyatini yaxshilashga yordam beradi. Qolaversa, qo'shiqlar jo'rligida raqslarni ijro qilish bolalarda jamoaviylik hissini uyg'otadi, hissiyotlarini tarbiyalaydi. Raqslarning milliy qo'shiqlar asosida bo'lishi bolalarni o'zbek xalq raqslari bilan tanishtirishga imkon yaratadi. Natijada bolalarda milliy o'zbek raqslariga nisbatan mehr uyg'onadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ertalik va bayramlarni pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Ular bolalarni har tomonlama tarbiyalash, ularda estetik did, qobiliyat va ijodiy tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ertalik va bayramlarni tashkil qilish va o'tkazish rang-barang mavzularda bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Qolaversa, ularni tashkil qilish va o'tkazish bir qator shqrtlarga asoslanadi. Ularning inobatga olinishi kutilgan natijalarni qo'lga kiritish imkonini beradi.

Ertaklarni sahnalashtirish bolalarni teatr madaniyati qoidalari bilan tanishtiribgina qolmay, bolalarda badiiy-estetik did, idrok, qobiliyatni rivojlantiradi. Ularning hissiyotini tarbiyalaydi. Hissiy kechinmalarga ega bo'lgan bolalarda borliqqa, atrofdagilarga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi, nutq rivojlanadi, tengdoshlar bilan muloqot qilishni o'rgatadi. Qolaversa, ertaklarning sahnalashtirilishi bolalarda badiiy asarlarni o'qitishga bo'lgan qiziqishni rivojlantiradi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatiga bolalar uchun sevimli bo'lgan ertaklarni sahnalashtirishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Bu boradagi faoliyatning dastur asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi esa maktabgacha ta'lim tashkilotlarida teatr faoliyatini tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilinishini ta'minlaydi.

Bolalar bilan qo'g'irchoq teatrini o'tkazish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, bo'lajak tarbiyachilar dastlab qo'g'irchoq teatrining tarixi, ularning turlariga oid nazariy ma'lumotlardan yetarli darajada xabardor bo'lishlari zarur. Qo'g'irchoq



teatrining turlari to'g'risidagi ma'lumotlarni puxta o'zlashtirgan bo'lajak tarbiyachilar kelgusida kasbiy faoliyatlarida ularning har biri bo'yicha ertaklarni sahnalashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'g'irchoq teatrini tashkil etish, eng avvalo, bolalarning hayotini zavqli bo'lishiga yordam beradi. Qolaversa, ularda badiiy-estetik did, qobiliyat, tasavvur va dunyoqarashni shakllantiradi. Bolalar katta guruhlarga o'tgani sari ular yanada rivojlanadi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatida qo'g'irchoq teatrlarini samarali tashkil qilish pedagogik faoliyatning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanishi zarur.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida teatr faoliyatini olib borish sahna jihozlariga ega bo'lishni taqozo etadi. Hozirgi kunda ishlab chiqaruvchilar tomonidan qo'g'irchoq teatrining barcha turlari bo'yicha tayyor metodik ishlanmalarga asoslangan mahsulotlarni sotuvga chiqarilmoqda. Ulardan ham maktabgacha ta'lim tashkilotlarida teatr faoliyatini tashkil etishda o'rinli foydalanish mumkin. Ammo, tarbiyachi yoki musiqa rahbari boshchiligida bolalarning o'zlari tomonidan teatr jihozlarini tayyorlash muhimdir. Binobarin, ularni tayyorlash chog'ida bolalarda ijodiy qobiliyat va tafakkur rivojlanadi.

Xalq og'zaki ijodining kichik janrlaridan maqsadli va tizimli foydalanish bolalar tomonidan badiiy-ijodiy faoliyat ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Shu sababli maktabgacha ta'lim yoshidan bolalarni xalq og'zaki ijodi namunalarini tanishtirish maqsadga muvofiqdir. Bir qancha omillar bolalarda kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonga o'z ta'sirini ko'rsatib, uning samarali kechishini ta'minlaydi. Bolalar adabiyotlari, oilaviy o'qish, mashg'ulotlar, maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligi, o'yinlar, audio kitoblarni birgalikda tinglash kabi omillar bu jarayonning samaradorligini ta'minlashda o'ziga xos o'rin tutadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatida bolalarni badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish ham alohida yo'nalish hisoblanadi. Bolalarni badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish ularda nutq madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi. Badiiy adabiyotlarni tarbiyachi rahbarligida o'qish, she'rlarni yod olish bolalarda idrokni, diqqatni, tasavvurni, dunyoqarashni ham rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar bilan badiiy asarlarni o'qitish o'ziga xos jarayon bo'lib, u muayyan tayyorgarlik asosida amalga oshiriladi. Tayyorgarlik jarayonining metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilish bolalar bilan badiiy asarlarni o'qish, she'rlarni yod olish jarayonini zavqli bo'lishini ta'minlaydi.

Tasviriy faoliyat va uni tashkil etish maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik jarayonning yana bir muhim tarkibiy qismi, bolalar faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan bir sanaladi. Tasviriy faoliyat chizish, tabiiy va sun'iy, shuningdek, qirqim materiallardan yasash, modellashtirish hamda qurish-yasash kabi harakatlarni o'z ichiga oladi. Mazkur faoliyat negizida rasm chizish muhim ahamiyatga ega. Binobarin, rasm chizish mashg'ulotlari bolalarning turli sohalarda olgan bilimlarni mustahkamlaydi, estetik didni shakllantirish, ijodiy salohiyatini rivojlantiradi. Turli guruhlarda tasviriy faoliyat avvaldan ishlab chiqilgan reja asosida tashkil qilinadi va unda guruhlarning xususiyatlari inobatga olinadi.



Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq amaliy san'ati bolaning shaxsini har tomonlama tarbiyalashga, uning ijodiy qobiliyatlari va tabiatan salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi; maktabgacha yoshdagi bolaning ma'naviy rivojlanishiga, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga faol ta'sir qiladi. Shu sababli guruhlarda bolalarda rang tuyg'usini rivojlantirishga oid ishlar izchil olib borilishi kerak.

Maktabgacha ta'limda bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish ham pedagogik faoliyatning muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatishda rasm solish, loydan buyum yasash metodikasi bilan bir qatorda applikatsiya va mozaika ham asosiy turlari sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotlari dasturiga kiritilgan. Applikatsiya va mozaika mashg'uloti bolalarni har tomonlama o'sishida katta ahamiyatga ega. Ushbu mashhulotlar bolalarning xayolotini boyitadi, kuzatuvchanlik qobiliyatini, qo'l malakasini, shuningdek, mo'ljallay olish, shaklini va rangni sezish hissini rivojlantiradi, ijodkorlik sifatlarini, irodani tarbiyalaydi, diqqat va tasavvurni o'stiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bosma adabiyotlar:

1. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi. – T: YUNISEF, 2018. – 72 b. YUNISEF, 2018, 72 b.
2. Abay. Tanlangan asarlar. – T.; Adabiyot va san'at nashriyoti, 2005.
3. Ahmad Donish. "Navodirul vaqoye". – T.: "Tafakkur", 2008, 388- b.
4. Maktabgacha pedagogika / Darslik. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpulatova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova. – T.: "Tafakkur" nashriyoti, 2019, 208-211-b.
5. Nurmatova M.Sh., Hasanova Sh.T. Rasm, buyumlar yasash va tasviriy faoliyat metodikasi / O'quv qo'll. Muharrir H.Yusupova. —T.: Musiqa, 2012, 50-51-b.
6. Saitova E.Y., Abraykulova N.E.. Xoreografiya va raqs san'ati asoslari. – T.: "Fan va texnologiya", 2015, 54-57-b.
7. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. – T.: "Fan va texnologiya", 2017, 167-180-b.
8. Usmonov E., Karimov R., Mirsaidova M., Oyxo'jayeva G. O'zbekiston tarixi / Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – T.: "O'qituvchi", 20014, 23-b.
9. Бабаева Д.Р. Нутқ ўстириш методикаси / Ўқув қўлл. – Т.: "Fan va texnologiya", 2009, 18-19-б.
10. Ёқуббекова, М. Ахлоқий тарбиянинг ибтидоси / – Андижон : Педагогика жамияти, 1986, 9-б.
11. Жамолова Д. Ўрта аср шарқ алломаларининг мусиқий қарашлари //Ж. ЎзДСМИ хабарлари. – Т.: 2019. - №3(11). – 60-61-б.
12. Креатив педагогика / Ўқув-методик мажмуа. Тузувчи:Н.Муслимов, М.Усмонбоева, А.Бўриев. – Т.: ЎТМ ПКҚТМОТМ, 2016. – 6-7-б.
13. Мактабгача таълимда ижодий фаолият асослари / Маърузалар матни. Тузувчи: М.Норбошева. – Термиз: Термиз ДУ, 2018. – 14-35-б.
14. "Махсус мактабгача таълимда машғулотларни ўтказиш технологияси" модули бўйича / Ўқув-услугий мажмуа. Тузув.: Л.Р.Миржалолова ва бошқалар. – Т.: А.Авлоний номидаги ХТТРМХҚТМОИ, 2018, 67-98-б.
15. Машғулотларни ўтказиш методикаси / Ўқув-услугий мажмуа. Тузув.: Г.И.Уалиева, Н.И.Режаметова. – Т.: ТДПУ ҳузуридаги ХТХҚТМОҲМ, 2018, 99-99-б.
16. Маҳмудов Т. Авесто ҳақида. – Т.: Шарқ, 2001, 41-б.
17. Мирзакаримова А.Н. Мактабгача ёшдаги болаларда креативлик хусусиятларини ривожлантириш //Мактабгача таълим ж. / Ж. Дошкольное образование. – Т.: 2019. № 5 (78). – 76-б.
18. Мўминова Д.А. Бошланғич синф ўқувчиларида китобхонлик кўникмаларини ривожлантириш механизмини такомиллаштириш: пед.фанл. бўйича фалс.докт. (DPh) ... дис. – Наманган: 2020, 106-б.
19. Педагогика. Изоҳли луғат / Ў.Асқарова, М.Усмонбоева ва бошқ. – Наманган: НамДУ, 2014, 62-155-б.
20. Педагогика назарияси / ОТМ учун дарслик. Муаллифлар: М.Х.Тохтаходжаева ва бошқ. М.Х. Тохтаходжаеванинг умумий тахрири остида. – Т.: "Moliya-iqtisod", 2010, 44-48-б.

21. Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб / Мет.қўлл. У.И.Иноятов, Н.А.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Иноғомова. – Т.: ТДПУ, 2012, 93-107-б.

22. Психология. Қисқача изоҳли луғат / Тузув.: М.Г.Давлетшин ва бошқ. Масъул муҳар. М.Г.Давлетшин. – Т.: ТДПУ, 1998, 18-44 б.

23. Ражабов И. Мақомлар. – Т.: “Санъат”, 2006, 18-б.

24. Соипова Д. Муסיқа ўқитиш назарияси ва методикаси / Ўқув қўлл. – Т.: Республика методика ва ахборот маркази, 2009, 30-71-б.

25. Табинбаев А., Казаков Б. Ўзбек халқ миллий ўйинларининг ривожланиши, ёшларни тарбиялашдаги аҳамияти, педагогик таърифи ва мактаб программасидаги ўрни / Ўқув-мет.қўлл. – Нукус: Қорақалпоқ ДУ нашриёти, 2015, 14-23-б.

26. Танлов ўқув модули / Ўқув-услубий мажмуа. Тузув.: Л.Р.Миржалолова, О.А.Махмудова, Д.Махмудова. – Т.: ТДПУ ҳузуридаги ХТХҚТМОҲМ, 2018, 35-39-б.

27. Турғунов Ш.Д. Наманган болалар фольклорининг жанрлар таркиби ва локал хусусиятлари: филол. Фанл. бўйича фалс.доктори (PhD) дис.автореф. – Андижон: 2019, 18-б.

28. Умаров Э., Каримов Р., Мирсаидова М., Ойхўжаева Г. Эстетика асослари / Касб-хунар коллежлари учун ўқув қўлл. – Т.: Чўлпон номидаги НМИУ, 2013, 14-60-б.

29. Усмонов Қ., Содиқов М., Бурхонова С. Ўзбекистон тарихи / Дарслик. – Т.: “Moliya-iqrisod”, 2005, 271-379-б.

30. Фатхуллаева М.Г. Шахсни баркамол қилиб шакллантиришда муסיқаннинг ўрни ва аҳамияти // “Science and Education” Scientific Journal. December 2020 / Volume 1 Special Issue 4. – pp. 274-283 //www.openscience.uz

31. Форобий А.Н. Фозил одамлар шаҳри. – Т.: Халқ мероси, 1993, 176-б.

32. Эл суярим, алла: ўзбек халқ аллалари / Тўплаб нашрга тайёрл.ва сўзбоши муаллифи О.Сафаров; масъул муҳар. Т.Мирзаев. – Т.: Ўзбекистон, 2009,96 б.

33. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. А–Бешбалиқ / 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2000, 228-б.

34. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Бешик – Гидрофизика / 2-том. Бош таҳрир ҳайъати аъзолари: М.Аминов ва бошқ. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2001, 125-б.

35. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Зебунисо – Конибил / 4-том. Бош таҳрир ҳайъати аъзолари: М.Аминов ва бошқ. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002, 82-б.


36. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Қизилқумут – Ҳурмўз / 11-том. Бош таҳрир ҳайъати аъзолари: М.Аминов ва бошқ. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2006, 213-б.

37. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А – Д / 5 жилдли. Биринчи жилд. А.Мадвалиев таҳр.остида. Таҳрир ҳайъати: Э.Бегматов. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006, 101-б.

38. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Н – Тартибли / 5 жилдли. Учинчи жилд. А. Мадвалиев таҳрири остида. Таҳрир ҳайъати: Э.Бегматов ва бошқ. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007, 347-б.



39. Ўзбек халқ аллалари : алла-ё алла / Тўпловчи ва нашрга тайёрл. О.Сафаров. – Т.: Ўқитувчи, 1999, 12-б.
40. Қодиров М. Дин. Авесто ижрочилик. – Т.: Нафосат, 1993. - № 3-4. – 15-б.
41. Ҳошимов К., Нишонова С. Педагогика тарихи / Дарслик. – Т.: 2005, 28-32-б.
42. Ветлугина Н.А. Художественное творчество и ребенок / Монография. - М.: Педагогика, 2012, С. 78.
43. Горбатова, Е.В. Художественная мозаика: учеб. нагляд. пособие для педагогов учреждений, обеспеч. получение дошк. образования / Е. В. Горбатова. – Минск : Нац. инт образования, 2010, С. 34.
44. Гофурбеков Т.Б. Творческие ресурсы национальной мелодии и их переломление в узбекской советской музыке. – Т.: Фан, 1987, С. 7.
45. Жесткова Е.А. Мир детства в творческом сознании и художественной практике В.И.Даля //Ж. Филологические науки. Вопросы теории и практики. – М.: 2014. № 4-3 (34). – С. 73.
46. Заиграйкина С.П. Мозаики V века в Италии. О некоторых особенностях стиля //Вестник православного Свято-Тихоновского гуманитарного университета. – № 2. – 2014, С. 9.
47. Ибн Сино. Свод науки о музыке / Пер. А.В.Сагдеева. Музыкальная эстетика стран Востока. – М.: 1967, С. 73.
48. Иванова В. А. Организация театрализованной деятельности в детском саду через речевое развитие детей //Актуальные задачи педагогики : материалы II Междунар. науч. конф. – Чита : Изд-во Ж. Молодой ученый, 2012, С. 46-48.
49. Кривенко Н. А., Дедюкина М. И. Развитие речевой культуры у детей посредством этноэтикета старшего дошкольного возраста //Научно-мет. элек.ж. “Концепт”. – Москва: 2017. – Т. 25. – С. 339–341.
50. Комольцева В.А. Развития творческих способностей у дошкольников //Ж. Сургутский педагогический вестник. – Сургут: 2011. - № 1-2. – С. 139.
51. Лихачев Б.Т. Педагогика – М.: ЮРАЙТ, 2003, С.395-397.
52. Одарённые дети (Пер. с англ.). – М.: Прогресс, 1991, С. 16-80.
53. Соломонова Т.Е. Вопросы ритма в узбекском песенном наследии. – Т.: Фан, 1978, С. 63.
54. Элиаш Н.М. Русские народные колыбельные песни: опыт классификации фольклорного жанра: автореф. дис. филол. Наук. – Сызрань, 1944, С. 5.
- Abay. O‘lanlar va nasihatlar & Tanlangan asarlar // <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/abay-olanlar-nasihatlar.html>.
- Barchasi bolalar uchun: www.ertak.uz //<https://ertak.uz>.
- Bolalar folklori. В harfi //<https://qomus.info/encyclopedia/cat-b/bolalar-folklori-uz>.
- Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari // <https://lex.uz/docs/5179335?query>.



Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqiy didaktik o'yinlar. Bolalar o'yinlarida musiqa //https://hozir.org/maktabgacha-talim-muassasalarida-musiqiy-didaktik-oyinlar.html?page=3.

Milliy o'yinchoq turlari andozasini tayyorlash va gazlama ustiga joylashtirish // https://fayllar.org/milliy-oyinchoq-turlari-andozasini-tayyorlash-va-gazlama-ustig.html.

Pulatov Abdulla. "Quyosh" she'ri //https://qwert.uz/2020/08/14/quyosh-bolalar-uchun-she'r.

Tez aytishlar (latin) //https://qwert.uz/category/tez-aytishlar-patter/tez-aytishlar.

Ziyod, Ahror. Milliy qo'g'irchoqlarni yaratish qay ahvolda //https://kun.uz/uz/44838066.

O'zbek milliy raqs elementlari ifodalangan rasmlar Google.com qidituv tizimidan olindi //https://www.google.com/search?sa=X&rlz=1C1CHBD_ruUZ806UZ806&sxsrf.

O'zbekiston xalq amaliy san'ati va uning rivojlanishi //http://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/13176-o-zbekiston-xalq-amaliy-san'ati-va-uning-rivojlanishi.

Абу Наср Форобий //https://oyina.uz/kiril/generation/53.

55. Болалар фольклори //http://turizm.kasaba.uz/uz/uzbek_legends_and_mythes/childrens_folklore.

Бола ҳаётида бадий сўзнинг аҳамияти (алла, топишмоқ, эртақ ва тез айтишлар) //http://taqvim.uz/uzc/news/view/153.

Жумабоев М. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga o'qib, hikoya qilib beriladigan ertaklar //https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/maktabgacha-tarbiya-yoshidagi-bolalarga-oqib-hikoya-qilib-beriladigan-ertaklar.

Кайковус. Қобуснома //https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/kaykovus-qobusnoma.html.

Мақтабгача таълим ташкилотларида қўғирчоқ театрини ташкил этиш ва жиҳозларини яшаш лойиҳаси //https://infourok.ru/maktabgacha-talim-tashkilotlarida-Blar-yasash-4364247.html.

Норбобоев Н. Китоб ва мутолаа маданияти /Методик-библиографик қўлланма //http://natlib.uz/Content/userfiles/upload/pdf.word.excel/мутахассислар-учун/услубий-фаолият/1Ахборот/Китоб ва мутолаа маданияти_482/20КБ.pdf.

Пўлатов Абдулла. Қиш завқи //https://qwert.uz/2020/08/17/қиш-завқи-болалар-учун-шеър.

Талабалар китобхонлиги даражасини ва мутолаа фаоллигини оширишга қўмаклашиш лойиҳаси //http://tanlov.uz/ru/event/talabalar-kitobonligi-darajasini-va-mutolaa-faolligini-oshirishga-ko'maklashish-loyhasi.

Топишмоқлар жавоби билан //http://axbor.sorbon.ru/cr/topishmoqlar-javobi-bilan.

Ўзбек алласи //https://uforum.uz/showthread.php?t=14238.

Қўғирчоқ театри //https://qomus.info/encyclopedia/cat-q/qogirchoq-teatri-uz.



Ҳазил сўроқлар ва сўз ўйини // <https://ziyouz.uz/ozbek-xalq-ogzaki-ijodi/ozbek-xalq-topishmoqlari/azil-suro-lar-va-suz-ujini>.

Internet manbalari:

Батракова Е. Пальчиковый театр как средство развития речи детей дошкольного возраста // <https://www.maam.ru/detskijasad/palchikovi-teatr-kak-sredstvo-razvitija-rechi-detei-doshkolnogo-vozrasta.html>.

Виды театров в детском саду: традиционные и нетрадиционные // <https://infourok.ru/metodicheskie-rekomendacii-vidi-teatrov-v-detskom-sadu-3713907.html>.

Декоративно-прикладное искусство в жизни детей дошкольного возраста // <https://gigabaza.ru/doc/162797.html>.

Детские утренники – почему это важно // <https://www.ya-roditel.ru/parents/base/experts/detskie-utrenniki-pochemu-eto-vazhno>.

Драматизация сказок в детском саду в старшей группе: рекомендации воспитателю // https://pedsovet.su/dou/6123_dramatizacia_skazok_v_starshey_gruppe.

Заруцкая Т.П. Развитие самостоятельной читательской деятельности младших школьников // <https://nsportal.ru/nachalnaya-shkola/chtenie/2012/03/31/razvitie-samostoyatelnoy-chitatelskoy-deyatelnosti-mladshikh>.

Здвижкова В. Пальчиковый театр своими руками // <https://www.maam.ru/detskijasad/palchikovi-teatr-svoimi-rukami-391921.html>.

Значение изобразительной деятельности для всестороннего развития детей //

Искусство мозаики как средство развития цветовосприятия у детей // <https://infourok.ru/iskusstvo-mozaiki-kak-sredstvo-razvitiya-cvetovospriyatiya-u-detej-2736313.html>.

История кукольного театра в Узбекистане // <https://xreferat.com/47/5877-1-istoriya-kukol-nogo-teatra-v-uzbekistane.html>.

Какие птицы улетают на зиму, а какие остаются зимовать на родине? // <https://allforchildren.ru/why/which10.php>.

Как интересно провести занятие по рисованию в подготовительной группе на тему “Птицы” // <https://paidagogos.com/podgotovitel'naya-gruppa-risovanie-pereletnyie-ptitsyi.html>.

Как научиться петь? 3 упражнения, которые помогут развить голос // https://courseburg.ru/news/kak_nauchitsya_pet-p9755.

Как развить музыкальный слух // <https://xn--80akjgcylo.xn--p1ai/kak-razvit-muzykalnyj-sluh>.

Картонный театр // <https://wowtoys.by/products/kukolnyj-teatr-iz-kartona.html>; Картонные фигурки для кукольного театра «Герои сказок» - Колобок Сфера // <https://sbermegamarket.ru/catalog/details/kartonnye-figurki-dlya-kukolnogo-teatra-geroi-skazok-kolobok-sfera-1000255195>.



Kasimova A.R. Организация и проведение утренников в детском саду // <https://docplayer.com/123658959-Organizaciya-i-provedenie-utrennikov-v-detskom-sadu-bez-prazdnikov-ne-byvaet-detstva-prazdnichnye-utrenniki-v-detskom-sadu-vazhnaya-sostavnaya-chast.html>.

Книжки-панорамки // https://www.google.com/search?q=книжки-панорамки+для+детей&tbm=isch&source=univ&sa=x&ved=2ahukewixszs_8zngahvqliskhstganeqsarбbagbeae#imgsrc=00po7ulgjplw8m.

Лукутцова Э.К. “Методика организации изобразительной деятельности в младшей группе” // <https://nsportal.ru/detskiy-sad/risovanie/2017/03/18/metodika-organizatsii-izobrazitelnoy-deyatelnosti-v-mladshey-gruppe>.

Методы и формы эстетического воспитания // <https://students-library.com/library/read/53811-metody-i-formy-esteticeskogo-voospitania>.

Мозаика – развиваем моторику, воображение и логику // <https://deti-club.ru/mozaika-razvivaem-motoriku-voobrazhenie-i-logiku>.

Музыкальное воспитание дошкольников // https://saratov-dmsh19.ucoz.ru/publ/muzykalnoe_vospitanie_doshkolnikov_antipina_v_p/1-1-0-3.

Музыкальные инструменты для самых маленьких // <https://www.akusherstvo.ru/guide/muzykalnye-instrumenty-dlya-samyh-malenkih>.

Мурадова З. Коль не поделишься айраном... (О семантике узбекских детских песен) // <http://slovo.nx.uz/airan>.

Опыт работы по теме: «Развитие музыкально-ритмических движений у детей старшего дошкольного возраста» // <https://www.prodlenka.org/metodicheskie-razrabotki/325446-opyt-raboty-po-teme-razvitie-muzykalno-ritmic>.

Основные характеристики и свойства голоса // <https://www.sibkursy.ru/stati/texnika-rechi/osnovnye-xarakteristiki-i-svoystva-golosa.html>.

Праздничные утренники в детском саду. Общие методические указания // https://ale07.ru/music/notes/song/book/ds/pr_utrenniki2.htm.

Родина Т.А. Изобразительная деятельность дошкольников, ее значение в подготовке к школьному обучению //

Сечная Ю.В. План-конспект занятия “Мозаика, ее виды. Бумажная мозаика “Грибы” // <https://www.prodlenka.org/metodicheskie-razrabotki/58291-plan-konspekt-zanjatija-mozaika-ee-vidy-bumaz>.

Тактильная книга что такое? // http://www.tagilib.ru/bibliofeels_club/club_program/a_special_children_special_books/tactile_book_the_requirements_methodology_work.php.

Упражнения для развития музыкального слуха //

Формирование речевой культуры у детей дошкольного возраста // <https://nsportal.ru/detskiy-sad/razvitie-rechi/2014/05/15/formirovanie-rechevoy-kultury-u-detey-doshkolnogo-vozrasta>.

Формирование читательского интереса у младших школьников на уроке литературного чтения // <https://nsportal.ru/npo-spo/obrazovanie-i-pedagogika/library/2017/10/29/formirovanie-chitatelskogo-interesa-u-mladshih>.



Цвиренко И.А. Ознакомление дошкольников с народным декоративно-прикладным искусством // <https://nsportal.ru/detskiy-sad/raznoe/2020/10/16/oznakomlenie-doshkolnikov-s-narodnym-dekorativno-prikladnym-iskusstvom>.

Что такое утренник? // <https://mbdou-273.ru/wp-content/uploads/2018/04/Konsultacija-Chto-takoe-utrennik.pdf>.

Ширма для настольного театра // <https://www.maam.ru/obrazovanie/nastolnyj-teatr/page4.html>.

GLOSSARIY

Applikatsiya (lot. "applicatio" – moyillik; birlashish, qo'shish, joylashtirish) – 1) mato, qog'ozga rang-barang gazlama, qog'oz parchalarini yopishtirib yoki tiqib naqsh solish metodi; 2) xalq amaliy san'ati hamda tasviriy faoliyatning o'ziga xos turi; 3) shu usula yasalgan gul, tasvir.

Artikulatsiya – nutq a'zolari: lab, til, pastki jag', og'izning yumshoq yuqori qismi, qizilo'ngach)ning tovush hosil qilishdagi harakati va holati.

Badiiy adabiyot – san'atning mustaqil turi bo'lib, unda voqelik badiiy ifodalar, to'qima obrazlar yordamida qahramonlar xarakterining to'qnashuvi asosida yoritiladi.

Badiiy asarlarni sahnalashtirish – badiiy asar mazmunini dramaturgiya shakliga o'zgartirish bo'lib, unda asar g'oyasi harakatlar, qahramonlar xarakterining to'qnashuvi orqali ifodalandi.

Barmoq teatri – qo'g'irchoqlar, hayvonlar, qandaydir predmetlardan iborat personaj-figuralar to'plami.

Bolalar adabiyoti – bolalar va o'smirlar (15-16 yoshgacha bo'lganlar) uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop va publisistik asarlar majmui.

Bolalar folklori – kichik hajmli folklor asarlarni o'z ichiga olgan xalq ijodiyoti.

Bolalar san'ati – bolalarning badiiy obrazlarni yaratish, badiiy-estetik mazmundagi asarlar (kuy, qo'shiq, raqs, sahna asari)ni ijro etish maqsadida tashkil etilgan faoliyati.

"Bolalar san'ati" o'quv fanining maqsadi – bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarni maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar san'atining barcha yo'nalishlari (badiiy ijodiyot, texnik ijodkorlik, musiqa san'ati) bo'yicha amaliy-metodik faoliyatni samarali tashkil etishga tayyorlashdan iborat.

"Bolalar san'ati" o'quv fanining obyekti – maktabgacha ta'lim muassasalarida badiiy ijodiyot, texnik ijodkorlik va musiqa san'ati kabi yo'nalishlardagi bolalar ijodiy faoliyatini tashkil etish jarayoni.

"Bolalar san'ati" o'quv fanining predmeti – bolalar san'atining asosiy yo'nalishlari, tarkibiy asoslari, mazmuni, ustuvor tamoyillari, muhim bosqichlari, samarali shakl, metod, vosita va texnologiyalari.

Bo'yash – rang berish, bo'yoq surtib bezashdan iborat xatti-harakat, faoliyat.

Chizish – turli qalam, buyoq, flomaster, guash va boshqalardan turli tasvirlarni hosil qilish.

Choyshab – taxmonga tutish, yotganda yopinish uchun to'shak ustidan to'shaladigan buyum.

Dekorativ applikatsiya – bezak, ziynat maqsadlarida yaratilib, badiiy xarakter kasb etadigan applikatsiya bo'lib, u shaxsga estetik zavq bag'ishlaydi.

Do'ppi – O'zbekistonda keng tarqalgan yengil bosh kiyim.

Estetika asoslari – nafis san'atni, badiiy ijodiyotni, tabiat va turmushdagi go'zallikning mohiyati, shakllarini, inson va ijtimoiy borliq o'rtasidagi qadriyatlar munosabatini o'rganuvchi fan.



Estetik did – estetik axborotlar oqimi, estetik va axloqiy me’yorlar yig’indisi orqali shakllanib, shaxsning buyum, hodisalarga estetik baho berishida yaqqol namoyon bo’ladigan hodisa.

Estetik dunyoqarash – tabiiy va ijtimoiy borliqqa estetik qadriyatlar – go’zallik, xunuklik, kulguli, fojiviy va b. asosida yondashishga asoslangan dunyoqarash.

Estetik ehtiyoj – shaxsning voqelikni estetik jihatdan bilib olishga undovchi subyektiv omil (ichki intilish).

Estetik faoliyat ko’nikmalari – estetik ehtiyojlarni qondirish yo’lida muayyan xatti-harakatni amalga oshirishga imkon beradigan ko’nikmalar.

Estetik faoliyat ko’nikmalari – estetik ehtiyojlarni qondirish yo’lida amalga oshiriladigan xatti-harakat ko’nikmalari.

Estetik his-tuyg’u – shaxsning voqelikka, kishilarga, o’z faoliyatiga munosabati.

Estetik ideal – subyekt bilan obyekt, inson bilan ijtimoiy borliq butunligining tarixan eng to’liq uzviy birligi bo’lib, bu birlik tub maqsadlar sifatida shaxs ijodiy kuchlarining erkin va har tomonlama rivojlanishida o’z ifodasini topadi.

Estetik idrok – ijtimoiy voqelik, buyum, hodisalarning go’zalligini ongda yaxlit aks etishi. U go’zallik his etilganda yuzaga keladi va aniq maqsadga yo’naltiriladi.

Estetik madaniyat – go’zallikni his etish, undan zavqlanish, mavjud go’zalliklarni asrash va boyitish yo’lida o’zlashtirilgan bilim, amalga oshiriladigan estetik faoliyat sifat darajasini belgilovchi ko’rsatkich.

Estetik mulohaza – shaxsning aniq bir estetik hodisaga munosabatini bildiradigan aqliy harakati.

Estetik ong – shaxsga nazariy tushunchalar berish asosida predmet, buyum, voqelik va hodisalar mohiyatini estetik baholay olish imkonini yaratadigan his-tuyg’ular, sezgilar, tasavvur va qarashlar shakli. Estetik ong estetik his-tuyg’u, estetik idrok, estetik bilim, estetik mulohaza, estetik baho, estetik did, estetik ideal kabilardan tarkib topadi.

Estetik qarash – estetik ongning g’oyaviy negizi, tabiat, hayot, san’at mohiyati haqidagi estetik fikr-mulohazalar va g’oyalar tizimi.

Estetik qiziqish – shaxsning estetik faoliyatni tashkil etishga, voqelik va san’at asarlarini estetik jihatdan o’zlashtirishga kirishishi.

Estetik tarbiya (lot. “estezio” – go’zallikni his etaman) – shaxsni ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari, turmush go’zalliklarini anglash, idrok etish, to’g’ri tushunishni o’rganish, uning estetik didini o’stirish, unda go’zallikka muhabbat uyg’otish, go’zallikni yaratish qobiliyatini rivojlantirish.

Estetik tarbiya – tarbiyalanuvchilarda estetik ongini, borliqqa, tabiatga nisbatan estetik munosabatini shakllantirish, estetik didni qaror toptirish, go’zallikni sevish va qadrlashga o’rgatishga yo’naltirilgan pedagogik faoliyat va jarayon.

Estetik tarbiya)ning maqsadi – shaxsning tabiiy va ijtimoiy borliq, voqelik, maishiy turmush, mehnatga estetik munosabatini shakllantirish.

Estetik tarbiya vositalari – maktabgacha ta’lim tashkilotlarida estetik ta’lim va tarbiya jarayonining ta’sirchanligini oshirish maqsadida qo’llaniladigan moddiy



buyumlar, narsalar, ma'naviy omillar, faoliyat (o'yin, o'qish, mehnat, muloqot), hissiy yondashuv ko'rinishidir.

Hamkorlik – maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishda qatshanuvchi subyektlar imkoniyatlarining bolalarda ijodiy qobiliyatini samarali rivojlantirish maqsadida o'zaro birlashtirilishi.

Ijodiy qobiliyat – shaxs tomonidan ijodiy (nimanidir yaratish, asoslash, modellashtirishga qaratilgan) faoliyatni qiyinchiliklarsiz oson, samarali tashkil qilishga yordam beradigan qobiliyat

Joynamoz – yerga solib ustida namoz o'qiydigan to'shama.

Karton teatri – ertaq qahramonlari, barcha personajlar kartondan yasaladigan teatr.

Kattalarning namunasi – tarbiyachilar, ota-onalar va boshqa katta yoshli kishilarning estetik faoliyatni tashkil etish – rasm chizish, she'r yoki qo'shiq aytish, applikasiya yasash, tabiat go'zalligi hamda turmush estetikasidan bahra olishda bolalarga ibrat ko'rsatishga qaratilgan metod.

Kirpech – tokchaga taxlab qo'yilgan kiyim-kechak ustidan yoki devorning bo'sh joylariga ilib, uyni bezatib turishi uchun ishlatiladigan badiiy buyum.

Mashq – aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni bajarish ko'nikmalarini egallash yo'lidagi ko'p marta takrorlanishlar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ertaliklar – odatda kunning birinchi yarmida o'tkaziladigan tadbir bo'lib, unda o'tgan ta'lim davri mobaynida bolalar tomonidan nimalar o'rganilganligi namoyish qilinadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bayram – muayyan xalqning tarixiy-madaniy an'analari bilan bog'liq holda qandaydir voqelik yoki kimningdir sharafiga tashkil etilishi nazarda tutilgan holda zamonaviy yil hisobi bo'yicha tavqimda alohida qayd qilingan sanalar munosabati bilan tashkil qilinadigan tadbir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish – ularni dunyoni badiiy tasavvur etishga tayyorlash hamda badiiy-ijodiy qobiliyatlarga ega bo'lishlarini ta'minlash orqali ijodiy rivojlantirishga erishish.

Mazmunli applikasiya – ma'lum sujet-mavzuga asoslangan applikasiya bo'lib, unda asosiy fonda ma'lum bir voqelik, hodisa tarkibiy elementlar yordamida yaxlit aks ettiriladi.

Modellashtirish – muayyan predmetlarning kichik nusxasi (masalan, bolalar uchun mashinalar)ni yasash.

Molbert – yog'ochdan tayyorlangan uch oyoqli moslama, taglik bo'lib, unga rassom asar ishlash jarayonida kartina, rasm va hokazolar o'rnatiladi.

Mozaika (fran. "mosaique" – "muzalarga bag'ishlangan") – turli xil materiallar: shisha, tosh va boshqalardan yasalgan kichik san'at asari.

Muammoli vaziyat metodi – mashg'ulotlar jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish va yechishdan iborat metod.

Musiqiy ritmning maqsadi bolalar tomonidan musiqaning idrok etilishi (uni ifodalash vositalari, shakllarini ajratib ko'rsatish)ni ta'minlash, ularning tasavvurlarini



chuqurlashtirish, musiqiy ohanglarni bir-biridan farqlashni o'rgatish orqali ifodaviy harakat ko'nikmalarini shakllantirish.

Namoyish metodi – maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga o'rganilayotgan obyektning harakat dinamikasini ochish, predmetning tashqi ko'rinishi, ichki tuzilishi haqida ma'lumot berish maqsadida qo'llaniladigan metod.

Namunadan foydalanish metodi – tasviriy mahsulotni avval ishlangan ishlarga qarab tayyorlashga asoslangan metod.

Naturadan foydalanish metodi – kuzatish asosida predmet yoki ko'rinishning tasvirini yaratishga asoslangan metod.

Nutq madaniyati – bolalar tomonidan nutqning adabiy til me'yorlari: moslik, izchillik, boyluk, soflik, estetik va axloqiy, maqsadlarga muvofiqligi kabilarga rioya qilgan holda ifodalanishi.

Ovoz balandligi – ohangning ko'tarilishi va pasayishi, yuqori ovozdan past ovozga o'tish va aksincha.

Ovoz kuchi – tovushlarni muayyan balandlikda talaffuz etish, shuningdek, tovushni bor ovozi bilan talaffuz eta olish qobiliyati.

Ovozning ohangdorligi – ovozning jaranglash chastotasi, yoqimsiz belgilar (bo'g'ilish, xirillash, ping'illash – dimog' bilan gapirish)ning yo'qligi.

Ovoz ohangi – so'zlovchi nutqining ifodaviyligini ta'minlash, uning his-tuyg'ulari va maqsadni ifodalash uchun ovozning hissiy ranglar bilan boyitilganligi.

Ovozning harakatchanligi – ovozning kuchi, balandligi, sur'atining ortiqcha zo'riqishsiz o'zgarishi.

Ovoz tembri – ovozning mayinligi (jarangdor, jarangsiz, titroqli, bo'g'iq va boshqalar).

Ovozning "uchqurligi" – ovozning balandligini ko'tarilmasa ham uni yetarlicha uzoq masofadan eshitish mumkinligi.

Palak – devorlarga ilinadigan eng yirik, eng qimmat bezak buyumlaridan biri.

"Pape-mashe" (fr. "papier mâché" – "g'ijimlangan qog'oz", "ivigan qog'oz") – xamir, kraxmal yoki yelimga bo'laklangan qog'oz aralashtirib plastilinga o'xshash massa – kleyster hosil qilish va bu massani qo'lda g'ijimlash orqali turli o'yinchoqlar, qo'g'irchoqlar tayyorlashdan iborat usul.

Pedagogik kuzatish – aniq maqsad asosida tarbiyalanuvchilarning estetik faoliyatni tashkil qilish jarayonidagi amaliy xatti-harakatlarini uzluksiz, izchil va tizimli nazorat qilib borishni ta'minlovchi metod.

Predmetli applikatsiya – muayyan, aniq predmetlarni aks ettiruvchi applikatsiya bo'lib, unda inson, hayvon, predmet yoki obyekt aks ettiriladi.

Qaychi – yupqa narsalarni, mato, qog'oz va sh.k.ni kesish uchun ishlatiladigan, o'rta yeridan bir-biriga vint bilan birlashtirilgan ikki tig'dan iborat dastali asbob.

Qo'g'irchoq teatri – chodir ichida yoki parda ortida yashiringan aktyor-qo'g'irchoqbozlar tomonidan qo'g'irchoqlarni harakatga keltirish orqali ko'rsatiladigan ko'ngilochar tomosha.



Qurish-yasash – kub, lego, yog‘och va boshqa materiallardan muayyan predmet (masalan, uy, ko‘prik, yo‘l va boshqalar)ni konstruksiyalash.

Rang – 1) bo‘yash uchun ishlatiladigan modda,bo‘yoq; 2) narsalarga suritilgan yoki singdirilgan buyoq, sir; 3) biror narsaning o‘ziga xos bo‘yog‘i, tus.

Rasmlardan foydalanish metodi – tayyor rasmlar bolalarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini aniqlash, tasviriy usullar va vositalarni tushuntirish uchun xizmat qiladigan metod.

Ritm – musiqaning mazmuni va xarakterini harakatlar yordamida ochub beradigan musiqiy faoliyat turlaridan biri.

San‘at – ijtimoiy madaniyatning estetik zavq beruvchi, voqelikni badiiy obrazlar vositasida aks ettiruvchi ayrim sohalari.

Stol teatri – stolning yuzasi bolalar tomoshasi uchun sahna sifatida tanlanadigan teatr.

So‘zana – igna bilan tikilgan degan ma‘noni beradi. So‘zana matoga kashta tikib tayyorlangan badiiy buyum bo‘lib, xonani bezatish uchun devorga ilib qo‘yiladi.

Tahlil – maktabgacha ta‘lim muassasalarida bolalarning estetik faoliyatni tashkil qilishdagi faolligi, bu jarayonga ishtiyok bilan kirishishi, estetik qiymatga mahsulotni yaratishga bo‘lgan intilishi darajasini ifodalovchi ko‘rsatkich yoki xulosalarni ularning mazmuniga ko‘ra tekshirish, nazariy jihatdan o‘rganish va baholash.

Taktil kitoblar – cho‘ntaklariga turli rasm, applikatsiya, tikish-to‘qish ishlari va mayda yumshoq o‘yinchoqlar solingan kitoblar

Tasviriy faoliyatga o‘rgatishning maqsadi – borliqni tasavvur qilishda bolalarga yordam berish sanaladi.

Tasviriy faoliyat – maxsus materiallar, tasviriy vositalar (buyoqlar, qalamlar, cho‘tkalar, bo‘rilar, flomasterlar, guashlar va boshqalar) yordamida borliqdan olingan taassurotlarni hamda unga nisbatan munosabatni ifodalovchi badiiy-ijodiy faoliyat.

Tushuntirish – 1) tarbiyalanuvchilarga estetik faoliyatni tashkil etishda bajariladigan xatti-harakatlarning mazmunini og‘zaki bayon orqali ochib berish, yoritishga qaratilgan metod; 2) tarbiyalanuvchilarga estetik faoliyatni tashkil etishda bajariladigan xatti-harakatlarning mazmunini ham og‘zaki, ham amaliy tarzda ochib berish, yoritishga xizmat qiladigan metod.

Yasash – tabiiy va sun‘iy, shuningdek, qirqim materiallar: loy, plastilin, mato va qog‘oz qirqimlari, bir martalik plastik buyumlar, yog‘ochlar, donlar, urug‘, barg, sabzovot, tosh, shisha, somon, qovoq va boshqalar yordamida turli predmet, o‘yinchoq, qo‘g‘irchoq, applikatsiya va mozaikalarni hajmli yoki yassi tarzda yaratish.

Yelim (forscha “yelim”) – ba‘zi buyumlarni tayyorlash, yasash uchun ishlatiladigan sun‘iy modda (selluloza – yopishqoq modda).

Zardevor – uy jihozi, u sidirg‘a shoyi baxmal, satinga kashta tikib bezatilgan badiiy buyum.



TEST TOPSHIRIQLARI

Test topshiriqlari:

1. Ijtimoiy madaniyatning estetik zavq beruvchi, voqelikni badiiy obrazlar vositasida aks ettiruvchi ayrim sohalari – bu ...

- a) kino;
- b) teatr;
- c) san'at;**
- d) sirk.

2. Bolalarning badiiy obrazlarni yaratish, badiiy-estetik mazmundagi asarlar (kuy, qo'shiq, raqs, sahna asari)ni ijro etish maqsadida tashkil etilgan faoliyati

- a) bolalar kinosi;
- b) bolalar san'ati;**
- c) bolalar teatri;
- d) bolalar folklori.

3. Bolalar san'ati ... bo'lgan yosh davri bolalarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

- a) 3 yoshdan boshlab 6 (7) yoshgacha;
- b) 3 yoshdan boshlab 11 (12) yoshgacha;**
- c) 3 yoshdan boshlab 13 (14) yoshgacha;
- d) 3 yoshdan boshlab 17 (18) yoshgacha.

4. Badiiy ijodiyot, texnik ijodkorlik, musiqa san'ati. Ular bolalar san'atining asosiy yo'nalishlari.

- a) ustuvor tarmoqlari;
- b) yetakchi sohalari;
- c) muhim bo'g'inlari;
- d) asosiy yo'nalishlari.**

5. "Bolalar san'ati" o'quv fanining ... – bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarni MTMda bolalar san'atining barcha yo'nalishlari bo'yicha amaliy-metodik faoliyatni samarali tashkil etishga tayyorlash.

- a) mazmuni;
- b) maqsadi;**
- c) obykti;
- d) predmeti.

6. "Bolalar san'ati" o'quv fanining predmeti – bolalar san'atining asosiy yo'nalishlari, tarkibiy asoslari, mazmuni, ustuvor tamoyillari, muhim bosqichlari, samarali shakl, metod, vosita va texnologiyalari.

- a) mazmuni;
- b) maqsadi;
- c) obykti;
- d) predmeti.**



7. “Bolalar san’ati” o’quv fanining obykti – maktabgacha ta’lim muassasalarida badiiy ijodiyot, texnik ijodkorlik va musiqa san’ati kabi yo’nalishlardagi bolalar ijodiy faoliyatini tashkil etish jarayoni.

- a) obykti;
- b) maqsadi;
- c) mazmuni;
- d) predmeti.

8. Dasturni individuallashtirish; dasturlarni tuzishda tarbiyachilarning ishtirokini ta’minlash; dasturni yaratish va undan maktabgacha ta’lim muassasalarining amaliyotida foydalanishda shaxsiy mas’uliyat kabi tamoyillar ... tomonidan asoslangan.

- a) E.N.Lunkina;
- b) F.Qodirova;
- c) M.Karne;**
- d) E.P.Torrens.

9. ... yildan boshlab respublikada Tashhis markazlari faoliyat olib bormoqda.

- a) 2002;
- b) 1996;
- c) 1998;**
- d) 2010.

10. Bolalarni dunyoni badiiy tasavvur etishga tayyorlash; badiiy-ijodiy qobiliyatlarga ega bo’lishlarini ta’minlash ularni ijodiy rivojlantirish ... sanaladi.

- a) vazifasi;
- b) maqsadi;**
- c) omillari;
- d) tamoyillari.

11. Tarbiyalanuvchilarni musiqa, badiiy adabiyot va folklor namunalari, teatr san’ati, tasviriy va xalq amaliy san’ati, bayram va ommaviy tadbirlar, qo’shiq, raqs san’ati bilan yaqindan tanishtirish – bolalarni ijodiy rivojlantirish ... sanaladi.

- a) vazifasi;**
- b) maqsadi;
- c) omillari;
- d) tamoyillari.

12. ... – maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishda qatshuvchi subyektlar imkoniyatlarining bolalarda ijodiy qobiliyatini samarali rivojlantirish maqsadida o’zaro birlashtirilishi.

- a) hamjihatlik;
- b) homiylik;
- c) vasiylik;
- d) hamkorlik.**

13. Ijodkorga xos faoliyat – bu ...

- a) ijod mahsuli;
- b) ijodkorlik;**



- c) ijodkor;
- d) qiziquvchanlik.

14. Ijodiy fikrlash yaxshi ruhiy salomatlik va shaxsiyatni rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu fikr muallifi – ...

- a) E.N.Lunkina;
- b) F.Qodirova;
- c) M.Karne;

d) E.P.Torrens.

15. Shaxsning hissiy holati – ta’sirlanish, ilhomlanish, ruhiy iztirob, nimanidir yaratishga bo’lgan kuchli xohish-istaklariga tayangan holda tashkil etiladigan faoliyat – bu ...

- a) amaliy faoliyat;
- b) ilmiy faoliyat;
- c) ijodiy faoliyat;**
- d) jismoniy faoliyat.

16. ... – shaxs tomonidan ijodiy (nimanidir yaratish, asoslash, modellashtirishga qaratilgan) faoliyatni qiyinchiliklarsiz oson, samarali tashkil qilishga yordam beradigan qobiliyat.

- a) estetik qobiliyat;
- b) ilmiy qobiliyat;
- c) jismoniy qobiliyat;

d) ijodiy qobiliyat.

17. 1) dunyoni badiiy tasavvur etish; 2) badiiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish. Bular bolalarni ijodiy rivojlantirishning asosiy ...

- a) vazifalari;
- b) yo’nalishlari;**
- c) tamoyillari;
- d) omillari.

18. Shaxsning tabiiy va ijtimoiy borliq, voqelik, maishiy turmush, mehnatga estetik munosabatini shakllantirish – bu estetik tarbiyaning...

- a) omillari;
- b) tamoyillari;
- c) vazifalari;
- d) maqsadi.**

19. Nafis san’at, badiiy ijodiyot, tabiat va turmushdagi go’zalliklari, inson va ijtimoiy borliq o’rtasidagi qadriyatlar munosabatini o’rganuvchi fan –

- a) Estetika olami;
- b) Estetika asoslari;**
- c) Estetika dunyosi;
- d) Estetika qonuniyati.

20. – shaxsning voqelikni estetik jihatdan bilib olishga undovchi subyektiv omil (ichki intilish).

a) estetik ehtiyoj;



- b) estetik his-tuyg'u;
- c) estetik idrok;
- d) estetik dunyoqarash.

21. ... – maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalash tamoyili.

- a) tarbiyalanuvchilarda estetik ongini rivojlantirish;

b) tarbiyaviy jarayonga yaxlit yondashuv;

- c) borliqqa, tabiatga nisbatan estetik munosabatini shakllantirish;
- d) integral yondashuv.

22. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida foydalaniladigan estetik tarbiya metodlari ... guruhga ajratiladi.

- a) 8 ta;
- b) 6 ta;
- c) 4 ta;

d) 2 ta.

23. Bolalarni estetik didni o'stiradigan vositalar bilan tanishtiruvchi metodlar – ular ...

- a) tushuntirish, muammoli vaziyat metodi, tahlil; kattalarning namunasi;
- b) namoyish, mashq, tushuntirish, muammoli vaziyat metodi;

c) namoyish, pedagogik kuzatish, tushuntirish, tahlil; kattalarning namunasi;

- d) namoyish, pedagogik kuzatish, bolalar ijodini o'rganish; tahlil.

24. Estetik tarbiyaning ta'sirchanligini oshirish maqsadida qo'llaniladigan moddiy buyumlar, narsalar, ma'naviy omillar, faoliyat, hissiy yondashuv. Ular – estetik tarbiyaning ...

a) vositalari;

- b) shakllari;
- c) metodlari;
- d) texnologiyalari.

25. Turmush estetikasi, tabiat, san'at, qo'g'irchoq teatri, adabiyot. Ular – estetik tarbiyaning ...

a) vositalari;

- b) shakllari;
- c) metodlari;
- d) texnologiyalari.

26. Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalashda foydalaniladigan tabiat mavzusidagi kartinalar – bu ...

- a) natyurmort;

b) peyzaj;

- c) portret;
- d) marina.

27. Maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'g'irchoqlar yordamida tashkil etiladigan sahna ko'rinishi – bu ...

- a) qo'g'irchoq tanlovi;



b) qo'g'irchoq ko'rgazmasi;

c) qo'g'irchoq o'yini;

d) qo'g'irchoq teatri.

28. Markaziy Osiyo hududida estetik taraqqiyot ... bosqichda sodir bo'lgan.

a) 5 ta;

b) 6 ta;

c) 7 ta;

d) 8 ta.

29. Milodramizning VII asrigacha bo'lgan davrdagi estetik tafakkur ... o'z aksini topgan.

a) ilmiy asarlarda;

b) xalq og'zaki ijodida;

c) arxeologik qazilmalarda;

d) bosma asarlarda.

30. "Avesto" da insonning go'zalligi ... bilan belgilangan.

a) axloqan barkamolligi;

b) jismoniy yetukligi;

c) aqlining tiniqligi;

d) naslning tozaligi.

31. Islom madaniyatida estetik qarashlar ... g'oyasiga asoslanadi.

a) Alloh go'zal va u go'zallikni sevadi;

b) Alloh adolatgo'y va u adolatni sevadi;

c) Alloh kamtar va u kamtarlikni sevadi;

d) Alloh saxiy va u saxiylikni sevadi.

32. "Shashmaqom" ... maqomdan iborat.

a) yigirma to'rtta;

b) o'n ikkita;

c) oltita;

d) ikkita.

33. Amir Temur Samarqand atrofida ... go'zal bog'lar qurdirgan

a) 8 ta;

b) 10 ta;

c) 12 ta;

d) 14 ta.

34. Miniatura san'atining markazida inson shaxsi turadi. Uni mohirlik bilan tasvirlashda ... tengsiz bo'lgan.

a) Pir Sayid Tabriziy;

b) Kamoliddin Behzod;

c) Moniy;

d) Mirak Naqqosh.

35. "Risolai musiqiy" asarining muallifi -

a) Maleho Samarqandiy;

b) Darvesh Ali Changiy;



- c) Zayniddin Vosifiy;
- d) Mavlono Najmiddin Kavkabiy.

36. Abay jamiyatni xunuklashtiradigan illatlar haqida soʻz yuritganda birinchi oʻringa ... ni qoʻyadi..

- a) bilimsizlik;
- b) poraxoʻrlik;
- c) xasislik;

d) nodonlik.

37. Oʻzbek musiqali teatriga asos solingan yil - ...

a) 1929-yil;

- b) 1917-yil;
- c) 1924-yil;
- d) 1933-yil.

38. "Oʻzbekdavlat sirk" respublika birlashmasi tashkil etilgan yil - ...

- a) 1990-yil;
- b) 1996-yil;

c) 1992-yil;

d) 1998-yil.

39. Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida bolalar ... kabi oʻzbek xalq amaliy sanʼati turlari bilan tanishtiriladi.

- a) kulolchilik, naqqoshlik, kashtachilik, doʻppidoʻzlik, zardoʻzlik;
- b) kulolchilik, kandakorlik (misgarlik), kashtachilik, oʻymakorlik, oshpazlik;

c) kulolchilik, naqqoshlik, kashtachilik, milliy qandolatchilik, oshpazlik;

d) toʻqish (savat) sanʼati, gilamdoʻzlik, naqqoshlik, kashtachilik, milliy qandolatchilik, oshpazlik.

40. Markaziy Osiyoda musiqa sanʼati ... bilan birga rivojlangan.

- a) rassomlik;
- b) adabiyot;

c) sheʼriyat;

d) hunarmandchilik.

41. Barcha musiqiy asarlar uch asos, yaʼni dan tarkib topadi.

a) soʻz, ohang va nota;

b) soʻz, ohang va ijro;

c) soʻz, ohang va harakat;

d) soʻz, ohang va raqs.

42. "Avesto"ning marosimlarda ijro etiladigan qoʻshiqlarni oʻz ichiga oladi.

a) "Gotlar";

b) "Вендидат";

c) "Ясна";

d) "Яшт".

43. Bolalarda qoʻshiq kuylash va musiqa joʻrligida maʼlum harakatlarni bajarish koʻnikmalarini hosil qilish musiqiy taʼlimningsanaladi.

a) metodikasi;



b) tamoyillari;

c) vazifalari;

d) maqsadi.

44. Tayyorlov guruhlarida musiqa mashg'ulotlarini davomiyligi ... daqiqani tashkil qiladi.

a) 15-20;

b) 20-25;

c) 25-30;

d) 30-35.

45. Bolalar musiqa asboblari ... turga ajratiladi.

a) 7 ta;

b) 5 ta;

c) 3 ta;

d) 2 ta.

46. Bolalar musiqa asboblari ... turga ajratiladi.

a) 7 ta;

b) 5 ta;

c) 3 ta;

d) 2 ta.

47. ... bolalar musiqa asboblarining barabanlar turga mansub.

a) uchburchak, tanbur, ksilofon;

b) surnay, hushtak, garmoshka, truba;

c) gitara, skripka, rubob, tanbur;

d) shaqildoq, marakas, buben, rumba.

48. ... bolalar musiqa asboblarining puflama musiqiy asboblari turga kiradi.

a) uchburchak, tanbur, ksilofon;

b) surnay, hushtak, garmoshka, truba;

c) gitara, skripka, rubob, tanbur;

d) shaqildoq, marakas, buben, rumba.

49. ... bolalar musiqa asboblarining shovqinli musiqa asboblari turga kiradi.

a) uchburchak, tanbur, ksilofon;

b) surnay, hushtak, garmoshka, truba;

c) gitara, skripka, rubob, tanbur;

d) shaqildoq, marakas, buben, rumba.

50. ... bolalar musiqa asboblarining torli musiqa asboblari turga kiradi.

a) uchburchak, tanbur, ksilofon;

b) surnay, hushtak, garmoshka, truba;

c) gitara, skripka, rubob, tanbur;

d) shaqildoq, marakas, buben, rumba.

51. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa ta'lim-tarbiyasini tashkil qilishda ... ko'rgazmali materiallardan foydalaniladi.

a) 7 ta;



b) 5 ta;

c) 3 ta;

d) 2 ta.

52. Musiqa mashg'ulotlarini rejalashtirishda ... ning ketma-ketligini to'g'ri tuzish kerak.

a) ssenariy va faoliyat turlari;

b) repertuar va faoliyat turlari;

c) reja va faoliyat turlari;

d) loyiha va faoliyat turlari.

53. Bolalar bir mashq davomida ... qo'shiq kuylaydi.

a) 5-6 ta;

b) 4-5 ta;

c) 3-4 ta;

d) 2-3 ta.

54. Musiqa mashg'ulotlari bir yarim yashar bolalarda olib boriladi..

a) 10-13 daqiqa;

b) 10-11 daqiqa;

c) 8-10 daqiqa;

d) 5-7 daqiqa.

55. "I", "E", "A", "O", "U" unlilarini cho'zib aytishga asoslanadigan mashq – bu

a) "K'yu-iks" mashqi;

b) "Tarzan" mashqi;

c) "5 ta unli" mashqi;

d) "Gammalar" mashqi.

56. "I", "E", "A", "O", "U" unlilarini cho'zib aytish va ko'krakka yengil urishga asoslanadigan mashq – bu

a) "K'yu-iks" mashqi;

b) "Tarzan" mashqi;

c) "5 ta unli" mashqi;

d) "Gammalar" mashqi.

57. Lablar yordamida doirani va kulayotgan holatni hosil qilishga asoslanadigan mashq – bu

a) "K'yu-iks" mashqi;

b) "Tarzan" mashqi;

c) "5 ta unli" mashqi;

d) "Gammalar" mashqi.

58. Notalarda "do" dan "do" gacha bo'lgan tovushlarni goh ko'tarib, goho tushirib kuylashga asoslanadigan mashq – bu

a) "K'yu-iks" mashqi;

b) "Tarzan" mashqi;

c) "5 ta unli" mashqi;

d) "Gammalar" mashqi.



59. 3 yoshda ...endi shakllana boshlaydi..

a) ovoz kuchi;

b) ovoz apparati;

c) ovoz diapazoni;

d) tovush paychalari.

60. 4 yoshga kelib ... kuchayadi.

a) tovush;

b) ovoz;

c) nutq tempi;

d) ovoz kuchi.

61. 5 yoshdagi bolalarda diapazon ... oralig'ida kengaydi.

a) re 1 – fa 1;

b) re 1 – sol' 1;

c) re 1 – lya 1;

d) re 1 – si 1.

62. Besh yoshdagi bolalarda diapazon ... oralig'ida kengaydi.

a) re 1 – fa 1;

b) re 1 – sol' 1;

c) re 1 – lya 1;

d) re 1 – si 1.

63. ... – musiqaning mazmuni va xarakterini harakatlar yordamida ochub beradigan musiqiy faoliyat turlaridan biri.

a) jismoniy harakat;

b) ritm;

c) mexanik harakat;

d) dinamik harakat.

64. Musiqiy ohanglarni bir-biridan farqlashni o'rgatish orqali ifodaviy harakat ko'nikmalarini shakllantirish – bu musiqiy ritmning

a) tamoyillari;

b) bosqichlari;

c) vazifalari;

d) maqsadi.

65. Bolalarda musiqiy obrazlarni rivojlantirish, ko'rkam qomatni shakllantirish, musiqiy qobiliyatni rivojlantirish – bular musiqiy ritmning

a) tamoyillari;

b) bosqichlari;

c) vazifalari;

d) maqsadi.

66. Musiqiy ritm ... tomonidan musiqiy ta'lim usuli sifatida asoslandi.

a) Emil Jak-Dalkroze;

b) Mariya Rumer;

- c) Vera Griner;
- d) Elena Konorova.

67. Zamonaviy sharoitda musiqiy-ritmikada qo'llaniladigan jismoniy harakatlar ... ga ajratiladi.

- a) 7 tur;
- b) 5 tur;
- c) 3 tur;**
- d) 2 tur.

68. Xalq orasida hayvonlar va qushlar mavzuidagi ... kabi raqslar ommalashgan.

- a) "O'rmondagi uycha", "Burgut", "Yumronqoziq", "Ot o'yini";
- b) "Yumronqoziq", "Ot o'yini", "Xo'roz o'yini", "Kabutar";
- c) "O'rmondagi uycha", "Burgut", "Xo'roz o'yini", "Kabutar";
- d) "Kaptar o'yini", "Chag'alak", "Yumronqoziq", "Ot o'yini".**

69. Dramalashgan o'yinlar musiqa jo'rligida va ... bilan o'tkaziladi.

- a) jismoniy harakatlar;
- b) qahramonlarning raqslari;**
- c) obrazlarning bellashuvi;
- d) sujetning rivojlanishi.

70. Musiqiy o'yinlar ...ga bo'linadi.

- a) 8 tur;
- b) 6 tur;
- c) 4 tur;
- d) 2 tur.**

71. Cholg'u musiqali o'yinlar ...ga ajratiladi.

- a) aylana raqslar va polkalar;
- b) aylana raqslar va chiqishlar;
- c) sujetli va sujetsiz;**
- d) polkalar va hazil raqslar.

72. Qo'shiq aytiladigan o'yinlar...ga ajratiladi.

- a) aylana raqslar va polkalar;
- b) aylana raqslar va chiqishlar;**
- c) sujetli va sujetsiz;
- d) polkalar va hazil raqslar.

73. Kunning birinchi yarmida o'tkaziladigan tadbir - bu ...

- a) bayram;
- b) ertalik;**
- c) tanlov;
- d) musobaqa.

74. Ertaliklarning kunning birinchi yarmida o'tkazilishi bolalarning ... xususiyatlari bilan bog'liq.

- a) yosh va psixologik;
- b) yosh va individual;



c) yosh va fiziologik;

d) psixologik va individual.

75. ... – tavqimda alohida qayd qilingan sanalar munosabati bilan tashkil qilinadigan tadbir.

a) bayram;

b) ertalik;

c) tanlov;

d) musobaqa.

76. Musiqa, qo'shiqlar, o'yinlar, raqslar, badiiy so'z, kostyumlar, bezatilgan xona, sovg'alar, bayram taassurotlari. Ular ertalik va bayramlarning –

a) ustuvor xususiyatlari;

b) asosiy jihatlari;

c) muhim atributlari;

d) samarali vositalari.

77. Bayram kunlari maktabgacha ta'lim tashkilotdagi menyu ham ... bo'lishi kerak.

a) g'ayrioddiy, hayratomuz;

b) g'ayrioddiy, kamtarona;

c) g'ayrioddiy, shohona;

d) g'ayrioddiy, bayramon.

78. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tadbirlarni rejalashtirish o'quv yilining ... amalga oshiriladi.

a) boshida;

b) yarmida;

c) yakunida;

d) ixtiyoriy ravishda.

79. Ertalik va bayramlarga tayyorgarlik ... bosqichda amalga oshiriladi.

a) 2 ta;

b) 4 ta;

c) 6 ta;

d) 8 ta.

80. Tayyorgarlikni tadbirning o'zidan ... oldin boshlash tavsiya etiladi.

a) 2,5 oy;

b) 2 oy;

c) 1,5 oy;

d) 1 oy.

81. Tadbirdan ...avval tayyorgarlik mashg'ulorlari tashkil qilinadi.

a) 2,5 hafta;

b) 2 hafta;

c) 1,5 hafta;

d) 1 hafta.



82. Kichik guruhlar uchun tadbir ... davom etadi.

a) 30-40 daqiqa;

b) 20-30 daqiqa;

c) 15-20 daqiqa;

d) 10-15 daqiqa.

83. Katta guruhlar uchun tadbir ... davom etadi.

a) 45-60 daqiqa;

b) 30-45 daqiqa;

c) 20-35 daqiqa;

d) 10-15 daqiqa.

84. Tushdan keyin tashkil qilingan tadbir ... davom etadi.

a) 60 daqiqa;

b) 50 daqiqa;

c) 40 daqiqa;

d) 30 daqiqa.

85. Badiiy asar mazmunini dramaturgiya shaklga o'zgartirish – bu ...

a) badiiy asarlarni mutolaa qilish;

b) badiiy asarlarni tahlil qilish;

c) badiiy asarlarni sahnalashtirish;

d) badiiy asarlar o'rganish.

86. Ertaklarni sahnalashtirish, ayniqsa, ... da samarali sanaladi.

a) o'rta guruhda;

b) kichik guruhda;

c) katta guruhda;

d) tayyorlov guruhida.

87. Ertaklarni sahnalashtirishda bolalarni ular bilan tanishtirish – ... maqsad sanaladi.

a) ta'limiy;

b) rivojlantiruvchi;

c) tarbiyaviy;

d) strategik.

88. Bolalarda kattalar bilan hamkorlikda teatr faoliyati ko'nikmalarini rivojlantirish – teatrlashtirilgan faoliyatning ... sanaladi.

a) vositasi;

b) shakli;

c) maqsadi;

d) vazifasi.

89. Ertaklarni sahnalashtirishda tayyorgarlik jarayoni ... bosqichni o'z ichiga oladi.

a) 9 ta;

b) 7 ta;

c) 5 ta;

d) 3 ta.



90. Ertakni o'qishga kirishish ertaklarni sahnalashtirishning ... dir.

a) birinchi bosqichi;

b) ikkinchi bosqichi;

c) uchinchi bosqichi;

d) to'rtinchi bosqichi.

91. Ertakni muhokama qilish ertaklarni sahnalashtirishning ... dir.

a) birinchi bosqichi;

b) ikkinchi bosqichi;

c) uchinchi bosqichi;

d) to'rtinchi bosqichi.

92. Rollarni taqsimlash ... doirasida amalga oshiriladi.

a) birinchi bosqich;

b) ikkinchi bosqich;

c) uchinchi bosqich;

d) to'rtinchi bosqich.

93. Ertaklarni sahnalashtirish ...asosida amalga oshiriladi.

a) reja;

b) dastur;

c) Nizom;

d) davlat talabi.

94. Ertaklarni o'qish va birgalikda tahlil qilish; ertaklardan parcha ijro etish; so'z, stol va ochiq o'yinlar; pantomimik tadqiqotlar va mashqlar – bular ertaklarni sahnalashtirishning ... sanaladi.

a) vositalari;

b) metodlari;

c) shakllari;

d) texnologiyalari.

95. Chodir ichida yoki parda ortida yashiringan aktyor-qo'g'irchoqbozlar tomonidan qo'g'irchoqlar harakatlantiriladigan teatr – bu ...

a) opera teatri;

b) satirik teatr;

c) dramatik teatr;

d) qo'g'irchoq teatri.

96. Qo'g'irchoq teatrining rivojlanish tarixi xususida qarash mavjud.

a) bir xil;

b) ikki xil;

c) uch xil;

d) to'rt xil.

97. Qadimgi yunon olimlarining ma'lumotlariga ko'ra qo'g'irchoq teatri miloddan avvalgi ... da paydo bo'lgan.

a) VII-VIII asrlar;

b) VI-VII asrlar;



c) V-VI asrlar;

d) IV-V asrlar.

98. ...da Peterburg (hozirgi Sankt-Peterburg) shahrida Ye.S.Demmeni rahbarligida Peterburg Qo'g'irchoq teatri ishga tushdi.

a) 1924-yil;

b) 1925-yil;

c) 1926-yil;

d) 1928-yil.

99. Sharqda "Fonus xayol", "Chodir xayol", "Chodir jamol" deb nomlangan teatr – bu ...

a) masxarabozlik;

b) qo'g'irchoq o'yini;

c) soyalar teatri;

d) qo'l qo'g'irchoq.

100. ...da Toshkentda Respublika "Qo'g'irchoq teatri" tashkil etilgan.

a) 1939-yil;

b) 1924-yil;

c) 1931-yil;

d) 1968-yil.

101. O'zbek milliy an'anaviy qo'g'irchoq teatrining asosiy qahramoni – bu

a) Alpomish;

b) Farhod;

c) Nasriddin Afandi;

d) Kachal Polvon.

102. Bugungi kunda qo'g'irchoq teatrlarining ... turlari mavjud.

a) 10 dan ortiq;

b) 20 dan ortiq;

c) 30 dan ortiq;

d) 40 dan ortiq.

103. Qo'g'irchoqlari karton, plastik, yog'och va boshqa materiallardan hajmli qilib yasalmaydigan teatr – bu

a) Konus va silindrli qo'g'irchoqlar teatri;

b) Diskli qo'g'irchoqlar teatri;

c) Yassi qo'g'irchoqlar teatri;

d) Qutidagi qo'g'irchoqlar teatri.

104. Qo'g'irchoqlari xuddi qo'lqop shaklida bo'lgan teatr – bu

a) "Konus va silindrli qo'g'irchoqlar teatri";

b) "Diskli qo'g'irchoqlar teatri";

c) "Barcha barmoqlarga kiyiladigan qo'g'irchoqlar teatri";

d) "Qutidagi qo'g'irchoqlar teatri".

105. Ijrochi bolalarning yuzlari ko'riib turadigan teatr – bu

a) "Tantamareski teatr";



b) "Geometrik shakldagi qo'g'irchoqlar teatri";

c) "Kitobcha-teatr";

d) "Marionetka teatri".

106. Bolalarning bo'yi barobar qo'g'irchoqlar yordamida rollar ijro qiladigan teatr

- bu ...

a) "Tantamareski teatr";

b) "Geometrik shakldagi qo'g'irchoqlar teatri";

c) "Kitobcha-teatr";

d) "Marionetka teatri".

107. Qo'g'irchoq teatri tashkil etiladigan, atrofi mato bilan o'ralgan sahna - bu ...

a) amfiteatr;

b) shirma;

c) arena;

d) gesh cahna (sahna oldi).

108. Shirmaning balandligi va uzunligi tegishli ravishda ... sm bo'ladi.

a) 70/100;

b) 60/90;

c) 50/80;

d) 40/70.

109. Pahmoq qo'g'irchoqlar yordamida ertaklarni sahnalashtirish... dan iborat.

a) 5 bosqich;

b) 4 bosqich;

c) 3 bosqich;

d) 2 bosqich.

110. Pahmoq ekran (kovralin) ... diametrga ega.

a) 40/60;

b) 30/50;

c) 20/40;

d) 10/30.

111. 1) qahramonning to'liq holdagi figurasi; 2) qahramonning faqatgina bosh qismi obrazi. Ular stol teatri uchun qo'g'irchoqlarni yasash

a) shakllari;

b) metodlari;

c) vositalari;

d) usullari.

112. Sakrovchi o'yinchoqlarni yasashda zarur bo'lgan eng muhim xomashyo - bu....

a) to'quv iplari;

b) qog'oz uyumlari;

c) dumaloq rezina;

d) yumshoq paxta.

113. Qo'lqop qo'g'irchoqlarini yasashda katta barmoq ... vazifasini bajaradi.

a) oyoq;



b) qo'l;

c) yuz;

d) dum.

114. Stol teatrida stolning ... bolalar uchun tomosha sahna bo'ladi.

a) yuzasi;

b) oyoq;

c) yon tomoni;

d) cheti.

115. Stol teatrining ... turi mavjud.

a) 7 ta;

b) 5 ta;

c) 3 ta;

d) 2 ta.

116. Sahnadagi ...ning ko'pligi spektaklni qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi.

a) tomoshabinlar;

b) dekoratsiyalar;

c) personajlar;

d) harakatlar.

117. Karton teatrlarida kartondan yasalgan ... qo'g'irchoqlar ishtirok etadi.

a) yassi va hajmli;

b) yassi va hajmsiz;

c) yumaloq va hajmli;

d) yumaloq va hajmsiz.

118. Barmoq teatri qahramonlari ... dan yasaladi.

a) sim va qattiq mato;

b) sim va yumshoq mato;

c) qog'oz va yumshoq mato;

d) qog'oz va qattiq mato.

119. Bolalar va o'smirlar (15-16 yoshgacha bo'lganlar) uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop va publisistik asarlar majmui – bu ...

a) jahon adabiyoti;

b) kattalar adabiyoti;

c) bolalar adabiyoti;

d) o'zbek adabiyoti.

120. Astrid Lindgrenning "Karlson va Mittivoy" asari – ... ning namunasi.

a) jahon adabiyoti;

b) rus adabiyoti;

c) o'zbek adabiyoti;

d) qirg'iz adabiyoti.

121. ... o'rta asr bolalar adabiyotining namunasi sanaladi.

a) Zahiriddin Boburning "Boburnoma" asari;

b) Kaykovusning "Qobusnoma" asari;

c) Muqimiyning "Sayohatnoma" asari;



d) Gulbadanbegrinning "Xumoyunnoma" asari.

122. "Tabiat alifbosi" asarining muallifi -

- a) Xudoyberdi To'xtaboyev;
- b) Zafar Diyor;
- c) Nazir Safarov;

d) Quddus Muhammadiy.

123. Bolalar adabiyotlari, oilaviy o'qish, mashg'ulotlar, o'yinlar, maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligi, audio kitoblarni birgalikda tinglash. Ular bolalarni badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish ... sanaladi.

a) omillari;

- b) shakllari;
- c) metodlari;
- d) vositalari.

124. ... - cho'ntaklariga turli rasm, applikasiya, tikish-to'qish ishlari va mayda yumshoq o'yinchoqlar solingan kitoblar.

- a) muziqali kitoblar;
- b) audio-kitoblar;

c) taktil kitoblar;

d) yumshoq kitoblar.

125. O'yinchoq, kesik, yumshoq va manzarali (panorama) kitoblar - ... uchun mo'ljallangan.

- a) o'spirin yoshidagi bolalar;
- b) o'smir yoshidagi bolalar;

c) maktabgacha ta'lim yoshi bolalari;

d) o'rta maktab yoshi bolalari.

126. Badiiy asarlarni ovozashtirish va ovoz tashuvchi vositalar yordamida tarqatishga xizmat qiluvchi kitoblar - ... dir.

a) audio kitoblar;

- b) taktil kitoblar;
- c) taqdimot kitoblar;
- d) elektron kitoblar.

127. ... - kichik hajmli folklor asarlarni o'z ichiga olgan xalq ijodiyoti.

- a) nasriy asarlar;
- b) fantastik asarlar;
- c) sarguzasht asarlar;

d) bolalar folklori.

128. Alla, ertak, ermaklar, qochirimlar, tez aytish, topishmoq, bolalar o'yin qo'shiqlari, erkalama, masxaralamalar, sanamalar. Ular o'zbek bolalar folklorining

- a) janr vositalari;
- b) janr turlari;**
- c) janr shakllari;
- d) janr metodlari.



129. ... – bolalar tomonidan nutqning adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda ifodalanishi.

- a) nutq boyligi;
- b) nutq madaniyati;**
- c) nutqning to'g'riligi;
- d) nutqning ifodaviyligi.

130. Nutq ma'nosini tushunish bola tomonidan nutqning leksik va grammatik qonuniyatlarining o'zlashtirilishiga bog'liq. Ushbu fikr bolalarda nutq madaniyatini rivojlantirish ... ni ifodalaydi.

- a) tamoyili;
- b) qoidasi;
- c) qonuniyati;**
- d) talabi.

131. Faqat oddiy jumalardan iborat monologik nutq, yomon nutq, monologni tuza olmaslik, yomon diksiya. Bular – maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatining rivojlanishidagi ...

- a) xatolar;
- b) nuqsonlar;
- c) kamchiliklar;
- d) muammolar.**

132. A.N.Gvozdev ohanglarni ... turga ajratiladi.

- a) 6 ta;**
- b) 7 ta;
- c) 8 ta;
- d) 9 ta.

133. Bolalarda nutqni tinglash qobiliyatini, artikulyatsiya apparatini, nutqiy nafas olishni rivojlantirish, ovoz ustida ishlash. Bular – nutqning tovush madaniyatini rivojlantirishning

- a) asosiy tamoyili;
- b) asosiy omillari;
- c) asosiy yo'nalishlari;**
- d) asosiy bosqichlari.

134. Nutq a'zolari: lab, til, pastki jag', og'izning yumshoq yuqori qismi, qizilo'ngach) ning tovush hosil qilishdagi harakati va holati – bu ...

- a) diapazon;
- b) intonatsiya;
- c) diksiya;
- d) artikulyatsiya.**

135. Ovoz kuchi, ovoz balandligi, ovoz tembri, ovozning ohangdorligi, ovozning "uchqurligi", ovozning harakatchanligi, ovoz ohangi. Ular – ...

- a) ovoz dinamikasi;
- b) ovoz xususiyatlari;**
- c) ovoz registri;



d) ovoz diapazoni.

136. O'qish faoliyati ...da amalga oshiriladi.

a) uch bosqich;

b) to'rt bosqich;

c) besh bosqich;

d)olti bosqich.

137. Maxsus materiallar, tasviriy vositalar yordamida borliqdan olingan taassurotlarni hamda unga nisbatan munosabatni ifodalovchi badiiy-ijodiy faoliyat – bu....

a) ijodiy faoliyat;

b) ijtimoiy faoliyat;

c) tasviriy faoliyat;

d) estetik faoliyat.

138. Chizish, yasash, modellashtirish, qurish-yasash. Ular – bolalar tasvirish faoliyatining

a) muhim vazifalari;

b) ustuvor tamoyillari;

c) yetakchi g'oyalari;

d) asosiy yo'nalishlari.

139. Turli qalam, buyoq, flomaster, guash va boshqalardan turli tasvirlarni hosil qilish – bu ...

a) chizish;

b) yasash;

c) modellashtirish;

d) qurish-yasash.

140. Kub, lego, yog'och va boshqa materiallardan muayyan predmet (masalan, uy, ko'prik, yo'l va boshqalar)ni konstruksiyalash – bu ...

a) chizish;

b) yasash;

c) modellashtirish;

d) qurish-yasash.

141. O'rta guruhlarda tasviriy faoliyat mashg'ulotlari ... davom etadi.

a) 10-15 daqiqa;

b) 15-20 daqiqa;

c) 20-25 daqiqa;

d) 30-35 daqiqa.

142. Katta guruhlarda tasviriy faoliyat mashg'ulotlari ... davom etadi.

a) 10-15 daqiqa;

b) 15-20 daqiqa;

c) 20-25 daqiqa;

d) 30-35 daqiqa.



143. Borliqni tasavvur qilishda bolalarga yordam berish ularni tasviriy faoliyatga o'rgatishning asosiy ... sanaladi.

a) maqsadi;

b) vazifasi;

c) sharti;

d) g'oyasi.

144. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlar ... dan iborat bo'ladi.

a) besh bosqich;

b) to'rt bosqich;

c) uch bosqich;

d) ikki bosqich.

145. Naturadan, namunadan va rasmlardan foydalanish. Ular rasm mashg'ulotlarida foydalaniladigan asosiy

a) shakllari;

b) metodlari;

c) usullari;

d) vositalari.

146. Tasvir obyektni kuzatish, passiv harakatlar, tasvirning yo'llarini ko'rsatish hamda obrazli vaziyatlarni yaratish. Ular rasm mashg'ulotlarida foydalaniladigan asosiy

a) shakllari;

b) metodlari;

c) usullari;

d) vositalari.

147. Mazmunli rasm chizish va dekorativ rasm chizish. Ular tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida rasm chizishning asosiy ...

a) turlari;

b) shakllari;

c) ko'rinishlari;

d) obrazlari.

148. Bo'yash uchun ishlatiladigan modda, bo'yoq - bu....

a) kolorit;

b) rang;

c) fon;

d) mast.

149. Rang berish, bo'yoq surtib bezashdan iborat xatti-harakat, faoliyat - bu....

a) albinizm;

b) bezash;

c) bo'yash;

d) tus berish.



150. Rangli qalamlar, barmoq bo'yog'i, akvarel, guash, cho'tkalar, suv idishi, molbert. Ular -

- a) bo'yash omillari;
- b) bo'yash shakllari;
- c) bo'yash turlari;

d) bo'yash vositalari.

151. Ko'k, qizil, sariq. Ular -

a) qo'shimcha ranglar;

b) asosiy ranglar;

- c) aralash ranglar;
- d) alohida ranglar.

152. Yashil, zarg'aldoq, siyohrang (binafsha). Ular -

a) qo'shimcha ranglar;

b) asosiy ranglar;

- c) aralash ranglar;
- d) alohida ranglar.

153. Jigarrang, pushti, qizil, to'q sariq, sariq. Ular -

a) qo'shimcha ranglar;

b) asosiy ranglar;

c) sovuq ranglar;

d) issiq ranglar.

154. Yashil, binafsha, ko'k, ochiq ko'k, kulrang.. Ular -

a) qo'shimcha ranglar;

b) asosiy ranglar;

c) sovuq ranglar;

d) issiq ranglar.

155. Qizil, zarg'aldoq, sariq, yashil, havorang, ko'k, binafsha (siyoh)rang. Ular -

a) qo'shimcha ranglar;

b) asosiy ranglar;

c) kamalakning ranglari;

d) issiq-sovuq ranglar.

156. Emotsional munosabat, badiiy so'z, pedagogik drama, raqs, teatr faoliyat, o'yin. Ular - bolalarning tasviriy faoliyatida tayaniladigan ...

a) omillar;

b) vositalar;

c) shakllar;

d) tamoyillar.

157. Do'ppi, joynamoz, zardevor, palak, kirpech, so'zana, choyshab. Ular - kashtachilikda qo'llaniladigan bezak buyumlarining

a) asosiy omillari;

b) asosiy vositalari;

c) asosiy shakllari;



d) asosiy turlari.

158. Mato, qog'ozga rang-barang gazlama, qog'oz parchalarini yopishtirib yoki tiqib naqsh solish metodi qanday nomlanadi?

a) applikatsiya;

b) mozaika;

c) ornament;

d) kombinatsiya.

159. Rangli qog'oz, yog'och kukuni, somon, tuxum po'chog'i, terak puxi, o'simlik bargi, o'simlik urug'i va b. Ular nima?

a) applikatsiya turlari;

b) applikatsiya metodlari;

c) applikatsiya xomashyolari;

d) applikatsiya mavzulari.

160. Aniq predmetlarni aks ettiruvchi applikatsiya – bu ...

a) mazmunli applikatsiya;

b) predmetli applikatsiya;

c) dekorativ applikatsiya;

d) kantli dekorativ applikatsiya.

161. Ma'lum sujet-mavzuga asoslangan applikatsiya – bu ...

a) mazmunli applikatsiya;

b) predmetli applikatsiya;

c) dekorativ applikatsiya;

d) kantli dekorativ applikatsiya.

162. ... – bezak, ziynat maqsadlarida yaratilib, badiiy xarakter kasb etadigan applikatsiya.

a) mazmunli applikatsiya;

b) predmetli applikatsiya;

c) dekorativ applikatsiya;

d) kantli dekorativ applikatsiya.

163. Qaychi, yelim, mo'yqalam, yelim uchun mo'yqalam, oddiy qalam, qirqim uchun quticha. Ular – bezak, ziynat maqsadlarida yaratilib, badiiy xarakter kasb etadigan applikatsiya.

a) applikatsiya xomashyolari;

b) applikatsiyada qirqish usullari;

c) applikatsiya namunalari;

d) applikatsiyada foydalaniladigan asbob-uskunalar.

164. Geometrik shakllarni qirqish, qog'ozni ikki buklab qirqish, kontur asosida qirqish, qismlar asosida buklab qirqish, siluet (chamalab) qirqish, qo'lda yirtish. Ular

.... –

a) applikatsiya xomashyolari;

b) applikatsiyada qirqish usullari;

c) applikatsiya namunalari;



d) applikasiyada foydalaniladigan asbob-uskunalar.

165. Rangi bo'yicha applikasiyalarning asosiy turga ajratiladi.

- a) 8 ta;
- b) 6 ta;
- c) 4 ta;

d) 2 ta.

166. Rangli qog'ozdan, somondan, terak puxidan, o'simlik bargidan, o'simlik urug'idan, mato (charm) qoldiqlaridan, qumdan va boshqa applikasiya. Ular - ... applikasiya turlari.

a) rangi bo'yicha;

b) tayyorlangan xomashyoga ko'ra;

c) mazmuniga ko'ra;

d) predmetlar soniga ko'ra.

167. ... - yog'ochdan tayyorlangan uch oyoqli moslama, taglik.

a) molbert;

b) mo'yqalam;

c) siluet;

d) shirma.

168. ... - turli xil materiallar: shisha, tosh va boshqalardan yasalgan kichik san'at asari.

a) molbert;

b) mo'yqalam;

c) mozaika;

d) shirma.

169. Miloddan avvalgi IV asrga oid mozaikadan foydalanishning dastlabki namunalari ... da topilgan.

a) Florensiya;

b) Mesopotamiya;

c) Vizantiya;

d) Rossiya.

170. Shisha, smalt, sopol (keramika), tosh, metall va yog'ochdan yasalgan mozaika. Ular - zamonaviy mozaikaning ...

a) materiallari;

b) shakllari;

c) turlari;

d) ko'rinishlari.

171. Bolalar bilan mozaika yashash ... da kechadi.

a) besh bosqich;

b) to'rt bosqich;

c) uch bosqich;

d) ikki bosqich.



172. Bolalarda ijodiy faoliyat ko'nikma, malakalarini shakllantirish va izchil ravishda rivojlantirish. Bu – bolalarni ijodiy faoliyatga o'rgatishning ... sanaladi.

- a) tamoyillari;
- b) vazifalari;
- c) maqsadi;**
- d) omillari.

173. Bolalarga badiiy-estetik xarakterdagi buyumlarni tayyorlash texnologiyasini hamda buyumlar yasash jarayonida oddiy asboblardan foydalanishga o'rgatish, . Bu – bolalarni ijodiy faoliyatga o'rgatishning ... sanaladi.

- a) tamoyillari;
- b) vazifalari;**
- c) maqsadi;
- d) omillari.

174. ... – ijodiy mahsulotni qaratishga yo'naltirilgan faoliyat.

- a) ijodiy faoliyat;**
- b) ijtimoiy faoliyat;
- c) mehnat faoliyati;
- d) estetik faoliyat.

175. Badiiy-estetik qimmatga ega mahsulot – bu

- a) ijodiy mahsulot;**
- b) ilmiy mahsulot;
- c) texnik mahsulot;
- d) texnologik mahsulot.

176. "Pape-mashe" tushunchasi ... degan ma'noni anglatadi.

- a) "karton qog'oz";
- b) "tashlandiq qog'oz";
- c) "g'ijimlangan qog'oz";**
- d) Xitoy qog'ozi.

177. Xamir, kraxmal yoki yelimga bo'laklangan qog'oz aralashtirib plastilinga o'xshash massa – bu

- a) yelim;
- b) kleyster;**
- c) smola;
- d) emulsiya.

178. Pape-mashe usuli da paydo bo'lgan.

- a) Yaponiya;
- b) Rossiya;
- c) Fransiya;
- d) Xitoy.**

179. Zamonaviy sharoitda rape-mashe texnologiya asosida tayyorlanadi.

- a) besh xil;
- b) to'rt xil;



c) uch xil;

d) ikki xil.

180. Gazeta, papirus qog'ozi, qaychi, qog'oz uchun ishlatiladigan idish, bitta likopcha, uchta chashka, pufak, arqon. Ular rape-mashe usulida osma kosacha tayyorlash uchun kerak bo'ladigan

a) sharoitlar;

b) ashyolar;

c) imkoniyatlar;

d) mablag'lar.

181. Pape-mashe usulida "Sovg'a" o'yinchog'ini tayyorlash ...da kechadi.

a) 13 bosqich;

b) 10 bosqich;

c) 6 bosqich;

d) 3 bosqich.

182. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiiy materiallardan o'yinchoqlar yasash bolalarniga o'rgatadi.

a) tabiatni sevish;

b) insonni sevish;

c) hayvonlarni sevish;

d) o'simliklarni sevish.

183. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashlandiq materiallardan o'yinchoqlar yasash bolalarni o'rgatadi.

a) ziqnalikka;

b) boy bo'lishga;

c) tejamkorlikka;

d) isrofgarchilikka.

ZUXRA RADJAPOVA

BOLALAR SAN'ATI

(Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma)

Toshkent – “.....” – 2022

Muharrir	S.Alimbayeva
Tex. muharrir	A.Ergashev
Musavvir	A.Shushunov
Musahhiha	L.Ibragimov
Sahifalovchi	Sh.Sirojiddinov

.25.05.2022-yilda bosishga ruxsat etildi.

Qog'oz bichimi 70x100^{1/16}. «Cambria» garniturasida.
Shartli bosma tabog'i 18,75. Adadi 100 nusxa.
Buyurtma raqami № 136. Bahosi shartnoma asosida.

«.....» bosmaxonasida chop etildi.
100174, Toshkent shahri,
Tel.: +998999209035 e-mail: nashr2019@inbox.ru